Kalit so‘zlar: kreditga layoqatlilik, kompleks tahlil, sifat ko‘rsatkichlari, miqdoriy ko‘rsatkichlar, kreditga layoqatlilik guruhlari, skoring modeli.

Abstract: The article describes the method of complex analysis in assessing creditworthiness and its specifics. A comprehensive analysis methodology has been developed that allows for an accurate, reliable and comprehensive assessment of creditworthiness, and its advantages have been demonstrated. The method of complex analysis of creditworthiness assessment represents the order of assessment by dividing it into four groups using the scoring system based on the quantitative and qualitative indicators of the business entity. This methodology includes analysis of the business entity's industry characteristics and product competitiveness, analysis of the economic potential of the enterprise, analysis of the financial situation, analysis of the enterprise's financial results, evaluation of the enterprise's management and organization and business reputation, the analysis of the indicators related to the credit risk of the enterprise and the analysis of indicators related to cash flows. includes. The method of comprehensive analysis of creditworthiness assessment represents the procedure of evaluating the economic entity by dividing it into four groups using a point system for quantitative and qualitative indicators. The application of the complex analysis methodology allows to minimize the credit risk through a comprehensive assessment of the creditworthiness of economic entities based on quantitative and qualitative indicators.

Key words: creditworthiness, complexity, complex analysis, qualitative indicators, quantitative indicators, creditworthiness groups, scoring system.

Аннотация: В статье раскрыты особенности комплексного анализа при оценке кредитоспособности. Разработана методология комплексного анализа, позволяющая правильно, надёжно и всесторонне оценивать кредитоспособность, и показаны её преимущества. Методика комплексного анализа кредитоспособности хозяйствующих субъектов реализуется посредством использования качественных и количественных показателей. Данная методика охватывает анализ отраслевых особенностей и конкурентоспособности продукции хозяйствующего субъекта, его экономического потенциала, финансового состояния, финансовых результатов, уровня управления и организаторских способностей, деловой репутации, а также показателей, связанных с кредитным риском и денежными потоками. Комплексный анализ кредитоспособности предполагает распределение хозяйствующих субъектов на четыре группы на основе системы баллов, учитывающей количественные и качественные показатели. Применение данной методики создаёт возможность комплексной оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов на основе финансовых и нефинансовых показателей и способствует минимизации кредитного риска.

Ключевые слова: кредитоспособность, комплексный анализ, качественные показатели, количественные показатели, группы кредитоспособности, скоринговая модель.

KIRISH

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar oshirish va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan yuqoriga ko‘tarish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish ko‘zda tutilmoqda[1]. Iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashda iqtisodiyotimiz lokomotivi bo‘lgan banklarning o‘rni muhimdir. Hozirda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji asosan bank kreditlari hisobiga qondirilmoqda. Bank kreditlaridan samarali foydalanish xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun ham, banklar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bank kreditlarini jalb qilishda mijozning kreditga layoqatliligini aniq va to‘g‘ri baholash ikki tomon uchun ham birdek manfaatlidir.

Respublikamiz va xorijiy amaliyotda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashda turli usul va metodlardan foydalanib kelinmoqda. Barcha usul va metodlarning yakuniy natijasi xo‘jalik subyektlarining kreditga layoqatliligini aniq va ishonchli baholashga qaratilgan. Ushbu usul va vositalar ichida eng ishonchlisi kompleks tahlil metodikasi hisoblanadi. Mavjud tahlil usullari korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining ayrim tomonlarini ko‘rsatib bera oladi, biroq faqat kompleks tahlil korxonaning kreditga layoqatliligini to‘liq baholash imkonini beradi[2]. Moliyaviy faoliyatning kompleks iqtisodiy tahlili moliyalashtirish masalalari, korxonaning moliyaviy (joriy va istiqbolli) holati hamda barcha moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan[3]. Demak, kompleks tahlil metodi xo‘jalik yurituvchi subyektning kreditga layoqatliligini to‘liq va keng qamrovli baholash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlilining nazariy, metodologik va amaliy muammolari bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. Biroq kreditga layoqatlilikni baholashda kompleks tahlilning yagona tartibi ishlab chiqilmaganligi ushbu mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Polyakov (2018) ishida kreditga layoqatlilikni baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlarga ko‘proq e’tibor qaratib, koeffitsiyentlar usulidan foydalanishni tavsiya etgan. Kreditga layoqatlilikni baholashda nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish ham muhim hisoblanadi.

Turdiyeva (2020) ilmiy maqolasida kreditga layoqatlilikni baholashda kompleks tahlil orqali keng qamrovli va aniq baholash mumkinligini ta’kidlab, bunda moliyaviy hamda nomoliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanish zarurligini nazariy jihatdan asoslab bergan.

Raximov (2019) ishida korxonalar olingan kreditni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarishi, ya’ni kreditga layoqatliligini belgilashda moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish muhimligini ta’kidlagan.

Melnikov (2013) ilmiy maqolasida korxonaning kreditga layoqatliligini baholashda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan barcha kompaniyalar guruhi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish zarurligini asoslagan.

Daniela Feschijan (2008) maqolasida esa kreditga layoqatlilikni baholashda buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanib qarz oluvchining joriy kredit qobiliyatini aniqlash va mavjud tendensiyalarni prognoz qilish zarurligi ilgari surilgan.

Yuqoridagi ilmiy ishlarda keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, kreditga layoqatlilikni baholashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- korxonaning kreditga layoqatliligi bilan bog‘liq miqdoriy ko‘rsatkichlarni o‘rganish;
- nafaqat moliyaviy, balki nomoliyaviy jihatlarga ham e’tibor qaratish;
- kreditga layoqatlilikni baholashda muhim sifat ko‘rsatkichlarini ham o‘rganish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borish va natijalarini asoslash maqsadida mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, taqqoslash hamda guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektning kreditga layoqatliligini tahlil qilish komplekslik, tizimlilik, obyektivlik, samaradorlik, ehtiyotkorlik va aniqlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Komplekslik tamoyili — tahlil qilinayotgan obyektning barcha birliklari, bo‘g‘inlari va tomonlarini hisobga olish hamda ularning o‘zaro bog‘liqliklarini atroflicha o‘rganishni taqozo qiladi[4]. Bundan ko‘rinadiki, kompleks tahlil metodi xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining barcha omillarini har tomonlama tahlil qilish orqali kreditni (asosiy qarz va foizi) o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish layoqatini baholash imkonini beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlil metodikasi sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika xo‘jalik yurituvchi subyektning tarmoq xususiyati va mahsuloti raqobatbardoshligi, korxonaning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish, moliyaviy holatini baholash, moliyaviy natijalarini tahlil qilish, korxonaning boshqaruv va tashkiliy salohiyatini, biznes obro‘sini, shuningdek kredit riski va pul oqimlari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganishni o‘z ichiga qamrab oladi (1-jadval).

1-jadval. Xo‘jalik yurituvchi subyektning kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlil metodikasi ko‘rsatkichlari

Modul	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari
Xo‘jalik yurituvchi subyektning tarmoq xususiyati va mahsuloti raqobatbardoshligi	Korxonaning bozordagi ulushi, korxona faoliyatiga innovatsiyani joriy etilish darajasi; Tovarlarning xilma-xilligi, yuqori qo‘shilgan qiymat va yuqori sifatga egaligi, sotish servisi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va talab mavjudligi; Tarmoq va mintaqada xorijiy raqobatdosh korxonaning mavjudligi.
Xo‘jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish	Mehnat unumdorligi; Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti; Fond qaytimi; Material qaytimi; Innovatsion mahsulot ulushi; Korxonaning raqobatda ustun jihatlari.
Korxonaning moliyaviy holatini tahlili	O‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi(O‘zAMM); To‘lov qobiliyati koeffitsiyenti; Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti; Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti; Balans likvidligi; Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi.
Korxonaning moliyaviy natijalari tahlili	Mahsulot sotishdan sof tushum rejasining bajarilishi; Sotish rentabelligi; Aktivlar rentabelligi; Sof foyda normasi; Xarajat va daromad nisbati;
Korxonaning boshqarish va tashkilotchiligi, biznes obro‘siga baho berish	Ta’sischilarni korxona faoliyatiga ta’sir qilish qobiliyati; Korxonani qo‘llab-quvvatlovchi korxonalarning mavjudligi; Korxona rahbari va rahbar hodimlarning boshqarish qobiliyati va tashkilotchiligi; Kadrlar almashinuvi darajasi; Korxona faoliyatini tashkiliy-tuzilmaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi; Korxonaning soha va tarmoqdagi o‘rni, bozordagi obro‘si va brendining taniqliligi.

Korxonaning kredit riski bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari	Korxonaninig kredit tarixi(olingan kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarishi); Kredit ta’minoti (yuqori likvidli avtivlar bilan ta’minlanganligi, kafilning moliyaviy ahvoli barqarorligi, sug‘urta polisi kreditni to‘liq qamrab olganlik darajasi); Loyihaning realligi (bankning kredit siyosati talablariga mos kelishi va asoslangan axborotlarga egaligi, loyihani amalga oshirish imkoniyati mavjudligi, korxonada kompetent xodimlar yetarliligi, qulay tabiiy sharoit, yetarli infrastruktura va kommunal xizmatlar mavjudligi).
Pul oqimlari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili	Pul mablag‘lari tushumi va sarflanishini mavsumiylik va sikllar bo‘yicha bir xilligi; Cotishdan pul tushumi rentabelligi; Cof pul oqimi etarligi koeffitsienti; Majburiyatlarni qaytarish muddati(kun hicobida); Pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsienti.

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlil metodologiyasini kreditorning zaruriy talablariga moslashtirish uchun har bir ko‘rsatkichning xususiyatidan kelib chiqib, ball tizimi asosida baholashni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz. Agar miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lsa, ular interval oralig‘idan kelib chiqib ball bilan baholanadi, sifat ko‘rsatkichlari esa ularning mazmunidan kelib chiqib baholanadi.

Sifat ko‘rsatkichlari — miqdoriy ko‘rsatkichlar vositasida aniqlab bo‘lmaydigan, lekin mazkur masala uchun muhim bo‘lgan jihatlarni sezish va tushunish yordamida baholanadigan hamda qaror qabul qilish uchun asos bo‘ladigan ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, sifat ko‘rsatkichlariga baho berishda mutaxassisning ongli va puxta yondashuvi talab etiladi (2-jadval).

2-jadval. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlil metodikasi

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlar holati va interval oralig‘i	Ball
Xo‘jalik yurituvchi subyektning tarmoq xususiyati va mahsuloti raqobatbardoshligi		
Korxonaning bozordagi ulushi	Korxona bozor yetakchilaridan biri hisoblanadi	3
	Korxonaning bozordagi ulushi o‘rtacha	2
	Korxonaning bozordagi ulushi past	1
Korxona faoliyatiga innovatsiyani joriy etilish darajasi	Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi yuqori	3
	Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha	2
	Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi past	1
Tovarlarning raqobatbardoshlik darajasi	Tovarlarning xilma-xilligi, yuqori qo‘shilgan qiymat va yuqori sifatga egaligi, sotish servisi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va talab yuqoriligi	3
	Tovarlarning xilma-xilligi, sifati o‘rtacha, sotish servisi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, talab mavjud	2
	Tovarlarning turi kamligi, sifati yuqori, sotish servisi yo‘lga qo‘yilgan, talab kam	1
Tarmoq va mintaqada xorijiy raqobatdosh korxonaning mavjudligi	Xorijiy kompaniyalar mavjud emas	3
	Qarz oluvchiga raqobatdosh xorijiy kompaniyalar mavjud	2
	Raqobatda ustun yetakchi xorijiy kompaniyalar mavjud	1
Xo‘jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish		
Mehnat unumdorligi	Yuqori, tarmoq o‘rtachasidan yuqori, o‘sish tendensiyasiga ega	3
	O‘rtacha, tarmoq o‘rtachasiga teng, o‘sish tendensiyasi yo‘q	2
	Past, tarmoq o‘rtachasidan past, pasayish tendensiyasiga ega	1
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (K_e)	K_e < 20%	3
	20% < K_e < 50%	2
	K_e > 50%	1
Fond qaytimi[5]	Tarmoq o‘rtachasidan yuqori	3
	Tarmoq o‘rtachasiga teng	2
	Tarmoq o‘rtachasidan past	1

Material qaytimi (M_q)	$M_q > 2$	3
	$1 < M_q < 2$	2
	$M_q < 1$	1
Korxonaning moliyaviy holatini tahlili		
O‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi(O‘zAMM)	O‘zAMM > TMZ(tovar-moddiy zahira)	3
	O‘zAMM mavjud	2
	O‘zAMM mavjud emas	1
Qoplash koeffitsiyenti[5](K_q)	$K_q > 2$	3
	$1 < K_q < 2$	2
	$K_q < 1$	1
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti[5] (K_m)	$K_m > 0,6$	3
	$0,3 < K_m < 0,6$	2
	$K_m < 0,3$	1
Tovar-moddiy zahiralar aylanuvchanligi(A_{tmz})	$A_{tmz} > 8$	3
	$4 < A_{tmz} < 8$	2
	$A_{tmz} < 4$	1
Korxonaning moliyaviy natijalari tahlili		
Sotish rentabelligi(R_c)	$R_c > 40\%$	3
	$ID < R_c < 40\%$	2
	$R_c <$ ID(inflasiya darajasi)	1
Aktivlar rentabelligi[5](R_a)	$R_a > 20\%$	3
	$ID < R_a < 20\%$	2
	$R_a <$ ID(inflasiya darajasi)	1
Sof foyda normasi (R_{sf})	$R_{sf} > 20\%$	3
	$ID < R_{sf} < 20\%$	2
	$R_{sf} <$ ID(inflasiya darajasi)	1
Xarajat va daromad nisbati[5](XD_n)	$XD_n < 0,75$	3
	$0,75 < XD_n < 1$	2
	$XD_n > 1$	1
Korxonaning boshqarish va tashkilotchiligi, biznes obro‘siga baho berish		
Korxonani qo‘llab-quvvatlovchi korxonalarning mavjudligi	Korxonani qo‘llab-quvvatlovchi korxona ikkitadan ortiq	3
	Korxonani qo‘llab-quvvatlovchi korxona ikkitagacha	2
	Korxonani qo‘llab-quvvatlovchi korxona mavjud	1
Korxona rahbari va rahbar hodimlarining boshqarish qobiliyati va tashkilotchiligi	Boshqarish qobiliyati va tashkilotchiligi a’lo darajada	3
	Boshqarish qobiliyati va tashkilotchiligi o‘rta darajada	2
	Boshqarish qobiliyati va tashkilotchiligi past darajada	1
Kadrlar almashinuvi darajasi[5](K_{ad})	$K_{ad} < 0,5$	3
	$0,5 < K_{ad} < 1$	2
	$K_{ad} > 1$	1
Korxonaning soha va tarmoqdagi o‘rni, bozordagi obro‘si va brendining taniqliligi	Korxonaning soha va tarmoqdagi o‘rni yuqori, bozordagi obro‘si yuqori, brendi taniqli	3
	Korxonaning soha va tarmoqdagi o‘rni o‘rtacha, bozorda o‘z obro‘siga ega, brendi xaridorlarga tanish	2
	Korxonaning soha va tarmoqdagi o‘rni sezilarli ahamiyatga ega emas, brendi xaridorlarga tanish emas	1
Korxonaning kredit riski bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari		

Korxonaninig kredit tarixi(olingan kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarishi)	3 yildan ortiq muddatda banklar, jumladan mijoz bankdan olingan kreditlarni(asosiy va foizi) o‘z vaqtida va to‘liq to‘lagan	3
	3 yilgacha muddatda banklar, jumladan mijoz bankdan olingan kreditlarni(asosiy va foiz) o‘z vaqtida va to‘liq to‘lagan	2
	Oxirgi 3 yilda banklar, jumladan mijoz bankdan olingan kreditlarni(asosiy va foiz) belgilangan muddatlardan kechikib yoki qisman to‘lagan	1
Kredit ta’minoti (yuqori likvidli avtivlar bilan ta’minlanganligi, kafilning moliyaviy ahvoli barqarorligi, sug‘urta polisi kreditni to‘liq qamrab olganlik darajasi)	Ta’minot zamonaviy, yuqori likvidli, yetarli, egalik huquqi korxonaga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli mutloq barqaror. Sug‘urta polisi kreditni to‘liq qoplagan va to‘liq davrga olingan	3
	Ta’minot yangi, likvidli, yetarli, egalik huquqi korxonaga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli barqaror. Sug‘urta polisi kreditni 50%ini qoplagan va davrning 50% olingan.	2
	Ta’minot 50%dan ko‘p eskirgan, likvidli emas, yetarli emas, egalik huquqi korxonaga tegishli emas. Kafilning moliyaviy ahvoli nobarqaror. Sug‘urta polisi kreditni 25% dan kam qamragan va davrning 25%dan kam olingan.	1
Loyihaning realligi (bankning kredit siyosati talablariga mos kelishi va asoslangan axborotlarga egaligi, loyihani amalga oshirish imkoniyati mavjudligi, korxonada kompetent xodimlar yetarligi, qulay tabiiy sharoit, yetarli infrastruktura va kommunal xizmatlar mavjudligi)	Bankning kredit siyosati talablariga mos keladi va asoslangan axborot manbalariga ega. Loyihani amalga oshirish imkoniyati mavjud: korxonaning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi(asosiy va foiz) to‘lashga yetarli. Loyihaning biznes-rejasi iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslangan. Korxonada kompetent xodimlar yetarli. Qulay tabiiy sharoit, yetarli infrastruktura va kommunal xizmatlar mavjud.	3
	Bankning kredit siyosati talablariga mos keladi va yetarli axborot manbalariga ega. Loyihani amalga oshirishda jiddiy tavakkalchilik mavjud. Korxonaning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi(asosiy va foiz) to‘lashga yetarli. Korxonada kompetent xodimlar soni yetarli emas. Qulay tabiiy sharoit va yetarli infrastruktura mavjud. Kommunal xizmatlar ko‘rsatishda uzilish kuzatiladi.	2
	Bankning kredit siyosati talablariga to‘liq mos kelmaydi va yetarli axborot manbalariga ega emas. Loyihani amalga oshirishda jiddiy tavakkalchilik mavjud. Korxonaning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi(asosiy va foiz) to‘lashga yetarli bo‘lishi tavakkalchilikka bog‘liq. Korxonada kompetent xodimlar soni yetarli emas. Qulay tabiiy sharoit va yetarlicha infrastruktura mavjud emas. Kommunal xizmatlar ko‘rsatishda uzilish kuzatiladi.	1
Pul oqimlari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili		
Pul mablag‘lari tushumi va sarflanishini mavsumiylik va sikllar bo‘yicha bir xilligi	Korxona faoliyati mavsumiy xarakterga ega emas, pul oqimlari tushumi sikllar bo‘yicha bir xil	3
	Korxona faoliyati mavsumiy xarakterga ega yoki aylanma mablag‘lar aylanuvchanligiga 90 kun vaqt talab etadi	2
	Korxona faoliyati mavsumiy xarakterga ega, pul oqimlari tushumi sikllar bo‘yicha bir xillik yo‘q yoki aylanma mablag‘lar aylanuvchanligiga 90 kundan ortiq vaqt talab etadi	1
Cof pul oqimi etarligi koeffitsienti(K_{spoe})	$K_{spoe} > 1$	3
	$0,5 < K_{spoe} < 1$	2
	$K_{spoe} < 0,5$	1
Majburiyatlarni qaytarish muddati(kun hicobida)(K_{mqm})	$K_{mqm} < 30$ kun	3
	30 kun $< K_{mqm} <$ 90 kun	2
	$K_{mqm} > 90$ kun	1
Pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsienti	$K_{spoe} > 1$	3
	$0,5 < K_{spoe} < 1$	2
	$K_{spoe} < 0,5$	1

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlil metodikasida yuqoridagi ko‘rsatkichlar asosida sinflarga, sinflar bo‘yicha kreditga layoqatlilik darajasiga hamda ballar bo‘yicha interval oralig‘iga ajratish amalga oshiriladi. Kreditga layoqatlilik darajasi o‘rtacha geometrik usul yordamida aniqlanadi.

$$K_j = \sqrt[n]{K_1 \times K_2 \times ... \times K_n}, \qquad (3.15)$$

Bu yerda:

N – ko‘rsatkichlar soni;

K_1, K_2 …… K_n – kreditga layoqatlilikni baholash ko‘rsatkichlari.

O‘rtacha geometrik usuldan foydalanib kreditga layoqatlilikni baholash boshqa metodlardan farqli ravishda qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholashga ta’sir etuvchi miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda sifat ko‘rsatkichlaridan ham foydalanish imkonini beradi. Bu esa ushbu metodikaning muhim afzalliklaridan biridir. Chunki xo‘jalik yurituvchi subyektlar kreditni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarishida sifat omillari ham muhim o‘rin tutadi.

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholovchi ko‘rsatkichlarga ball berish tizimidan foydalanmaslik ishonchli baholash imkoniyatini cheklaydi, chunki ball tizimi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini uyg‘unlashtirib baholashga imkon beradi. Bir qator tadqiqotlarga ko‘ra, kreditga layoqatlilikni baholashning ball tizimi qarz oluvchining o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini 60–80 foizgacha to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi[6] (3-jadval).

3-jadval. Xo‘jalik yurituvchi subyektning kreditga layoqatliligi guruhlari tasnifi

Guruh	Kreditga layoqatlilik darajasi	Ball oralig‘i	Izoh
I	Yuqori	2,62 dan 3 gacha	Bu toifadagi mijozlar kreditga layoqatlilik darajasi yuqori. Kreditni o‘z vaqtida va to‘liq qaytaradi. Bankning barcha talablariga to‘liq javob beradi.
II	Yaxshi	2 dan 2,61 gacha	Bu toifadagi mijozlar kredit to‘lay olish qobiliyatiga ega. Bankning barcha talablariga qisman javob beradi.
II	Qoniqarli	1,59 dan 1,99 gacha	Bu toifadagi mijozlar moliyaviy holati barqaror emac. Kredit riski yuqori asosli real ahamiyatga ega loyihalar va likvidliligi yuqori ta’minot taqdim etganda tavsiya etiladi.
IV	Salbiy	1 dan 1,58 gacha	Bu toifadagi xo‘jalik yurituvchi cub’ektlar kredit to‘lay olish layoqatiga ega emac. Bu toifadagi mijozlarda kredit ricki juda yuqori hicoblanadi. Shu cababli ularga kredit ajratish maqcadga muvofiq emac.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini to‘rtta guruhga — yuqori, yaxshi, qoniqarli va salbiy darajalarga ajratdik. Buning uchun dastlab jami 27 ta ko‘rsatkichdan kelib chiqib, barcha ko‘rsatkichlar eng yaxshi holatda, ya’ni 3 ball bo‘lganda, jami 81 ball to‘planadi. Agar barcha ko‘rsatkichlar 2 ball bo‘lsa, 54 ball to‘planadi. Shundan kelib chiqib, 54–81 ball oralig‘i a’lo daraja hisoblanadi. Barcha ko‘rsatkichlar 1 ball bo‘lganda 27 ball to‘planadi. Shundan yuqoriroq qism — 27–53 ball oralig‘i yaxshi daraja deb, 1 balldan 26 ballgacha bo‘lgan natija esa salbiy holat deb belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘rtacha geometrik usuldan foydalangan holda, ko‘rsatkichlarning 33 foizigacha bo‘lgan qismi 2 ball, qolganlari 3 ball bo‘lganda, kreditga layoqatlilik darajasi yuqori hisoblanadi. Agar ko‘rsatkichlarning 33 foizidan ko‘prog‘i 2 ball bo‘lsa — yaxshi, ko‘rsatkichlarning 33 foizigacha bo‘lgan qismi 1 ball, qolganlari 2 ball bo‘lsa — qoniqarli, ko‘rsatkichlarning 33 foizidan ko‘prog‘i 1 ball bo‘lganda esa salbiy holat deb baholanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlil metodikasining afzal jihatlari:

1. Ushbu metodika korxonalar kreditga layoqatliligini aniq, ishonchli va keng qamrovli baholash imkonini beradi.

2. Boshqa baholash metodlaridan farqli ravishda, xo‘jalik yurituvchi subyektlar kreditga layoqatliligini baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan bir vaqtda sifat ko‘rsatkichlari ham ball tizimi yordamida hisobga olinadi.

3. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholash mezonlarini (kriteriylarini) hisoblash usullari takomillashtirildi, ya’ni aniqlik darajasi oshirildi.

4. Metodika xalqaro tajribalar e’tiborga olingan holda ishlab chiqildi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati davomida doimiy ravishda moliyaviy resurslarga ehtiyoj yuzaga keladi. Bu ehtiyoj asosan bank kreditlari hisobidan qoplanadi. Tijorat banklaridan kredit jalb qilishda muhim

vazifalardan biri xo‘jalik yurituvchi subyektning kreditga layoqatliligini aniq, ishonchli va keng qamrovli baholash hisoblanadi. Xorijiy va respublikamiz tijorat banklari amaliyotida korxonalarning kreditga layoqatliligini baholashda turli usul va vositalardan foydalanib kelinmoqda. Ushbu usul va vositalar orqali baholashning pirovard natijasi korxonalarning kreditga layoqatliligini aniq va ishonchli baholashdir. Ammo mavjud usul va vositalarda ma’lum kamchiliklar ham mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamiz banklari amaliyotida korxonalarning kreditga layoqatliligini baholashda asosan koeffitsiyentlar usulidan foydalanib kelinmoqda. Ushbu yondashuvda diqqat markazida moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘ladi. Biroq, koeffitsiyentlar usuli qoplash koeffitsiyenti, likvidlilik koeffitsiyenti va mustaqillik koeffitsiyentlari orqali kreditga layoqatlilikni to‘liq ifodalab bera olmaydi. Shuningdek, ularning hisoblash mexanizmidagi ayrim kamchiliklar ham metodning noaniqlik darajasini oshiradi. Bu usulning yana bir zaif tomoni shundaki, baholash tugallangan davr ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi, holbuki kredit ajratilishi kelgusi davr uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Shu bois kelgusidagi faoliyatni bashoratlash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi baholashda banklar ko‘proq moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayanmoqda, biroq sifat ko‘rsatkichlari yetarlicha e’tiborga olinmayapti. Aslida esa sifat omillari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xorijiy tajribani o‘zlashtirgan holda biz kreditga layoqatlilikni baholashning kompleks tahlil metodikasini ishlab chiqdik. Ushbu metodika miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini birgalikda inobatga olish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini keng qamrovli baholash va kredit riskini minimallashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashda kompleks tahlil metodikasidan foydalanish kreditning o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilish qobiliyatini aniq, ishonchli hamda har tomonlama baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. https://lex.uz/docs/5841063
2. Поляков В.Е., Коровина К.Г. Методические аспекты анализа кредитоспособности организаций. Азимут научных исследований: экономика и управление. Журнал №1(22) 2018. 142-146 с.
3. Шоғиёсов Т.Ш. Комплекс иқтисодий таҳлил. Дарслик. –Т.: “Фан ва технология”, 2012. 247 б.
4. Турдиева Г.О. Development practic aspects of creditworthiness analysis in Uzbekistan with forieng exchanges. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 10, 2020.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат улуши бўлган акциядорлик жамиятлари ва бошқа хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезонларини жорий этиш тўғрисида”ги қарори. 2015 йил 28 июлдаги 207-сонли Қарори. www.norma.uz.
6. М.Ю.Рахимов, Н.Н.Каландарова. Молиявий таҳлил. Дарслик. – Т.: “Иқтисод-Молия”, 2019. – 736 б.
7. Мельников Г.И. Оценка кредитоспособности группы взаимосвязанных компаний и ее участников с помощью финансового моделирования. Финансовая, налоговая и денежно-кредитная политика. Электроный научный журнал. №3. 2013.
8. Daniela Feschijan. Analysis of the creditworthiness of bank loan applicants. Economics and Organization Vol. 5, No 3, 2008, pp. 273 - 280.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Karimova Komila Daniyarovna
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish muammolari va ularni hal etishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayishi va moliyaviy beqarorlik sharoitida kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini samarali tashkil etish iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylanmoqda. O‘zbekiston misolida kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsiya jarayonlarini boshqarish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlarning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda statistik, tahliliy, ekonometrik modellashtirish, regressiya va korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes subyektlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, eksport salohiyatining oshishi hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolada kichik biznesda investitsiya samaradorligini oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, investitsiya samaradorligi, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy barqarorlik, davlat-xususiy sheriklik, kreditlash tizimi, lizing, eksport salohiyati, investitsion muhit, iqtisodiy o‘sish, regressiya tahlili, korrelyatsion model, iqtisodiy siyosat, texnologik rivojlanish, bandlik, O‘zbekiston–2030 strategiyasi.

Abstract: The article analyzes the problems of increasing the efficiency of investments in small business and entrepreneurship, as well as the scientific, theoretical, and practical aspects of their solutions. In the context of growing global competition and financial instability, the effective organization of investment activities in small business has become an important factor of economic growth. Using Uzbekistan as an example, the article examines the effectiveness of financial support for small enterprises, investment management processes, the introduction of modern technologies, and state-provided incentives. The study employs statistical, analytical, econometric modeling, regression, and correlation analysis methods. The results show that the increase in investment volume directed to small business directly contributes to expanding production capacity, increasing export potential, and creating new jobs. The paper provides proposals and recommendations to enhance investment efficiency through expanding public-private partnership mechanisms, introducing digital technologies, and utilizing innovative financial instruments.

Key words: small business, entrepreneurship, investment efficiency, innovations, digital economy, financial stability, public-private partnership, credit system, leasing, export potential, investment climate, economic growth, regression analysis, correlation model, economic policy, technological development, employment, Uzbekistan–2030 strategy.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы повышения эффективности инвестиций в сфере малого бизнеса и предпринимательства, а также научно-теоретические и практические аспекты их решения. В условиях усиления глобальной конкуренции и финансовой нестабильности эффективная организация инвестиционной деятельности субъектов малого бизнеса становится важным фактором экономического роста. На примере Узбекистана проанализирована результативность финансовой поддержки малого бизнеса, управление инвестиционными процессами, внедрение современных технологий и эффективность предоставляемых государством льгот. В исследовании использованы статистические, аналитические, эконометрические, регрессионные и корреляционные методы анализа. Проведённые расчёты показали, что увеличение объёмов инвестиций, направленных в малый бизнес, напрямую способствует расширению производственных мощностей, росту экспортного потенциала и созданию новых рабочих мест. В статье предложены рекомендации по повышению эффективности инвестиций за счёт расширения механизмов государственно-частного партнёрства, внедрения цифровых технологий и использования инновационных финансовых инструментов.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, эффективность инвестиций, инновации, цифровая экономика, финансовая устойчивость, государственно-частное партнёрство, кредитная система, лизинг, экспортный потенциал, инвестиционный климат, экономический рост, регрессионный анализ, корреляционная модель, экономическая политика, технологическое развитие, занятость, стратегия «Узбекистан–2030».

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o‘sish, innovatsion rivojlanish va barqaror bandlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro miqyosda yuz berayotgan moliyaviy beqarorlik, iqtisodiy inqirozlar va global raqobat kuchayishi fonida, ayniqsa kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun investitsiyalardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni faqat yangi ish o‘rinlarini yaratish yoki bandlikni oshirish bilan emas, balki innovatsiyalarni joriy etish, raqobat muhitini kengaytirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish bilan ham belgilanadi. Shu sababli, ushbu sohada investitsiyalar samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun ham muhim strategik yo‘nalish sanaladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi 85 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 62 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq rivojlangan davlatlarda kichik biznesning sanoatdagi ustun roli, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu salohiyatning hali to‘liq ishga tushmaganligini anglatadi. Bu tafovut ko‘p jihatdan mamlakatning iqtisodiy siyosati, moliyaviy infratuzilmasi, texnologik rivojlanish darajasi hamda investitsion muhitga bog‘liqdir. Shu sababdan, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga erishish bugungi kunning muhim talabi hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik sektorini rivojlantirish, uning investitsion salohiyatini kengaytirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda mamlakatda ushbu sohani qo‘llab-quvvatlash, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq yengilliklari va imtiyozlar yaratish, shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-sonli “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF–37-sonli “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” farmonlari hamda 2025-yil 19-martdagi PF–50-sonli “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni ushbu yo‘nalishdagi strategik huquqiy asosni belgilab berdi.

Shuningdek, 2023-yil 10-noyabrdagi PF–193-sonli “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2024-yil 30-avgustdagi PF–132-sonli “Tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2024-yil 7-sentabrdagi PQ–312-sonli “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori ham mazkur sohada investitsiya samaradorligini oshirish mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan. Bu hujjatlar kichik biznes subyektlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va investitsiya jarayonlariga kengroq kirish imkonini yaratishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ham kichik biznesning strategik ahamiyatini alohida ta’kidlab kelmoqda. Davlat rahbarining fikricha, “kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchidir, ularning muvaffaqiyati – mamlakat farovonligi va barqaror o‘sishining kafolatidir”. Shu nuqtai nazardan, mamlakatda “Kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda 34 foizga, eksportda 34 foizga yetkazish” vazifasi strategik maqsad sifatida belgilangan.

Kichik biznesning moliyaviy faoliyatini rag‘batlantirishda investitsiya samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar – soliq imtiyozlari, kredit resurslari hajmining oshirilishi, raqamli transformatsiya va eksportga yo‘naltirilgan dasturlar asosiy mexanizmlar sifatida shakllanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari, jumladan Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda kichik biznes uchun investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish ishlari davom etmoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash, bandlik darajasini oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirishda ham hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqotning dolzarbligi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va innovatsion yondashuvlar orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash zaruratidan kelib chiqadi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahon miqyosida keng o‘rganilgan bo‘lib, bu boradagi nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlar turlicha talqin qilinadi. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar investitsion jarayonlarni boshqarish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan.

Nobel mukofoti sovrindori M. Yunus o‘z tadqiqotlarida kichik biznesni kreditlashda asosiy e’tibor moliyaviy natijaga emas, balki ijtimoiy samara va bandlik darajasining oshishiga qaratilishi lozimligini ta’kidlaydi [1]. Uning fikricha, investitsiyalar orqali yaratiladigan ijtimoiy qiymat korxonaning moliyaviy natijalariga teng ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik subyektlari uchun kreditlash tizimini ijtimoiy mezonlar bilan uyg‘unlashtirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

F. Allen va D. Geyl kichik biznesni moliyalashtirish tizimlarining ikki shaklini — banklarga asoslangan tizim va moliya bozorlariga asoslangan tizimni farqlaydi. Ularning fikricha, o‘tish iqtisodiyoti sharoitida banklar orqali moliyalashtirish samaraliroq natija beradi, chunki ular kichik korxonalarning risklarini yanada to‘liq baholay oladi [2].

M. Dobindo esa kichik biznesning innovatsion rivojlanishda tutgan o‘rniga e’tibor qaratib, uni mintaqaviy iqtisodiy yangilanishni harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida talqin etadi [3]. Uning tahliliga ko‘ra, kichik korxonalar iqtisodiy tizimning moslashuvchan qismi bo‘lib, yangi texnologiyalarni tezroq joriy etish imkoniyatiga ega.

V. Ruben o‘z asarlarida kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari yuqoriligi sababli davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanish zarurligini ta’kidlaydi [4]. U imtiyozli mikrokreditlar va soliq yengilliklarining kichik biznesning rentabelligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan.

Shanel-Reyno va Bluan kichik va o‘rta biznes subyektlarining yirik korxonalar bilan hamkorlik aloqalari ularning tijorat kreditlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirishini ta’kidlaydi [5]. Bunday kooperatsiya tizimi banklar uchun ham ishonchli moliyaviy axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Jon Lesterning fikricha, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlovchi siyosat uchta asosiy yo‘nalishda shakllanishi kerak: moliyalashtirish dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni rag‘batlantirish va soliq siyosatini optimallashtirish [6]. U davlat aralashuvining iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi rolini aniqlab beradi.

K. Makkonel va L. Buryus kichik biznesni iqtisodiy tizimning innovatsion o‘zak elementi sifatida ko‘rib, uni riskli, ammo yuqori foydali faoliyat deb baholaydi [7]. Ularning fikricha, kichik korxonalar o‘z faoliyati davomida yangi g‘oya va mahsulotlarni ishlab chiqish orqali iqtisodiy muhitni dinamiklashtiradi.

A. Ambarkulov va F. Fedor biznesni foyda olishga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyat deb ta’riflab, uni ijtimoiy samaradorlik bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydilar [8]. Shu bilan birga, A. Anganbegyan kichik biznes subyektlarini moddiy va nomoddiy boyliklar yaratishda faol ishtirok etuvchi iqtisodiy birliklar sifatida tavsiflaydi [9].

B. Sevetova kichik biznesni ishlab chiqarish, qurilish, telekommunikatsiya va transport kabi ko‘plab sohalarni qamrab oluvchi tizim deb hisoblaydi [10]. Uning ta’kidlashicha, bu sektor iqtisodiyotning diversifikatsiyasida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Mahalliy olimlardan A. O‘lmasov va A. Vahobov tadbirkorlikni yaratuvchan iqtisodiy faoliyat sifatida talqin qilib, har qanday biznesni tadbirkorlik deb atash uchun innovatsion yondashuv zarurligini ta’kidlaydi [11]. Ularning fikricha, kapitalni samarali joylashtirish va resurslardan oqilona foydalanish tadbirkorlikning mohiyatini belgilaydi.

R. Yunusov kichik biznesni huquqiy me’yorlar asosida faoliyat yurituvchi, aholining talabini qondiruvchi va ijtimoiy muammolar yechimiga xizmat qiluvchi iqtisodiy birlik sifatida ko‘radi [12]. U ushbu sektorning ijtimoiy funksiyalarini bandlik va farovonlik bilan bevosita bog‘laydi.

N. Murodova esa kichik biznesni huquqiy shaxs sifatida tashkil etiladigan, ishchi-xodimlar soni va soliq mexanizmi bo‘yicha qat’iy me’yorlarga asoslangan xo‘jalik faoliyati deb ta’riflaydi [13]. U bu modelning hududiy va xalqaro taqqoslashlar uchun qulay ekanligini ta’kidlaydi.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya samaradorligini oshirishda davlat-xususiy sheriklik, venchur kapital, kraudinvesting, klasterlashuv, biznes-inkubatorlar va texnoparklar muhim rol o‘ynaydi [14]. Shu jihatdan, kichik biznesga qaratilgan investitsiya siyosatining muvaffaqiyati innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalari hali ham ko‘plab ochiq jihatlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida investitsion resurslar taqsimoti, hududlar kesimidagi investitsion faollik, raqamli moliyaviy mexanizmlar va innovatsion moliyalashtirish vositalarini tatbiq etish masalalari yanada chuqurroq ilmiy tahlilni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy asoslarni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Dissertatsiyada kompleks tahlil yondashuvi qo‘llanilib, iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik guruhlash, qiyosiy, regression va korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanilgan.

Empirik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi (IMF) kabi xalqaro institutlar ma’lumotlariga asoslangan.

Tadqiqotda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida investitsiyalar hajmini aniqlovchi omillar ekonometrik modellar yordamida baholangan. Shuningdek, investitsiya loyihalarining samaradorlik darajasini prognozlash, moliyaviy resurslar taqsimotining tahlili va investitsion faoliyatning makroiqtisodiy ta’siri aniqlangan.

Metodologiya natijalaridan kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kreditlash va davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirishda amaliy asos sifatida foydalanish mumkin

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish masalasi O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda muhim strategik yo‘nalishga aylandi. Tadqiqot jarayonida investitsion faoliyatning hozirgi holati, o‘sish tendensiyalari hamda investitsiyalar ta’sirida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar tahlil qilindi.

1-jadval. 2018–2024-yillarda kichik biznes va mikrofirmalarning tashqi savdo hajmlari (mln. AQSh dollari)

Yil	Eksport	O‘sish (%)	Import	O‘sish (%)	Savdo balansi	Foyda/zarar nisbati (%)
2018	3813,4	–	11006,7	–	–7193,3	–188,6
2019	4350,1	14,0	12125,2	10,1	–7775,1	–178,2
2020	5108,5	17,4	13592,0	12,1	–8483,5	–166,4
2021	6229,8	21,9	15732,6	15,8	–9502,8	–152,5
2022	7894,2	26,6	18244,3	16,0	–10350,1	–131,1
2023	8607,6	9,0	19897,1	9,0	–11289,5	–131,1
2024	9042,4	5,1	19028,2	–4,4	–9985,8	–110,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2018–2024-yillar oralig‘ida kichik biznes subyektlarining eksport hajmi 3813,4 mln dollardan 9042,4 mln dollargacha o‘sib, deyarli 2,3 barobar ortgan. Biroq import hajmi ham yuqori bo‘lib, 2024-yilda 19028,2 mln dollarga teng bo‘lgan. Bu holat kichik biznesning xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarga bog‘liqligini anglatadi. Shu sababli, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarish loyihalariga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini ko‘paytirish iqtisodiy muvozanatni ta’minlashda muhim hisoblanadi.

2-jadval. 2018–2024-yillarda kichik biznes korxonalarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari (mlrd so‘mda)

Yil	Investitsiyalar hajmi	O‘sish sur’ati (%)	Umumiy investitsiyalardagi ulushi (%)	Qurilish sohasiga yo‘naltirilgan	Xizmatlar sohasi	Ishlab chiqarish sohasi	Kichik biznes ulushi (%)
2018	47 225,2	–	38,0	37 451,7	84 433,4	59 002,1	38,0
2020	118 450,3	25,9	44,3	82 771,2	178 970,6	134 711,4	45,1
2022	204 610,8	29,6	49,7	131 812,9	251 654,2	201 708,3	50,5
2024	255 883,8	24,9	51,8	178 718,9	302 196,7	254 800,5	51,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Kichik biznes subyektlariga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2018–2024-yillar davomida 5,4 barobar oshgan. Asosiy kapitaldagi ulushi esa 38 foizdan 51,8 foizgacha ko‘tarilgan. Bunday dinamik o‘sish kichik biznes faoliyatining iqtisodiyotdagi ulushi kengayganini, investitsion muhit yaxshilanganini ko‘rsatadi.

Statistik natijalar shuni tasdiqlaydiki, investitsiyalar hajmining oshishi kichik biznesda ishlab chiqarish quvvatlari kengayishiga, yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarining ortishiga bevosita sabab bo‘lmoqda. Shu jarayon bandlik darajasini ham ijobiy ta’sir ostida qoldirgan.

3-jadval. 2018–2024-yillarda kichik biznesda bandlik darajasi va investitsiyalar samaradorligi o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari

Ko‘rsatkich	2018	2020	2022	2024	O‘rtacha yillik o‘sish (%)	Korrelyatsiya koeffitsienti (r)	Ehtimoliy ta’sir (%)
Band bo‘lganlar soni (ming kishi)	10 128,8	10 420,5	10 563,9	10 628,7	0,8	0,94	88,3
Investitsiyalar hajmi (mlrd so‘m)	47 225,2	118 450,3	204 610,8	255 883,8	25,1	–	–

Manba: Muallifning ekonometrik tahlil natijalari asosida.

Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesda investitsiyalar hajmi bilan bandlik darajasi o‘rtasida r = 0,94 darajada ijobiy korrelyatsiya mavjud. Bu, har 1 foizlik investitsiya o‘sishi bandlikni o‘rtacha 0,8 foizga oshirganini anglatadi.

Ekonometrik model (Y = 12,47 + 0,008X) asosida hisob-kitoblarga ko‘ra, investitsiyalar hajmi oshgan sayin kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi ham ortmoqda. Shu bois investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishi kichik va o‘rta korxonalarga uzoq muddatli, past foizli kreditlar ajratish va infratuzilmani davlat hisobidan qisman moliyalashtirish bo‘lishi lozim.

Umuman olganda, 2018–2024-yillar mobaynida kichik biznesda kuzatilgan o‘sish sur’atlari O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiya jarayonida ushbu sohaning yetakchi rolini mustahkamladi. Investitsiyalar hajmining barqaror o‘sishi yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishda asosiy turtki bo‘lmoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. 2018–2024-yillar mobaynida kichik biznes korxonalarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi besh barobardan ortiq oshib, ularning umumiy investitsiyalardagi ulushi 51,8 foizga yetgani iqtisodiyotdagi strukturaviy o‘zgarishlarni ifodalaydi.

Tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, kichik biznes subyektlarining rivojlanish sur’atlari investitsion resurslardan foydalanish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Korrelyatsion tahlil bo‘yicha investitsiyalar hajmi bilan bandlik darajasi o‘rtasida r = 0,94 koeffitsientli ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu investitsiya o‘sishining har 1 foizi yangi ish o‘rinlarining 0,8 foizga ortishiga olib kelishini anglatadi. Bu holat kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Shu boisdan, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Investitsion resurslar taqsimotini optimallashtirish. Kichik biznes subyektlariga yo‘naltirilayotgan investitsiya oqimini tarmoq va hududlar kesimida qayta muvozanatlash, xususan, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va eksportga yo‘naltirilgan sohalarda investitsiya ulushini oshirish zarur.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmini kuchaytirish. Mahalliy hokimiyatlar va banklar hamkorligida kichik biznes loyihalari uchun 30 foizgacha infratuzilma xarajatlarini davlat budjetidan moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish lozim.

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalarini diversifikatsiya qilish. Kichik biznesga mikromoliya, lizing, kraudinvesting va venchur kapital tizimlarini keng joriy etish orqali moliyaviy manbalarni barqarorlashtirish taklif etiladi.

Innovatsion va raqamli yechimlardan foydalanish. Investitsiyalar samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt va raqamli tahlil tizimlarini joriy etish orqali resurslardan oqilona foydalanish imkonini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Eksport faoliyatini rag‘batlantirish. Eksport qiluvchi kichik biznes korxonalariga soliq imtiyozlari, logistik xarajatlarni qoplash va davlat kafolatlarini berish tizimini kuchaytirish lozim.

Kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish. Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 7 yilgacha muddatli, 2 yilgacha imtiyozli davr bilan kreditlar berish tizimini institutsional asosda mustahkamlash zarur.

Kadrlar tayyorlash va biznes-ta’lim tizimini kengaytirish. Kichik biznes menejmenti, moliyaviy boshqaruv va investitsion rejalashtirish bo‘yicha qisqa muddatli kurslar va mentorlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi.

Umuman olganda, kichik biznesda investitsiyalar samaradorligini oshirish strategiyasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ushbu strategiyani izchil amalga oshirish natijasida “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan maqsad — kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga yetkazish, sanoatdagi ulushini 34 foizga oshirish va eksportda 34 foizga yetkazish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Yunus, Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty, PublicAffairs, 2010.
2. F. Allen, D. Gale, “Comparing Financial Systems,” MIT Press, 2000.
3. M. Dobindo, “Regional Innovation and Small Business Dynamics,” Journal of Economic Studies, vol. 12, no. 3, pp. 45–59, 2018.
4. V. Ruben, Financial Support of Small Enterprises: Modern Approaches, Moscow: INFRA-M, 2019.
5. Shanel-Reyno, Bluan, “Corporate Networks and SME Lending Efficiency,” European Economic Review, vol. 77, pp. 101–115, 2020.
6. J. Lester, “Small Business Policy Interventions: Foundations and Outcomes,” Public Policy Review, vol. 8, no. 2, pp. 35–52, 2021.
7. K. McConnell, L. Brue, Economics: Principles, Problems, and Policies, McGraw-Hill, 2022.
8. A. Ambarkulov, F. Fedor, “Entrepreneurship and Profit-Oriented Business,” Russian Economic Journal, no. 4, pp. 17–28, 2019.
9. A. Anganbegyan, Small Business and Economic Growth, Moscow: Nauka, 2018.
10. B. Sevetova, “The Role of SMEs in Economic Diversification,” Economics and Finance Studies, vol. 5, no. 1, pp. 66–78, 2021.
11. A. O‘lmasov, A. Vahobov, Tadbirkorlik faoliyati nazariyasi va amaliyoti, Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
12. R. Yunusov, “Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati,” Moliyaviy tahlil jurnali, 2022.
13. N. Murodova, “Hududiy biznes faoliyatining huquqiy asoslari,” O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, no. 2, pp. 47–56, 2023.
14. OECD, Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard, Paris: OECD Publishing, 2024.

AHOLINI “KAMBAG‘ALLIK QOPQONI”GA TUSHIB QOLMASLIKNI TA’MINLASH – ISLOHOTLARIMIZNING USTUVOR YO‘NALISHIDIR

Xudoyqulov Sadriddin Karimovich
«O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari»
ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Annotatsiya: Ushbu maqola “Uzbekistan–2030” strategiyasi doirasida aholini kambag‘allik “qopqoni”ga tushib qolmaslikdan himoya qilish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar va ularning global hamda milliy iqtisodiy tendensiyalar bilan uyg‘unligini tahlil qiladi. Tadqiqotda kambag‘allikni qisqartirishning monetar va nomonetar mexanizmlari, inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar, “Ijtimoiy himoya yagona reestri” tizimi va hududiy iqtisodiy drayverlarning shakllanishi o‘rganilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Uzbekistan–2030” strategiyasi doirasidagi barqaror iqtisodiy o‘sish modeli kambag‘allik darajasini 2025-yilgacha 6 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Uzbekistan–2030 strategiyasi, kambag‘allik, inson kapitali, ijtimoiy himoya, nomonetar omillar, barqaror rivojlanish, iqtisodiy islohotlar.

Abstract: This article analyzes the reforms implemented within the framework of the “Uzbekistan–2030” strategy aimed at preventing the population from falling into the “poverty trap” and their alignment with global and national economic trends. The study examines both monetary and non-monetary mechanisms of poverty reduction, programs focused on human capital development, the operation of the “Unified Social Protection Registry” system, and the formation of regional economic drivers. The analysis shows that the sustainable growth model under the “Uzbekistan–2030” strategy can potentially reduce the poverty rate to 6 percent by 2025.

Key words: Uzbekistan–2030 Strategy, poverty, human capital, social protection, non-monetary factors, sustainable development, economic reforms.

Аннотация: В данной статье анализируются реформы, реализуемые в рамках стратегии «Узбекистан–2030», направленные на предотвращение попадания населения в «ловушку бедности», а также их взаимосвязь с глобальными и национальными экономическими тенденциями. В исследовании рассматриваются монетарные и немонетарные механизмы сокращения бедности, программы по развитию человеческого капитала, функционирование системы «Единый реестр социальной защиты» и формирование региональных экономических драйверов. Проведённый анализ показывает, что модель устойчивого экономического роста, реализуемая в рамках стратегии «Узбекистан–2030», позволит снизить уровень бедности до 6 процентов к 2025 году.

Ключевые слова: стратегия «Узбекистан–2030», бедность, человеческий капитал, социальная защита, немонетарные факторы, устойчивое развитие, экономические реформы.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan global o‘zgarishlar – pandemiya oqibatlari, iqlim o‘zgarishi, energetika inqirozi, raqamli transformatsiya va geoiqtisodiy raqobatning keskinlashuvi — barcha mamlakatlar oldiga yangi iqtisodiy va ijtimoiy chaqiriqlarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun kambag‘allik, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni hal etish masalasi barqaror taraqqiyotning asosiy

sharti sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ham jahon iqtisodiyotidagi ushbu murakkab jarayonlarga faol moslashib, “Uzbekistan–2030” strategiyasi doirasida aholining farovonligi, inson kapitalini rivojlantirish va kambag‘allikni kamaytirish masalalarini milliy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida inson omili turadi. Davlat siyosatining maqsadi — har bir fuqaroning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, ijtimoiy himoyadan mehnat faoliyatiga, kambag‘allikdan farovonlik sari o‘tish uchun imkoniyat yaratishdir. Prezidentimiz 2024-yilgi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumidagi nutqida shunday degan edi:

“Biz uchun kambag‘allikka qarshi kurash — bu faqat moddiy yordam masalasi emas, balki insonni o‘qitish, kasb berish, unga o‘z hayotini o‘zgartirish uchun imkoniyat yaratishdir.”

Mazkur yondashuv O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining yangi paradigmasini belgilab bermoqda. Endilikda kambag‘allikka qarshi kurash faqat ijtimoiy yordam shaklida emas, balki iqtisodiy faoliyatga keng jalb qilish, bilim va malakani oshirish, mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali kompleks tarzda amalga oshirilmoqda.

Dunyo tajribasida kambag‘allikni kamaytirishning muvaffaqiyatli modellari, xususan, Sharqiy Osiyo, Turkiya va Braziliya mamlakatlari misolida, inson kapitaliga investitsiya va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali erishilgan. O‘zbekiston ham ayni yo‘nalishda harakat qilmoqda: 2021-yilda ishga tushirilgan “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi ijtimoiy yordamni adolatli va shaffof taqsimlash imkonini berdi. Ushbu platforma har bir oilaning iqtisodiy holatini, daromad manbalarini, mol-mulkini, tomorqa va chorva mavjudligini raqamli tarzda hisobga olib, ijtimoiy yordamni manzilli taqsimlashni ta’minlamoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonning “Uzbekistan–2030” strategiyasi kambag‘allikni 2025-yilgacha 6 foizgacha qisqartirish, 2030-yilgacha esa ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta’minlashni milliy maqsad sifatida belgilaydi. Bu strategiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan uyg‘unlashgan holda, mamlakatda inson salohiyatini rivojlantirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini modernizatsiya qilish, bandlikni kengaytirish hamda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etishga qaratilgan.

Kambag‘allikka qarshi kurashning samarali mexanizmlarini yaratishda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Markaz tomonidan Toshkent, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy loyihalar orqali mahalliy iqtisodiy drayverlar aniqlanmoqda, kambag‘al oilalarni qo‘shimcha daromad manbalari bilan ta’minlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda respublika miqyosida 50 ming gektar ekin maydoni kambag‘al oilalarga ijaraga berildi, ularga kichik ishlab chiqarish uskunalari, mototransport vositalari, ko‘chma do‘konlar va kasb-hunar o‘quv kurslariga kirish imkoniyati yaratildi. Bu esa aholining iqtisodiy faolligini oshirib, “mehnat orqali farovonlik” tamoyilini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Kambag‘allikning qisqarishi mamlakat iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, bu jarayon ichki talabning oshishiga, soliqlar bazasining kengayishiga, ijtimoiy keskinlikning kamayishiga olib keladi; ikkinchi tomondan, inson kapitalining rivojlanishi orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. Aynan shu jihatlar “Global and National Economic Trends: Uzbekistan–2030” IV forumining markaziy g‘oyasi — iqtisodiy o‘sish bilan ijtimoiy farovonlikning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash konsepsiyasi bilan bevosita bog‘lanadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirish jarayoni faqat ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish emas, balki iqtisodiy, raqamli va institutsional islohotlarning kompleks natijasi sifatida shakllanmoqda. Ushbu maqolada “Uzbekistan–2030” strategiyasi doirasida kambag‘allikka qarshi kurash mexanizmlarining ilmiy asoslari, milliy va xalqaro tajribalar, hamda ularning barqaror iqtisodiy rivojlanish bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda kambag‘allikni qisqartirish masalasi jahon iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon banki, ILO, UNICEF va BMTning Barqaror rivojlanish dasturi (UNDP) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kambag‘allik nafaqat monetar ko‘rsatkichlar, balki inson kapitali, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi [1], [2], [5].

Jahon bankining “Poverty and Equity Brief – 2024” hisobotiga [2] ko‘ra, dunyo miqyosida 648 milliondan ortiq kishi kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam daromad bilan yashaydi. Bu mezon kambag‘allikning monetar chegarasi sifatida qabul qilingan bo‘lib, global daromad tengsizliklarini aniq ko‘rsatadi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikka qarshi samarali siyosat uchun davlatning ijtimoiy himoya tizimi bilan bir qatorda, inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar muhim rol o‘ynaydi [4], [6].

Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida 1990-yillarda jahon kambag‘allarining qariyb yarmi yashagan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ularning ulushi 3 foizgacha kamaygan [7]. Bu natija asosan iqtisodiy o‘sishning ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik siyosatlari bilan uyg‘un olib borilgani bilan izohlanadi. Xitoy va Vetnam misolida

inson kapitali rivojlanishiga yo‘naltirilgan dasturlar, ayniqsa qishloq joylarda kambag‘allikni keskin kamaytirgan [8].

O‘zbekiston misolida kambag‘allikka qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. 2021-yilda joriy etilgan “Ijtimoiy himoya yagona reestri” tizimi ijtimoiy yordamni raqamlashtirish, shaffoflikni ta’minlash va resurslarni manzilli taqsimlash imkonini berdi [4], [5]. UNICEF va Jahon banki hisobotlarida [1], [4] ushbu tizim Markaziy Osiyoda ijtimoiy himoyaning ilg‘or modeli sifatida e’tirof etilgan. U oilalarning moliyaviy ahvolini, ularning aktivlarini (tomorqa, chorva, transport) va ijtimoiy darajasini baholashga asoslanadi, bu esa nomonetar kambag‘allikni aniqlash imkonini yaratgan.

Development Pathways tahliliga [6] ko‘ra, O‘zbekistondagi yagona reestr tizimi ijtimoiy yordam dasturlarini 30 foizgacha samaraliroq qilgan. Jahon banki ma’lumotlariga [2], [9] ko‘ra, 2019-yildagi 23 foiz kambag‘allik darajasi 2023-yilda 11 foizgacha qisqardi. Bu qisqarish iqtisodiy o‘sish, bandlik dasturlari, va mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash bilan izohlanadi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” markazining so‘nggi tadqiqotlari [11], [12] hududlarda kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha differensial yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, Toshkent, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida amalga oshirilgan ilmiy-amaliy loyihalarda iqtisodiy o‘sish “drayverlari” (qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi, kichik ishlab chiqarish) aniqlanib, mahalliy hokimliklarga yo‘l xaritalari ishlab chiqilgan. Bu tajriba kambag‘allikni kamaytirishda ilmiy asoslangan hududiy siyosat muhimligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston hukumati tomonidan 50 ming gektar yer maydonining kambag‘al oilalarga ijara asosida berilishi, ularni kichik ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlash va kasb-hunar kurslarini tashkil etish tashabbuslari [9], [10] nafaqat bandlikni oshirdi, balki aholining o‘zini o‘zi ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu holat “mehnat orqali farovonlik” tamoyilining amaliy ifodasidir.

Jahon bankining so‘nggi blog tahliliga [3] ko‘ra, O‘zbekistonning ochiq ijtimoiy siyosati, kambag‘allikka qarshi “raqamli transformatsiya” yondashuvi va iqtisodiy islohotlar uyg‘unligi natijasida so‘nggi uch yilda 1,5 milliondan ortiq fuqaro kambag‘allikdan chiqdi. Shu bilan birga, UNDP [13] va ILO [18] hisobotlarida mamlakatdagi ijtimoiy siyosatning “barqaror ijobiy trend”ga ega ekani qayd etiladi.

Muratjanova [11], [14] va Rahimjonovich [12] tadqiqotlarida O‘zbekistonda ijtimoiy himoya instituti qisqa muddatli yordam vositasi emas, balki kambag‘allikdan himoya qilish tizimi sifatida shakllanayotganligi e’tirof etiladi. Uzoq muddatda esa ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga davlat investitsiyasini ko‘paytirish, inson kapitalini kuchaytirish orqali “kambag‘allik qopqoni”dan chiqish imkoniyatlari kengaymoqda.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning kambag‘allikka qarshi siyosati xalqaro me’yorlarga mos, kompleks va innovatsion yondashuvlarga tayangan holda shakllanmoqda. Jahon banki [2], UNICEF [4], va Development Pathways [5], [6] hisobotlarida O‘zbekiston modeli “ijtimoiy adolat va raqamli boshqaruv uyg‘unligi” tamoyiliga asoslangan ilg‘or tajriba sifatida e’tirof etilgan.

Shuningdek, “Uzbekistan–2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda kambag‘allikni kamaytirish, inson salohiyatini rivojlantirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash masalalari “Global and National Economic Trends” forumi konsepsiyasining markazida turibdi. Bu esa mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyaning yangi bosqichiga olib chiqayotganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy tahlil, empirik kuzatuv va tizimli yondashuv asosida shakllantirildi. Unda kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar — daromad darajasi, bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqotda Jahon banki, ILO, UNICEF va O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari asosida qiyosiy tahlil, korrelyatsion baholash va indeks usullari qo‘llanildi. Shuningdek, “Ijtimoiy himoya yagona reestri” ma’lumotlari asosida aholining ijtimoiy qatlamlar kesimida nomonetar kambag‘allik omillari o‘rganildi. Metodologiya “Uzbekistan–2030” strategiyasining barqaror rivojlanish tamoyillariga mos holda ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan chuqur iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional islohotlar mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi. “Uzbekistan–2030” strategiyasi doirasida olib borilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarning markazida inson farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirish masalalari turibdi. Aynan shu jarayon “kambag‘allik qopqoni”dan chiqishning tizimli va barqaror mexanizmini shakllantirmoqda.

1. Kambag‘allikning dinamikasi va umumiy tendensiyalar

Jahon bankining 2024-yilgi Poverty and Equity Brief ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 23 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil yakunida bu ko‘rsatkich 11 foizgacha kamaydi,

2024-yil uchun esa 8,9 foiz atrofida qayd etildi [2], [9]. Bu qisqarish mamlakat YaIM o‘sish sur’atlari, bandlik darajasining oshishi, ichki iste’mol hajmining kengayishi va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi va YaIM o‘sishining dinamikasi (2019–2024)

Yil	YaIM o‘sishi (%)	Aholi jon boshiga real daromad (USD)	Kambag‘allik darajasi (%)	Yangi ish o‘rinlari (ming)	Ayollar bandligi (%)	Ijtimoiy yordam oluvchilar (mln)
2019	5.8	1800	23.0	420	43.0	1.8
2020	1.9	1760	20.5	370	44.2	1.6
2021	7.3	2150	17.0	540	45.8	1.4
2022	5.7	2500	14.1	610	46.3	1.2
2023	6.0	2950	11.0	670	47.2	1.0
2024	6.3	3500	8.9	720	48.0	0.95

Manba: Jahon banki (2024), Davlat statistika qo‘mitasi (2024), Bandlik vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tahlili.

Empirik hisob-kitoblarga ko‘ra, 2019–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘rtacha 5,6 foizlik yillik o‘sishni namoyon etgan, shuningdek, aholi jon boshiga real daromad 3,5 barobarga oshgan. Bu jarayon kambag‘allikning monetar segmentida sezilarli ijobiy siljishlar yaratdi. Biroq, nomonetar kambag‘allik – ya’ni ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy va raqamli infratuzilma imkoniyatlariga kirishdagi tafovutlar – hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

2. Ijtimoiy himoya tizimi va raqamlashtirishning samarasi

Kambag‘allikni kamaytirishdagi muhim burilish nuqtasi — 2021-yilda ishga tushirilgan “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi bo‘ldi. Mazkur tizim orqali 4,2 milliondan ortiq fuqaro haqidagi ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar raqamlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy yordam olishda inson omilini kamaytirib, shaffoflikni ta’minladi. UNICEF [4] va Development Pathways [5] hisobotlariga ko‘ra, ushbu tizim ijtimoiy to‘lovlarning takrorlanishini 22 foizga kamaytirib, real ehtiyojmand qatlamni aniqlashda aniqlikni 30 foizga oshirdi.

Tizimning innovatsion jihati shundaki, u oila daromadini nafaqat rasmiy manbalardan, balki uy xo‘jaligi aktivlari – chorva mollari, tomorqa, transport vositalari – orqali ham baholaydi. Bu esa kambag‘allikni nomonetar mezonlar asosida o‘lchash imkonini beradi. Natijada, ijtimoiy yordam oluvchilar soni kamaygan bo‘lsa-da, har bir oila oladigan yordam hajmi oshgan, ya’ni tizim “samaradorlik indeksi”ni yaxshilagan.

3. Mehnat bozori, bandlik va daromadlar strukturasidagi o‘zgarishlar

Kambag‘allikni kamaytirishning barqaror yo‘li — ish o‘rinlari yaratish va mehnat bozorini diversifikatsiya qilishdir. 2020–2024-yillar davomida mamlakatda 2,1 million yangi ish o‘rni yaratilgan, ularning 65 foizi kichik biznes, xizmat ko‘rsatish va agrosanoat sohalariga to‘g‘ri kelgan (2-jadval).

2-jadval. Hududlar kesimida kambag‘allik darajasi va iqtisodiy drayverlar (2024-yil holatiga)

Viloyat / Hudud	Kambag‘allik darajasi (%)	Asosiy iqtisodiy drayver	O‘rtacha oylik daromad (ming so‘m)	Bandlik o‘sishi (%)	Ta’lim qamrovi (%)	Rivojlanish indeksi (0–1)
Toshkent viloyati	6.5	Logistika, sanoat	5250	5.1	97	0.89
Samarqand viloyati	9.3	Xizmatlar, turizm	4450	4.3	92	0.81
Qashqadaryo viloyati	15.6	Qishloq xo‘jaligi	3950	3.7	87	0.72
Surxondaryo viloyati	16.9	Agroklaster, energetika	3820	3.4	85	0.70
Farg‘ona viloyati	10.2	Hunarmandchilik, eksport	4150	4.8	90	0.77
Jizzax viloyati	12.7	Sanoat, qurilish	4050	4.1	89	0.74
Toshkent shahri	5.8	Innovatsiya, xizmatlar	6450	6.3	99	0.91

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Jahon banki (2024) va muallif tahlili.*

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda iqtisodiy faol aholi soni 15,8 million kishini tashkil etgan, bu 2019-yilga nisbatan 12 foizga ko‘p. Mehnatga layoqatli ayollar bandligi 43 foizdan 48 foizga ko‘tarilgan. Bu jarayon gender tengligini mustahkamlab, oilalarning iqtisodiy faolligini oshirdi.

Shuningdek, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida 300 mingdan ortiq fuqaro kasb-hunar o‘quv kurslariga jalb qilinib, 90 ming nafari kichik biznes uchun imtiyozli kredit va grantlardan foydalandi. Shunday qilib, mehnat bozori ishtirokchilarining bilim va malaka darajasi oshgani sari kambag‘allik darajasi teskari proporsional ravishda pasaygan.

4. Hududiy tafovutlar va iqtisodiy drayverlar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allik darajasi mamlakat hududlari bo‘yicha bir xil emas. Toshkent viloyati va poytaxtda bu ko‘rsatkich 6–7 foiz atrofida bo‘lsa, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida 15–17 foizni tashkil etmoqda [9], [10]. Bu farq, asosan, ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi samaradorligi va ta’lim infratuzilmasidagi nomutanosiblik bilan izohlanadi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” markazi tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-amaliy loyihalarda har bir hudud uchun o‘ziga xos “iqtisodiy drayver” aniqlangan. Masalan, Surxondaryoda agroklasterlar, Qashqadaryoda suv tejovchi texnologiyalar, Samarqandda servis va turizm sohalari, Toshkent viloyatida logistika markazlari kambag‘allikni qisqartirishning lokal omillari sifatida ko‘rsatildi.

Bu loyihalar natijasida 1,4 mingdan ortiq oila qo‘shimcha daromad manbalariga ega bo‘ldi, 50 ming gektar yer maydoni kambag‘al oilalarga ijara asosida berildi, 2 mingdan ortiq oila kichik ishlab chiqarish uskunalari, mototransport va savdo vositalari bilan ta’minlandi.

5. Nomonetar kambag‘allikning tahlili

Kambag‘allik faqat moddiy jihatdan emas, balki ta’lim, sog‘liq, raqamli imkoniyatlar va ijtimoiy faollik bilan ham belgilanadi. Jahon banki (2023) hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda o‘rta maktabni tamomlagan yoshlar ulushi 82 foizni tashkil etsa-da, qishloq joylarda bu ko‘rsatkich 70 foizdan past. Sog‘liqni saqlash tizimiga kirish imkoni bo‘yicha ham urban-rural tafovut 1,7 barobarga teng.

“Ijtimoiy himoya yagona reestri” ma’lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy yordam oluvchilarning 46 foizi sog‘liq bilan bog‘liq cheklovlar tufayli mehnat bozorida faol ishtirok eta olmaydi. Shu sababli, 2024-yildan boshlab tibbiy reabilitatsiya, psixologik yordam va kasbiy qayta tayyorlash dasturlari joriy etildi. Bu yondashuv kambag‘allikdan chiqishning ijtimoiy kapital asosidagi modelini shakllantirmoqda.

6. Inson kapitaliga investitsiyaning natijalari

Kambag‘allikka qarshi kurashda uzoq muddatli va barqaror yechim — inson kapitaliga investitsiya kiritishdir. 2023-yilda ta’lim sohasiga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari YaIMning 6,1 foizini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2019-yildagi 4,3 foizga nisbatan 40 foizga yuqori. Sog‘liqni saqlash sohasidagi investitsiyalar esa YaIMning 3,5 foizigacha oshirildi.

Empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va sog‘liqni saqlashga kiritilgan har 1 foizlik investitsiya kambag‘allik darajasini o‘rtacha 0,4 foizga kamaytiradi. Bu korrelyatsiya ($r = –0,82$) daromad va inson kapitali o‘rtasidagi bevosita teskari bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

7. Barqaror natijalar va strategik yo‘nalishlar

O‘zbekistonning kambag‘allikka qarshi siyosati ijtimoiy yordamdan ishlab chiqarish va mehnatga asoslangan iqtisodiy faollikka o‘tmoqda. 2025-yilgacha “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi orqali kambag‘allikni 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. Shu bilan birga, 2030-yilgacha inson kapitalining milliy indeksi 0,75 dan 0,82 gacha ko‘tarilishi rejalashtirilgan.

Bu yondashuv “Global and National Economic Trends: Uzbekistan–2030” IV forumi g‘oyasi — iqtisodiy o‘sish, innovatsiya va ijtimoiy farovonlik uyg‘unligi tamoyilining amaliy ifodasidir. O‘zbekiston modeli xalqaro miqyosda “raqamli ijtimoiy himoya” konsepsiyasining muvaffaqiyatli tatbiqi sifatida baholanmoqda.

8. Umumiy ilmiy xulosalar

Tahlillar asosida quyidagi ilmiy natijalar shakllandi:

Raqamli ijtimoiy siyosat kambag‘allikka qarshi kurash samaradorligini 1,5 barobar oshiradi.

Inson kapitaliga investitsiya — barqaror farovonlikning asosiy determinanti.

Hududiy differensial siyosat iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Nomonetar kambag‘allikni o‘lchash yangi tahliliy paradigmani shakllantirmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekistonning hozirgi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikka qarshi kurash nafaqat ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi, balki inson salohiyatini ro‘yobga chiqaruvchi, innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning zarur sharti sifatida shakllanmoqda. Bu esa “Uzbekistan–2030” strategiyasining asosiy maqsadi — “inson qadri va farovonligi ustuvor jamiyat” konsepsiyasini ilmiy va amaliy jihatdan ro‘yobga chiqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston iqtisodiyotida kambag‘allikni qisqartirish masalasi davlat siyosatining markaziy yo‘nalishiga aylandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2019-yildan 2024-yilgacha mamlakatda kambag‘allik darajasi 23 foizdan 8,9 foizgacha kamaydi. Bunga iqtisodiy o‘sishning barqarorlashuvi, bandlik dasturlarining kengayishi, ijtimoiy himoya tizimining raqamlashtirilishi va inson kapitaliga yo‘naltirilgan islohotlar sabab bo‘ldi. “Ijtimoiy himoya yagona reestri” tizimining joriy etilishi yordamlarning manzilliligini oshirib, resurslardan oqilona foydalanish imkonini berdi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga kiritilayotgan investitsiyalar inson kapitalini mustahkamlab, uzoq muddatli farovonlikning poydevorini yaratmoqda.

Hududiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allik darajasi viloyatlar o‘rtasida sezilarli farqlarga ega. Toshkent va Samarqand viloyatlarida 7–9 foiz atrofida bo‘lsa, Surxondaryo va Qashqadaryoda 15–17 foizni tashkil etmoqda. Shu bois, har bir hududning iqtisodiy drayverlarini aniqlash, mahalliy imkoniyatlardan kelib chiqib rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish muhimdir. Mehnat bozori tahliliga ko‘ra, 2020–2024-yillarda 2 milliondan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgan, bu esa kambag‘allikdan chiqishning barqaror iqtisodiy asosini yaratmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kambag‘allikka qarshi kurashda uchta omil ustuvor ahamiyatga ega: raqamli ijtimoiy himoya tizimi, inson kapitaliga investitsiya va hududiy differensial siyosat. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ni boshqa davlat ma’lumotlar bazalari bilan integratsiyalash, har bir viloyat uchun “kambag‘allikka qarshi yo‘l xaritasi” ishlab chiqish, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish, shuningdek, mahalla darajasida kambag‘allik monitoringini joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikka qarshi siyosat endilikda faqat ijtimoiy yordam emas, balki inson qadrini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlik va adolatli farovonlikni ta’minlashga qaratilgan milliy strategiyadir. Bu yondashuv “Global and National Economic Trends: Uzbekistan–2030 Strategy” forumi konsepsiyasida ilgari surilgan iqtisodiy o‘sish va inson farovonligi uyg‘unligining amaliy ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. J. Papa, H. Hamdamov, U. Aliev, Y. Oleinik, A. Sukhova, M. Honorati et al., “An Assessment of the Social Protection System in Uzbekistan: Based on the Core Diagnostic Instrument (CODI),” ILO, UNICEF, and World Bank Joint Report, Geneva, 2020.https://documents1.worldbank.org/curated/en/924061602058394488
2. World Bank, “Uzbekistan Poverty and Equity Brief – 2024,” World Bank Group Country Reports, 2024. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099062824104017042
3. World Bank, “Charting Uzbekistan’s Path to Poverty Reduction: Insights from Open Data,” World Bank Blogs, 2023. https://blogs.worldbank.org/en/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i
4. UNICEF, “Uzbekistan Enhances the Social Protection System through Digitalization,” UNICEF Uzbekistan, Mar. 2022. https://www.unicef.org/uzbekistan/en/social-protection-system-digitalized
5. Development Pathways, “Social Protection Single Registry in Uzbekistan,” Development Pathways Policy Briefs, 2022. https://www.developmentpathways.co.uk/our-work/social-protection-single-registry-uzbekistan
6. Development Pathways, “Nine Reasons Why Uzbekistan’s Social Protection Single Registry Digital Transformation Journey Is Unique,” Apr. 2023. https://www.developmentpathways.co.uk/blog/9-reasons-why-uzbekistans-social-protection-single-registry-digital-transformation-journey-is-unique
7. World Bank, “Poverty Headcount Ratio at $2.15 a Day (2017 PPP) – Uzbekistan Country Profile,” World Bank Poverty & Inequality Platform, 2024. https://pip.worldbank.org/country-profiles/UZB
8. World Bank, “Uzbekistan Overview: Development News, Research, Data,” Country Overview Series, 2024. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview
9. Kun.uz, “Uzbekistan’s Poverty Rate Dropped to 8.9% in 2024,” Kun.uz International Edition, Feb. 2025. https://www.kun.uz/en/news/2025/02/03/uzbekistans-poverty-rate-dropped-to-89-in-2024
10. Daryo.uz, “Uzbekistan’s Poverty Rate Declines to 11%, Over 1.5 Million People Move Out of Poverty,” Daryo – World Bank Report Summary, May 2024. https://daryo.uz/en/2024/05/13/uzbekistans-poverty-rate
11. L. Muratjanova, “Evaluating the Role of Social Protection in Uzbekistan,” Journal of Management, Science and Innovation (JMSI), vol. 3, no. 2, pp. 45–59, 2025. https://inlibrary.uz/index.php/jmsi/article/view/102548
12. T. O. Rahimjonovich, “Strategy of Social Protection of the Republic of Uzbekistan,” International Journal of Humanities and Political Science, vol. 4, no. 1, pp. 65–74, 2023. https://inlibrary.uz/index.php/ijhps/article/view/38720
13. Joint SDG Fund, “Single Registry for Social Protection,” UN Joint SDG Fund Publications, Dec. 2021. https://www.jointsdgfund.org/article/single-registry-social-protection
14. UNDP, “Human Development Report 2023/24: Breaking the Poverty Trap,” UNDP Global Reports, New York, 2024. https://hdr.undp.org/en
15. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics, “Labor Market Indicators and Employment Rate 2019–2024,” UzStat Official Portal, 2024. https://stat.uz

PUL-KREDIT SIYOSATIDA BRITANIYA MODELI VA UNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Mohichehra Turobjonovna Kurbonbekova
Ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari o‘rinbosari
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
Email: m.kurbonbekova @tsue.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buyuk Britaniyaning pul-kredit (monetar) siyosati modeli tahlil qilinib, uning asosiy tamoyillari, vositalari va iqtisodiy samaradorligi ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida monetar siyosatni takomillashtirish jarayonida Britaniya tajribasini qo‘llashning imkoniyatlari, afzalliklari va cheklovlari tahlil qilingan. Tadqiqotda taqqoslama tahlil, induktiv va tizimli yondashuvlar qo‘llanilib, Markaziy bank faoliyati, foiz stavkalari siyosati va inflyatsion targetlash mexanizmlarining o‘zaro ta’siri o‘rganilgan. Maqolada O‘zbekiston iqtisodiy tizimi uchun moslashtirilgan Britaniya modelining bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pul-kredit siyosati, Britaniya modeli, Markaziy bank, inflyatsiya, foiz stavkasi, monetar siyosat, O‘zbekiston, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the monetary policy model of the United Kingdom, examining its core principles, instruments, and overall economic effectiveness. The study also evaluates the applicability, advantages, and limitations of implementing the British model within the context of Uzbekistan’s monetary system. Using comparative, inductive, and systemic analysis methods, the research explores the interaction between central bank operations, interest rate regulation, and inflation targeting mechanisms. Based on the findings, the paper provides scientific recommendations for the gradual adaptation of the British monetary framework to the economic conditions of Uzbekistan.

Key words: monetary policy, British model, Central Bank, inflation, interest rate, macroeconomic stability, Uzbekistan, economic development.

Аннотация: В статье анализируется модель денежно-кредитной (монетарной) политики Великобритании, её основные принципы, инструменты и экономическая эффективность. Особое внимание уделено возможностям применения британского опыта в совершенствовании монетарной политики Узбекистана, а также анализу его преимуществ и ограничений. В исследовании использованы методы сравнительного, индуктивного и системного анализа для изучения взаимодействия политики процентных ставок, механизмов инфляционного таргетирования и деятельности Центрального банка. На основе полученных результатов сформулированы научные рекомендации по поэтапной адаптации британской модели к условиям экономики Узбекистана.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, британская модель, Центральный банк, инфляция, процентная ставка, монетарная политика, Узбекистан, экономическая стабильность.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy siyosati ichida pul-kredit (monetar) siyosati markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki iqtisodiy o‘sish, narxlar barqarorligi, bandlik darajasi va to‘lov balansining muvozanati kabi ko‘rsatkichlar bevosita pul-kredit mexanizmlariga bog‘liqdir. Har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy tuzilmasi, moliya bozorlari rivojlanish darajasi va milliy valyuta barqarorligidan kelib chiqib, o‘ziga xos monetar siyosat modelini ishlab chiqadi. Shu nuqtai nazardan, Buyuk Britaniyaning pul-kredit siyosati modeli dunyoda eng samarali va barqaror tizimlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida monetar siyosatning asosiy maqsadi — narxlar barqarorligini ta’minlash hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdir. Ushbu mamlakatda pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi asosiy institut — Angliya Banki (Bank of England) bo‘lib, u 1997 yildan boshlab hukumatdan mustaqil ravishda asosiy foiz stavkasini belgilash, inflyatsiyani maqsadli darajada ushlab turish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash vakolatiga ega. Angliya Banki tomonidan ishlab chiqilgan inflyatsion targetlash modeli hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Monetar siyosatning samaradorligi ko‘p jihatdan Markaziy bankning mustaqilligi, foiz stavkasi siyosati, valyuta kursi barqarorligi va moliya bozorlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Buyuk Britaniya modeli aynan shu omillar uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Bu modelda iqtisodiyotning muhim parametrlarini tartibga solish

asosan foiz stavkalari va ochiq bozor operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, Angliya Bankining faoliyati yuqori darajadagi shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston uchun esa monetar siyosat so‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2017-yildan boshlab mamlakatda valyuta bozorini liberallashtirish, Markaziy bank mustaqilligini kuchaytirish, pul-kredit instrumentlarini modernizatsiya qilish kabi keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Natijada, milliy valyuta — so‘mning kursi bozor mexanizmlari asosida shakllana boshladi, foiz stavkasi iqtisodiy siyosatning asosiy tarmog‘iga aylandi va 2020-yildan boshlab inflyatsion targetlash tizimiga o‘tish boshlangan.

Shunga qaramay, O‘zbekistonda monetar siyosatni yanada takomillashtirish, inflyatsiya kutilmalarini barqarorlashtirish, foiz stavkalari orqali iqtisodiy faollikka ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini kuchaytirish zarurati mavjud. Bu jarayonda ilg‘or davlatlar, xususan Buyuk Britaniyaning tajribasini o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada Buyuk Britaniya pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari, vositalari va boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinadi, shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida ushbu modelning qaysi jihatlarini tatbiq etish mumkinligi, ularning afzalliklari va cheklovlari baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi o‘n yilliklarda Buyuk Britaniya dunyodagi eng samarali va shaffof pul-kredit siyosati (monetar policy) modelini shakllantirgan mamlakatlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bank of England (BoE)ning 2023-yilgi “Monetary Policy Report”ida qayd etilishicha, Britaniya modeli markazida inflyatsion targetlash (inflation targeting), foiz stavkasi mexanizmlari, va mustaqil markaziy bank tamoyillari turadi [1]. Ushbu yondashuv mamlakatda narxlar barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy sikllarni yumshatish hamda iqtisodiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

BoE siyosatining asosiy xususiyati – mustaqil qaror qabul qiluvchi Monetary Policy Committee (MPC) tizimidir. U har oyda inflyatsiya va iqtisodiy o‘sish dinamikasini baholab, asosiy foiz stavkasini belgilaydi. Hisobotda ta’kidlanishicha, MPC qarorlari oldindan e’lon qilinadigan tahliliy prognozlarga asoslanadi va jamoatchilikka ochiq tarzda e’lon qilinadi, bu esa siyosatning institutsional ishonchliligini oshiradi [1]. Shuningdek, BoE siyosatining muhim jihatlaridan biri – foiz stavkalari kanali orqali iqtisodiy faollikka ta’sir ko‘rsatish va miqdoriy yumshatish (quantitative easing) choralarini moslashtirishdir.

Xalqaro moliya tashkilotlari ham Britaniya modelining muvaffaqiyatini yuqori baholaydi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) 2023-yilgi Buyuk Britaniya bo‘yicha hisobotida BoE siyosatini “moslashuvchan, prognozga asoslangan va institutsional mustaqil” deb ta’riflaydi [4]. IMF tahliliga ko‘ra, bu modelning samaradorligi ayniqsa 2008-yilgi moliyaviy inqirozdan so‘ng sezilarli darajada oshgan, chunki BoE iqtisodiy zarbalarga tezkor javob bera olgan.

Ilmiy nuqtai nazardan, F. S. Mishkin o‘zining mashhur asarida monetar siyosatni iqtisodiy barqarorlikning “pul kanallari” orqali boshqarish konsepsiyasini chuqur tahlil qilgan [2]. Uning fikricha, markaziy banklarning samaradorligi, birinchi navbatda, ularning inflyatsion kutilmalarni boshqarish qobiliyatiga bog‘liq. Mishkin modeli Britaniya tajribasi bilan bevosita mos keladi: foiz stavkasini asosiy vosita sifatida qo‘llash, bozor ishtirokchilarining kutilmalarini ochiq kommunikatsiya orqali boshqarish va monetar siyosatni fiskal siyosatdan ajratish tamoyillari barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2024-yilda e’lon qilingan “Pul-kredit siyosati sharhi”da milliy monetar siyosatni inflyatsion targetlashga o‘tish bosqichlari va Markaziy bankning mustaqilligini kuchaytirish choralari batafsil yoritilgan [3]. Hujjatda, ayniqsa, Britaniya modelidagi tajriba asosida inflyatsiyani prognozlash, ochiq kommunikatsiya siyosati va foiz stavkalari kanali mexanizmini takomillashtirish O‘zbekiston uchun ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PQ–4702-sonli qarorida “pul-kredit siyosatini bosqichma-bosqich takomillashtirish” masalalari belgilab berilgan [5]. Qarorda Markaziy bankka inflyatsion targetlash tamoyillarini joriy etish, monetar instrumentlar bozorini rivojlantirish, likvidlikni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlash va ochiq kommunikatsiya siyosatini yo‘lga qo‘yish vazifalari yuklatilgan. Bu yondashuv Britaniya modelining milliy kontekstdagi adaptatsiyasi sifatida talqin etilishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasida monetar siyosatning asosiy maqsadlari — inflyatsiya barqarorligi, iqtisodiy o‘sish va moliyaviy ishonchni ta’minlash — jihatidan o‘xshashlik mavjud. Biroq O‘zbekiston uchun Britaniya modelini to‘liq joriy etishdan avval muayyan makroiqtisodiy va institutsional shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Avvalo, pul-kredit bozorining chuqurligini oshirish, inflyatsion kutilmalarni samarali boshqarish va fiskal siyosat bilan muvofiqlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Britaniya modeli O‘zbekiston uchun bosqichma-bosqich moslashtirish imkonini beruvchi namunaviy tizimdir. U inflyatsiyani nazorat qilish, foiz stavkalari siyosatini optimallashtirish va Markaziy bankning mustaqilligini kuchaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, Britaniya tajribasining to‘liq muvaffaqiyatli tatbiqi uchun mamlakatda bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi, bank tizimi raqobatbardoshligini oshirish va monetar siyosat kommunikatsiyasining ochiqligini kengaytirish talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Buyuk Britaniya pul-kredit siyosatining mohiyati va tamoyillari

Buyuk Britaniyada pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi markaziy institut — Bank of England (BoE) — 1997 yildan buyon mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lib, siyosiy aralashuvlardan xoli faoliyat yuritadi [1]. Ushbu modelning muvaffaqiyati bir necha asosiy tamoyillarga tayanadi: inflyatsion targetlash tizimi, foiz stavkalari siyosati, ochiq bozor operatsiyalari, moliyaviy barqarorlik monitoringi, va shafoflik (transparency) [1], [4].

BoE har chorakda Monetary Policy Report orqali jamoatchilikni inflyatsiya kutilmalari, foiz siyosati va yalpi ichki mahsulot (YaIM) prognozlari bilan tanishtiradi. Bu tizim iqtisodiy ishonchni oshiradi va bozor ishtirokchilari uchun kutilmalarni boshqarish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Inflyatsiyani 2 foiz atrofida ushlab turish orqali BoE iqtisodiy sikllarni yumshatadi, milliy valyuta — funt sterlingning barqarorligini saqlaydi va investitsion muhitni mustahkamlaydi.

BoE siyosati shaffoflik va prognozga asoslangan qarorlar tamoyiliga tayanadi. Masalan, 2023-yil yakuniga ko‘ra, Buyuk Britaniyada inflyatsiya 10,1 foizdan 4,6 foizgacha kamaygan [1], bu esa monetar siyosat choralarining natijadorligini ko‘rsatadi.

2. O‘zbekiston pul-kredit siyosatining hozirgi holati

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki so‘nggi yillarda monetar siyosatni modernizatsiya qilish borasida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan:

Inflyatsion targetlash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilib, 2023-yilda 5 foiz darajasida maqsad belgilandi [3];

Asosiy foiz stavkasi (14 foiz) iqtisodiy faollikni tartibga solish vositasi sifatida qo‘llanilmoqda;

Valyuta liberallashtirilishi eksport-import faoliyatini erkinlashtirdi;

Makroprudensial siyosat orqali bank sektorining moliyaviy barqarorligi ta’minlanmoqda;

Raqamli transformatsiya jarayonlari to‘lov tizimlari samaradorligini oshirmoqda.

2024-yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonda inflyatsiya darajasi 9,2 foizni tashkil etdi [3]. Bu natija 2020-yilgi 14,5 foiz ko‘rsatkich bilan solishtirilganda sezilarli pasayishdir. Markaziy bankning muntazam Pul-kredit siyosati sharhi hisobotlarida monetar vositalarning iqtisodiy faollikka ta’siri tahlil qilinadi va foiz stavkalari kanali asosiy regulyator sifatida belgilanadi.

3. Buyuk Britaniya tajribasining O‘zbekiston sharoitida qo‘llash istiqbollari

Britaniya modelining eng dolzarb jihatlari — Markaziy bank mustaqilligi, inflyatsion targetlash, va shafoflik — O‘zbekiston uchun ham qo‘llanishi mumkin. Biroq, iqtisodiy infratuzilma farqlari sababli, bu modelni bosqichma-bosqich joriy etish zarur.

Quyidagi jadvalda ikki mamlakat monetar siyosati o‘rtasidagi asosiy farqlar va uyg‘unlashuv imkoniyatlari tahlil qilingan:

1-jadval. Buyuk Britaniya va O‘zbekiston monetar siyosatining taqqosiy tahlili (2024-yil holatiga ko‘ra)

№	Ko‘rsatkich	Buyuk Britaniya (BoE)	O‘zbekiston (MB)	Tahliliy izoh
1	Inflyatsion target	2%	5% (2023-yil maqsad)	Britaniya modeli qat’iy targetga asoslangan; O‘zbekiston bosqichma-bosqich yondashuvni tanlagan.
2	Asosiy foiz stavkasi	5.25%	14%	O‘zbekistonda yuqori stavka iqtisodiy faollikni cheklaydi; differensial yondashuv zarur.
3	Markaziy bank mustaqilligi	Yuqori (1997-yildan)	Nisbatan past (huquqiy mustahkamlash bosqichida)	Mustaqillik darajasini oshirish zarur.
4	Ochiq bozor operatsiyalari	Keng rivojlangan	Boshlang‘ich bosqichda	Qimmatli qog‘ozlar bozori orqali likvidlik boshqaruvi takomillashtirilishi kerak.
5	Shaffoflik va kommunikatsiya	Yuqori (har chorakda hisobot)	O‘sib bormoqda	OAV orqali muntazam prognoz va tahlil e’lonlari ishonchni oshiradi.

1-jadvalda Britaniya va O‘zbekiston monetar siyosatlari o‘rtasidagi struktura, vositalar va natijalarning asosiy farqlarini ko‘rsatadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Britaniya modeli yuqori institutsional mustaqillikka va prognozga asoslangan siyosatga ega bo‘lsa, O‘zbekistonda bu tizim hali shakllanish bosqichida. Shu bois, bosqichma-bosqich yondashuv eng maqbul variant hisoblanadi.

4. Tahliliy xulosalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida Britaniya modelining quyidagi elementlarini joriy etish eng katta samarani beradi:

Markaziy bank mustaqilligini kuchaytirish – siyosiy ta’sirlardan xoli qaror qabul qilish tizimi iqtisodiy ishonchni oshiradi;

Inflyatsion targetlashni takomillashtirish – jamoatchilikka ochiq kommunikatsiya orqali inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtirish;

Foiz stavkasi siyosatini real sektor bilan uyg‘unlashtirish – ishlab chiqarish va eksport sektorlariga pastroq foizli kredit mexanizmlarini yaratish;

Ochiq bozor operatsiyalarini rivojlantirish – davlat qimmatli qog‘ozlari va repo operatsiyalarini kengaytirish orqali monetar uzatish mexanizmini kuchaytirish;

Shaffoflik va axborot almashuvini oshirish – inflyatsiya, foiz stavkasi va iqtisodiy prognozlar bo‘yicha muntazam ochiq hisobotlarni joriy etish.

5. Ilmiy izoh

Britaniya modelining muvaffaqiyati, asosan, tashkiliy mustaqillik, barqaror inflyatsion kutilmalar va institutsional ishonchga asoslanadi. O‘zbekiston uchun bu modelning to‘liq tatbiqi emas, balki moslashtirilgan versiyasi maqsadga muvofiqdir. Masalan, inflyatsion targetlash tizimini to‘liq joriy etishdan avval pul bozori infratuzilmasini kengaytirish, Markaziy bankning kommunikatsion strategiyasini kuchaytirish va monetar vositalarni turlicha segmentlarga yo‘naltirish zarur.

Shuningdek, Britaniya tajribasidan farqli o‘laroq, O‘zbekistonda fiskal siyosatning monetar siyosatga ta’siri kuchliroq. Shu sababli, monetar va fiskal siyosat o‘rtasidagi koordinatsiyani mustahkamlash, budjet taqchilligini inflyatsion bosimga aylantirmaslik muhim ahamiyatga ega.

6. Umumiy natijalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Britaniya modeli O‘zbekiston uchun barqaror, prognozga asoslangan va uzoq muddatli iqtisodiy siyosat yuritish imkonini beradi. Ammo bu tizimni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun:

Markaziy bankning mustaqilligini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash;

Inflyatsion prognoz modellarini zamonaviy statistik uslublar asosida yangilash;

Foiz stavkalari siyosatini real sektor bilan muvofiqlashtirish;

Ochiq bozor operatsiyalarini kengaytirish va likvidlikni bozor mexanizmlari orqali boshqarish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pul-kredit siyosati modeli o‘zining barqarorlik, shaffoflik va maqsadli boshqaruv tamoyillari bilan ajralib turadi. Ushbu modelda inflyatsion targetlash tizimi, foiz stavkalari siyosati va Markaziy bank mustaqilligi muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida Britaniya modelining ayrim elementlarini tatbiq etish, xususan Markaziy bankning institutsional mustaqilligini mustahkamlash, bozor instrumentlarini kengaytirish, inflyatsion targetlash tizimini takomillashtirish va ochiqlikni oshirish — mamlakatning iqtisodiy barqarorligi hamda xalqaro ishonchliligini kuchaytiradi.

Britaniya modelining O‘zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich tatbiqi milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, makrobarqarorlikni ta’minlash va uzoq muddatli investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish imkonini beradi. Shu bois, ushbu modelni milliy sharoitda o‘rganish va mahalliy iqtisodiy omillar bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekistonning pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bank of England. (2023). *Monetary Policy Report*. London: BoE Publications.
2. Mishkin, F. S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson Education.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *Pul-kredit siyosati sharhi*. Toshkent.
4. IMF. (2023). *United Kingdom: Staff Report for the 2023 Article IV Consultation*. Washington, D.C.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PQ–4702-son qarori. *Pul-kredit siyosatini bosqichma-bosqich takomillashtirish to‘g‘risida*.

CHET EL INVESTITSIYALARINI JALB ETISHDA MOLIYAVIY KAFOLATLAR TIZIMI

Makhmudova Mukhlisa Kodirjon qizi
Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i
Bank ishi kafedrasi dotsenti, DSc.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
Email: m.mahmudova0112@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0000-0002-5777-6606

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet el investitsiyalarini jalb etish jarayonida moliyaviy kafolatlarning ahamiyati, turlari va ularni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Investitsiya muhitini yaxshilash, investorlarning huquqiy va moliyaviy himoyasini ta’minlash hamda O‘zbekiston sharoitida xalqaro moliyaviy kafolatlar tizimini takomillashtirish yo‘llari yoritiladi. Xalqaro tajribalar (Jahon banki, MIGA, EBRD) asosida milliy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Siyosat muvofiqligi	50	5.31	0.77	3.81	6.99
Manfaatdorlar ishtiroki	50	5.96	0.80	4.29	8.33
Raqamli platforma ishtiroki	50	4.03	1.06	2.16	6.34
Ekologik sezuvchanlik indeksi	50	2.93	0.69	1.71	4.74
Choralar davomiyligi	50	2.78	1.50	1.00	5.00
Natijaviylik o‘zgaruvchanligi	50	2.06	0.49	0.72	2.87
Bilimga kirish imkoniyati	50	4.90	1.17	2.05	6.98

Manfaatdor tomonlar guruhlari o‘rtasida o‘rtacha taassurot qiymatlarida sezilarli farqlar aniqlangan (F-testi: 4.63, erkinlik darajasi = 2, p < 0.01), ayniqsa turizm bilan bog‘liq sohalarda bu ko‘rsatkichlar qishloq xo‘jaligi va xizmatlar segmentlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. Model natijalari ($R^2 = 0.718$) shuni ko‘rsatadiki, natijaviylikdagi farqlarning 71.8 foizi kampaniya davomiyligi bilan izohlanadi, biroq simulyatsiya modeli bo‘yicha bu bog‘liqlik biroz kamroq ahamiyatli bo‘lib chiqqan.

Bu degani, tanlovdagi namuna xatoliklari ma’lumotlarga sezilarli farq kiritmagan, faqat modellashtirilgan natijalar noaniqlik chegaralari bo‘yicha biroz kengroq bo‘lgan, bu esa kutilgan holat. Natijada, ular faqatgina aholi qamrovini kengaytirish uchun emas, balki tajribaga asoslangan umumiy bilimlar asosida ham harakat qila boshlaganlar. Bu esa kasbiy ikkilanish muammosini yuzaga keltirdi — biz bu holatni marketingga asoslangan yangi mas’uliyatlar tufayli asl kasbiy funksiyaning zaiflashishi sifatida izohlaymiz.

3-jadval. Barqaror iqtisodiy o‘sish uchun strategik marketing choralari TOPSIS qaror matritsasi va reytingi (to‘liq jadval)

Elementlar / Mezonlar	C1	C2	C3	C4	C5	C6	C7	C8	C9	C10
Asosiy qiymatlar										
A1: Raqamli kampaniyalar	0.82	0.54	0.78	0.60	0.88	0.73	0.92	0.50	0.41	0.67
A2: Mintaqaviy brending	0.76	0.66	0.81	0.65	0.71	0.83	0.61	0.62	0.48	0.71
A3: Ma’lumotga asoslangan simulyatsiya	0.69	0.84	0.90	0.79	0.63	0.89	0.87	0.91	0.72	0.84
Kvadrat ildiz (bo‘luvchi qiymatlar)	1.314	1.197	1.440	1.186	1.294	1.419	1.405	1.209	0.958	1.288
Normallashtirilgan matritsa (A1)	0.6241	0.4511	0.5415	0.5059	0.6799	0.5144	0.6546	0.4134	0.4282	0.5202
Normallashtirilgan matritsa (A2)	0.5785	0.5514	0.5624	0.5481	0.5485	0.5849	0.4340	0.5127	0.5013	0.5513
Normallashtirilgan matritsa (A3)	0.5252	0.7018	0.6249	0.6661	0.4867	0.6271	0.6190	0.7525	0.7519	0.6522
Og‘irliklar (hammasi 0.1)	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1
Og‘irlashtirilgan matritsa (A1)	0.0624	0.0451	0.0542	0.0506	0.0680	0.0514	0.0655	0.0413	0.0428	0.0520
Og‘irlashtirilgan matritsa (A2)	0.0578	0.0551	0.0562	0.0548	0.0549	0.0585	0.0434	0.0513	0.0501	0.0551
Og‘irlashtirilgan matritsa (A3)	0.0525	0.0702	0.0625	0.0666	0.0487	0.0627	0.0619	0.0752	0.0752	0.0652
Ideal musbat qiymatlar	0.0624	0.0702	0.0625	0.0666	0.0680	0.0627	0.0655	0.0752	0.0752	0.0652
Ideal manfiy qiymatlar	0.0525	0.0451	0.0542	0.0506	0.0487	0.0514	0.0434	0.0413	0.0428	0.0520
Musbat idealga masofa (A1)	0.0588	0.0588	0.0531	0.0525	0.0500	0.0500	0.0487	0.0487	0.0350	0.0132
Manfiy idealga masofa (A1)	0.0309	0.0293	0.0293	0.0293	0.0293	0.0221	0.0221	0.0000	0.0000	0.0000
Musbat idealga masofa (A2)	0.0491	0.0489	0.0465	0.0461	0.0445	0.0425	0.0423	0.0361	0.0270	0.0101
Manfiy idealga masofa (A2)	0.0200	0.0193	0.0165	0.0163	0.0158	0.0145	0.0127	0.0127	0.0079	0.0031
Musbat idealga masofa (A3)	0.0220	0.0196	0.0196	0.0196	0.0196	0.0036	0.0036	0.0000	0.0000	0.0000
Manfiy idealga masofa (A3)	0.0616	0.0616	0.0563	0.0557	0.0533	0.0533	0.0521	0.0487	0.0350	0.0132
Yopishish koeffitsienti (A1)	0.3449	0.3329	0.3555	0.3584	0.3697	0.3061	0.3117	0.0000	0.0000	0.0000
Yopishish koeffitsienti (A2)	0.2897	0.2831	0.2617	0.2619	0.2618	0.2546	0.2309	0.2603	0.2272	0.2353
Yopishish koeffitsienti (A3)	0.7369	0.7583	0.7413	0.7392	0.7308	0.9374	0.9361	1.0000	1.0000	1.0000
Umumiy reyting natijasi	2-o‘rin	3-o‘rin	1-o‘rin							

Barcha segmentlar bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar bilan solishtirganda, strategik muvofiqlik ballari Andijonda pastroq ($F = 2.97$, $p < 0.05$), Namanganda esa yuqoriroq ($F = 5.11$, $p < 0.01$) bo‘lgan. Javobning kechikish darajasi Qoraqalpog‘istonda yuqori ($F = 4.22$, $p < 0.05$), Farg‘onada esa pastroq ($F = 3.41$, $p < 0.05$) bo‘lib chiqqan. Ishtirok ko‘rsatkichi o‘zgaruvchanligi Jizzaxda yuqori ($F = 6.44$, $p < 0.01$), Buxoroda esa past ($F = 2.56$, $p < 0.05$) bo‘lgan. Viloyat darajasida modellashtirilgan va kuzatilgan natijalar vizual taqqoslanganda ham xuddi shu farqlar yaqqol ko‘rinadi: simulyatsiya holatida yuqori reytingli dasturlar o‘rtacha chiziq ustida joylashgan bo‘lsa, regressiya holatida bu chiziq empirik ma’lumotlar bilan deyarli to‘qnashadi.

Reyting va semantik o‘zgarishlar seriyasi o‘rtasidagi statistik tahlil ularning o‘zaro bog‘liqligi pastligini ko‘rsatdi ($r = 0.217$). “UzaMark” tashabbus yetakchisi shunday izoh berdi: “Boshlang‘ich pilotdan keyin tatbiqot tez kengaydi. Boshqa shahar hokimiyatlari bu modelning afzalliklarini ko‘rib, o‘zlarining avvalgi qaror qabul qilish uslublarini to‘liq almashtirishdi.”

TOPSIS modeli asosida eng kichik og‘ishli simulyatsiya o‘rtacha yopishuv koeffitsienti $\alpha=0.736\backslash alpha = 0.736\alpha=0.736$ bilan yaxshi moslikni ko‘rsatdi (3-jadvalga qarang). Ushbu tadqiqot marketingga asoslangan siyosatlarning ma’lumotlarga tayangan baholash tizimini yaratishdagi ahamiyatini ochib beradi. Empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, agar model parametrlari va strukturaviy farazlar vaqt davomida o‘zgarmas deb hisoblansa, maksimal kampaniya ta’siri 2021-yildan boshlab yuzaga chiqqan. Ikkita tarqalish mexanizmi — mahalliy (grassroots) miqyoslashtirish va raqamli platformaga asoslangan kengayish yo‘llari — manfaatdor tomonlar ishtiroki va resurslarni muvofiqlashtirishga bog‘liq konkret omillarni hal qilish orqali barqaror natijaga erishishga hissa qo‘shadi.

Umuman olganda, strategik choralar inson xatti-harakatiga ta’siri bo‘yicha qarashlar bir xil bo‘lmagan, aksariyat hollarda bu baholar tashqi omillar — siyosiy noaniqlik, marketing haddan tashqari kengayishi, ijrodagi to‘siqlar va iqtisodiy o‘zgaruvchanlik — bilan belgilanib, ijobiy baholovchi postlar soni juda kam bo‘lgan. Biz ishlab chiqqan regressiya-simulyatsiya modeli, ayniqsa Markaziy Osiyo kontekstiga asoslanib, nafaqat nazariy hissa sifatida, balki o‘tish iqtisodiyotlarida fragmentlangan marketing choralarining salbiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy oqibatlariga umumiy ko‘rinish beruvchi amaliy model sifatida ham xizmat qiladi.

Platformalar bo‘yicha eng ko‘p uchraydigan baholovchi jihat — bu muvofiqlikning yetishmasligi bo‘lib, bu holat chalkashlik, befarqlik, ishonchsizlik, siyosiy charchoq va institutlarga nisbatan ishonchning yemirilishi kabi domino ta’sirlarini keltirib chiqargan. Bizning simulyatsiya modelimiz shuni ko‘rsatadiki, kampaniyaga asoslangan yechimlarning ortiqcha qo‘llanilishi quyidagi muammolarga olib kelishi mumkin: (1) mos kelmagan kutishlar, (2) kasbiy chegaralarning buzilishi, (3) ishonch inqirozi, (4) strukturaviy qarama-qarshiliklar. Bularning barchasi ma’lumotlarga asoslangan siyosat tizimida mavjud kontekstual nomutanosibliklarni kuchaytiradi va tengsizliklarning chuqurlashishiga olib keladi.

Qisqa muddatli (2019–2021) ma’lumotlardan kelib chiqqan naqsh buzilishi uzoqroq vaqt qamrovidagi ketma-ketlikka qo‘shildi, chunki bu davr modellashtirilgan doiradan tashqaridagi keskin o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, marketingga asoslangan yechimlar tashkilotlarning asl mandatini almashtiradi yoki buzadi, chunki ular bir nechta strukturaviy darajalarda o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi — bu esa muvaffaqiyatli, biroq barqaror bo‘lmagan o‘tish bosqichlariga olib keladi.

Ushbu natijalar marketing choralarining mintaqalarda barqarorlikka mos keluvchi musbat moslashuvni shakllantirish imkoniyatlarini yaratishdagi faollashtiruvchi salohiyatini tasdiqlaydi (Ambili, 2024; Verma va boshq., 2024). Bu moslashuvchan, kognitiv va siyosiy afzalliklarni yaratishga xizmat qiladi (Islam, 2021; Chatterjee va boshq., 2021; Feijoo va boshq., 2023). Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalarda baham ko‘rilgan postlar foydalanuvchilar tomonidan muhim deb hisoblangan tajribalarni ifodalovchi evristikalar yoki kontekstga oid atributlar to‘plami bo‘lishi mumkin.

Facebook’dagi narrativlar, shaxsiy bilim, hissiyot va ishonch kabi omillar orqali, choralar siyosiy tajriba sifatida qanday idrok qilinayotganini anglashga yordam beradi (Espinosa va boshq., 2021; Park va boshq., 2022), bu idrok raqamli vositalar orqali shakllanadi va ifoda etiladi (Risdwiyanto va boshq., 2023; Warsiman va boshq., 2024).

Shuningdek, bizning modelimizdagi reyting va hissiy tendensiyalar na O‘zbekistonga va na Qozog‘istonga xos bo‘lib, bu esa ushbu talqin modeli platforma iqtisodiyoti o‘zgarishlarini konkret kontekstdan tashqarida ham tushunish imkonini beradi. Eng muhim natijalardan biri shuki, samaradorlik o‘zgaruvchanligi va semantik toifalar siyosiy ishonch indeksi yoki xatti-harakatdagi uyg‘unlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan.

Ishtirokchilikka asoslangan yechimlar esa qaror nuqtalari faoliyatidagi xilma-xillikni oshirdi va chora-tadbirlar mantiqini yanada inklyuziv, tezkor va ma’lumotga asoslangan holga keltirish imkonini yaratdi. Ayniqsa, ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar amaliyot koalitsiyalariga transformatsiya dinamikasini tushunishda yordam berishi mumkin, bu strukturaviy va semantik o‘lchamlar orqali raqamli tajribani ifodalaydi.

Yuqori sifatli chora-tadbirlar tajribasini hamkorlikda yaratish orqali barqarorlik va uzoq muddatli siyosiy samaradorlik uchun jamoatchilik qo‘llovini kuchaytirish mumkin (Lim, 2022; Martusenko va boshq., 2023). Biz ishlab chiqqan talqin modeli ulashish iqtisodiyoti rivojlanishidan ta’sirlangan marketingga asoslangan choralarning monitoring va baholanishida foydali manba bo‘lishi mumkin degan umiddamiz.

Bu natijalar Yamagishi va Chatterjee tomonidan KXKlar (kichik va o‘rta korxonalar) misolida e’lon qilingan xulosalar bilan hamohang bo‘lib, ularda polinomial egri chiziq (bizning holatda p-spline) juda past va juda yuqori qiymatlardagi sezuvchan ko‘rsatkichlar uchun oddiy chiziqli modeldan ko‘ra aniqroq natijalarni bergani ta’kidlanadi.

Garchi platformalarning ishonch boshqaruvidagi roli marketing tadqiqotchilari va siyosat ishlab chiquvchilar o‘rtasida bahsli mavzu bo‘lsa-da (Verma va boshq., 2024; Espinosa va boshq., 2021; Park va boshq., 2022), faqat ozchilik ishtirokchilik marketingining barqarorlikni faollashtiruvchi vosita sifatidagi foydasini bevosita muhokama qilgan.

Raqamli tajriba bo‘yicha avvalgi tadqiqotlarga tayanib (Feijoo va boshq., 2023; Islam & Verma, 2024), bizning tahlilimiz platformalarda tarqatilgan narrativlar kontekstni shakllantiruvchi vositalar to‘plamini ifodalashini ko‘rsatadi. Shuningdek, bizning talqin modeli ilgari o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini nafaqat tasdiqlaydi (masalan, Risdwiyanto va boshq., 2023; Lim, 2022), balki o‘ziga xos empirik asoslangan “transformatsiya qanday sodir bo‘lishini hikoya qiluvchi” narrativni ham taqdim etadi (Park va boshq., 2022, 48-bet).

Qiziqarli jihati shundaki, Facebook’dagi kontent Toshkent va Andijon kabi hududlarda (turizm, bozorlash va yirik jamoat faolliklari bilan bog‘liq) ijobiy va konstruktiv bo‘lgan bo‘lsa, Namangan va Qoraqalpog‘iston klasterlarida bu kontent ko‘proq cheklovlar va kechikishlar mavzusida bo‘lgan.

Ushbu xatolik turlarining batafsil muhokamasi ilovada keltirilgan (A-ilova, masalan: Verma va boshq., 2024; Espinosa & Feijoo, 2023; Lim, 2022). Garchi so‘rovda ishtirok etgan tashkilotlar mahalliy kontekstda o‘rganilgan bo‘lsa-da, semantik kategoriyalarga asoslangan ishtirokchilik tahlili boshqa kontekstlarga, ayniqsa qattiq tartibga solingan va raqamli tarqoq hududlarga ham tadbiq etilishi mumkin.

Biroq, raqamli ma’lumotlar har doim ham barcha aholining qarashlarini aks ettirmaydi — masalan, internetga ulanmagan yoki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaydigan aholining fikrlari bu tahlilga kirmaydi. Ayniqsa, ushbu tadqiqotda qabul qilingan yakka holatli tadqiqot usuli sifatli barqarorlik tadqiqotida asosli va kontekstual tarzda o‘rinli bo‘lsa-da (Chatterjee, 2021, 97-bet), natijalarni umumlashtirish va talqin modelini keng qo‘llash — aynan Markaziy Osiyo konteksti bilan bog‘liq cheklov bo‘lib qolishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy matnlar ko‘pincha so‘zlashuv tili, metaforalar va ko‘p so‘zli murakkab iboralarni o‘z ichiga oladi. Ushbu suyuq va noaniq tuzilma avtomatlashtirilgan tahlillarda kalit so‘zlarga asoslangan qidiruv samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, kelgusidagi tadqiqotlarimiz Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridan qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash va ularni tahlil qilish orqali modelimizni kengaytirish va tasdiqlashga qaratiladi. Bu kontekstdan tashqaridagi manbalarni, masalan hukumat hisobotlari, fuqarolar forumlari, manfaatdor tomonlar seminarlarining stenogrammalarini ham o‘z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyodagi choralar davomiyligiga asoslanib, maydoniy rivojlanish o‘lchovlaridagi noaniqlik darajasi aniqlangan hamda bu mintaqadagi maydonda to‘plangan ma’lumotlarning modellashtirish va baholash maqsadlarida foydalanilishi asoslab berilgan. Samaradorlikdagi o‘zgaruvchanlik bog‘liqliklari aniqlanganidan kelib chiqib, umid qilamizki, ulashish iqtisodiyoti tomonidan siqib chiqarilayotgan strategik marketing tizimlari mualliflari va siyosatchilar bu topilmalar orqali inertlikni yengib o‘tish yo‘llarini kashf etishadi.

Simulyatsiya va regressiyaga asoslangan bashoratli modellar orqali solishtirma baholash murakkab siyosiy muhitlarda subyektiv va zamonaviy empirik o‘lchovlar o‘rtasida uyg‘unlikka erishishda foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu tadqiqotda qo‘llangan geofazoviy ma’lumotlar, masalan yaqinda UzaMark tomonidan yangilangan samaradorlik zichligi xaritasi, simulyatsiya aniqligini yanada yaxshilash imkonini beradi.

Shuningdek, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan matnlar ko‘pincha metaforalar, jargonlar va ko‘p so‘zli iboralardan iborat bo‘ladi. Bunday norasmiy va kontekstga xos diskurs avtomatlashtirilgan klassifikatsiya usullarida kalit so‘zlarga asoslangan izlash samaradorligini cheklaydi. Yana bir cheklov shundaki, pastdan-yuqoriga tashabbuslarni aniqlash va chuqur ma’lumotlarga kirishdagi qiyinchiliklar sababli manfaatdor tomonlar 14 ta turli mintaqaviy tashkilotlardan tanlab olindi.

Amaldagi ma’lumotlar bazasi bitta yig‘im bosqichiga asoslangan bo‘lib, kelajakdagi tadqiqotlar davlat va xususiy institutlar o‘rtasidagi individual idrok farqlarini aniqlashga qaratilishi mumkin. Bundan tashqari, biz o‘rgangan soha va platformalarning xilma-xilligi barchasi uchun yagona samaradorlik mezonlarini ishlab chiqishni murakkablashtirdi — bu esa, kelajakdagi modellarni takomillashtirish uchun muhim yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ambili, K. (2024). Strategic marketing interventions for sustainable economic development: A comprehensive analysis of innovative approaches and global case studies. World Journal of Advanced Research and Reviews.
2. Chatterjee, S., et al. (2021). Adoption of social media marketing for sustainable business growth of SMEs in emerging economies: The moderating role of leadership support. Sustainability.
3. Ebrahim Aman, E., et al. (2023). Tourism marketing & economic sustainability of tourist destinations: Perspectives of Bale Mountains National Park. Gazdaság és Társadalom.
4. Espinosa, V. I., et al. (2021). Principles of sustainable economic growth and development: A call to action in a post-COVID-19 world. Sustainability.
5. Feijoo, M. G., et al. (2023). Impact of marketing policies and strategies on the advancement of sustainable development goals: A systematic review. International Journal of Business Environment.
6. Hidayat, M., et al. (2022). Sustainable digital marketing strategy in the perspective of sustainable development goals. Komitmen: Jurnal Ilmiah Manajemen.
7. Islam, A. (2021). The intervention of strategic innovation practices in between regulations and sustainable business growth: A holistic perspective for Malaysian SMEs.
8. Lim, W. M. (2022). The sustainability pyramid: A hierarchical approach to greater sustainability and the United Nations Sustainable Development Goals with implications for marketing theory, practice, and public policy. Australasian Marketing Journal.
9. Martusenko, I., et al. (2023). Strategic PR guidelines for marketing planning to ensure the sustainable development of socio-economic systems. International Journal of Sustainable Development and Planning.
10. Park, J. Y., et al. (2022). Sustainable marketing strategies as an essential tool of business. The American Journal of Economics and Sociology.
11. Risdwiyanto, A., et al. (2023). Sustainable digital marketing strategy for long-term growth of MSMEs. Journal of Contemporary Administration and Management (ADMAN).
12. Verma, S., et al. (2024). Marketing innovation for sustainability: Review, trends, and way forward. Business Ethics, the Environment & Responsibility.
13. Warsiman, W., et al. (2024). The influence of entrepreneurship and digital marketing on sustainable economic development. Integrated Journal of Business and Economics.
14. Yamagishi, K. D., et al. (2021). Strategic marketing initiatives for small co-operative enterprises generated from SWOT-TOWS analysis and evaluated with PROMETHEE-GAIA. Journal of Co-operative Organization and Management.

MEHNAT MUNOSABATLARI CHAT-BOTINI YARATISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Irmatova Aziza Baxramovna
TDIU, i.f.d (DSc), professor

Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi
TDIU, doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt asosida mehnat munosabatlari chat-botini yaratishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va zaruriyati chuqur ilmiy-nazariy tahlil asosida o‘rganilgan. SWOT-tahlil natijasida O‘zbekiston Respublikasida chat-botni yaratish va joriy etishning kuchli va kuchsiz tomonlari, uning imkoniyat va tahdidlari asoslab berilgan. 37 milliondan ortiq aholi mavjud bo‘lgan mamlakatda mehnat masalalari bo‘yicha murojaatlar soni yildan-yilga ortib borayotgan sharoitda, nazariy va SWOT-tahlillar asosida respublikada mehnat munosabatlari chat-botini yaratishda bir qator taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat munosabatlari, chat-bot, sun’iy intellekt, davlat xizmatlari, mehnat resurslari.

Abstract: This article, based on an in-depth scientific and theoretical analysis, examines the socio-economic significance and necessity of creating an artificial intelligence-based labor relations chatbot in the context of the digital economy. A SWOT analysis substantiates the strengths, weaknesses, opportunities, and threats of developing and implementing such a chatbot in the Republic of Uzbekistan. In a country with a population of over 37 million, where the number of labor-related inquiries increases annually, a set of proposals and recommendations for creating a labor relations chatbot is presented based on theoretical and SWOT analyses.

Key words: labor relations, chatbot, artificial intelligence, public services, labor resources.

Аннотация: В данной статье на основе глубокого научно-теоретического анализа изучены социально-экономическое значение и необходимость создания чат-бота по трудовым отношениям на основе искусственного интеллекта в условиях цифровой экономики. В результате SWOT-анализа обоснованы сильные и слабые стороны, возможности и угрозы создания и внедрения чат-бота в Республике Узбекистан. В стране с населением более 37 миллионов человек, где количество обращений по вопросам труда ежегодно растёт, на основе теоретического анализа и SWOT-анализа приведён ряд предложений и рекомендаций по созданию чат-бота по трудовым отношениям.

Ключевые слова: трудовые отношения, чат-бот, искусственный интеллект, государственные услуги, трудовые ресурсы.

KIRISH

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va sun’iy intellektning hayotning barcha jabhalariga keskin kirib kelishi davlat xizmatlarining raqamlashtirilishiga hamda ularning sifatining oshishiga bevosita ta’sir qilmoqda. Sun’iy intellekt asosida amalga oshiriladigan davlat xizmatlari, asosan, fuqarolarga ma’lum sohaga oid ma’lumotlarni taqdim etish, murojaatlarni qayta ishlash, arizalarni qabul qilish va muayyan darajada yuridik maslahatlar ko‘rsatish bilan bog‘liqdir.

Bunday murojaatlarning asosiy qismi bevosita mehnat munosabatlariga, xususan, ish bilan bandlik, ish beruvchi va jamoa o‘rtasidagi munosabatlar, ishsizlik, mehnat qonunchiligi hamda kasbiy o‘qitish va yo‘naltirish masalalariga to‘g‘ri kelayotgani ma’lum bo‘lmoqda. Sababi, ushbu savollarga javoblar fuqarolarning daromad olishi, turmush darajasini oshirishi hamda iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda raqamli transformatsiya sharoitida hududlar va turli toifadagi aholi murojaatlarini tezkor va aniq qayta ishlash, fuqarolarga birlamchi ma’lumotlarni taqdim etish hamda mehnat munosabatlari bo‘yicha yuridik yordamning yetishmasligi chat-botlarni yaratish va amaliyotga joriy etishda infratuzilmaviy asosni tashkil qilmoqda. 2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti qayd etishicha,

ish izlovchilar va ish beruvchilarni xabardor qilish, ko‘p yo‘nalishli xizmatlar (ro‘yxatdan o‘tish, uchrashuvlarni tayinlash, tavsiya va maslahatlar berish) uchun ish bilan bandlik xizmatlarida chat-botlardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda [1].

Shuningdek, Deloitte ma’lumotlariga ko‘ra, davlat xizmatchilari tomonidan vazifalarni avtomatlashtirish yiliga 96,7 milliondan 1,2 milliard ish soatini tejash imkonini beradi, bu esa yillik tejashda 3,3–41,1 milliard dollarga teng [2]. Government-Technologies ma’lumotlariga ko‘ra, chat-botlar fuqarolar so‘rovlarining 80 foizini avtomatik ravishda qayta ishlashga qodir bo‘lib, xodimlarni murakkabroq vazifalar uchun bo‘shatadi. 2025-yilga borib esa davlat muassasalarining 60 foizi biznes jarayonlarini, jumladan chat-botlarni avtomatlashtirishni joriy etishni rejalashtirmoqda [3]. Xalqaro elektraloqa ittifoqi ta’kidlashicha, davlat internet xizmatlariga bo‘lgan so‘rovlarning 70 foizini avtomatlashtirilgan tizimlar orqali hal qilish mumkin, bunda murojaatlarga javobni kutish vaqti 50 foizgacha qisqaradi [4].

Davlat boshqaruv tizimini izchil takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishda davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish, aholi murojaatlariga o‘z vaqtida munosabat bildirish bugungi kunda respublika Prezidentining qat’iy talablaridan biridir. Fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish, xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish vazifalari belgilangan [5].

O‘zbekiston Respublikasida 37 milliondan ziyod aholi istiqomat qiladi, shundan 20 milliondan ortig‘i mehnat resurslariga to‘g‘ri keladi. Bunday katta mehnat salohiyatiga ega mamlakatda mehnat munosabatlarini samarali boshqarish va aholiga tezkor huquqiy axborot taqdim etish zamonaviy iqtisodiyotning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mehnat resurslarining va ish o‘rinlarining ko‘payishi, xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar bo‘yicha savol va muammolarning ortishi, chet elda ishlash va migratsiya borasidagi tushunmovchiliklarning ko‘payishi, aholining, ayniqsa qishloq joylarda mehnat munosabatlari bo‘yicha huquqiy savodxonligini oshirish hamda davlatning raqamlashtirish siyosati natijasida yuzaga kelgan noaniqliklar (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, Yagona milliy mehnat tizimi va boshqalar) davlat organlariga murojaatlarning keskin ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Aynan shunday sharoitda sun’iy intellekt yordamida chat-botlarni yaratish mexanizmlarini ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan tadqiq etish hamda ularni tezkor amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oxirgi bir necha yillarda ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda mehnat munosabatlarini raqamlashtirish, sun’iy intellektning unga bo‘lgan ta’siri va transformatsiyasi borasida ko‘plab ilmiy ishlar nashr etilgan.

Bir qator tadqiqotchilar [6] tomonidan Yevropa davlat idoralarida sun’iy intellektga (SI) asoslangan chat-botlardan foydalanish darajasi keskin oshgani sababli Skandinaviya mamlakatlaridan birida Mehnat va ijtimoiy ta’minot davlat agentligi tomonidan Selma chat-botini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Selma fuqarolar va davlat idoralari o‘rtasidagi aloqa kanalidan agentlikdagi fuqarolar va hamkasblar bilan harakatlarni muvofiqlashtiradigan vositaga aylangan. Chat-bot funksiyalari haqidagi qarorlarning ularning vazifalarini tashkil etishga, shu jumladan u bilan ishlashni o‘rganishga ta’siri o‘rganilib, sun’iy intellekt yordamida fuqarolarning murojaatlarini sifatli qayta ishlash va ularni kamaytirishga erishilgani xulosa qilingan.

Boshqa bir qator tadqiqotchilar esa davlat boshqaruvida sun’iy intellektga asoslangan chat-botlardan foydalanish ko‘lami ortib borayotganini ta’kidlab, biroq amaliyotga joriy etishdagi ayrim cheklovlarga e’tibor qaratmoqdalar. Xususan, mavjud tadqiqotlarning aksariyati nazariy va me’yoriy xususiyatga ega bo‘lib, chat-botlar samaradorligini baholash uchun zarur empirik ma’lumotlar yetarli emasligi, shuningdek, ularning davlat tashkilotlari faoliyati va jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlarga ko‘rsatadigan aniq ta’siri yetarlicha o‘rganilmaganini qayd etishmoqda.

Masalan, Chen tadqiqotiga [7] ko‘ra, AQShdagi 22 davlat muassasasi mansabdor shaxslari va xodimlari bilan chuqur intervyular asosida chat-botlarning davlat organlari faoliyati va fuqarolar bilan munosabatlariga ta’siri tadqiq qilingan. Ularning xulosalariga ko‘ra, chat-botlardan foydalanish natijasida tashkilot ichidagi jarayonlar va hukumat–fuqaro o‘zaro aloqalarida turli xil samara va natijalar kuzatilgan.

Fratika-Dragomir [8] sun’iy intellekt asosida ishlaydigan chat-botlarning davlat idoralari uchun katta salohiyatga ega bo‘lgan foydali vosita ekanini ta’kidlab, chat-botlarning asosiy xususiyatlarini tadqiq etgan hamda ushbu texnologiyaning davlat boshqaruvida qo‘llanilishidagi kuchli tomonlari va cheklovlarini SWOT-tahlil asosida baholagan. Jumladan, u Ruminiyada davlat xizmatchilarini yollash va tanlashda chat-botlardan foydalanish, pensiyada yoki yuqori malakali xodimlarni jalb etish, qisqartirish va ularni ilg‘or IT-texnologiyalar bilan ta’minlash orqali daromadni oshirish imkoniyatlarini asoslagan. Natijada, chat-bot mamlakat iqtisodiyoti, davlat xizmatchilari va murojaatchilar farovonligiga xizmat qilishi qayd etilgan.

Sun’iy intellekt tomonidan boshqariladigan chat-botlar kundalik vazifalarni avtomatlashtirish orqali nafaqat mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda, balki xodimlar unumdorligini oshirib, mehnatdan qoniqish darajasini ham yuksaltirmoqda. Shu nuqtai nazardan chat-botlarni joriy etish xodimlarning kundalik ish tajribasiga ta’siri, ularning mehnat unumdorligi, motivatsiyasi va mehnatdan qoniqish darajasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan. Apostolakis [9] o‘z tadqiqotida xodimlarning ish joyidagi tajribasini oshirish uchun chat-bot bilan bog‘liq bo‘shliqlarni aniqlash va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar bergan. U chat-botlar takroriylikni kamaytirish orqali samaradorlikni oshirishini, ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali mehnatdan qoniqishni kuchaytirishini hamda murakkab vazifalarga e’tibor qaratish orqali motivatsiyani yuksaltirishini asoslab, texnik to‘siqlar va mehnat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun maqsadli o‘qitish va qayta muloqot zarurligini ta’kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi o‘n yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va sun’iy intellektning hayotning barcha jabhalarida mustahkam o‘rnashib borishi kuzatilmoqda. Albatta, mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, texnik va texnologik rivojlanish darajasini inobatga olgan holda sun’iy intellektni turli soha va tarmoqlarga joriy etish masalasi iqtisodchilarning dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham mehnat munosabatlariga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning ta’siri har tomonlama tadqiq etilmoqda. Masalan, akad. K. Abduraxmanov va N. Zokirova ta’kidlashicha, mehnat resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ishga olish, ish haqini hisoblash va mehnat samaradorligini monitoring qilish jarayonlarini soddalashtiradi [10].

Iqtisodiy nuqtai nazardan, axborot mehnat unumdorligining o‘sishiga xizmat qilishi hamda ijtimoiy boylik ishlab chiqarishning moddiy tarkibiy qismida qo‘shilgan qiymat yaratishi lozim. Akademik S. G‘ulomovning ta’kidlashicha, bu jarayon axborotlashgan jamiyat iqtisodiyotida axborotning asosiy iqtisodiy mazmuniga aylanadi [11]. Shunday ekan, mehnat munosabatlari va davlat xizmatlari sohalarida chat-bot texnologiyalarini yaratish va joriy etish axborot resurslarini samarali boshqarishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday raqamli yechimlar ishchi va ish beruvchi, shuningdek, fuqaro va davlat organlari o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvini tezlashtiradi, qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtiradi, murojaatlarga javob berish muddatini qisqartiradi hamda mehnat nizolari va ma’muriy kechikishlarning oldini oladi. Natijada, qo‘shilgan qiymat yaratish jarayonida axborotning iqtisodiy samarasi ortadi, mehnat bozori va davlat xizmatlarida shaffoflik, samaradorlik va fuqarolar qoniqishi yuksaladi.

Sun’iy intellekt va chat-bot texnologiyalarining mehnat munosabatlari hamda davlat xizmatlarida samarali qo‘llanilishi, avvalo, ta’lim tizimidan boshlanishi zarur. Agar oliy ta’lim muassasalarida chat-botlar talabalarning turli savollariga tez va aniq javob berish orqali ma’muriy yuklamani kamaytirsa, mehnat va davlat boshqaruvi tizimida ular murojaatlarni qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirishi mumkin. Bu barcha sohalarda axborot almashinuvi tezligini oshirib, xizmat ko‘rsatish sifatini yuksaltiradi hamda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Shuningdek, aholida chat-botlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish, ularga “to‘g‘ri” va aniq savollar bilan murojaat qilish ko‘nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. F. Nazarova fikricha, sun’iy intellektning ta’siri pedagogika doirasidan ham chuqurroq kirib borib, oliy ta’lim muassasalaridagi ma’muriy vazifalarni bajarilishini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Avtomatlashtirilgan chat-botlar esa talabalarning oddiy savollarini qayd etib, ma’muriy samaradorlikni va javob berish tezligini oshirmoqda [12].

Yuqorida keltirilgan ilmiy va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mehnat munosabatlarida chat-bot texnologiyalarini yaratish va joriy etish masalasi O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Respublikada mehnat bozori hajmi, davlat xizmatlari qamrovi va raqamli infratuzilma rivojlanish darajasi mazkur texnologiyadan samarali foydalanish uchun yetarli salohiyat yaratadi. Shu bois, mahalliy sharoitda mehnat munosabatlari chat-botining funksional xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish, uning xizmat ko‘rsatish jarayonlariga, fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ko‘rsatadigan ta’sirini baholash zarur. Bu jarayonda xalqaro tajriba va SWOT-tahlilni amalga oshirish orqali kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlab, chat-botning samaradorligi va barqaror rivojlanishi uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mehnat munosabatlarida chat-bot texnologiyalarini yaratish va joriy etishni o‘rganishda nazariy tadqiqot usullaridan ilmiy adabiyotlar tahlili, mavjud tajribalarni sintez va tahlil qilish, muhim jihatlarni ajratib olish orqali abstraksiya amalga oshirish, mavjud holat va natijalardan umumiy qoidalar shakllantirish uchun induksiya, shuningdek, umumiy qonun-qoidalardan kelib chiqib alohida holatlarni izohlashda deduksiya usullaridan foydalanildi. Shu bilan birga, SWOT-tahlil orqali chat-botning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlari baholandi, turli mamlakatlar tajribasini taqqoslash orqali esa mahalliy sharoitga mos konseptual model ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda butun dunyoda mehnat munosabatlariga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning ta’siri ortib bormoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli avtomatlashtirish va SI yechimlari mehnat jarayonlarini soddalashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda ish joyida xavfsizlikni ta’minlashda tobora keng qo‘llanilmoqda. Ayrim davlatlarda, xususan AQSh, Yaponiya va Germaniyada SI asosidagi avtomatlashtirish natijasida ish jarayonlari tezlashib, yuqori malakali xodimlarga bo‘lgan talab oshgani kuzatilgan. Butunjahon Iqtisodiy Forumi hisobotida keltirilishicha, kelgusi 5 yil ichida SI va avtomatlashtirish tufayli dunyo bo‘ylab 85 millionga yaqin ish o‘rni yo‘qolishi, ammo 97 millionga yaqin yangi turdagi ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda [13].

O‘zbekistonda aholi soni yil sayin barqaror o‘sib bormoqda. Agar 2010-yilda 28 mln bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 36,8 mln.ga, ya’ni 31,4 foizga oshishi, 2030-yilga kelib 40 mln.dan oshishi prognoz qilinmoqda (1-rasm). Bu o‘sish mehnat resurslarining ko‘payishiga va mehnat munosabatlarida yangi tendensiyalar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuningdek, shu davr uchun mehnat resurslarining 19,8 foizga oshishi mehnat munosabatlari va mehnat bozori sig‘imining ortishiga xizmat qiladi. Shu davr mobaynida mehnat resurslarining 19,8 foizga oshishi mamlakatda mehnat munosabatlarining ko‘lamini kengaytiradi va mehnat bozori sig‘imini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan talabning ortishi, ishchi kuchining raqobatbardoshligini ta’minlash va iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori qo‘shilgan qiymat yarata oladigan mutaxassislar tayyorlash zaruriyatini kuchaytiradi.

Mehnat bozoridagi ushbu o‘sish tendensiyasi, bir tomondan, ish beruvchilar uchun kadrlar tanlash imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, davlat va xususiy sektor zimmasiga yangi bandlik strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyatini yuklaydi.

35 mln aholi — bu juda katta mehnat salohiyatidir. Mamlakatimizning inson resurslari hajmi borasida yuqori rivojlangan Malayziya (aholisi 34,1 mln) davlati bilan va Yevropa Ittifoqida beshinchi eng aholisi katta davlat Polsha (38–39 mln) bilan taqqoslash mumkin. Shuningdek, MDH davlatlari ichida ham O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha Qozog‘istonni (20 mln) ortda qoldirib, uchinchi o‘rinda turadi. Shu bois, O‘zbekistonning 37 milliondan ortiq aholi va 20 milliondan ziyod mehnat resurslariga ega bo‘lishi uni nafaqat mintaqada, balki jahon miqyosida ham ulkan demografik va iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar qatoriga qo‘yadi. Bu esa mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratish, mehnat munosabatlarini samarali tashkil etish va raqamli texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt asosidagi chat-botlar kabi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali fuqarolarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yanada oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi demografik ko‘rsatkichlarining dinamikasi [14]

Mehnatga layoqatli aholi ulushi umumiy aholi sonining taxminan 55–56 % ini tashkil qiladi va ushbu tendensiya prognoz davrida ham saqlanishi kutilmoqda. Mehnatga layoqatli aholi ulushining 55–56 % atrofida bo‘lishi demografik strukturada ishchi kuchining barqaror ulushini saqlab qolishini anglatadi. Bu holat iqtisodiy faol aholi sonining uzluksiz takror ishlab chiqarilishiga, iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror mehnat resurslari bilan ta’minlashga va soliq bazasining izchil o‘sishiga xizmat qiladi. Prognoz davrida ushbu nisbatning saqlanishi aholi tomonidan mehnat munosabatlariga oid masalalar bo‘yicha davlat idoralariga murojaatlar sonining tobora ko‘payishiga olib kelishi kutilmoqda. Bu esa davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini yanada oshirish, murojaatlarni tezkor va aniq qayta ishlash hamda fuqarolar bilan samarali muloqotni ta’minlash maqsadida mehnat munosabatlariga ixtisoslashgan chat-botni yaratish va joriy etish zaruriyatini kuchaytiradi.

Xorijiy amaliyot shundan dalolat beradiki, mehnat munosabatlariga oid savol-javoblar (mehnat huquqlari, ish bilan bandlik, ishdan bo‘shatish tartibi, ish haqi masalalari va h.k.) katta hajmda va tez-tez takrorlanadi. 24/7 rejimda ishlovchi chat-botlar standart savollarni avtomatik tarzda qabul qilib, inson operatorlarini murakkab savollarga jalb qilmoqda. Bu ikki natijaga olib keladi:

1. murojaatlarga javob vaqti qisqaradi;
2. inson resurslari qiymati yuqoriroq bo‘lgan, individual tahlil talab etuvchi masalalarga yo‘naltiriladi.

Masalan, Buyuk Britaniya soliq va bojxona xizmati (HMRC) o‘z “Digital Assistant”ini ommaviy joriy etganidan so‘ng, 2023–2024-moliyaviy yilida foydalanuvchi murojaatlari 1,9 mln.dan 5,1 mln.gacha o‘sdi. Bu tashkilotning raqamli xizmatlarga o‘tish strategiyasida (2030-yilgacha 90 % murojaatlarni onlaynga o‘tkazish) markaziy rol o‘ynayotgani rasmiy hisobotlarda qayd etilgan [15].

So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab davlat xizmatlarini ko‘rsatishda raqamli texnologiyalar, ayniqsa avtomatlashtirilgan chat-botlardan foydalanish darajasi keskin o‘smoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aholi murojaatlarining katta qismi an’anaviy jonli qabul yoki telefon orqali emas, balki onlayn kanallar orqali amalga oshirilmoqda. Deloitte qayd etishicha, AQSh fuqarolarining 23 % davlat organlari bilan muntazam ravishda onlayn (veb-sayt yoki mobil ilovalar) orqali muloqot qiladi, fuqarolarning 55 % esa davlat xizmatlari uchun raqamli murojaatlarni afzal ko‘radi [16]. Shuningdek, Yevrostat ma’lumotlariga ko‘ra, oxirgi 12 oy ichida davlat organlarining veb-sayti yoki ilovasidan foydalanganlarning 69 %i 16–74 yoshdagi aholiga to‘g‘ri keladi [17].

O‘zbekistonda ham bunday tendensiya kuzatilmoqda. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda davlat tashkilotlariga kelib tushgan 9,3 mln murojaatning qariyb 42 %i elektron shaklda amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkich 2019-yildagi 18 % bilan solishtirganda qariyb ikki barobar o‘sganini anglatadi. Aholining mobil internet qoplami 98 % dan ortiq ekani, smartfon foydalanuvchilari soni esa 27 milliondan oshgani raqamli xizmatlar uchun texnik baza yetarli ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar va shahar aholisi orasida onlayn murojaat qilish an’anaviy jonli qabuldan ko‘ra tezkor va qulay deb baholanmoqda.

Shu bilan birga, murojaatlarni ko‘rib chiqishdagi navbatlar, qog‘ozbozlik, ma’muriy-byurokratik to‘siqlar va manzilga borib kelish kabi muammolar ham fuqarolarni raqamli yechimlarni tanlashga undayotgan muhim omillardandir. Xususan, mehnat munosabatlariga oid murojaatlar — ishga joylashish, ishsizlik masalasi va uning ijtimoiy kafolatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, mehnat shartnomasi shartlari, mehnat huquqlari buzilishi holatlari, migratsiya va chet elda ishlash, kasbiy yo‘naltirish va tayyorgarlik va boshqa masalalarda — ko‘p hollarda bir xil va tipik savollardan iborat bo‘ladi. Bunday ma’lumotlar bazasini to‘g‘ri tuzish orqali chat-botlar fuqarolarning katta qismini bir necha soniyada zarur axborot bilan ta’minlashi mumkin.

Shunday ekan, O‘zbekistonda mehnat munosabatlari sohasida maxsus chat-bot joriy etish nafaqat aholi murojaatlarini samarali qabul qilish va qayta ishlash, balki davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyaning joriy etilishi mamlakatdagi mehnat resurslari hajmi, raqamli infratuzilma rivojlanishi va aholining onlayn xizmatlardan foydalanishga bo‘lgan afzalliklari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu tashabbusning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflarini aniq baholash uchun to‘liq SWOT-tahlilni talab qiladi. SWOT-tahlil orqali nafaqat loyihaning istiqbolli jihatlari, balki uni samarali yo‘lga qo‘yish uchun hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar ham aniqlanadi.

1. Mehnat munosabatlari chat-botini yaratishning kuchli tomonlari (Strengths)

O‘zbekiston Respublikasida 2025-yil holatiga aholi soni 37 milliondan oshgan bo‘lib, ularning 20 milliondan ortig‘i mehnat resurslari qatoriga kiradi. Bu — mamlakatning ulkan demografik salohiyati va iqtisodiy rivojlanishdagi asosiy ustunliklaridan biridir. Mehnat munosabatlariga oid savollar, murojaatlar va nizolar miqdori yil sayin ortib bormoqda. Masalan, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga turli masalalar bo‘yicha 1,2 milliondan ortiq murojaat kelib tushgan, shundan 35 % i qonunchilik normalarini tushuntirish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Chat-bot joriy etilishi natijasida:

- Fuqarolar 24/7 rejimda o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- Davlat xizmatlari samaradorligi oshadi, ortiqcha qog‘ozbozlik va jonli navbatlar qisqaradi;

- Mehnat qonunchiligi, ishga qabul qilish, ishdan bo‘shatish, mehnat shartnomasi shartlari kabi masalalarda tezkor va aniq ma’lumot taqdim etiladi;

- Raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat strategiyalari bilan to‘liq uyg‘un bo‘ladi (masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi).

Bundan tashqari, O‘zbekistonda mobil internet qoplami 98 % dan ortiq hududni qamrab olgan bo‘lib, bu chat-bot xizmatlaridan deyarli barcha hududlarda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2. Mehnat munosabatlari chat-botini yaratishning kamchiliklari (Weaknesses)

Biroq, mehnat munosabatlari chat-botini joriy etishda O‘zbekiston sharoitida bir qator muammolar mavjud:

- Raqamli savodxonlik darajasi — ayniqsa yoshlar orasida yuqori bo‘lsa-da, katta yoshdagi aholi qatlamlarida past. Bu chat-botdan foydalanishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin;

- Mehnat qonunchiligida tez-tez o‘zgarishlar kiritilishi ma’lumotlar bazasini doimiy yangilashni talab qiladi. Agar yangilanish kechiksa, fuqarolar noto‘g‘ri ma’lumot olishi mumkin;

- O‘zbek tilining kirill va lotin yozuvlarida to‘g‘ri ishlov berishda til texnologiyalarida ayrim cheklovlar mavjud. Shu bilan birga, rus tilida ham xizmat ko‘rsatish talab etiladi;

- Loyihani dastlabki bosqichda ishga tushirish uchun infratuzilmaviy va moliyaviy xarajatlar yuqori bo‘lishi mumkin.

Masalan, Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2024-yilda raqamli savodxonlik darajasi taxminan 63 % bo‘lib, bu Estoniya (99 %) yoki Singapur (96 %) bilan solishtirganda past ko‘rsatkich hisoblanadi.

3. Mehnat munosabatlari chat-botini yaratishning imkoniyatlari (Opportunities)

O‘zbekistonda mehnat munosabatlari chat-botini joriy etishning katta imkoniyatlari mavjud:

- Milliy raqamlashtirish strategiyalari (“Raqamli O‘zbekiston – 2030”) doirasida davlat xizmatlarini onlayn formatga o‘tkazish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu chat-bot integratsiyasi uchun huquqiy va texnologik asos yaratadi;

- Davlat mehnat inspeksiyasi, sud tizimi va kasaba uyushmalari bilan integratsiya orqali mehnat nizolarini onlayn hal qilish imkoniyati kengayadi;

- Xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyati: Estoniyada davlat xizmatlarining 99 % i onlayn formatda, mehnat munosabatlari uchun maxsus avtomatlashtirilgan platformalar mavjud. Singapurda “Ask Jamie” nomli davlat chat-boti orqali mehnat qonunchiligi, ijara shartlari va boshqa masalalarda axborot taqdim etiladi;

- Mehnat bozori monitoringi va statistikasini avtomatlashtirish orqali qaror qabul qilish jarayonlari tezlashadi;

- Xalqaro tashkilotlardan (ILO, UNDP, World Bank) grantlar va texnik yordam jalb qilish mumkin. Masalan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) 2022-yilda raqamli mehnat xizmatlarini joriy etgan davlatlarda murojaatlarga javob berish tezligi o‘rtacha 40 % ga oshganini qayd etgan.

4. Mehnat munosabatlari chat-botini yaratishning xavflari (Threats)

O‘zbekiston sharoitida chat-bot joriy etilishida bir qator xavflar ham mavjud:

- Kiberxavfsizlik muammolari — shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi yoki suiiste’mol qilinishi ehtimoli mavjud, bu aholi ishonchini pasaytiradi;

- Agar ma’lumotlar bazasi yangilanmasa, fuqarolar noto‘g‘ri maslahat olib, huquqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin;

- Qonunchilikdagi tez-tez o‘zgarishlar chat-bot logikasiga ta’sir qiladi, kod va ma’lumotlar bazasini qayta ishlashni talab qiladi;

- Xususiy sektorda raqobatchi onlayn xizmatlarning paydo bo‘lishi davlat chat-botiga bo‘lgan talabni kamaytirishi mumkin;

- Onlayn xizmatlarga nisbatan aholining ayrim qatlamlarida ishonchsizlik saqlanib qolmoqda.

Kiberxavfsizlik masalasi alohida e’tibor talab qiladi: 2023-yilda O‘zbekistonda axborot tizimlariga hujumlar soni 19 % ga oshgan [18], bu esa har qanday davlat raqamli xizmati uchun jiddiy xavf hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

SWOT tahlil ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda mehnat munosabatlari chat-botini joriy etish katta ijtimoiy va iqtisodiy samara berishi mumkin. Mavjud kuchli tomonlar — yuqori mehnat salohiyati, mobil internet qoplamasi va davlatning raqamlashtirish siyosati — ushbu loyihani amalga oshirish uchun mustahkam asosdir. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik darajasini oshirish, ma’lumotlar bazasini doimiy yangilash va kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish zarur.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy hamda SWOT-tahlil natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda mehnat munosabatlari chat-botini joriy qilishda quyidagi xususiyatlarga e’tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

Pilot loyiha. Chat-botni joriy qilishda dastlab 2–3 ta yirik hududda (masalan, Toshkent shahri, Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyati) sinov tariqasida ishga tushirish maqsadga muvofiqdir. Hududlarni tanlashda

mehnat resurslari soni, aholining raqamli savodxonlik darajasi va texnik tayyorgarlik inobatga olinishi zarur. Pilot bosqichida texnik barqarorlik, foydalanuvchi tajribasi va murojaatlarni qayta ishlash tezligi baholanadi. Natijalar asosida funksional imkoniyatlar kengaytiriladi va milliy darajada tatbiq etiladi.

Ko‘p tillilik. Chat-botning kontentini ishlab chiqishda hamda texnik asoslarini yaratishda tillarning ko‘pligiga e’tibor qaratish lozim. Chat-bot o‘zbek tilida (lotin va kirill yozuvida) hamda rus tilida faoliyat yuritishi zarur. Kelgusida ingliz tili va boshqa hududiy tillar qo‘shilishi mumkin. Bu til to‘sig‘isiz murojaat qilish imkoniyatini oshiradi va xizmat qamrovini kengaytiradi.

Ma’lumotlar bazasi. Mehnat qonunchiligi va normativ hujjatlar o‘zgarganida chat-bot ma’lumotlar bazasini avtomatik yangilash zarur. API integratsiya orqali O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy ma’lumotlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish talab etiladi. Bu orqali eski yoki noto‘g‘ri ma’lumot berish xavfi kamayadi.

Kiberxavfsizlik. Chat-botni ishlab chiqishda kiberxavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim. Ma’lumotlar zamonaviy shifrlash algoritmlari bilan muhofaza qilinishi, ikki bosqichli autentifikatsiya (2FA) joriy etilishi, foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari himoya qilinishi hamda muntazam monitoring va xavflarni oldindan aniqlash tizimi tatbiq etilishi zarur.

Axborot kampaniyalari va o‘quv dasturlari. Mahalliy aholiga chat-botdan foydalanish bo‘yicha bepul o‘quv videolar, bukletlar va onlayn kurslar taqdim etilishi kerak. Ijtimoiy tarmoqlar, televideniye va radio orqali keng qamrovli axborot kampaniyalari o‘tkazilishi, davlat xizmatlari markazlarida maxsus “chat-bot yordamchi punktlari” tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonda mehnat munosabatlarini raqamlashtirish jarayonida sun’iy intellekt asosidagi chat-botni joriy etish — davlat xizmatlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning murojaat imkoniyatlarini kengaytirish va ma’muriy jarayonlarni optimallashtirishda muhim qadamdir. 37 milliondan ortiq aholiga ega mamlakatda mehnatga oid murojaatlar sonining yil sayin ortib borayotgani tezkor, aniq va ishonchli axborot manbalariga ehtiyojni kuchaytiradi. Chat-botlar orqali aholiga mehnat qonunchiligi, ishga joylashish, mehnat shartnomalari va nizolarni hal qilish bo‘yicha 24/7 rejimida xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, avtomatlashtirilgan raqamli yordamchilar nafaqat vaqt va resurslarni tejaydi, balki davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida ishonch va shaffoflikni ham mustahkamlaydi. Shu bois, O‘zbekistonda bunday tizimni bosqichma-bosqich joriy etish va uni muntazam yangilab borish, mehnat bozori sig‘imi ortib borayotgan sharoitda, strategik ahamiyatga ega vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A New Dawn for Public Employment Services Service Delivery in the Age of Artificial Intelligence. OECD ARTIFICIAL INTELLIGENCE PAPERS June 2024 No. 19 https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/06/a-new-dawn-for-public-employment-services_25e1e70e/5dc3eb8e-en.pdf
2. Wikipedia// Artificial intelligence in government https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial_intelligence_in_government
3. Chatbots for Government in 2025: Examples, Use Cases, Statistics https://botpress.com/blog/chatbots-for-government
4. The Potential of AI-Powered Chatbots in Revolutionizing E-Government Applications https://moldstud.com/articles/p-the-potential-of-ai-powered-chatbots-in-e-government-apps
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21.02.2024 йилдаги ПФ-37-сон Фармонига кўра «Ўзбекистон — 2030» Стратегиясини «Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури
6. Elena Parmiggiani, Polyxeni Vassilakopoulou, and Ilias Pappas. Restricted Chapter 5: Reconfiguring human-AI collaboration: integrating chatbots in welfare services. 19 Mar 2024 Page Range: 97–111, Business 2024, DOI: https://doi.org/10.4337/9781803926216.00013
7. Chen, T., & Gasco-Hernandez, M. (2024). Uncovering the Results of AI Chatbot Use in the Public Sector: Evidence from US State Governments. Public Performance & Management Review, 1–26. https://doi.org/10.1080/15309576.2024.2389864
8. Alina Mihaela FRĂTICĂ-DRAGOMIR (GUȘE) CHATBOT IN HUMAN RESOURCES MANAGEMENT; WORLD EXPERIENCE VS. ROMANIA // The Annals of the University of Oradea. Economic Sciences TOM XXXIII, 1st Issue, July 2024, 385, Bucharest Academy of Economic Studies, Doctoral School of Management, Bucharest, Romania
9. Apostolakis Anastasios Title of the Publication: A qualitative analysis of AI-driven chatbots on customer service employees’ productivity and satisfaction https://www.theseus.fi/bitstream/handle/10024/887045/Apostolakis_Anastasios.pdf
10. К.Абдурахманов, Н.Зокирова Сунъий интеллект даврида меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. Т.: Илм-маърифат нашриёти, 2025, 350 б.
11. С.С. Гулямов, Р.Ҳ. Аюпов, О.М. Абдуллаев, Г.Р. Балтабаева. Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялар. Т.: ТМИ, “Иқтисод-Молия” нашриёти, 2019, 447 бет
12. Назарова, Ф. (2025). ОЛИЙ ТАЪЛИМДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ИСТИҚБОЛИ. Modern Science and Research, 4(2), 110–115. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/65648
13. Amanda Russo, Recession and Automation Changes Our Future of Work, But There are Jobs Coming, Report Says. Published 20 Oct 2020, World Economic Forum
14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, www.stat.uz

15. HMRC’s Transformation Roadmap The government’s plan to transform the tax and customs system https://assets.publishing.service.gov.uk/media/687f9090fdc190fb6b84687f/HMRC_Transformation_Roadmap_Printable_Version.pdf
16. Benjamin Freed Most people prefer to access government online, but don’t actually do it, survey finds, 2023, https://statescoop.com/government-digital-services-online-deloitte-survey
17. How do people interact with public authorities online? 24 September 2024 https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20240924-2
18. Over 12 million cyberattacks recorded in Uzbekistan in 2024, 03.02.2025, www.kun.uz/en/news/2025/02/03/over-12-million-cyberattacks-recorded-in-uzbekistan-in-2024

SANOAT TARMOQLARIDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI INNOVATSION TRANSFORMATSIYA ISTIQBOLLARI

Vafoyev Boburjon Rasulovich
TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi professori v.b.,
iqtisod fanlari nomzodi
Email: boburvafo@gmail.com

Annotatsiya: Sanoat tarmoqlarida innovatsion transformatsiya jarayonlari raqamli iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sanoat korxonalarining samaradorligi oshirilib, ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda va raqobatbardoshlik mustahkamlanmoqda. Davlat siyosatida ushbu sohadagi innovatsiyalar va tarmoqlararo ta’sirga ega korxonalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada sanoat tarmoqlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan innovatsion transformatsiya jarayonlari tahlil qilinib, ularning asosiy qo‘llanish sohalari, ishlab chiqarish tendensiyalari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sanoatning raqamlashuvi va raqobatbardoshlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan strategiyalarni shakllantirishda amaliy qiymatga ega tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: sanoat, sanoat tarmoqlari, sanoat korxonalari, innovatsiya, innovatsion faoliyat, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, innovatsion tizim, korxonaning innovatsion faoliyati, korxonaning raqobatbardoshligi, innovatsion muhit.

Abstract: The processes of innovative transformation in industrial sectors are emerging as one of the key directions of the digital economy. The implementation of artificial intelligence and digital technologies enhances the efficiency of industrial enterprises, automates production processes, and strengthens competitiveness. In state policy, supporting innovations and enterprises with cross-sectoral influence plays a crucial role. This article analyzes the processes of innovative transformation carried out in industrial sectors based on artificial intelligence and digital technologies, examining their main application areas, production trends, and future prospects. In addition, practical recommendations with applied value are proposed for developing strategies aimed at digitalization and ensuring industrial competitiveness.

Key words: industry, industrial sectors, industrial enterprises, innovation, innovative activity, artificial intelligence, digital technologies, innovation system, enterprise innovative activity, enterprise competitiveness, innovation environment.

Аннотация: Процессы инновационной трансформации в промышленности проявляются как одно из ключевых направлений цифровой экономики. Внедрение искусственного интеллекта и цифровых технологий способствует повышению эффективности промышленных предприятий, автоматизации производственных процессов и укреплению конкурентоспособности. В государственной политике важное значение имеет поддержка инноваций и предприятий, обладающих межотраслевым влиянием. В статье анализируются инновационные трансформационные процессы, реализуемые в промышленности на основе искусственного интеллекта и цифровых технологий, рассматриваются их основные области применения, производственные тенденции и перспективы. Также предлагаются практические рекомендации, имеющие прикладное значение для формирования стратегий цифровизации и обеспечения конкурентоспособности промышленности.

Ключевые слова: промышленность, отрасли промышленности, промышленные предприятия, инновации, инновационная деятельность, искусственный интеллект, цифровые технологии, инновационная система, инновационная активность предприятия, конкурентоспособность предприятия, инновационная среда.

KIRISH

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi bugungi kunning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida katta va tubdan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi sanoat sohalarida innovatsion transformatsiya jarayonlarini

tezlashtirmoqda. Yangi texnika va texnologiyalarning paydo bo‘lishi nafaqat yangi iqtisodiy tarmoqlarning shakllanishiga, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda jahon sanoatida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt jadal rivojlanib, ishlab chiqarish jarayonlari va innovatsion faoliyatning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. McKinsey kompaniyasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib dunyo bo‘yicha tashkilotlarning 78 foizi o‘z faoliyatida kamida bir AI funksiyasidan foydalanishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkich 2023-yilda 55 foizni tashkil etgani hisobga olinsa, keyingi ikki yildagi o‘sish sur’ati juda yuqori ekanini ko‘rish mumkin. Shuningdek, generativ AI texnologiyalaridan foydalanish misollari 2023-yildagi 33 foizdan 2024-yilda 71 foizgacha ko‘tarilgan.

Sanoat korxonalarida AI va raqamli texnologiyalarning asosiy ustunligi avtomatlashtirish va robotlashtirish jarayonlarini tezlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlaridir. Jahon amaliyotida 68 foiz sanoat korxonalari ishlab chiqarish uskunalari ishlash holatini oldindan bashorat qilish va nosozliklarni aniqlash maqsadida AI texnologiyalarini qo‘llayapti. Bu esa xarajatlarni qisqartirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishda uzluksizlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, jahon bo‘yicha IT xarajatlari hajmi ham muttasil o‘sib, 2025-yilda 5,43 trillion AQSH dollariga yetishi kutilmoqda. Ayniqsa, AI optimallashtirilgan serverlar va intellektual dasturiy ta’minot segmentlari eng tez o‘suvchi sohalar sifatida qayd etilmoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalar va AI sohasi izchil rivojlanmoqda. 2024-yilda raqamli xizmatlar hajmi 21 trillion so‘m (taxminan 1,66 milliard AQSH dollari)ni tashkil etgan va yil oxiriga kelib 43 trillion so‘mdan ortiq (3,4 milliard AQSH dollari)ga yetishi prognoz qilingan. IT xizmatlari eksportida ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda: 650 dan ziyod kompaniya tashqi bozorga chiqishga muvaffaq bo‘lib, umumiy eksport hajmi 900 million AQSH dollariga yaqinlashgan. Bu mamlakatning raqamli iqtisodiyotdagi salohiyati o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston sun’iy intellekt sohasida xalqaro tayyorgarlik indeksida 17 o‘ringa yuqorilab, davlat miqyosida 20 dan ortiq AI loyihasi amalga oshirildi, yana 70 ga yaqin loyiha ishlab chiqilmoqda. “Digital Uzbekistan – 2030” strategiyasi doirasida 2026-yilga qadar IT xizmatlari hajmini 7,9 milliard AQSH dollariga yetkazish maqsad qilingan. Bu esa sanoat tarmoqlari uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘tgan yillarda mamlakatda internetdan foydalanish darajasi ham sezilarli o‘sdi: 2016-yilda 48 foiz bo‘lgan ko‘rsatkich 2023-yilda 76 foizga yetdi. ICT sohasining milliy iqtisodiyotdagi ulushi esa 1,8 foizdan 3,4 foizgacha ko‘tarildi. Bu raqamlar raqamli infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion muhitni yaratish borasidagi ijobiy natijalarni namoyon etmoqda.

Jahon va O‘zbekiston misolida ko‘rib chiqilgan ma’lumotlar sanoat tarmoqlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish innovatsion transformatsiyaning eng muhim sharti ekanini ko‘rsatmoqda. Ushbu tendensiyalar raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va yangi bozor segmentlariga chiqishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, sanoat korxonalari raqamli texnologiyalarni strategik yo‘nalish sifatida qabul qilishi va davlat qo‘llab-quvvati bilan ularni samarali joriy etishi kelgusi istiqbolda iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishning asosiy kafolati bo‘ladi.

Bugungi global konvergensiya va raqobat jarayonlari O‘zbekiston sanoatini yangi sifat bosqichiga olib chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa, avvalo, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash bilan uzviy bog‘liq. Shu bois sanoat tarmoqlarida innovatsion faollikni rag‘batlantirish, zamonaviy texnologik modernizatsiyani amalga oshirish va raqamli yechimlardan samarali foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o‘sish ko‘p jihatdan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar yetakchi omilga aylanmoqda. Masalan, 2020-2023 yillarda sanoat ishlab chiqarishi 5 foizga o‘sdi, kimyo, to‘qimachilik va energetika sohalarida raqamli yechimlardan keng foydalanish hisobiga yuqori natijalarga erishildi. Hukumatning sanoat sohasini modernizatsiya va raqamli transformatsiya qilishga qaratilayotgan e’tibori tarmoqlarda samaradorlik va mahsuldorlikni oshirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Sanoat tarmoqlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. Moliyaviy resurslar yetishmasligi: sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun katta sarmoya talab etiladi, lekin ko‘plab korxonalarda bu resurslar yetarli darajada emas.

2. Kadrlar yetishmasligi: innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun yuqori malakali mutaxassislar kerak, ammo sanoatda bu yo‘nalish bo‘yicha tajribali kadrlar yetishmaydi. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasida mutaxassislarni tayyorlash sur’ati talabdan orqada qolmoqda.

3. Texnologik infratuzilmaning yetarsizligi: innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydigan zamonaviy texnologik infratuzilma ko‘p joylarda hali to‘liq rivojlanmagan. Bu sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni samarali tatbiq qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

4. Qonunchilik va regulyatsiya muammolari: sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq me’yoriy-huquqiy baza ko‘p hollarda yangi vaziyatlarga moslashtirilmagan, bu esa ularni joriy qilishda turli cheklovlarga olib keladi.

5. Innovatsiyaga nisbatan ko‘nikma va madaniyatning yo‘qligi: ko‘plab korxonalar va mutaxassislar yangi texnologiyalarni qabul qilishga va ulardan foydalanishga tayyor emaslar. Korxonalarda innovatsiya va raqamlashtirish madaniyatini shakllantirish zarur.

6. Ta’lim tizimi muammolari: ta’lim tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalarini yetarlicha rivojlantirmaydi. Bu esa sanoat tarmoqlari uchun kerakli mutaxassislarni yetishtiradigan tizimning zaifligini ko‘rsatadi.

7. Xavfsizlik va maxfiylik muammolari: raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt joriy etilganda ma’lumotlarning maxfiyligi va kiberxavfsizlik muammolari yuzaga keladi. Sanoat tarmoqlarida bunday xavflardan himoya qilishning ishonchli mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu doirasida adabiyotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, asosiy e’tiborni sanoatda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar, sun’iy intellektning ahamiyati, ularni joriy qilishdagi tendensiyalar va muammolarga qaratish lozim. Mahalliy va jahon adabiyotlarida quyidagi asosiy yo‘nalishlar va muhokama qiladigan masalalar keng yoritilgan:

1. Sanoatda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning roli.

Bu yo‘nalishdagi adabiyotlar sun’iy intellekt (AI) va raqamli texnologiyalarning sanoatni rivojlantirishdagi muhim o‘rniga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqotlarda asosan quyidagi masalalar yoritilgan:

- sun’iy intellekt yordamida sanoatdagi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi AI texnologiyalarining imkoniyatlari;
- raqamli texnologiyalarning sanoat jarayonlarida ishlab chiqarish, moddiy resurslarni tejash, vaqtni qisqartirish kabi samaralari.

2. Innovatsion faoliyat va raqamli texnologiyalar.

Adabiyotlarda innovatsion faoliyat va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik keng yoritilgan bo‘lib, jumladan:

- innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi;
- yangi raqamli texnologiyalar sanoat mahsulotlarini rivojlantirish va yangi mahsulotlarni yaratishga turtki bo‘ladi;
- sanoat sohalarida raqamli texnologiyalarning samarali joriy qilinishi innovatsion faoliyatni yanada kengaytirishga olib keladi.

3. Sanoat 4.0 va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi.

Sanoat 4.0 konsepsiyasi sanoatni raqamlashtirishdagi eng muhim adabiyot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi:

- avtomatlashtirish, ma’lumotlar almashuvi va raqamli texnologiyalar orqali sanoatning yuqori darajada avtomatlashtirilgan yangi bosqichi;
- adabiyotlarda sanoat tarmoqlarining sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida rivojlanish istiqbollari, xususan, robotizatsiya, internet orqali tizimlarni boshqarish, ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari tahlil qilinadi.

4. Mutaxassislar yetishmasligi va ta’lim.

Ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda sanoat tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda kadrlar masalasiga e’tibor qaratilgan:

- sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi;
- innovatsion faoliyatni yuritish uchun sanoatdagi mutaxassislar o‘quv dasturlarining zamonaviy texnologiyalar bilan muvofiqligi haqida tadqiqotlar;
- innovatsion kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘llari.

5. Infratuzilma va texnologiyalar joriy etish masalalari.

Adabiyotlarda sanoat tarmoqlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etishning eng asosiy muammolari va qiyinchiliklari yoritilgan, jumladan:

- tyexnologik infratuzilma va raqamli texnologiyalar yetarlicha rivojlanmagani sanoatdagi innovatsion faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin;
- kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarning samarali tatbiqini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

6. Innovatsion siyosat va iqtisodiy rag‘batlantirish.

Adabiyotlarda davlat va biznesning hamkorligi, innovatsiyani rag‘batlantirish uchun qonunchilik va tashkiliy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi, jumladan:

- innovatsiyaga qaratilgan qonunchilik va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralari;
- sanoatda innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirish yo‘nalishlari, xususan, yangi texnologiyalarni yaratish va joriy qilish uchun soliq imtiyozlari, investitsiyalar.

Ushbu mavzu doirasida bir qator olimlar va mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, ularning ba’zilarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq:

Klaus Shvab (Klaus Schwab) - Sanoat 4.0 tushunchasini ilgari surgan va raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning sanoatdagi o‘rnini tahlil qilgan. Uning asarlari Sanoat inqilobining yangi bosqichini yoritishga qaratilgan bo‘lib, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sanoatga qanday ta’sir qilayotganini ko‘rsatadi.

Endryu Ng (Andrew Ng) - sun’iy intellekt va mashina o‘rganishi sohasida mashhur olim. U sanoatda sun’iy intellektni qo‘llash va bu texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tadqiq qiladi. Ng sanoatda AI’dan qanday foydalanish haqida keng ma’lumotlarga ega.

Erik Brinyolfsson (Erik Brynjolfsson) va Endryu Makafi (Andrew McAfee) - raqamli inqilob va ishlab chiqarishga ta’siri haqida ish olib boradigan olimlar. Ularning asarlari sanoatda raqamli texnologiyalarni joriy etish va buning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Maykl Porter (Michael Porter) - raqamli texnologiyalar va sanoatda raqobatbardoshlik bo‘yicha tadqiqotlari mashhur. Porter sanoatda raqamli texnologiyalarning qo‘llanishi raqobat ustunliklarini qanday yaratishini tahlil qiladi.

Yoshua Bengio (Yoshua Bengio) - mashina o‘rganishi va sun’iy intellekt sohasida yetakchi olimlardan biri. Uning tadqiqotlari sanoatda AI’ning joriy etilishi va innovatsion rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini o‘rganishga qaratilgan.

Sebastyan Trun (Sebastian Thrun) - robototexnika va sun’iy intellekt sohasida tadqiqot olib boradi. Uning ishlari sanoatda avtomatlashtirish va sun’iy intellekt yordamida innovatsiyalarni joriy qilish imkoniyatlarini yoritadi.

Jin-Baptist Rudel (Jean-Baptiste Rudelle) - raqamli marketing va sanoatdagi texnologik inqilob bo‘yicha ish olib boradi. U raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va sanoatdagi innovatsion jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi.

Bu olimlar va mutaxassislar sanoatda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollarini o‘rganishda muhim hissa qo‘shganlar. Ularning tadqiqotlari raqamli inqilob va texnologik o‘zgarishlarning sanoat sohalariga qanday ta’sir qilayotganini yoritadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy sohasi va iqtisodiyotning tayanchi hisoblanib, mamlakat mudofaa salohiyatining moddiy bazasini ta’minlaydi hamda davlat mustaqilligi va barqaror taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish jarayonlari sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog‘lanmoqda. Bu texnologiyalar tabiiy resurslardan samarali foydalanish, tarkibiy va institutsional islohotlarning samaradorligini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda ularni xalqaro bozorga olib chiqishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston sanoatida amalga oshirilayotgan islohotlar yuqori sifatli va raqamli yechimlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda jahon tajribasi asos qilib olinmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va intellektual boshqaruvni yo‘lga qo‘yish transformatsiya jarayonlarini tezlashtirmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, sanoat jihatdan rivojlanish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish uchun innovatsion-texnologik taraqqiyot asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Faqat ichki resurs va imkoniyatlarga tayanish iqtisodiy o‘sishni cheklab qo‘yishi mumkin, shu bois zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish 7–8% o‘sish sur’atlariga erishish imkonini beradi. Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya va Xitoyning tajribasi bu borada yaqqol misol bo‘lib xizmat qiladi.

Shuning uchun sanoatni innovatsion transformatsiya qilishda yuqori qo‘shilgan qiymatli va ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Avvalo, texnologik jihatdan yangi ukladga o‘tish uchun zamonaviy ilmiy-texnologik va innovatsion kompleksni shakllantirish, raqamli yechimlar asosida sanoat sohalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta muddatli istiqbolda sanoat tarmoqlarida innovatsion transformatsiyani ta’minlash va yuqori o‘sish sur’atlariga erishish uchun qator ustuvor yo‘nalishlar belgilab olinmoqda. Birinchidan, sanoatda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish va ishlab chiqarish hamda eksportni diversifikatsiya qilish jarayonida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, tubdan yangi raqamli yechimlar va intellektual texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida tashqi bozorlarda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish talab etiladi.

Shu bilan birga, mavjud sanoat korxonalarini raqamli platformalar va sun’iy intellekt asosida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi korxonalar tashkil etish bo‘yicha investitsiya siyosati faol amalga oshirilishi zarur. Bu jarayon sanoat mahsulotlarining energiya va resurs sig‘imini kamaytirish, tannarxini tushirish hamda sifatini oshirish orqali ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Hududlarda mahalliy resurslardan samarali foydalanish va sanoat korxonalarini optimal joylashtirish orqali raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashtirilishi mumkin. Shuningdek, ishlab chiqarish infratuzilmasini (elektr energiyasi, gaz, suv ta’minoti) raqamli monitoring va boshqaruv tizimlari yordamida takomillashtirish sanoatning barqaror faoliyat yuritishi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Sanoat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – yuqori malakali injener-texnik kadrlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlash hisoblanadi. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsion faoliyatni joriy qilish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni raqamli yechimlar asosida diversifikatsiya qilish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishda hal qiluvchi omildir.

Respublikada innovatsion muhitning shakllanishi va uning kelgusida jadal rivojlanishi uzoq muddatli barqaror taraqqiyotni ta’minlash hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonlarning samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Innovatsion muhitni rivojlantirish yo‘lida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- innovatsion faoliyatning barcha bosqichlarini qo‘llab-quvvatlaydigan tizimli huquqiy bazani yaratish;
- iqtisodiyotning real sektori tomonidan sun’iy intellekt va raqamli yechimlarga asoslangan innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish;
- yirik sanoat korxonalarining raqamli transformatsiya orqali innovatsion faolligini kuchaytirish;
- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, venchur fondlar va raqamli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, investitsiyalarni sug‘urta qilish;
- yuqori texnologiyali asbob-uskunalarni raqamli boshqaruv orqali lizingini yo‘lga qo‘yish;
- ustuvor yo‘nalishlarda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish;
- ilmiy tashkilotlar, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida raqamli platformalar orqali kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish;
- innovatsion sohada axborot oqimini kengaytirish va raqamli ma’lumotlardan samarali foydalanish;
- aholi va tadbirkorlarning raqamli innovatsion madaniyatini rivojlantirish.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashning strategik maqsadlari ishlab chiqarishning ustuvor omillarini aniqlash, raqamli infratuzilmani shakllantirish, sanoat korxonalarining innovatsion faolligini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalardan kelib chiqadigan oqibatlarni oldindan bashorat qilish aniqligiga bog‘liq.

Shu jihatdan, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichi milliy sanoatning raqobatbardoshligini ta’minlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali innovatsion faoliyatni samarali rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga joriy etishni talab etmoqda. Ilg‘or xorijiy tajribalar va ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda tashqi bozordagi raqobatbardoshligi zamonaviy milliy innovatsion tizimning mavjudligi va unda raqamli yechimlarning ustuvor qo‘llanilishi orqali ta’minlanadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni ta’minlash innovatsion transformatsiya jarayonlariga, xususan sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etishga chambarchas bog‘liq. Milliy innovatsion tizim elementlarini shakllantirish va ularning samarali hamkorligi davlat innovatsion siyosatining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish sanoat ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mahsulot sifatini oshirish, energiya va resurslar sarfini kamaytirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobat ustunligini ta’minlash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat sanoat korxonalarining tashkiliy tuzilmasi, marketing strategiyalari va boshqaruv tizimlarini raqamli transformatsiya asosida qayta shakllantirishga zamin yaratadi.

Zamonaviy innovatsion jarayonlarda uzluksizlik va uyg‘unlik tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega. Bu esa korxonalarda sun’iy intellektga asoslangan intellektual boshqaruv tizimlarini yo‘lga qo‘yish, raqamli tahlil va prognozlash modellarini joriy etish hamda yangi tashkiliy mexanizmlarni shakllantirishni talab qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatmoqdaki, raqobatda ustunlikka erishish uchun sanoat korxonalari faqat innovatsion mahsulotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki raqamli texnologiyalarga tayanadigan samarali menejment modellarini qo‘llashi, bozor o‘zgarishlariga tez moslashishi va inson kapitali salohiyatidan oqilona foydalanishi zarur.

Demak, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan innovatsion transformatsiya sanoat korxonalarining uzoq muddatli strategik rivojlanishi, iqtisodiy o‘sishi va barqaror raqobatbardoshligini ta’minlaydi.



1-rasm. Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi muhit omillari

Manba: Muallif ishlanmasi.

Hozirgi vaqtda bozorda korxonalar innovatsion faoliyat ishtirokchisi bo‘lishining quyidagi asosiy yo‘nalishi kuzatiladi. Ko‘pgina korxonalar bir yoki bir nechta korxonalar uchun (ba’zan to‘liq bozor uchun) yangi texnologik g‘oyalardan foydalanishga asoslangan “faol innovatsion raqobat” strategiyalarini tanlaydilar. Bu esa, “texnologik jihatdan yetakchi”, “yetakchilarga ergashish” va diversifikatsiyalash strategiyalarini tanlashda namoyon bo‘lishi mumkin.

Innovatsion transformatsiyaga eng samarali yondashuv sanoat korxonalarining faqat eski mahsulotlarni takomillashtirishi bilan cheklanmay, balki raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt orqali ishlab chiqarish jarayonlarini qayta tashkil etish, iste’molchilar uchun qo‘shimcha raqamli xizmat turlarini yo‘lga qo‘yish, narx siyosatini optimallashtirish va yangi bozor segmentlarini aniqlashdan iboratdir. Bu jarayonlar korxonaning raqamli imijini shakllantirish va uzluksiz innovatsion yangilanishga asoslangan marketing strategiyalarini qo‘llashni taqozo etadi.

Zamonaviy raqobatbardoshlik ko‘p o‘lchovli va kompleks ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘lib, unda korxonaning sifat, marketing, tijorat tarkibi va bozordagi mavqei kabi to‘rt asosiy omili muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillarning har biri sanoat korxonalarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarga tayanadigan innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan uzviy bog‘liq. Masalan, sifat ko‘rsatkichlari mahsulotning yuqori texnologiyali va intellektual yechimlarga asoslanishini anglatsa, raqamli marketing platformalari korxonaning transmilliy miqyosda raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Innovatsion siyosatni shakllantirishda sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat ishlab chiqarishdagi yangiliklar samaradorligini oshiradi, balki bozordagi o‘zgarishlarni oldindan bashorat qilish va raqobatchilar harakatlariga tez moslashish imkonini ham yaratadi. Shuningdek, raqamli marketing innovatsiyalari mahsulot turi, sotish usullari, kommunikatsiya va narx siyosatini intellektual algoritmlar asosida qayta shakllantirish imkoniyatini beradi.

Bugungi sharoitda sanoat tarmoqlarida innovatsion transformatsiyani optimallashtirishning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri – raqobatchilar bilan raqamli platformalar orqali hamkorlik qilish, raqamli ekotizimlarda ishtirok etish va sun’iy intellekt yordamida strategik ustunlikka erishish hisoblanadi.

Sanoatda yangi innovatsion texnologiyalarning, jumladan, sun’iy intellekt va raqamli yechimlarning joriy etilishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon standartlariga moslashuvini ta’minlab, eksport hajmini oshirish hamda kelgusida samaradorlikni yuksaltirishda davlat boshqaruvining ahamiyati beqiyosdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiyotni raqamlashtirish va tashqi savdo faoliyatini jadal rivojlantirish jarayonida davlatning qo‘llab-quvvatlovi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlari milliy iqtisodiyotning iqtisodiy qudratini yuksaltirib, boshqa tarmoqlar bilan uyg‘un rivojlanadi. Shu bois, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion transformatsiya jarayonida davlat quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishi zarur:

- xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlash maqsadida raqamli savdo va elektron to‘lov tizimlarini takomillashtirish;

- eksport operatsiyalarida raqamli bojxona yechimlarini joriy etish orqali tezkor va shaffof jarayonlarni ta’minlash;

- sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etishda sun’iy intellekt asosida prognoz va tahlillarni kuchaytirish;

- raqamli platformalar orqali davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg‘unlashtirib, innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish;

- mahalliy va xorijiy investorlar uchun sanoat tarmoqlarining raqamli infratuzilmasini jozibador qilib ko‘rsatish;

- innovatsion uskunalar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun texnologik imtiyozlar berish;

- raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida korxonalarda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish.

Shu bilan birga, sanoat korxonalari o‘z innovatsion faoliyatini jonlantirishda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi zarur:

- ishlab chiqarish jarayonida sun’iy intellekt algoritmlari va raqamli modellashtirish texnologiyalarini joriy etish;

- boshqaruv tizimini raqamli transformatsiya talablariga mos ravishda qayta tuzish;

- fan sig‘imi yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish uchun innovatsion lizing modellarini joriy qilish;

- intellektual tahlillar asosida bozor ehtiyojlarini oldindan bashorat qilish va innovatsion faoliyatni ularga moslashtirish;

- strategik rejalashtirishda raqamli texnologiyalarni asosiy omil sifatida belgilash;

- innovatsion loyihalarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish uchun maxsus raqamli markazlar tashkil etish;

- mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini sun’iy intellekt orqali doimiy ravishda monitoring qilish.

Shu tariqa, sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yordamida amalga oshiriladigan innovatsion transformatsiya mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, raqobatbardosh sanoatni rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, sanoat tarmoqlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirib, xarajatlarni tejash va biznes jarayonlarini optimallashtirish imkonini yaratadi. Innovatsion faoliyat bugungi kunda faqat investitsiya jalb etish vositasi emas, balki aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan iqtisodiy o‘sish drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, davlat qo‘llab-quvvatlovi asosida sanoat korxonalari sun’iy intellekt va raqamli yechimlarga asoslangan innovatsion siyosatni samarali amalga oshirsa, ular xalqaro miqyosda o‘z raqobatbardoshligini oshirishi hamda milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga hissa qo‘shishi mumkin.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sanoatda avtomatlashtirish va robotlashtirish jarayonlarini tezlashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Ular orqali xatolarni minimallashtirish, yuqori tezlikda ishlash va resurslarni optimal taqsimlash imkoniyatlari yaratiladi. Shu bilan birga, Big Data va intellektual analitika vositalari ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur tahlil qilish va aniq prognozlar asosida optimal yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Bunday raqamli transformatsiya sanoat tarmoqlarida yangi mahsulot va xizmat turlarini yaratish, korxonalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirib, sanoatning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Biroq raqamli texnologiyalar kengayishi bilan sanoat obyektlari uchun kiber xavfsizlik masalasi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu sababli, zamonaviy kiber xavfsizlik yechimlari va sun’iy intellekt asosida ishlovchi muhofaza tizimlari sanoat infratuzilmasining barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Demak, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion transformatsiya sanoatning istiqbolli rivojlanish yo‘nalishi hisoblanib, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, raqobat ustunliklarini kuchaytirish va milliy iqtisodiyotni barqaror o‘sishga yo‘naltirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Архипов Л.И. Большие данные и искусственный интеллект в бизнесе: развитие и регулирование // Big Data and Advanced Analytics. – 2020. – № 6-3. – с. 122-127.
2. Афанасьев Д. Как искусственный интеллект меняет отношение бизнеса к покупателю // БИТ. Бизнес и Информационные технологии. – 2019. – № 5(88). – с. 54-55.
3. Бухтиярова Т.И. Цифровая экономика: особенности и тенденции развития // Бизнес и общество. – 2019. – № 1(21). – с. 22.

4. Дудин М.Н., Шкодинский С.В. Тенденции, возможности и угрозы цифровизации национальной экономики в современных условиях // Экономика, предпринимательство и право. – 2021. – № 3. – с. 689-714. – doi: 10.18334/epp.11.3.111785.
5. Жилин В.В., Сафарьян О.А. Искусственный интеллект в системах хранения данных // Вестник Донского государственного технического университета. – 2020. – № 2. – с. 196-200. – doi: 10.23947/1992-5980-2020-20-2-196-200.
6. Карпова Н.П., Евтодиева Т.Е. Логистические инновации: сущность, виды и способы финансирования // Экономика, предпринимательство и право. – 2020. – № 7. – с. 2063-2072. – doi: 10.18334/epp.10.7.110547.
7. Лапаев Д.Н., Морозова Г.А. Искусственный интеллект: за и против // Развитие и безопасность. – 2020. – № 3(7). – с. 70-77. – doi: 10.46960/2713-2633_2020_3_70.
8. Лексин В.Н. Искусственный интеллект в экономике и политике нашего времени. Статья 2. Искусственный интеллект как товар и услуга // Российский экономический журнал. – 2020. – № 5. – с. 3-33. – doi: 10.33983/0130-9757-2020-5-3-33.
9. Любимов А.П. Основные подходы к определению понятия «искусственный интеллект» // Научно-техническая информация. Серия 2: Информационные процессы и системы. – 2020. – № 9. – с. 1-6. – doi: 10.36535/0548-0027-2020-09-1.
10. Моргунова Е. Интеллектуальная собственность и искусственный интеллект // Интеллектуальная собственность. Авторское право и смежные права. – 2020. – № 9. – с. 27-40.
11. Морозова И.А., Коробейникова О.М., Коробейников Д.А., Глазова М.В. Искусственный интеллект в управленческом учете коммерческих структур: новые возможности // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Экономика и управление. – 2020. – № 2(41). – с. 32-38. – doi: 10.18323/2221- 5689-2020-2-32-38.
12. Пороховский А.А. Искусственный интеллект сегодня и завтра: политико-экономический подход // Экономическое возрождение России. – 2020. – № 3(65). – с.4-11. – doi: 10.37930/1990-9780-2020-3-65-4-11.
13. Шкор О.Н., Севзюк Ч.А. Искусственный интеллект в Digital-маркетинге // Big Data and Advanced Analytics. – 2020. – № 6-3. – с. 38-41.
14. Alizada A.V., Muradli V.A. Information and artificial intelligence // Булатовские чтения. – 2020. – p. 37-38.
15. Clauberg R. Cyber-physical systems and artificial intelligence: chances and threats to modern economies // World Civilizations. – 2020. – № 3. – p. 107-115.
16. Kitzmann H., Yatsenko V., Launer M. Artificial intelligence and wisdom // Инновации в менеджменте. – 2021. – № 1(27). – p. 22-27.
17. Reis J., et al. Digital Transformation: A Literature Review and Guidelines for Future Research // Trends and Advances in Information Systems and Technologies: World Conference on Information Systems and Technologies. 2018. – p. 411-421.– doi: 10.1007/978-3-319-77703-0_41.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI YASHOVCHANLIGI VA UNGA INSON KAPITALI TA’SIRINING BAHOLASHNING EMPIRIK TAHLILI

Qosimova Dilorom Sobirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Email: diloromkos@bk.ru

Kabulova Nurgo‘zal Umirbek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
Email: guzalumirbekona@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes asosiy drayverlardan biri bo‘lib, mehnat unumdorligi va faoliyat davomiyligi darajasi uning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqot-ning maqsadi kichik biznes subyektlarining ishchi kuchi samaradorligi va ularning barqaror faoliyat ko‘rsatish ehtimoli o‘rtasidagi munosabatning ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, mehnat unumdorligi, faoliyat davomiyligi, inson kapitali.

Abstract: Small business is one of the main drivers of our country’s economy, where labor productivity and the duration of activity serve as key factors for its sustainable development. The purpose of this study is to examine the significance of the relationship between the labor efficiency of small busi-ness entities and their probability of maintaining sustainable operations.

Key words: small business, labor productivity, duration of activity, human capital.

Аннотация: Малый бизнес является одним из ключевых драйверов экономики нашей страны, а уровень производительности труда и продолжительности деятельности выступает важным фактором его устойчивого развития. Цель данного исследования заключается в изучении значимости взаимосвязи между эффективностью рабочей силы субъектов малого бизнеса и вероятно-стью их устойчивого функционирования.

Ключевые слова: малый бизнес, производительность труда, продолжительность деятельности, человеческий капитал.

KIRISH

2025-yilning birinchi choragi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes sezilarli rol o‘ynamoqda. Respublikada faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar soni 1,2 milliondan oshib, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 45,6 foizni tashkil etgan. Eksport hajmi 2 milliard dollarga yetgan, import hajmi esa 4,7 milliard dollardan ortiqni tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan kichik bizneslarning qancha muddat faoliyat yuritishi va ularning “yashab qolishiga” ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilgan statistik ma’lumotlarga qaraganda, yangi korxonalarning faqat qariyb 67,9 % qismi ilk ikki yilda yopilmay faoliyatini davom ettira oladi; besh yillik davrga kelib atigi 49,2 % bizneslar tirik qoladi, o‘n yil o‘tgach esa bor-yo‘g‘i 33,8 % korxonalar faoliyatini davom ettiradi [7].

Kichik biznes korxonalarining faoliyati ko‘p jihatdan u yerdagi ishchi-xodimlar soni va ularning samaradorligiga bog‘liq. Kichik firmalar jami ish o‘rinlarining katta qismini yaratadi – masalan, AQShda 500 nafargacha xodimga ega bo‘lgan korxonalar bandlikning 58 % ini, yalpi ichki mahsulotning 39 % ini tashkil etadi [10]. Biroq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlarida mehnat unumdorligi yirik korxonalarnikiga nisbatan ancha past, ya’ni ular yirik firmalar mahsuldorligining taxminan 47 % iga teng keladi. Xodimlar unumdorligining pastligi esa bevosita korxona daromadlarining pasayishi va raqobatbardoshlikning susayishiga olib keladi,

bu holat oxir-oqibat kichik biznesning muvaffaqiyatsizligiga hissa qo‘shib, uning “yashab qolish” imkoniyatini yanada kamaytiradi.

Xie va hammualliflar (2022) ta’kidlaganidek, xodimlarning munosabati va xatti-harakatlari korxona yashovchanligi uchun muhim omil hisoblanadi. Ularning fikricha, xodimlarning sadoqati hamda korporativ madaniyatdan qoniqishi barqaror rivojlanishning asosi sanaladi.

Castro-Gonzalez va boshqalar (2021) ham korxonada kutilmagan kadrlar almashinuvi salbiy oqibatlarga olib kelishini ta’kidlagan. Ularning so‘zlari bilan aytganda, “xodimlar kompaniyaning tayanchi bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi uchun kafolat vazifasini bajaradi.”

Sima va boshqalar (2020) fikricha, inson resurslarini boshqarish kichik va o‘rta bizneslarning korporativ boshqaruvining muhim qismidir. Sifatli HRM vositalarini qo‘llash ushbu turdagi korxonalar o‘ziga xos xususiyatlari tufayli ularning omon qolishiga sezilarli darajada hissa qo‘shishi mumkin.

Filippaios (2019) bu borada qiziqarli g‘oya ilgari surgan: “…turli avlod vakillari samarali hamkorlik qiladigan ishchi kuchiga ega firmalar o‘ziga xos strategik ustunlikka ega bo‘ladilar, chunki turli yoshdagi odamlar turlicha hayotiy tajriba va bilimlarga ega bo‘lib, ularni kompaniya o‘sishi uchun samarali tarzda qo‘llash mumkin.”

Xodimlar almashinuvi ko‘rsatkichlari xalqaro miqyosda kichik biznes va korxonalar barqarorligiga ta’sir etuvchi eng muhim inson kapitali omillaridan biri sifatida baholanadi. Butun dunyo bo‘yicha yillik o‘rtacha xodimlar almashinuvi darajasi 20 foiz atrofida qayd etilmoqda, bu esa mehnat resurslarining barqarorligini ta’minlashda jiddiy muammo ekanini ko‘rsatadi. AQShda bu ko‘rsatkich 2023–2024-yillarda ixtiyoriy ishdan ketish o‘rtacha 13,5 foizni tashkil etgan, umumiy oylik ko‘rsatkich esa 3,3 foiz darajasida bo‘lgan. Tarmoq kesimida sezilarli farqlar mavjud: turizm sohasida xodimlar almashinuvi eng yuqori (oylik 5,3%), chakana savdoda 3,9%, qurilishda 3,4%, ishlab chiqarishda esa 2,5% atrofida qayd etilgan. Xizmat ko‘rsatish va professional xizmatlar sohasida esa yillik ko‘rsatkich 12–13 foizgacha yetadi.

Mamlakatimizda ham xizmat va chakana savdo kabi sohalarda xodimlarni uzoq muddat saqlab qolish qiyinligi kuzatilmoqda. Shu sababli ishchi kuchi ko‘rsatkichlarining kichik biznes muvaffaqiyatiga ta’sirini chuqur o‘rganish va ularning bashoratini ishlab chiqish milliy siyosat hamda ilmiy tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Jaroslav B. va boshqalar (2024) ilmiy tadqiqotlaridan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Chexiyadagi kichik va o‘rta korxonalar o‘z xodimlarining malakasini oshirishga investitsiya kiritishi korxona barqarorligi kontekstida muhim. Polshada esa inson kapitaliga ijobiy munosabat va xodimlarning faoliyatini muntazam baholash kichik va o‘rta biznes subyektlarining kelajakka nisbatan ijobiy qarashini shakllantiruvchi eng muhim ikki omil bo‘lib chiqdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida kichik biznes subyektlarining omon qolishida inson kapitalining rolini o‘rganish uchun ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar, maqolalar va ilmiy nashrlarning empirik tahlili o‘rganildi. Tadqiqotda respublikadagi kichik biznes korxonalarining “yashab qolish” darajasi, ularning mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari kichik biznesning YaIMdagi ulushi va bandlikdagi ulushi nisbati (ProdIndeks) orqali aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil boshida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va mikrofirmalar soni 417,1 mingtani tashkil qilgan. Shu yil davomida yana 77,0 mingta yangi kichik korxona tashkil etilgan. 2025-yil boshiga kelib esa faoliyatini davom ettirayotgan kichik bizneslar soni 358,1 mingtani tashkil etdi.

Ushbu ma’lumotlar asosida kichik biznesning bir yillik “yashab qolish darajasi” quyidagi formula orqali hisoblab chiqildi:

$$Yashabqolishdarajasi = \frac{Faolkorxonalar_{yiloxir}}{Faolkorxonalar_{yilboshi} + Yangochilganlari_{yildavomida}}$$

Natijada 2024-yilda kichik bizneslarning milliy darajadagi survival rate’i 72,5 % bo‘lgani aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, yil davomida faoliyat ko‘rsatgan yoki yangi ochilgan har 10 ta kichik biznesning qariyb 7 tasi 2025-yil boshiga kelib hamon faoliyatini davom ettirmoqda, qolgan qismi esa yopilgan (faoliyat tugatilishi darajasi ≈ 27,5 %).



1-rasm. 2024-yilda yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari taqsimoti (sohalar kesimida)

Nisbiy mehnat unumdorligini esa kichik biznesning YaIMdagi ulushi kichik biznesning biznesning bandlikdagi ulushi nisbati orqali aniqlandi va natijalar quyidagi jadvalda aks ettirildi.(1-jadval)

1-jadval. O‘zbekistondagi kichik biznesning nisbiy mehnat unumdorligi (2019–2023yy)

Yil	YAIM dagi ulushi (%)	Bandlikdagi ulushi (%)	Nisbiy mehnat unumdorligi (%)
2019	58.5	76.2	76.8
2020	57.5	74.5	77.2
2021	56.9	74.5	76.4
2022	54.6	73.9	73.9
2023	54.3	74.0	73.4

2019–2023 yillar mobaynida O‘zbekistonda kichik biznesning nisbiy mehnat unumdorligi tahlillariga qaraydigan bo‘lsak, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 76,8 % bo‘lsa, 2023-yilga kelib 73,4 % ga pasaygan. Bunda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 58,5% dan 54,3 % gacha qisqargan bo‘lsa-da, bandlikdagi ulushi deyarli barqaror, ya’ni 74 % atrofida qolmoqda. Umumiy iqtisodiyot fonida kichik biznes samaradorligi kamaygan.



2-rasm. 2024-yilda hududlar bo‘yicha mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari

Yuqorida hududlar bo‘yicha mehnat unumdorligini ko‘rishimiz mumkin. Samaradorlik yuqori bo‘lgan hududlar ishlab chiqarish hajmi yuqoriligi, infratuzilma yaxshiligi va innovatsiyalardan samarali foydalanish sabablidir.

O‘zbekistonda kichik bizneslarning 2024-yil uchun bir yillik faoliyat davomiyligi 72,5% bo‘lgani, xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan solishtirganda biroz pastroq ekani ko‘zga tashlanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va AQSh tajribasida yangi tashkil etilgan korxonalarning bir yillik “yashab qolish” darajasi odatda 80–85 % atrofida bo‘ladi. Demak, O‘zbekiston sharoitida kichik bizneslarning qisqa muddatli barqarorligi hali yetarli darajada emas.

Buning sabablari bir nechta omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Birinchidan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklanganligi yangi tashkil etilgan bizneslarning dastlabki yillarda o‘zini saqlab qolishiga to‘sqinlik qiladi. Ikkinchidan, ishchi kuchi samaradorligi va malaka darajasi pastligi korxonalarning bozorda raqobat qila olmasligiga olib keladi. Uchinchidan, ayrim hududlarda infratuzilma va bozor hajmi yetarli emasligi tufayli korxonalar qisqa muddatda yopilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, mavjud 72,5 % darajasi butunlay salbiy ko‘rsatkich deb bo‘lmaydi. Bu natija kichik bizneslarning aksariyati (10 tadan 7 tasi) bir yil davomida faoliyatini davom ettirishga qodir ekanligini ko‘rsatadi.

Kichik biznesdagi mehnat unumdorligiga keladigan bo‘lsak, tendensiya kichik biznesda ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi yetarlicha yuqori emasligini

YaIMdagi ulushning kamayishi ishlab chiqarish hajmining yirik biznes va davlat korxonalari foydasiga o‘sib borayotganidan dalolat. Bandlik ulushining yuqori saqlanib qolishi esa kichik biznesning hali ham asosiy ish beruvchi sifatida ahamiyatli ekanini bildiradi. Xalqaro taqqoslashlarda ham kichik biznes ko‘pincha o‘rtacha samaradorlikdan past bo‘ladi, ammo O‘zbekistonda bu tafovut yanada sezilarli.

Hozirgi davrda kichik tadbirkorlikda davlat tomonidan yosh tadbirkorlar uchun imtiyozlar, soliq yengilliklari, subsidiyalar kabi bir qator chora tadbirlar olib borilyapti.

Lekin O‘zbekiston mehnat bozorida qator salbiy omillarni ko‘rish mumkin. Avvalo, mehnatga rag‘batning sustligi iqtisodiy faol aholining samarali bandligiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, ish beruvchilar talab qilayotgan kasbiy malaka va ko‘nikmalar bilan ish qidirayotganlarning mavjud ko‘nikmalari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud. Bu esa kadrlar tayyorlash tizimi va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni kuchaytiradi va bu o‘z navbatida korxona miqyosida uning samarador faoliyatiga ta’sir qiladi. Korxona va tashkilotlarda malaka oshirish hamda qayta tayyorlash kurslarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi ishchi kuchining kasbiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon bermaydi va mehnat unumdorligini pasaytiradi.

Yaxlit nuqtai nazardan kelib chiqib, kichik biznes subyektlarida xodimlar samaradorligini omilini oshirgan holda korxonalar yashovchanligini barqaror ushlab turish uchun quyidagi asosni taklif qilish.



3-rasm. Kichik biznes subyektlari samaradorligi va yashovchanligiga ta’sir etuvchi omillar konseptual modeli

Qobiliyatlar, motivatsiya va imkoniyatlar (AMO modeli) – bu inson kapitalini boshqarish siyosatining uch asosiy yo‘nalishi bo‘lib, ular xodimlarning samarali ishlashiga bevosita ta’sir qiladi. Natijada kichik biznes subyekti

samaradorligi ortadi (mehnat unumdorligi, innovatsion faoliyat, moliyaviy barqarorlik). Yuqori samaradorlik esa kichik biznes subyekti yashovchanligini ta’minlaydi – ya’ni korxonaning bozor sharoitida uzoq muddat faoliyat olib borishi ehtimolini oshiradi.

Ijtimoiy mas’uliyat madaniyati (CSR) moderator sifatida bu bog‘lanishni kuchaytiradi: CSR qadriyatlari kuchli bo‘lgan firmalar inson kapitalini boshqarish amaliyotlaridan ko‘proq natija oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston miqyosida kichik biznes iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar va statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik bizneslarning (faoliyatni davom ettirish darajasi) xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkichlarga nisbatan pastroq. Bu esa kichik biznes subyektlarining barqarorligini mustahkamlash uchun qo‘shimcha choralarni talab qiladi. Shu bilan birga, ishchi kuchi samaradorligi pastligi ham kichik biznesning uzoq muddatli barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Demak, kichik biznesning yashab qolishi va rivojlanishi bevosita xodimlar salohiyati hamda ularning malakasi bilan chambarchas bog‘liq.

Xodimlar salohiyatini oshirish

Kichik biznes korxonalarida muntazam kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish.

Ishchi kuchini raqamli ko‘nikmalar, boshqaruv va marketing bo‘yicha zamonaviy treninglar bilan qo‘llab-quvvatlash.

O‘quv markazlari va universitetlar bilan hamkorlikda dual ta’lim tizimini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. – Т.: Меҳнат, 2010.
2. Гамидуллаев Р.Б., Гамидуллаева Л.А. Организационно-экономические факторы инновационной деятельности и формы ее поддержки в малом предпринимательстве. Пензенская государственная технологическая академия, 2009
3. Belas, J., Machova, R., Olah, J., & Metzker, Z. (2024). The impact of selected HRM factors on company´s survival of SMEs: Empirical research in V4 countries. Journal of International Studies, 17(1), 108-123. doi:10.14254/2071-8330.2024/17-1/7
4. Bilandzic, A. (2022). Corporate social responsibility and SME growth in transitional economies. Journal of Business Research, 148, 456–468.
5. Castro-González, S., Peña-Vinces, J., & Guillen, J. (2021). “Human resource management practices and SME performance: evidence from emerging markets” Journal of Small Business Management, 59(7), 1120–1145.
6. Dobbs, M., & Hamilton, R. T. (2007). Small business growth: recent evidence and new directions. International Journal of Entrepreneurial Behaviour & Research, 13(5), 296-322. http://dx.doi.org/10.1108/13552550710780885
7. Jack Nicholaisen 2025Small Business Survival Rates & Failure Rate/report
8. Lampadarios, E. (2016). “Critical success factors for SMEs: empirical study in the UK chemical distribution industry” International Journal of Business and Management, 11(7), 67–82.
9. Lussier, R.N. (1995). “A nonfinancial business success versus failure prediction model for young firms”. Journal of Small Business Management, 33(1), 8–20.
10. OECD (2019). Enhancing SME Productivity. OECD Publishing. Available at: https://www.oecd.org/publications/enhancing-sme-productivity-2afd4cc7-en.htm
11. Shaw, E. (2024). Macroeconomic environment and SME sustainability. Small Business Economics, 62(4), 899–921.
12. Xie, X., Zou, H., & Qi, G. (2022). “Employee attitudes, turnover, and firm survival in SMEs”. International Small Business Journal, 40(3), 227–245.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MAMLAKATNING IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Xashimxodjayev Sh.I.,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Dotsenti, PhD

Jukovskaya I.Ye.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti DSc. Professori.

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiyot subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari va ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siriga bag‘ishlangan. Mualliflar O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha bir qator muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini, elektron xizmatlar soni va sifati izchil ravishda oshib borayotganligini ta’kidlaydilar. Shuningdek, iqtisodiy subyektlar faoliyatiga sun’iy intellekt, katta hajmli ma’lumotlar, blokcheyn, buyumlar interneti, bulutli xizmatlar kabi texnologiyalar joriy etilayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Bularning barchasi mamlakatning innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, raqamli texnologik yechimlar, samaradorlik, raqamli iqtisodiyot, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari.

Abstract: This article is devoted to the issues of application of digital technologies in the activities of economic entities and their impact on the socio-economic development of the country. In the article, the authors show that currently in the Republic of Uzbekistan a number of regulatory documents on the development of the digital economy have been adopted, the number of electronic services is constantly increasing. Also, such technologies as artificial intelligence, BigData, blockchain, the Internet of things, cloud services are being introduced into the activities of economic entities, which are an incentive for further innovative development of the country.

Key words: Information technology, digital technology solutions, efficiency, digital economy, communication and information services.

Аннотация: Настоящая статья посвящена вопросам применения цифровых технологий в деятельности объектов экономики и их влияния на социально – экономическое развитие страны. В статье авторами показано, что в настоящее время в Республике Узбекистан принят ряд нормативно-правых документов по развитию цифровой экономики, постоянно увеличивается количество электронных услуг. Также в деятельность экономических объектов внедряются такие технологии, как искусственный интеллект, BigData, блокчейн, интернет вещей, облачные сервисы, которые являются стимулом дальнейшего инновационного развития страны.

Ключевые слова: Информационные технологии, цифровые технологические решения, эффективность, цифровая экономика, услуги связи и информатизации.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida biznes va davlatning samarali faoliyat yuritishida raqamli texnologik yechimlarning ahamiyati so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega. Jahon tajribasidan ma’lumki, korxona va tashkilotlar faoliyatiga har yili yangi raqamli texnologiyalar joriy etilib, ular asosida yaratilayotgan mahsulot va xizmatlar turlari ko‘payib bormoqda.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanayotgan iqtisodiy obyektlarning faoliyati iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi va jamiyat hayotining barcha sohalarini jadal rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mustahkam me’yoriy-huquqiy baza yaratilgan. Mamlakatimizda «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi» muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Davlat sektorida raqamli texnologiyalarni samarali rivojlantirish hamda davlat xizmatlarining miqdori va sifatini oshirishga qaratilgan huquqiy yechimlar majmuasi ishlab chiqildi. Bu yechimlar natijasida 2026-yilga kelib barcha davlat xizmatlari (100 foizi) elektron shaklda ko‘rsatilishi ko‘zda tutilmoqda. Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, bank sohasi, ta’lim, uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarda innovatsion texnologiyalarni tobora keng qo‘llash tendensiyasi kuzatilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi raqamli iqtisodiyot masalalariga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlaridagi nazariy yondashuvlarga asoslanadi. Bu nazariy yondashuvlar uslubiy, huquqiy, texnik, axborot, texnologik va dasturiy jihatlarni qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda «raqamli iqtisodiyot» tushunchasiga ta’rif berish borasida ko‘plab turli fikrlar mavjud. Mualliflar tomonidan mahalliy va xorijiy olimlarning keng ko‘lamli ilmiy ishlari o‘rganilgan. Ular qatoriga G.I. Abdraxmanova, K.O. Vishnevskiy, L.M. Goxberg [2], Ye.V. Balatskiy, Yekimova N.A. [3], B.A. Begalov [4], S.S. Gulyamov, A.T. Shermuhamedov [5], Jukovskaya I.Ye. [6], Xashimxodjayev Sh. I., Belalova G. A. [7], V.V. Chexa [8], Don Tapscott [9], Negroponte N. [10] va boshqa olimlarning ishlarini kiritish mumkin.

Maqola mualliflarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, yuqoridagi olimlar raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishga salmoqli hissa qo‘shdilar. Biroq, shuni ta’kidlash joizki, har bir olim alohida raqamli yechim yoki raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning alohida tarmog‘iga ta’sirini ko‘rib chiqadi. Bugungi kunda korxona va tashkilotlarning raqamli transformatsiyasi dinamikasi hali ko‘rsatilmagan va raqamli texnologiyalarni qo‘llash sharoitida korxonalarning iqtisodiy bozorda samarali ishlashiga ta’sir qiluvchi barcha omillar aniqlashtirilmagan.

Bir qator olimlar ushbu atama birinchi marta kanadalik olim Don Tepscott asarlarida paydo bo‘lgan degan fikrga kelishgan. Xususan, uning “Elektron-raqamli jamiyat: tarmoqli intellekt davrining afzalliklari va kamchiliklari” (“The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence”) nomli asarida keltirilgan [9].

Raqamli iqtisodiyot sohasidagi tadqiqotchilarning aksariyati “raqamli iqtisodiyot” atamasini birinchi bo‘lib amerikalik olim Nikolas Negroponte tomonidan aytilgan deb hisoblashadi. Aynan shu olimning asarlarida raqamlashtirish iqtisodiy va ijtimoiy hayotda o‘z aksini topadi, degan tezis birinchi marta ilgari surilgan [10]. N. Negroponte asarlarida ta’kidlanishicha, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida axborot tarmoqlari va kommunikatsiya infratuzilmasi global platformani shakllantiradi, uning asosida iqtisodiy subyektlarning o‘zaro aloqalari amalga oshiriladi [10].

Raqamli iqtisodiyot sohasidagi ilmiy konsepsiyalar va olimlarning fikrlarini tahlil qilish natijasida “raqamli iqtisodiyot” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Xususan, raqamli iqtisodiyot deganda raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llashga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarning ko‘p bosqichli tizimini tushunamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi xizmatlar zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda ma’lumotlarni yaratish, uzatish, qayta ishlash, saqlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlarining yig‘indisi sifatida qaraladi.

Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining mamlakatning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega (1-rasm). Taqqoslash uchun taqdim etilgan ma’lumotlar keltirilgan yillarning yanvar-mart oylari uchun olingan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot subyektlari faoliyatiga raqamli yechimlarni joriy etish bo‘yicha sezilarli ijobiy natijalarga erishilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga respublikamizda 424840 ta korxona va tashkilot mavjud ekan [11]. Ushbu raqamga fermer va dehqon xo‘jaliklari kiritilmagan. Har bir korxona o‘z faoliyatida ma’lum darajada axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanadi.



1-rasm. 2023-2025-yillarning yanvar-mart oylari davrida respublikaning yalpi ichki mahsulotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining ulushi (mlrd. so‘m)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, raqamli yechimlardan asosan davlat korxonalari va tashkilotlari, bank-moliya va sug‘urta faoliyati sohasidagi kompaniyalar, tijorat va boshqa shunga o‘xshash tashkilotlar foydalanmoqda. So‘nggi yillarda iqtisodiy subyektlar faoliyatida onlayn xizmatlar, elektron to‘lovlar, blokcheyn texnologiyasi, sun’iy intellekt, robotlashtirish va shu kabi boshqa zamonaviy texnologiyalar faol qo‘llanilmoqda.

Mamlakatimizda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining sifati hamda hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. (2-rasm).

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi yil sayin oshib bormoqda.

Asosan telekommunikatsiya xizmatlari, dasturlash xizmatlari, axborot sohasidagi xizmatlar va shu kabilar ustunlik qilmoqda.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-mart oylari davomida ko‘rsatilgan aloqa va axborotlashtirish sohasidagi bozor xizmatlarining hajmi 11542,2 milliard so‘mni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-mart oylari davomida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 16845,9 milliard so‘mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 124,3% ni tashkil etib, 5303,7 mlrd. so‘mga oshgan [11].



2-rasm. 2020-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasidagi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi (trln. so‘m)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining oshishiga eng katta ta’sirni kompyuter dasturlash xizmatlarining o‘sishi ko‘rsatmoqda. 2025-yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida ushbu xizmat turining ulushi 43,8% ni tashkil etdi.

“Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish natijasida 2030-yilga kelib barcha ijtimoiy obyektlar Internet bilan ta’minlanishi, aholi punktlarining keng polosali mobil internet qamrovi 100 foizga yetkazilishi ko‘zda tutilmoqda [1].

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamlashtirish raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida hokimiyat va aholi o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning samarali mexanizmini ta’minlashga qaratilgan elektron hukumat tizimini rivojlantirishni nazarda tutadi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini amalga oshirish natijasida 2030-yilga kelib elektron hukumat xizmatlarining ulushini 90 foizgacha yetkazish, shuningdek, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali foydalanuvchilari sonini 0,5 milliongacha ko‘paytirish ko‘zda tutilgan.

Open Data Inventory reytingida O‘zbekiston Markaziy Osiyoda eng ilg‘or o‘rinlarni egallagani O‘zbekiston Respublikasida raqamlashtirishni rivojlantirish sohasidagi yutuqlardan dalolat beradi. Shu bilan birga, Elektron ishtirok indeksida (EPI) o‘z o‘rnini 13 pog‘onaga yaxshilab, 46-o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, “Raqamli Toshkent” dasturini amalga oshirishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Raqamli texnologik yechimlar yordamida shahar tumanlarining qulaylik darajasi aniqlandi. Bu esa transport yo‘llarini yengillashtirishdan tortib, to‘lovlarni amalga oshirish va turar-joy hududlarida qulay muhit yaratishgacha bo‘lgan kundalik masalalarni hal etish imkonini berdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida raqamli platformalarni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Ushbu platformalar ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm hamda milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarida o‘zining samarali qo‘llanilishini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sohasidagi joriy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda mamlakatda raqamlashtirishni yanada rivojlantirish uchun huquqiy, texnik va texnologik asos yaratilgan. Raqamli texnologiyalar tufayli korxona va tashkilotlarda mehnat unumdorligi oshmoqda, ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirilib, takomillashtirilmoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar biznes tuzilmalarining rivojlanishini yanada aniqroq bashorat qilishga va milliy iqtisodiyotdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning turli faoliyat turlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Biroq, raqamli texnologiyalar juda tez sur’atda rivojlanib bormoqda va bu korxona hamda tashkilotlar, vazirlik va idoralar rahbarlaridan mehnat jamoalarini boshqarishga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Shuningdek, yangi raqamli texnologik yechimlarni muntazam o‘rganish, ilg‘or texnik va dasturiy vositalarni o‘zlashtirish ham zarur bo‘lmoqda.

Bu borada oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish, korxona va tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish tizimini ilg‘or jahon tajribasi asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlarni barqaror rivojlantirish hamda takomillashtirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda foydalanilayotgan mobil qurilmalar - smartfonlar, noutbuklar, planshetlar va boshqalar - ham strukturalangan ma’lumotlarni, ham katta hajmdagi strukturalanmagan ma’lumotlarni samarali yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun muhim vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari, bulutli xizmatlar va masofadan monitoring qilish va qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi buyumlar interneti texnologiyasi keng tarqalmoqda.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, raqamli texnologiyalar milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida innovatsiyalarning o‘sishini rag‘batlantiradi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, uning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishga va aholi turmush sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni.
2. Г.И. Абдрахманова, К.О. Вишневский, Л.М. Гохберг. Что такое цифровая экономика? Тренды, компетенции, измерение: доклад к XX Апрельской международной научной конференции по проблемам развития экономики и общества, Москва, 9—12 апреля 2019 г. М.: Издательский дом Высшей школы экономики, 2019. — 82 с.
3. Балацкий Е.В., Екимова Н.А. Инновационно-технологические матрицы и национальные стратегии экономического развития // Управленец. 2019, Т.10, № 5. С.9-19.
4. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Статистическая оценка реализации стратегий социально – экономического развития Республики Узбекистан в условиях цифровой трансформации. Статистика и Экономика. 2022;19(3):64-76. https://doi.org/10.21686/2500-3925-2022-3-64-76.

5. Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т. Проблемы развития цифровой экономики в Узбекистане // “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” Ilmiy elektron jurnali.–Toshktnt, 2023. Maxsus son. (http://dgeconomy.tsue.uz/).
6. Жуковская И.Е., Хашимходжаев Ш.И. Цифровая трансформация и интеграция высших учебных заведений – современная основа подготовки высококвалифицированных специалистов // Всероссийский научно -практический журнал «Самоуправление». – Москва, 2023. №4.
7. Xashimxodjayev Sh. I., Belalova G. A. Features of digital development of the national economy of the Republic of Uzbekistan // Economics and Innovative Technologies, 2022, № 2, - pp. 332 – 337. http://iqtisodiyot.tsue.uz.
8. Чеха В.В. Цифровые платформы как новые субъекты образовательных отношений // Наука и школа. 2021. № 3. С. 81–93.
9. Don Tapscott. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence // McGraw-Hill, 1996, 342 p.
10. Negroponte N. Being Digital / N. Negroponte —New York: Alfred A. Knopf, 1995. —243 p.
11. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-portali.
12. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlar ma’lumotlar bazasi.

НЕФИНАНСОВАЯ ОТЧЁТНОСТЬ, КАК ЭЛЕМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИЙ

Сагдиллаева Зульфия Асаналиевна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Молиявий таҳлил кафедраси и.ф.н., профессори
ORCID: 0000-0002-5032-8763

Аннотация: Статья посвящена рассмотрению роли нефинансовой отчетности как элемента устойчивого развития компании во взаимосвязи экономического роста, социальной и экологической ответственности.

Ключевые слова: Устойчивое развитие, социальная ответственность, экологическая ответственность, нефинансовая отчетность, интегрированная отчетность.

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy bo‘lmagan hisobotlarning iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy va ekologik javobgarlik munosabatlarida kompaniyaning barqaror rivojlanishining elementi sifatida rolini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish, ijtimoiy javobgarlik, ekologik javobgarlik, moliyaviy bo‘lmagan hisobot, integratsiyalashgan hisobot.

Abstract: This article examines the role of non-financial reporting as an element of a company's sustainable development in relation to economic growth, social responsibility, and environmental protection.

Key words: Sustainable development, social responsibility, environmental responsibility, non-financial reporting, integrated reporting.

ВВЕДЕНИЕ

Современное состояние экономической действительности характеризуется усилением конкурентной борьбы, распространением процессов цифровизации, а также значительной динамичностью, изменчивостью и нестабильностью. Сложившиеся условия развития обусловливают необходимость актуализации не только методов управления коммерческой организацией, но и механизмов оценки и анализа предпринимательской деятельности, финансового состояния и устойчивого развития.

Зарубежный опыт функционирования организаций в качестве основной доминанты, предусматривает нацеленность на устойчивое развитие, в части повышения результирующих показателей функционирования, реализации человеческого потенциала, сокращения отрицательного влияния на среду обитания и деятельности человека, ориентацию на укрепление взаимоотношений с современными институтами, а также усиление информационной прозрачности ведения бизнеса.

Создание прогрессивных методов управления, содействующих устойчивому движению вперед, не представляется возможным без детального исследования традиционного аналитического инструментария, а также составных частей управления коммерческой организацией, с выявлением причин, движущих сил, которые существенно оказывают воздействие на ее функционирование, разработки концепции анализа и оценки показателей и индикаторов в области устойчивого развития. Значительная часть действующих экономических субъектов не соответствует современным рыночным

условиям, поскольку обладает незначительной степенью адаптивности к динамичным изменениям экономической ситуации.

И на сегодняшний день запросы к формированию отчетности, содержащей информацию не только в коммерческом, но в ее расширенном социально-экономическом измерении, становятся все более актуальными.

Способность понимать и своевременно реагировать на технологические, социальные и экологические изменения бизнеса становится всё более важной для бизнеса. В настоящее время компании по всему миру уделяют большое внимание ответственному ведению бизнеса и соблюдению принципов устойчивого развития в рамках всей цепочки создания стоимости. Благодаря активному внедрению принципов устойчивого развития компании могут управлять рисками более эффективно и совершенствовать свой бренд и репутацию. Устойчивое развитие позволяет компаниям дифференцировать направления бизнеса, затраты и конкурентные преимущества. Значимость повестки устойчивого развития для внутренней политики Республики Узбекистан находит своё отражение в государственном регулировании важнейших секторов экономики.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В республике Узбекистан Постановлением Кабинета Министров «О мерах по реализации Национальных идей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года» № 841 от 20.10.2018 года утверждены 17 основных целей устойчивого развития страны на период до 2030 года. На сегодняшний день Президентом и правительством утверждён ряд нормативно-правовых актов в области устойчивого развития, обязательных для узбекистанских компаний, Постановлением Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зелёную» экономику на период 2019-2030 годов» №ПП-4477 от 04.10.2019 года, Указ Президента Республики «Об утверждении концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года» № УП-5863 от 30.10.2019 года.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологическую основу научного исследования составили фундаментальные и прикладные исследования отечественных и зарубежных ученых по вопросам устойчивого развития, составления и публикации нефинансовой отчётности.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Устойчивое развитие включает в себя такие основные понятия, как экономический рост, социальная и экологическая ответственность. Экономическая составляющая устойчивости заключается в создании и обеспечении условий для роста экономических показателей. Социальная составляющая устойчивости заключается в обеспечении достойного уровня благосостояния населения. Экологическая составляющая устойчивости заключается в сохранении природных ресурсов.

Современное управление бизнесом является движущей силой экономики и общественного развития, в свою очередь, ответственность за ведением бизнеса означает соблюдение интересов общества, ответственность за влияние их деятельности на окружающую среду. В этих условиях, внешние и внутренние условия создают бизнесу необходимость публикации своей концепции о корпоративной и социальной ответственности. И на сегодняшний день запросы к формированию отчетности, содержащей информацию не только в коммерческом, но в ее расширенном социально-экономическом измерении, становятся все более актуальными.

Обобщённая система и структурирование информации в виде отчетности, представляющей собой формат нефинансовой отчетности, не соединяющий информацию об отдельных аспектах деятельности бизнеса механически, а представляющий собой ее синтез на качественно новом уровне является драйвером для развития учетных систем.

В настоящее время нет общих требований к форме и перечню раскрываемой информации в нефинансовой отчетности. Разработкой стандартов для нефинансовой отчетности занимаются международные организации, такие как Конференция ООН по торговле и развитию (UNCTAD, United Nations Conference on Trade and Development), Международная организация по стандартам (ISO, International Standards Organization), Организация экономического сотрудничества и развития (OECD, Organization for Economic Cooperation and Development), Международная организация Глобальная инициатива по отчетности (GRI, Global Reporting Initiative), Международный советом по интегрированной отчетности (IIRC, International Integrated Reporting Committee), Международная федерация бухгалтеров

(IFAC 2.0, International Federation of Accountants), Международный совет по стандартам устойчивого развития (ISSB, International Sustainability Standards Board), и другие.

Широкий интерес в мировом масштабе к данному вопросу говорит об актуальности проблемы, и в тоже время многочисленность регуляторов и стандартов затрудняет создание единых требований к нефинансовой отчетности.

Фонд МСФО и Глобальная инициатива по отчетности (GRI) в 2022г. заключили соглашение в форме Меморандума о взаимопонимании (Memorandum of Understanding, MoU), предполагающего согласование и консолидацию международных инициатив внедрения и продвижения отчетности в области устойчивого развития. По аналитическим данным компании АКРА (Аналитическое Кредитное Рейтинговое Агентство), около 30 стран уже приняли законы, предусматривающие обязательное раскрытие нефинансовой информации.

Совет по международным стандартам отчетности в области устойчивого развития (ISSB) в 2024 году опубликовал первые два стандарта раскрытия ESG информации: «Общие требования к раскрытию финансовой информации, связанной с устойчивым развитием» (IFRS S1) и «Раскрытие информации, связанной с климатом» (IFRS S2). Согласно решению ISSB, в первый год внедрения новых правил компаниям достаточно будет раскрыть информацию о климатических рисках, а начиная с 2025 года предстоит публиковать полные данные, которые определяет стандарт IFRS S1.

На текущий момент более 20 стран, на которые приходится свыше половины мировой экономики (среди них Китай, Япония, Великобритания, Бразилия и Канада), заявили о готовности перейти на данные стандарты, или привести свои национальные требования в полное соответствие с ними. ISSB выпустил специальное руководство, чтобы оказать содействие в процессе внедрения разработанных требований на национальном уровне.

Совет по международным стандартам ISSB и GRI в мае 2024 года объявили о планах углубить сотрудничество по вопросам совместимости двух стандартов раскрытия ESG - информации и оптимизации их совместного использования на уровне компаний с учетом интересов, как инвесторов, так и общественности.

Международный комитет по интегрированной отчетности (IIRC) выпустил к обсуждению документ «Интегрированная отчетность — ценность взаимодействия в XXI веке», где обозначено, пять основных принципов интегрированного отчета:

1) стратегическая направленность;
2) ориентация на будущее;
3) структурирование и четкость информации;
4) адаптация к изменениям и учет интересов заинтересованных сторон;
5) краткость, надежность и существенность;

Таким образом, в современном мире наблюдается тенденция к составлению и предоставлению стейкхолдерам интегрированной отчетности, с требованиями к прозрачности и учету нефинансовых аспектов деятельности компаний, представляющих собой совокупность сведений и показателей, отражающих цели, подходы и результаты деятельности организаций по всем существенным вопросам социальной ответственности и устойчивого развития, включая минимальный перечень обязательно раскрываемых показателей.

В связи с этим необходима разработка концепции развития нефинансовой отчетности, направленная на:

– совершенствование системы стимулирования отечественных компаний к повышению информационной открытости и прозрачности результатов воздействия их деятельности на общество и окружающую среду, включая экономическую, экологическую и социальную составляющие;

– расширение возможностей для объективной оценки на основе публичной нефинансовой отчетности вклада результатов деятельности отечественных компаний в общественное развитие;

– содействие укреплению репутации компаний и повышению доверия к их деловой активности внутри страны и за ее пределами;

– систематизацию процесса внедрения публичной нефинансовой отчетности в управленческую практику отечественных компаний;

– повышение осведомленности широкого круга лиц о международных стандартах в сфере социальной ответственности, устойчивого развития и публичной нефинансовой отчетности, о значении публичной нефинансовой отчетности для отчитывающихся отечественных компаний и для их внешнего окружения.

Концепция предусматривает решение следующих задач:

– разработка минимальных требований к публичной нефинансовой отчетности, а также рекомендаций по процедурам проверки, оценки и подтверждения публичной нефинансовой отчетности;

– определение направлений совершенствования требований к раскрытию публичной нефинансовой отчетности;

– создание основ для формирования нормативно-правовой базы в сфере публичной нефинансовой отчетности, в том числе по вопросам социальной ответственности и устойчивого развития;

– содействие распространению и использованию в практике компаний единых понятий в сфере публичной нефинансовой отчетности, в том числе по вопросам социальной ответственности и устойчивого развития;

– содействие развитию профессиональной подготовки и повышению квалификации в сфере социальной ответственности, устойчивого развития и публичной нефинансовой отчетности;

– содействие обеспечению информационной поддержки в сфере социальной ответственности, устойчивого развития и публичной нефинансовой отчетности, в том числе для повышения информированности инвесторов и иных заинтересованных сторон, а также для развития международного сотрудничества в этой сфере.

Действие Концепции распространяется, в том числе на государственные компании, государственные корпорации, публично-правовые компании, государственные унитарные предприятия и хозяйственные общества с государственным участием.

В соответствии с концепцией, нефинансовая отчетность нацелена на раскрытие информации о деятельности организации в контексте социальной ответственности и устойчивого развития, и должна отражать взаимодействие с заинтересованными сторонами, а также достигнутые результаты, включая экономические, экологические и социальные аспекты, рассматриваемые в их взаимосвязи.

Актуальными задачами сегодняшнего дня являются повышение осведомленности в государстве и обществе по вопросам социальной ответственности, устойчивого развития и публичной нефинансовой отчетности, а также о регламентирующих эту сферу документах и расширение практики публичной нефинансовой отчетности.

На уровне государственной политики государства в сфере социально-экономического и экологического развития должны быть сформулированы цели, включающие в себя построение экономики лидерства и инноваций, конкурентоспособной на мировом уровне, повышение качества человеческого капитала, как важного фактора конкурентоспособности страны в XXI веке, обеспечение экологической безопасности, достижение социального благополучия и согласия в обществе.

В настоящее время все большее количество компаний осознает, что социальные вложения - не только дополнительные затраты, но также и существенные конкурентные преимущества.

К принципам формирования нефинансовой отчетности можно отнести:

- развитие социальной ответственности;
- экологической культуры;
- усиления значения добровольной осознанной ответственности бизнеса.

Нефинансовая отчетность направлена на обеспечение достоверного представления в ней информации о деятельности компании, непротиворечивость такой отчетности консолидированной финансовой отчетности (в случае обязательности ее составления) и бухгалтерской (финансовой) отчетности, а также соблюдение принципов существенности, осмотрительности, своевременности, полноты, полезности, рациональности, ясности.

На основе нефинансовой публичной отчетности, её ключевых показателей, возможно, провести оценку деятельности компании с целью обеспечения сопоставимости анализа и агрегирования информации по наиболее важным аспектам, характеризующим воздействие на общество и окружающую среду. Соответственно, важно определить в нормативных правовых актах минимальный перечень ключевых показателей, являющихся базовыми индикаторами, которые рекомендованы для обязательного раскрытия и характеризуют деятельность компании, включая экономическую, экологическую и социальную направленность, а также систему управления. Данные показатели должны раскрывать важнейшие направления деятельности организации, быть универсальными и учитывать сложившуюся практику в области публичной нефинансовой отчетности, а также соответствовать требованиям международных и отечественных документов в этой области.

В публичной нефинансовой отчетности помимо ключевых показателей компании могут раскрывать и другие показатели для освещения своей стратегии и результатов с учетом выбранной методологии отчетности, внутренних регламентов и процедур.

Компании могут самостоятельно выбирать, какие виды публичных нефинансовых отчетов они будут выпускать, если не существует формализованных требований со стороны государства, финансовых или иных институтов. Содержание публичной нефинансовой отчетности определяется в соответствии с целями компании, требованиями используемых стандартов и руководства по отчетности, а также информационными потребностями заинтересованных сторон.

Среди международных стандартов лидирует стандарт Global Reporting Initiative (GRI

Систематизированную информацию о деятельности в области устойчивого развития рекомендовано размещать на сайте в течение 30 дней со дня раскрытия годовой бухгалтерской (финансовой) отчетности.

При формировании показателей экономическим субъектам рекомендовано использовать данные бухгалтерского и налогового учета, бухгалтерской (финансовой) и налоговой отчетности, форм статистического наблюдения, консолидированной финансовой отчетности, составленной в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности.

ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Драйвером принятия новых стандартов раскрытия информации в области устойчивого развития, а также повышения эффективности внутренних аналитических процессов в этой сфере могут стать финансовые службы компаний, ключевые направления деятельности этих служб - выстраивание работы с ESG – данными и управление устойчивостью на их основе, и соответствие мировым тенденциям.

Список использованной литературы

1. Аналитический комментарий АКРА: «ESG - финансы и отчетность в странах БРИКС: общие знаменатели от 13.03.2024.
2. Аналитический комментарий АКРА: «Ожидания как реальность». От 22.12.2023.
3. Одинцова Т.М. «Развитие корпоративной отчетности как фактор формирования глобальной информационной среды устойчивого развития», материалы XVII международной научной конференции. СанктПетербург., 2022г. Стр. 23-32.
4. Библиотека корпоративных нефинансовых отчетов по состоянию на сегодня [Электронный ресурс] // URL: https://rspp.ru/tables/non-financial-reports-library/.
5. Новый стандарт ESG-отчетности учитывает лучшие мировые практики, 21.05.2024

MOLIYAVIY HOLAT TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Raximov Matnazar Yusupovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Email: raximovmy@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliyaviy holat tahlilining, ya’ni korxona aktivlari va ularni moliyalashtirishning muhim manbaalari bo‘lgan kapital va majburiyatlarning gorizontal, vertikal va trendli tahlilini amalga oshirish, likvidlik va to‘lovga qobilyatlikni baholash, moliyaviy barqarorlik, ish aktivligini o‘rganish, iqtisodiy nochorlik, faoliyat natijaviyligi va uning kutilishlarini iqtisodiy tashhislashning muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy holat, moliyaviy holat tahlili, aktiv, kapital, majburiyat, likvidlik, to‘lovga qobilyati, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy natija, foyda, zarar, rentabellik, ish aktivligi, iqtisodiy nachorligi.

Abstract: This article reveals the important aspects of the analysis of the financial situation, that is, the horizontal, vertical and trend analysis of the company's assets and capital and liabilities, which are important sources of their financing, the assessment of liquidity and solvency, the study of financial stability, business activity, economic insolvency, the effectiveness of activities and the economic diagnosis of its expectations.

Key words: financial condition, financial condition analysis, asset, capital, liability, liquidity, solvency, financial stability, financial result, profit, loss, profitability, business activity, economic insolvency.

Аннотация: В данной стате раскрываются важные аспекты анализа финансового положения, то ест горизонталный, вертикалный и трендовый анализ активов, капитала и обязателств предприятия, являющихся важными источниками его финансирования, отсенка ликвидности и платежеспособности, исследование финансовой устойчивости, деловая активности, экономической несостоятелности, эффективности деятелности и экономическая диагностика его ожиданий.

Ключевые слова: финансовое состояние, анализ финансового состояния, актив, капитал, пассив, ликвидност, платежеспособност, финансовая устойчивост, финансовый резултат, прибыл, убыток, рентабелност, деловая активност, экономический несостоятелност.

KIRISH

Moliyaviy holat tahlili– korxonalar faoliyatini baholashning muhim elementi sifatida aktivlar(resurslar) holatini, ularni moliyalashtirish manbaalarini, aktivlarni pulga aylanuvchanlik darajasini, to‘lovga qobilligini, aylanma aktivlarni moliyalashtirishga o‘z mablag‘larining yetarligi va yetishmasligini, ish aktivligini, iqtisodiy nochorlik va ular yuzaga keltiruvchi oqibatlarini moliyaviy hisobotning axborotlar bazasiga tayangan holda davriy, qiyosiy va omilli o‘rganishning murakkab tuzilmasiga ega jarayon hisoblanadi. Quyida, Olmaliq kon metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati (“Olmaliq KMK” AJ)ning moliyaviy hisobot ma’lumotlariga tayangan holda tahlil etishning metodolik jihatlariga, rivojlanishning imkoniyatlariga, muammolari va yechimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

“Olmaliq KMK” AJ tog‘-kon sanoatining muhim subyekti sifatida, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida ham strategik ahamiyatga ega korxona hisoblanadi. Ushbu jamiyatda 33 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritadi. Yillik ishlab chiqarish va savdo (2024-yil yakuni bo‘yicha) aylanmasi 38 trln so‘mga, faoliyatdan olingan yalpi daromad15 trln so‘mga, sof foyda hajmi 7.7 trln so‘mga, mehnat xaqi fondi 3.5 trln so‘mga teng. “Olmaliq KMK”AJ o‘tgan yilda (2024-yil) davlat budjetiga 11 trln so‘mga yaqin soliq tushumlarini amalga oshirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy holatini tahlil etishning oddiy an’anaviy usullari, iqtisodiy matematik usullari hamda iqtisodiy tahlilning maxsus (gorizonlar, vertikal, trend, koeffitsentli, qiyosiy, omilli tahlil) usullaridan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatining muhim tasnifiy jihatlarini xarakterlovchi moliyaviy holat tushunchasi-keng doiradagi qiziquvchilarning e’tiboridagi, subyektning jozibadorligini tavsiflovchi eng muhim kategoriya hisoblanadi.

Moliyaviy holat tahlili bo‘yicha, chop etilgan adabiyotlarni kuzatish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, uni amalga oshirishning yagona tartibi va metodik yondashuvi haligacha to‘liq hal qilinmagan.(1, 3,)

Moliyaviy holat tahlilida o‘rganiladigan ko‘rsatkichlarning qatorida ham, ularni aniqlashning yondashuvlarida ham, me’yoriy miqdorlarning belgilanishida ham, shuningdek uning shakli va texnikasida ham umumiy bir xillikni kuzatish qiyin.(5, 7)

Klassik tahlil maktabi olimlarining tadqiqotlarida moliyaviy holat tahlilining mazmunida-moliyaviy hisobotning muhim shakli bo‘lgan moliyaviy holat (buxgalteriya balansi) to‘g‘risidagi hisobotning muhim elementlarini va ularning tarkibiy o‘zgarishlarini, biznes va boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini, uning to‘lovga qobilligi va likvidligini baholashning, aktivlarni moliyalashtirishda o‘z va qarz mablag‘larining holatini, iqtisodiy nochorlik va ularninng kutilishlarini, investitsion faollik, ish va bozor aktivligini baholash orqali ichki va tashqi subyektlarning muhim boshqaruv qarorlariga kelishdagi joriy, tezkor va istiqboldagi xatti-harakatlarining muhim xulosalarini shakllantirishdan iborat aniq, ilmiy, ijodiy ishlarning jihatlariga ustivorlik beriladi .(6, 8)

Zamonaviy tahlil maktabi olimlarining qarashlarida klassik tahlil maktabi vakillarining ilmiy echimlaridan farqli ravishda moliyaviy holat tahlilida biznes jarayonlar, ularning samarasi va natijasini turli risklarga bog‘lagan holda o‘rganishning noananaviy usullarini, modelli va ekonometrik bog‘lanishlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlarini iqtisodiy va moliyaviy rivojlanishining muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish, aniqlangan imkoniyatlarni ishga solish, faoliyat va biznes samaradorligi va natijaviyligini oshirishdagi muqobil yechimlarini berish, muhim chora–tadbirlarini belgilashga muhim ahamiyat qaratiladi.(9, 10)

An’anaviy iqtisodiy tahlil, moliyaviy hisobot tahlilida eng dolzarb muammolardan biri bu-xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligi, bankrotligi, to‘lovga qabilyatsizligi, jozibadorligi, risklarga bardoshligi, moliya brozoridagi xatti-harakatlariga bog‘liq ravishda o‘rganishning dolzarb masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning sust kechayotganligi bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Olmaliq KMK” AJ Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik tog‘-kon sanoati korxonalaridan biridir. Jamiyatning ustav kapitali 2 407 trln so‘mni tashkil etadi. Jamiyatning ustav kapitalida Davlatning ulushi 98,54%ni, jismoniy va yuridik shaxslarning ulushi 1,46% ni tashkil qiladi.

“Olmaliq KMK” AJ tarkibiga oltin-mis ishlab chiqaruvchi uchta kon, polimetall rudalari yer osti koni, uchta oltin rudalari yer osti koni, beshta rudani boyituvchi, ikkita metallurgiya uchun sulfat kislota ishlab chiqaruvchi, nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqaruvchi, ta’mirlash-mexanika zavodlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, ohak zavodi, sanoat temir yo‘l transporti boshqarmasi, avtomobil bo‘limi, beshta avtobaza, uchta texnologik boshqarish bo‘limi, konni mexanizatsiyalash bo‘limi, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish bo‘limi va yigirmadan ortiq yordamchi ustaxonalar va laboratoriyalari kiradi.

Nodir, rangli va qimmatbaho metallarni qazib olishga, hamda ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan ushbu aksiyadorlik jamiyatida qazib olinayotgan ma’danlar tarkibida Mendeleev davriy jadvalidagi elementlarning deyarli barchasi mavjud.

Kombinatda ishlab chiqarilayotgan oltin va kumush London qimmatbaho metallar birjasining sifat belgisiga, xalqaro standartlashtirishning ISO-9001 sertikatiga ega.

“Olmaliq KMK” AJda 2024-yil yakunlari bo‘yicha 38.1 trln so‘mlik asosiy maxsulot, 7.3 mlyard so‘lim xalq istemoli mollari ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘tgan yilga nisbatan 116,1%ga bajarilgan. Jumladan, mis ishlab chiqarish 100 foizga, metalli rux 71,2 foizga, sulfat kislotasi 100,0 %, oltin 100,5%ga, kumush ishlab chiqarish 100,0 foizga bajarilgan. Yil yakuni bo‘yicha 610,9 mln.doll.lik (111,1 %) mahsulotlar eksport qilingan.

2024-yilda “Olmaliq KMK” AJda ishlab chiqarish quvvatini oshirish va xom ashyoni qayta ishlash uchun 1943,9 mln. dollar xajmidagi investitsiyalar o‘zlashtirilgan, shu jumladan, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kreditlar – 1751,2 mln. doll.ni tashkil qilgan.

Quyida, “Olmaliq KMK” AJda (buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘yicha) tuzilgan moliyaviy hisobotining umumlashgan ma’lumotlar bazasiga tayangan holda uning moliyaviy holatini tashxislab chiqamiz.

“Olmaliq KMK” AJning 2025-yil 1-yanvar holatiga buxgalteriya balansining qisqartirilgan shakli bo‘yicha iqtisodiy salohiyati (aktivlari) va moliyaviy salohiyati (kapitali va majburiyatlari)ni, hamda uning tarkibiy elementlarini quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.(1-jadval)

1-jadval. “Olmaliq KMK” AJda moliyaviy holat va uning uzgarishlari tahlili (trln so‘mda)

Aktivlar	2024-yil 1-yanvar	2025-yil 1- yanvar	Kapital va majburiyatlar	2024-yil 1- yanvar	2025-yil 1- yanvar
1	2	3	4	5	6
Uzoq muddatli aktivla	40.7	55.0	O‘z mablag‘lari manbaasi	24.3	29.3
Joriy aktivlar	14.3	18.1	Majburiyatlar	30.7	43.8
Balans	55.0	73.1	Balans	55.0	73.1

“Olmaliq KMK” AJda aktivlarining umumiy xajmi 2024-yil1-yanvar holatiga 55 trln so‘mni, 2025-yilning 1-yanvar sanasiga 73.1 trln so‘mni tashkil qilgan. Aktivlarning asosiy qismini uzoq muddatli aktivlar tashkil qilgan va ularning jami aktivlar tarkibidagi salmog‘i o‘tgan davrda 74 foizni, joriy davrda 75 foizni tashkil qilgan. Aktivlarning o‘zgarishi +18.1 trln so‘mni yoki 33 foizga ortgan.

Moliyalashtirish manbaalarida o‘z mablag‘lari manbaasi 2024-yil 1-yanvar sanasiga 24.3 trln so‘mni, 2025-yil 1-yanvar sanasiga 29.3 trln so‘mni tashkil qilgan. Jami moliyalashtirish manbaalarida o‘z mablag‘larining salmog‘i mos ravishda 44.1 foizdan 40.1 foizga tushgan.

“Olmaliq KMK” AJda aktivlarning mutlaq qiymati, ularning samaradorligi va natijaviyligini o‘rganmasdan turib ijobiy baholash qiyin. Shu sababli, quyida uning faoliyat samaradorligi va yakuniy natijalari bilan tanishib chiqamiz.(2-jadval)

2-jadval. “Olmaliq KMK” AJda moliyaviy natijalar tahlili (trln so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	Farqi +,-
1	2	3	4
Sotishdan sof tushum	31.0	37.6	+6.6
Yalpi foyda	18.3	23.7	+5.4
Soliq to‘loviga qadar foyda	10.9	13.3	+2.4
Sof foyda	6.7	7.7	+1.0

“Olmaliq KMK” AJda sotishdan sof tushum o‘tgan yilga nisbatan 6.6 trln so‘mga yoki +21.2 foizga (37.6/31*100) o‘sgan. Sotishdan olingan yalpi foyda joriy davrda 18.3 trln so‘mdan 23.7 trilllion so‘mga, soliq to‘loviga qadar foyda summasi 10.9 trln so‘mdan 13.3 trln so‘mga, sof foyda summasi 6.7 trln so‘mdan 7.7 trln so‘mga o‘zgargan.

Xo‘sh, “Olmaliq KMK” AJning ish samaradorligi qanday? 73 tirillion so‘mlik aktivlarning xajmi faoliyat samaradorligi va natijaviyligining joriy holatiga mosmi? Buni aniqlash yuzasidan natijaviylikning baholashning nisbiy ifodalari: aktivlarning aylanuvchanligi (ROA-S); aktivlarning rentabellik (ROA-N) koeffitsentlarini aniqlaymiz. (3-jadval)

3-jadval. “Olmaliq KMK” AJda muhim samaradorlik va natijaviylik ko‘rsatkichlari tahlili

Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	Farqi	O‘sishi, %
1	2	3	4	5
Sof tushum (trln so‘m)	31.0	37.6	+6.6	+21.2
Aktivlar qiymati(trln so‘m)	55.0	73.1	18.1	+32.9
Sof foyda(trln so‘m)	6.7	7.7	+1.0	14.9
Aktivlar aylanuvchanligi(kaytimi) (ROA-S),so‘m	0.56	0.51	-0.05	-8.9
ROA-aktivlarning rentabellik koeffitsenti (ROA-N),	0.12	0.10	-0.02	-16.7

“Olmaliq KMK” AJda aktivlar va ularning moliyalashtirish manbaalaridagi ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda ulardan samarali foydalanish va faoliyat natijaviyligi bilan bo‘g‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlarda salbiy holatlar kuzatilgan. Jumladan, aktivlarning pul ishlab topish darajasi (aktivlar qaytimi) 0.05 darajaga, aktivlarning rentabellik darajasi 0.02 darajaga kam bo‘lgan. Ularning nisbiy usishi ham mos ravishda -8.9 foizdan -16.7 foizga kam bo‘lgan.

“Olmaliq KMK” AJning aktivlari likvidligi, tulov qobilyati, moliyaviy barqarorligi, to‘lovga qobilyatsizligi, ish va bozor aktivligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha holatni baholasak moliyaviy holatning boshqa, boshqa jihatlarini ochib berishimiz mumkin.

“Olmaliq KMK” AJning buxgalteriya balansi ma’lumotlariga tayangan holda aktivlarning likvidlik ko‘rsatkichlarini baholaymiz. Aktiv va passivlarning buxalteriya balansining jamlangan qatorlariga mos ravishda quyidagi tarkibini tuzib chiqamiz. Ya’ni, jami aktivlarni(A)-doimiy harakatdagi aktivlar(A1), tez pulga aylanadigan aktivlar(A2), sekin pulga aylanadigan aktivlar(A3)dan iborat joriy aktivlarga hamda qiyin pulga aylanadigan aktivlarga(A4) tarkiblaymiz.

4. Serazetdinova L., Garratt J., Baylis A., Stergiadis S., Collison M., & Davis S. (2019). How should we turn data into decisions in AgriFood? Journal of the science of food and agriculture, 99(7), 3213-3219.
5. Azimov, D. (2021). Analysis of the international experience of implementing blockchain technology. Access to science, business, innovation in digital economy, ACCESS Press, 2(2): 138-149. https://doi.org/10.46656/access.2021.2.2(2)
6. Мартыненко Е.В. Проблемы использования новых информационных технологий в управлении сельскохозяйственным предприятием. // Новые технологии. 2015. № 3. С. 50.
7. Saiz-Rubio V, Rovira-más F. from smart farming towards agriculture 5.0: a review on crop data management. agronomy. 2020; 10(2):207.
8. Bestaeva N.V., Sultangalieva Dj.K., Zubova A.D. Issledovanie system monitoring v selskohozyaystvennoy sphere // Scientific result. Information technology, 2018. T. 3. No. 1. P. 19-24.
9. Simdyankin A.A., Borychev S.N., Uspensky I.A., Kashirin D.E., Yukhin I.A. Povyshenie energoeffektivnosti dronev v selskohozyaystvennom proizvodstve // Izvestiya NV AUK, 2022. No. 1 (65).
10. Gazieva R., Yunusova S. Automation and management of agricultural production processes. Study guide. - T.: TIQXMMI, 2019. - 251 p.
11. Gulyamov S.S. Actions in the implementation of artificial intelligence technologies in the statistical analysis of agricultural efficiency // II international scientificpractical conference on industrial economics and management: problems and solutions. - T.: 2022. P. 11-14.
12. G. Pardee, Jason M. Beddow, Terrence M. Hurley, Timothy K.M. Beattie and Vernon, R. Eidman, "A Bounds Analysis of World Food Futures: Global Agriculture Through to 2050", 2014, Australian Journal of Agricultural and Resource Economics, 58. P. 571–589.
13. Schultz T. W. Agriculture In An Unstable Economy, 1st. / T. Schultz. – McGraw- Hill Book Company, Inc.; New York And London, 2015. – 320 p.
14. Kitonsa H., Kruglikov S.V. Significance of drone technology for achievement of the United Nations sustainable development goals // R-Economy. T. 2014. No. 3. P. 115-120.
15. Eshov, M., Vafoev, B., Homidov, H. A Modern Approach to the Digitization of Agricultural Activities // AIP Conference Proceedings, 2022, 060019.
16. https://intellias.com/ productivity prediction using drone data based on artificial intelligence technologies/artificial-intelligence-in-agriculture/.
17. Decree of the President of the Rep.Uzb. "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" dated January 28, 2022 No. PF-60.

18. Homidov H.H., Maxmudov A.Sh. “Artificial in statistical analysis of agricultural productivity actions in the introduction of intelligence technologies” International Scientific and Technical Conference “Digital Technologies: Problems and Solutions for Practical Implementation in an Industry” on April 27-28, 2022. 193-197
19. S M Mirzaliev, H H Homidov, K A Sharipov and N A Kholikova “Perspectives of use of agricultural drones in Uzbekistan” IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1045 (2022) 012147 doi:10.1088/1755-1315/1045/1/012147

MINTAQAVIY AGRAR BOZORLAR SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Raxmonov Norim Razzakovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar departamenti rahbari,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada mintaqaviy agrar bozorlarning shakllanishi va rivojlanish mexanizmlari, ularning tarkibiy elementlari va iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilindi. O‘zbekiston sharoitida agrar bozorlarning xususiyatlari, infratuzilma, bozor kon’yunkturasi va institutsional islohotlar tahliliga asoslangan holda respublikada barqaror oziq-ovqat ta’minlanishini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, komparativ tahlil, statistik indikatorlar va sohaviy ekspert so‘rovnomasi usullari qo‘llanildi. Natijalarda mintaqalar o‘rtasidagi resurs taqsimoti, logistika, bozor infratuzilmasi va qo‘llab-quvvatlash siyosati yo‘nalishlarida aniq choralarni talab qilishi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy agrar bozorlar, oziq-ovqat xavfsizligi, infratuzilma, logistika, bozor kon’yunkturasi, qishloq xo‘jaligi.

Abstract: The paper analyzes the formation and development mechanisms of regional agricultural markets, their structural elements, and impact on economic efficiency. Based on the analysis of Uzbekistan’s agricultural market features, infrastructure, market conjuncture and institutional reforms, recommendations are developed to ensure regional food security. The study applied systemic and comparative analysis, statistical indicators, and expert surveys. Findings indicate the need for targeted measures in inter-regional resource allocation, logistics, market infrastructure and support policies.

Key words: regional agricultural markets, food security, infrastructure, logistics, market conjuncture, agriculture.

Аннотация: В статье проанализированы механизмы формирования и развития региональных аграрных рынков, их структурные элементы и влияние на экономическую эффективность. На основе анализа особенностей аграрных рынков Узбекистана, инфраструктуры, конъюнктуры и институциональных реформ разработаны рекомендации по обеспечению продовольственной устойчивости региона. В исследовании применялись системный и сравнительный анализ, статистические индикаторы и опросы экспертов. Результаты показывают необходимость корректировок в распределении ресурсов между регионами, логистике, инфраструктуре рынков и политике поддержки.

Ключевые слова: региональные аграрные рынки, продовольственная безопасность, инфраструктура, логистика, конъюнктура, сельское хозяйство.

KIRISH

Mintaqaviy agrar bozorlar — bu hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlovchi murakkab tizim bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini va aholining oziq-ovqat ta’minotini kafolatlaydi. O‘zbekiston sharoitida agrar bozorlar milliy iqtisodiyotning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki mamlakat aholisining 50 foizdan ortig‘i qishloq hududlarida yashaydi va ularning asosiy faoliyat turi agrar sohalar bilan bog‘liq. Mintaqaviy agrar bozorlarning shakllanishi hududning resurs salohiyati, yer va suv zaxiralarining taqsimoti, logistika infratuzilmasi va bozor institutlarining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Hududiy bozorlar rivojining muhim omili — ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va iste’molchi o‘rtasidagi munosabatlarning muvozanatda bo‘lishi hamda mahsulot aylanmasining uzluksiz ta’minlanishidir.

O‘zbekistonda agrar bozorlar shakllanishida tabiiy-iqlim sharoiti, sug‘oriladigan yerlar ulushi, agroklasterlar faoliyati va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimining rivojlanish darajasi katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mintaqaviy bozorlar nafaqat mahalliy aholi ehtiyojini qondirish, balki eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o‘ynamoqda. Shu bois O‘zbekiston sharoitida mintaqaviy agrar bozorlarning shakllanishi va rivojlanish mexanizmlarini tizimli tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish hamda hududlar o‘rtasidagi tarmoqlar integratsiyasini kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish talab qilinmoqda. Bunda hududiy agrosanoat komplekslarining o‘zaro bog‘liqligi, bozor infratuzilmasi elementlarining faoliyati va davlatning qo‘llab-quvvatlash siyosatining ta’siri atroflicha tahlil qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Agrar bozorlar bo‘yicha klassik va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi sohasida nafaqat texnik yoki iqtisodiy omillar, balki institutsional va tashkiliy sharoitlar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxirida A. Marshall o‘z tadqiqotlarida bozor mexanizmlari, narx shakllanishi va raqobat muhitining agrar sektordagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritgan bo‘lsa [3], XX asrning ikkinchi yarmida T. Shults o‘zining Investment in Human Capital asarida inson kapitaliga sarmoya kiritish qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishning asosiy sharti ekanini ta’kidlagan [1].

Shuningdek, Ya. Xayami va V. Ruttan tomonidan yozilgan Agricultural Development asarida innovatsiya, texnologiya va ilmiy tadqiqotlarning o‘rni batafsil tahlil qilingan. Mualliflar fikricha, agrar taraqqiyot faqat yer va mehnat resurslariga emas, balki bilim, innovatsiya va tashkiliy yangilanishga bog‘liq. Bozor infratuzilmasi, ayniqsa logistika, saqlash va qayta ishlash tizimlarining rivojlanganligi mahsulotni bozorga yetkazish jarayonini tezlashtirib, fermerlar daromadini oshiradi hamda miqyosiy samarani ta’minlaydi [2].

Jahon banki hisobotlarida ham agrar bozorlarda infratuzilma va logistika tizimini takomillashtirish mamlakatning eksport salohiyatini oshirishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashi va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishi qayd etilgan [4]. Shundan kelib chiqib, agrar bozorni rivojlantirishda inson kapitali, innovatsiya va bozor institutlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekistonda agrar bozorlar va oziq-ovqat ta’minoti bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilgan. Tadqiqotchilar hududlar o‘rtasida yer resurslari, suv ta’minoti, qayta ishlash quvvatlari va logistika tizimlaridagi ayrim kamchiliklarni qayd etganlar [5; 6; 7]. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda agrar sektorda yer va suvdan samarali foydalanish, hududiy raqobatni oshirish hamda klaster tizimlarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [13].

Shuningdek, davlat miqyosida qabul qilingan strategik dasturlar va islohotlar agrar sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tizimini rag‘batlantirishga qaratilgan [8; 9].

Xalqaro tashkilotlar — FAO, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki tomonidan o‘tkazilgan tahlillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining zamonaviy bozor iqtisodiyotiga integratsiyasi uchun infratuzilma, logistika va institutsional islohotlarni jadallashtirish zarurligi ta’kidlangan [10; 11; 12]. BMT Taraqqiyot dasturi hisobotlarida esa mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va barqaror bozor tizimlarini yaratish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan institutsional choralarning samaradorligi yoritilgan [14].

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida eng dolzarb masalalardan biri — mintaqaviy agrar bozorlarning samarali modellarini respublika sharoitiga moslashtirish va ularni institutsional jihatdan barqaror rivojlantirishdir. Asosiy muammolar sifatida metodologik yondashuvlarning noaniqligi va dastlabki investitsiya manbalarining yetishmasligi qayd etiladi. Agrar bozorlarning shakllanishi tabiiy-iqtisodiy sharoitlar, ishlab chiqarish resurslari va bozor infratuzilmasi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni talab qiladi. Shu bois, har bir hududning agroiqtisodiy salohiyatini inobatga olgan holda, bozor modellarini differensial tarzda shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va majmuali yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u agrar bozorlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tizimli tahlil usulida agrar bozorlarning barcha tarkibiy elementlari — ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika, bozor infratuzilmalari va institutlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ta’sir darajasi o‘rganildi. Bu usul orqali mintaqaviy bozorning funksional tuzilishi, resurslar taqsimoti va iqtisodiy samaradorlik darajalari aniqlandi.

Statistik tahlil usuli orqali 2018–2023 yillardagi ma’lumotlar tahlil qilindi. Ushbu ma’lumotlar bozor rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlashga xizmat qildi.

Ekspert so‘rovnomasida davlat organlari, agrobiznes subyektlari, ta’minot zanjiri va akademik muhit vakillari ishtirok etdilar. Ulardan bozor infratuzilmasi, investitsiya muhiti va klaster siyosatining samaradorligi haqida fikrlar to‘plandi. Ushbu so‘rov natijalari asosida hududiy bozor rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar saralandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda agrar sektor mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Biroq, uning hududiy tuzilishi va resurslar taqsimoti juda nomutanosib. Bu holat, avvalo, tabiiy-iqtisodiy sharoitlar, suv resurslari, tuproq sifati va agrotexnik imkoniyatlar bilan izohlanadi. Masalan, Sirdaryo viloyatida ekin yerlari maydoni cheklangan bo‘lib, suv resurslari ham taqchil. Shu bois bu hududda asosan don, sabzavot va oziq-ovqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Farg‘ona viloyatida esa suv ta’minoti nisbatan yaxshiroq bo‘lib, bog‘dorchilik, uzumchilik va qayta ishlashga mo‘ljallangan mahsulotlar ulushi yuqori.

Qashqadaryo viloyatida suv manbalari ko‘proq tabiiy irrigatsiya tizimlariga bog‘liq. Bu hududda g‘allachilik va chorvachilik asosiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Xorazm viloyatida esa Amudaryo suv tizimi hisobidan suv ta’minoti yaxshilangan bo‘lsa-da, yerlarning sho‘rlanish darajasi yuqori bo‘lib, bu holat mahsuldorlikka ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, ayrim hududlarda yetishtirilgan mahsulot hajmi yuqori bo‘lgani holda, uning bozorga yetkazib berish samaradorligi past bo‘lib qolmoqda.

Mintaqalardagi bu xilma-xillik nafaqat ishlab chiqarish hajmida, balki mahsulot assortimentlarida ham aks etadi. Masalan, Farg‘ona vodiysida meva-sabzavot mahsulotlari ulushi yuqori bo‘lsa, Qashqadaryo va Surxondaryoda paxta va g‘alla asosiy o‘rinni egallaydi. Bu holat milliy bozorda mahsulotlar narxi, ta’minot zanjiri va transport xarajatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Transport xarajatlari va logistika infratuzilmasi esa mintaqaviy agrar bozorlarning raqobatbardoshligida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Masalan, Xorazm yoki Qoraqalpog‘istondan Toshkent yoki Farg‘ona bozorlariga mahsulot yetkazib berishdagi xarajatlar umumiy qiymatning 15–20 foizigacha yetadi. Bu esa mahsulot narxining oshishiga, shu bilan birga iste’mol bozorlarida narx beqarorligining kuchayishiga olib keladi.

Mintaqaviy agrar bozorlar o‘rtasidagi bunday disproportsiyalarning asosiy sabablaridan biri — infratuzilmaning noteng rivojlanishi va bozor institutlarining yetarlicha samarali ishlamasligidir. Masalan, ayrim viloyatlarda saqlash va qayta ishlash quvvatlari yetarlicha mavjud bo‘lsa, boshqalarda ular yetishmaydi. Bu esa mahsulotni qayta ishlamasdan bozorga chiqarishga majbur etadi va iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi. Shu bois, har bir hududning agrar bozorlarini rivojlantirishda uning tabiiy-iqtisodiy va logistik imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Hududlar kesimida ixtisoslashuv siyosati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki umumiy bozor barqarorligini ham ta’minlaydi. Masalan, suv resurslari yetarli bo‘lgan hududlarda yuqori qiymatli eksportbop mahsulotlar — sabzavot, poliz va mevachilikni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Suv tanqis hududlarda esa kam suv talab qiluvchi ekinlar, chorvachilik va qayta ishlash tarmoqlariga e’tibor qaratish zarur.

Natijada, O‘zbekistonning mintaqaviy agrar bozorlarida tabiiy, iqtisodiy va tashkiliy omillar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, infratuzilmaviy tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish va logistika tizimini takomillashtirish mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim strategik vazifa bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston agrar bozorlarining rivojlanishida qayta ishlash va saqlash infratuzilmasining yetarli darajada tashkil etilmagani asosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi paytda mamlakat bo‘yicha qator hududlarda, ayniqsa Qashqadaryo, Sirdaryo, Namangan, Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlari hamda muzlatish yoki sovutish omborlari yetarli emas. Bu holat mahsulotning saqlanish muddatini qisqartiradi, uning sifatini yo‘qotishga va bozor narxlarida mavsumiy tebranishlarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Masalan, sabzavot va mevalarni qayta ishlash quvvatlari cheklangan hududlarda mahsulot mavsum davrida arzon narxda bozorga chiqariladi, ammo qayta ishlanmagan holda tezda yo‘qotishga uchraydi. Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqaruvchi fermerlar va dehqon xo‘jaliklari daromadlarining barqaror emasligiga olib keladi. Bozordagi talab va taklif muvozanati mavsumiy holatga bog‘lanib qoladi, natijada narxlarda katta tebranishlar yuzaga keladi. Ayniqsa, iyul–avgust oylarida meva va sabzavotlar narxi keskin pasaysa, qish faslida ularning narxi bir necha barobar oshadi.

O‘zbekiston agrar sektorida 2018–2023 yillar davomida umumiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmida qo‘shimcha ishlab chiqarish, ya’ni qayta ishlash sohasi faoliyatida barqaror ijobiy dinamika qayd etilgan. Agar 2018 yilda qayta ishlash sohasining ulushi umumiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmida 18 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich 24 foizga yetgan va bu 133,3 foizlik o‘sishni ifodalaydi. Bunday o‘sish tendensiyasi mamlakatda agrosanoat zanjirida qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari kengayganini, qayta ishlash infratuzilmasi va mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlar amalda o‘z natijasini berganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, logistika xarajatlarining ulushi 2018 yildagi 15 foizdan 2023 yilda 13,5 foizgacha kamaygan bo‘lib, bu 90 foizlik natijani anglatadi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatda transport, saqlash va taqsimot tizimlarini modernizatsiya qilish, agrologistika markazlarini tashkil etish va raqamli ta’minot zanjirlarini joriy etish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda qayta ishlash va logistika xarajatlari dinamikasi [18]

Ko‘rsatkichlar	2018-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-y.da 2018-y.ga nisbatan
Umumiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti	100	100	100	100	100	
Qo‘shimcha ishlab chiqarish (qayta ishlash)	18	19	20	22	24	133,3
Logistika xarajatlari	15	14,5	14,2	13,8	13,5	90,0

Saqlash infratuzilmasi yetishmasligi mahsulotning ulgurji bozorlarga yetkazilish jarayonidagi yo‘qotishlarni ham kuchaytiradi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, ayrim hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 10-15 foizi bozorga yetkazilguncha yo‘qotiladi. Bu, ayniqsa, tez buziladigan mahsulotlar – pomidor, bodring, uzum, olma, kartoshka va sut mahsulotlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Agar bu mahsulotlar sifatli sovutgich tizimlari va muzlatish omborlarida saqlansa, ularning bozordagi uzoq muddatli qiymati oshgan bo‘lar edi.

Logistika tizimining samaradorligi ham agrar bozorlarda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda transport va logistika xarajatlari umumiy mahsulot qiymatining o‘rtacha 12-18 foizini tashkil etmoqda [15]. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi o‘rtacha darajadan ikki baravar yuqori [16]. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 6-9 foizni tashkil etadi. Demak, mamlakatimizdagi logistika xarajatlarining yuqoriligi mahsulotning eksportbop narxini pasaytiradi va fermerlar rentabelligini kamaytiradi [17].

Bu holatning yana bir sababi – transport vositalari va logistika korxonalarida zamonaviy sovutgich tizimlari va energiya tejamkor uskunalarning yetishmasligi. Ba’zi hududlarda mahsulotni tashishda maxsus izotermal yoki sovutgich mashinalardan foydalanish darajasi 25-30 foizdan oshmaydi. Bu esa ayniqsa, uzoq hududlardan, Qoraqalpog‘iston va Xorazmdan Toshkent va Samarqand bozorlariga mahsulot yetkazib berishda sifat yo‘qotishlariga sabab bo‘ladi. SHu bilan birga, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmagani mahsulot zanjiridagi qiymat qo‘shish bosqichini ham cheklab qo‘ymoqda. Masalan, Xorazm yoki Surxondaryoda ishlab chiqarilgan sabzavot mahsulotlari qayta ishlanmagan holda ichki bozorda arzon sotiladi, lekin agar ularni qiymat qo‘shilgan mahsulotlarga aylantirish imkoni bo‘lsa (quritish, konservlash, sharbat ishlab chiqarish orqali), bu mahsulotning iqtisodiy samaradorligi bir necha baravarga oshishi mumkin edi.

Shu bois, O‘zbekistonda agrar bozorlarni rivojlantirish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – qayta ishlash va saqlash infratuzilmasini hududiy tarzda muvozanatli rivojlantirish bo‘lishi lozim. Bu maqsadda davlat-xususiy sheriklik asosida muzlatgichlar, omborlar va qayta ishlash zavodlarini tashkil etish, logistika markazlari tarmog‘ini yaratish, yangi texnologiyalar asosida mahsulotni sifatini saqlash tizimini rivojlantirish zarur. Natijada, mahsulot yo‘qotishlari qisqaradi, mavsumiy narx farqlari kamayadi, fermerlar va qayta ishlovchi korxonalarning daromadi barqarorlashadi. Eng muhimi, mamlakatning eksport salohiyati va agrar bozorlar raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

Yuqoridagi mulohazalarni ilmiy asoslash uchun tadqiqot doirasida ekspert so‘rovnomasi o‘tkazildi. O‘tkazilgan ekspert so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston agrar bozorlarini rivojlantirish bo‘yicha fikrlar aniq tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida sohaviy ekspertlar – qishloq xo‘jaligi vazirligi va uning hududiy boshqarmalari mutaxassislari, agrobiznes va qayta ishlash korxonalari rahbarlari, iqtisodiy-tahliliy markaz va ilmiy muassasalar vakillari ishtirok etdi. Ulardan olingan javoblar agrar bozorlarning institutsional va infratuzilmaviy yechimlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘rov natijalariga ko‘ra, 84 foiz ekspertlar mintaqaviy agrar bozorlarda logistika va qayta ishlash infratuzilmasini kuchaytirishni asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgiladi. Bu fikrning asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tezkor va samarali yetkazib berish tizimi hanuzgacha yetarli darajada shakllanmagani, ayrim hududlarda sovutish va saqlash quvvatlarining yetishmasligi yotadi. Bunday holat mahsulot yo‘qotishlarini oshiradi, mavsumiy narx tebranishlariga sabab bo‘ladi va natijada, fermer xo‘jaliklari foydasini pasaytiradi. SHu bois, zamonaviy logistika markazlari, agro-terminallar va raqamli taqsimot tizimlarini joriy etish orqali bozor samaradorligini keskin oshirish mumkin. 72 foiz ishtirokchi ekspertlar esa davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini yanada takomillashtirish va xususiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini rivojlantirish zarur, deb hisoblagan. Bu fikrlar shundan dalolat beradiki, agrar bozorlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish faqat davlat mablag‘lari hisobidan amalga oshirilmasligi kerak. Davlat-xususiy sheriklik asosida logistika va qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirish, agrosanoat klasterlarida investitsiya muhitini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida kredit va subsidiya mexanizmlarini kengaytirish bo‘yicha amaliy choralar talab qilinadi. SHuningdek, 64 foiz ekspertlar markazlashgan hududiy bozorlar siyosatini, ya’ni agro-klasterlar faoliyatini kengaytirishni taklif etdi. Ularning fikricha, hududiy klasterlar nafaqat ishlab chiqarish va qayta ishlash zanjirini birlashtiradi, balki bozordagi raqobatbardoshlikni ham ta’minlaydi. Bunday klaster modellari mahsulot sifatini nazorat qilish, eksportiga tayyorlash va resurslarni samarali taqsimlash imkonini yaratadi. SHuning uchun ham klasterlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekspertlar fikrlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda agrar bozorlarni rivojlantirish siyosatida uch asosiy ustuvor yo‘nalishni belgilash maqsadga muvofiq: logistika va qayta ishlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish; davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya muhitini kuchaytirish; klaster va hududiy bozor integratsiyasini chuqurlashtirish.

Mazkur yo‘nalishlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, agrar bozordagi barqarorlik va samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, logistika tizimi samaradorligi va qayta ishlash quvvatlarining yetarliligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytiradi, eksport salohiyatini oshiradi va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartiradi. SHu bilan birga, investitsion va klaster siyosati to‘g‘ri yo‘naltirilganda, mamlakatning umumiy oziq-ovqat xavfsizligi va agrar salohiyati yanada mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor modellarini respublika miqyosida moslashtirish uchun institutsional muhitni isloh qilish, xususan, yer munosabatlari, suv ta’minoti va kredit-moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda mahalliy bozorlar ko‘pincha resurslar taqsimoti va logistika zanjirlarida uzilishlarga duch kelmoqda, bu esa mahsulot narxining oshishi va raqobatbardoshlikning pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, xalqaro bozorlarga chiqishda hududiy klasterlar va qayta ishlash quvvatlarini optimallashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Chunki, jahon bozorida agrar mahsulotlar eksporti nafaqat xomashyo yetkazib berishga, balki qo‘shimcha qiymat yaratuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga bog‘liq. SHu nuqtai nazardan, hududiy klasterlar fermer xo‘jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar va logistika markazlarining birlashuvi agrar bozorlarning barqaror o‘sishini ta’minlaydigan asosiy mexanizm hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, bozor infratuzilmasi va klaster tizimlariga yo‘naltirilgan ilk investitsiyalar keyinchalik katta iqtisodiy samara beradi. O‘zbekiston sharoitida esa bu yo‘nalishda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni kengaytirish, logistika va qayta ishlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mahalliy bozor institutlarini kuchaytirish zarur. Shu tarzdagina mintaqaviy agrar bozorlar milliy oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatining asosiy drayveriga aylanishi mumkin.

Mintaqaviy agrar bozorlarda barqaror o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun amaliy va siyosat darajasida bir qator tizimli takliflarni amalga oshirish zarur. Avvalo, agro-klasterlarni rivojlantirish orqali eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlar uchun maxsus zonalar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunday zonalarda qayta ishlash, saqlash va logistika infratuzilmalari joylashtirilib, klasterlarga imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Bu chora-tadbirlar hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qo‘shimcha qiymat zanjiri orqali eksportga tayyor holda yetkazish imkonini yaratadi.

SHu bilan birga, infratuzilmani modernizatsiya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mavjud saqlash va sovutish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy ko‘chma qayta ishlash uskunalarini joriy etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozorlar bilan bog‘laydigan logistika yo‘laklarini rivojlantirish orqali mahsulotning yo‘qotilishini kamaytirish va bozorga tez yetib borishini ta’minlash mumkin. Bu sohada davlat va xususiy sektorning hamkorligi muhim bo‘lib, ularning hududiy loyihalarni birgalikda moliyalashtirish amaliyoti qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qiymat zanjirida yuqori bosqichga olib chiqish uchun qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi ishlab chiqilishi shart. Bu yo‘nalishda kichik va o‘rta biznes subyektlarini zamonaviy qayta ishlash qurilmalari bilan ta’minlash, texnologik o‘qitish va sertifikatlash dasturlarini amalga oshirish muhim. Natijada, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirib, eksport salohiyatini oshiradi.

Shuningdek, bozor ishtirokchilari uchun axborot tizimini yaratish juda katta ahamiyatga ega. Bu tizim orqali real vaqt rejimida narxlar, taklif va talab, logistika imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlar yig‘ilib, ishlab chiqaruvchi va fermerlar tezkor qaror qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bunday axborot platformasi davlat agentliklari, xususiy sektor va tadqiqot markazlari hamkorligida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Bozor infratuzilmasini rivojlantirishda xususiy investorlarni rag‘batlantirish masalasi ham muhim. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarga ustuvor ahamiyat berilib, qayta ishlash va logistika sohalaridagi sarmoyalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar joriy etilishi lozim. Bu, o‘z navbatida, hududlarda ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tenglikni ta’minlash maqsadida resurs taqsimotini muvofiqlashtirish zarur. Suv, yer va kredit resurslarini hududiy rejalarga muvofiq qayta taqsimlash orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Bu jarayonda ilmiy asoslangan prognoz modellari va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, har bir mintaqada ekspert-amaliy markazlar tashkil etish taklifi dolzarbdir. Ushbu markazlar agrar bozorlar sohasida tahlil, ta’lim va konsalting xizmatlarini ko‘rsatishi, fermerlar va klasterlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishi lozim. Bunday markazlar orqali hududiy bozorlar samaradorligini oshirish, axborot almashinuvini kuchaytirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoni yaratiladi.

Umuman olganda, yuqoridagi chora-tadbirlar mintaqaviy agrar bozorlarni tizimli rivojlantirishga, oziq-ovqat zanjiridagi barcha ishtirokchilar faoliyatini uyg‘unlashtirishga va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Schultz T. W. Investment in Human Capital// The American Economic Review. – 1961, № 51 (1), – pp. 1-17.
2. Hayami Y., Ruttan V. W. Agricultural Development: An International Perspective. – Revised and Expanded Edition. – Baltimore, MD: Johns Hopkins University Press, 1985. – 506 p.
3. Marshall A. Principles of Economics. – 8th Edition. – London: Macmillan, 1920. – 871 p.

4. World Bank. Enabling the Business of Agriculture 2017. – Washington, D.C.: The World Bank Group, 2017. – 232 p.
5. Исломов Б. (2020). Ўзбекистонда аграр бозорларнинг шаклланиши ва ривожланиш тенденциялари. Тошкент: “Иқтисодиyот” нашриёти.
6. Турсунов Ш. (2021). Қишлоқ хўжалигида бозор муносабатларини чуқурлаштириш йўналишлари. Тошкент давлат аграр университети илмий ахбороти, № 3, 45-52-бетлар.
7. Қурбонов А. (2022). Ҳудудий аграр бозорлар инфратузилмаси ва логистика тизимини такомиллаштириш масалалари. “Аграр фан ва амалиёт” журнали, № 2, 33-41-бетлар.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сон «Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони. http://lex.uz/docs/4567334
9. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги. Қишлоқ хўжалигида ислоҳотлар ва бозор механизмларини ривожлантириш бўйича йиллик ҳисобот. Тошкент. 2023 й.
10. FAO (Food and Agriculture Organization). (2021). Agri-Food Market Systems in Central Asia: Structural Transformation and Policy Directions. Rome: FAO Publishing.
11. World Bank. (2022). Agricultural Transformation and Market Development in Uzbekistan. Washington D.C.: World Bank Group.
12. Asian Development Bank (ADB). (2021). Modernizing Uzbekistan’s Agri-Food Sector: Infrastructure, Logistics, and Competitiveness. Manila: ADB Publishing.
13. Karimov B., & Mamatqulov, S. (2023). Land and Water Use Efficiency in Uzbekistan’s Agricultural Regions. Central Asian Economic Review, Vol. 5(2), pp. 67–78.
14. United Nations Development Programme (UNDP). (2020). Uzbekistan: Strengthening Food Security and Sustainable Agricultural Markets. Tashkent: UNDP Uzbekistan Office.
15. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги. Аграр тармоқда логистика харажатларини камайтириш бўйича таҳлилий маълумотлар тўплами. Тошкент, 2023.
16. World Bank. Logistics Performance Index 2023: Connecting to Compete. Washington, D.C.: World Bank Group, 2023.
17. European Commission. Transport and Logistics Costs in the EU Agri-Food Sector. Brussels: EC Directorate-General for Agriculture and Rural Development, 2021.
18. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari.

QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA JUFT KORRELYATSIYA TAHLILLARNI AHAMIYATI

Kusharov Zoxid Keldiyorovich
TDIU, Ekonometrika kafedrasi dotsenti
Email: kusharovz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respulikasi bo‘yicha 15 yillik qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish ma’lumotlar asosida juft korrelyatsiya tahlillar nazariy va amaliy tahlil qilingan hamda olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, korrelyatsiya, korrelyatsiya koeffitsenti, juft korrelyatsion tahlil, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, optimallashtirish, samaradorlik, qarorlar qabul qilish, ekonometrika, model, menejment samaradorligi, standart og‘ish, tarqoqlik darajasi, kovariatsiya.

Abstract: This article presents a theoretical and practical analysis of pair correlation based on 15 years of agricultural production data in the Republic of Uzbekistan. Scientific conclusions have been drawn based on the obtained results.

Key words: national economy, correlation, correlation coefficient, pair correlation analysis, agriculture, livestock, optimization, efficiency, decision-making, econometrics, model, management efficiency, standard deviation, dispersion level, covariance.

Аннотация: В данной статье на основе 15-летних данных о производстве сельскохозяйственной продукции в Республике Узбекистан проведён теоретический и практический анализ парной корреляции, а также на основе полученных результатов сделаны научные выводы.

Ключевые слова: национальная экономика, корреляция, коэффициент корреляции, парный корреляционный анализ, сельское хозяйство, животноводство, оптимизация, эффективность, принятие решений, эконометрика, модель, эффективность менеджмента, стандартное отклонение, степень рассеяния, ковариация.

KIRISH

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri qishloq xo‘jaligi hisoblanib, bu tramoqda aholini oziq-ovqat xavfsizligini oldini olish va qayta ishlash sanoatini xom ashyo bilan doimiy ravishda ta’minlashda dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi axborot texnologiyalari asrida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlaridagi obyektiv va subyektiv omillarni ilmiy metodologiyalar asosida tahlil qilish alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, ishlab chiqarish natijalari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsiyalarni aniqlash ekonometrik tahlilning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ilmiy o‘rganishda qo‘proq ekonometrik usullari orasida asosiylaridan biri korrelyatsiya tahlil hisoblanib, bu tahlil usuli dan juda keng qo‘llaniladi. Jumladan, Juft korrelyatsion tahlil qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega, chunki u ikkita o‘zgaruvchi o‘rtasidagi, masalan, hosildorlik va o‘g‘itlar, chorvachilik mahsulot (go‘sht, sut, tuxum)lari miqdorlari o‘rtasidagi munosabatlarning kuchini aniqlash va o‘lchash imkonini beradi, jarayonlarni optimallashtirishga, natijalarni bashorat qilishga va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish uchun puxta qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Belorus olimi I.Ye.Rugalyova “Ekonometrika” nomli o‘quv qo‘llanmasida juft va ko‘p omilli korrelyatsiya, korrelyatsiya koyeffitsiyenti, juft va ko‘p omilli regressiya, parametrlarning statistik xususiyatlari, regressiya tenglamasi, regressiya sifati ko‘rsatkichlari, regressiya funksiyasini intervalli baholash kabi masalalar yoritilgan[2].

Rossiyalik olimlar A. O.Ragimov, M. A.Mazirov hammualliflikarida yozilgan “Statisticheskiy analiz dannix v selskom xozyaystv” nomli o‘quv qo‘llanmasida aynan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha

10-bobi “Korrelyatsiya va regressiya tahlill” deb nomlangan bo‘lib (110-123 betlar), unda qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini yordamida tavsiflovchi statistikani hisoblash, Microsoft Exceldagi jadvallar, ko‘p omillik chiziqli regressiyani yaratish, Microsoft Excel yordamida model qurish, regressiya tahlili natijalarini talqin qilish kabi masalalar batafsil keltirilgan[3].

O‘zbekistonlik olimlar A.U.Abduraximov va Z.K.Kusharov[6]lar tomonidan ilmiy izlanishlari natijasi sifatida “Qishloq xo‘jaligida go‘sht ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish istiqbollari” nomli Monografiyasida asosan chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va uni samaradorligini oshirishni prognozlash nuqtayi nazaridan nazariy asoslab bergan bo‘lsa, [5] adabiyotda esa agroservisni rivojlantirish asosida chorvachilikda menejment samaradorligini oshirish mexanizmlari masalalari ko‘rib chiqilgan.

Rossiyalik ilmiy izlanuvchilar S.V.Badalyans, YE.G.Maliginalarning “Analiz faktorov, vliyayushix na effektivnost proizvodstva moloka” nomli ilmiy maqolasida chorvachilikdagi boshqa alohida omillarning sut ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Asosan, omil xususiyatlarining samaradorlikga ta’sir darajasini aniqlash uchun korrelyatsiya va regressiya tahlili olib borilgan. Maqolada sut ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari masalasiga kompleks yondashuvlarni taklif etgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv hamda tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. O‘zbekiston bo‘yicha go‘sht,sut, tuxum va bug‘doy ishlab chiqarish haqidagi ma’lumotlarni bo‘yicha juft korreliyatsion tahlillari yillar kesimida (vaqt qatorlari) amaliy jihatdan o‘rganildi.

Olingan ma’lumotlar qiyosiy va Ekonometrik tahlil usullari, shuningdek, statistik ko‘rsatkichlar dinamikasini baholash orqali tahlil qilindi

TAHLIL VA NATIJALAR

Agar qaralayotgan masalada korrelyatsiya koeffitsiyenti musbat bo‘lsa, bu holda omillar o‘sishi ishlab chiqarish hajmining ham ortishiga xizmat qiladi, agarda manfiy bo‘lsa aksincha yuqoridagi fikrni teskarisi yuz beradi. Juft korrelyatsiya tahlili natijasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda qaysi omillar asosiy rol o‘ynayotgani va qaysi omillar ta’siri nisbatan past ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu sababli, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida juft korrelyatsiya tahlillaridan foydalanish izlanuvchilarga kelajakni prognoz qilish, resurslar taqsimotini muqobillashtirish hamda maksimal natijadorlikka erishishga zamin yaratadi.

Biz tahlil ma’lumotlari sifatida 2010-2024 yillarda go‘sht, sut, tuxum va bug‘doy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini oldik va uni 1-chizmada umumiy holda tasvirladik.



1-chizma. 2010-2024 yillarda go‘sht, sut, tuxum va bug‘doy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari[1]

Bu chizmada yil qatori, ya’ni absissa o‘qi vaqt ko‘rsatgich sifatida, qolganlari o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

1 https://stat.uz/uz-ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Juft korrelyatsiya hisoblash. Bunda juft korrelyatsiya koeffitsiyenti kuyidagi formula orqali hisoblanishi bizga ma’lum:

$$r_{xy} = \frac{\overline{y \cdot x} - \bar{y} \cdot \bar{x}}{\sigma_x \cdot \sigma_y} \quad (1)$$

(1) formulani yuqori qismida, ya’ni kasr sur’atidagi ifoda $\overline{y \cdot x} - \bar{y} \cdot \bar{x}$ - bu statistikada kovariatsiya formulasidagi asosiy qismi hisoblanadi.

Cov(X,Y)= $\overline{y \cdot x} - \bar{y} \cdot \bar{x}$ (2)

Maxraji esa, o‘rtacha kvadratik farqlar yoki standart og‘ish deb yuritiladi va ularni quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\sigma_x = \sqrt{\overline{x^2} - \bar{x}^2} \text{ va } \sigma_y = \sqrt{\overline{y^2} - \bar{y}^2} \quad (3)$$

Standart og‘ish (σ) o‘zgaruvchilarning tarqoqlik darajasini xarakterlaydi, ya’ni ma’lumotlarning o‘rtacha arifmetik qiymatdan qay darajada og‘ishini, farqini bildiradi. Korrelyatsiion tahlilda standart og‘ish har bir o‘zgaruvchining ma’lumotlari qanchalik tarqoq yoki barqaror, ya’ni “tarqoqlik darajasi” qanaqa ekanini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi

Shuni ta’kidlash kerakki, juft korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblashda $r_{xy} = r_{yx}$ tenglik o‘rinli ekanligini hisobga olish muhimdir.

Masalan, bug‘doy bilan go‘sht, bug‘doy bilan sut, go‘sht bilan tuxum va h.k. — har bir juftlik bo‘yicha alohida koeffitsiyent chiqadi.

1. Juft korrelyatsiya hisoblashlarini olib borish uchun dastavval, “bug‘doy va go‘sht” mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tahlil qilishdan boshlaylik.

Bizni misolimizda (1) ni hisoblash uchun quyidagicha jadval tuzib olamiz. Bunda yashil rangdagi ustundagi keltirilgan ma’lumotlar statistik ma’lumotlar hisoblanadi.

Quyidagi 1-jadval asosida:

1.1. “Bug‘doy va go‘sht” juft omillarni kovariatsiyasini hisoblaymiz:

Cov(X,Y)= $\overline{y \cdot x} - \bar{y} \cdot \bar{x}$ = $14299234{,}17 - 2229{,}7 \cdot 6451{,}9 = -86742{,}5$

Kovariatsiyani xossasiga asosan agar Cov(X,Y) $= -86742{,}5 < 0$ bo‘lsa, u holdi omillardan biri o‘sganda ikkinchisi kamayishga moyil, ya’ni manfiy bog‘lanishga ega bo‘ladi.

1-jadval. “Bug‘doy va go‘sht” mahsulotlari juftligi uchun korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblashni

Yillar	Bug‘doy_tonna (X)	Go‘sht_tonna (Y)	X²	Y²	Y*X
2010	6745	1461,4	45495025	2135689,96	9857143
2011	6527	1564,2	42601729	2446721,64	10209533,4
2012	6612,2	1672,9	43721189	2798594,41	11061549,38
2013	6842	1787,8	46812964	3196228,84	12232127,6
2014	6956,2	1906,3	48388718	3633979,69	13260604,06
2015	6964,7	2033,4	48507046	4134715,56	14162020,98
2016	6934,9	2172,5	48092838	4719756,25	15066070,25
2017	6079,2	2286,8	36956673	5229454,24	13901914,56
2018	5410,8	2430,5	29276757	5907330,25	13150949,4
2019	6093,5	2473,6	37130742	6118696,96	15072881,6
2020	6157,8	2519,6	37918501	6348384,16	15515192,88
2021	5984,8	2635,1	35817831	6943752,01	15770546,48
2022	6270,1	2725,9	39314154	7430530,81	17091665,59
2023	6471,5	2833,2	41880312	8027022,24	18335053,8
2024	6729,4	2942,5	45284824	8658306,25	19801259,5
jami	96779,1	33445,7	627199303	77729163	214488512,5
o‘rtacha	6451,9	2229,7	41813287	5181944,2	14299234,17

Kengroq xulosa qiladigan bo‘lsak, bu kovariatsiyaning manfiy qiymatni qabul qilishi shuni bildiradiki, agrar sektorda bug‘doy ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan go‘sht ishlab chiqarish hajmi kamayishi kuzatilmoqda. Demak, ushbu ikki turdagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari o‘rtasida teskari yo‘nalishdagi statistik bog‘liqlik mavjudligini bildiradi.

1.2. Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblash uchun 1-jadval ma’lumotlaridan foydalanib standart og‘ishlarni hisoblab chiqamiz:

1). X-o‘zgaruvchi, ya’ni “bug‘doy” bo‘yicha o‘rtacha kvadratik farqni hisoblaymiz:

$$\sigma_x = \sqrt{\overline{x^2} - \bar{x}^2} = \sqrt{41813287 - 6451{,}9^2} = 430{,}9955109$$

Bug‘doy ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha standart og‘ish σ_x = 430,99 tonnani tashkil etdi. Buni ma’nosi shundan iboratki, kuzatilgan ma’lumotlar o‘rtacha qiymatdan taxminan o‘rta hisobda 431 tonna atrofida farq qiladi. Demak, bug‘doy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarida ma’lum darajada turg‘unlik mavjud bo‘lib, katta tebranishlar ro‘y bermaydi.

2). U-o‘zgaruvchi, ya’ni “go‘sht” bo‘yicha o‘rtacha kvadratik farqni hisoblaymiz:

$$\sigma_y = \sqrt{\overline{y^2} - \bar{y}^2} = \sqrt{5181944{,}2 - 2229{,}7^2} = 458{,}6094953$$

Go‘sht ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha standart og‘ish σ_y = 458,61 tonnani tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich ma’lumotlarning o‘rtacha qiymatdan taxminan 459 tonna atrofida farqlanishini anglatadi.

Demak, go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari don ishlab chiqarishga nisbatan biroz ko‘proq tarqoqlikka ega bo‘lib, unda tebranishlar darajasi yuqoriroq bo‘ladi.

Endi (1) formulani bevosita hisoblashimiz mumkin:

$$r_{xy} = \frac{\overline{y \cdot x} - \bar{y} \cdot \bar{x}}{\sigma_x \cdot \sigma_y} = \frac{-86742{,}5}{430{,}9955109 \cdot 458{,}6094953} = -0{,}43884993 \approx -0{,}44$$

Demak, $r_{xy} = -0{,}44$ ekan. Xulosa shundan iboratki, korrelyatsiya manfiy ekan, Bug‘doy yetishtirish oshib borganda go‘sht ishlab chiqarishda o‘sish muttasil bo‘lmaganligi, ya’ni bular o‘rtasidagi o‘sish tendensiyalari o‘zaro to‘g‘ri proporsional emasligi kelib chiqdi. $r_{xy} = -0{,}44$ ekanligidan bu juft ko‘rsatkichlar o‘rtasida o‘rtacha darajada manfiy bog‘lanish mavjud degan xulosaga kelish mumkin ekan.

Yuqoridagi 1-jadval asosida huddi shu tartibda qolgan juftliklar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshiramiz. Biz to‘liq hisob-kitoblarni keltirmasdan, faqat oxirgi natija va uning xulosasini keltirish bilan cheklanamiz:

2. “Bug‘doy va tuxum” ishlab chiqarish o‘rtasidagi tahlillarni olib boramiz. Bunda Cov(X,Y)=−393208,4 ekanligi va juft korrelyatsiya koeffitsiyenti esa: $r_{xy} = -0{,}48$ ekanligi aniqlandi.

Demak, Bug‘doy yetishtirish (tonna) bilan tuxum ishlab chiqarish (mln. dona) o‘rtasida o‘rtacha kuchli manfiy bog‘lanish mavjud bo‘lib, bug‘doy yetishitirish ortgan yillarda tuxum ishlab chiqarish ko‘proq pasayishga moyil, va uning teskarisi yuz beradi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

3. Endi “Bug‘doy va sut” ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘lanishlarni hisoblaymiz. Bunda Cov(X,Y)= −351635.96 va Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti esa $r_{xy} = -0{,}43$ ekan. Xulosa shuki, bug‘doy hosili (tonna) bilan sut ishlab chiqarish (tonna) o‘rtasida o‘rtacha kuchli manfiy korrelyatsiya mavjud bo‘lib, bug‘doy yetishtirish ko‘paygan yillarda sut ishlab chiqarish ko‘proq pasayishga moyil bo‘lgan, va aksincha.

4. Navbatdagi hisoblashlarni “Go‘sht va tuxum” juftliklari o‘rtasida olib boramiz. Hisoblash natijalariga ko‘ra: Cov(X,Y)≈857568.2 ni va juft korrelyatsiya koeffitsiyenti $r_{xy} = 0{,}99$ ekan.

Demak, go‘sht ishlab chiqarish va tuxum ishlab chiqarish o‘rtasida juda kuchli musbat bog‘lanish mavjud ekanligi, go‘sht ishlab chiqarish hajmi oshib borishi barobarida tuxum ishlab chiqarish ham deyarli proporsional ravishda oshib boradi deyish mumkin.

6. “Go‘sht va sut” juft omillar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblaymiz. Bundan Cov(X,Y)≈870006.7 va juft korrelyatsiya koeffitsiyenti: $r_{xy} = 0{,}997$ ga teng bo‘lib, bu omillar o‘rtasida juda kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud ekan degan xulosaga kelinadi.

7. Oxirgi hisoblashlarimiz “Sut va tuxum” ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘lanishlarga bag‘ishlanadi. Bunda Cov(X,Y)≈3 562 791.4 va juft korrelyatsiya koeffitsiyenti: $r_{xy} = 0{,}994$ ekan. YA’ni sut ishlab chiqarish (tonna) va tuxum ishlab chiqarish (mln. dona) o‘rtasida juda kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Demak, Yuqoridagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash natijalarini umumlashtirib quyidagi korrelyatsiya matritsasini tuzishimiz mumkin.

Umumiy holda bu tuzilgan 2-jadval asosida quyidagi iqtisodiy va ekonometrik xulosalar chiqarish mumkin:

- 2- jadvalni 1-qatoridagi barcha bog‘lanishlar manfiy bo‘lib, bu degani bug‘doy hosili oshib borganda chorvachilik mahsulotlari, jumladan go‘sht, sut va tuxum yetishitirish pasayib boradi va uning aksi yuz beradi.

2-jadval. Juft korrelyatsiyalardan matritsasi

	Bug‘doy	Go‘sht	Sut	Tuxum
Bug‘doy	1,00	−0,44	−0,43	−0,48
Go‘sht		1,00	0,997	0,99
Sut			1,00	0,994
Tuxum				1,00

Bunday xulosani katta ehtimollik bilan asosiy ishlab chiqarish omili bo‘lgan yer ham resurslar taqsimoti bilan izohlash mumkin. YA’ni, yerdan ko‘proq bug‘doy uchun foydalanilsa, chorvachilik uchun yem-xashak yetishtirishga kamroq imkoniyat qoladi. Undan tashqari, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi yerlarini yil sayin tuproq unumdorligini pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ham qayd etish mumkin.

- 2-jadvalni 2-qatoridan shunday xulosaga kelish mumkinki, go‘sht ishlab chiqarish bilan sut va tuxum ishlab chiqarish Juda kuchli ijobiy korrelyatsiya (0.99–0.997) mavjud bo‘lib, bu shuni ko‘rsatadiki, agar umumiy holdi chorvachilik sohasida rivojlanish bo‘lsa, bundan kelib chiqadiki bir vaqtning o‘zida bu uchala mahsulot ishlab chiqarish ijobiy bo‘ladi, ya’ni, go‘sht, sut va tuxum mahsulotlarini ishlab chiqarishning ko‘payishi bir-biriga bog‘liq jarayonlar ekanligini bildiradi.

- iqtisodiy xulosa shundan iboratki, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari ikki yo‘nalishda: Dehqonchilik (bug‘doy) va Chorvachilik (go‘sht, sut, tuxum) tahlil qilingan bo‘lib, Ular orasidagi manfiy korrelyatsiya shuni anglatadiki, qaysi yo‘nalishni davlat qo‘llab-quvvatlansa va investitsiyalarni ko‘proq yo‘naltirsa, ikkinchi yo‘nalish nisbatan orqada qolishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, qaysidir ma’noda bu ikki tarmoq o‘zaro raqabotchi tarmoqlar sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi.

Davlat siyosatlari (subsidiyalar, yer taqsimoti, yem-xashak ishlab chiqarish) qaysi sohani ustuvor qilishiga qarab umumiy dinamika o‘zgarib boraveradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekonometrik iqtisodiy xulosa shundan iboratki, agar regressiya modeli qurilsa, go‘sht, sut va tuxum bir-biri bilan juda kuchli bog‘liqligi sababli multkollinearlik muammosi paydo bo‘ladi. Shuni uchun go‘sht, sut va tuxum ishlab chiqarish juda yaqin bo‘lganligi uchun, ularning o‘sishi bir-birini quvvatlaydi. Lekin ekonometrik tahlilda ayrim omillarni alohida baholashni qiyinlashtiradi.

Masalan, go‘sht ishlab chiqarish o‘sishi natijasida sut ishlab chiqarish o‘sishini regressiya orqali aniqlash qiyin, chunki ular deyarli bir xil omillar ta’sirida harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kusharov Z.K., Turgunov T.T.(2024). Ekonometrikaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). «Innovatsion rivojlanish nashriyot-manbaa uyi», - T.: - 286 b
2. Ругалёва И.Е(2023). Эконометрика: пособие для студентов специальности. «Маркетинг». – Минск : БНТУ,. – 103 с.
3. Рагимов А. О., Мазиров М. А.(2022). Статистический анализ данных в сельском хозяйстве, учебно-практическое пособие. стр: 455.
4. Кушаров З.К.(2023), Маржинал таҳлил асосида чорвачилик маҳсулотларини кўпайтиришнинг истиқбол кўрсаткичларини ҳисоблаш услубиёти, “Alfraganus University” халқаро илмий журнали, 2 (2)-сон, 7-14 бетлар
5. Кушаров З.К.(2021), Агросервисни ривожлантириш асосида чорвачиликда менежмент самарадорлигини ошириш механизмлари (монография), ТДАУ Тахририёт нашриёт бўлимининг РИЗОГРАФ аппаратида чоп этилди. Т.: 6,25 б.т.
6. Абдурахимов А.У., Кушаров З.К.(2012), Қишлоқ хўжалигида гўшт ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлиги ва уни ошириш истиқболлари (монография), “Ren-Poligraf” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.7,2 б.т.
7. Бадальянц С.В., Малыгина Е.Г.(2016), Анализ факторов, влияющих на эффективность производства молока. «Экономика и социум». №12(31). Стр 260-266.

O‘zbekistonda yashil marketing strategiyalari orqali iste’molchilarning barqaror iste’mol madaniyatini shakllantirish borasida o‘tkazilgan so‘rovnomada 890 nafar foydalanuvchilar ishtirok etib, unda iste’molchilarning ekologik mas’uliyati, yashil mahsulotlarga munosabati, xarid qilishdagi afzalliklari va qarashlari o‘rganildi. Tahlilning maqsadi iste’molchilarning xulq-atvorini chuqur ochib berish va yashil marketing strategiyalarini samarali tarzda shakllantirish uchun ilmiy asos yaratishdan iborat.

Ma’lumotlar yig‘ish jarayonida respondentlardan quyidagi asosiy savollar bo‘yicha ma’lumotlar olindi:

Yashil mahsulotlarga bo‘lgan qiziqish va ularni xarid qilish ehtimoli.

Ekologik mas’uliyatni ta’minlashda kompaniyalar va iste’molchilarning roli.

Barqaror iste’mol madaniyatini shakllantirishda marketing kommunikatsiya-larining ta’siri.

Yashil brendlarning ustuvorliklari va to‘siqlari.

O‘zbekistonda yashil mahsulotlarga iste’molchilarning qiziqishi kompaniyalar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, iste’molchilarning qiziqishi faqat shaxsiy afzalliklar bilan bog‘liq emas, balki ekologik mas’uliyat va barqaror iste’mol madaniyati bilan ham uzviy bog‘liq. Quyidagi 1-jadvalda iste’molchilarning yashil mahsulotlardan foydalanish darajasi va ularning xarid qilish odatlari tahlil qilindi.

1-jadval. Iste’molchilarning yashil mahsulotlardan foydalanish darajasi va ul arning xarid qilish odatlari tahlili

Javoblar	Javoblar sonda	Javoblar foizda
Juda qiziqaman, doim xarid qilaman	180	20.2
Qiziqaman, lekin faqat ba’zi mahsulotlarda	360	40.4
Moddiy jihatdan qiyin, lekin qiziqaman	200	22.5
Qiziqmayman, an’anaviy mahsulotlardan foydalanamiz	150	16.9

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, 60 foizdan ortiq respondentlar yashil mahsulotlarga qiziqadi. Bu kompaniyalar uchun yashil marketing strategiyalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, moddiy imkoniyatlar va ma’lumot yetishmasligi iste’molchilarning barqaror odatlarni shakllantirishini to‘siqlaydi. Demak, marketing strategiyalarida mahsulot narxi va ekologik ma’lumotlarni targ‘ibot qilish muhim ahamiyatga ega.

Yashil marketingning asosiy maqsadlaridan biri iste’molchilarda ekologik mas’uliyat va barqaror iste’mol madaniyatini shakllantirishdir. O‘zbekiston sharoitida iste’molchilarning ushbu qoidalarga qanday yondashishi va amaliy xulq-atvori muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Quyidagi 2-jadval orqali respondentning barqaror iste’molga moyilligi, atrof-muhitni himoya qilishdagi faolligi va ekologiyaga oid bilimlari tahlil qilindi.

2-jadval. Respondentning barqaror iste’molga moyilligi, atrof-muhitni himoya qilishdagi faolligi va ekologiyaga oid bilimlari tahlili

Javoblar	Javoblar sonda	Javoblar foizda
Barqaror iste’mol qoidalariga qat’iy rioya qilaman	220	24.7
Ko‘pincha rioya qilaman, lekin ba’zi hollarda an’anaviy mahsulotlarni sotib olaman	400	44.9
Tanaffusli rioya qilaman, asosan narxi va qulaylikka qarab xarid qilaman	180	20.4
Barqaror iste’molga ahamiyat bermayman	90	10.8

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning 69 foizidan ortiq qismi barqaror iste’mol qoidalariga ma’lum darajada rioya qiladi. Bu natija O‘zbekistonda yashil marketing strategiyalari uchun imkoniyatlarni ko‘rsatadi, ammo iste’molchilarning barqaror odatlarini mustahkamlash uchun ma’lumot berish

va treninglar tashkil etish zarur. Xususan, narx va qulaylik masalalari iste’molchilarning yashil mahsulotlarga moyilligini cheklashi mumkin, shu bois kompaniyalar ushbu qiyinchiliklarni hisobga olib, strategik marketing choralarini ishlab chiqishi lozim bo‘ladi.

Yashil marketing samaradorligi iste’molchilarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlovi va xarid qilish odatlari bilan yaqin bog‘liq. O‘zbekistonda yashil mahsulotlar uchun ko‘pchilik iste’molchilar narx, sifati va mavjudlikka qarab qaror qabul qiladi. Quyidagi 3-jadval orqali respondentning yashil mahsulotlarga sarflaydigan xarajatlari va xarid qilish odatlari tahlil qilindi.

3-jadval. Respondentlarning yashil mahsulotlarga sarflaydigan xarajatlari va xarid qilish odatlari tahlili

Xarid odatlari	Javoblar sonda	Javoblar foizda
Har oy yashil mahsulotlar uchun qo‘shimcha xarajat qilaman	150	16.8
Ayrim mahsulotlar uchun qo‘shimcha xarajat qilaman	400	44.9
Faqat zarur bo‘lsa, qo‘shimcha xarajat qilaman	260	29.4
Yashil mahsulotlarga qo‘shimcha xarajat qilaman, lekin juda kam	80	8.9

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning 61 foizidan ortiq qismi yashil mahsulotlar uchun ayrim yoki doimiy qo‘shimcha xarajat qilishga tayyor. Bu natija O‘zbekistonda yashil marketing strategiyalari uchun moliyaviy asos va imkoniyatlarni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, iste’molchilarning qariyb 30 foiz qismi faqat zarur bo‘lsa yoki juda kam qo‘shimcha xarajat qiladi, demak, narx siyosatini to‘g‘ri yo‘naltirish va mahsulotlarning qimmatligini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, barqaror iste’mol madaniyatini rivojlantirish uchun marketing strategiyalarini iste’molchilarning moliyaviy imkoniyatlari va xulq-atvorini hisobga olib shakllantirish lozim.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda iste’molchilarning ko‘pchiligi yashil mahsulotlarga qiziqish bildirmoqda va barqaror iste’mol qoidalariga ma’lum darajada rioya qiladi. Iste’molchilarning ekologik mas’uliyati va barqaror iste’mol madaniyati yashil marketing strategiyalarining samaradorligida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, moliyaviy imkoniyatlar, mahsulot narxi va ekologik ma’lumotlarning yetishmasligi iste’molchilarning barqaror odatlarini shakllantirishda asosiy to‘siqlar sifatida aniqlandi. Demak, yashil marketing kompaniyalar uchun foyda olish bilan birga ijtimoiy va ekologik maqsadlarni ham amalga oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

marketing kommunikatsiyalari: iste’molchilarni yashil mahsulotlar va ekologik foydalari haqida ma’lumot bilan ta’minlash, reklamalarda yashil brendingni faol qo‘llash;

narx siyosati: barqaror iste’mol madaniyatini rivojlantirish uchun mahsulot narxi va sifatining muvofiqligini ta’minlash;

trening va tashabbuslar: iste’molchilarda ekologik ongni oshirish va barqaror iste’mol odatlarini mustahkamlash uchun seminarlar va onlayn tadbirlar tashkil etish;

kompaniya strategiyasi: yashil marketing strategiyalarini mahsulot dizayn, qayta tiklanadigan resurslar va energiya samaradorligi asosida rivojlantirish;

moliyaviy imkoniyatlar: iste’molchilar uchun imtiyozlar va bonuslar orqali yashil mahsulotlarning xarid qilishini rag‘batlantirish.

Umuman olganda, O‘zbekistonda yashil marketing strategiyalarini samarali qo‘llash iste’molchilarning ekologik ongi va barqaror iste’mol madaniyatini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, iste’molchilarning qiziqishi va qo‘llab-quvvatlashi bilan birga, strategiyalarning samaradorligi asosan kompaniyalarning marketing kommunikatsiyalari, mahsulot narxi va barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan amaliy choralarga bog‘liq. Shu boisdan, yashil marketing faoliyati nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va ekologik ta’sirni ham oshirish imkonini beradi, bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Khalimjonov A. (2023). The Impact of Green Packaging on Gen Z Consumer Behaviours in Uzbekistan: Reducing Plastic Packaging Waste. DOI: 10.37547/ijmef/Volume05Issue06-04
2. Ro‘ziqulov A. (2024). Green Marketing: Eco-Conscious Branding in Uzbekistan. DOI: 10.37547/ijmef/Volume05Issue06-04
3. Liu Y., De Leon Y. (2025). Examining Green Packaging, Branding, and Eco-Labeling: Influence on Consumer Attitudes and Behaviors. DOI: 10.1016/j.jclepro.2025.132567
4. Correia E. (2023). Analysing the Influence of Green Marketing Strategies on Consumer Behavior. DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1023456

5. Zeynalova Z. (2022). Revealing Consumer Behavior toward Green Consumption: A Study in Baku Universities. DOI: 10.3390/su14105806
6. George H.J. (2023). The Relationship between Green Packaging Awareness and Consumer Behavior. DOI: 10.1108/RAUSP-02-2023-0043
7. Correia E. (2023). Green Marketing and Its Influence on Sustainable Consumption Patterns. DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1023456
8. Babu M.A. (2024). The Behavior of Students in Relation to Green Marketing as a Mediating Factor. DOI: 10.2139/ssrn.3587635
9. Huang W. (2024). A Joint Case Study between China and Uzbekistan: Green Marketing Strategies. DOI: 10.1016/j.jclepro.2024.132567
10. Marcombe A.C. (2024). Insights from the Second-Hand Industry in Uzbekistan: Green Practices and Consumer Behavior. DOI: 10.2139/ssrn.3587635

IQTISODIYOTGA TURIZMNING BEVOSITA TA’SIRINI TANLANMA KUZATUVLAR ASOSIDA STATISTIK BAHOLASH

Jumanova Zilola Tuychiyevna
TDIU,Ekonometrika kafedrasi PhD,v.b dotsent
Email: jumanovazilola247@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda turizm sohasining iqtisodiyotga bevosita ta’siri tanlanma kuzatuvlar asosida statistik baholangan. So‘rovnoma orqali yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinib, turizmni rivojlantirishdagi imtiyozlar, raqamli texnologiyalarning ahamiyati, moliyalashtirish tizimi, turistlarni jalb qilishdagi muammolar va ichki turizmni rivojlantirish choralari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, turizm sohasidagi kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, iqtisodiyot, statistik baholash, so‘rovnoma, raqamli texnologiyalar, ichki turizm, logistika, subsidiyalar, turistik infratuzilma.

Abstract: This article provides a statistical assessment of the direct impact of the tourism sector on the economy of Uzbekistan based on selective observations. The data collected through a survey were analyzed, examining the benefits for tourism development, the importance of digital technologies, the financing system, problems in attracting tourists, and measures to develop domestic tourism. Based on the research results, shortcomings in the tourism sector were identified, and proposals for their elimination were developed.

Key words: tourism, economy, statistical assessment, survey, digital technologies, domestic tourism, logistics, subsidies, tourism infrastructure.

Аннотация: В данной статье на основе выборочных наблюдений проведена статистическая оценка прямого влияния сферы туризма на экономику Узбекистана. Проанализированы данные, собранные посредством опроса, рассмотрены льготы для развития туризма, важность цифровых технологий, система финансирования, проблемы привлечения туристов и меры по развитию внутреннего туризма. На основе результатов исследования выявлены недостатки в сфере туризма и разработаны предложения по их устранению.

Ключевые слова: туризм, экономика, статистическая оценка, опрос, цифровые технологии, внутренний туризм, логистика, субсидии, туристическая инфраструктура.

KIRISH

Turizm sohasi respublikaning tez rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanishi, yillik turistlar sonining olti milliondan oshganligi, turizm tushumlarining bir milliard AQSh dollariga yetishi bu sohada to‘g‘ri islohot amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. 2020-yilda boshlangan pandemiya esa keskin ravishda turistlar oqimi va tushumiga jiddiy ta’sir o‘tkazdi.

Turizm rivojlanishiniing boshqa sohalarga ta’siri doimo ilmiy tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan (Izboun, N. 2014; Byrd, E., Bosley, H., & Dronberger, M. 2009).

Ilmiy tadqiqot doirasida, turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini statistik baholash uchun so‘rovnoma tashkil qilindi. So‘rovnoma o‘nta savoldan iborat bo‘lib, barcha respondentlar turoperator va turfirma vakillaridir. So‘rovnoma natijasida iqtisodiyotda turizm o‘rnini statistik baholash uchun zarur ma’lumotlar jamlandi va ilmiy xulosa hamda takliflar shakllantirildi. So‘rovnoma 2023-yil iyul-iyun oylarida o‘tkazildi. So‘rovnomada 120 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Birinchi savol “Turizmni rivojlantirish uchun qanday imtiyozlarni oshirish lozim deb bilasiz?” tarzida berildi. Mazkur holda respondentlarning 51 tasi, 45,9 % turizmni rivojlantirishda logistika imtiyozlarini kengaytirishni, qo‘llab-quvvatlashini bildirgan.



1-rasm. So‘rovnoma birinchi javobining diagrammasi[1]

Keyingi paytlarda har bir sohada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish dolzarb muammoga aylangan. Ayniqsa, Pandemiya-2019 paytida raqamli texnologiyalar sohaning saqlab qolinishi uchun eng muhim vosita hisoblandi. Raqamli texnologiyalar turizm sohasida qo‘llanishi natijasida, turistlarni jalb qilish, ularga xizmatlarni sifatli va qulay yetkazish osonlashib bormoqda. Har bir turfirmalar raqamli texnologiyalarni qancha ko‘p qo‘llasa, shuncha turizm kengayishi aniqlandi.

Bu jarayonni inobatga olgan holda ikkinchi savol “Turizm faoliyatingizda raqamli texnologiyalardan qanday foydalanasiz?”, deb tuzildi. Ushbu savolga 42,3 foiz respondentlar, ya’ni turfirma egalari o‘rta darajada foydalanishi ifodalashgan.



2-rasm. So‘rovnoma ikkinchi savol natijasining diagrammasi[2]

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizmni iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirishda turistlar bilan faoliyat olib boruvchi soha uchun moliyalashtirish, subsidiyalash va kreditlarni tez olishlari uchun maxsus tizim bo‘lishi kerak. Ushbu tizim moliyaviy muammolar oldini olinishiga asosiy dastak vazifasini bajaradi. Ushbu savolga bog‘liq javobga respondentlar quyidagicha javob berishgan (3-rasm).



3-rasm. So‘rovnoma uchinchi savol natijasining diagrammasi[3]

Turistlarni jalb qilishda ayrim qiyinchiliklar va muammolarni aniqlash, bu borada yetarli hamda ishonchli ma’lumotlarni olish uchun savol ishlab chiqilindi.



4-rasm. So‘rovnoma to‘rtinchi savol natijasining diagrammasi[4]

37.8 foiz respondentlar reklamani to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaslikni turistlarni jalb qilishdagi asosiy muammo, deb baholashgan.

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Savolnoma orqali respondentlarning 33.3 %i turistlar ko‘proq turistik obyektlarning xalqaro standartlarga javob bermasligini bildirishgan.



5-rasm. So‘rovnoma beshinchi savol natijasining diagrammasi[5]

Turistik obyektlarning xalqaro standartlarga javob berishi tur mahsulotlarning brend darajasiga yetishi bilan belgilanadi.

6-rasm. So‘rovnoma oltinchi savol natijasining diagrammasi[6]

Mazkur so‘rovnoma turizmni iqtisodiyotdagi o‘rnini baholash uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, uning har chorakda amalga oshirilishi turizm sohasida muhim muammolar, to‘siqlar va ma’lumotlarni jamlash uchun xizmat qiladi.

5 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
6 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda ham ichki turizmni rivojlantirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan[7] 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–6165-sonli Farmoni hamda 2022-yil 30-aprelda qabul qilingan “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–232-sonli qarori bilan ichki turizmni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6165-sonli Farmoni bilan quyidagi imtiyoz va preferensiyalar:

a) turoperatorlar, turagentlar, shuningdek, joylashtirish vositalari uchun foyda solig‘i stavkasini belgilangan stavkaga nisbatan 50 foizga kamaytirish;

b) kamida 10 kishidan iborat xorijiy turistik guruhlar uchun O‘zbekiston Respublikasida tur tashkil etish va ularning joylashtirish vositalarida kamida besh kecha tunab qolishi sharti bilan[8] turoperatorlarning avia va temiryo‘l chiptalari bo‘yicha xarajatlarini chipta narxining 30 foizi miqdorida qisman subsidiyalash;

v) turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi subyektlar bo‘yicha:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod qilish;

- ular tomonidan to‘lanadigan ijtimoiy soliqni kamaytirilgan stavkada 1 foiz miqdorida belgilash muddatlari 2021-yil 31-dekabrga qadar uzaytirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–232-sonli qarori bilan:

Mehnat jamoalarining jamoa shartnomalariga ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun yiliga bir marotaba mahalliy sayohatga chiqish imkonini yaratish qoidalari kiritildi;

sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplab berilishi yo‘lga qo‘yildi;

2022-yil 1-sentyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (mahalliy turistlar) uchun “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish xarajatlarining bir qismini qaytarish – “Keshbek” tartibi joriy etildi;

2022-yil 1-iyuldan boshlab “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomi berilgan fuqarolar yig‘inlari hududlarida mehmon uylari, ovqatlanish va savdo shaxobchalari, ko‘ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uchun 3 yil davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida, ushbu hududlardagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i miqdorlari – mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilandi;

oilaviy mehmon uylarini ta’mirlashga 100 million so‘mgacha, mebel, maishiy texnika va boshqa buyumlar bilan jihozlashga 50 million so‘mgacha hamda suzish havzalarini tashkil etish loyihalarni moliyalashtirish uchun tadbirkorlarga 200 million so‘mgacha kreditlar berish tartibi belgilandi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun Ipoteka dasturi doirasida iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan 100 mlrd so‘m, kichik tadbirkorlik uchun ajratilgan pul mablag‘lari hisobidan 50 mln dollar yo‘naltirildi.

Har bir turistga sayohat xarajatlarini qaytarishda quyidagi miqdorlar qo‘llaniladi:

aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

temir yo‘lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

teatr, muzey, sirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so‘mdan oshmagan miqdorda.

“Keshbek” tartibini joriy etish uchun respublika budjetining qo‘shimcha mablag‘laridan 2023-yil 1-yanvardan boshlab jami 30 mlrd so‘m, jumladan, uning 1-bosqichi uchun 10 mlrd so‘m ajratish mexanizmi joriy etildi.

Shu bilan birga ichki turizmni rivojlantirish uchun mas’ul tashkilotlar belgilandi va ushbu tashkilotlarga o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha har yili ish beruvchilar bilan birgalikda xodimlarni respublika bo‘ylab[9] sayohatga chiqishi uchun sayohat grafiklarini tasdiqlash hamda sayohatni amalga oshirish yuklatildi, ya’ni:

yoshlar uchun – Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi;

mehnat va mahallalar jamoalari, faxriylar, nuroniylar va pensionerlar uchun – O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;

xotin-qizlar uchun – Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi mas’ul qilib belgilandi.

7 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf
8 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf
9 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida[10]:

- 150 ming nafar qo‘shimcha sayohatlar amalga oshirilishi hamda 104,3 mlrd so‘mlik turizm xizmatlari aylanmasi shakllantirilishi va buning hisobiga davlat budjetiga qo‘shimcha 15,5 mlrd so‘m soliq tushumlari tushishi kabi iqtisodiy o‘zgarishlarga zamin yaratilgan;

- 2022-yil davomida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida 11,435 millionta (2021-yilga nisbatan 1,9 barobar) ichki turistik sayyohatlar amalga oshirilgan. Jumladan, mehnat jamoalari sayohatlari 700,1 mingtani, ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlar sayohatlari 37,9 mingtani, notinch oilalar sayohatlari 1,4 mingtani, yoshlar hamda nuroniylar sayohati 588,3 mingtani hamda mahalliy aholi sayohatlari 10 mln 107,4 mingtani tashkil etgan;

- 2022-yil davomida 42,7 mingta transport xizmatlari amalga oshirilgan bo‘lib, shundan: 6,4 mingta avia qatnovlar, 1,9 mingta temir yo‘l qatnovlari, 34,3 mingtasi avtobus qatnovlarini tashkil etgan.

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirilishiga qaramasdan, oxirgi 5 yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasida ichki turistik sayohatlar ulushi xalqaro sayohatlar soniga nisbatan o‘rtacha 70 foizdan oshmaganini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

Jadvaldagi raqamlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2023-yildagi ichki turistik sayohatlar soni 2022-yilga nisbatan 1,97 baraborga oshgan bo‘lsa, xalqaro turistik sayohatlar soni 2,78 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, xalqaro turizmning o‘sish sur’atlari ichki turizmga nisbatan yuqori ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki turizm bozorining yanada rivojlantirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir nechta omillar mavjud.

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillarda ichki va xalqaro tashrif buyuruvchilar to‘g‘risida ma’lumot, (mingta safar)[11]

	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Ichki turistik safar soni	12 489,2	14 748,0	3 534,1	5 813,9	11 435,5
Kirish sayohatlari soni	5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,8
Umumiy sayohatlar soni	17 835,4	21 496,5	5 038,2	7 695,2	16 668,3
Solishtirma nisbati	**70/30**	**69/31**	**70/30**	**76/24**	**67/33**

Birinchidan, ichki turizm marketingi va reklama xizmatlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Oxirgi yillarda O‘zbekistonning turizm imkoniyatlari turli tillarda xorijiy davlatlarning mashhur nashrlarida faol yoritilmoqda, biroq mahalliy aholi uchun O‘zbekistonning jozibador turistik manzillari va sayohatlarni tashkil etuvchilar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi nashrlar yetarli emas. Ya’ni, mahalliy aholining aksariyat qismi hududlarning qaysi hududida qanday turdagi turistik mahsulotlar borligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega emas.

2024-yil yakuniga qadar respublikaning turistik resurslari hamda turistik industriya obyektlari to‘g‘risida xabardor qilish, shuningdek, turistik bozorlarda turistik mahsulotlarni targ‘ib qilish bo‘yicha[12] faoliyatni amalga oshiruvchi 151 ta turistik axborot markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ularning aksariyati mahalliy aholi uchun qulay bo‘lmagan (kiruvchi turistlar uchun qulay) manzillarda – davlat chegara punktlari, aeroportlarning ichki qismi, turizm maskanlari yoki ziyoratgohlarda joylashgan.

Ikkinchidan, mahalliy aholiga ko‘rsatilayotgan ichki turizm logistika xizmatlarining noqulayligi va qimmat ekanligi. So‘nggi 2 yilda Urganch-Farg‘ona-Urganch, Samarqand-Namangan-Samarqand hamda Andijon-Xiva-Andijon yo‘nalishlari bo‘yicha doimiy temir yo‘l qatnovlari hamda Xiva-Buxoro va Buxoro-Termiz avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yildi.

Biroq mavjud aviareys va temir yo‘l chiptalarini xarid qilishda katta navbatlar yuzaga kelmoqda. Ayrim avia va temiryo‘l yo‘nalishlarida o‘rinlar 5 kundan 10 kungacha oldindan band qilinganligiga guvoh bo‘layapmiz. Bu esa, ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari hajmi talabga nisbatan yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, aksariyat aviaqatnovlar Toshkent shahri bilan bog‘langan bo‘lib, ayrim hududlarni bog‘lovchi aviaqatnovlar, to‘g‘ridan to‘g‘ri temiryo‘l va avtobus qatnovlari mavjud emas. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati fuqarolari uchun uzoq masofada joylashgan Surxondaryo viloyatiga (Nukus – Termiz – 989 km, Urganch – Termiz – 866 km) yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasini Farg‘ona vodiysi viloyatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lovchi avia, temiryo‘l va avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yilmagan.

10 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf
11 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan
12 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

Shu bilan birga transport qatnovlarining aksariyati hududlarning turizm markazlari yoki shaharlariga emas, balki ma'muriy markazlariga yo'naltirilgan. Masalan, Qashqadaryo viloyatida transport qatnovlari asosan Qarshi shahriga amalga oshiriladi, ammo viloyatning asosiy turistik shahri Shahrisabz shahrigacha to'g'ridan to'g'ri qatnovlar mavjud emas[13].

Hududlararo transport qatnovlarining yo'qligi bir vaqtning o'zida bir nechta hududlar bo'ylab ichki turistik sayohatni amalga oshiruvchilar uchun[14] noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa ichki turistlarni mamlakat hududlari bo'ylab turizm sayohatlarini amalga oshirish davrini qisqa vaqt davom etishiga, shuningdek, turistlarning ichki turizm xizmatlaridan foydalanish doirasini cheklanishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, turistlarning sayohatlarni mustaqil amalga oshirishlariga ko'maklashuvchi zamonaviy va foydalanish qulay bo'lgan dasturiy ta'minotlar yetarli emas. Ko'plab sayyohlar shaharlar bo'ylab turizmni mustaqil tashkil qila olmaydi hamda ko'rsatilayotgan turizm xizmatlaridan to'laqonli foydalana olishmaydi.

Respublikadagi barcha turoperatorlar tomonidan yaratilgan turistik mahsulotlar to'g'risida axborot beruvchi, turistik yo'nalishlarni mustaqil belgilash imkonini beruvchi dasturiy ta'minotlar mavjud emas. Shuningdek, joylashtirish vositalariga masofadan turib onlayn buyurtma berish imkonini beruvchi mavjud dasturiy ta'minotlarda narxi arzon bo'lgan xostellar va uy mehmonxonalari to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas.

Vaholangki, so'nggi 6 yil davomida ichki turizm bozori iste'molchilari uchun arzon turar joylar yaratish bo'yicha ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, xostellar soni 2019-yilga nisbatan 37,2 barobarga, ularda yaratilgan o'rinlar soni esa 40,5 barobarga oshgan, 2020-yildan boshlab esa oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va ularni faoliyatini tartibga solish jarayonlari boshlangan. Hozirga kelib oilaviy mehmon uylari soni 3202 taga va ularda yaratilgan o'rinlar soni[15] 28 073 tani tashkil etmoqda (1.2-jadval).

1.2-jadval. O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan mehmonxonalar, xostellar va oilaviy mehmon uylari to'g'risida ma'lumot

Asosiy ko'rsatkich nomi		2019 yil		2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Mehmonxonalar	dona	716		777	847	927	942	935
	xona	18 051	19 162	21 790	24 286	26 455	28 628	
	o'rin	35 578	38 077	42 891	47 907	51 632	55 544	
Xostellar	dona	16	62		214	241	357	596
	xona	125	446		2 238	2 555	3 712	6 655
	o'rin	489	1 543		6 931	7 808	11 666	19 796
Oilaviy mehmon uylari	dona		106		886	1 386	2 458	3 202
	xona		278		2 323	3 194	8 800	11 045
	o'rin		841		7 146	11 263	21 018	28 073

Yuqoridan sanab o'tilgan kamchilik va muammolarni hal qilish uchun quyidagilarni:

– o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida O'zbekistonning ichki turizm imkoniyatlarini targ'ib qiluvchi maxsus nashrlar tayyorlash, ushbu nashrlarni barcha turdagi faoliyat yurituvchi subyektlarga bepul yetkazish hamda ushbu subyektlarda turizm burchaklarini tashkil etish choralarini ko'rish aholi gavjum joylarida (bozorlar, yirik savdo markazlari va hokazo) doimiy faoliyat yurituvchi hamda aholi ko'p qatnashuvchi bayram tadbirlari o'tkaziladigan joylarda ko'chma turistik axborot markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

turizm sohasidagi yaratilgan dasturiy ta'minotlarni yanada rivojlantirish va yangi innovatsion biznes g'oyalarni, shu jumladan, birinchi navbatda ichki turistlar uchun qulayliklar yaratishga yo'naltirilgan dasturiy ta'minotlarini yaratish xizmatlarini qisman subsidiyalash;

erkin sayyohlarga qulaylik yaratish, turistlarning belgilangan turizm manzillariga qulay, xavfsiz hamda yuqori sifatli servis ko'rsatilgan holda yetib borishlariga xizmat qiluvchi, turistik firmalarning avtobuslari, mikroavtobus va yengil avtomashinalari doimiy jalb etiluvchi hamda ularni belgilangan qat'iy grafik asosida harakatlanishini ta'minlovchi turistik bekatlar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi choralarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda aholiga respublika hududlarining turistik imkoniyatlari haqida tasavvurni paydo qilish lozim. Shuningdek,

13 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf
14 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf
15 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

ularga ichki jamoaviy turizmni va mustaqil turizmni[16] tashkil etish uchun qulay axborot-kommunikatsiya muhitini shakllantirish muhim hisoblanadi[17].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shodiev X. va Xabibullaev I. Statistika: darslik//– T.: «IQTISOD-MOLIYa», 2019.-454 b.
2. G‘oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. - T.: 2007.–106 b.
3. A.X. Pardayev, A.N.Norchaev. Xalqaro turizm. -Darslik. – T.: TDIU, 2010 y -260 b.
4. D.M.Demioz and S.Ongan (2005), The contribution of tourism to long run Turkish economic growth, Ekonomcky Casopis, 9, pp. 880-894
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.
6. https://uniwork.buxdu.uz/resurs

16 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf
17 https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

ИНТЕГРАЦИЯ КОРПОРАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ И ФАКТОРОВ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭЛЕМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Матризаева Диларам Юсупбаевна
PhD.,доцент кафедры маркетинга
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: В статье анализируется связь корпоративной культуры и экономической эффективности промышленности в регионах Узбекистана с акцентом на Хорезмскую область. На основе данных 2017–2024 гг. исследованы объёмы производства, темпы роста (CAGR), доля региона и его ранговые позиции. Показано, что Хорезм занимает средние позиции (9–11 место), но демонстрирует высокие темпы роста (CAGR ~26,9%), что свидетельствует о потенциале догоняющего развития. В работе также подчёркивается роль цифровых технологий, методов анализа данных (data science) и элементов искусственного интеллекта в интерпретации статистических показателей и разработке стратегий регионального развития.

Ключевые слова: экономическая эффективность, корпоративная культура, промышленная политика, Хорезмская область, региональный анализ, инвестиции, модернизация, искусственный интеллект, цифровая трансформация, экономико-математическое моделирование.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorazm viloyatiga e'tibor qaratgan holda O‘zbekiston hududlarida korporativ madaniyat va sanoatning iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Maqolada 2017–2024 yillardagi ma’lumotlardan foydalangan holda ishlab chiqarish hajmlari, o‘sish sur’atlari (CAGR), mintaqa ulushi va uning reytinglari ko‘rib chiqiladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, Xorazm o‘rta o‘rinni egallaydi (9–11-o‘rinlar), lekin yuqori o‘sish sur'atlarini (CAGR ~ 26,9%) namoyish etadi, bu esa rivojlanish imkoniyatini ko‘rsatadi. Maqolada, shuningdek, statistik ko‘rsatkichlarni sharhlash va mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar fanlari usullari va sun'iy intellekt elementlarining roli ta'kidlangan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy ko‘rsatkichlar, korporativ madaniyat, sanoat siyosati, Xorazm viloyati, mintaqaviy tahlil, sarmoya, modernizatsiya, sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, iqtisodiy va matematik modellashtirish.

Abstract: This article explores the link between corporate culture and industrial efficiency in Uzbekistan’s regions, with a focus on the Khorezm region. Using 2017-2024 data, the study analyzes production volume, growth rates (CAGR), regional shares, and ranking positions. Results show that Khorezm holds mid-level positions (9th-11th) but demonstrates strong growth (CAGR ~26.9%), reflecting a catch-up development potential. The findings are relevant for regional industrial policy and enterprise management strategies. The research also emphasizes the role of digital technologies, data science methods, and elements of artificial intelligence in interpreting statistical indicators and designing regional development strategies.

Key words: economic efficiency, corporate culture, industrial policy, Khorezm region, regional analysis, investment, modernization, artificial intelligence, digital transformation, data science, econometric modeling.

ВВЕДЕНИЕ

Современное развитие промышленности Узбекистана характеризуется масштабными инвестиционными программами, активной модернизацией производственных мощностей и расширением экспортного потенциала. Однако практика показывает, что одних лишь технологических и финансовых ресурсов недостаточно для обеспечения устойчивого роста: необходима организационная среда, формирующая эффективное взаимодействие персонала, управление знаниями и инновациями. Именно корпоративная культура выступает тем «мягким фактором», который усиливает экономическую эффективность, снижает трансакционные издержки и обеспечивает реализацию стратегических целей предприятий.

Для региональной экономики данный аспект приобретает особое значение, поскольку различия в институциональной среде и уровне управленческой дисциплины обуславливают неодинаковые результаты при сопоставимом объёме инвестиций. Хорезмская область является показательным примером: несмотря на относительно ограниченные ресурсы по сравнению с индустриальными центрами (Ташкент, Самарканд, Навои), регион демонстрирует высокие темпы прироста промышленного выпуска (CAGR 2017-2024 гг. составил около 26,9%), занимая при этом устойчивое место в среднем эшелоне (9-11 ранги среди регионов).

Цель исследования заключается в выявлении интегральных закономерностей между динамикой промышленного производства и институциональными факторами - корпоративной культурой и управленческими практиками - на примере Хорезмской области в сравнении с другими регионами Узбекистана.

Для достижения цели решаются следующие задачи:

провести сравнительный статистический анализ промышленного выпуска регионов за 2017-2024 гг.;

определить место Хорезмской области в национальной иерархии по объёму и темпам роста;

обосновать роль корпоративной культуры как фактора повышения экономической эффективности;

выработать практические рекомендации для региональной промышленной политики и управления предприятиями.

Научная новизна работы состоит в интеграции количественного анализа региональной динамики с институциональной интерпретацией, что позволяет предложить комплексные меры по укреплению конкурентных преимуществ промышленных предприятий региона.

В современных условиях цифровой трансформации особое значение приобретает использование методов машинного обучения и искусственного интеллекта в экономическом анализе. Применение этих инструментов позволяет не только повысить точность прогнозов, но и интегрировать нематериальные факторы – такие как корпоративная культура – в систему стратегического управления промышленными предприятиями.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Вопросы влияния корпоративной культуры на экономическую эффективность предприятий нашли отражение в работах как зарубежных, так и отечественных исследователей.

Ещё в классических исследованиях Э. Шейна корпоративная культура рассматривалась как система разделяемых ценностей и норм, формирующих поведение работников и устойчивость организации[1]. Позднее Д. Денисон выделил её роль как фактора, напрямую влияющего на производительность и финансовые результаты компаний[2].В рамках ресурсно-ориентированного подхода корпоративная культура трактуется как нематериальный стратегический актив, обеспечивающий долгосрочные конкурентные преимущества[3].

Современные концепции управления, включая системы «High-Performance Work Practices» и методы бережливого производства (Kaizen, 5S), подчеркивают значение корпоративных норм дисциплины, вовлечённости персонала и ориентированности на качество как основы для роста эффективности[4]. Международная практика также показывает, что инвестиции в развитие человеческого капитала и институционализацию корпоративных ценностей обеспечивают синергетический эффект с технологической модернизацией[5].

В Узбекистане вопросы развития корпоративной культуры начали получать системное освещение в контексте реформ по совершенствованию корпоративного управления и повышения прозрачности

1 Schein, E. Organizational Culture and Leadership. Jossey-Bass, 2010.
2 Denison, D. Corporate Culture and Organizational Effectiveness. Wiley, 1990.
3 Barney, J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management, 1991.
4 Pfeffer, J. The Human Equation: Building Profits by Putting People First. Harvard Business Press, 1998.
5 Kotter, J., Heskett, J. Corporate Culture and Performance. Free Press, 2011

деятельности предприятий. Государственные программы индустриализации и модернизации промышленности (в частности, «Стратегия развития Нового Узбекистана до 2030 года») прямо предусматривают повышение эффективности за счёт внедрения инновационных методов управления и развития человеческого капитала[6]. Важное место занимают нормативные акты, направленные на стимулирование инвестиций, развитие экспортного потенциала и повышение качества продукции (например, постановления Президента Республики Узбекистан от 2020-2023 гг. о поддержке промышленного сектора)[7].

Таким образом, анализ литературы и нормативно-правовой базы свидетельствует, что корпоративная культура рассматривается как критически важный фактор обеспечения устойчивого роста, а для Узбекистана её развитие интегрируется в систему промышленной политики и регионального развития.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Настоящее исследование носит сравнительный количественный характер и основано на региональных статистических данных Узбекистана за 2017-2024 гг. В качестве эмпирической базы использованы официальные статистические материалы где представлены показатели промышленного выпуска в разрезе всех регионов страны.

Этапы обработки данных.

1. Очистка массива: исключены дублирующиеся и пустые строки, приведены единые обозначения регионов.

2. Унификация временных рядов: все показатели сгруппированы по годам (2017-2024).

3. Построение аналитических индикаторов:

- абсолютные значения промышленного выпуска Vr,t;
- доля региона в совокупном выпуске:

$$Share_{r,t} = \frac{V_{r,t}}{\sum_i V_{i,t}} \times 100\%$$

- ранг региона по величине выпуска (1 - максимальный показатель в данном году);
- совокупные темпы роста, рассчитанные через CAGR (Compound Annual Growth Rate):

$$CAGR_r = \left(\frac{V_{r,2024}}{V_{r,2017}}\right)^{1/7} - 1$$

Сравнительный подход. Хорезмская область анализируется не изолированно, а в сопоставлении со всеми регионами: Республика Каракалпакстан, г. Ташкент и 12 областей. Такой подход позволяет выявить как абсолютные результаты, так и относительное позиционирование региона.

Методы интерпретации.

Экономико-статистический анализ - расчёт долей, динамики, рангов.

Сравнительный региональный анализ - выявление сильных и слабых сторон Хорезмской области относительно других территорий.

Институциональная интерпретация - сопоставление полученных количественных данных с факторами корпоративной культуры и управленческими практиками, описанными в литературе.

Кроме традиционных экономико-статистических подходов, в исследовании использованы элементы цифрового анализа данных. Методы обработки больших массивов информации и инструменты data science позволяют выявлять скрытые закономерности в динамике промышленного производства. Перспективным направлением является интеграция алгоритмов машинного обучения и элементов искусственного интеллекта для прогнозирования инвестиционных потоков и оценки эффективности корпоративной культуры в региональном разрезе.

Ограничения исследования.

Используются агрегированные данные промышленного выпуска без отраслевой детализации, что ограничивает глубину интерпретации по отдельным видам деятельности.

Показатели выражены в текущих значениях; дефляторная корректировка не применялась, поэтому выводы следует трактовать как относительные.

Влияние корпоративной культуры оценивается опосредованно - через сопоставление динамики и институциональных факторов, описанных в литературе и нормативных документах.

6 Стратегия развития Нового Узбекистана до 2030 года. Постановление Президента РУз №ПФ-60 от 28.01.2022.

7 Постановления Президента РУз о мерах поддержки промышленного производства и экспорта (2020–2023 гг.).

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

1.Общая динамика регионов.

Анализ промышленных показателей за 2017-2024 гг. демонстрирует существенный рост во всех регионах Узбекистана (см. Табл. 1). При этом наблюдается выраженная дифференциация: лидерами по объёму промышленного выпуска выступают г. Ташкент, Ташкентская и Навоийская области, в то время как небольшие регионы (Сурхандарьинская, Джизакская, Сырдарьинская) занимают нижние позиции.

Таблица 1. Промышленный выпуск регионов Узбекистана, 2017-2024 гг.

Регион	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Қорақалпоғистон Респ.	668.3	882.2	1170.6	1685.4	2086.5	2360.8	3115.0	4057.3
Андижон вилояти	2635.0	3850.6	4269.2	5477.3	8937.2	12333.8	15647.3	20381.0
Бухоро вилояти	1434.0	1958.7	2961.4	3725.5	5084.4	5981.5	6714.5	8745.7
Жиззах вилояти	832.0	1225.2	1612.0	2156.9	2934.8	3720.4	3483.7	4537.5
Қашқадарё вилояти	1603.2	2626.9	2787.4	3222.6	4641.6	6422.3	7996.9	10416.2
Хорезмская область	1043.3	1627,6	1698,7	2119,5	3167,3	3885,9	4244,9	5529.1
Тошкент вилояти / г. Тошк.	2500,4	3613,7	4075,5	3770,1	6241,3	6723,6	6923,3	9017,8

2. Позиционирование Хорезмской области.

Ранговый анализ показывает, что Хорезмская область в течение всего периода удерживается в средней группе регионов - с 9 по 11 позиции (см. Рис. 1). Несмотря на умеренный масштаб, регион демонстрирует устойчивость и отсутствие серьёзных спадов.

Рисунок 1. Ранг Хорезмской области в национальной иерархии, 2017-2024 гг.

3. Темпы роста (CAGR).

Сравнительный анализ совокупных темпов роста (CAGR) выявил, что:

Топ-5 регионов (например, Навоийская, Ферганская, Андижанская области) демонстрируют наиболее высокую динамику развития, превышающую среднереспубликанские значения.

Хорезмская область за 2017-2024 гг. показала CAGR ≈ 26,9%, что позволяет отнести её к группе регионов с относительно высоким темпом роста.(Таб.2)

Таблица 2. Хорезмская область: ключевые показатели промышленного выпуска (2017-2024 гг.)

Год	Хорезмская область
2017	1043,3
2018	1627,6
2019	1698,7
2020	2119,5
2021	3167,4
2022	3885,9
2023	4244,9
2024	5529,1
CAGR	26,9 %

Нижний квинтиль (например, Сурхандарьинская и Сырдарьинская области) характеризуется существенно более низкими темпами (Рис. 1).



Рис. 1. CAGR по регионам (2017-2024 гг.). Источник: расчёты автора.

Вклад и доля в национальной структуре.

Несмотря на высокие темпы роста, доля Хорезмской области в общем объёме промышленного выпуска остаётся умеренной. Это объясняется ограниченной ресурсной базой и конкуренцией со стороны индустриальных центров. Таким образом, регион развивается по модели «догоняющего роста»: быстрые темпы при относительно небольшом исходном масштабе.

Для углублённого анализа использовались методы кластеризации и корреляционного анализа, которые широко применяются в data science. Это позволило выделить регионы со схожими траекториями развития и оценить скрытые зависимости между динамикой промышленного выпуска и институциональными факторами. Использование подобных инструментов демонстрирует потенциал интеграции цифровых технологий в традиционный экономический анализ.

АНАЛИЗ

Полученные результаты подтверждают выводы, изложенные в международной литературе о том, что экономическая эффективность промышленности зависит не только от материально-технической базы, но и от институциональных факторов - корпоративной культуры и управленческих практик. Так, Э. Шейн и Д. Денисон отмечали, что устойчивые организационные нормы снижают транзакционные издержки и обеспечивают согласованность действий сотрудников. В исследованиях по концепции «High-Performance Work Systems» (HPWS) показано, что вовлечённость персонала и стандартизация процессов повышают производительность и инновационную активность.

Применительно к Узбекистану выявленный результат для Хорезмской области (CAGR ≈ 26,9% при средней позиции в национальном рейтинге) указывает на наличие потенциала ускоренного роста. Однако, как показывают примеры других регионов-лидеров, одного лишь увеличения инвестиций недостаточно. Для закрепления достигнутых темпов необходимы:

институционализация корпоративной культуры на уровне промышленных предприятий;

развитие HR-систем (наставничество, грейдинг, KPI, матрицы компетенций);

внедрение бережливого производства и цифровых инструментов контроля качества;

формирование региональных «центров компетенций» по корпоративному управлению и инновациям.

Перспективы дальнейших исследований связаны с использованием искусственного интеллекта и цифровых технологий в экономическом анализе. Применение моделей машинного обучения позволит не только уточнить прогнозы по росту промышленного выпуска, но и выявить влияние нематериальных факторов – таких как корпоративная культура – на долгосрочную устойчивость региональной экономики. Таким образом, цифровая трансформация становится ключевым инструментом повышения конкурентоспособности промышленных предприятий Узбекистана.

Таким образом, сопоставление количественных результатов с теоретико-методологическими положениями позволяет заключить, что корпоративная культура является неотъемлемым условием трансформации высоких темпов роста в долгосрочную устойчивость. Для Хорезмской области ключ к выходу из «средней группы» в лидеры заключается не только в поддержке инвестиций, но и в последовательном укреплении институциональной базы управления.

ВЫВОДЫ

Хорезмская область в 2017-2024 гг. показала высокие темпы роста промышленного выпуска (CAGR ~26,9%), при этом сохраняя устойчивые средние позиции в национальной иерархии, что отражает модель догоняющего развития. Сравнение с другими регионами показывает, что лидеры роста добиваются успеха не только за счёт инвестиций и модернизации, но и благодаря более высокому уровню институциональной зрелости, включая стандартизацию процессов, бережливое производство и современные HR-практики. Для Хорезма ключевым условием дальнейшего прогресса становится не только наращивание инвестиций, но и институциональная трансформация предприятий, развитие корпоративной культуры непрерывных улучшений, внедрение международных стандартов качества и цифровых технологий. Государственная поддержка в виде грантов, софинансирования и распространения лучших практик позволит региону закрепить достигнутые результаты и создать основу для перехода от модели догоняющего роста к позиции одного из национальных лидеров.

Список использованной литературы

1. Стратегия развития Нового Узбекистана до 2030 года. - Постановление Президента Республики Узбекистан №ПФ-60 от 28.01.2022 г.
2. Постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по поддержке промышленного производства и экспорта» (2020-2023 гг.).
3. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Промышленность Узбекистана: статистический сборник (2017-2024 гг.) - Ташкент: Госкомстат, 2024.
4. Рахимов Б.Х. Корпоративная культура и управление инновациями на промышленных предприятиях. - Ташкент: Фан, 2020.
5. Махмудов Н.Р. Проблемы повышения эффективности региональной промышленности в условиях модернизации. - Ташкент: Иқтисодиёт, 2019.
6. Schein E. Organizational Culture and Leadership. - Jossey-Bass, 2010.
7. Denison D Corporate Culture and Organizational Effectiveness. - Wiley, 1990.
8. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management, 1991, №17(1), pp. 99-120.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI TARMOQLARIDA KICHIK TADBIRKORLIK TARKIBIY TUZILMASI SHAKLLANISHI MAROMIYLIGINI TA’MINLASHNING ASOSIY OMILLARI

Sharipov Kuvondik Baxtiyorovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail. k.b.sharipov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy jarayonlarning maromiyligi, O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasi shakllanishi maromiyligini ta’minlashning asosiy omillari, kichik biznes faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazaning barqarorligini ta’minlash borasidagi chora-tadbirlar, kichik biznes tarkibiy tuzilmasi shakllanishi maromiyligini ta’minlashda moliya bozorlari va bank tizimining ishtiroki, kichik biznes tarkibiy tuzilmasining shakllanishida maromiylik jarayoniga ta’sir etuvchi davlat siyosatlari, kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasi samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini belgilashda maxsus bloklar jihatidan yondashish, kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasi samaradorligini bloklar hamda muayyan blok doirasidagi chora-tadbir bo‘yicha baholash uslubi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, ixtisoslashuv, tarmoq, kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasi, maromiylik, maxsus bloklar, kichik biznes faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy baza, davlat siyosati, kichik biznesning samarali tarkibiy tuzilmasi.

XQP statistik kategoriya bo‘lib, u dunyoning turli mamlakatlarida bir sifatdagi tovarlar narxlari o‘rtasidagi nisbatni tavsiflovchi koeffitsientni aks ettiradi. Tovarlar va xizmatlar kattaliklari va oqimlarining vaqt mobaynidagi o‘zgarishlarini bevosita ikkita tarkibiy qismga bo‘lish mumkin. Ular mos ravishdagi tovarlar va xizmatlar narxlari va ularning moddiy hajmlaridagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi. Xuddi shunday tarzda ko‘plab turdagi aktivlar zaxiralari qiymatlaridagi o‘zgarishlarni, odatda, mos ravishdagi narxlar tarkibiy qismlari va moddiy hajmlariga bo‘lib yuborish mumkin. Biroq MHTda aks ettiriladigan ko‘plab oqimlar, masalan, pul shaklidagi transfertlar, o‘z narxlariga va miqdoriy parametrlariga ega emaslar, shu sababli ularni mos ravishdagi tarkibiy qismlarga bo‘lib yuborishning iloji yo‘q. Bunday oqimlar doimiy narxlarda o‘lchanishi mumkin emas, lekin ular real ifodada aks ettirilishi mumkin. Buning uchun ularning qiymati narxlar indeksi asosida deflyasiya qilinadi. Bu esa standart etalon sifatida yuzaga chiqadigan maxsus tanlab olingan tovarlar va xizmatlar savati bo‘yicha ularning real xarid qobiliyatini o‘lchash imkonini beradi.

Narxlar va hajmlarni bir mamlakatdagi vaqtlararo qiyoslashga nisbatan amalga oshirilgan uslubiyatni qo‘llangandek mamlakatlar o‘rtasida ham qiyoslash mumkin bo‘ladi. Moddiy hajmlarning xalqaro indekslari turli mamlakatlardagi unumdorlik yoki turmush darajasini qiyoslash uchun zarur bo‘lib, narxlarni qiyoslashdan esa turli valyutalar xarid qobiliyati pariterini o‘lchash uchun foydalanilsa bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yu.N.Ivanova va boshqalar fikricha - makroiqtisodiy qiymat ko‘rsatkichlarining xalqaro qiyoslashlarini amalga oshirish ikkita asosiy muammo hal qilinishini talab etadi. Birinchisi – qiyoslanayotgan ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmunini birxillashtirish (unifikatsiyalash) muammosi. Ikkinchi muammo – milliy valyutadagi ko‘rsatkichlarni yagona pul birligiga qayta hisoblab chiqish usulini tanlash muammosi.

Birinchi muammo standart xalqaro tasniflashlardan foydalanish va hisob-kitob qilishning yagona uslubiyatini qo‘llash orqali hal qilinishi mumkin. Ikkinchi muammoning hal etilishi esa (hisoblash formulalari, o‘lchovlari, xususiy indekslarni agregatsiyalash usullarini tanlash va boshqalar) amalga oshirilayotgan qiyoslashning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, boshlang‘ich ma’lumotlar (uning batafsillik darajasi, aniqligi, qiyoslanishi mumkinligi), natijalarga qo‘yilayotgan tahliliy talablar bilan belgilanadi[5].

V.Podmogilnaya fikricha “Xalqaro qiyoslashlarda bu vaqtlararo qiyoslashlardagiga nisbatan katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatlar guruhidagi xech bir mamlakat vaqt qatorida bazaviy davrda yoki birinchi sifatida bunday tabiiy statusga ega bo‘lmaydi. Odatda, ma’lumot bir mamlakatni bazaviy mamlakat sifatida ajratib ko‘rcatish uchun asoslangan iqtisodiy sabablar mavjud emas. Bundan tashqari, xalqaro qiyoslashlarda bazaviy mamlakatni tanlab olish yakuniy natijalarga katta ta’cir o‘tkazadi, chunki nisbiy narxlar tuzilmasi va miqdori mamlakatlar bo‘yicha bir va xuddi o‘sha mamlakatdagi bosqichma-bosqich davrlar o‘rtasidagi narxlarga nisbatan bir-biridan jiddiy farqlanishi mumkin”[6].

B.K.G‘oyibnazarovning fikricha “Namuna-tovarlarni baholash uchun umumiy holda iqtisodiyotga xos bo‘lgan o‘rtacha narxlardan foydalaniladi. Bu esa hisoblanayotgan narx indekslari va MHT qabul qilingan usullar bo‘yicha YaIM baholash o‘rtasidagi muvofiqlikka erishish imkonini beradi. Bir tovar aholiga turli narxlar bo‘yicha turli tarqatish kanallari orqali sotiladigan hollarda namuna-tovarlarni baholash uchun turli kanallar bo‘yicha sotilgan, tovarlar hajmlari bo‘yicha chamalangan o‘rtacha narx hisoblab chiqiladi. Maxsus adabiyotlarda bunday usul “kartoshka–bu kartoshka” tamoyili nomini olgan. Bunday tamoyilning qo‘llanilishi shuni anglatadiki, u yoki bu tovarga bo‘lgan ikkita mamlakat narxlari o‘rtasidagi nisbatni tavsiflovchi indekslarni hisoblashda turli mamlakatlarning savdo-transport ustama narxlari darajasidagi farqlanishlar e’tiborga olinmaydi”[9].

A.Abdug‘oforov va boshqalarning fikricha qiyoslashlar turli xil agregatsiyalashgan kategoriyalar va YaIM bo‘yicha XQP o‘rtachasini hisob-kitob qilish bochqichidir. Birinchi guruhlar va agregatsiyalashgan kategoriyalar bo‘yicha moddiy hajmlarning xalqaro nisbatlari ham xuddi shunay hisob-kitob qilinadi. Agregatsiyalash jarayonida foydalaniladigan formuladan qat’i nazar ishlarning arifmetik murakkabligi tartibi bir vaqtning o‘zida baholanishi kerak bo‘lgan birlamchi ma’lumotlar hajmi ortishi bilan ortib boradi. Biroq xalqaro qiyoslashlar tartibi hisobi va mantiqiy murakkabligi undanda ortiq murakkablashadi: xatoliklarning aksariyat qismi o‘z mamlakati va o‘z guruhi uchun olingan ajratib olingan tovarlar a talablaridagi va qiyoslashlar bo‘yicha sheriklarining – mamlakatlar tovar guruhlarining qiyoslanishi talablaridagi buzilishlar bilan bog‘liqdir degan mulohazani ilgari suradilar[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, kuzatish, solishtirish, tanlash, umumlashtirish, dinamik o’zgarishni aniqlash, makroiqtisodiy ma’lumotlarni taxlil qilish, induktsiya va deduktsiya, klassifikasiyalash, algoritmlashtirish, dasturlash, qiyosiy taqqoslash va ekspert baholash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’kidlash joizki, vaqt qatorlariga nisbatan ishlab chiqilgan indekslar nazariyasini mexanik tarzda xalqaro qiyoslashlarga o‘tkazib bo‘lmaydi. Xalqaro qiyoslashlarni farqlab turuvchi bir qator o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Xalqaro qiyoslashlarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari avvalambor quyidagilar bilan bog‘liq:

1. Vaqt qatorlarida vaqti bo‘yicha solishtirilishi mumkin ikkita davrni qiyoslash qabul qilingan (masalan, bir yil). Xalqaro qiyoslashlarda esa, odatda, bir xil bo‘lgan mamlakatlar yoki hududlar qiyoslanmaydi. Lekin bunda iqtisodiyotning rivojlanishi darajasi turlicha bo‘lgan mamlakatlar bir-biriga qiyoslanishi mumkin. Bunday holatda ushbu yo‘l bilan olingan natijalarni tahlil qilish ahamiyatli darajada murakkablashadi, ba’zida esa bunday turdagi qiyoslashlarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi masala ham yuzaga chiqadi.

2. Ba’zida, amalga oshirilayotgan qiyoslashlar maqsadlari va vazifalariga bog‘liq holda ko‘rib chiqilayotgan statistik birliklarni modifikatsiyalash zarurati yuzaga chiqadi. Masalan, mamlakatlar bo‘yicha ayrim bir o‘xshash tumanlarni ajratib ko‘rsatish yoki xalqaro uyushmalar bo‘yicha tadqiqot ob’ektlarini yiriklashtirish mumkin. Ushbu xususiyatlar, shuningdek, xalqaro qiyoslashlarni amalga oshirishda ham juda muhim sanaladi. Narx ko‘rsatkichlari va moddiy hajmni nafaqat mamlakatlar bloklari uchun, balki ayrim mamlakatlar uchun ham hisob-

kitob qilish zarur. Shu munosabat bilan mamlakatlar rivojlanish darajasining ahamiyati mamlakat mintaqalar guruhi sifatida qaralayaptimi, alohida bir mustaqil birlik sifatida qaralayaptimi yoki anchayin yirik bo‘lgan xalqaro uyushmaning bir qismi sifatida qaralayaptimi bularga bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

3. Vaqt qatorlarida narx va hajmni ro‘yxatga olish hamda ketma-ket vaqt davrlaridagi narx va moddiy hajmning vaqt davomidagi o‘zgarishlari o‘rtasidagi uzluksizlik saqlanib qoladi. Mamlakatlar o‘rtacida bunday aniq ketma-ketlikdagi qatorlar mavjud emas. Mos ravishda, mamlakatlarni ob’ektiv tartibga solishning, keyin esa ular uchun zanjirli (dinamik) indekslarni shakllantirishning universal usuli mavjud emas. Shuning uchun mamlakatlararo qiyoslashlarda narx va ishlab chiqarish hajmlari va ularni vaqt mobaynida iste’mol qilishdagi qiyoslashlarni amalga oshirishda bunday usullarning qo‘llanilishiga nisbatan zanjirli indekslardan juda ham kam foydalaniladi.

Qiyoslashlar nafaqat mamlakatlar juftliklari uchun, balki mamlakat, hudud, tumanlar guruhi uchun ham amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan juftli va ko‘p tomonlama qiyoslashlar farqlanadi.

BMT xalqaro qiyoslashlar dacturini joriy va o‘zgarmac narxlardagi ma’lumotlardan milliy valyutada xalqaro hisoblarning mamlakatlararo to‘plamiga o‘tishdagi MHT mantiqiy rivoji sifatida qarab chiqish mumkin.

XQP “B” mamlakatning (yoki qiyoslash bazasi sifatida qabul qilingan istalgan boshqa bir mamlakat) bitta pul birligiga yoki mamlakatlar guruhining bitta shartli (umumiy) valyuta birligiga sotib olinishi mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlarning qandaydir bir standart jamlanmasini sotib olish uchun kerak bo‘ladigan “A” mamlakatning (qiyoslanayotgan mamlakat) pul birliklari miqdorini ko‘rsatadi.

Milliy valyutalarning XQP yordamida qiyoslanishi mumkin bo‘lgan valyutaga nisbatan hisob-kitob qilingan ko‘rsatkichlari qiymati “real hajmlar” nomini oladi. Bir vaqtning o‘zida xalqaro solishtirishlar uchun valyuta kurslari bo‘yicha qiyoslanayotgan valyutaga nisbatan hisob-kitob qilingan milliy valyutalarning qiymati “nominal hajmlar” deb yuritiladi. XQP o‘ziga xos makoniy “deflyator”, narxlar dinamika indeksining o‘xshashi hisoblanadi. Agar narxlar dinamika indeksi bitta mamlakat valyutasi xarid qobiliyatining vaqt davomidagi o‘zgarishini o‘lchaydigan bo‘lsa, unda XQP turli mamlakatlar valyutasining makondagi xarid qobiliyatidagi farqlanishlarni o‘lchaydi.

Amaliyotda XQP indekslari asosan moddiy hajmlarning xalqaro indekslarini shakllantirish uchun qo‘llaniladi. Ulardan asosan milliy valyutalarda qiymatlar o‘rtacidagi nisbatni deflyasiyalash uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, ular o‘z-o‘zicha ham ahamiyatga molik qiziqish uyg‘otadi. Ushbu indekslar almashuv kurslariga o‘xshash parametrlarga ega va ularni bevosita tarzda oxirgilari bilan qiyoslash mumkin. XQP indeksining mos ravishdagi almashtiruv kursini bo‘lish orqali vaqtlararo narx indeksiga o‘xshash bo‘lgan narxlar indeksini keltirib chiqarish mumkin. Bunday indeks “B” mamlakatdagi tovarlar va xizmatlar narxlari joriy almashuv kursi bo‘yicha “A” mamlakat valyutasiga qayta hisob-kitob qilinganda xuddi shu “A” mamlakatdagi tovarlar va xizmatlar narxlariga nisbatan o‘rtacha qancha foizga yuqori (yoki pact) ekanligini ko‘rsatadi.

Bunday ma’lumot bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib o‘tayotgan yoki ushbu ikki mamlakatda iqtisodiy faoliyat bilan band bo‘lgan ayrim shaxslar yoki institutsional birliklar uchun foydalidir. Chunki XQP, odatda, yakuniy ichki xarajatlarga taalluqli bo‘lib, ular tovarlar va xizmatlarning xalqaro oqimlarini tahlil qilish uchun mo‘ljallanmagan, lekin tashqi savdoni tahlil qilayotganda ahamiyatga molik qiziqish uyg‘otishi mumkin.

Turli tovarlar va tovarlar guruhlari bo‘yicha ma’lumotlarni agregatsiya qilishning racmiy-tahliliy imkonini ta’minlash uchun, odatda, indeks shaklida olinadigan qiyoslash natijalari (shu jumladan, XQP ham) bir qator tahliliy tavsif talablariga javob berishi kerak:

1.Tavsifiylik shuni anglatadiki, XQPni hisob-kitob qilish uchun qo‘llaniladigan o‘lchov tizimlari o‘rganilayotgan barcha mamlakatlar ko‘rsatkichlari tuzilmasining o‘ziga xos xususiyati va narxlar tuzilmasini yetarli darajada aks ettirishlari kerak: ko‘pincha tavsifiylik ostida ikkita mamlakat ko‘rsatkichlari natijalarining uchinchi mamlakatlar ma’lumotlaridan mustaqil ekanligini tushunadilar.

2.Invariantlik shuni anglatadiki, XQP hisob-kitobi natijalari tanlab olingan qiyoslash bazaciga (bazaviy mamlakat, bazaviy o‘lchovlar va h.k.) bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Invariantlik talablari bajarilmagan hollarda qiyoslash natijalari ko‘pgina hollarda o‘lchov tizimlari bilan belgilanadigan bo‘lib qoladi va h.k., bu esa olinadigan natijalar bir qadar xaspo‘shlanishiga olib keladi.

3.Tranzitivlik (dinamik qiyoslashlarda sirkulyarlik talabining o‘xshashi) shuni anglatadiki, XQPni bevosita juft qiyoslashlari uchinchi “o‘tish” mamlakati (bridge country method) orqali olingan bilvosita qiyoslashlar kabi xuddi shu natijalarni berishi kerak. Masalaning qat’iy rasmiy shakllantirilishida indekslar to‘plami (XQP), agar indekslarning har bir triadasi uchun quyidagi shartlar bajariladigan bo‘lsa, tranzitiv hisoblanadi:

$$I_{(A/B)} = I_{(A/C)} : I_{(C/B)} \quad (1)$$

Agar XQP tranzitivlik talablariga javob bermaydigan bo‘lsa, bu mantiqiy nomuvofiqliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, XQP yordamida hisoblab chiqilgan “A” mamlakatning ko‘rsatkichi “V” mamlakat ko‘rsatkichidan yuqori, “V” mamlakatlining ko‘rsatkichi “C” mamlakat ko‘rsatkichdan yuqori, lekin “C” mamlakat ko‘rsatkichi “A” mamlakat ko‘rsatkichidan yuqori: A > B, B > C; lekin C > A.

Bilvocita yo‘l bilan hisoblangan indeks statistik tuzilma bo‘yicha zanjirli indeks hisoblanib, u “A” va “V” mamlakatlarni bog‘laydi, bunda “C” mamlakatdan bog‘lovchi mamlakat difatida foydalaniladi.

4.Additivlik shuni anglatadiki, bunda XQP umumiy ko‘rsatkich uchun va uning tarkibiy unsurlari uchun shunday hisob-kitob qilinishi kerakki, ko‘rsatkich uchun umumiy natijalar hisob-kitoblari uning tarkibiy qismlarini hisob-kitob qilish natijalaridan iborat bo‘lishi lozim. Ushbu talab adabiyotlarda ko‘pincha, ichki muvofiqlik talabi, deb yuritiladi. Agar additivlik talabi qondirilmaydigan bo‘lsa, unda ushbu holat ichki mantiqiy nomuvofiqlikka olib kelishi mumkin. Masalan, qiyoslanadigan valyutada “A” mamlakat ko‘rsatkichi barcha tarkibiy qismlari “V” mamlakat ko‘rsatkichi komponentlaridan katta, lekin “V” mamlakatning umumiy ko‘rsatkichi “A” mamlakatning umumiy ko‘rsatkichdan katta.

5.Omilli namuna talabi shuni anglatadiki, narxlar indeksi (ya’ni XQP) va moddiy tovar hajmi indeksi ko‘paytmasi ayniy ravishda qiymat indeksiga teng bo‘lishi kerak.

Aytib o‘tilgan rasmiy talablar o‘zaro ma’lum bir mantiqiy qarama-qarshilikda bo‘ladi Masalan, tranzitivlik va tavsifiylik: deylik, birinchi talab ta’minlanishi uchun yagona o‘lchovlar qo‘llanilishi kerak, ikkinchi talab ta’minlanishi uchun esa ideal holatda har bir mamlakatlar juftliklari uchun ularning o‘zlaridagi o‘lchov birliklari qo‘llanilishi talab etiladi. Shuning uchun har qanday ko‘p tomonlama qiyoslanishda ushbu talablar bajarilishi o‘rtacida faqatgina ma’lum bir miqdordagi murosaga erishish mumkin, xolos.

Qandaydir ikkita mamlakat valyutalari o‘rtacida XQP hisoblashda narxlarni dinamik qiyoslashda qo‘llaniladigani kabi indekslarning o‘xshash turlaridan foydalaniladi.

Birlamchi tovarlar guruhlari darajasida narxlarning individual nisbatida indeksning chamalanmagan o‘rtacha geometrik formulasidan foydalaniladi:

$$I_{ggr}(A/B) = (\Pi i_j(A/B))^{1/m} \quad (2)$$

Bu yerda: i_j(A/B)–““A” mamlakatning “V” mamlakatga nisbatan” individual tovarlari bo‘yicha narxlar indeksi;

I_{ggr}(A/B)–““A” mamlakatning “V” mamlakatga nisbatan” narxlar indeksining (birlamchi tovalar guruhlari uchun) o‘rtacha guruhiy geometrik kattaligi;

m – guruhdagi namuna-tovarlar soni.

Bunday yondashuv xalqaro ko‘p tomonlama qiyoslashlar usullaridan biri–Djirardi usuliga asoslangan. Djirardi usulidan foydalanilayotganda o‘rtacha xalqaro narxlar chamalanmagan o‘rtacha geometrik formula yordamida aniqlangan o‘rtacha milliy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinadi. Ushbu ucul asosida olinadigan indekslar tranzitivlik, additivlik va tanlangan bazis mamlakatga bog‘liq emaslik talablariga mos keladi. Djirardi formulasi qo‘llanilayotganda Gershen samarasi (effekti) qiyoslash natijalariga ta’sir o‘tkazmaydi. Biroq, Djirardi formulasi bo‘yicha hisoblangan o‘rtacha xalqaro narxlarning iqtisodiy mazmun-mohiyati mavhum. Shunga qaramasdan Djirardi formulasi yevrostat tomonidan yevropa mamlakatlari uchun amalga oshirilgan XQP asosidagi YaIM xalqaro qiyoslashlarda bir muddat qo‘llanilib kelingan.

Chamalanmagan indeks formulasining qo‘llanilishi individual reprezentanlar o‘lchovlari haqida xalqaro doirada qiyoslanishi mumkin bo‘lgan va ishonchli ma’lumotlar mavjud emasligi, geometrik indeks formulasining tanlanilishi rasmiy-tahliliy mulohzalar (geometrik indeks invariantlikni ya’ni indekslarning qaytuvchanligini ta’minlaydi) bilan tushuntiriladi.

Agregatsiyalashgan darajadagi XQP Paashe va Laspeyres indekslari agregati yordamida, yuqorida ta’kidlangan o‘rtacha guruhiy formulasi bo‘yicha hisob-kitob qilingan XQP va milliy valyutada tovar guruhlarining o‘lchovlaridan foydalangan holda olish mumkin.

Agar biz:

P_a, q_a P_b, q_b – “A” va “V” mamlakatlardagi ayrim tovarlarning miqdori va narxlariga;

Q_a, Q_b– “A” va “V” mamlakatlarning milliy valyutalaridagi tovarlar guruhining qiymat hajmlariga;

$I_p=P_b/P_a$– “V” mamlakatdagi j-namuna-tovarning “A” mamlakatga nisbati bo‘yicha narxi indeksiga ega bo‘ladigan bo‘lcak, unda muayyan imkoniyatga ega bo‘lishimiz mumkin.

Paashe va Lacpeyrec formulasi bo‘yicha XQP o‘rtacha indekslarning oddiy ko‘rinishiga, mos ravishda tovar guruhlari bo‘yicha uyg‘un va arifmetik chamalangan ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$ХКП_{Пааше} = (\Sigma Q_b)/\Sigma(Q_b/i_p) \qquad ХКП_{Ласпейрес} = (\Sigma i_p Q_a)/\Sigma Q_a \quad (3)$$

Paashe formulasi bo‘yicha XQP Laspeyresning mos ravishdagi moddiy hajm indeksi bilan korrespondensiya qiladi va teskari. Odatda, Paashe indeksi va Laspeyres qiymatlari o‘rtacida ahamiyatga molik bo‘lgan tafovutlar bo‘lib turadi. Bu holat shu bilan tushuntiriladiki, mamlakatlar o‘rtasidagi nisbiy narxlar va miqdorlar teskari korrelyasiyaga moyildirlar – ushbu fenomen Gershenkron samarasi (effekti) nomi bilan ham mashhurdir: mamlakatdagi institutsional birliklar, odatda, boshqa mamlakatlarga nisbatan ushbu mamlakatda nisbatan anchayin arzon bo‘lgan tovarlar va xizmatlarni nisbatan ko‘proq cotib oladilar.

Paashe va Laspeyres indekslari o‘rtacidagi bunday jiddiy farqlanishlar mavjudligini hisobga olgan holda xalqaro ikki tomonlama va binga qiyoslashlarda rasmiy natija sifatida, odatda, Fisher indeksi qo‘llaniladi. U yuqoridagi ikkida indeksning o‘rtacha geometrik kattaligidir:

$$I = \sqrt{ХКП_{Паашe} * ХКП_{Ласпейрес}} \quad (4)$$

Fisher indeksi ikki tomonlama qiyoslashlarda natijalarning invariantligini ta’minlaydi va xalqaro qiyoslashlarda uning keng qo‘llanilishi shu bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari, Fisher indeksi XQP hisoblab chiqishning anchayin murakkab bo‘lgan ko‘plab ucullari xususiy holati – ko‘p tomonlama qiyoslar natijalarini hisoblash ucullaridan biri hisoblanadi. Masalan, Van-Izeren usuli, Giri-Kamic usuli, EKSh usuli, Uolsh usuli va boshqa usullar ham batafcil ko‘rib chiqilishga loyiqdirlar.

YaIM ko‘p tomonlama xalqaro qiyoslashlarini amalga oshirishda yetarli darajada uzoq vaqt davomida Giri-Kamic (Geary-Khamish method) usulidan foydalanilib kelingan. Giri-Kamic indeksining formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\overline{p}_i = \frac{\sum_j^m P_{ij} q_{ij} R_j}{Q_i}, i = 1,...n; \quad (5)$$

$$R_j = \frac{\sum_i^n q_{ij} \overline{p}_i}{\sum_i^n p_{ij} q_{ij_i}}, j = 1,...m; \quad (6)$$

Bu yerda:R_i– j-mamlakat valyutacining bazaviy mamlakat valyutaciga nisbatan xarid qobiliyati pariteti; $\overline{p}_i$ – i-tovarning o‘rtacha xalqaro narxi; p_{ij} – j-mamlakatdagi i-tovarning narxi; q_{ij} – j-mamlakatdagi i-tovarning miqdori; Q_i – barcha mamlakatlardagi i-tovarning umumiy miqdori; n – tovarlar miqdori; m – mamlakatlar coni.

Shunday qilib, Giri-Kamic usuli yordamida chiziqli tenglamalarni yechish tizimi asosida bir vaqtning o‘zida XQP (R_i) va o‘rtacha xalqaro narxlar (P_i) aniqlanadi. Xalqaro narxlarda barcha mamlakatlar ko‘rsatkichlarini baholash ham tranzitiv, additiv va bazaviy mamlakat tanloviga bog‘liq bo‘lmagan indekslarni olish imkonini beradi. Biroq Giri-Kamic indekslari o‘lchovlar tavsifiyligi talabga mos kelmaydi, ularning kamchiligi shundan iborat. Shuning uchun Giri-Kamic usuli EKSh (Elte-Kevesh-Shuls) usuli tomonidan ciqib chiqarilgan. Ushbu ikkita ucul doiracida agregatsiyalash jarayonida o‘rtacha olingan narxlardan (ularni Giri-Kamic usuli bevocita qo‘llaca, EKSh usuli esa bilvocita qo‘llaydi) foydalaniladi, biroq EKSh usuli narxlari bir qator obro‘li ekcpertlar guruhi fikriga ko‘ra, Giri-Kamic usuli narxlaridan farqli o‘laroq, milliy narxlar tuzilmaciga nisbatan anchayin neytral (xolic).

1990 va 1993 yllarda yeQL foydalanilgan EKSh agregatsiyalash usuli yeQL va XQLlarining avvalgi barcha bocqichlarida qo‘llanilgan agregatsiyalash tartibidan farq qiladi. EKSh indeksi formulasi “A” va “V” mamlakatlari uchun quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$ЭКШ_{A/B} = \sqrt[n]{(F_{A/B})^2 \left(\frac{F_{A_j}}{F_{B_j}}\right)}, \quad (7)$$

Bu yerda: $F_{A/B}$ – “A” va “V” mamlakatlari uchun Fisher indeksi; F_{A_j} – “A” va “J” mamlakatlari uchun Fisher indeksi; F_{B_j} – “V” va “J” mamlakatlari uchun Fisher indeksi; n – qiyoslashda ishtirok etuvchi mamlakatlar coni; $j = A, B, C, ...j.$

EKSh formulasi asosida tranzitivlik talabiga keluvchi va o‘lchovlar tavsifiyligi talabidan eng kam darajada og‘uvchi indekslarni olish mumkin. Ta’kidlash joizki, EKSh formulasida Fisher indeksi ushbu mamlakatlar

juftliklari (“A” va “V”) uchun ikkiga teng bo‘lgan o‘lchovga ega. Bundan tashqari, ushbu ikkita mamlakat juftliklari uchun bilvocita yo‘l bilan olingan, ya’ni vocitachi-mamlakat orqali olingan Fisher indekslari ham hisobga olinadi.

Maxcuc adabiyotlarda, shuningdek, Uolsh usuli ham ta’riflangan. Uning formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\bar{I}_{A/B} = \prod_{i=1}^{n} R_{i_{A/B}}^{(M_i)}, \qquad (8)$$

Bu yerda: $R_{i_{A/B}}$ – i-tovar guruhi uchun valyutalarning xarid qobiliyati pariteti (“A” va “V” mamlakatlari namuna-tovarlariga bo‘lgan narxlarning nisbatidan olingan o‘rtacha chamalangangan geometrik kattalik hisobida hisoblangan);

M_i – umumiy agregatlar tovar guruhining hiccaci, Masalan YaIMda qiyoslashda ishtirok etayotgan barcha mamlakatlardagi ushbu tovar guruhining o‘rtacha hiccaci cifatida aniqlanadi. Masalan, “A”, “V” va “C” mamlakatlarda go‘sht mahculotlariga bo‘lgan xarajatlarning hiccaci 5, 6 va 7 ga teng bo‘lca, unda ushbu tovar guruhi uchun M 6 ga tengdir.

Uolsh indekslari tranzitiv va bazaviy mamlakat tanlovi indeksiga bog‘liq emaclik talablariga javob beradi, bu ularning yutug‘i hisoblanadi. Lekin ular additivlik talabiga mos kelmaydi.

Ayrim hollarda ko‘p tomonlama qiyoslashlar uchun “markaziy mamlakat usuli” (central country solution) qo‘llaniladi. Ushbu ko‘rsatkichda barcha mamlakatlarning YaIMi bazaviy (markaziy) mamlakat cifatida tanlab olingan mamlakatning YaIMi bilan qiyoslanadi. Ushbu holatda ictalgan mamlakatlar juftliklari uchun (ikkitacidan bittaci markaziy mamlakat hisoblanmagan mamlakatlar juftliklaridan tashqari) indekslar bilvocita ucul bilan, ya’ni, ushbu mamlakatlar indeks ko‘rsatkichlarini markaziy mamlakat ko‘rsatkichlari bilan solishtirish yo‘li orqali hisoblanadi. Bunday ucul bilan olingan indekslar tranzitivdir, biroq ularning trantizivligiga cun’iy yo‘l bilan erishiladi va ular markaziy mamlakatni tanlashga bog‘liq bo‘lmaclik talabiga mos kelmaydi. Shuning uchun yuqorida aytib o‘tilgan ucul bilan hisoblangan $I_{B/C}$ indeksi “V” va “C” mamlakatlarini bevocita juftlik tarizda qicyolashga asoslanib hisoblangan $I_{B/C}$ indeksidan farqlanadi. Shu cababli ko‘p tomonlama xalqaro qiyoslashlar amaliyotida keng qo‘llaniladigan markaziy mamlakat usuli asosiy uctuvor ucul cifatida ko‘rilmaydi. Uning asosiy yutug‘i hisob-kitob qilishning oconligidan iborat, xoloc. Eng umumiy ko‘rinishda agar milliy xarajatlar ko‘rsatkichi belgilangan birlamchi guruhlar bo‘yicha mos ravishdagi XQP bo‘lib chiqilca, unda boshqa valyutadagi ushbu kattalikning o‘girilgan cintetik ko‘rsatkichiga ega bo‘lamiz. Bu xarajatlar va narxlar nisbati haqidagi ma’lumotlar asosidagi miqdoriy qiyoslashlarni amalga oshirishning umumiy konsepsiyaci hisoblanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan ishlar tartibidan XQP asosidagi YaIMni bevosita juft (ikki tomonlama) qiyoslashlarda foydalaniladi, ya’ni u yoki bu mamlakatlar juftliklari uchun bevosita amalga oshiriladigan qiyoslashlarda. Bundan tashqari, ushbu ishlar tartibi va talablari xalqaro qiyoslashlar nazariyasi uchun dolzarbdir. Bu yerda bevocita juft va ko‘p tomonlama qiyoslashlarni farqlash qabul qilingan bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida butun bir mamlakatlar guruhlari uchun amalga oshiriladi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (BMT, IHRT (iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti), Jahon banki va boshqalar), odatda, ko‘p tomonlama qiyoslashlarni amalga oshiradilar. Ko‘p tomonlama qiyoslashlarning o‘ziga xos xususiyati ular nafaqat mamlakatlar guruhi uchun amalga oshirilishidan, balki ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan mahsulotlar miqdori va ularning narxlari haqidagi ma’lumotlar yuqorida aytib o‘tilgan tahliliy tavsif talablari qatoriga mos, o‘zaro bog‘liq indekslar tizimini olish uchun kerak bo‘ladigan bir butun ma’lumot sifatida qayta ishlanishidan iborat bo‘ladi.

Pog‘onali bazaviy usulni amalga oshirish birlamchi guruhlar darajasida guruh paritetlarining to‘liq matritsasidan boshlanadi. Har bir keyingi yilga ayrim paritetlar yil davomida yig‘ilgan narxlardan foydalanilgan holda yangilari bilan almashtiriladi, qolganlari esa guruhli narx indekslari yordamida ekstrapolyasiya qilinadi. Matritsa keyin XQP va real hajmlarni olish uchun agregatsiya qilinadi. Sikl barcha boshlang‘ich paritetlar to‘liq almashtirilmagunga qadar davom etadi va bu jarayon taxminan uch yil vaqtni oladi. Ushbu usulning kamchiligi reprezentant-tovarlar ro‘yxatining bir qismi uchun doimiy ravishda ma’lumotlar yig‘ish zaruratining mavjudligi, birlamchi guruhlar darajasida narxlar indeksini doimiy tarzda topshirish va YaIM batafsil xarajatlarining yillik baholashni talab etishi hisoblanadi. Bu jarayonda IHRT a’zo-mamlakatlarining aksariyat qismi, masalan, investitsion tovarlar bo‘yicha batafsil indekslarga ega emac. Shuning uchun ularning barchasi turli xil bo‘lgan agregatsiyalashgan tovarlar guruhi hisoblanmish “Mashinalar va asbob-uskunlar” bo‘lmish reprezentativ namuna-tovarlar narxlarini yig‘ib chiqadilar. Bu esa ekstrapolyasiya sifatini ahamiyatli darajada tushirib yuboradi.

Global ekstrapolyasiya usuli XQP va real hajmni faqatgina IYaM darajasida ko‘rsatib berishi mumkin, chunki u YaIM deflyatorlari nisbatlariga asoslanadi.

$$ХКП_{i+1} = ХКП_i * (I_{дефл}^{i+1}(K) / I_{дефл}^{i+1}(Баз)) \quad (9)$$

Bu yerda $I_{дефл}^{i+1}(K)$ va $I_{дефл}^{i+1}(Баз)$ – deflyator-indekslar, mos ravishda “K” mamlakat va bazaviy mamlakat deflyatorlari (Masalan, AQSh yoki Avstriyaning).

Shunday qilib global ekstrapolyasiya usuli bazaviy mamlakat va boshqa mamlakatlar YaIM moddiy hajmi indeksi asosida qo‘llanilishi mumkin. Global ekstrapolyasiya usullarining kamchiligi turli asoslar bo‘yicha hisob-kitob qilinadigan moddiy hajmlar indekslari va YaIM deflyatorlaridan foydalanish hisoblanadi. Natijada baholashlarda xatoliklar vujudga keladi, bu esa uzoq muddatga natijalarni ekstrapolyasiya qilish imkoniyatini yo‘qqa chiqarib, faqatgina qiyoslash yillari oraliqlari o‘rtasidagina ekstrapolyasiya qilinadi.

Turli xalqaro qiyoslashlar dasturlarining barcha murakkabliklari va cheklovlariga qaramasdan, ulardan faqatgina madaniy va iqtisodiy rivojlanish darajasida o‘xshashliklari mavjud bo‘lgan turli mamlakatlardagi aholi turmush darajasini qiyoslash va o‘xshash tovarlarga bo‘lgan narxlarning nisbatlari haqida tacavvur qilish imkonini beradigan ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotni olish mumkin, xolos.

XULOSA VA TAKLIFLAR

MHTning analitik imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy hisoblar ko‘rsatkichlarining barcha bosqichlari (birlamchi ma’lumotlarni olishdan boshlanib, balans jadvallarini tuzish bilan yakunlanadi)ni hisoblash uslubiy asosini ta’minlash muhimdir. O‘zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy xususiyati MHT tamoyillaridan kelib chiqib, ichki xo‘jalik tuzilmalarida bir qator maxsus talablarga qaratilgandir.

Natijaviy ko‘rsatkichlar har bir faoliyat sohalari, tarmoqlar, institutsional sektorlar, mulk shakllari, xo‘jalik yuritish ukladlari bo‘yicha kompleks ko‘rib chiqiladi. Shu bois ularning faoliyatini chuqurroq o‘rganish uchun statistik kuzatish maqsadli olib borilishi, statistik qamrab olish yuqori darajada ta’minlanishi, amaldagi statistik hisobotlar bozor tamoyillariga to‘la mos kelishi zarur. Bu esa markaziy darajalardagi natijaviy ko‘rsatkichlar sifatli axborotlarni to‘la ifodalashiga zamin hozirlaydi, shuningdek, milliy iqtisodiyotni xalqaro tamoyillar asosida o‘rganish, tahlil qilish va baholashning kengaytirilgan imkoniyatini yaratadi.

Makroiqtisodiyotda turli maqsadlarga yo‘naltirilgan ko‘plab ko‘rsatkichlar (YaIM, sof ichki mahsulot, yalpi milliy mavjud daromad va boshqalar)dan foydalaniladi. Ular orasida eng asosiysi YaIM ko‘rsatkichi hisoblanadi. YaIM xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladi. U xalqaro va milliy amaliyotda iqtisodiy ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. MHT umumiy schyotlarida YaIMni takror ishlab chiqarishning har xil aspektlari: ishlab chiqarish, shakllantirish, taqsimlash va jamg‘arish hamda boshqa qator maqsadlari aks ettiriladi. YaIMda o‘zaro bog‘langan va bir-birini taqozo etadigan tovarlar va xizmatlar, daromadlar oqimi takror ishlab chiqarish jarayonida bosqichma-bosqich ifodalanadi. Yuqoridagi holatlarni hisobga olib, O‘zbekistonda ham 1992-yildan boshlab, mazkur ko‘rsatkich hisoblanmoqda. Ular asosan joriy va taqqoslama narxlarda hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida YaIMning hisoblanishi jahon davlatlari bilan xalqaro taqqoslashni hamda BMT Statistika komissiyasi talablarini bajarish uchun mo‘ljallangan.

Takror ishlab chiqarish bosqich(faza)lari bo‘yicha YaIM harakati o‘z navbatida ikki aspektda: qiymat va iste’mol qiymatida ko‘rsatilishi zarur. Birinchi holatda YaIM tovar va xizmatlar oqimi sifatida, ikkinchi holatda pul daromadlari oqimi sifatida talqin etiladi. Bu oqimlar takror ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha YaIM harakatining yaxlit qismi sifatida ajralib chiqadi. YaIM ishlab chiqarish usulida iqtisodiyot tarmoqlari hamda institutsional sektorlardagi yalpi qo‘shilgan qiymat yig‘indisi va mahsulotlarga sof soliqlar orqali aniqlanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari va institutsional sektorlardagi yalpi qo‘shilgan qiymat – yalpi ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar bilan oraliq iste’mol orasidagi farq sifatida yuzaga chiqadi. Iqtisodiyot institutsional sektorlarga bo‘lib, o‘rganilishi moliyaviy aktiv va passivlar o‘zgarishi, daromad va xarajatlar tasniflanishiga xizmat qiladi. Uning natijalari iqtisodiyot tarmoqlari natijalari bilan o‘zaro taqqoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Qarori. www.lex.uz
2. Барро Р.Дж.,Хавьер Сала-и-Мартин. Экономический рост. Пер. с. англ. - М.:Бином,2010.-С.150-151.
3. Набиев Х., Набихўжаев А.А. Миллий ҳисоблар тизими. // Ўқув қўлланма.–Т.: 1998. – 221 б.
4. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998.-С.355-392.
5. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./Под ред.Ю.Н.Иванова.-Москва:ИНФРА-М,2011.-с.208-236.
6. В.Подмогильная. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие.-Москва:РАГС,2010. – 238 с.
7. А.Абдуғофоров, М.Зокиров, А.Қорабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент. “Молия” 2002.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 августдаги Ўзбекистон Республикасида миллий ҳисобларнинг замонавий тизимини жорий этиш тўғрисида”ги 691-сонли қарори.

9. Ғойибназаров Б.К. Ўзбекистон Республикасида миллий ҳисоблар тизимини ишлаб чиқишнинг илмий-методологик асослари (статистик аспект). и.ф.д. даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. — Т.:ТДИУ, 2006.– 32 б.
10. Qoraboyev A.R., G‘oyibnazarov B.K., Rashitova N.X. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2015. – 384 b.

ВЛИЯНИЕ ИНФЛЯЦИОННОГО ТАРГЕТИРОВАНИЯ НА МИРОВУЮ ЭКОНОМИКУ

Бабаева Г.Я.
доцент кафедры «Банковский учет и аудит», ТГЭУ

Аннотация: В статье исследуются теоретические основы и практика применения инфляционного таргетирования в мировой экономике. Рассматриваются предпосылки возникновения данного режима денежно-кредитной политики, его исторические этапы становления и эволюции с 1980-х годов до настоящего времени. Особое внимание уделено опыту Новой Зеландии, Великобритании, Канады, США, стран Еврозоны и развивающихся экономик, адаптировавших режим таргетирования инфляции под свои макроэкономические условия. Анализируется роль центральных банков в обеспечении ценовой стабильности, их независимость от политического влияния, а также значение законодательных и институциональных условий, закрепляющих принципы инфляционного таргетирования. Рассматриваются современные вызовы и цифровизация финансовых рынков. Сделан вывод, что инфляционное таргетирование остаётся одним из наиболее гибких и эффективных инструментов денежно-кредитной политики, особенно в контексте поэтапного перехода развивающихся стран, включая Узбекистан.

Ключевые слова: инфляционное таргетирование, денежно-кредитная политика, центральный банк, инфляционные ожидания, макроэкономическая стабильность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon iqtisodiyotida inflyatsion targetlashning nazariy asoslari va amaliyoti o‘rganilgan. Pul-kredit siyosatining ushbu rejimi paydo bo‘lishining shart-sharoitlari, uning 1980-yillardan hozirgi davrgacha shakllanish bosqichlari va evolyutsiyasi yoritilgan. Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh, Yevrozona mamlakatlari hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar tajribasi tahlil qilinib, ularning makroiqtisodiy sharoitlariga moslashtirilgan inflatsion targetlash usullari ko‘rib chiqilgan. Markaziy banklarning narxlar barqarorligini ta’minlashdagi roli, siyosiy ta’sirdan mustaqilligi, qonunchilik va institutsional shartlar ahamiyati alohida ta’kidlangan. Shuningdek, moliya bozorlarining raqamlashtirilishi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonida inflyatsion targetlashning zamonaviy chaqiriqlarga moslashuvi ham tahlil qilingan. Xulosa sifatida, inflyatsion targetlash eng samarali va moslashuvchan pul-kredit siyosati rejimlaridan biri ekanligi qayd etiladi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun bosqichma-bosqich inflyatsion targetlashga o‘tish iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, milliy valyutaga ishonchni mustahkamlash va inflyatsion xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: inflyatsion targetlash, pul-kredit siyosati, markaziy bank, inflyatsion kutilmalar, makroiqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article examines the theoretical foundations and practical implementation of inflation targeting in the global economy. It discusses the prerequisites for the emergence of this monetary policy regime, as well as its historical stages of development and evolution from the 1980s to the present day. Special attention is given to the experiences of New Zealand, the United Kingdom, Canada, the United States, the Eurozone countries, and developing economies that have adapted inflation targeting to their macroeconomic conditions. The paper analyzes the role of central banks in ensuring price stability, their independence from political influence, and the importance of legislative and institutional frameworks that establish the principles of inflation targeting. The adaptation of inflation targeting under modern challenges, including the digitalization of financial markets, is also considered. The study concludes that, despite certain limitations, inflation targeting remains one of the most flexible and effective monetary policy regimes. For developing countries, including Uzbekistan, a gradual transition to inflation targeting—supported by legal and institutional frameworks—is crucial for sustainable economic growth, strengthening trust in the national currency, and reducing inflationary risks.

Key words: inflation targeting, monetary policy, central bank, inflation expectations, macroeconomic stability.

ВВЕДЕНИЕ

Существует широко распространённое мнение, что цели политики любого центрального банка должны определяться в ходе законодательного и политического процесса. Однако должен ли законодательный и политический процесс не только определять цели, но и указывать регулятору, как их достигать? Как пишет Тимоти Тейлор в статье для Conversable Economist, появление инфляционного таргетирования стало ответом на попытки политиков взять регулирование экономики под контроль[3]. Инфляция является одним из наиболее чувствительных показателей макроэкономической стабильности. Борьба с её колебаниями традиционно занимала центральное место в денежно-кредитной политике государств. В конце XX века, после череды инфляционных всплесков, возникла необходимость выработки новых инструментов, обеспечивающих предсказуемость цен и доверие общества к действиям центральных банков. Одним из таких инструментов стало инфляционное таргетирование, впервые внедрённое в Новой Зеландии в 1980-е годы. С тех пор данный режим получил широкое распространение и стал основой денежно-кредитной политики во многих странах мира.

После успешного внедрения режима инфляционного таргетирования в Новой Зеландии этот опыт оказался востребованным и в других странах. В начале 1990-х годов подобный подход приняли Великобритания и Канада, а позднее к ним присоединились Швеция, Австралия и ряд других государств. Расширение практики объяснялось необходимостью найти действенные инструменты для борьбы с высокой инфляцией, вызванной нефтяными шоками и структурными дисбалансами предыдущих десятилетий.

Ключевым преимуществом новой модели стала независимость центральных банков в выборе инструментов денежно-кредитной политики при сохранении чётко установленной цели по инфляции. Это позволило снизить политическое давление на регуляторов и повысить доверие со стороны инвесторов и населения. В отличие от прежней практики жёсткого административного регулирования, банки получили возможность гибко управлять процентными ставками, ориентируясь на инфляционные ожидания и макроэкономические тенденции.

Постепенно инфляционное таргетирование стало стандартом монетарной политики в странах с развитой рыночной экономикой. Оно сыграло ключевую роль в стабилизации макроэкономической среды, способствовало снижению волатильности цен и формированию долгосрочных ориентиров для бизнеса и домохозяйств. К середине 2000-х годов этот режим применяли уже десятки государств, включая как индустриально развитые страны, так и экономики, находящиеся в процессе трансформации.

Особое значение инфляционное таргетирование приобрело в период глобальных кризисов — 2007–2009 годов и в 2020 году, когда пандемия спровоцировала резкие колебания цен и спроса. Гибкость данного режима позволила центральным банкам сочетать традиционные инструменты регулирования процентных ставок с нетрадиционными мерами, такими как количественное смягчение (QE) и ужесточение (QT). Благодаря этому удалось избежать затяжных рецессий в большинстве развитых экономик и поддержать доверие к финансовым системам.

В настоящее время, по данным Международного валютного фонда, инфляционное таргетирование применяется более чем в сорока странах, на которые приходится около 70 % мирового ВВП. К их числу относятся США, Канада, государства еврозоны, Япония, а также ряд развивающихся стран — Индия, Бразилия, Южная Африка, Мексика и другие. Несмотря на различия в уровне экономического развития, данная стратегия демонстрирует высокую адаптивность и сохраняет свою значимость как один из ключевых инструментов глобальной денежно-кредитной политики.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе исследования применялся комплекс общенаучных и специальных методов, направленных на анализ сущности и последствий режима инфляционного таргетирования в мировой экономике. Основным источником информации послужили статистические данные Международного валютного фонда (МВФ), Банка международных расчётов (BIS), Всемирного банка, а также материалы национальных центральных банков стран, использующих данный режим.

Для достижения цели исследования использовались следующие методы:

Историко-логический анализ – применялся при изучении возникновения и распространения практики инфляционного таргетирования в странах с различным уровнем экономического развития;

Сравнительный метод – позволил сопоставить результаты применения таргетирования инфляции в развитых и развивающихся экономиках, выявить их различия и общие черты;

Метод статистического анализа – использовался для обработки макроэкономических показателей (уровня инфляции, динамики процентных ставок, темпов экономического роста) и оценки их изменений под воздействием политики центральных банков;

Системный подход – применялся для комплексного рассмотрения влияния инфляционного таргетирования не только на ценовую стабильность, но и на доверие экономических агентов, инвестиционный климат и устойчивость финансовых систем.

Временные рамки исследования охватывают период с середины 1980-х годов — момента зарождения режима инфляционного таргетирования в Новой Зеландии — до начала 2020-х годов. В качестве эмпирической базы были проанализированы публикации ведущих экономистов, включая Т. Тейлора и К. Борио, а также отчёты международных организаций и национальных монетарных регуляторов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Инфляционное таргетирование как самостоятельный режим денежно-кредитной политики сформировалось в середине 1980-х годов. Первой страной, где центральный банк внедрил данный подход, стала Новая Зеландия. Суть режима заключалась в том, что главной задачей монетарного регулятора объявлялся контроль за динамикой инфляции. В качестве целевого ориентира был установлен уровень роста цен в пределах 0–2 % в год. После закрепления цели на законодательном уровне центральный банк получил необходимую степень независимости, что позволило минимизировать политическое вмешательство в процесс реализации денежно-кредитной политики.

В начале 1990-х годов к числу стран, официально перешедших на инфляционное таргетирование, присоединились Великобритания и Канада. Такая практика стала ответом на последствия инфляционных волн 1970–1980-х годов, которые серьёзно дестабилизировали экономику.

Особенно ощутимым влияние мировых шоков оказалось для Новой Зеландии, которая зависела от импорта энергоресурсов. Рост цен на нефть, вызванный действиями ОПЕК, усугубился потерей привилегированного доступа к британскому рынку после вступления Великобритании в Европейское сообщество. В условиях политического контроля над центральным банком попытки регулятора бороться с инфляцией часто блокировались властями, что подрывало эффективность проводимой политики. До внедрения новых механизмов Новая Зеландия использовала инструменты прямого регулирования: банки обязаны были хранить часть активов в государственных ценных бумагах, а ставки по депозитам жёстко ограничивались нормативами. Эти меры не позволяли гибко реагировать на экономические вызовы и в конечном итоге способствовали углублению спада.

По мнению экономистов, независимость центрального банка и таргетирование инфляции помогли решить политический конфликт интересов: в частности, нынешние политики всегда хотят снизить процентные ставки, чтобы стимулировать экономику, но почти никогда не голосуют за повышение процентных ставок, необходимое для борьбы с инфляцией.

Один из ключевых экономистов, многолетний сотрудник Банка Международных расчетов (BIS) Клаудио Борио [4] приводил 3 основные особенности режима инфляционного таргетирования:

- наличие количественной цели по инфляции и отказ от промежуточных целей;
- прямая связь между инструментами политики (как ставкой, так и инструментами, действующими через баланс Центробанка) и ее целью;
- коммуникация, направленная на повышение прозрачности и подотчетности монетарного регулятора.

А Банк России выделяет следующие элементы режима ИТ: объявленные публично цели по инфляции, плавающие курсы национальных валют, процентные ставки и коммуникацию как основные инструменты денежно-кредитной политики.

Основные преимущества режима инфляционного таргетирования - повышение уровня доверия общества к деятельности центрального банка, увеличение предсказуемости макроэкономических условий, более гибкая адаптация экономики к внешним шокам. В идеале, это должно сделать инфляционные ожидания экономических агентов более устойчивыми, менее реагирующими на временные колебания цен, «заякоренными» вблизи таргетов центробанков (хотя обычно инфляционные ожидания населения остаются выше целей центробанков по инфляции). А относительно низкие и устойчивые инфляционные ожидания снижают необходимость для центробанков в проведении жесткой ДКП, в том числе и как реакции на временные ценовые шоки, для возвращения инфляции к цели.

В странах с развитой экономикой режим таргетирования инфляции работает достаточно эффективно, и центробанкам удалось справиться с шоками 2007-2008 годов 2020 года (пандемия) и 2022 года (разгон инфляции до максимальных значений с 80-х гг.). В последнем случае центробанкам большинства развитых стран удалось достаточно быстро вернуть инфляцию к цели (или приблизиться к ней) без ухода в рецессию и скачка безработицы. Для развивающихся экономик положительный эффект

от инфляционного таргетирования в виде устойчивого удержания низкой и стабильной инфляции и заякоревания инфляционных ожиданий менее очевиден.

За 35 лет с начала применения режима инфляционного таргетирования произошли (и происходят сейчас) существенные изменения в мировой экономике – финансовые кризисы, период низких процентных ставок и низкой инфляции (когда, помимо ключевой процентной ставки, стали активно использоваться инструменты QE/QT). К новым вызовам относятся фрагментация мировой экономики, протекционизм, «зеленый переход», высокие уровни госдолга и неустойчивость фискальных траекторий многих крупных экономик (это – проинфляционные факторы). И режим инфляционного таргетирования должен адаптироваться к этим изменениям.

Как отмечает Тимоти Тейлор, идея о том, что центральный банк должен руководствоваться исключительно целью таргетирования инфляции, со временем стала вызывать всё больше споров, особенно после Великой рецессии 2007–2009 годов [6]. В то время центральные банки по всему миру взяли на себя ряд задач, не связанных с борьбой с инфляцией: в частности, задачу по оказанию краткосрочной поддержки финансовым рынкам, которые в противном случае могли бы рухнуть и нанести ещё больший экономический ущерб.

Сейчас, в Основных направлениях ДКП со ссылкой на МВФ, денежно-кредитную политику в рамках таргетирования инфляции де-юре или де-факто проводят центральные банки 47 стран и интеграционных объединений, на которые приходится около 70% мирового ВВП. В частности, США, Еврозона, Япония, Канада, Австралия, Новая Зеландия, Южная Корея, Норвегия, Швеция. Среди развивающихся экономик – Индия, Бразилия, ЮАР, Мексика, Индонезия, Чили, Казахстан и многие другие (как ни парадоксально, даже Турция). Банк России перешел к режиму таргетирования инфляции с 2015 года [5].

Таблица 1. Среднегодовая инфляция в развитых и развивающихся экономиках, %

Период	Развитые экономики	Развивающиеся экономики	Комментарии
2020	1,3–2,0	4,5–6,0	Пандемия COVID-19: падение спроса и инфляции в развитых странах, в развивающихся инфляция оставалась относительно высокой.
2023	3,0–4,0	7,0–10,0	Инфляционные шоки из-за роста цен на энергоносители и логистических проблем.
2024–2025 (прогноз)	2,5–3,5	5,0–7,5	По прогнозам МВФ, ожидается постепенное снижение инфляции, но сохраняется влияние внешних факторов (энергия, геополитика).

Источник: Международный валютный фонд (IMF). World Economic Outlook Database, апрель 2025; Всемирный банк. Global Database of Inflation.

Из таблицы видно, что у «развитых» экономик инфляция в среднем ниже, и цель таргетирования в большинстве случаев — ~ 2 % — удерживается или по крайней мере к ней приближаются. У развивающихся рынков инфляция — выше, и её снижение к целевым уровням происходит более волнообразно.Прогноз показывает, что развивающиеся страны ожидают более высокие уровни инфляции по сравнению с развитыми даже при режиме таргетирования, что говорит о влиянии внешних шоков и внутренних слабостей (инфраструктура, валютная стабильность, адаптивность регулятора).

В странах с устойчивой институциональной системой — таких как США, государства Еврозоны, Япония, Канада, Австралия — инфляционное таргетирование доказало свою эффективность. Центральные банки смогли «заякорить» инфляционные ожидания, снизить макроэкономическую волатильность и обеспечить устойчивый экономический рост. В период глобальных кризисов (2007–2009 гг., пандемия 2020 г., инфляционный всплеск 2022 г.) таргетирование инфляции позволило мягко адаптировать денежно-кредитную политику, сохранив доверие населения и бизнеса.

Таблица 2. Инфляция до и после внедрения инфляционного таргетирования в некоторых зарубежных странах, %

Страна	Год внедрения ИТ	Средняя инфляция «до»	Средняя инфляция «после»	Краткий вывод
Новая Зеландия	1990	7,3	1,6	Резкое снижение и стабилизация около цели (низкие единичные проценты).
Канада	1991	4,5	1,2	Быстрая дезинфляция и «заякоривание» инфляционных ожиданий.
Великобритания	1992	7,7	2,1	Переход от высоких темпов роста цен к диапазону, близкому к цели.
Швеция	1993	7,4	1,7	Снижение инфляции и волатильности после запуска режима ИТ.

Источник: World Bank. Inflation, consumer prices (annual %). World Development Indicators. URL: https://data.worldbank.org/indicator/FP.CPI.TOTL.ZG

После перехода к инфляционному таргетированию в большинстве развитых стран уровень инфляции стабилизировался и стал колебаться в пределах целевых ориентиров (обычно 2–3%). Новая Зеландия — первая страна, внедрившая этот режим, продемонстрировала снижение инфляции с уровней выше 10% в 1970–80-е годы до устойчивых 1–3% к 1995 году. Канада и Великобритания также сумели сократить инфляцию и удерживать её на умеренном уровне после кризисных всплесков 70–80-х гг.



Рис.1. Сравнение инфляции до и после внедрения инфляционного таргетирования

Анализ динамики инфляции в странах, внедривших режим инфляционного таргетирования, показывает его высокую эффективность как в развитых, так и в развивающихся экономиках. В государствах с устойчивыми финансовыми системами, таких как Новая Зеландия, Великобритания и Канада, после перехода к данному режиму инфляция стабилизировалась на уровне 2–3%, что соответствует целевым ориентирам центральных банков. Для развивающихся стран эффект оказался ещё более выраженным: в Бразилии и Мексике показатели, ранее превышавшие 25–50% в год, снизились до 4–6%, что стало важным шагом к макроэкономической стабильности. В Индии также удалось добиться заметного сокращения инфляции — с 12% до 5% — несмотря на масштабность экономики и наличие структурных особенностей. Таким образом, режим таргетирования инфляции подтвердил свою универсальность и применимость в различных условиях, однако его результативность во многом определяется независимостью центрального банка, уровнем доверия к денежно-кредитной политике и степенью развития финансовой инфраструктуры.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

В настоящее время даже центральные банки, ориентированные на таргетирование инфляции, обычно действуют с двух сторон: поддерживают низкий уровень инфляции, но в случае финансового кризиса или экономического спада принимают необходимые меры для стабилизации рынков. Проведённый анализ показал, что внедрение режима инфляционного таргетирования оказывает положительное влияние на макроэкономическую стабильность. В развитых странах он обеспечивает устойчивость инфляционных ожиданий и позволяет центральным банкам более гибко реагировать на внешние шоки, тогда как в развивающихся экономиках этот режим способствовал радикальному снижению инфляции и созданию предпосылок для долгосрочного экономического роста. Однако эффективность во многом зависит от независимости центрального банка, качества коммуникации с обществом и наличия развитой финансовой инфраструктуры.

В качестве предложений можно выделить следующие направления:

укрепление институциональной независимости центральных банков для минимизации политического давления при реализации денежно-кредитной политики;

развитие аналитических инструментов и повышение прозрачности коммуникаций, что позволит формировать доверие со стороны общества и бизнеса;

адаптация механизмов таргетирования к новым глобальным вызовам — «зелёному» переходу, росту государственного долга и усилению протекционизма;

внедрение дополнительных инструментов (например, макропруденциального регулирования), которые могут повысить устойчивость национальных экономик к кризисным явлениям.

Таким образом, инфляционное таргетирование продолжает оставаться одним из наиболее эффективных инструментов денежно-кредитной политики, однако его реализация должна учитывать как внутренние структурные особенности страны, так и меняющиеся условия мировой экономики.

В частности, Узбекистан с 2019 года официально закрепил путь к инфляционному таргетированию в нормативных актах. Указ № УП-5877 от 18 ноября 2019 года «О совершенствовании денежно-кредитной политики с поэтапным переходом на режим инфляционного таргетирования» задаёт поэтапный переход ЦБ с начала 2020 года сначала на целевой уровень инфляции 10 % (к 2021 году), а затем — на устойчивый ориентир в 5 % к 2027 году [7]. Этот документ также подчёркивает необходимость применения широкого набора инструментов денежно-кредитной политики, улучшения коммуникаций Центрального банка и укрепления прозрачности, что соответствует международным стандартам режима инфляционного таргетирования.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 18.11.2019 г. № УП-5877 «О совершенствовании денежно-кредитной политики с поэтапным переходом на режим инфляционного таргетирования»
2. Центральный банк Республики Узбекистан. «Об основных направлениях денежно-кредитной политики на 2020 год и период 2021-2022 годов с переходом к режиму инфляционного таргетирования».
3. Timothy Taylor. New Zealand: The Birthplace of Inflation Targeting/ Conversable Economist. URL: https://conversableeconomist.com/2025/06/23/new-zealand-the-birthplace-of-inflation-targeting/
4. Borio, C. «Whither inflation targeting as a global monetary standard?» BIS Working Paper No. 1230, 2024.
5. IMF — “Inflation Targeting and the Legacy of High Inflation” (2025)
6. Borio C. Targeting Taylor Rules: Monetary Policy in the Post-Crisis World // BIS Working Papers. — No. 577. — Basel: Bank for International Settlements, 2016. — 40 p. — URL: https://www.bis.org/publ/work577.pdf (дата обращения: 20.09.2025).
7. Фаттахова М.А., Рахматова Н. З. Условия применения режим таргетирования инфляции и его реализация в Республике Узбекистан . (2025). Innovations in Science and Technologies, 2(2), 232-240. https://www.innoist.uz/index.php/ist/article/view/637

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MEHNAT MUNOSABATLARIGA OID HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Bakiyeva I.A.
i.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID:ID:0000-0002-0697-7379
Email: i.bakiyeva@tsue.uz

S.A.Bozorova
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID:ID:0009-0003-7815-4245
Email: s.bozorova@tsue.uz

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining mehnat munosabatlariga oid huquqiy savodxonligini oshirish masalalari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari hamda mavjud muammolar yoritilgan. Xususan, norasmiy sektor ulushining kamayishi, elektron davlat xizmatlari (“E-mehnat”, “my.gov.uz”) va yangi Mehnat kodeksining joriy etilishi aholining huquqiy madaniyatini oshirishda muhim omil sifatida baholangan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinib, onlayn portallar, mobil ilovalar, chat-botlar va interaktiv kurslar orqali huquqiy savodxonlikni oshirishning samarali mexanizmlari ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar orqali aholining mehnat huquqlari bo‘yicha bilimlarini oshirish nafaqat huquqiy madaniyatni yuksaltiradi, balki mehnat bozorida samaradorlik, shaffoflik va adolatli munosabatlarni ta’minlashga xizmat qiladi. Maqola milliy islohotlarni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi va raqamli iqtisodiyot sharoitida huquqiy savodxonlikni oshirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarini taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, mehnat munosabatlari, huquqiy savodxonlik, onlayn platforma, raqamli huquqiy ta’lim, kiberxavfsizlik.

Abstract: The article provides an in-depth analysis of the issues related to improving the legal literacy of the population in the field of labor relations under the conditions of the digital economy. The study examines the possibilities and challenges of applying digital technologies based on the experience of Uzbekistan and developed countries. In particular, the reduction of the informal sector, the introduction of electronic government services (“E-mehnat”, “my.gov.uz”), and the adoption of the new Labor Code are evaluated as important factors contributing to the enhancement of legal awareness among citizens.

The paper analyzes foreign experience and identifies effective mechanisms for improving legal literacy through online portals, mobile applications, chatbots, and interactive courses. The results show that digital technologies not only enhance legal culture but also promote efficiency, transparency, and fairness in labor relations. The article emphasizes the need to align national reforms with international practices and proposes scientific, theoretical, and practical foundations for improving legal literacy in the context of the digital economy.

Key words: digital economy, labor relations, legal literacy, online platform, digital legal education, cybersecurity.

Аннотация: В статье проведён глубокий анализ вопросов повышения правовой грамотности населения в сфере трудовых отношений в условиях цифровой экономики. В исследовании рассмотрены возможности применения цифровых технологий и существующие проблемы на основе опыта Узбекистана и развитых стран. В частности, снижение доли неформального сектора, внедрение электронных государственных услуг («E-mehnat», «my.gov.uz») и нового Трудового кодекса оцениваются как важные факторы повышения правовой культуры населения.

Изучен опыт зарубежных стран, показаны эффективные механизмы повышения правовой грамотности через онлайн-порталы, мобильные приложения, чат-боты и интерактивные курсы. Результаты исследования показывают, что использование цифровых технологий способствует не только росту правовой культуры, но и повышению эффективности, прозрачности и справедливости трудовых отношений. В статье обоснована необходимость гармонизации национальных реформ с международным опытом и предложены научно-теоретические и практические основы повышения правовой грамотности в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, трудовые отношения, правовая грамотность, онлайн-платформа, цифровое правовое образование, кибербезопасность.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mehnat munosabatlari tizimida ham tub o‘zgarishlarni amalga oshirmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalanish mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratadi, ammo xodimlar va ish beruvchilarning huquqiy savodxonlik darajasi past bo‘lsa, mehnat huquqlari buzilishi ehtimoli oshadi [1].

Aholining huquqiy savodxonligi — bu fuqarolarning mehnat huquqlari va majburiyatlarini bilishi, ulardan amalda foydalana olishi va huquqiy munosabatlarda to‘g‘ri yo‘l tutishi hisoblanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda aholining mehnat munosabatlariga oid bilimlari hali yetarli darajada emas. Masalan, Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehnat huquqlari bo‘yicha savodxonlik darajasi Yevropa davlatlariga nisbatan ancha past [2].

O‘zbekistonda bu sohada islohotlar amalga oshirilmoqda: yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi 2023-yilda qabul qilindi, “E-mehnat” va “my.gov.uz” kabi elektron xizmatlar joriy etildi [3]. Biroq amaliyotda aholi bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanmayapti. Bu holat aholida raqamli huquqiy savodxonlikni kuchaytirish dolzarb vazifa ekanini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil amalga oshirilib O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va tegishli qonunchilik hujjatlari o‘rganildi. Taqqoslama tahlillar asosida O‘zbekiston va rivojlangan davlatlardagi huquqiy savodxonlik tizimi taqqoslandi, Kontent tahlil usulidan foydalanib, onlayn huquqiy platformalar (E-mehnat, e-Estonia, Singpass, Korea e-Government) tahlil qilindi. Muammolardan nazariy xulosalar chiqarish va tegishli takliflar ishlab chiqishda induktiv va deduktiv yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mehnat munosabatlarini tartibga solish muammolarini hal etishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, bu muammolarning yechimlari bo‘yicha olingan natijalar ham xorijiy olimlar, ham vatanimiz olimlarining ilmiy ishlarida aks etgan. Jumladan, Frederik Teylorning “Principles of Scientific Management” (1911) asarini e’tirof etish mumkin. U o‘z tadqiqotida ilmiy boshqaruv nazariyasi orqali mehnat jarayonini samarali tashkil qilish masalalrini o‘rgangan hamda asarda samaradorlikni oshirish, mehnat unumdorligini ko‘paytirish, lekin xodim manfaatlariga yetarlicha e’tibor berilmagani tanqid qilingan [4].

Richard Friman va Djeyms Medoff “What Do Unions Do?” (1984) asarida kasaba uyushmalari mehnat munosabatlarida nafaqat ish haqini oshirish, balki ish sharoitlari va adolatli munosabatlarni ta’minlashi orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatishini asoslab berishgan. Ularning fikriga ko‘ra Kasaba uyushmalari mavjud bo‘lgan tashkilotlarda xodimlar ichida adolat va qoniqish yuqori bo‘ladi [5].

Djon Danlopning “Industrial Relations Systems” (1958) asarida mymehnat munosabatlaridagi barqarorlikni ta’minlash uchun ish beruvchi, xodim (kasaba uyushmalari orqali) va davlatning manfaatlari muvozanatini saqlash zarurligi asoslab berilgan [6].

Devid Oston “The Defeat of Solidarity: Anger and Politics in Postcommunist Europe” (2005) asarida Sharqiy Yevropada mehnat munosabatlarining bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida qanday transformatsiyaga uchraganini tahlil qiladi hamda iqtisodiy islohotlar mehnat munosabatlarida keskin o‘zgarishlarga, xodimlar huquqlarining zaiflashishiga olib kelganligini aniqlaydi [7].

Ushbu olimlarning ilmiy ishlari natijalari hozirgi kunda O‘zbekiston sharoitlarida ham dolzarb bo‘lib qolmoqda, jumladan F.Teylor g‘oyalaridan kelib chiqib raqamli iqtisodiyotda avtomatizatsiya va axborot texnologiyalari ish jarayonlarini standartlashtirishga xizmat qilmoqda (ERP tizimlari, elektron mehnat daftarchalari). Dj.Danlop ilmiy ishlarining natijasi sifatida davlat mehnat bozorida faol ishtirok etmoqda (yangi Mehnat kodeksi, raqamli mehnat shartnomalari, MyMehnat dasturi). Devid Ostonning transformatsiya modelidan kelib chiqadigan

bo‘lsak, bozor iqtisodiyotiga o‘tish mehnat munosabatlarini keskin o‘zgartiradi, xodimlar huquqlari zaiflashishi mumkin. O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida shunday xavf mavjud – masalan, norasmiy ravishda ishlayotganlar, frilanserlar va masofaviy ishlovchilarda kafolatlangan ijtimoiy paket yo‘q. Mehnat bozorida segmentatsiya – bir tarafdan rasmiy sektor xodimlari kafolatli, ikkinchi tarafdan norasmiy sektorda ish bilan bandlar himoyasiz.

Mamlakatimizda mehnat munosabatlarini tartibga solish, xususan, raqamli transformatsiya sharoitida mehnat iqtisodiyoti, sun’iy intellektning mehnat bozori va ijtimoiy mehnat munosabatlariga ta’sini, aholini samarali ish bandligiga ko‘maklashish, norasmiy ish bilan bandlikni tartibga solish masalalari akademik Q.X. Abdurahmonov [8], B.X.Umurzakov [9], N.Q.Zokirova [8], G.Q.Abduraxmonova [10], S.B.G‘oyipnazarov [11], B.E. Tagayev [12] kabi mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Aholida huquqiy savodxonlikni oshirish masalalari M.Yu.Gasanov [13], M.X. Qarshiyeva [14] tomonidan o‘rganilgan. Mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilayotgan muammolar mehnat munosabatlarini tartibga solish va takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lishiga qaramay, raqamli texnologiyalar asosida aholining mehnat munosabatlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish imkoniyatlari yetarlicha o‘rganilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi sonining tez sur’atlarda oshib borayotganligi mehnat bozorida aholining ish bilan bandligini ta’minlash hamda ish izlovchilar uchun amaliy yordam ko‘rsatish zaruratini anglatadi. O‘z navbatida ish izlovchilar sonining ko‘pligi, ish bilan bandlarning norasmiy sektordagi ulushini yuqori ekanligi, yuzaga kelayotgan mehnat nizolarida huquqiy yordamning yetishmasligi aholining mehnat munosabatlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishni talab etadi.

Mamlakatimizda norasmiy sektorda ish bilan band bo‘lganlar ulushi 2016-yilda 51,2% (6814,3 ming kishi) ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 42% (5412,9 ming kishi)ni tashkil etib, sezilarli darajada kamayganligini ko‘rishimiz mumkin(1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi sonining rasmiy va norasmiy sektorlar bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishida[15]

O‘rganilayotgan davrda rasmiy sektorda ishchi kuchining nisbatan barqaror va sekin o‘sib borishi qayd etilgan. Ayniqsa, 2022–2024 yillarda keskin o‘sish kuzatilib, ilk bor norasmiy sektordan ustunlikka erishgan. Bu holat rasmiy sektorda ish o‘rinlarini ko‘paytirish, qonunchilik islohotlari, norasmiy sektorda ishlayotganlarni rasmiy mehnat munosabatlariga o‘tkazishga qaratilgan choralar va mehnat bozorini shaffoflashtirish siyosatlari bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda mehnat munosabatlarini takomillashtirish zaif toifadagi fuqarolarni himoya qilish va mehnat qonunchiligini soddalashtirishga qaratilgan islohotlar orqali amalga oshirilmoqda. Masalan, ish o‘rinlarining majburiy rezervlarini joriy etish va 2025-yil 1-noyabrdan ishsizlik nafaqasi to‘lash tizimini o‘zgartirish kabi choralar ko‘rilmoqda. Shuningdek, ish vaqti tartibini tartibga solish va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi orqali ish bilan bandlik sohasida yagona siyosatni shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, lekin shunga qaramasdan mehnat munosabatlarini tartibga solish va rivojlantirishga oid ko‘p xodimlar mehnat shartnomasi shartlari, ish vaqti, mehnat ta’tillari haqida to‘liq bilimga ega emasligi bilan bog‘liq axborot asimmetriyasi, huquqiy madaniyatning past darajasi (ayniqsa qishloq joylarda aholi mehnat huquqlari bo‘yicha ma’lumotga cheklangan darajada egaligi), raqamli platformalar samaradorligining pastligi, kiberxavfsizlik muammolari (aholida shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligiga ishonchning pastligi) kabi bir qancha muammolar mavjudligini kuzatish mumkin.

Muammolar yechimini topishda iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi diqqatga sazovor bo‘lib, 2024-yilda Yevropa Ittifoqida “Platform Work Directive” Yangi huquqiy ramka qabul qilindi. Natijada algoritmik

boshqaruv shaffofligi, inson nazorati, avtomatlashtirilgan qarorlarni shikoyat qilish huquqi va chegaralararo holatlarda mehnat sharoiti ochiqligiga doir qoidalar belgilandi [16].

Ispaniyada “Rider Law” orqali hodim maqomi va algoritm shaffofligiga erishilgan. 2021-yilda yaratilgan RDL 9/2021 (Rider Law) yetkazib berish platformalari ishlarini xodimlarning mehnat munosabatlari sifatida e’tirof etadi hamda ishchi va vakillariga algoritm parametrlari bo‘yicha axborot berish majburiyatini yuklaydi. Ispaniya tajribasi platformalarning mehnat huquqi doirasida qayta klassifikatsiya qilinshi (reclassification) va kollektiv axborot huquqlarini kuchaytirish orqali asimmetrik axborotni qisqartiradi [17].

Estoniyada “e-Estonia” platformasi orqali aholi barcha huquqiy ma’lumotlarga onlayn kirish imkoniga ega. Bu tizim orqali fuqarolar mehnat shartnomasi va mehnat huquqlari bo‘yicha barcha axborotni elektron shaklda oladi [18]. Singapurda esa “Singpass” yagona identifikatsiya tizimi orqali fuqarolar mehnatga oid xizmatlardan, shu jumladan mehnat huquqlari bo‘yicha maslahatlardan foydalanish imkoniyatiga ega [19]. Janubiy Koreyada “e-Government” tizimida mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus onlayn portal mavjud bo‘lib, u orqali fuqarolar mehnat nizolarini onlayn ko‘rib chiqish uchun ariza topshirishi mumkin [20].

O‘zbekistonda aholining mehnat munosabatlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish holatini rivojlangan mamlakatlar tajribalari bilan solishtirar ekanmiz bu sohada respublika darajasi nisbatan pastligini ko‘rish mumkin (2-rasm).

Raqamli texnologiyalar asosida mehnat munosabatlari bo‘yicha huquqiy savodxonlikni oshirish xolati 1 dan 5 gacha shkala asosida xorijiy mamlakatlardagi tajribalar va respublikadagi imkoniyatlar baholandi.

2-rasmdan ko‘rinadiki, huquqiy savodxonlikni oshirish yo‘nalishida O‘zbekistonda olib borilayotgan asosiy tashabbuslar davlat portallari va qo‘llanmalar nashri bilan chegaralanganligi bois baholash 4 darajada. Xalqaro tajribalarda esa (ILO, EU Legal Literacy Projects) keng qamrovli dasturlar yo‘lga qo‘yilgan, bu esa maksimal darajadagi 5 ballga teng. Shu bilan birga, mehnat munosabatlariga oid huquqiy bilimlarni tarqatishda raqamli platformalardan foydalanish yo‘nalishida O‘zbekistonda E-mehnat, My.gov.uz kabi tizimlar mavjud bo‘lsa-da, ular hali to‘liq integratsiya qilinmagan. Xalqaro tajribada esa Estoniya yoki Singapurning raqamli hukumat tizimlari yuksak darajada samarali ekani ko‘rinadi.



2-rasm. O‘zbekiston va xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili[1]

Aholining mobil qurilmalardan foydalanish darajasining ortib borayotganligi fonida xorijiy mamlakatlarda ham mobil ilovalar va chat-botlardan foydalanish holati past darajada, biroq O‘zbekistonda bu amaliyot deyarli yo‘lga qo‘yilmagan. Xalqaro tajribalarda (masalan, Hindistonning Umang App yoki Yevropa davlatlaridagi huquqiy chat-botlar) keng qo‘llanilmoqda.

Covid-19 pandemiyasi oqibatida butun dunyoda raqamli texnologiyalardan foydalanish kengaydi. Bunda ayniqsa onlayn kurslarni tashkil etish orqali turli treninglar va o‘qishlar imkoniyatlari kengaydi. Bugungi kunda

1 Манба: Илмий манбаларни ўрганиш асосида муаллиф томонидан тузилган

O‘zbekistonda onlayn ta’lim yo‘nalishi rivojlanayotgan bo‘lsa-da, hali keng qamrovli emas. AQSH va Yevropa mamlakatlarida Coursera, edX va FutureLearn platformalarida mehnat huquqlari va ishchi-ish beruvchi munosabatlari bo‘yicha ochiq onlayn kurslar mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy targ‘ibot ishlari ham amalga oshrilib kelinmoqda. Xususan Janubiy Koreyada YouTube va TikTok orqali davlat organlari tomonidan mehnat huquqlari bo‘yicha animatsion videoroliklar va infografikalar tarqatiladi, O‘zbekistonda esa bu amaliyot faqat telegramm kanallari orqali amalga oshirilib, yetarli darajada emas.

Xorijiy mamlakatlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan birga kiberxavfsizlik va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor beriladi, ayniqsa, Yevropa Ittifoqida GDPR qonunchiligi asosida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mukammal yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda kiberxavfsizlik va ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha davlat dasturlari mavjud, lekin amaliyotda ko‘plab kamchiliklar borligi sababli raqamli texnologiyalardan foydalanishda muammolar kelib chiqmoqda.

Xorijiy tajriba va respublikdagi xolat bo‘yicha umumiy xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki O‘zbekistonda aholining mehnat munosabatlariga oid huquqiy savodxonligini oshirishda muayyan qadamlar tashlangan bo‘lsa-da, xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda hali katta tafovut mavjud. Ayniqsa, mobil ilovalar, chat-botlar, hamda kiberhimoya sohalarida ishlarni kuchaytirish zarur.

Bizningcha, O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar asosida aholining mehnat munosabatlariga oid huquqiy savodxonligini oshirishda tegishli yo‘nalishlar doirasidagi ishlarni amalga oshirish zarur (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda aholining mehnat munosabatlariga oid huquqiy savodxonligini oshirishdagi muammolar va ularning yechimlari[2]

Yo‘nalish	Mavjud muammolar	Taklif etilayotgan yechimlar
Huquqiy savodxonlik usullari	Qo‘llanmalar ko‘proq qog‘oz formatda tarqatilmoqda, aholi orasida raqamli resurslardan foydalanish yetarli emas.	Interaktiv elektron qo‘llanmalar va infografikalar tayyorlash, ularni onlayn platformalar orqali ommalashtirish.
Raqamli platformalar	E-mehnat va My.gov.uz tizimlari integratsiyasi to‘liq emas, foydalanuvchilar uchun qulaylik darajasi past.	Yagona mehnat huquqlari portalini yaratish, barcha xizmatlarni integratsiya qilish va “bir darcha” prinsipini joriy etish
Mobil ilovalar va chat-botlar	Mehnat huquqlari bo‘yicha maxsus mobil ilovalar amalda yo‘q	Huquqiy maslahat beradigan mobil ilovalar va Telegram/WhatsApp chat-botlar ishlab chiqish.
Interaktiv o‘quv kurslari	Onlayn kurslar soni va mazmun jihatdan cheklangan.	Coursera, edX, Udemy kabi platformalarda mahalliy kontent yaratish, universitetlar bilan hamkorlikda modullar ishlab chiqish.
Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy targ‘ibot	Axborot tarqatish asosan Telegram kanallari bilan cheklangan.	TikTok, YouTube, Instagram orqali qisqa videolar va infografikalar tayyorlash, ommaviy auditoriyani qamrab olish
Kiberxavfsizlik va ma’lumot himoyasi	Ma’lumotlar himoyasi qonunchilikda mavjud, ammo amaliyotda kamchiliklar ko‘p.	Xalqaro standartlarga (GDPR) yaqinlashtirish, ma’lumotlar shifrlash va xavfsizlik protokollarini kuchaytirish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda asosiy muammolar raqamli texnologiyalarni yetarlicha joriy etmaslik va aholiga qulay formatda huquqiy ma’lumot yetkazib bermaslikka borib taqaladi. Shuning uchun mobil ilovalar, interaktiv kurslar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish huquqiy savodxonlikni oshirishning eng samarali yechimi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalar aholida mehnat munosabatlariga oid huquqiy savodxonlikni oshirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali huquqiy axborotni ommaviy va oddiy tilda taqdim etish huquqiy madaniyatni sezilarli darajada oshiradi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali to‘liq samaraga erishilmadi. Shu bois, milliy raqamli platformalarni takomillashtirish va xalqaro tajribani tatbiq qilish huquqiy savodxonlik darajasini oshirishning asosiy yo‘li hisoblanadi.

2 Тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилган

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022.
2. ILO. World Employment and Social Outlook: Trends 2023. Geneva: ILO, 2023.
3. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси. – Тошкент, 2023.
4. Taylor, F.W. The Principles of Scientific Management. Harper & Brothers, 1911.
5. Freeman, R.B., & Medoff, J.L. What Do Unions Do? Basic Books, 1984.
6. Dunlop, J.T. Industrial Relations Systems. Harvard University Press, 1958.
7. Ost, D. The Defeat of Solidarity: Anger and Politics in Postcommunist Europe. Cornell University Press, 2005.
8. Абдурахмонов Қ.Х., Зокирова Н.Қ. Сунъий интеллект даврида меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: “ILM-MA’RIFAT” нашриёти, 2025. – 356 бет.
9. Умурзаков Б.Х. Человек и его потенциал в условиях экономики будущего. //Технические университеты: интеграция с европейскими и мировыми системами образования. 2014.
10. Абдурахмонова Г.Қ., Рустамов Д.Ж. “Инсон капиталини рақамли иқтисодиёт асосида ривожлантириш йўналишлари”. Монография. – Beau Bassin: “GlobeEdit” Publisher, 2020. – 127 б.
11. Ғойипназаров С.Б. Меҳнат муносабатлари ва инсон капиталилини ривожлантиришда сунъий интеллектни жорий этишнинг методологик асослари. Монография. – Т.: “Инновацион ривожланиш матбаа уйи” нашриёти, 2023. – 240 б.
12. Тагаев Б.Э. Рақамли иқтисодиёт ва меҳнат бозори: яширин иқтисодиёт ва норасмий бандликни расмийлаштириш сари // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. - Тошкент, 2020. - №6 – 42-44 б.
13. Гасанов М.Ю. Трудовое право Республики Узбекистан. Общая часть. - Т.: Издательство «LESSON PRESS», 2016 г. 320 стр.
14. Qarshiyeva M.X. “Mehnat huquqlari va aholida huquqiy savodxonlik darajasi”. – Yurist axborotnomasi, 2021, №3.
15. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy ststistika qo‘mitasi маълумотлари
16. https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/ATAG/2024/760437/EPRS_ATA%282024%29760437_EN.pdf?utm_source
17. https://apps.eurofound.europa.eu/platformeconomydb/riders-law-105142?utm_source
18. Estonian Government. e-Estonia: e-Governance Solutions. Tallinn, 2022.
19. GovTech Singapore. Singpass: National Digital Identity. Singapore, 2023.
20. Korean Ministry of Employment and Labor. e-Government Services in Labor Relations. Seoul, 2022.

BIG DATA VA ANALITIKA VOSITALARI ORQALI KORPORATIV QARORLAR QABUL QILISHNI OPTIMALLASHTIRISH

Ismailov Allayor Rashidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Innovatsion menejment” kafedrasi PhD, dotsent.
ORCID: 0009-0000-6148-342X
Email: ismailovallayor@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Big Data va analitika vositalari orqali korporativ qarorlar qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot maqsadi — yirik ma’lumotlar, sun’iy intellekt va tahliliy platformalarning korporativ boshqaruvdagi samaradorligini oshirishdir. Korporativ ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishning strategik rejalashtirish, moliyaviy tahlil hamda xavflarni boshqarishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Big Data orqali prognozlashtirish, raqamli shaffoflik va samaradorlikni kuchaytirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Big Data, korporativ boshqaruv, analitika vositalari, qarorlar qabul qilish, raqamli transformatsiya, optimallashtirish.

Abstract: The article analyzes the issues of optimizing corporate decision-making processes through Big Data and analytical tools. The aim of the study is to enhance the effectiveness of corporate management based on big data, artificial intelligence, and analytical platforms. The importance of collecting and analyzing corporate data in strategic planning, financial analysis, and risk management is highlighted. The paper also demonstrates the potential of Big Data for forecasting, improving digital transparency, and increasing efficiency.

Key words: Big Data, corporate management, analytical tools, decision-making, digital transformation, optimization.

Аннотация: В статье проанализированы вопросы оптимизации процессов принятия корпоративных решений с использованием инструментов Big Data и аналитики. Цель исследования — повышение эффективности корпоративного управления на основе крупных данных, искусственного интеллекта и аналитических платформ. Раскрыто значение сбора и анализа корпоративных данных в стратегическом планировании, финансовом анализе и управлении рисками. Также показаны возможности прогнозирования, цифровой прозрачности и повышения эффективности с применением Big Data.

Ключевые слова: Big Data, корпоративное управление, аналитические инструменты, принятие решений, цифровая трансформация, оптимизация.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar va axborot oqimining keskin o‘sishi korporativ boshqaruv tizimlari uchun yangi talab va imkoniyatlarni shakllantirmoqda. Xususan, Big Data (yirik ma’lumotlar) texnologiyalari va zamonaviy analitika vositalari korporativ qarorlar qabul qilish jarayonlarida inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda kompaniyalar faoliyati nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga, balki tezkor axborot almashinuvi, prognoz tahlillari va raqamli qarorlar qabul qilish samaradorligiga ham bog‘liq holga kelgan.

Big Data texnologiyalari kompaniyalarga ulkan hajmdagi ma’lumotlarni turli manbalardan — bozor muhiti, mijozlar bazasi, raqobatchilar faoliyati, ichki jarayonlar va tashqi iqtisodiy omillardan yig‘ish, saqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu jarayon sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish, prognozlash algoritmlari va tahliliy platformalar bilan uyg‘unlashgan holda korporativ boshqaruvda yangi bosqichni boshlab bermoqda. Masalan, moliyaviy tahlilda Big Data ma’lumotlar asosida risklarni minimallashtirish, kutilmagan iqtisodiy o‘zgarishlarga tezkor javob berish va investitsiya qarorlarini ilmiy asoslash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, an’anaviy boshqaruv modellarida qarorlar qabul qilish ko‘p hollarda subyektiv baholarga, cheklangan ma’lumotlarga va uzoq vaqt talab etuvchi jarayonlarga tayanadi. Bu esa raqobat muhiti sharoitida

kechikishlarga, resurslardan samarasiz foydalanishga hamda bozordagi imkoniyatlarni boy berishga olib keladi. Big Data texnologiyalari esa ushbu muammolarni bartaraf etib, kompaniyalar faoliyatini yuqori aniqlik, tezkorlik va shaffoflik asosida boshqarishga yo‘naltiradi.

Mazkur maqolada Big Data va zamonaviy analitika vositalari orqali korporativ qarorlar qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi — yirik ma’lumotlar texnologiyalari, sun’iy intellekt va tahliliy platformalarning korporativ boshqaruvdagi o‘rnini aniqlash, ularning strategik rejalashtirish, moliyaviy tahlil, mijozlar segmentatsiyasi va xavflarni boshqarishdagi samaradorligini baholash hamda korporativ raqobatbardoshlikka ta’sirini ochib berishdan iborat.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Big Data texnologiyalaridan foydalanish nafaqat qarorlar qabul qilish sifatini oshiradi, balki korporativ resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish va raqobat ustunliklarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S. Ren o‘z tadqiqotida korxona moliyaviy qarorlarida katta ma’lumotlarni amalda joriy etish bo‘yicha aniq holatlar tahlili orqali boshqaruvdagi real muammolar va ularni katta ma’lumotlar platformasi yordamida hal etish samaradorligiga e’tibor qaratgan. Biznes va moliya integratsiyasini amalga oshirayotgan korxona nafaqat biznesni kengaytirish yo‘nalishida samarali natijalarga erishishi, balki ichki boshqaruv darajasini ham oshirishi mumkin, bu esa asosiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi [1].

Y. Niu va boshqalar tashkilotlarda aqlli boshqaruv samaradorligini hamda qaror qabul qilish tahlilini oshirish maqsadida katta ma’lumotlar analitikasi asosida optimallashtirilgan ma’lumotlarni boshqarish yondashuvini taklif etgan. Rejalarni amalga oshirish va tavakkalchilik imkoniyatlarini yaxshilash uchun biznes-analitika hamda qaror qabul qilish muhitida backtracking (orqaga qaytish) usulini joriy qilgan [2].

O. Oluoha va boshqalarning tadqiqotlarida biznesda ilg‘or ma’lumotlar tahlilini qo‘llash orqali qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish, noaniqlikni kamaytirish va rivojlanishni rag‘batlantirish mumkinligi o‘rganilgan. Biznes-analitikada turli ma’lumotlarni tahlil qilish metodologiyalari tavsifi, diagnostikasi, prognozli va tavsiyaviy analitikaning o‘ziga xos vazifalari yoritib berilgan [3].

M. Pattnaik va T.R. Shahlarning fikriga ko‘ra, yirik kompaniyalar katta ma’lumotlar (Big Data) va analitika infratuzilmasiga ega. Katta ma’lumotlar tashkilotlarga jarayonlar, mahsulotlar, xizmatlar va strategiyalarni yaratishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi [4].

R. Naqvi va boshqalarning tadqiqotlarida esa, katta ma’lumotlar (Big Data) an’anaviy ma’lumotlarni tahlil qilish paradigmasini yangi texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish orqali tubdan o‘zgartirgani qayd etilgan. Big Data asosidagi tahlil katta hajmdagi ma’lumotlardan qimmatli axborotni aniqlash, yashirin ma’lumotlarni ochish va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Big Data orqali qaror qabul qilishga ta’sir va uning ahamiyati yoritib berilgan [5].

N. Elgendy va A. Elragal o‘z tadqiqotlarida, qaror qabul qiluvchilar katta hajm, tezkorlik, xilma-xillik, ishonchlilik va qiymat kabi xususiyatlarga ega ma’lumotlardan qimmatli xulosalar chiqara olishlari uchun Big Data analitika vositalaridan foydalanish zarurligini ta’kidlagan. Ular Big Data analitikasini qaror qabul qilish jarayoniga qanday integratsiya qilish mumkinligini tadqiq qilgan [6].

D.N. Arruda va H. Madhavji fikrlariga ko‘ra, Big Data Analytics natijalari korporativ qaror qabul qilishda muhim o‘rin tutadi hamda kompaniyalarga raqobatbardosh ustunlikka erishish va qarorlar sifatini yaxshilash imkonini beradi [7].

J.L. Monino ta’kidlashicha, turli texnologiyalarning keng ko‘lamli qurilmalar va mahsulotlarga tobora ko‘proq integratsiyalashayotgan sharoitida Big Data yashirin bog‘liqliklar va qonuniyatlarni aniqlash uchun ma’lum sxema va usullar asosida tahlil qilishni o‘z ichiga olgan yangi paradigma hisoblanadi. Bu kompaniya tomonidan yig‘ilayotgan ma’lumotlarni monetizatsiya qilish bilan bog‘liq “biznes modeli”dagi tub o‘zgarishdir [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Big Data va analitika vositalari orqali korporativ qarorlar qabul qilish jarayonlari tahlil qilindi. Ilmiy manbalar o‘rganilib, amaliy ma’lumotlar yig‘ildi va tahliliy usullar (SWOT-tahlil, korrelyatsiya, benchmarking) qo‘llanildi. Natijada texnologiyalarning strategik rejalashtirish va xavflarni boshqarishdagi ahamiyati baholandi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim tendensiyalaridan biri — bu raqamli texnologiyalar, xususan Big Data va ilg‘or analitika vositalaridagi innovatsion yechimlarni korporativ boshqaruv tizimiga joriy etish jarayonidir. Ushbu jarayon kompaniyalar uchun strategik rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlik ustunligini ta’minlash hamda moliyaviy va operatsion faoliyatni optimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

2021–2024-yillar davomida moliya, sanoat, xizmat ko‘rsatish va chakana savdo sohalarida faoliyat yurituvchi 50 ta yirik kompaniya tajribasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Big Data platformalari (Hadoop, Apache Spark, Tableau va boshqa analoglari) joriy etilgan korxonalarda strategik va taktik qaror qabul qilish jarayonining tezligi o‘rtacha 30% ga oshgan, prognoz qilish aniqligi esa 25% ga yaxshilangan. Bu, ayniqsa, tezkor qaror qabul qilish talab etiladigan jarayonlarda — ta’minot zanjirini boshqarish, moliyaviy operatsiyalarni yuritish va mijozlar segmentatsiyasida katta samara bergan.

Risk-menejment yo‘nalishida Machine Learning va Predictive Analytics kabi texnologiyalar xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilish va ularning ehtimoliy ta’sirini minimallashtirishda muhim o‘rin tutdi. Shu asosda, tahlilga jalb qilingan kompaniyalarda moliyaviy yo‘qotishlar o‘rtacha 20–30% ga kamaytirildi. Bu esa nafaqat kompaniyalarning barqaror rivojlanishiga, balki ularning bozordagi ishonchliligi va moliyaviy barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Big Data texnologiyalari korporativ hisobdorlik va shaffoflikni oshirishda ham muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Real-time monitoring va vizual analitika tizimlari orqali ichki audit jarayonlari takomillashtirildi, natijada xatolar va noqonuniy harakatlar aniqlanishi 15% ga qisqardi. Direktorlar kengashi va aksiyadorlar uchun hisobot berish jarayonida ham shaffoflik darajasi keskin oshdi, bu esa korporativ boshqaruvda ishonchlilik va javobgarlikni ta’minlashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, Big Data asosida mijozlar xulq-atvorini tahlil qilish amaliyoti korporativ strategiyalar samaradorligini kuchaytirdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mijozlar talabini prognoz qilishda Big Data analitikasi qo‘llanilgan kompaniyalarda sotuv hajmi 12–18% ga oshgan, mijozlar qaytarishlari esa 10% ga kamaygan. Bu esa bozorda raqobat ustunligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan.

Bundan tashqari, Big Data texnologiyalarini korporativ boshqaruvda samarali qo‘llash natijasida ishlab chiqarish xarajatlari o‘rtacha 8–12% ga qisqargan, qaror qabul qilishda xatolik darajasi 20% ga pasaygan, innovatsion loyihalarni amalga oshirish tezligi esa keskin oshgan. Bu esa kompaniyalarning uzoq muddatli strategik rivojlanish salohiyatini mustahkamlashda muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etish jarayoni qator muammo va qiyinchiliklar bilan kechmoqda. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- ma’lumot xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash muammolari;
- malakali mutaxassislar yetishmasligi;
- infratuzilmani modernizatsiya qilish xarajatlarining yuqoriligi;
- tashkilotlarda raqamli madaniyatning to‘liq shakllanmaganligi kabi omillar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Big Data va ilg‘or analitika vositalari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular nafaqat kompaniyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirmoqda, balki raqobatbardoshlik ustunligini ta’minlab, barqaror rivojlanishga xizmat qilmoqda. Kelgusida, ayniqsa Industry 4.0, IoT va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari bilan integratsiya qilinganda, ushbu jarayonning ahamiyati yanada ortib, uning ta’sir doirasi kengayishi kutilmoqda.

Big Data texnologiyalari va zamonaviy analitika vositalari korporativ boshqaruvda strategik qarorlar qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Bu jarayon orqali kompaniyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va mijozlar ehtiyojlariga mos qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1-jadval. Big Data integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalishlar	Ta’rif	Ahamiyati
Ma’lumotlarni yig‘ish	Ichki va tashqi manbalardan turli ma’lumotlarni to‘plash	Qaror qabul qilish uchun to‘liq va ishonchli baza yaratish
Ma’lumotlarni saqlash va boshqarish	*Data Lake*, *Cloud Storage*, *ETL* jarayonlari orqali ma’lumotlar bazasini tashkil etish	Ma’lumotlarning xavfsizligi va shaffofligini ta’minlash
Analitik modellar yaratish	*Machine Learning*, *Predictive Analytics*, *Business Intelligence*	Tendensiyalar va prognozlarni aniqlash
Qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash	Tahlil natijalarini strategik qarorlarga integratsiya qilish	Boshqaruv jarayonida aniq va tezkor qaror qabul qilish

Big Data integratsiyasi korporativ boshqaruvda qaror qabul qilish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. U to‘rt asosiy yo‘nalishdan iborat:

birinchidan, ichki va tashqi manbalardan ma’lumotlarni yig‘ish orqali qaror qabul qilish uchun ishonchli baza yaratiladi;

ikkinchidan, Data Lake va Cloud Storage kabi texnologiyalar asosida ma’lumotlarni saqlash va boshqarish xavfsizlik hamda shaffoflikni ta’minlaydi;

uchinchidan, Machine Learning va Predictive Analytics vositalari yordamida analitik modellar ishlab chiqiladi;

to‘rtinchidan, tahlil natijalari strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilinib, boshqaruvda tezkor va aniq yechimlar qabul qilishga zamin yaratadi.

2-jadval. Big Data orqali qaror qabul qilish jarayoni

Bosqichlar	Amalga oshiriladigan ishlar	Kutilayotgan natijalar
1. Ma’lumot yig‘ish	Ichki (moliya, ishlab chiqarish, marketing) va tashqi manbalardan ma’lumot to‘plash	Real vaqtdagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish
2. Tozalash va tahlil	Ortiqcha ma’lumotlarni chiqarib tashlash, klasterlash	Tozalangan va tartibga solingan ma’lumotlar
3. Analitik modellashtirish	*Machine Learning*, *AI* orqali prognozlash	Strategik imkoniyatlarni aniqlash
4. Qaror qabul qilish	Tahlil natijalari asosida boshqaruv kengashi qarorini ishlab chiqish	Moliyaviy va operatsion samaradorlikning oshishi
5. Joriy etish va monitoring	Qarorlarni amaliyotga joriy etish va KPI ko‘rsatkichlari orqali nazorat	Davomiy rivojlanish va tizimli optimallashtirish

Big Data orqali qaror qabul qilish jarayoni besh bosqichdan iborat:

avval, ichki va tashqi manbalardan ma’lumot yig‘ilib, real vaqtdagi baza yaratiladi;

keyin, ma’lumotlar tozalanib va klasterlash orqali tahlilga tayyorlanadi;

uchinchi bosqichda Machine Learning va AI vositalari yordamida prognozlash hamda strategik imkoniyatlarni aniqlash amalga oshiriladi;

so‘ng, tahlil natijalari asosida boshqaruv qarori qabul qilinadi va moliyaviy hamda operatsion samaradorlik oshiriladi;

oxirgi bosqichda esa qarorlar joriy etilib, KPI ko‘rsatkichlari asosida monitoring amalga oshiriladi, bu esa tizimli rivojlanish va barqarorlikni ta’minlaydi.

3-jadval. Big Data joriy etilgandan oldin va keyingi ko‘rsatkichlar taqqoslamasi

Ko‘rsatkichlar	Joriy etishdan oldin (2021)	Joriy etilgandan keyin (2024)	O‘zgarish (%)
Qaror qabul qilish vaqti	10–12 kun	3 kun	–70%
Sotuv prognozlari aniqligi	68–70%	88%	+18%
Ortiqcha zaxiralar darajasi	Yuqori	25% ga kamaytirildi	–25%
Ishlab chiqarish xarajatlari	Bazaviy	–6,5%	–6,5%
Sotuv hajmi	100%	114%	+14%

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Big Data texnologiyalari asosida joriy etilgan qaror qabul qilish tizimi korxonada boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Qaror qabul qilish muddati 10–12 kundan 3 kungacha qisqarib, jarayon tezligi 70% ga yaxshilandi. Sotuv prognozlari aniqligi 70% dan 88% gacha oshdi, ortiqcha zaxiralar 25% ga kamaytirildi, va ishlab chiqarish xarajatlari 6,5% ga qisqardi.

Shuningdek, sotuv hajmi 14% ga o‘sdi, bu esa bozordagi talabni prognoz qilish va mijozlar segmentatsiyasi samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Umuman olganda, Big Data va analitika vositalari joriy etilishi korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlab, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.



1-rasm. Big Data va analitika vositalari orqali korporativ qarorlar qabul qilishni integratsiya jarayoni

Ushbu sxema Big Data integratsiyasi jarayonini ko‘rsatadi va korporativ qaror qabul qilish tizimini optimallashtirishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayonni aks ettiradi. Asosiy bosqichlar quyidagicha:

1. Ma’lumotlarni yig‘ish (Data Collection) – turli manbalardan (iqtisodiy ko‘rsatkichlar, bozor tahlillari, mijozlar ma’lumotlari, ishlab chiqarish natijalari va hokazo) ma’lumotlarni to‘plash.

2. Ma’lumotlarni saqlash va boshqarish (Data Storage & Management) – yig‘ilgan ma’lumotlarni birlamchi tarzda tozalash, filtrlash va ma’lumot omborlarida jamlash.

3. Ma’lumotlarni tahlil qilish (Data Analytics) – zamonaviy analitik vositalar (Machine Learning, Predictive Analytics, Artificial Intelligence) yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash va prognoz modellarini yaratish.

4. Qaror qabul qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash (Decision Support) – tahlil natijalarini rahbariyat va boshqaruv organlariga yetkazish, strategik qarorlar uchun asos yaratish.

5. Qarorni joriy etish va monitoring (Implementation & Monitoring) – qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish, natijalarni kuzatib borish va tahlil jarayonini takomillashtirish.

Bu jarayon korporativ boshqaruvda samaradorlikni oshirish, xatarlarni oldindan aniqlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Big Data va ilg‘or analitika vositalari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega. 2021–2024 yillar davomida olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ushbu texnologiyalar joriy etilgan kompaniyalarda strategik va taktik qarorlar qabul qilish tezligi sezilarli darajada oshgan, prognoz qilish aniqligi yaxshilangan, xavf-xatarlar kamaytirilgan hamda korporativ shaffoflik va hisobdorlik darajasi oshgan. Shu bilan birga, mijozlar ehtiyojlarini prognozlash va bozor strategiyalarini shakllantirishda ham yuqori samaradorlikka erishilgan.

Ushbu holatdan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ma’lumot xavfsizligini kuchaytirish – kiberxavfsizlik standartlarini joriy etish va ma’lumotlarni himoyalash protokollarini takomillashtirish.

2. Malakali mutaxassislar tayyorlash – Big Data va ilg‘or analitika sohasida milliy hamda korporativ darajada ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

3. Infratuzilmani modernizatsiya qilish – cloud texnologiyalari va ma’lumotlar omborlarini (Data Lake, Cloud Storage) rivojlantirishga investitsiyalarni ko‘paytirish.

4. Raqamli madaniyatni rivojlantirish – tashkilotlarda innovatsion fikrlashni va raqamli yechimlarni qo‘llashni rag‘batlantirish.

5. Integratsiya jarayonida bosqichma-bosqich yondashuv – avval pilot loyihalarda sinovdan o‘tkazish, so‘ngra to‘liq miqyosda joriy etish.

Kelgusida, Industry 4.0, IoT va sun’iy intellekt (AI) bilan integratsiya jarayonlarining yanada rivojlanishi natijasida korporativ boshqaruvda Big Data texnologiyalarining ahamiyati va qo‘llanish sohasi kengayishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ren S. Optimization of enterprise financial management and decision-making systems based on big data //Journal of Mathematics. – 2022. – T. 2022. – №. 1. – C. 1708506.
2. Niu Y. et al. Organizational business intelligence and decision making using big data analytics //Information Processing & Management. – 2021. – T. 58. – №. 6. – C. 102725.
3. Oluoha O. et al. Optimizing business decision-making with advanced data analytics techniques //Iconic Res Eng J. – 2022. – T. 6. – №. 5. – C. 184-203.
4. Pattnaik, M., & Shah, T. R. (2023, July). Role of big data to boost corporate decision making. In 2023 2nd International Conference on Edge Computing and Applications (ICECAA) (pp. 105-111). IEEE.
5. Naqvi R. et al. The nexus between big data and decision-making: A study of big data techniques and technologies // The international conference on artificial intelligence and computer vision. – Cham : Springer International Publishing, 2021. – C. 838-853.
6. Elgendy N., Elragal A. Big data analytics in support of the decision making process //Procedia Computer Science. – 2016. – T. 100. – C. 1071-1084.
7. Arruda D., Madhavji N. H. The Role of Big Data Analytics in Corporate Decision-making //DATA. – 2017. – C. 28-37.
8. Monino J. L. Data value, big data analytics, and decision-making //Journal of the Knowledge Economy. – 2021. – T. 12. – №. 1. – C. 256-267.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH DARAJASI TAHLILI

Mamatov Mamajan Ahmadjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsenti (PhD)
ORCID: 0000-0001-7719-3283
Email: m.mamatov@tsue.uz

Annotatsiya: Maqolada atrof-muhitning ifloslanishi va undagi ekologik muammolar holati jahonning rivojlangan davlatlari ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanib, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi baholangan. Davlatning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi hamda undan kutilayotgan natijalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologia, yashil iqtisodiyot, SEDA indeksi, atrof-muhit samaradorligi, strategiya, uglerod neytralligi, barqaror rivojlanish maqsadlari.

Abstract: The article analyzes the state of environmental pollution and ecological issues, comparing the indicators with those of developed countries, and assesses the level of green economy development in Uzbekistan. It also highlights the national strategy for transitioning to a green economy and the expected outcomes of its implementation.

Key words: ecology, green economy, SEDA index, environmental efficiency, strategy, carbon neutrality, sustainable development goals.

Аннотация: В статье проанализировано состояние загрязнения окружающей среды и экологических проблем, проведено сравнение с показателями развитых стран мира, а также дана оценка уровня развития «зелёной экономики» в Узбекистане. Освещены стратегия перехода государства к «зелёной экономике» и ожидаемые результаты её реализации.

Ключевые слова: экология, зелёная экономика, индекс SEDA, эффективность окружающей среды, стратегия, углеродная нейтральность, цели устойчивого развития.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish, ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash masalalari so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi milliy taraqqiyotning strategik asosi sifatida shakllanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” hamda 2019-yil 5-oktabrdagi “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-son qarori ushbu yo‘nalishdagi izchil islohotlarning huquqiy poydevorini yaratdi. Mazkur hujjatlar mamlakatda ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning kompleks tizimini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur strategiyalar doirasida “yashil iqtisodiyot” nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning muqobil modeli sifatida, balki yangi ishlab chiqarish munosabatlarini, resurs tejovchi texnologiyalarni, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini hamda “yashil” bandlikni rivojlantirish vositasi sifatida qaralmoqda. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlariga hamohang tarzda olib borilmoqda. Xususan, mamlakat Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030 dasturida belgilangan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik tamoyillarini milliy siyosatga integratsiya qilmoqda. Shu bilan birga, “Parij iqlim bitimi”da belgilangan majburiyatlarni bajarish maqsadida issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish, uglerod neytralligiga erishish hamda energetika sohasida transformatsion islohotlarni jadallashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Ekologiyani asrash, tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish, jumladan, suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha zamonaviy tizimlarga o‘tish ishlarini kuchaytirdik. Mamlakatimizda ‘Yashil makon’ dasturi davom etmoqda”[1] degan fikrlari “yashil” siyosatning faqat iqtisodiy jihat emas, balki ekologik madaniyat va ijtimoiy mas’uliyat darajasida ham shakllanayotganini ifodalaydi. “Yashil makon” dasturi orqali

mamlakatning ekologik infratuzilmasini yaxshilash, bioxilma-xillikni saqlash, shahar va qishloqlarda yashil hududlarni kengaytirish orqali aholi turmush sifatini oshirish choralari ko‘rilmoqda. Ushbu dastur, o‘z mohiyatiga ko‘ra, “yashil iqtisodiyot”ning amaliy ifodasi bo‘lib, u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, suv va yer resurslarini muhofaza qilish, shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta’minlashning kompleks mexanizmlarini joriy etmoqda.

Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi sifatida, yangi innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish va ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish orqali mamlakatning milliy raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “Yashil energetika transformatsiyasi”, “Toza ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish”, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha investitsiya dasturi” kabi loyihalar ushbu siyosatning iqtisodiy poydevorini mustahkamlamoqda.

Shunday qilib, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish O‘zbekiston uchun nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki innovatsion rivojlanish, yangi ish o‘rinlari yaratish, iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishning muhim strategik yo‘nalishidir. Shu ma’noda, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi va “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi o‘zaro uyg‘un holda mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish modeli sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot rivojlanishi va uning iqlim o‘zgarishiga ta’sirini xorijiy tadqiqotchilar — V. Nordhaus, P. Romer, S. J. Tol, R. Richards, E. Barbier, D. Pearce, K. Richter va boshqalar o‘z ilmiy ishlanmalarida keng yoritganlar. Rus olimlari D. A. Agapov, S. N. Bobylev, O. P. Burmatova, E. O. Wegner-Kozlova, O. Yu. Ganyukhina, A. V. Grebenkin, E. M. Zomonova, N. Yu. Nesterenko, N. V. Pakhomova va T. A. Selishcheva barqaror iqtisodiy rivojlanish modellarini, “yashil” iqtisodiyotning muammolarini o‘rganganlar. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A. V. Vahabov, A. Ulmasov, S. V. Chepel, H. P. Abulqosimov, T. S. Rasulov, T. T. Jo‘rayev va boshqalar o‘z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot va ekologik muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikning nazariy jihatlarini yoritgan. Iqtisodiy fanda endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi va ekologik muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yuqori bosqichga olib chiqqan olimlardan biri — Uilyam Nordhaus hisoblanadi. Uning “Integrallashgan baholash modeli”da (IAM) iqlim o‘zgarishlari iqtisodiy o‘sish modeli bilan uyg‘unlashtirilgan[2]. Rus olimlari E. Lyaskovskaya va K. Grigoryeva “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonida “barqaror rivojlanish”, “inklyuziv rivojlanish”, “yashil” va “jigarrang” iqtisodiyot modellarini tahlil qilganlar[3]. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar B. A. Urazov va D. R. Xoliqovning fikricha, yashil infratuzilma — shahar parklarini, yashil tomlarni, ko‘cha daraxtlarini va qirg‘oqlarni tiklash — yashil iqtisodiyot maqsadlariga sezilarli hissa qo‘shadi[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash hamda jadval usullaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida davlat rivojlanishining ekologik darajasini har tomonlama baholovchi umumiy qabul qilingan indeks va reytinglar mavjud. Xalqaro tashkilotlar dunyo va alohida mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish holatini baholash uchun turli ko‘rsatkichlar to‘plamlarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etgan.

“Global ekologik muammolarning kuchayishi dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, barcha manbalarni ‘yashil’ iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayonda ko‘rsatkichlar tizimini to‘g‘ri tanlash va monitoring qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular atrof-muhit, me’yoriy-huquqiy tartibga solish, biznes, moliya, ekologik texnologiyalar, yashil energiya va xalqaro hamkorlik kabi asosiy sohalarni qamrab oladi.

Iqtisodiyot eng murakkab dinamik tizim sifatida uning holati hamda takror ishlab chiqarish va rivojlanish qobiliyatini aks ettiruvchi yuzlab ko‘rsatkichlardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Ularni qo‘llash sohasida O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi holatini baholashda ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan va nashr etilgan” [5]. Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan xoli bo‘lgan tarzda rivojlantirish chegaralarini miqdor jihatdan ham belgilash talab etiladi.

Xalqaro tashkilotlar, davlatlar, tadqiqot guruhlari, alohida kompaniyalar va konsalting agentliklari darajasida turli baholash instrumentlari va metodologiyalar ishlab chiqilgan. Xalqaro reytinglarda jahon mamlakatlarida

yashil iqtisodiyotni rivojlanishining umumiy holati baholanadi va buning natijasida shu mamlakatlar siyosatining joriy holatini tahlil qilish mumkin.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son farmoni qabul qilindi [6]. Farmonda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash maqsadlariga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Chunki bugungi kunda jahon ekspertlari va investorlar mamlakat aholisining turmush darajasini, unda yashil iqtisodiyot rivojlanishi va uning sifat ko‘rsatkichlarining takomillashuvi darajasini baholashda ushbu indekslarga katta e’tibor qaratmoqdalar.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro tashkilotlardan biri bo‘lgan Boston Consulting Group — boshqaruvga ixtisoslashgan xalqaro konsalting kompaniyasi — barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va uning sifat ko‘rsatkichlarini (SEDA) baholash metodologiyasini ishlab chiqdi. SEDA farovonlikni uchta kategoriya bo‘yicha guruhlangan o‘nta o‘lchov ko‘rsatkichi asosida aniqlaydi.

Quyidagi jadvalda yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va uning sifat ko‘rsatkichlari uchun SEDA indeksida yetakchi bo‘lgan mamlakatlar hamda atrof-muhitni asosiy ifloslantiruvchi davlatlar bilan taqqoslangan natijalar keltirilgan.

1-jadval. Jahon va MDH davlatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlanish darajasini baholash SEDA bo‘yicha reytingi, 2010–2024-yillar (ballarda: “0” dan “100” gacha) [7]

Mamlakatlar	2010-yil		2024-yil		2024/2010-yilga nisbatan o‘zgarish
	Reyting	Indeks	Reyting	Indeks	
Dunyoning yetakchi davlatlari					
Shveysariya	2	86,0	1	87,0	+1
Norvegiya	1	86,5	2	86,5	–1
Finlyandiya	4	83,2	3	84,2	+1
Eng ko‘p ifloslanish manbai bo‘lgan davlatlar					
AQSh	16	76,2	16	76,9	0
Xitoy	70	45,9	58	52,7	+12
Hindiston	106	32,6	100	36,9	+6
Rossiya Federatsiyasi	61			52,4	+4,6
Markaziy Osiyo davlatlari					
O‘zbekiston	109	45,6	101	43,1	+8
Qozog‘iston	62	62,2	59	52,9	+3
Qirg‘iz Respublikasi	100	46,6	95	41,9	+5
Tojikiston	102	45,6	98	41,3	+4
Turkmaniston	72	67,2	67	61,4	+5

2024-yilgi reytingning yetakchisi birinchi o‘rinda Norvegiya, ikkinchi o‘rinda Shveysariya, uchinchi o‘rinda esa Finlyandiya joylashdi. Shuningdek, reytingning kuchli o‘ntaligiga Lyuksemburg, Daniya, Shvetsiya, Singapur, Avstriya va Niderlandiya kiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, farovonlik darajasi yuqori bo‘lgan davlatlar yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ega bo‘lib, 2008-yilgi moliyaviy inqiroz tufayli yuzaga kelgan tanazzuldan tezroq chiqib ketgan.

Tadqiqotda yalpi ichki mahsulot (YaIM), sog‘liqni saqlash, ta’lim darajasi, yashil iqtisodiyot, boshqaruv sifati va aholi bandligi ko‘rsatkichlari inobatga olindi. Qiyoslash uchun 2010-yilga nisbatan 2024-yilda SEDA ko‘rsatkichi bo‘yicha barqaror rivojlanish natijalariga ko‘ra Rossiya Federatsiyasi 61-o‘rindan 57-o‘ringa, Qozog‘iston 62-o‘rindan 59-o‘ringa, Qirg‘iziston esa 100-o‘rindan 95-o‘ringa ko‘tarilib, ijobiy tendensiyani saqlab qoldi.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlashni rivojlantirish bo‘yicha 100 balldan 71,3 ball, infratuzilma – 58, fuqarolik jamiyati – 42,9, iqtisodiy barqarorlik – 93, bandlik – 53,7 ball to‘pladi. Natijada mamlakat 43,1 ball bilan 101-o‘ringa ko‘tarildi.

Xitoy 70-o‘rindan 58-o‘ringa (+12 pozitsiya, +16,8 ball) ko‘tarildi, Hindiston esa 106-o‘rindan 100-o‘ringa chiqdi. AQSh o‘z o‘rnini saqlab, 16-o‘rinda qoldi.

O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlanishini baholashda yana bir muhim ko‘rsatkich — atrof-muhit samaradorligi indeksi (EPI) hisoblanadi. 2006-yildan beri Yel universiteti qoshidagi Atrof-muhit siyosati va huquq markazi ushbu reytingni tuzib, dunyoning turli mamlakatlaridagi ekologik vaziyatni miqdoriy baholash va qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Atrof-muhit samaradorligi indeksi (EPI) butun dunyo mamlakatlarining ekologik siyosati muvaffaqiyatining to‘liq qiyosiy ko‘rsatkichidir. Indeks metodologiyasi “maqsadga yaqinlik” tamoyiliga asoslanadi. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha natija maxsus shkala bo‘yicha baholanadi: uning pastki chegarasi eng yomon ko‘rsatkichga ega mamlakat tomonidan belgilanadi, yuqori chegarasi esa xalqaro me’yor va maqsadlar asosida aniqlanadi.

Hozirda 180 mamlakatda 11 ta kategoriya va 32 ta ko‘rsatkich asosida ushbu reyting aniqlanadi. Muammolar kategoriyalari “atrof-muhit holati” va “ekotizim hayotiyligi” guruhlariga birlashtirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — atrof-muhit va inson salomatligiga global bosimni kamaytirish, ekologik tizimlar barqarorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona boshqarishni ta’minlashdan iborat.

Quyidagi 2-jadvalda O‘zbekiston uchun 2010–2024-yillar oralig‘idagi EPI indeksi boshqa davlatlar bilan taqqoslagan holda keltirilgan.

O‘zbekiston atrof-muhit samaradorligi indeksi bo‘yicha dunyoning 180 davlati orasida 2010-yildagi 107-o‘rindan 2024-yilda 104-o‘ringa ko‘tarildi. Buning sababi sifatida tadqiqot davrida atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarning hajmini kamaytirishga erishilgani qayd etiladi: 2022-yilda 908,7 ming tonna bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 874,6 ming tonnaga qisqardi [8]. O‘zbekiston ekologiyasi 100 ballik tizimda 42,9 ball bilan baholandi.

Mintaqa davlatlari orasida Qozog‘iston O‘zbekistondan oldinda bo‘lib, 95-o‘rinni egalladi. Tojikiston – 169-o‘rin, Turkmaniston – 119-o‘rin, Qirg‘iziston – 109-o‘rinda joylashdi. Rossiya Federatsiyasi esa 2010-yildagi 69-o‘rindan 2024-yilda 84-o‘ringa tushdi.

Atrof-muhit tozaligi bo‘yicha Daniya 77,9 ball bilan dunyoda 1-o‘rinni egalladi. Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Malta, Shvetsiya, Lyuksemburg, Sloveniya, Avstriya, Shveysariya va Islandiya eng toza atrof-muhitga ega mamlakatlar o‘nligiga kirdi. AQSh ijobiy dinamika namoyish etib, 61-o‘rindan 43-o‘ringa ko‘tarildi. Hindiston eng past natijani qayd etib, 123-o‘rindan 180-o‘ringa tushdi. Xitoy ham 121-o‘rindan 160-o‘ringa pasaydi.

Guruhlar bo‘yicha indikator natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ichki havo ifloslanishini kamaytirish (+18,4), o‘rmon qoplamasining yo‘qolishini qisqartirish (+17,7) va qora uglerod chiqindilarini kamaytirish (+36,7) yo‘nalishlarida ijobiy siljish kuzatilgan. Salbiy tendensiyalar esa azot oksidi konsentratsiyasining ortishi (–12,7), issiqlikxona gazlari o‘sish sur’atining tezlashuvi (–38,5) hamda karbonat angidrid konsentratsiyasining (–24,3) oshishi bilan belgilanadi.

2-jadval. Jahon va MDH davlatlarida Atrof-muhit samaradorligi indeksi (EPI) bo‘yicha reyting, 2010–2024-yillar (ballarda: “0” dan “100” gacha) [9]

Mamlakatlar	**2010-yil**		**2024-yil**		**2024/2010-yilga nisbatan o‘zgarish**
	Reyting	Indeks	Reyting	Indeks	
Dunyoning yetakchi davlatlari					
Daniya	32	69,2	1	77,9	+31
Buyuk Britaniya	14	74,2	2	77,7	+12
Finlyandiya	12	74,7	3	76,5	+9
Eng ko‘p ifloslanish manbai bo‘lgan davlatlar					
AQSh	61	63,5	43	51,1	+18
Xitoy	121	49,0	160	28,4	+41
Hindiston	123	48,3	180	18,9	–57
Rossiya Federatsiyasi	69	61,2	84	46,5	+15
Markaziy Osiyo davlatlari					
O‘zbekiston	107	42,3	104	42,9	+3
Qozog‘iston	95	41,7	74	47,5	+21
Qirg‘iz Respublikasi	160	28,7	109	42,2	+51
Tojikiston	182	27,1	169	31,9	+13
Turkmaniston	134	35,5	119	40,7	+15

O‘zbekistonda ekologik barqarorlik sohasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayni paytda mamlakatda “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” hamda 2030-yilgacha bo‘lgan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish harakatlar rejasi” amalga oshirilmoqda [10].

Hukumatning asosiy e’tibor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- chiqindixonalarning yo‘q qilinishi va maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish bo‘yicha yangi yondashuvlar;
- issiqlikxona gazlarini kamaytirish;
- infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- suvni tozalash texnologiyalarini joriy etish;
- o‘rmonlarni muhofaza qilish va ekoturizmni rivojlantirish.

Bularning barchasi “Ekologiya” milliy loyihasi doirasida amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston “Global Metan Emissiyasini kamaytirish tashabbusi”ga qo‘shilib, 2030-yilgacha 2020-yil darajasidan kamida 30 % ga qisqartirish majburiyatini zimmasiga oldi.

Suv resurslari bo‘yicha ham muhim ishlar olib borilmoqda. Biroq, prognozlarga ko‘ra, suv tanqisligi muammosi kuchayadi: 2005-yilda 2 mlrd m³, 2030-yilda 7 mlrd m³, 2050-yilda esa 13 mlrd m³ defitsit kutilmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga, ayniqsa paxta va bug‘doy yetishtirish hajmlariga 10–13 % kamayish shaklida ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, suv tariflarining pastligi, cheklovlarning yo‘qligi va haroratning ortib borishi oqibatida cho‘llanish, yer degradatsiyasi va ekin maydonlarining qisqarishi jarayonlari kuchaymoqda [11].

O‘zbekiston iqtisodiyoti va ekologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgan sohalardan biri bu chiqindilar bilan bog‘liq muammolardir. Qonunchilik palatasi deputatlari ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda bir yilda 14–14,5 million tonna qattiq maishiy chiqindilar hosil bo‘ladi. Aholi sonining o‘rtacha 1,5 foizga o‘sish sur’atini hisobga olganda, 2028-yilga borib bu ko‘rsatkich 16–16,7 million tonnaga yetishi mumkin. Ammo hozirda bu chiqindilarning atigi 40 foizgacha qismi qayta ishlanadi, qolgan qismi esa poligonlarga tashlanmoqda. Bu holat nafaqat ekologik, balki iqtisodiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Transport tizimi ham ekologik barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgan sohalardan biridir. 2021-yilda mamlakatda 5 million dona avtomobil mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2060-yilga kelib ularning soni 19 million donagacha ortishi prognoz qilinmoqda. Ayni paytda, yengil avtomobillarning 95 foizi neft mahsulotlari yoki tabiiy gazda harakatlanadi. Ularning katta qismi yoqilg‘i sarfi yuqori bo‘lgan va ekspluatatsiya muddati 10 yildan ortiq transport vositalaridir. Eng muhim muammolardan biri — aholining jamoat transporti o‘rniga shaxsiy avtomobillardan foydalanishni afzal ko‘rishi, bu esa havoga chiqarilayotgan zaharli gazlar miqdorini keskin oshirmoqda. Shuningdek, jamoat transportining aksariyati ham neft mahsulotlari va tabiiy gazda ishlaydi, faqat yirik shaharlardagina oz sonli elektrobuslar mavjud. Temir yo‘l transporti orqali yuk tashish tizimi yetarli darajada rivojlanmagani sababli, yuk tashish sohasida yuk avtomobillari asosiy o‘rinni egallaydi. Bu muammolarni hal etish maqsadida hukumat tomonidan elektromobillarga ustuvorlik berish siyosati yo‘lga qo‘yildi. 1,2 litr quvvatgacha bo‘lgan avtomobillar va elektromobillar uchun bojxona to‘lovlarining bir qismi bekor qilindi. Biroq, transport infratuzilmasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmasa, bu islohotlar kutilgan natijani bermasligi mumkin. Jahon banki guruhi tadqiqotlariga ko‘ra, transport sohasining bunday tez sur’atda o‘sishi kelajakda mamlakatning qazilma yoqilg‘iga qaramligini yanada kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. So‘nggi yillarda mamlakatda keng miqyosda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umumxalq loyihasi ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uch yil davomida 630 million dona daraxt va buta ko‘chatlari ekildi. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida O‘zbekiston hududida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni 6,321 million gektarga yetkazilib, bu mamlakat umumiy hududining 14,08 foizini tashkil etadi. 2024-yilda loyiha doirasida Vazirlar Mahkamasining 7 martdagi 144-F-sonli farmoyishi qabul qilindi. Bahorgi ko‘chat ekish mavsumida respublika bo‘yicha 138,1 million tup daraxt ko‘chatlari o‘tqazilib, reja 110,5 foizga bajarildi. Loyiha nafaqat ekologik muhitni yaxshilash, balki shaharlarning estetik ko‘rinishini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Bugungi kunda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat ekologik muammolarni hal qilish vositasi, balki ijtimoiy-madaniy rivojlanishning ajralmas yo‘nalishiga aylangan. U nafaqat davlat va xalqaro miqyosda, balki oila, ta’lim, biznes va innovatsiyalar darajasida ham muhim o‘rin tutadi. Muallif fikriga ko‘ra, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishni eng avvalo ta’lim tizimidan — oiladan, keyin maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlash lozim. Chunki bolaga iqtisodiy tarbiya va tejamkorlik ko‘nikmalari, birinchi navbatda, oilada shakllanadi. Axborot texnologiyalari asrida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kommunikatsiya vositalari ekologik ongni shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Shaxsiy yutuqlar, muvaffaqiyatli hayot tarzi va tejamkorlik misollari jamiyat uchun motivatsiya va ijobiy turtki vazifasini bajaradi. Shu bois, insonlarni mas’uliyatsiz iste’molchilikdan mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasiga o‘tishga yo‘naltirish zarur. Davlat va jamoat institutlari bu jarayonni ijtimoiy rag‘batlantirish, axborot-tarbiyaviy kampaniyalar o‘tkazish, shuningdek, chiqindilarni kamaytirish va energiya tejamkorlikni rag‘batlantiruvchi huquqiy hamda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali qo‘llab-quvvatlashi lozim. Shu tariqa chiqindilar, transport va resurslardan foydalanish muammolari “yashil iqtisodiyot”ning asosiy sinov maydoni bo‘lib, ularni hal etish O‘zbekistonning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanish siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim omildir.

Toza texnologiyalarni ilgari surish va ulardan bozorlarda foydalanishni osonlashtirish, shuningdek yashil muqobillarga kirishni yengillashtirish fuqarolarning mas’uliyatli xatti-harakatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, beqaror ishlab chiqarishni cheklash zarur. O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” milliy xo‘jalikda “yashil” o‘sishni ta’minlash, iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni takomillashtirish, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, “yashil” energiyadan foydalanishni kengaytirish, “yashil” ish o‘rinlari yaratish hamda iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi. Strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagi natijalarga erishilishi kutilmoqda: issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan chiqariladigan chiqindilarini 2010-yil darajasidan 35 foizga qisqartirish; qayta tiklanadigan energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ortig‘iga yetkazish; sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish; yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfini, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga, 30 foizga kamaytirish; iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish hamda 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish; har yili 200 million tup ko‘chat ekish orqali umumiy ekilgan daraxtlar sonini 1 milliarddan oshirish va shaharlarning yashil maydonlarini 30 foizdan ortiq kengaytirish; respublika o‘rmon fondi zaxiralarini 90 million kub metrdan ortiq hajmga yetkazish; hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Yaqin yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini umumiy energiya balansida 54 foizga yetkazish mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini yanada to‘liqroq qondirish bilan bir qatorda, butun mintaqada energetik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu omillarni inobatga olgan holda, mamlakatimizda qayta tiklanadigan energiya sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar yaqin kelajakda o‘z samarasini berishiga ishonch bildirilmoqda. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya tarmoqlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarga qarshi turish maqsadida hukumat turli iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini — xususan, “yashil sertifikatlashtirish” tizimi, yashil tariflar, bonusli tariflar, grantlar, subsidiyalar hamda soliq imtiyozlarini joriy etishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu strategiya respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini, moliyaviy barqarorligini, energetik va ekologik xavfsizligini oshirishga, shuningdek, energiya tejash salohiyatini ko‘tarish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologik rivojlantirish hamda yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish orqali energiya samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Natijada aholining turmush darajasi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Strategiyada belgilangan chora-tadbirlarning to‘liq ijrosini ta’minlash natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichi 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamayishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз уч йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Халқ сўзи” гезетаси 2024 йил 1 сентябрь.
2. Nordhaus, 2017a.Integrated assessment models of climate change. NBER Reporter, No. 3, pp. 16—20.
3. Лясковская, Е.А., Григорьева К.А. Формирование «зеленой» экономики и устойчивость развития страны и регионов. // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». - 2018. –Т. 12, № 1. - С. 15-22.
4. Уразов Б.А., Холиқов Д. Р. Ў. Республикамизда мавжуд эркин иқтисодий зоналарнинг пайдо бўлиши ва аҳамияти //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 266-270.
5. Каримов Н., Исроилов Б., Хотамов И., Хамидова Ф., Сайдуллаев Ш., Жабборов Ж. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Монография – Тошкент давлат иқтисодиёт университети . – Т: “Илм-фан ва инноватsiя” нашриёти. 2021 й.-152 б.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлашнинг янги механизмини жорий қилиш тўғрисида”ги 2 июнь 2020 йилдаги ПФ-6003 сон фармони.
7. https://anhor.uz/news/16973-2/.
8. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика агентлиги маълумотлари асосида тузилган.
9. https://epi.yale.edu/country/2024/UZB.
10. Йўлдошев М.. Экологик иқтисодиёт: Назарий ва амалий тадқиқотлар. (Монография).–Т.: “Ilm-fan va innovatsiya”, 2023, –240 bet.
11. Мирзаев Б.А. Ўзбекистон Республикасини “Яшил” иқтисодиётга ўтиш самарадорлигини ошириш. “Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт” журнали. 2024 йил. №3 сон. Б.206.
12. Ибрагимова Г.Т. Иқтисодиётни барқарор ривожлантиришда яшил иқтисодиётнинг ўрни. “Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт” журнали. 2024 йил. №2 сон. Б.584.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Н.Э. Норбоева
доцент кафедры «Цифровой экономики» ТГЭУ

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные подходы к применению цифровых технологий в деятельности высших учебных заведений. Особое внимание уделено цифровизации образовательного процесса, внедрению электронных платформ, онлайн-обучения, систем управления обучением (LMS), а также использованию искусственного интеллекта и аналитики данных. Приведены результаты анализа влияния цифровых технологий на эффективность учебного процесса и организацию управления вузами.

Ключевые слова: цифровые технологии, инновации, высшее образование, электронное обучение, LMS, искусственный интеллект.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, elektron platformalar, onlayn ta’lim, o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS), shuningdek, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilidan foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonining samaradorligiga va oliy ta’lim muassasalarini boshqarish tizimiga ta’siri tahlil natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, oliy ta’lim, elektron ta’lim, LMS, sun’iy intellekt.

Abstract: This article examines innovative approaches to the use of digital technologies in higher education institutions. Special attention is given to the digitalization of the educational process, the implementation of electronic platforms, online learning, learning management systems (LMS), as well as the use of artificial intelligence and data analytics. The results of the analysis of the impact of digital technologies on the effectiveness of the educational process and the management of universities are presented.

Key words: digital technologies, innovations, higher education, e-learning, LMS, artificial intelligence.

ВВЕДЕНИЕ

Современное высшее образование переживает этап масштабной трансформации, связанной с цифровизацией. Цифровые технологии становятся неотъемлемой частью образовательного процесса, меняя формы взаимодействия между преподавателем и студентом, расширяя доступ к знаниям и создавая новые модели обучения. В условиях глобализации и цифровой экономики университеты обязаны внедрять инновационные подходы для повышения конкурентоспособности и качества образовательных услуг.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Для анализа инновационных подходов в применении цифровых технологий использованы следующие методы:

сравнительный анализ – изучение зарубежного и отечественного опыта цифровизации высшего образования;

системный подход – выявление взаимосвязи цифровых инструментов и эффективности образовательного процесса;

методы наблюдения и анализа статистических данных – оценка степени внедрения онлайн-курсов, платформ LMS и электронных библиотек в вузах;

кейс-стади – изучение примеров внедрения цифровых решений в ряде университетов.



Рисунок 1. Анализ инновационных подходов в цифровых технологиях[1]

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Цифровые технологии в высших учебных заведениях становятся стратегическим инструментом, влияющим не только на качество образования, но и на управление академическим процессом. Рассмотрим ключевые направления и результаты их применения:

1. Электронные образовательные платформы (Learning Management Systems-LMS)

LMS-системы (Moodle, Canvas, Google Classroom, Microsoft Teams) позволяют студентам получать доступ к учебным материалам 24/7, выполнять задания в интерактивной форме и получать обратную связь от преподавателя.

По данным исследований, использование LMS повышает дисциплину и вовлечённость студентов, а также сокращает затраты на печатные материалы до 40%.

Пример: в Узбекистане многие университеты внедряют Moodle, что позволяет вести электронный контроль посещаемости, выставление оценок и организацию тестирования.

Рисунок 2. Эффективность LMS в образовании[2]

1 Разработка автора
2 Разработка автора

2. Онлайн-обучение и массовые открытые онлайн-курсы (MOOC)

MOOC-платформы (Coursera, EdX, Udemy) становятся дополнительным источником знаний, позволяя студентам изучать курсы ведущих мировых университетов.

Внедрение MOOC способствует развитию академической мобильности: студенты могут совмещать обучение в университете и прохождение международных онлайн-программ.

Согласно опросам, около 65% студентов, прошедших онлайн-курсы, демонстрируют более высокий уровень самостоятельной работы и критического мышления.

3. Искусственный интеллект и аналитика данных

AI применяется для:

персонализации обучения (рекомендации курсов и материалов на основе прогресса студента);

автоматизации проверки тестов и письменных работ;

прогнозирования уровня успеваемости студентов (Learning Analytics).

Пример: зарубежные университеты используют системы Early Warning Systems, которые на основе анализа активности студента в LMS прогнозируют его академические риски.

Результаты показывают, что использование аналитики данных позволяет сократить количество отчислений студентов на 15–20%.

4. Виртуальная и дополненная реальность (VR/AR)

VR/AR применяются в медицинском, инженерном и архитектурном образовании для симуляции лабораторных опытов и практических занятий.

Пример: в медицинских вузах Узбекистана и России внедряются виртуальные лаборатории для изучения анатомии и хирургии без риска для пациента.

Результаты, VR-технологии повышают практическую подготовку студентов на 30–35% по сравнению с традиционными методами обучения.

5. Цифровизиция административных процессов

В вузах активно внедряются электронные деканаты, которые позволяют студентам получать справки, регистрироваться на предметы и отслеживать академический рейтинг онлайн.

Это снижает административные издержки, уменьшает коррупционные риски и повышает прозрачность системы.

Согласно оценкам, цифровизация документооборота сокращает время обработки запросов студентов на 50–60%.

6. Образовательная аналитика и Big Data

Сбор и обработка больших данных об успеваемости студентов позволяет вузам разрабатывать индивидуальные образовательные траектории.

Аналитика помогает управлять качеством образования, выявлять сильные и слабые стороны учебного процесса.

Пример: университеты внедряют систему «Learning Analytics Dashboard», которая в режиме реального времени показывает прогресс студентов и эффективность курсов.

Как показывают данные Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, на начало 2025 года доля улун по компьютерному программированию составила 41,7%. Динамика услуг связи и информатизации за период с 2021 года и до начала 2025 года представлена на рис. 3.

Рисунок 3. Динамика услуг связи и информатизации с 2021 года и на период начала 2025 г[3].

3 Источник: www.stat.uz – официальны сайт Национального комитета Республики Узбекистан по статистике

Но, несмотря на положительную динамику развития сферы информационных технологий, применение инновационных технологий в отраслях и сферах национальной экономики нуждается в дальнейшем изучении и совершенствовании.

Результаты исследования показывают, что внедрение цифровых технологий повышает качество обучения на 25–30%, сокращает административные издержки и способствует развитию академической мобильности студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Применение цифровых технологий в деятельности высших учебных заведений является ключевым фактором модернизации образования. Инновационные подходы – использование LMS, онлайн-курсов, искусственного интеллекта, VR/AR – не только повышают эффективность учебного процесса, но и создают условия для индивидуализации обучения и развития новых образовательных моделей. В дальнейшем необходимо формирование единой цифровой экосистемы в вузах, расширение цифровой грамотности преподавателей и студентов, а также интеграция образовательных платформ на международном уровне.

Список использованной литературы

1. Алимов Р.Х. Хайитматов У.Т. Перспективы развития цифровой экономики в Узбекистане // Сборник статей и тезисов докладов Республиканской научно-практической конференции «Рақамли иқтисодиет: иқтисодий ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш истиқболлари». 2 декабря 2019 г. – Ташкент, 2019. С. 12-20.
2. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е., Мамаджанов А.А. Анализ состояния и развития экономики Республики Узбекистан в условиях цифровизации и реализации стратегических реформ. Статистика и Экономика. 2024;21(3):47-55.
3. Begicheva S.V., Zhukovskaya I.E., Ufimtseva D.V. Development of a mathematical model for determining predictors of university promotion in academic ratings. В сборнике: AIP Conference Proceedings. III International Scientific Forum on Computer and Energy Sciences (WFCES 2022). Almaty, Kazakhstan, 2023. С. 020085.
4. Гулямов С.С. Современные критерии оценки внедрения систем искусственного интеллекта в высшем образовании республики Узбекистан. Сборник научных трудов XVIII Международной научно-практической конференции «Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации», Белгород, 25 октября 2024 г., г. Белгород: ЦПП ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2024. С. 14-17.
5. Дегтярев А. Н., Новиков С.В. О применимости теории экономического роста в модели инновационного развития современного университета // Экономика и управление: научно-практический журнал. 2021. № 2(158). С. 11-20.
6. Жуковская И.Е. Современные тренды импортозамещения программных продуктов в условиях цифровизации экономики. Вестник Российского экономического университета имени Г. В. Плеханова. 2024. №3. С. 173-181.
7. Кравченко Д. В. Философско-методологические принципы проектирования
8. инновационного университета часть 2. Экосистемный подход к проектированию инновационного университета как образовательного кластера // Философия науки. 2023. № 4(99). С. 161-183.
9. Миронова Д.Ю. Инновационная инфраструктура вуза как элемент формирования и развития экосистемы промышленного симбиоза и стимулирования проектной деятельности // Экономика. Право. Инновации. 2023. № 2. С. 38–46. https://doi.org/10.17586/2713-1874-2023-2-38-46.
10. www.stat.uz – официальный сайт Национального комитета Республики Узбекистан по статистике.

ОТКАЗОУСТОЙЧИВЫЕ РАСПРЕДЕЛЁННЫЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ В РЕАЛЬНОМ МАСШТАБЕ ВРЕМЕНИ

Мирзаев Дилшод Аминович
PhD, доцент кафедры «Информационные системы и технологии»
Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: Обсуждаются вопросы изучения надёжностных характеристик отказоустойчивых компьютерных систем распределённого управления в реальном масштабе времени. Изложен обзор и критический анализ концепций построения основополагающих понятий и определений, относящиеся к обеспечению отказоустойчивости систем управления в реальном масштабе времени.

Ключевые слова: Надёжность систем управления, отказоустойчивость, распределённые системы реального времени, концептуальное моделирование отказоустойчивых систем.

Annotatsiya: Maqolada real vaqt rejimida ishlovchi taqsimlangan boshqaruv tizimlarining ishonchlilik xususiyatlarini o‘rganish masalalari muhokama qilinadi. Boshqaruv tizimlarida nosozliklarga chidamlilikni ta’minlashga oid asosiy tushunchalar va ta’riflarni shakllantirish bo‘yicha konsepsiyalar tahlil qilinib, ular bo‘yicha sharh va tanqidiy tahlil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv tizimlari ishonchliligi, nosozliklarga chidamlilik, real vaqt rejimidagi taqsimlangan tizimlar, nosozliklarga chidamli tizimlarni konseptual modellashtirish.

Abstract: The article discusses the study of reliability characteristics of fault-tolerant distributed real-time control systems. It provides an overview and critical analysis of the concepts related to the formation of fundamental notions and definitions concerning fault tolerance in real-time control systems.

Key words: reliability of control systems, fault tolerance, distributed real-time systems, conceptual modeling of fault-tolerant systems.

ВВЕДЕНИЕ

Системы, функционирующие в реальном масштабе времени, управляют различными, целостными процессами, в которые время встроено в общий производственный цикл, они представляют собой компьютерные системы, выполняющие все те функции, которые позволяют им обрабатывать данные и обмениваться информацией с внешней средой посредством сенсоров и активаторов, что позволяет им управлять реальными процессами. Их определяющаяся особенность состоит в способности функционировать в условных временных ограничений, накладываемых окружающей средой и собственно контролируемой системой на компьютерную систему, которая представляет собой киберфизическую распределённую систему реального времени, состоящую из автономных компонентов, взаимодействующих через канал связи. Они как правило, внедряются в критически важных приложениях, где на этапе проектирования представляются жёсткие требования к их надёжности – как неотъемлемого свидетельства о доверии к способности системы обеспечивать требуемые показатели. Обеспечение отказоустойчивости разрабатываемой системы сводится к необходимости построения такой распределённой в пространстве и в реальном времени распределённой системы, которая будет функционировать в соответствии с глобальной временной базой и синхронизовать все операции, обеспечивая корректное обслуживание в ценностных и временном аспектах, как того требует их киберфизическая сущность в условиях, когда предъявляются жёсткие требования к отказоустойчивости и работе в реальном времени и когда необходимо найти приемлемый компромисс между ними.

Отказоустойчивость достигается путём применения различных подходов и методов обнаружения и устранения ошибок. В значительной степени они основаны на посылке-избыточность означает элемент структуры системы, которая не может выполнять свои функции, и которая помогает её функционированию и в случаях перемен в рабочей среде порождённых наступлением несправности. Управление избыточностью резервирования важно для отказоустойчивых систем, ибо она способствует

повышению её нажёдностных характеристик, но в то же самое время вносит дополнительные элементы, которые имеют свою стоимость с точки зрения производительности и затраты на систему. Обеспечение структурной избыточности с целью повышения её работоспособности приводит к дополнительному запаздыванию синхронизации, восстановленных после отказа, включение и устранение новых элементов и т.п., что усложняет достижение требования функционирования в реальном времени нахождения компромисса – сложения задачи и предмет исследовательских усилий для обеспечения работоспособности в реальном времени. Поиск новых подходов управлением избыточноно резервирования и гарантирования устойчивости распределённой системы является актуальной задачей.

Надёжность – это свойство компьютерной системы, позволяющее полагаться на осблуживание, выполняемое ею проверенным объектом [1].

Требования к надёжности систем реального времени для критически важных с точки зрения безопасности приложений и возрастание затрат на резервирование системы побуждают к проведению исследования, посвящённого разработке распределённой отказоустойчивости системы реального времени, которая обеспечивали бы структурные распределения избыточности в соответствии с требованиями приложения в виде системы с регулируемой надёжностью. Главный вопрос заключается в том, могут ли отказоустойчивые распределённые компьютерные системы реального времени достичь гибкостью в соответствии с требованиями надёжности приложения с испоьзованием подхода – регулируемая надёжность?

Архитектура отказоустойчивой распределённой системы реального времени с регулируемой надёжностных, построенная из автономных отказоустойчивых компонентов, имеющих различную избыточность компонентов определяется их критичностью, насколько серьёзен отказ контролируемой системы. Исследуемая система моделируется в классы имитацонных моделей, специально разработанных для исследования программ, отражающих характеристики надёжности в условиях вариации различных параметров системы и подход реализуемой надёжности подразумевает способ достижения высокой надёжности за счёт распределения аппаратных ресурсов в соответствии с выдвигаемыми требованиями в соответствии с потребностями приложения. Такой подход обещает обеспечение отказоустойчивости распределённой системы, пригодной для целей индустриальной автоматизации при смешанной критичности компонентов. Такой подход может обеспечить более высокую надёжность при подобных ресурсах, лучшую гибкость в распределении системных ресурсов на этапе проектирования. В итоге появляется возможность лучше распределять системные ресурсы, сохраняя при этом хорошие характеристики надёжности.

Понятие надёжности было введено Жан-Клодом Лапри для охвата различные аспекты отказоустойчивых систем, чтобы ввести способ использования концепций, связанной с защитой от сбоев в системе [2,6]. Базовое определение надёжности, что это способность предоставлять услуги, которые можно обоснованно доверять [2-4]. В работе [3] содержится второе определение, в котором подчеркивается важность избегания сбоев: «надёжность – это способность системы избегать сбоев в работе».

Услуга, представляемая системой, - это её поведение, которое воспринимается пользователем как услуга, реализующая системную функцию. Угрозы компьютерным системам представляет собой причины, приводящие к отклонению системы от правильного функционирования, которое на системном уровне называется отказом обслуживания, представляющий собой событие, когда представления услуги отклоняется от требуемой. Правильное обслуживание может принимать различные формы, называемые режимами отказа, упорядочиваемого в зависимости от степени отказа, т.е. являют собой последствия отказа для системной среды.

Сбой обслуживания означает, что по крайней мере одно или несколько внешних состояний системы не соответствует правильному обслуживанию. Это отклонение оценивается ошибкой или неисправностью [3].

Структура рассматриваемых основных понятий, связанных с надёжностью систем реального времени представлена на рис. 1. Используемые концепции сгруппированы в две группы: связанные с собственной надёжностью и с реальным временем.

В основополагающей работе [3] изложены основные понятия и определения, связанные с надёжностью. Согласно терминологии, сложившиеся за последние 30 лет надёжность, представляет собой интегральное понятие, которое характеризуется следующими признаками [3]:

доступность: готовность к корректному обслуживанию;

надёжность – непрерывность корректного обслуживания;

безопасность – отсутствие катастрофических последствий для потребителя и окружающей среды;

целостность – отсутствие непрерывных изменений в системе;

ремонтопригодность – способность к осуществлению модификации и ремонта системы.

Средствами для достижения надёжности компьютерных систем является предотвращение сбоев, обусловленных неисправностями узлов и элементов системы, отказоустойчивость, прогнозирование и устранение неисправностей.



Рис. 1. Структура основных понятий, связанных с надёжностью сиситем реального времени.

Список использованной литературы

1. Yusupbekov, N. R., Mirzaev, D. A., & Kuziyev, Z. J. (2022). Analysis of the Current Status of the Theory and Practice of Assessing the Reliability of Software of Automated Information and Control Systems. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 418-425.
2. Ж.К.Лапри, Надёжные вычисления и отказоустойчивость: Концепции и терминалогия, XV Международный симпозиум IEEEE по отказоустойчивых вычислениям (FTCS-15), 1985

3. Ж.К.Лапри, Надёжность: Основные понятия и терминалогия. Нажёдностные вычисления и отказоустойчивые системы, Т.5, Вена, Springer, 1992.
4. А.Анзиенис, Ж.К.Лапри, Б.Рондела, К.Ландер, Основные концепции и таксономия надёжных и безопасных вычислений. Труды IEEEE по надёжным и безопасным вычислениям, Т.1, 1993. – с. 11-33.
5. Ж.К.Лапри, Надёжность – её характеристики, надостатки и средства. В.Рендел, Б.Лапри, Дж.К.Копец, Х.Литтавуу, Берлин, Гейдельберг: Springer, 1995.
6. С.С.Яу, Ф.К.Чен, Непрерывный мониторинг сигнатур: Эффективное обнаружение ошибок управления процессором, Международная конференция по тестированию. Новые рубежи в тестировании (ITC 88), США, 1988.

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ ЦИФРОВОГО БАНКИНГА

Гаипов Жасур Бахром угли
Ташкентский государственный экономический университет
Доцент кафедры «Банковское дело» PhD

Аннотация: Статья посвящена анализу глобальных тенденций цифровизации банковского сектора с акцентом на использование интеллектуальных цифровых технологий в операционной деятельности, клиентском взаимодействии, управлении рисками и развитии финтех-экосистемы. На основе данных Всемирного банка, Банка международных расчётов, МВФ и отчётов ведущих банков проведён сравнительный анализ внедрения цифровых решений в развитых и развивающихся странах. Представлены количественные показатели проникновения цифрового банкинга, роста безналичных платежей и использования мобильных платформ. Рассмотрены примеры успешных кейсов – индийская система UPI, бразильская Pix, цифровизация банков Европы и Китая – и их влияние на финансовую инклюзию. Выявлены ключевые вызовы цифровизации: киберугрозы, регуляторная нагрузка и технологическое неравенство, а также предложены направления их преодоления для устойчивого развития цифрового банкинга.

Ключевые слова: цифровой банкинг, интеллектуальные технологии, автоматизация банковских процессов, персонализация обслуживания, кредитный скоринг, фрод-мониторинг, open banking, финтех, финансовая инклюзия, киберриски, регуляторные стандарты, международная практика.

Annotatsiya: Maqola bank sektorini raqamlashtirishning global tendensiyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, operatsion faoliyat, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar, risklarni boshqarish va fintex-ekotizimni rivojlantirishda intellektual raqamli texnologiyalarning qo‘llanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Jahon banki, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va yetakchi banklar hisobotlari asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli yechimlarni joriy etishning qiyosiy tahlili o‘tkazildi. Raqamli bank xizmatlarining kirib borishi, naqd pulsiz to‘lovlar hajmining ortishi va mobil platformalardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatkichlar yoritildi. Hindistonning UPI tizimi, Braziliyaning Pix platformasi, Yevropa va Xitoy banklarining raqamlashtirish jarayonlari kabi muvaffaqiyatli misollar keltirildi hamda ularning moliyaviy inklyuziyaga ta’siri ochib berildi. Raqamlashtirishning asosiy muammolari – kiberxavflar, tartibga solish yuklamasi va texnologik tengsizlik aniqlanib, ularni yengib o‘tish yo‘nalishlari taklif etildi.

Kalit so‘zlar: raqamli bank, intellektual texnologiyalar, bank jarayonlarini avtomatlashtirish, xizmatlarni shaxsiylashtirish, kredit skoring, firibgarlik monitoringi, ochiq banking, fintex, moliyaviy inklyuziya, kiberxavflar, regulyativ standartlar, xalqaro tajriba.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishda sun’iy intellekt (SI) va raqamli platformalarning qo‘llanishi hamda ularning afzalliklari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Global mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, migratsiya oqimlarining jadallashuvi va milliy iqtisodiyotlarga ta’siri sharoitida samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tadqiqot davomida SI va raqamli texnologiyalar migratsiya oqimlarini prognozlash, migratsion xavflarni kamaytirish, kadrlar malakasini baholash, xorijda ishlash platformalarining imkoniyatlarini o‘rganish, shuningdek, migrantlarni huquqiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etayotgani ilmiy asosda ochib beriladi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan raqamli mehnat platformalari faoliyati tahlil qilinib, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, ushbu platformalarning migrantlarga ish topishda qulaylik yaratishi, malaka va til bo‘yicha mos keluvchi ish o‘rinlarini aniqlashdagi samaradorligi hamda noqonuniy migratsiya oqimlarini kamaytirishdagi roli o‘rganiladi. Maqola xulosalari O‘zbekiston sharoitida raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish hamda mehnat migratsiyasi sohasida barqaror va xavfsiz tizimni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: mehnat migratsiyasi, sun’iy intellekt, raqamli platformalar, migratsiya siyosati, mehnat bozori, xorijda ish platformasi.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the application of artificial intelli-gence (AI) and digital platforms in regulating labor migration processes and their advantages. In the context of changes in the global labor market, the intensification of migration flows, and their impact on national economies, the formation of effec-tive management systems is considered a pressing task. During the research, it is re-vealed on a scientific basis that AI and digital technologies play an important role in forecasting migration flows, reducing migration risks, assessing the qualifications of workers, studying the opportunities of overseas employment platforms, as well as providing legal and social support for migrants. In addition, the activities of digital labor platforms operating abroad are analyzed, highlighting their advantages and shortcomings. In particular, the study examines how these platforms facilitate job search for migrants, increase efficiency in identifying job opportunities matching skills and language proficiency, and contribute to reducing irregular migration flows. The conclusions of the article include practical recommendations for improving digi-tal governance mechanisms in Uzbekistan, adapting foreign experiences to national practice, and developing a sustainable and secure system in the field of labor migra-tion.

Key words: labor migration, artificial intelligence, digital platforms, migration policy, labor market, overseas employment platforms.

Аннотация: В данной статье научно анализируется использование искусственного ин-теллекта (ИИ) и цифровых платформ в регулировании процессов трудовой ми-грации, а также их преимущества. В условиях изменений на глобальном рынке труда, интенсификации миграционных потоков и их влияния на национальные экономики формирование эффективных систем управления является актуальной задачей. В ходе исследования раскрывается, что ИИ и цифровые технологии играют важную роль в прогнозировании миграционных потоков,

снижении ми-грационных рисков, оценке квалификации кадров, изучении возможностей за-рубежных рабочих платформ, а также в правовой и социальной поддержке ми-грантов. Кроме того, анализируется деятельность цифровых трудовых плат-форм, функционирующих за рубежом, показываются их преимущества и недо-статки. В частности, рассматривается их роль в создании удобств для мигран-тов при поиске работы, эффективности в подборе рабочих мест в соответствии с квалификацией и знанием языка, а также в снижении незаконных миграционных потоков. Выводы статьи включают практические рекомендации по совершен-ствованию механизмов цифрового управления в условиях Узбекистана, адапта-ции зарубежного опыта к национальной практике, а также по формированию устойчивой и безопасной системы в сфере трудовой миграции.

Ключевые слова: трудовая миграция, искусственный интеллект, цифровые платформы, миграци-онная политика, рынок труда, зарубежная рабочая платфора.

KIRISH

So‘nggi yillarda global miqyosda migratsiya jarayonlari jadal tus olmoqda. Xalqaro Migratsiya Tashkilotining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 304 milliondan ortiq migrant mavjud bo‘lib, ular dunyo aholisining 4% tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichning achinarli qismi 2014-yil 1 yanvardan 2025-yil 28-fevralgacha bo‘lgan davrda dunyoda kamida 73 269 nafar xalqaro migratsiya jarayonida yo‘qolgan yoki halok bo‘lgan migrantlar qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkich mehnat migratsiyasi jarayonida xavfsizlik, monitoring va tezkor axborot almashinuvini kuchaytirish zaruratini yaqqol ifodalaydi. Migratsiya jarayonlari ko‘lamining kengayishi bilan bog‘liq holda inson hayotiga bevosita tahdid soluvchi xavf-xatarlar (chegaralarni noqonuniy kesib o‘tish, transport halokatlari, noqonuniy vositachilar, tabiiy ofatlar va ijtimoiy tangliklar) global miqyosda dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Ushbu ko‘rsatkichlar o‘zining fojeali miqyosi bilan nafaqat global darajada, balki O‘zbekiston mehnat migrantlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunki O‘zbekiston fuqarolarining salmoqli qismi mehnat maqsadida chet el davlatlariga, xususan Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va Yevropa mamlakatlariga yo‘l olmoqda. Migratsiya jarayonida noqonuniy vositachilar xizmatidan foydalanish, transportda xavfsizlik qoidalarining buzilishi, chegaralarni noqonuniy kesib o‘tishga urinishlar, shuningdek, ijtimoiy beqarorlik va tabiiy ofatlar kabi omillar ularning hayotiga jiddiy xavf tug‘diradi. O‘zbekistonlik migrantlarning ayrimlari yo‘l-yo‘lakay turli huquqbuzarliklar qurboni bo‘lishi, ishlash joyida mehnat sharoitlari xavfsizligiga rioya qilinmasligi, hatto ba’zilarining yo‘qolib qolishi yoki halok bo‘lishi qayd etilgan holatlardandir. Shu bois, xalqaro statistikada qayd etilgan 73 mingdan ortiq yo‘qotishlar, aslida, O‘zbekiston migrantlari uchun ham ogohlantiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, davlat va jamiyat darajasida ularning hayoti va huquqlarini himoya qilish, xavfsiz migratsiya mexanizmlarini kuchaytirish hamda tezkor axborot almashuvini yo‘lga qo‘yish zaruratini yanada yaqqol ko‘rsatib bermoqda.

Jamiyatda xalqaro migratsiya jarayonlari ko‘lamining ortib borishi bilan bir qatorda mehnat migrantlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni xavfsiz sharoitda xorijda faoliyat yuritishlari uchun zamonaviy mexanizmlarni joriy etish dolzarb masalaga aylandi. An’anaviy tartibga solish vositalari ko‘pincha real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatini bermaydi, bu esa migratsiya jarayonlarida xavf-xatarlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu bois, sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish global tajribada ham, O‘zbekistonda ham samarali yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oxirgi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlari mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirish va yagona elektron platformalar orqali boshqarish mexanizmlarini joriy etmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17 - sentabrdagi “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-367-son Qarorining birinchi bandida quyidagi vazifalarni o‘zida qamrab oladi:

xorijiy ish beruvchilar tomonidan taklif qilinayotgan ish o‘rinlari haqidagi barcha ma’lumotlar Migratsiya agentligining (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) elektron platformasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e’lon qilib boriladi;

Agentlikning elektron platformasida fuqarolarga o‘zining rezyumesini shakllantirish va joylashtirish hamda e’lon qilingan ish o‘rinlari bo‘yicha tanlovlarda erkin ishtirok etish imkoniyati yaratiladi[1];

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solishda sun’iy intellekt va raqamli platformalardan keng foydalanish bo‘yicha bir qator qonunlar, qarorlar va farmonlar qabul qilinishi hamda, migratsiya tizimini boshqarishda ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda huquqiy va ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, mehnat migrantlari bilan ishlashda raqamli yechimlarni joriy etishga oid qonunchilik hujjatlari qabul qilinishi natijasida migratsiya jarayonlarini avtomatlashtirish, migrantlar haqida yagona raqamli ma’lumotlar bazasini yaratish va ularni sun’iy intellekt asosida tahlil qilish imkoniyati vujudga keldi. Shu bilan birga, davlat tomonidan yo‘lga qo‘yilgan “Xorijda ish” kabi raqamli platformalar orqali xorijda ishlayotgan fuqarolarning huquqlari va manfaatlari samarali himoya qilinib, ularga ish topish,

shartnomalarni onlayn tasdiqlash va muammolar yuzaga kelganda tezkor murojaat qilish imkoniyatlari yaratildi. Bu esa migratsiya jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlab, mehnat migrantlari uchun qulay sharoitlarni shakllantirishda muhim qadam bo‘ldi. Ushbu normativ-huquqiy islohotlar natijasida mehnat migratsiyasi tizimi zamonaviy talablarga javob beradigan darajada yangilandi va uning ijobiy rivojlanishi ta’minlanadi. Shuningdek, ushbu tizim sun’iy intellekt orqali migrantlarning malaka darajasini aniqlab, ularni mos bozor segmentlari va ish beruvchilar bilan tezkor bog‘lash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishda sun’iy intellekt (SI) va raqamli platformalarning qo‘llanishi kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, statistik va amaliy bosqichlarni qamrab oldi. Avvalo, mehnat migratsiyasi, raqamli boshqaruv va SI bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, konseptual yondashuvlar o‘rganilib, nazariy asoslar shakllantirildi. Yakuniy bosqichda esa olib borilgan tahlillar asosida O‘zbekiston sharoitida xorijda ishlash platformalarini takomillashtirish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish va sun’iy intellekt imkoniyatlarini samarali joriy etishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat migratsiyasi jarayonlarini nazariy jihatdan tushuntirishda klassik iqtisodiyot olimlarining ishlari muhim manba hisoblanadi. Adam Smith o‘zining “The Wealth of Nations” asarida mehnat taqsimoti va erkin bozor mexanizmlarini asoslab, xalqaro mehnat oqimlarining tabiiyligini ko‘rsatib berdi. Smithga ko‘ra, odamlar iqtisodiy manfaat ortidan ko‘chib o‘tadi va bu holat resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi. U ilgari surgan g‘oyalar hozirgi raqamli asrda ham ahamiyatini yo‘qotmagan: sun’iy intellekt yordamida migrantlarning oqimini prognoz qilish va boshqarish, aslida Smith aytib o‘tgan “ko‘rinmas qo‘l” mexanizmining yangi shakli sifatida qaralishi mumkin [2].

David Ricardo esa o‘zining “On the Principles of Political Economy and Taxation” asarida taqdim etgan “comparative advantage” nazariyasi orqali mamlakatlar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti va migratsiyaning iqtisodiy foydasini asoslab bergan. Ricardo nazariyasidan kelib chiqib aytish mumkinki, mehnat migratsiyasi nafaqat demografik ehtiyojlarga, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikka ham xizmat qiladi. Zamonaviy davrda raqamli platformalar ushbu jarayonni optimallashtirish, migrantlarning mehnat bozoridagi ustunliklarini aniqlash va joylashtirish imkonini beradi [3].

A. V. Ivakhnyuk o‘z tadqiqotlarida Rossiya va MDH davlatlarida mehnat migratsiyasini tartibga solish siyosatini chuqur tahlil qilgan. U davlat siyosatida raqamli texnologiyalardan foydalanish, migrantlar oqimini hisobga olish va nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini qayd etadi. Ivakhnyukning qarashlari, bugungi kunda AI va raqamli platformalardan foydalanish orqali migrantlarni real vaqtda monitoring qilish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashadi [4].

L. L. Rybakovskiy esa migratsiya jarayonlarini demografik va ijtimoiy jihatdan o‘rganib, migratsiyaning davlatlararo hamkorlikdagi o‘rnini asoslab bergan. Uning ishlari shuni ko‘rsatadiki, migrantlarning jamiyatga integratsiyasi, ularni hisobga olish va himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishda raqamli tizimlar samarali yechim bo‘la oladi [5].

E. V. Tiuriukanova esa mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari, xususan migrantlarning huquqiy himoyasi va mehnat sharoitlari masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar yordamida migrantlarga xizmatlar ko‘rsatish, huquqiy ma’lumotlarni tezkor yetkazish va ularning jamiyatga moslashuvini yengillashtirish yo‘llari taklif qilingan [6].

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va raqamli platformalarning mehnat migratsiyasiga ta’sirini o‘rgangan ko‘plab tadqiqotchilar paydo bo‘ldi. Richard Baldwin o‘zining “The Great Convergence” asarida “digital globalization” tushunchasini ishlab chiqib, raqamli texnologiyalar mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda yangi davrni boshlab berganini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, raqamli platformalar mehnat migrantlarini tartibga solishda shaffoflik va tezkorlikni ta’minlab, iqtisodiy tizimlarni yanada samarali qiladi [7].

Daron Acemoglu esa texnologik taraqqiyotning mehnat bozoriga ta’sirini o‘rgangan yetakchi olimlardan biri. Unga ko‘ra, sun’iy intellekt nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solishda ham muhim vositaga aylanadi. Migratsiya oqimlarini modellashtirish, mehnat resurslariga bo‘lgan talabni aniqlash va ortiqcha yuklamalarni kamaytirishda AI yechimlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [8].

Erik Brynjolfsson esa raqamli iqtisodiyot va AI imkoniyatlarini keng ko‘lamda tadqiq qilgan. Uning qarashlariga ko‘ra, raqamli platformalar migrantlarning ijtimoiy integratsiyasini yengillashtiradi, ularning huquqiy va mehnat masalalarida qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlaydi. Bu yondashuv, migrantlarni faqat mehnat resursi sifatida emas, balki jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida ko‘rishga yordam beradi [9].

Mamlakatimizda mehnat munosabatlarini tartibga solish, xususan, raqamli transformatsiya sharoitida mehnat iqtisodiyoti, sun’iy intellektning mehnat bozori va ijtimoiy mehnat munosabatlariga ta’sini, aholini samarali ish bandligiga ko‘maklashish, norasmiy ish bilan bandlikni tartibga solish masalalari akademik Q.X. Abdurahmonov [10] tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Ko‘rib chiqilgan manbalar shuni ko‘rsatadiki, mehnat migratsiyasini tartibga solishda klassik iqtisodiy nazariyalar umumiy nazariy asosni beradi, MDH olimlari esa mintaqaviy xususiyatlar va muammolarni ochib beradi. Zamonaviy iqtisodiyot olimlari esa sun’iy intellekt va raqamli platformalarning afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Muallifning fikricha, migratsiyani samarali boshqarish uchun klassik nazariy qarashlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Sun’iy intellekt yordamida migrantlar oqimini prognoz qilish, ularning mehnat bozoridagi roli va jamiyatga integratsiyasini tahlil qilish imkoniyatlari mavjud. Shunday ekan, kelajakda mehnat migratsiyasini tartibga solishda AI va raqamli platformalardan keng foydalanish, davlat siyosati va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish asosiy vazifa bo‘lib qoladi.

Mehnat migratsiyasining yildan-yilga ortib borishi ushbu jarayonni nazorat qilish, muntazam monitoring yuritish va migratsiya oqimlarini to‘g‘ri yo‘naltirish zaruratini yuzaga keltiradi. Aholining turli mamlakatlarga mehnat maqsadida ko‘chib o‘tishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hamda siyosiy oqibatlarga ham olib keladi. Shu boisdan migratsiya jarayonlarini xolis va aniq ma’lumotlar asosida boshqarish talab etiladi. An’anaviy usullar, ya’ni qog‘oz hujjatlar yoki oddiy statistik ma’lumotlar bugungi globallashuv davrida yetarli emas, chunki migrantlar oqimi tezkor, o‘zgaruvchan va murakkab xarakterga ega. Aynan shunday sharoitda raqamli platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalari dolzarb ahamiyat kasb etadi: ular katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, migrantlarning geografik joylashuvi, malakasi va mehnat bozoriga qo‘shayotgan hissasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, AI algoritmlari migratsiya oqimlarini prognozlash, ortiqcha yuklama bo‘layotgan hududlarni aniqlash va migrantlarni iqtisodiy ehtiyoj yuqori bo‘lgan tarmoqlarga samarali yo‘naltirishga yordam beradi. Demak, mehnat migratsiyasini samarali boshqarish va uning ijobiy natijalarini ta’minlash uchun raqamli platformalar va sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat qulaylik, balki zamon talabi hisoblanadi.

Xorijda ish platformasi orqali fuqarolarning chet elda qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilda ushbu platforma yordamida 38,4 ming nafar fuqaro xorijda ishga joylashtirilgan bo‘lsa, 2024 yilning birinchi choragidayoq bu ko‘rsatkich 20,9 ming nafarni tashkil etdi, 2025 yil yarim yillikda 86,3 ming nafari 17 dan ortiq mamlakatda ish topgan. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, olti oy davomida xalqaro pul o‘tkazmalari hajmi 8,2 mlrd dollargacha o‘sdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 27 foizga ko‘pdir. Demak, qisqa davr ichida minglab fuqarolar xorijiy davlatlarda o‘zlariga munosib ish topishga muvaffaq bo‘lishdi. Ushbu raqamlar so‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati va tegishli tashkilotlar tomonidan mehnat migratsiyasi sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Xususan, xorijda ish platformasi orqali ish topganlar soni ortib borayotgani fuqarolarning huquqiy jihatdan himoyalangan holda xorijda mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yishiga, tartibga solingan migratsiya jarayonining shakllanishiga hamda migrantlar manfaatlarining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, raqamli platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida mehnat migratsiyasini boshqarish jarayoni yanada samarali, shaffof va zamonaviy bosqichga ko‘tarilmoqda.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yilda pandemiya oqibatida mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlari keskin kamayganini kuzatish mumkin: umumiy son 1838,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda bu ko‘rsatkich 1456,8 ming nafargacha tushib ketgan. Buning asosiy sababi COVID-19 pandemiyasi tufayli xalqaro chegaralarning yopilishi, transport qatnovining to‘xtashi hamda mehnat bozoridagi keskin cheklovlar bo‘ldi. Shu bilan birga, ushbu davrda ko‘plab mehnat migrantlari odam savdosi qurboniga aylangan, ularning huquqiy himoyasi zaiflashgan, past mehnat sharoitlariga tushib qolish hollari ko‘paygan.

1-jadval. Tashqi mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlari (ming. kishi)

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2019 yilga nisbatan (-,+)
O‘zbekiston Respublikasi	2460,7	1838,2	1456,8	1562,9	1669,1	1775,1	-685,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	157,4	117,8	109,9	118,1	126,3	134,5	-22,9
Andijon	299,8	225,5	204,4	219,2	234,0	248,8	-51,0

Buxoro	155,6	116,9	72,0	75,2	78,3	81,5	-74,1
Jizzax	81,4	59,7	36,3	39,4	42,5	45,6	-35,8
Qashqadaryo	212,5	162,1	113,6	122,0	130,3	138,7	-73,8
Navoiy	40,9	28,1	21,1	22,7	24,3	25,9	-15,0
Namangan	218,3	164,2	71,3	75,6	79,8	84,1	-134,2
Samarqand	323,0	242,0	217,4	233,9	250,4	266,9	-56,1
Surxandaryo	196,8	146,0	85,2	91,2	97,1	103,1	-93,7
Sirdaryo	76,1	51,8	28,7	30,9	33,1	35,3	-40,8
Toshkent	122,7	91,9	133,0	144,2	155,4	166,5	43,8
Farg‘ona	297,4	225,6	150,2	161,3	172,4	183,5	-113,9
Xorazm	169,8	127,8	119,9	128,3	136,7	145,2	-24,6
Toshkent sh.	109,0	78,8	93,7	100,9	108,2	115,5	6,5

Manba: O‘zbekiston respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida shakllantirildi

Bu esa mehnat migratsiyasini nazorat qilish va tartibga solish mexanizmlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qildi. 2022 yildan boshlab esa vaziyatda ijobiy o‘zgarishlar kuzatila boshlandi: mehnat migrantlari soni 1562,9 ming kishiga yetdi. Bu o‘sish, avvalo, xavfsiz va tartibli migratsiyani ta’minlashga qaratilgan raqamli platformalar va real vaqt rejimida ishlaydigan nazorat tizimlarining joriy etilishi bilan bog‘liq. Mazkur tizimlar migrantlarni huquqiy ro‘yxatga olish, ish beruvchilarni tekshirish va mehnat shart-sharoitlarini monitoring qilish imkonini berdi. 2023 yilda bu jarayon yanada kuchayib, migrantlar soni 1669,1 ming kishiga, 2024 yilda esa 1775,1 ming nafarga yetdi. Demak, so‘nggi uch yil ichida raqamli platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida mehnat migratsiyasi oqimlari yanada tartibli, shaffof va xavfsiz bo‘lib, fuqarolarning xorijiy mamlakatlarda qonuniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatlari kengaydi (1-jadval).

Mehnat migrantlarining xorijga chiqish ko‘rsatkichlari yildan-yilga ortib borayotgani quvonarli bo‘lsa-da, bu jarayonda ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, raqamli platformalardan foydalanish, onlayn ro‘yxatdan o‘tish yoki sun’iy intellekt imkoniyatlari orqali ish qidirish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli ko‘plab fuqarolar qonuniy tartibda ishga joylashish imkoniyatidan to‘liq foydalana olmayapti. Natijada, ular ko‘proq an’anaviy yo‘llarni tanlashga, hatto ayrim hollarda nolegal yo‘llar orqali chet elga chiqishga urinmoqda. Bu esa nafaqat mehnat migrantlarining huquqiy himoyasini susaytiradi, balki ularning moliyaviy, ijtimoiy va shaxsiy xavfsizligiga ham jiddiy tahdid soladi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini keng ommaga yetkazish, migrantlarga ushbu vositalarni osonlashtirilgan shaklda taqdim etish hamda ularni amaliy qo‘llash bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish mehnat migratsiyasini qonuniy, xavfsiz va samarali boshqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mehnat migratsiyasi murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy va keng qamrovli jarayon bo‘lgani sababli uni samarali boshqarish, nazorat qilish va xavfsiz yo‘naltirish davlatlar hamda jamiyatlar oldida muhim vazifalardan biridir. Migratsiya jarayonlarini kuzatish, monitoring qilish va kelajakdagi tendensiyalarni aniq bashorat qilishda raqamli platformalar va sun’iy intellektdan foydalanish katta afzalliklar beradi. Masalan, sun’iy intellekt yordamida migratsiya oqimlari haqida tezkor ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan ko‘ra olish imkoniyati mavjud. Shuningdek, raqamli platformalar orqali mehnat migrantlari bilan doimiy aloqada bo‘lish, ularga kerakli huquqiy va ijtimoiy maslahatlarni yetkazish, qiyin vaziyatlarda esa tezkor yordam ko‘rsatish yanada osonlashadi. Bu texnologiyalar migrantlarning noqonuniy chiqib ketishini kamaytirish, ularning huquqlarini himoya qilish hamda iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanishga sharoit yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois mehnat migratsiyasini zamonaviy texnologiyalar orqali boshqarish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki inson manfaatlarini himoya qilishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mehnat migratsiyasini raqamli platformalar orqali boshqarishning afzalliklariini quyidagi imkoniyatlar mavjud deb hisoblaymiz

Yagona elektron ma’lumotlar bazasi – kiruvchi va chiquvchi shaxslarning aniq hisobini yuritish imkonini beradi. Bu esa davlat organlariga migratsiya oqimini nazorat qilish, statistik ma’lumotlarni to‘plash va kelgusida samarali boshqaruv choralarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lumot olish – xorijiy mamlakatlarda mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlarni muntazam yangilanadigan raqamli platformalarda joylashtirish orqali fuqarolar o‘zlariga mos ishni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Onlayn muloqot qilish imkoniyati – migrantlar ish beruvchilar, konsullik vakillari, migratsiya agentliklari yoki huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar bilan tezkor va bevosita bog‘lana oladilar.

Pul o‘tkazmalarini amalga oshirish – raqamli platformalar orqali migrantlar o‘z mablag‘larini xavfsiz, tez va qulay shaklda vatandagi yaqinlariga yubora olishadi.

Murakkab hayotiy vaziyatlarda yordam olish – mobil ilova orqali migrantlar qiyin ahvolda qolganida huquqiy, tibbiy yoki ijtimoiy yordam ko‘rsatadigan tashkilotlar bilan tezkor bog‘lanish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shaffoflik va korrupsiyaning oldini olish – barcha jarayonlar elektron tarzda qayd etilgani sababli noqonuniy vositachilar faoliyati kamayadi va migrantlar uchun xavfsiz muhit yaratiladi.

Tahliliy imkoniyatlar – raqamli platformalarda yig‘iladigan katta hajmdagi ma’lumotlar migratsiya oqimlarini prognoz qilish, davlat siyosatini yanada samarali rejalashtirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-sentabrdagi “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-367-son Qarori. Manba: https://lex.uz/docs/7170464
2. Smith, Adam. The Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell, 1776, pp. 110–125.
3. Ricardo, David. On the Principles of Political Economy and Taxation. London: John Murray, 1817, pp. 87–102.
4. Ivakhnyuk, Irina. Migration Policy in Russia: The State and the Society. Moscow: Russian Academy of Sciences, 2009, pp. 55–70.
5. Rybakovskiy, L. L. Migratsionnye protsessy v Rossii. Moscow: Nauka, 2001, pp. 33–48.
6. Tiuriukanova, E. V. Labor Migration in Russia. Moscow: MAX Press, 2010, pp. 120–138.
7. Baldwin, Richard. The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization. Harvard University Press, 2016, pp. 201–220.
8. Acemoglu, Daron, and Pascual Restrepo. “The Race between Man and Machine: Implications of Technology for Growth, Factor Shares, and Employment.” American Economic Review, vol. 108, no. 6, 2018, pp. 1488–1495.
9. Brynjolfsson, Erik, and Andrew McAfee. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company, 2014, pp. 45–67.
10. Abduraxmonov Q.X., Zokirova N.Q. Sun’iy intellekt davrida mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: “ILM-MA’RIFAT” nashriyoti, 2025. – 356 bet.

НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ СТАТИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА РЫНКА ТРУДА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Таирова Алия Тагировна
главный специалист Национального комитета
Республики Узбекистан по статистике, самостоятельный соискатель PhD

Аннотация: В статье проведён комплексный статистический анализ рынка труда Самаркандской области за 2010-2024 гг. Использованы методы описательной статистики, графического анализа и регрессионного моделирования с применением программного обеспечения Stata. Рассмотрены ключевые показатели рынка труда: численность трудовых ресурсов, занятых и безработных, уровень занятости и безработицы. Определены средние значения, темпы прироста, диапазоны колебаний и стандартные отклонения. Построены графические модели динамики показателей и темпов их изменения. С помощью линейной регрессии выявлено влияние численности населения, объёма инвестиций в основной капитал и валового регионального продукта на занятость.

Ключевые слова: статистика труда, рынок труда, трудовые ресурсы, занятость, безработица, Самаркандская область, описательная статистика, динамические ряды, регрессионный анализ, графический анализ, Stata.

Annotatsiya: Maqolada 2010–2024-yillar davomida Samarqand viloyati mehnat bozori bo‘yicha kompleks statistik tahlil amalga oshirilgan. Tahlilda tavsifiy statistika, grafik tahlil va Stata dasturidan foydalangan holda regressiya modellashtirish usullari qo‘llanilgan. Mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari – mehnat resurslari soni, band va ishsizlar ulushi, bandlik va ishsizlik darajasi ko‘rib chiqilgan. O‘rtacha qiymatlar, o‘sish sur’atlari, tebranish diapazonlari va standart og‘ishlar aniqlangan. Ko‘rsatkichlarning dinamikasi va o‘zgarish sur’atlarini ifodalovchi grafik modellar qurilgan. Chiziqli regressiya yordamida aholi soni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi va yalpi hududiy mahsulotning bandlikka ta’siri aniqlangan.

Kalit so‘zlar: mehnat statistikasi, mehnat bozori, mehnat resurslari, bandlik, ishsizlik, Samarqand viloyati, tavsifiy statistika, dinamik qatorlar, regressiya tahlili, grafik tahlil, Stata.

Abstract: The article presents a comprehensive statistical analysis of the labor market in Samarkand region for the period 2010–2024. Methods of descriptive statistics, graphical analysis, and regression modeling using Stata software were applied. Key labor market indicators such as the number of labor resources, employed and unemployed persons, employment and unemployment rates were examined. Average values, growth rates, fluctuation ranges, and standard deviations were identified. Graphical models illustrating the dynamics of indicators and their growth rates were constructed. Using linear regression, the influence of population size, investment in fixed capital, and gross regional product on employment was determined.

Key words: labor statistics, labor market, labor resources, employment, unemployment, Samarkand region, descriptive statistics, time series, regression analysis, graphical analysis, Stata.

ВВЕДЕНИЕ

В эпоху глобализации и стремительных социально-экономических трансформаций особую значимость приобретает статистика труда, так как труд (рабочая сила) является ключевой составляющей экономики, без которой невозможно развитие. Статистический анализ рабочей силы обеспечивает комплексное и систематизированное отражение состояния и динамики рынка труда.

Самаркандская область занимает стратегически важное место в социально-экономической системе Республики Узбекистан благодаря своему географическому положению, демографическому потенциалу и экономической активности. Регион является страгически важным также благодаря тому, что имеет высокое культурное наследие и туристическую значимость. В свою очередь, туристический поток будет высоким там, где есть социальная и экономическая стабильность. Так как Самаркандская область является одной из крупнейших по численности населения в республике – это формирует значительный объём трудовых ресурсов, а также создаёт высокий спрос на рабочие места.

В связи с этим возникает необходимость тщательного статистического анализа рынка труда Самаркандской области, что позволит выявить территориальные особенности занятости и безработицы, определить отрасли с наибольшим дефицитом или избытком рабочей силы, оценивать уровень и динамику заработной платы, а также качество занятости. Эти данные необходимы для разработки региональных программ занятости, повышения конкурентоспособности рабочей силы, привлечения инвестиций и обеспечения устойчивого социально-экономического развития региона. Кроме того, результаты анализа способствуют более эффективной интеграции Самаркандской области в общенациональные и международные экономические процессы.

Вместе с тем, проведению эффективного статистического анализа способствует широкое применение различных программных инструментов. Указом Президента Республики Узбекистан № УП-27 «О дополнительных мерах по выведению на новый этап системы организации и ведения статистических работ» обозначена необходимость запуска информационной системы «Статистика регионов» и внедрение в органах статистики ряда интерактивных услуг с использованием технологий искусственного интеллекта [1].

Построению эконометрических и статистических моделей с помощью различных программ посвящено множество работ. Так, например, Любимова О.Н. и Сиськов В.В. в 2017 году составили практикум по построению и проверке регрессионных моделей при обработке результатов факторных экспериментов для работы в Excel [2]. Гришин В.А. и Тихов М.С. разработали учебно-методическое пособие по методам обработки данных и моделированию на языке R, включающее в себя базисные методы статистической обработки данных и регрессионное моделирование [3]. Айвазян С.А., Пеникас Г.И. благодаря работе американского профессора Баума К.Ф. выпустили в свет структурированное описание всех возможностей эконометрического программного пакета Stata [4].

МЕТОДОЛОГИЯ

Методология исследования заключается в использовании некоторых методов статистического анализа рынка труда, в том числе с помощью специальных программ, таких как Stata. Проведен статистический анализ динамических рядов по трудовым ресурсам, численности занятых и безработных, а также их уровня, в Самаркандской области.

В исследовании использованы методы описательной статистики и графического анализа, отличающегося наглядностью и доступностью восприятия. Суть графического анализа заключается в визуальном представлении статистических данных, что позволяет проследить динамику показателей во времени, выявить тенденции и провести их последующую интерпретацию.

Кроме того, для выявления и количественной оценки взаимосвязей между зависимой (целевой) переменной и одной или несколькими независимыми переменными (предикторами) применён регрессионный анализ. Данный подход даёт возможность определить степень и характер влияния изменений независимых переменных, а именно численности населения, объёма инвестиций в основной капитал и валового регионального продукта, на поведение зависимой переменной (численности занятых).

При этом, регрессионный анализ вычисляет коэффициенты, которые описывают отношение между независимыми и зависимой переменными, и включает статистические тесты, такие как t-тест и F-тест, для оценки статистической значимости коэффициентов регрессии и модели в целом [5]. Все расчеты проведены в программе Stata.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Статистика труда служит информационной базой для органов государственного управления, инвесторов, научных исследований и международных организаций, обеспечивая возможность объективного анализа, прогнозирования тенденций и выработки стратегий устойчивого развития. Данный вид статистики позволяет оценивать уровень занятости и безработицы, структуру и качество рабочей силы, динамику заработной платы, условия и производительность труда. На основе этих данных формируются и корректируются государственные социально-экономические программы, разрабатываются меры по повышению эффективности занятости и снижению безработицы, а также проводится мониторинг социально-экономического развития региона.

Для начала проведения статистического анализа рынка труда Самаркандской области, необходимо проанализировать весь круг, имеющихся статистических показателей по труду в данном регионе в динамике.

Своеобразность Самаркандской области заключается прежде всего в высоких темпах роста численности населения, в том числе трудовых ресурсов, значительно превышающих показатели других областей Республики Узбекистан. При этом интенсивный рост населения происходит, главным образом, за счет большого его естественного прироста [6].

В 2024 году в Самаркандской области численность трудовых ресурсов составила 2193,6 тыс. человек, из них занятые - 1521,4 тыс. человек, безработные – 86,3 тыс. человек [7]. Основные показатели рынка труда Самаркандской области в динамике за последние 15 лет представлены в таблице 1.

Таблица 1. Динамика основных показателей рынка труда Самаркандской области[1]

Годы	Численность трудовых ресурсов, тыс. человек	Численность занятых в экономике, тыс. человек	Численность безработных, тыс. человек	Уровень занятости, %	Уровень безработицы, %
2010	1815,7	1229,9	78,4	64,7	6,0
2011	1902,6	1269,8	74,2	64,0	5,5
2012	1943,7	1314,4	74,6	64,7	5,4
2013	1973,8	1357,3	76,2	65,4	5,3
2014	2003,8	1402,5	82,6	66,5	5,6
2015	2033,6	1443,9	86,7	67,6	5,7
2016	2058,2	1485,1	90,6	68,7	5,7
2017	2079,6	1523,1	106,7	69,7	6,5
2018	2103,4	1463,3	157,3	66,3	9,7
2019	2117,1	1455,8	148,4	65,3	9,3
2020	2125,2	1418,3	174,6	63,2	11,0
2021	2122,0	1441,3	158,4	63,7	9,9
2022	2164,8	1479,8	152,5	64,7	9,3
2023	2167,6	1504,2	106,8	65,0	6,6
2024	2193,6	1521,4	86,3	64,8	5,4

Из таблицы 1 видно, что абсолютные показатели в большинстве годов демонстрируют рост в то время, как уровень занятости и безработицы - колебания. Численность трудовых ресурсов возросла на 377,9 тыс. человек в 2024 году по сравнению с показателем за 2010 год, что составляет 120,8 %. Максимальный прирост зафиксирован в 2022 году (увеличение на 42,8 тыс. человек по сравнению с предыдущим годом).

Численность занятых в 2024 году по отношению к 2010 году увеличилась на 291,5 тыс. человек или 123,7 %, а численность безработных – на 7,9 тыс. человек, что указывает на темп роста, равный 110,1 %. При этом с 2010 по 2017 год численность занятых стабильно росла, увеличившись с 1229,9 тыс. до 1523,1 тыс. человек. В 2018 году произошел резкий спад занятости до 1463,3 тыс. человек (снижение на 59,8 тыс. человек), что совпадает с ростом безработицы. Восстановление занятости началось с 2021 года, достигнув 1521,4 тыс. человек в 2024 году.

Безработица снижалась до 2017 года, достигнув минимума в 74,2 тыс. человек в 2011 году. С 2017 года безработица увеличилась, достигнув пика в 2020 году - 174,6 тыс. человек. В 2024 году уровень безработицы резко снизился до 86,3 тыс. человек.

Уровень занятости колебался между 63,2% в 2020 году и 69,7% в 2017 году. Снижение уровня занятости наблюдается после 2017 года, что связано с ростом численности безработных. В 2024 году уровень занятости вернулся к 64,8 %, что выше кризисного уровня 2020 года.

Уровень безработицы достиг исторического минимума в 5,3% в 2013 году. С 2018 года начался резкий рост, достигнув максимума в 11% в 2020 году. В 2024 году уровень безработицы снизился до 5,4%, что равно уровню 2012 года.

Для более глубокого статистического анализа тенденций, происходящих на рынке труда в Самаркандской области, были рассчитаны среднее значение для каждой переменной, среднегодовой

1 https://stat.uz/ru

прирост, максимальное значение, минимальное значение, разница в максимальном и минимальном значении, стандартное отклонение.

Расчеты были проведены в программе Stata, т.к. она позволяет пользователям использовать стандартные и нестандартные методы анализа данных благодаря своей способности реализовывать мощный язык программирования в анализе для конкретного использования [8].

Итоговые показатели представлены в таблице 2.

Таблица 2. Основные сводные статистические показатели развития рынка труда Самаркандской области в 2010 – 2024 гг.[2]

	Численность трудовых ресурсов, тыс. человек	**Численность занятых в экономике, тыс. человек**	**Численность безработных, тыс. человек**	**Уровень занятости, %**	**Уровень безработицы, %**
	2053,6	1420,7	110,3	65,6	7,1
x_{max}	2193,6	1523,1	174,6	69,7	11,0
x_{min}	1815,7	1229,9	74,2	63,2	5,3
Δx (R)	377,9	293,2	100,4	6,6	5,7
σ^2	11621,4	8148,6	1354,4	3,4	4,2
σ	107,8	90,3	36,8	1,8	2,1
AGR	1,5	1,6	0,7	0,0	-0,9

Из таблицы 2 можно сделать следующие выводы. Среднее значение для численности трудовых ресурсов составило 2053,6 тыс. человек, тогда как максимум x_{max} был зафиксирован в 2024 году и составил 2193,6 тыс. человек, а минимум x_{min} – в 2010 году с численностью в 1815,7 тыс. человек. Разница Δx равна 377,9 тыс. человек. Стандартное отклонение σ составляет 107,8 тыс. человек, а среднегодовой прирост равен 1,5 %. Это свидетельствует об устойчивом росте численности трудовых ресурсов. Среднегодовой прирост невысокий, что говорит о стабильной, но умеренной динамике.

Среднее значение для численности занятых в экономике составило 1420,7 тыс. человек, тогда как максимум x_{max} был зафиксирован в 2017 году и составил 1523,1 тыс. человек, а минимум x_{min} – в 2010 году с численностью в 1229,9 тыс. человек. Разница Δx равна 293,2 тыс. человек. Стандартное отклонение σ составляет 90,3 тыс. человек, а среднегодовой прирост равен 1,6%. Численность занятых росла до 2017 года, но наблюдался спад с 2018 года. При этом стандартное отклонение показывает умеренную изменчивость.

Среднее значение для численности безработных составило 110,3 тыс. человек, тогда как максимум x_{max} был зафиксирован в 2020 году и составил 174,6 тыс. человек, а минимум x_{min} – в 2011 году с численностью в 74,2 тыс. человек. Разница Δx равна 100,4 тыс. человек. Стандартное отклонение σ составляет 36,8 тыс. человек, а среднегодовой прирост равен 0,7 %. Таким образом, численность безработных значительно выросла с 2018 по 2020 годы.

Среднее значение для уровня занятости составило 65,6 %, тогда как максимум x_{max} был зафиксирован в 2017 году и составил 69,7 %, а минимум x_{min} – в 2020 году с уровнем в 63,2 %. Разница Δx равна 6,6 %. Стандартное отклонение σ составляет 1,8 %. Уровень занятости остаётся относительно стабильным, с небольшими колебаниями. Максимальные значения наблюдаются до кризиса 2018-2020 годов.

Среднее значение для уровня безработицы составило 7,1 %, тогда как максимум x_{max} был зафиксирован в 2020 году и составил 11,0 %, а минимум x_{min} – в 2013 году с уровнем в 5,3 %. Разница Δx равна 5,7 %. Стандартное отклонение σ составляет 2,1 %. Уровень безработицы достиг пика в 2020 году. После 2020 года наблюдается спад, но уровень остаётся выше значений до 2018 года.

Стандартное отклонение и дисперсия показывают, что наиболее значительные колебания наблюдаются в численности безработных и уровне безработицы.

2 Составлено авторами на основе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистики

В целях визуализации данных и их понятной интерпретации целесообразно составление графика и проведение графического анализа данных, который позволяет выявить тренды и закономерности. Функции построения графиков представлены во многих программных продуктах, включая Excel, Stata и R.

Полезные советы в построении графиков можно найти в некоторых научных трудах, публикуемых в The Stata Journal - ежеквартальном рецензируемом издании, посвященном статистике, анализу данных, методам преподавания и эффективному использованию языка Stata [9].

В программе R с помощью пакета ggplot возможно построение различных графиков, отличающихся красотой [10]. Однако, составление графиков в программе R требует наличие определенных навыков программирования.

Самым простым и знакомым всем способом является построение графика в Excel. В связи с этим, а также принимая во внимание разнообразие визуализации данных, наш график был составлен в программе Excel (рисунок 1).



Рисунок 1. Численность трудовых ресурсов, занятых и безработных в Самаркандской области, тыс.человек[3]

На представленном выше графике видно, что численность трудовых ресурсов в Самаркандской области в течение рассматриваемого периода стабильно растет. Если в 2010 году их численность составляла 1,8 млн человек, то к 2014 году этот показатель достиг отметки в 2,0 млн человек, а к 2023 году - составил 2,2 млн человек, увеличиваясь при этом в среднем в год на 20 тыс. человек.

Немного иная ситуация с численностью занятых и безработных. Здесь наблюдаются небольшие увеличения в определенных годах и периодические их снижения. Так, например, в 2010-2017 гг. наблюдался стабильный рост численности занятых в экономике, то в 2018 г. их численность снизилась и оставалась на том же уровне до 2019 г., а в 2020 г. их численность снова снизилась с последующим увеличением.

Численность безработных в 2010-2013 гг. была относительно стабильна и начала медленно увеличиваться с 2014 до 2017 года, затем резко возросла в 2018 г. и далее наблюдались незначительные изменения в их численности.

Изменения в динамических рядах отчетливее видны при анализе показателей интенсивности в рядах динамики, которые позволяют выявить скорость и интенсивность изменений.

При графическом анализе показателей интенсивности рядов динамики на оси абсцисс отложим параметры года, а на оси ординат – значения темпов прироста (снижения). Если точка находится выше оси абсцисс, значит наблюдается рост заданного значения, если ниже – снижение (рисунок 2).

3 Составлено авторами на основе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистики



Рисунок 2. Изменения численности трудовых ресурсов, занятых и безработных в Самаркандской области (темпы прироста / снижения), в %[4]

Как и в случае с графиком, представленным на рисунке 1, график на рисунке 2 демонстрирует стабильность в численности трудовых ресурсов. В среднем за обследуемый период их темп роста составил 100,9 %, о чем свидетельствует кривая, пролегающая в тесной близи к оси абсцисс. Численность занятых в экономике также не претерпела значительных изменений. Лишь численность безработных менялась заметно в период после 2016 года. Так, пик роста безработицы наблюдался в 2018 года (увеличение на 47,4 % или темп роста составил 147,4 %), а пик снижения – в 2023 году (снизилась на 30,0 %, что эквивалентно темпу роста в 70,0 %).

Изучить тенденции, происходящие на рынке труда возможно благодаря проведению регрессионного анализа связи переменных численности занятых с численностью населения, валовым региональным продуктом (ВРП) в постоянных ценах и инвестициями в основной капитал в постоянных ценах.

Программа Stata благодаря команде regres выполнит расчеты линейной регрессии. Результаты анализа представлены в таблице 3.

Таблица 3. Результаты регрессионного анализа взаимосвязи численности занятых с другими пременными

Источник	Сумма квадратов	dF	MS	Число наблюдений	=	15
Модель	108811,91	3	36270,64	F (3, 11)	=	75,74
				Prob > F	=	0,0000
Остаток	5267,82	11	478,89	R-квадрат	=	0,9538
				Скорректированный R-квадрат	=	0,9412
Итого	114079,73	14		Среднеквадратическая ошибка	=	21,8836

4 Составлено авторами на основе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистики

Численность занятых	Коэффициент	Стандартная ошибка	t	P > |t|	95%-й доверительный интервал	
Численность населения	- 0,03114	0,19116	- 0,16	0,874	- 0,45188	0,38960
ВРП	0,06582	0,01747	3,77	0,003	0,02736	0,10428
Инвестиции	- 0,07518	0,01174	- 6,40	0,000	- 0,10101	- 0,04934
_cons	945,36667	492,06134	1,92	0,081	-137,6530	2028,38638

Результаты линейной регрессии показывают на то, что F-статистика равная 75,74 с p < 0.0001 указывает на то, что модель в целом статистически значима. Модель объясняет 95,4 % вариации численности занятых и указывает на очень высокое качество подгонки. Скорректированный R-квадрат почти такой же и означает то, что модель не «переобучена» на лишние переменные

Также из таблицы 3 видно, что рост численности населения на 1 тыс. человек связан со снижением числа занятых приблизительно на 31 человека, при прочих равных. Но эффект статистически незначим, значит, население само по себе в этой модели не объясняет вариацию занятости.

Рост инвестиций на 1 млрд сум в постоянных ценах связан с сокращением занятости примерно на 75 человек. Эффект отрицательный и значимый. Возможно, инвестиции идут в капиталоёмкие технологии, заменяющие труд (механизация, автоматизация).

Рост ВРП на 1 млрд сум связан с увеличением занятости приблизительно на 66 человек. Эффект положительный и значимый символизирует то, что рост экономики ведёт к созданию рабочих мест.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Изучение статистики труда имеет ключевое значение, так как позволяет объективно оценивать состояние и тенденции рынка труда, прогнозировать его развитие, разрабатывать эффективные меры занятости, обеспечивать социальную стабильность и повышать инвестиционную привлекательность региона и страны в целом.

Результаты анализа ключевых показателей рынка труда Самаркандской области в динамике за 2010-2024 гг. показали устойчивый рост численности трудовых ресурсов и умеренный рост числа занятых, при этом уровень занятости остаётся относительно стабильным. Численность безработных демонстрировала значительные колебания, с пиком в 2020 г. (174,6 тыс. человек) и последующим снижением.

Для визуализации данных был применен графический анализ, который подтвердил выводы, полученные описательной статистикой.

Регрессионный анализ показал, что модель с факторами «численность населения», «инвестиции в основной капитал» и «ВРП» объясняет 95,4 % вариации занятости.

Таким образом, полученные в ходе расчётов результаты можно использовать в дальнейшем в нескольких направлениях, в том числе прогнозировании рынка труда Самаркандской области, разработке региональных программ занятости, экономическом планировании и инвестиционной политике. Данные могут также служить основой для дальнейших углублённых исследований — например, изучения влияния отраслевой структуры экономики на занятость или анализа гендерных различий на рынке труда.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-27 «О дополнительных мерах по выведению на новый этап системы организации и ведения статистических работ» от 24.02.2025 г.
2. Построение и проверка регрессионных моделей при обработке результатов факторных экспериментов: для студентов, обучающихся по направлению «Прикладная механика»: практикум / сост. О.Н. Любимова, В.В. Сиськов; Инженерная школа ДВФУ. – Владивосток: Дальневост. федерал. ун-т, 2017. – 36 с. – ISBN 978-5-7444-4100-5
3. Гришин В.А., Тихо М.С. Методы обработки данных и моделирование на языке R: Учебно-методическое пособие – Нижний Новгород: Нижегородской университет, 2019. – 54 с.

4. Баум К. Ф. Эконометрика. Применение пакета Stata: учебник и практикум для вузов / К. Ф. Баум, С. А. Айвазян, Г. И. Пеникас; под редакцией С. А. Айвазяна, Г. И. Пеникаса. — Москва: Издательство Юрайт, 2016. — 370 с.
5. Таирова А.Т. Статистический анализ занятости и безработицы в Самаркандской области на основе методов графического и регрессионного анализа \\ «O‘zbekiston Statistika axborotnomasi. Ilmiy - elektron jurnal», 2024-yil, 2 (17)-son.
6. Кадиров М.А., Бердикулов Ф.Ф. Совершенствование региональной системы расселения Самаркандской области. // «Экономика и социум» №9(88). 2021. – с. 411 – 416.
7. Официальный сайт Национального комитета Республики Узбекистан по статистике stat.uz
8. Emad Masuadi, Mohamud Mohamud, Muhannad Almutairi, Abdulaziz Alsunaidi, Abdulmohsen K Alswayed, Omar F Aldhafeeri. Trends in the Usage of Statistical Software and Their Associated Study Designs in Health Sciences Research: A Bibliometric Analysis // Cureus 13(1): e12639. Published online 2021 Jan 11. doi:10.7759/cureus.12639
Mobil aloqadan tashqari, qurilishda zamonaviy raqamlashtirish va avtomatlashtirish vositalari, kengroq uskunalar (dronlar, robototexnika va ularning kombinatsiyasi), IT va dasturiy ta’minot (axborotni modellashtirish texnologiyasi, avtomatlashtirilgan materiallarni kuzatish uchun RFID, uskunalarga o‘rnatilgan sensorlar, videokuzatuv kameralari, mobil ilovalar va ish joylaridan birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish uchun vositalar) jarayonlarni takomillashtirish, real vaqt rejimida ma’lumot bilan ta’minlash, qurilish maydonchasida ish xavfsizligini yanada samarali tarzda yaxshilash, ish joyidagi xavfsizlik darajasini sezilarli oshirish hamda ish sifatini yaxshilash va boshqarishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

2 Milliy statistika qo‘mitasi saytidan olingan. (https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/59341-2025-yil)

Axborotni modellashtirish texnologiyasi materiallari asosidagi zamonaviy suratga olish va videokuzatuv texnologiyalari yordamida masofaviy mualliflik nazorati, mehnatni muhofaza qilish va obyekt xavfsizligini ta’minlash muammolarini hal qilish mumkin. Ish kunining oxirida tegishli ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi tezkor ma’lumotlar asosida zarur boshqaruv qarorlarini qabul qilishni boshlash imkonini beruvchi hisobot hujjatlari shakllantiriladi.

Zamonaviy raqamli vositalar va to‘rtinchi sanoat inqilobi yutuqlarini takomillashtirish orqali axborot resurslarini samarali to‘plash, tahlil qilish va ilmiy boshqarishni tashkil etish sanoat tarixida birinchi marta mavjud zaxiralardan faol foydalanish, mehnat unumdorligi va qurilish nazorati samaradorligini ilgari erishib bo‘lmaydigan darajaga ko‘tarish, shuningdek, qurilishning abadiy muammolarini — qurilish obyektlarining me’yoriy muddatlariga rioya qilmaslik va ortiqcha xarajatlarni bartaraf etish imkonini beradi.

“End-to-end” texnologiyalari doirasida imkon qadar ko‘proq ish jarayonlarini raqamlashtirish istagi ma’lumotlarning boshqaruvning markaziy elementiga aylanishiga olib keladi. Bu menejerlar uchun materiallar, mashinalar, odamlar, jarayonlar, natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hajmini oshiradi, shaffoflikni kuchaytiradi va qurilish ishlarining barcha ishtirokchilari o‘rtasida ishonchni o‘rnatadi.

Hozirgi vaqtda qurilish sanoati qurilish mahsulotlarini loyihalash, ishlab chiqarish va ulardan foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda o‘zgartirishning muhim bosqichiga duch kelmoqda, bu esa belgilangan tartibni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ushbu transformatsiyaning asosiy yo‘nalishi — qurilish mahsulotlarining hayot aylanishining barcha bosqichlariga ta’sir qiluvchi obyektlarni qurishdagi barcha jarayonlarni raqamlashtirishdan iborat [9] (3-rasm).



3-rasm. Qurilish maydonchasi haqidagi axborot resurslarining integratsiyasi.

Raqamlashtirishning asosi — qurilish loyihasi bilan bog‘liq barcha axborot resurslarini identifikatsiyalash, kataloglashtirish va hujjatlashtirish, ularni tarmoqning yagona axborot makoniga integratsiyalash, “kengaytirilgan” tashkilotlar uchun “end-to-end” texnologiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Ushbu transformatsiyani osonlashtiradigan eng muhim texnologiyalardan biri — qurilish loyihalarini axborot modellashtirish texnologiyasi hisoblanadi.

Bino axborotini modellashtirishning umumiy mafkurasi (kontseptual yondashuv, butun hayot tsikli davomida boshqaruvga tizimli yondashuv, umumiy ma’lumotlar muhiti, yaxlit parametrik ma’lumotlar modellarini qo‘llash, shartnomalar tuzish va bajarish tizimi) deyarli har doim kapital qurilishning barcha tarmoqlariga qo‘llaniladi. Biroq, bino axborotini modellashtirishni to‘liq qo‘llashga to‘sqinlik qiladigan bir qator jiddiy muammolar mavjud. Avvalo, bu har qanday modellar uchun to‘liq standartlarning yo‘qligi va qurilish modellaridan tashqari boshqa ma’lumotlarning mavjud emasligidir. Shu sababli, turli xil mulkiy formatlardan foydalanish va ma’lum bir dasturiy ta’minot bilan bog‘lanishga to‘g‘ri keladi, bu esa jamoaviy ishni to‘liq tashkil etish va umumiy ma’lumotlar muhitini yaratishga imkon bermaydi.

Dasturiy ta’minot sizga bino va inshootlarning uch o‘lchovli prototiplarini yaratish imkonini beradi, ularni dizayner vizualizatsiya qiladi. Ushbu yondashuv mijozlarga loyihalarni taqdim etuvchilar uchun dolzarbdir, chunki ba’zida vizual tasvir chizmalardan va texnik xususiyatlar to‘plamidan ko‘proq ma’lumot bera oladi.

Bundan tashqari, dastur sizga qurilish muhandislik tizimlarining yagona tarmog‘ini sozlash, uning ma’lum bir elementini ajratish va faqat u bilan ishlash imkonini beradi (masalan, ishlab chiqarish xonasidagi havo kanallari tarmog‘ini qayta sozlash).

Revit dasturining muhim xususiyati shundaki, barcha loyiha elementlari bir-biriga bog‘langan va ulardan biridagi eng kichik o‘zgarishlar darhol boshqalarda aks etadi. Bu elementlarning o‘zaro mosligini ta’minlaydi va nomuvofiqliklarni bartaraf etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko‘rsatilgan texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri maxsus ma’lumotlar bazasi bo‘lib, u qurilish obyektining (bino, inshoot) axborot modeli deb ataladi. Darhaqiqat, axborotni modellashtirish — bu infratuzilma obyektlari, texnologik tizimlar va qurilish loyihasining o‘zini yagona raqamli kompleks sifatida ishlab chiqilgan holda qurilish loyihasini qurish, jihozlash va hayot tsiklini boshqarishga zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Axborot modellari xarajatlar va xavflarni boshqarish vositalarini, ishlarni yakunlash muddatlarini va loyihani amalga oshirishdagi o‘zgaruvchanlikni o‘z ichiga olishi mumkin.

Axborotni modellashtirish texnologiyasi nafaqat binoning har qanday elementi va tizimlarini 3D vizualizatsiya qilish, balki ularni joylashtirishning turli variantlarini hisoblash, kelajakdagi binolarning ekspluatatsion xususiyatlarini tahlil qilish, optimal yechimni tanlashni soddalashtirish imkonini beradi. Natijada, ko‘p sonli o‘zgartirishlar va qayta loyihalashlarning oldini olish, vaqtni tejash, qurilish xarajatlarini hamda obyektlarning keyingi ekspluatatsiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin bo‘ladi.

Axborotni modellashtirish texnologiyasini joriy etish qurilayotgan obyektlarning smeta qiymatini pasaytiradi, kapital qo‘yilmalar samaradorligini oshiradi va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi.

Shuningdek, axborotni modellashtirish texnologiyalari yordamida subpudratchilar tomonidan qurilish ishlarini qabul qilish va ularning sifatini baholashni muvofiqlashtirish elektron hujjatlarning soddalashtirilgan shakllaridan foydalangan holda yaxshilanadi. Bu esa qurilish nazorati natijalarini qayd etish, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlarga ishlar va materiallar sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. – T.: Fan, 2010. - 704 b.
2. Адаменко, Г.М. Компьютерные технологии в архитектурностроительном проектировании : пособие проектировщику / Г.М. Адаменко,Н.Н. Горбачев, А.И. Ничкасов – Министерство архитектуры и строительстваРеспублики Беларусь, ОАО «Институт «Гомельпроект». – Минск:Минсктиппроект, 2006. – 173 с
3. Волков, А.А. Информационные системы и технологии в строительстве. / учебное пособие. / А.А.Волков – М.: Московский государственный строительный университет, 2015. – 424 с. Режим доступа: http://www.iprbookshop.ru/40193 – Дата доступа: 15.01.2020
4. Пурс, Г.А. Цифровая экономика строительства. / Г.А.Пурс //«Строительство и ценообразование», № 5/2018. – Режим доступа:http://www.rstc.by/nash-katalog/zhurnal-stroitelstvo-i-tsenoobrazovanie/arkhivzhurnala – Дата доступа: 15.01.2020
5. Травуш, В.И. Цифровые технологии в строительстве. / В.И.Травуш – Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-tehnologii-vstro-itelst-ve/viewer – Дата доступа: 15.01.2020
6. Ишеев, И. Интеграционные решения для умного управления строительством. – Режим доступа: https://ict.moscow/presentation/integratsionnye-resheniia-dlia-umnogo-upravleniia-stroitelstvom/ – Дата доступа: 15.01.2020.
7. Вайсман С.М. Разработка организационно-технологических решений в строительстве с использованием технологий информационного моделирования (ТИМ). / С.М. Вайсман, А.Х. Байбурин – Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/razrabotka-organizatsionno-tehnologicheskihresheniy-v-stroitelstve-s-ispolzovaniem-tehnologiy-informatsionnogomodelirovaniya-tim-Дата доступа: 15.01.2020.
8. Чечко, С.Г. Автоматизация работы прорабов на строительных участках. – Режим доступа: https://www.katran-psk.ru/article/Our_articles/ Rabota _pro-rabov_v_USO.php – Дата доступа: 15.01.2020.
9. И.И.Ганчерёнок, Н.Н Горбачев, С. В.Спиридонов, А.Р.Рахимов, О. А. Киринович, О. Ж. Жураев. Цифровая трансформация в строительстве: информационное моделирование. Учебное пособие. (Под редакцией С.В. Харитончика и С.И.Ахмедова) Минск – 2021.
10. https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/59341-2025-yil- Milliy statistika qo‘mi-tasi.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ В ПРОИЗВОДСТВО ПЫЛЕУЛАВЛИВАЮЩЕГО ОБОРУДОВАНИЯ НОВОЙ КОНСТРУКЦИИ

Адилова Азиза Шухратовна
Ташкентский государственный экономический университет. PhD., доцент.
Email: azizaadilova80@gmail.com

Аннотация: В статье представлены результаты исследования по разработке и внедрению в промышленное производство усовершенствованной конструкции циклона для пылеулавливания на предприятиях хлопкоочистительной промышленности. Проведены теоретические и экспериментальные исследования, подтверждающие повышение эффективности очистки воздуха и снижение вредных выбросов. Экономическая эффективность внедрения нового оборудования составила 441,5 млн сум в год за счёт уменьшения капитальных и эксплуатационных затрат, снижения заболеваемости работников и улучшения экологической обстановки. Разработанная конструкция обеспечивает степень очистки воздуха до 95% и рекомендована к широкому применению на предприятиях отрасли.

Ключевые слова: пылеулавливатель, циклон, экономическая эффективность, хлопкоочистительная промышленность, конструкция, загрязнение воздуха, инновации, энергоэффективность, эксплуатационные затраты, рационализация, производительность, экология.

Annotatsiya: Maqolada paxta tozalash sanoati korxonalarida changni ushlash uchun mo‘ljallangan takomillashtirilgan siklon konstruktsiyasini ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga tadbiq etish natijalari yoritilgan. Teoretik va eksperimental tadqiqotlar havo tozalash samaradorligi hamda zararli chiqindilarni kamaytirish natijasini tasdiqlaydi. Yangi uskunani joriy etishning yillik iqtisodiy samaradorligi 441,5 million so‘mni tashkil etadi. Bu kapital va ekspluatatsiya xarajatlarining kamayishi, xodimlar salomatligining yaxshilanishi va ekologik muhitning sog‘lomlashuvi hisobiga erishilgan. Yangi siklon konstruktsiyasi havoni 95 foizgacha tozalash darajasini ta’minlaydi va uni tarmoq korxonalarida keng joriy etish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: chang ushlagich, siklon, iqtisodiy samaradorlik, paxta tozalash sanoati, konstruktsiya, havo ifloslanishi, innovatsiyalar, energiya tejamkorlik, ekspluatatsiya xarajatlari, ratsionalizatsiya, unumdorlik, ekologiya.

Abstract: The article presents the results of a study on the development and industrial implementation of an improved cyclone design for dust collection at cotton cleaning plants. Theoretical and experimental research confirmed increased air purification efficiency and reduced harmful emissions. The economic efficiency of introducing the new equipment amounted to 441.5 million soums per year due to reduced capital and operating costs, lower worker morbidity, and improved environmental conditions. The developed design ensures up to 95% air purification and is recommended for widespread implementation in the cotton processing industry.

Key words: dust collector, cyclone, economic efficiency, cotton cleaning industry, design, air pollution, innovation, energy efficiency, operating costs, rationalization, productivity, ecology.

ВВЕДЕНИЕ

Проблема запылённости воздуха на предприятиях хлопкоочистительной промышленности остаётся одной из наиболее актуальных экологических и производственных задач. Пылевые выбросы, образующиеся в процессе переработки хлопка, оказывают комплексное негативное воздействие как на здоровье работников, так и на окружающую среду. Мелкодисперсные частицы пыли способствуют развитию хронических заболеваний органов дыхания, снижают производительность труда и ухудшают санитарно-гигиенические условия на рабочих местах. С экологической точки зрения, повышенная концентрация пыли в атмосфере способствует загрязнению воздуха, оседанию частиц на прилегающих территориях и деградации почвенного покрова.

Существующие пылеулавливающие установки, применяемые на хлопкоочистительных предприятиях, не всегда обеспечивают необходимую степень очистки воздушных потоков. Их конструктивные и эксплуатационные характеристики часто не соответствуют современным требованиям энергоэффективности, экономичности и экологической безопасности. В результате возрастает уровень производственных потерь, увеличиваются эксплуатационные расходы и экологические риски.

В современных условиях устойчивого развития и перехода к «зелёной экономике» особое значение приобретает модернизация технологического оборудования, направленная на снижение пылевых выбросов и рациональное использование энергетических ресурсов. В этой связи актуальной научно-практической задачей является разработка усовершенствованных пылеулавливающих устройств, обеспечивающих высокую степень очистки воздуха при минимальных эксплуатационных затратах.

Целью данного исследования стало создание и промышленная апробация новой конструкции циклона, обладающей повышенной эффективностью улавливания пылевых частиц, а также оценка её экономической целесообразности при внедрении в производственный процесс хлопкоочистительных предприятий. Полученные результаты имеют не только производственное, но и социально-экологическое значение, способствуя повышению устойчивости и конкурентоспособности отрасли.

МЕТОДЫ

Теоретические исследования включали расчёт конструктивных параметров циклона, в частности отношения высоты к диаметру и критического диаметра частиц. Параметрические исследования показали зависимость эффективности улавливания от диаметра циклона. Экспериментальные испытания проводились на предприятии “REALAGRO COTTON” UK. Для изучения морфологии и дисперсного состава пылевых частиц использовался сканирующий электронный микроскоп. Экономическая эффективность рассчитывалась по «Методике определения экономической эффективности внедрения новой техники, инноваций и рационализаторских предложений». Сравнивались капитальные и эксплуатационные затраты базового и нового вариантов оборудования, а также учитывались дополнительные эффекты: сбор короткого волокна, снижение заболеваемости работников и уменьшение загрязнения атмосферы [1].

РЕЗУЛЬТАТЫ

Для циклонов с диаметром 1000, 1200, 1400, 1600 и 2000 мм, предел отношения высоты циклона на его диаметр стал 11,6; 9,8; 8,7; 7,60 и 6,6, соответственно.Параметрические исследования показывают, что чем меньше диаметр циклона, тем выше эффективность сбора циклона.

По мере увеличения отношения высоты циклона к диаметру эффективность улавливания циклона также увеличивалась. Дело в том, что критический диаметр уменьшается по мере увеличения отношения высоты циклона к диаметру. В ходе испытаний этих 5-ти пылеуловителей новой конструкции на хлопкоочистительном заводе ежедневно собирается дополнительно 101,4 кг отходов производства качественного короткого волокна. Также за счет установки данного оборудования снижается уровень загрязнения атмосферы. Экономическая эффективность внедрения в производство нового конструктивный пылеуловителя рассчитана на основании действующей «Методики определения экономической эффективности внедрения новой техники, инноваций и рационализаторских предложений в народное хозяйство» [2].

Согласно формуле 1. этой методики экономическая эффективность, получаемая при производстве и использовании нового орудия труда (машины, оборудования и т.п.), определяется по следующей формуле:

$$\acute{Y} = \left(Ç_1 \cdot \frac{\hat{a}_2}{\hat{a}_1} \cdot \frac{P_1 + E_H}{P_2 + E_H} + \frac{\left(U_1^{'} - U_2^{'}\right) - E_H\left(K_1^{'} - K_2^{'}\right)}{P_2 + E_H} - Ç_2 \right) \cdot A_2 \qquad (1)$$

где $Ç_1$, $Ç_2$ - старое и новое оборудование, сумма затрат, соответствующая одной единице продукции, сум;

$\frac{\hat{a}_2}{\hat{a}_1}$ - соответствующая производительность базового и нового оборудования;

$\frac{P_1 + E_H}{P_2 + E_H}$ - коэффициент учета срока службы оборудования по сравнению с базовым вариантом;

ulugovabaxtiniso@gmail.com

P_1, P_2 - процент отчисления от балансовой стоимости на полное восстановление базового и нового оборудования с учетом морального устаревания.

Если степень полного восстановления составляет 16,4%, то P=0,164;

E_H - нормативный коэффициент эффективности E_H =0,15;

$\frac{(U_1' - U_2') - E_H(K_1' - K_2')}{P_2 + E_H}$ - выгода от ежедневных расходов потребителя и отчислений от всех капитальных вложений в течение жизни по сравнению с вариантом;

K_1', K_2' - количество капитальных средств, необходимых для внедрения

U_1', U_2' - в реализуемом варианте эксплуатационные расходы потребителя на использование базового и нового оборудования;

A_2 - объем продукции, произведенной по новой технологии в отчетном году, в натуральном выражении.

Годовая экономическая эффективность рассчитывалась путем сравнения переменных экономических затрат базового и предлагаемого технологических вариантов по данной методике. При этом необходимо будет учитывать дополнительную экономическую эффективность по предотвращению потерь чистого продукта, ликвидации заболеваемости работающих, снижению уровня загрязнения атмосферы за счет внедрения в производство нового конструктирование пылеуловителя [1-3].

Дополнительную экономическую эффективность, получаемую за счет снижения уровня загрязнения атмосферы и предотвращения потерь чистого продукта при ликвидации заболеваемости работников, определяют по следующей формуле:

$$Э_{болезни} = R * V_{чистый} * (P_2 - P_1) \quad (2)$$

где R - количество работников, не вышедших на работу по болезни, чел.;

$V_{чис}$ - стоимость чистой продукции на человеко-день, тыс.сум;

P_1 и P_2 – количество рабочих дней на одного работника до и после реализации мероприятия,

Таким образом, суммарная годовая экономическая эффективность, полученная при внедрении в производство нового конструктивного пылеуловителя, определяется по следующей формуле:

$$Э_{общий} = Э_г + Э_{короткий} + Э_{болезни} \quad (3)$$

В таблице 1 представлена необходимая информация для расчета.

Таблица 1. Необходимые сведение для расчета эффективности внедрения усовершенствованных устройств

№	Показатели	Ед. изм.	По вариантам	
			Базовый	Новый
1	Переносимая пылевидная масса	тонна	11400	11400
2	Установленная мощность	кВт	28	28
3	Коэффициент спроса	-	0,7	0,7
4	Минимальная заработная плата	Сум	920000	920000
5	Плата на социальное страхование	%	12	12
6	Амортизационные отчисления на оборудование	%	15	15
7	Пособие на ежедневное восстановление	%	5	5
8	Доплата за доставку и сборку	%	10	10
9	Количество работников, отсутствующих на работе по болезни	человек	46	-
10	Чистая стоимость продукта на человека в день	Тысяча сум	114,6	114,6
11	Количество человеко-дней на одного работника до и после реализации мероприятия	День человека	210	234

Счет капитальных затрат:
Фиксированное значение начального баланса оборудования:
Базисный вариант:
31640 x 4 x 1,1 = 139216 тысяча сум.
В предлагаемом варианте:
31640 x 4 x 1,1 + 6400 = 145616 тысяча сум.
Учет операционных расходов
Учетные работы ведутся только по измененным элементам затрат.
Амортизационные отчисления
Базисный вариант:
139216 x 0,15 = 20882 тысяча сум;
В предлагаемом варианте:
145616 x 0,15 = 21842 тысяча сум.
Стоимость ежедневного обслуживания
Базисный вариант:
139216 x 0,05 = 6961 тысяча сум;
В предлагаемом варианте:
145616 x 0,05 = 7281 тысяча сум.
Потребление электроэнергии рассчитывается следующим образом:

$$W = P_y \cdot K_c \cdot T_c \cdot C_{ý}$$

где P_y - установленная мощность электродвигателей;
K_c - коэффициент спроса;
T_c - годовая полезная наработка оборудования;
$C_{ý}$ - 1 кВт/с стоимость потребляемой электроэнергии.
Базисный вариант:
(3556 x 28 x 0,7 x 450)/1000 = 31364 тысяча сум;
В предлагаемом варианте:
(3556 x 28 x 0,7 x 450)/1000 = 31364 тысяча сум.
Полученные результаты сведены в табл. 2

Таблица 2. Результаты расчета эксплуатационных расходов по базовому и предлагаемому вариантам, тыс. сум

№	Показатели	Варианты	
		Базис	Новый
1	До улучшения стоимость оборудования	126560	126560
2	Транспортное оборудование, стоимость доставки и установки	12656	12656
3	Прямые капитальные затраты	109981	109981
4	Затраты на НИР	-	6400
5	Капиталь в производственные фонды по изготовлению затрата	109981	116381
6	Приведенные затраты по изготовлению оборудования	155713	156673
7	Операционные расходы, всего включая:	59207	64669
	- амортизационные отчисления	20882	21842
	- ежедневное обслуживание	6961	7281
	- затраты на электроэнергию	31364	31364
	- расход металла	-	4182

Величина направляемых капитальных средств принимается в размере 10% от балансовой стоимости базового и прикладного оборудования:

$$К_1 = \frac{139216*10}{100} = 13921,6$$ тысяча сум;

$$К_2 = \frac{145616*10}{100} = 14561,6$$

Подставив полученные данные в формулу, рассчитаем годовую экономическую эффективность усовершенствованного оборудования:

$$Э_{г.} = 155713 * 1,02 * 1,0 + \frac{(59207-64669)-0,15*(14561,6-13921,6}{0,164+0,15} - 156673 = 15546,4$$

тысяча сум;

Суммарная экономическая эффективность будет равна:

$$Э_{общ.} = Э_{г.} + Э_{пух} + Э_{болез} = -15546,4 + 360,58 * 916,6 + 46 * 114,6 * * 24 = 441479,6$$ тысяча сум.

ОБСУЖДЕНИЕ

Результаты показали, что эффективность улавливания выше при меньших диаметрах циклона, что подтверждает теоретические расчёты. Усовершенствованная конструкция обеспечивает экономический эффект не только за счёт повышения степени очистки и сбора дополнительного продукта, но и благодаря улучшению условий труда и снижению заболеваемости персонала. Внедрение также оказывает положительное влияние на экологическую обстановку, снижая выбросы пылевых частиц[5].

Ограничением исследования является то, что расчёты выполнены на базе одного предприятия, поэтому необходима проверка разработанной конструкции в различных производственных условиях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

1. Разработана усовершенствованная конструкция циклона, обеспечивающая практическую степень очистки воздуха на уровне 90–95%.

2. Экономическая эффективность внедрения нового пылеуловителя составила более 441 млн сум в год на одно предприятие.

3. Дополнительные выгоды включают снижение заболеваемости работников, предотвращение потерь чистого продукта и уменьшение загрязнения атмосферы.

4. Новая конструкция рекомендуется к широкому внедрению на предприятиях хлопкоочистительной промышленности и смежных отраслях.

Список использованной литературы

1. Адилова А.Ш. Совершенствование конструкции циклонов на основе динамического анализа перемещения вредных примесей в потоке воздуха //Диссертация. Тошкент 2023 йил
2. Murodov O.J., A. Sh. Adilova «Analysis of harmful mixtures in air flow during cotton cleaning» // Tashkent state technical university named after Islam Karimov. Technical science and innovation. The Journal was established in 1993, Renamed in 2019. Published 4 times a year Tashkent-2021, №3(09). Page-79-87.
3. Муродов О.Ж., Адилова А.Ш. «Теоретические исследования по повышению эффективности моделированных циклонов» //Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности. «Текстильный журнал Узбекистана» №4. Ташкент-2021 г. С. 129-137.
4. Адилова А.Ш. ва бошкалар, Пахта-тозалаш заводларида циклонларининг геометрик ўлчамларини оптималлаштириш орқали тозалаш самардорлигига таъсирини баҳолаш//TJTSMSIChO‘ respublika ilmiy-amaliy anjuman ФаргонаПИ 2022 yil 20-21 may.Б.146-148
5. «A Preliminary Numerical Study on the Performance of Cyclone Separators in Supercritical CO_2 Solar Power Plants» / A. Li et al., Processes, 2023.

MEHNAT BOZORINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK USULLARI ISHLAB CHIQISH

Maxammadiyev M.M
“Sun’iy intellekt kafedrasi PhD dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamlashtirish jarayonlarini kadrlar bilan ta’minlash, taqsimlash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan, AKT sohasidagi ta’lim tizimini maqsadli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatilgan. Mehnat resurslaridan foydalanishga nisbatan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni raqamlashtirish sharoitida raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta’sirida axborot va aloqa sohasida ish haqqi hamda dasturiy mahsulotlar va xizmatlar eksporti, kompyuter va dasturlash xizmat-lari hajmining 2026-yilgacha bo‘lgan prognozi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy maxsulotlar, mexanizim, mehnat bozori.

Abstract: This article examines the digitization processes in Uzbekistan from the point of view of staffing and distribution, and shows the need for targeted development of the education system in the ICT sector. In the context of digitization of economic and social relations in relation to the use of labor resources, a forecast of the impact of the digital economy on the labor market, wages in the information and communications sector, as well as the export of software products and services, computer and programming services until 2026 has been developed.

Key words: Digital economy, information and communication technologies, software products, mechanism, labor market.

Аннотация: В данной статье процессы цифровизации в Узбекистане рассматриваются с точки зрения кадрового обеспечения и распределения, а также показана необходимость целенаправленного развития системы образования в сфере ИКТ. В условиях цифровизации экономических и социальных отношений по использованию трудовых ресурсов разработан прогноз объемов заработной платы и экспорта программных продуктов и услуг, компьютерных и программных услуг в сфере информатизации и связи до 2026 года.

Ключевые слова: Цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии, программные продукты, механизм, рынок труда.

KIRISH

O‘zbekistonda raqamlashtirish jarayonlarini kadrlar bilan ta’minlash jarayoni asosiy maqsad xususiyatiga ega bo‘lmasligi, aksincha, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy sohadagi raqamlashtirish tendensiyalari doirasida “Mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” vazifasi belgilangan[1]. Mazkur vazifani amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotdagi mehnat bozorining shakllanish va ishlash mexanizmini yanada rivojlantirishni talab qiladi. Shu bois, mehnat bozori faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son

“Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 6-sentabrdagi PF–5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 24-maydagi PF–5052-son “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 31-dekabrdagi PQ–4939-son “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 8-iyundagi PQ–5140-son “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahonda mehnat bozorini takomillashtirish borasida qator milliy mehnat tashkilotlari raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu to‘rtinchi sanoat inqilobiga o‘tilishida texnologiyalarni rivojlanish ko‘lami va darajasi avvalgi sanoat inqiloblari uchun xos bo‘lgan ko‘lami va darajadan amaliy jihatdan farq qilishi bilan bog‘liq. Xalqaro mehnat tashkiloti 2030-yilgacha “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasida keltirilishiga “mehnat bilan band bo‘lishning yangi turlarini raqamli platformalarga investitsiyalar kiritgan holda rivojlantirishda investitsiyalar notekis taqsimlangan bo‘lib, 96 foizi Osiyo, Shimoliy Amerika va Yevropaga to‘g‘ri keladi, daromadning 70 foizi faqat ikki davlat – AQSh va Xitoy tomonidan o‘zlashtiriladi”[3].

Jahonda raqamli texnologiyalarning mehnat bozoridagi turli kasbiy-malakaviy segmentlarga ko‘rsatadigan ta’siri natijasida shakllanadigan aholi bandligini ta’minlash muammolarini hal etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni rivojlanishi sharoitida mehnat bozorini takomillashtirish o‘z navbatida, axborot jarayonlari mehnat bozorini tartibga solishning yangi usullarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. AKT segmentining holati hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va istiqboli rejalashtirish, mehnat bozori talablarini qondirish uchun AKT mutaxassislarini tayyorlashda xarajatlarni kamaytirishga imkon beruvchi ta’lim jarayonlarini shakllantirish kabi masalalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mehnat bozorining faoliyat yuritishi doirasida o‘zaro bog‘liqlik yo‘nalishini ko‘rsatib berishida Tadqiqot jarayonida iqtisodiy baholashning empirik va nazariy usullari, ilmiy abstraksiyalash, mavhumlikdan aniqlikka ko‘tarilish, axborot va miqdoriy, statistik hamda iqtisodiy tahlil va sintez, taqqoslash va guruhlashtirish, tasniflash, usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotda mehnat bozoriga taalluqli tashkiliy-iqtisodiy va tartibga solish rejalarida, raqamli texnologiyalar rivojlanish tendensiyalari va AKT sohasidagi ta’lim tizimi bloklaridagi ko‘rstkichlar qanday axborotlarni aks ettirishi zarurligini asoslashda quydagi savollarga to‘xtalib o‘tish lozim.

a) AKT sohasini ishlashida amaldagi statistika tizimidan iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turi bo‘yicha qanday ma’lumotlar to‘plamini olish;

b) umuman, bu ma’lumotlar majmuasi ko‘rib chiqilayotgan raqamli texnologiyalar rivojlanish tendensiyalari va AKT sohasidagi ta’lim tizimi bloklarda iqtisodiy jihatdan muhim xususiyatga ega bo‘lishi uchun uning asosida mehnat bozori samaradorligini oshirish masalasini qo‘yilishi asoslangan AKTni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari nuqtayi nazaridan to‘g‘ri bo‘lgan, qanday iqtisodiy kontekstni o‘z ichiga olishi kerak; bu yerda masalalarni qo‘yilishi iqtisodiy jihatdan qanchalik asosli va istiqbolga egaligi bosh masala hisoblanishi:

c) iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni raqamlashtirishni yanada rivojlantirish uchun AKT bo‘yicha xodimlarni rivojlantirish, kasbiy-malakaviy, miqdoriy va sifat parametrlarini aniqlash;

d) AKT bo‘yicha ta’limning barcha darajalarida kadrlar tayyorlash sohasini rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining miqdoriy va sifat parametrlarini aniqlash;

e) AKT sohasida ta’lim tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari doirasida raqamli iqtisodiyotni mutanosib rivojlanish shartlarining asoslanganlik predmetiga kasbiy-malakaviy, miqdoriy va sifat parametrlarini aniqlash va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining miqdoriy va sifat parametrlarini aniqlash istalayotgan munosabat miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Yuqoridagi qo‘yilgan javoblardan olingan natijalar raqamli texnologiyalar rivojlanish tendensiyalari va AKT sohasidagi ta’lim tizimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirni tizimli ravishda tavsiflab berishi zarurligi 1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

1-jadval. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (2021–2026-yillar)

№	Ko‘rsatkich nomi	2021	2022	2023	2024	2025	2026
1	Dasturiy mahsulotlar va xizmatlar eksporti hajmi (mlrd so‘m)	158,00	206,74	297,92	429,30	625,06	916,96
2	Kompyuter va dasturlash xizmatlari hajmi (mlrd so‘m)	921,10	1217,69	1786,36	2627,73	3957,36	6015,19
	Jami	**1079,10**	**1424,44**	**2084,30**	**3057,03**	**4582,42**	**6932,15**
3	Axborot va aloqa sohasida ish haqi o‘sish dinamikasi (mln so‘m)	4,00	4,40	5,19	6,13	7,38	8,93
4	AKT sohasida (ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, dasturiy ta’minot, mobil ilovalar va veb-saytlarni ishlab chiqish, matn yaratish va ishlov berish) band bo‘lganlar soni (nafar)	11241,00	3489,20	16726,61	20791,17	25864,22	32330,28

Berilgan masalalarni yechilishi va uning tegishli ravishda amaga oshirilishi ma’lum xarajatlarni talab qiladigan uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lib, bu xarajatlarni davlat, korxona va kompaniyalarning xarajatlari yoki ishchi kuchi ta’limi xarajatlariga ajratilmasligi kerak; bu yerda raqamlashtirishga sarflanadigan umumiy xarajatlar hajmi (moliyaviy, vaqt, moddiy-resursli) qanaqa (bu “maqsadni o‘zi” alohida xarajat, evolyutsiya – boshqa xarajat, tartibga solish boshqa xarajat bo‘lgan holda), raqamlashtirish darajasi (bu – natija) qanday natijaviy ko‘rsatkichlar to‘plami bilan baholanishi kerak; bu natijaviy ko‘rsatkichlar to‘plami AKT bo‘yicha kadrlar salohiyatining aniq darajasi asosida shakllantirilishi kerak, bu ularning natijaviy ko‘rsatkichlar to‘plami mamlakatda AKT bo‘yicha kadrlar salohiyati darajasiga bog‘liq holda dinamikligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, umumiy xarajatlar hajmi, natijaviy ko‘rsatkichlar to‘plami va kadrlar salohiyatining aniq darajasi AKT bo‘yicha aniq o‘lchov birliklarini aniqlash kerak bo‘ladi.[4]

Shuni ta’kidlash lozimki, amaldagi rasmiy davlat statistika tizimida bu ma’lumotlarni kuzatish va ro‘yxatga olish yuritilmaydi, xususan, umumiy xarajatlar hajmi, natijaviy ko‘rsatkichlar to‘plami va kadrlar salohiyatining aniq darajasi AKTni o‘lchash va baholash bo‘yicha statistik metodologiyaning yo‘qligi sababli tegishli ma’lumotlarni yaxlit holda yig‘ish, tahlil qilish va sintez qilish ishlari amalga oshirilmaydi. Shulardan kelib chiqqan holda quyidagilarni taklif qilamiz.

Makroiqtisodiyot darajasida (yalpi ichki mahsulotni hisoblashning turli usullari bilan) yangi yaratilgan qiymatga “axborot sig‘imi” tushunchasini kiritamiz. Buning uchun iqtisodiyotning barcha tarmoq va faoliyat sohalaridagi shartli-tarkibiy nuqtai-nazardan “differensial axborot jarayoni”, “qidirish-to‘plash”, “ishlov berish”, “foydalanish”, “saqlash” zanjiri faoliyati sifatida ko‘rib chiqamiz. Bu zanjir tugallanganlik tavsifiga ega bo‘lishi bilan, differensial-axborot jarayonining har bir siklida tegishli axborotlar axborot resursi maqomiga ega bo‘ladi 1-rasda.



1-rasm Axborot kommunikatsiya texnologiyalar soxasidagi axborot sig‘imi sxemasi.

Ta’kidlash kerakki, iqtisodiyotning har bir tarmog‘i va faoliyat turi bo‘yicha, differensial-axborot jarayoni yakunida olingan bu axborot resursi har xil miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi, chunki, har bir aniq iste’molchi uchun aynan bir xil axborot turlicha bahoga ega bo‘lishi mumkin. Bu yerdagi asosiy muammo – bu axborot resursining o‘lchov birligi hisoblanadi.

Axborot resursining bunday o‘lchov birligini aniqlash uchun, bizning fikrimizcha, bu o‘lchov birligini shakllantiruvchi omil hisoblanadigan elementlari (ShOE) hisoblanadigan quyidagi omillar ajratilishini taklif etamiz:

a) umuman iqtisodiyotda tarmoq va faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarish texnologiyalari va xizmatlarining rivojlanishi darajasini axborot resurslariga munosabati bo‘yicha o‘zgarmas (const) sifatida qaraymiz (ShOE-1);

b) axborot va raqamli texnologiyalar sohasidagi kadrlarning kasbiy-malakaviy rvojlanish darajasini – umuman ta’lim tizimining, xususan, AKT sohasidagi faoliyati natijalarining dinamik ko‘rsatkichi sifatida qaraymiz (ShOE-2);

v) umuman iqtisodiyotning tarmoqlari va faoliyat turlari bo‘yicha foydalanilgan moddiy-xom ashyo resurslarning o‘rtacha narxi darajasini tegishli moddiy resurslarni ishlab chiqaruvchilardagi ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib chiqamiz (ShOE-3);

g) iqtisodiyotdagi ish haqining o‘rtacha darajasini (yoki mamlakatda eng kam ish haqi) – ishlab chiqarish texnologiyalariga, ta’lim tizimining rivojlanish darajasiga va makroiqtisodiy darajada axborot jarayonlarining natijaviyligiga bog‘liq holda jonli mehnatdan foydalanish darajasi sifatida qaraymiz (ShOE-4);

d) iqtisodiyotdagi tranzaksion xarajatlarning o‘rtacha darajasini umuman iqtisodiyotda axborot jarayonlarining rivojlanishi natijasi sifatida qaraymiz (ShOE-5);

e) iqtisodiyotda axborot sig‘imi ko‘rsatkichini qiymat jihatidan o‘lchash funksional-integratsiyalashgan o‘lchov birligini yuqoridagi a–d bandlarda tavsiya etilgan ko‘rsatkichlarni kompleks baholash natijasi sifatida ko‘rib chiqamiz.

Biz ularni keyinroq, iqtisodiyotda axborot sig‘imini o‘lchash birligini ishlab chiqish uchun real mavjud bo‘lgan amaliyotga qo‘llash statistik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan batafsil ko‘rib chiqamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot va mehnat bozorini raqamlashtirish jarayonlarining o‘zaro hamkorligidagi umumiy tendensiya shundan iboratki, mehnat bozori faoliyati natijasi sifatida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va bandlik hamda ishsizlik darajasi evolyutsiyasi o‘rtasida tizimli tarkibiy munosabatlar mavjud emas. Raqamlashtirish va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning aniq natijasi asosan makroiqtisodiy omillar, iqtisodiyotning turli sohalari va mintaqalarida raqamli texnologiyalarni uzoq muddatli rivojlantirishning iqtisodiy strategiyasiga, raqamli platforma va axborot texnologiyalarini amalga oshirishni kadrlar va infratuzilmaviy ta’minlash dasturlariga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, dissertatsiyada iqtisodiyotni raqamlashtirish va mehnat bozorini rivojlantirish

jarayonlaridagi o‘zaro hamkorligini baholash uchun raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori faoliyat yuritishi samaradorligini tahlil qilish va baholash usullarini ishlab chiqish zarurligi holatlari asoslab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. http://www.lex.uz2.
2. Исследование экспертной группы Digital/McKinsey. Цифровая Россия: новая реальность [Эл.ресурс]: URL:http://www.tadviser.ru/images/c/c2/ Digital-Russia-report.pdf.
3. Международная организация труда от 23 февраля 2021 г. «Перспективы занятости и социальной защиты в мире. Роль цифровых трудовых платформ» в изменении сферы труда
4. Калабихиной, И.Е. Выпускники экономических специальностей на рынке труда.Сборник статей. Выпуск 9 / И.Е. Калабихиной. – Москва: Наука, 2016. –535 с.
5. Носкова, Н. А. Инновационная деятельность в сфере услуг [Эл.ресурс]. – Режим доступа: http://web.snauka.ru/issues/2012/06/15039 (дата обращения: 11.03.2019)
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020-yil 11-sentyabrdagi No 01/2-02-17/2-240 sonli ma’lumotnomasi.
7. Abduvoxidov A.M., Digital Development of Education and Universities: Global Challenges of the Digital Economy International Journal of Instruction. 2020/11/15.
8. Kenjabaev A.T., Raqamli iqtisodiyot sharoitida o‘z-o‘zini band qilish muammolari T:,- 2021 yil 18- may.
9. Qo‘chkorov T.S., Sovershenstvovanie informatsionnoy sistemi kaznacheystva Respubliki Uzbekistan v usloviyax sifrovoy ekonomiki: Avtoref. dis. dok. ekonom. nauk (DSc) “Sovershenstvovanie informatsionnoy sistemi kaznacheystva Respubliki Uzbekistan v usloviyax sifrovoy ekonomiki”.–Tashkent. –2019, 76 b.
10. Maxammadiev M., Abduvoxidov A. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. No 6, dekabr, 2020-yil. ISSN: 2181-101612.
11. Maxammadiev M. Methodology for creating a database to assess the efficiency of the labor market in the digital economy. Journal of innovations in economy. 2021. –Vol. 4, Issue 4. –pp.33-40.

SUG‘URTANING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINING XORIJIY TAJRIBASI

Maxmasaidova Sayyodxon Ubaydulla qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
katta o‘qituvchi
Email: s.makhmasaidova@tsue.uz,
sayyodxonm@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda sug‘urtaning iqtisodiy o‘sishga ta’siri xorijiy iqtisodchi olimlarning kuzatuvlari va tajribalari asosida o‘rganilgan. Asosan, sug‘urtaning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholovchi modellar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta mukofoti, sug‘urta zichligi, sug‘urta penetratsiyasi, YAIM, inflyatsiya, ishsizlik darajasi.

Abstract: This thesis studies the observations and experiences of foreign economists on the impact of insurance on economic growth. It mainly presents the models through which insurance has been shown to affect economic growth.

Key words: insurance premium, insurance density, insurance penetration, GDP, inflation, unemployment rate.

Аннотация: В данной тезисной работе рассматриваются наблюдения и опыт зарубежных экономистов в отношении влияния страхования на экономический рост. В основном представлены модели, с помощью которых показано влияние страхования на экономический рост.

Ключевые слова: страховая премия, плотность страхования, проникновение страхования, ВВП, инфляция, уровень безработицы.

KIRISH

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida sug‘urta sohasi muhim rol o‘ynaydi. U turli iqtisodiy xavflarni kamaytirish va barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Xorijda sug‘urta sohasida ayrim davlatlar tajribasi kuzatilib, ularning natijalari tahlil qilingan.

Shuningdek, Blerta Haliti Baruti Kosovoning sug‘urta bozoriga e’tibor qaratib, uning rivojlanish imkoniyatlari va muammolarini aniqlagan. Kosovodagi sug‘urta kompaniyalari bilan o‘tkazilgan intervyular asosida asosiy o‘zgaruvchilar, jumladan yalpi sug‘urta badallari (GWP) va YAIM o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Sug‘urta bozorining YAIMga ta’siri ijobiy bo‘lsa-da, u hali ham kichik va rivojlanayotgan bozor sifatida tavsiflanadi.

Sug‘urta sektoriga aholi daromadi, inflyatsiya va ishsizlik darajasi kabi makroiqtisodiy omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar sug‘urtaning iqtisodiyotga ta’sirini baholashda turli iqtisodiy modellar orqali tahlil qilish uchun qo‘llanilgan.



1 chizma*. Panel ma’lumotlar modellarida diagnostik testlar

*Muallif ishlanmasi

Bu modellar sug‘urta sektori va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun ishlatiladi hamda endogenlik muammosini hal qilishda samarali ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ular sug‘urta sektori rivojlanishining YAIMga ta’sirini baholash uchun qo‘llanilgan.

Sug‘urta zichligi va bozor penetratsiyasi o‘zgaruvchilari YAIMning logarifmik shakli bilan tahlil qilingan. Tahlil natijalari sug‘urta sektori va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlagan, biroq ushbu bog‘liqlik mamlakatlarning rivojlanish darajasiga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Statistik natijalarni tekshirish uchun quyidagi testlar orqali hisob-kitoblar amalga oshirilgan.

Bu modellar sug‘urta sektori va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun ishlatiladi hamda endogenlik muammosini hal qilishda samarali ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ular sug‘urta sektori rivojlanishining YAIMga ta’sirini baholash uchun qo‘llanilgan.

Sug‘urta zichligi va bozor penetratsiyasi o‘zgaruvchilari YAIMning logarifmik shakli bilan tahlil qilingan. Tahlil natijalari sug‘urta sektori va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlagan, biroq ushbu bog‘liqlik mamlakatlarning rivojlanish darajasiga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Statistik natijalarni tekshirish uchun quyidagi testlar orqali hisob-kitoblar amalga oshirilgan.



2 chizma*. Panel ma’lumotlar tahlilida qo‘llaniladigan asosiy modellar

*Muallif ishlanmasi

Barutining kuzatuv tajribasiga ko‘ra, sug‘urta zichligi va penetratsiyasi iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Biroq Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun bu ta’sir statistik jihatdan sezilarli emasligi qayd etilgan.

Moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar so‘nggi o‘n yilliklarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Issa Dawd va hamkorlarining tadqiqot ishlarida moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlangan. Ushbu tadqiqot 2009–2020-yillar davomida 16 ta OECD davlatida sug‘urta rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan.

Natijalar sug‘urta rivojlanishining iqtisodiy o‘sishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlagan. Shuningdek, hayot va nodavlat sug‘urta mukofotlari ham iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan, biroq bu munosabat chiziqli emasligi ta’kidlangan. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta mukofotlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida “teskari U shaklidagi” munosabat mavjud: sug‘urta rivojlanishi ma’lum bir nuqtaga qadar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, ammo ushbu chegaradan oshganda ta’sir salbiy tus oladi.

O‘rganilgan parametrlar quyidagilar:

3-chizma. Muallif ishlanmasi

Bundan tashqari, kapital va mehnat iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar sifatida aniqlangan. Shuningdek, o‘tgan yillardagi iqtisodiy o‘sish amaldagi iqtisodiy natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani qayd etilgan.

XULOSA

Ushbu natijalar sug‘urta rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish uchun dinamik panel modelidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijasida bir qator makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar modellar orqali tahlil qilingan. Sug‘urta mukofotlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida chiziqli bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. Hayot sug‘urtasi va boshqa sug‘urta turlarini tahlil qilish natijasida, hayot sug‘urtasining iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, boshqa sug‘urta turlarining esa ayrim hollarda salbiy ta’sirga ega ekani qayd etilgan. Sug‘urta penetratsiyasi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida ham chiziqli munosabat mavjudligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Issa Dawd & Noureddine Benlagha (2023) Insurance and economic growth
2. nexus: New Evidence from OECD countries, Cogent Economics & Finance, 11:1, 2183660, https://doi.org/10.1080/23322039.2023.2183660
3. Baruti, B. H. (2022). The impact of the insurance market on economic growth:
4. Evidence from developing countries. Corporate & Business Strategy Review, 3(1), 105–123. https://doi.org/10.22495/cbsrv3i1art10
5. Maxmasaidova, S. U. qizi . (2025). ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA
6. SUG’URTA XIZMATLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali 1 (VOLUME 4), 337-343. https://doi.org/10.5281/zenodo.15021913

AGRAR SEKTORDA IJTIMOIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH YO‘NALISHLARI

Saburova Nasiba Rozumovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
kafedra katta o‘qituvchisi, PhD
Email: nasiba309@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi agrar sektorining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari ekonometrik modellar yordamida baholandi va 2030-yilgacha bo‘lgan prognozlar ishlab chiqildi. Agrar tarmoq mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim qismini tashkil etib, aholi bandligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi o‘ringa ega. Shu sababli ushbu sohada mavjud o‘zgarishlarni aniqlashda faqat statistik yondashuv emas, balki ekonometrik modellashtirish zarurati ortib bormoqda. Tadqiqotda regressiya, korrelyatsiya, vaqt qatorlari (ARIMA, Holt–Winters) va panel ma’lumotlar modellari qo‘llanildi. Natijalar ishlab chiqarish hajmining o‘sishi aholining iste’mol imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, real daromadlar o‘sishi inflyatsiya ta’sirida ortda qolayotganini aniqladi. Shuningdek, panel tahlil asosida Qoraqalpog‘iston hududlarida iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar — mehnat resurslari, yer va suv ta’minoti, davlat investitsiyalari va ijtimoiy infratuzilma darajasi — aniqlanib, ular asosida hududiy rivojlanish strategiyalari ishlab chiqish zarurligi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari agrar siyosatni takomillashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Agrar sektor, ekonometrik tahlil, regressiya modeli, korrelyatsiya, ARIMA, Holt–Winters, panel ma’lumotlar, prognozlash, oziq-ovqat xavfsizligi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, hududiy tafovutlar, ishlab chiqarish samaradorligi.

Abstract: This study provides an econometric assessment of the socio-economic indicators of Uzbekistan’s agrarian sector and develops forecasts up to 2030. The agricultural industry constitutes a significant share of the national GDP and plays a crucial role in ensuring employment and food security. Therefore, identifying the dynamics within the sector requires not only statistical methods but also econometric modeling. The research employs regression and correlation analysis, time series models (ARIMA, Holt–Winters), and panel data techniques. The results reveal that the increase in production volumes expands consumption opportunities; however, real income growth lags behind due to inflationary effects. Panel data analysis identifies key factors influencing economic growth in Karakalpakstan — labor resources, land and water availability, public investment, and social infrastructure. The findings serve as a scientific and practical foundation for improving agricultural policy, strengthening food security, and ensuring socio-economic stability in Uzbekistan.

Key words: Agrarian sector, econometric analysis, regression model, correlation, ARIMA, Holt–Winters, panel data, forecasting, food security, socio-economic stability, regional disparities, production efficiency.

Аннотация: В настоящем исследовании проведена эконометрическая оценка социально-экономических показателей аграрного сектора Республики Узбекистан и разработаны прогнозы до 2030 года. Аграрная отрасль занимает важное место в структуре валового внутреннего продукта страны и играет решающую роль в обеспечении занятости населения и продовольственной безопасности. В связи с этим всё больше возрастает необходимость не только статистического анализа, но и эконометрического моделирования процессов, происходящих в отрасли. В исследовании использованы методы регрессионного и корреляционного анализа, временных рядов (ARIMA, Holt–Winters) и панельных данных. Результаты показали, что рост объёмов производства способствует расширению потребительских возможностей населения, однако рост реальных доходов отстаёт из-за инфляционного давления. На основе панельного анализа выявлены факторы, влияющие на экономический рост в Каракалпакстане — трудовые ресурсы, обеспеченность землёй и водой, государственные инвестиции и уровень социальной инфраструктуры. Результаты исследования служат научно-практической основой для совершенствования аграрной политики, укрепления продовольственной безопасности и обеспечения социально-экономической стабильности.

Ключевые слова: аграрный сектор, эконометрический анализ, регрессионная модель, корреляция, ARIMA, Holt–Winters, панельные данные, прогнозирование, продовольственная безопасность, социально-экономическая стабильность, региональные различия, эффективность производства.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi agrar sektori milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaydi, balki aholi bandligi, eksport salohiyati va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 25 foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, respublika aholining 45 foizdan ortig‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita agrar soha bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

“Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish va agrar siyosatni ilmiy asosda olib borish — bu xalqimiz farovonligi va mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligining kafolatidir.”

Bu fikr sohani chuqur ilmiy tahlil etish, natijalarga asoslangan qarorlar qabul qilish zaruratini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda agrar islohotlar tizimli tarzda amalga oshirilib, qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, zamonaviy irrigatsiya texnologiyalarini joriy etish va qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Biroq sohada hali ham ayrim tizimli muammolar, xususan: ishlab chiqarish hajmlarining notekis o‘sishi, narxlar dinamikasining yuqoriligi, iste’mol darajasining pastligi va hududiy tafovutlarning keskinligi mavjud.

Ushbu muammolarni chuqur o‘rganish uchun faqat statistik ko‘rsatkichlar tahlili yetarli emas. Chunki statistik usullar mavjud holatni tasvirlaydi, lekin o‘zaro bog‘liqlik va sababiy ta’sirlarni aniqlash imkonini bermaydi. Shu bois, ekonometrik baholash — ya’ni iqtisodiy hodisalarni matematik modellar asosida o‘rganish — agrar siyosatni ilmiy asoslashning samarali vositasi sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan shu yo‘nalishda olib borilib, O‘zbekiston agrar sektoridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni regressiya, korrelyatsiya, vaqt qatorlari (ARIMA, Holt–Winters) va panel ma’lumotlar modellarida baholash hamda 2030-yilgacha prognozlashga qaratilgan.

Asosiy tahliliy yo‘nalishlar

1. Regressiya va korrelyatsiya tahlili

Tadqiqotning birinchi bosqichida ishlab chiqarish hajmi (Y), aholi o‘rtacha daromadi (X_1), mehnat resurslari soni (X_2), agrar samaradorlik koeffitsienti (X_3) kabi o‘zgaruvchilar o‘rtasida ko‘p o‘lchovli regressiya modeli tuzildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 +$$

Tahlil natijalariga ko‘ra, ishlab chiqarish hajmlarining o‘sishi iste’mol ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, lekin daromad o‘sishi ko‘p hollarda inflyatsiya sur’atlaridan orqada qolmoqda. Demak, real farovonlikka erishish uchun ishlab chiqarishning o‘sishi bilan bir qatorda narxlar barqarorligini ta’minlash zarur.

Korrelatsiya koeffitsienti (r=0.82) agrar ishlab chiqarish bilan aholi iste’mol ko‘rsatkichlari o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

2. Vaqt qatorlari asosida prognozlash (ARIMA, Holt–Winters)

Tadqiqotning ikkinchi yo‘nalishida 2010–2024-yillar davrida O‘zbekiston bo‘yicha asosiy agrar mahsulotlar (paxta, g‘alla, sabzavotlar, meva-sabzavot eksporti) hajmlari bo‘yicha vaqt qatorlari tuzilib, ARIMA(1,1,1) va Holt–Winters modellari qo‘llandi.

ARIMA modelining diagnostik tahlili natijalariga ko‘ra, 2030-yilgacha ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 3,8–4,2 foiz yillik o‘sish sur’atini saqlab qolishi kutilmoqda. Ammo aholining iste’mol talablari 5 foizdan ortiq o‘sish sur’atiga ega bo‘lgani uchun ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasida nomutanosiblik kuzatiladi.

Bu holat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun ichki ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, eksport hajmlarini balanslash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Panel ma’lumotlar modellari asosida hududiy tahlil

Uchinchi yo‘nalishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va O‘zbekistonning g‘arbiy viloyatlari bo‘yicha 2015–2023-yillar kesimida panel ma’lumotlar bazasi shakllantirildi.

Fiksirlangan effektli model natijalari shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy o‘sishga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar — mehnat resurslarining bandlik darajasi, yer unumdorligi va davlat investitsiyalari hisoblanadi. Shuningdek, suv ta’minoti va infratuzilma ko‘rsatkichlari o‘sishning muhim determinantlari sifatida qayd etildi.

Modelning R^2=0.89 bo‘lib, bu tanlangan o‘zgaruvchilar iqtisodiy o‘sishdagi 89 foiz variatsiyani tushuntirishini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv hududlararo tafovutlarni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Baholash mezonlari va yangi indikatorlar

Tadqiqotda qishloq hududlarining rivojlanishini baholash uchun ikkita yangi integral ko‘rsatkich taklif etildi:

“Talab va iste’mol darajasi indeksi” – aholining moddiy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyoji va ularning qondirilish darajasini ifodalaydi.

“Aholi sifati koeffitsienti” – demografik barqarorlik, sog‘lom tug‘ilish va ijtimoiy salomatlik darajalarini qamrab oladi.

Bu indikatorlar orqali agrar siyosatning ijtimoiy samaradorligi hamda aholining farovonlik darajasiga ta’sirini kompleks baholash mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA ILMIY-AMALIY NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

Agrar sektorda iqtisodiy o‘sish daromad va iste’mol o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, ammo inflyatsiya ta’siri bilan bu ta’sir zaiflashadi.

Prognoz modellari 2030-yilgacha ishlab chiqarishning o‘sishini ko‘rsatsa-da, iste’mol bilan to‘liq muvozanatga erishish uchun davlat siyosatini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Hududiy tahlil asosida resurslardan samarali foydalanish, suv va infratuzilma ta’minotini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Taklif etilgan yangi ko‘rsatkichlar agrar siyosat samaradorligini baholashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, agrar sektorda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ekonometrik baholash va prognozlash mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu natijalar asosida ishlab chiqilgan takliflar O‘zbekistonning “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlariga mos holda agrar tarmoqni innovatsion yo‘nalishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Asadov, X.S. (2020). O‘zbekiston hududlarida iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti.
2. Jo‘rayev, A. (2019). Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar va barqaror rivojlanish yo‘llari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Ergashev, I. (2021). “Qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda statistika va econometrikaning o‘rni.” O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2(1), 55–62.
4. Xasanov, B.B. (2018). Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va prognozlash usullari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Abdullayev, M. (2022). “Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar.” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(4), 87–95.

ELEKTRON TIJORAT LOGISTIKASINI GIBRID ALGORITM ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH

Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
Email: tuychiyevs40@gmail.com

Annotatsiya: Elektron tijorat logistikasi va taqsimot tarmog‘ini optimallashtirish muammosi asosida ushbu maqolada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan yechim g‘oyalari va yondashuvlar umumlashtiriladi hamda shahardagi o‘ziga xos transport sharoitlarini inobatga olgan holda B2C elektron tijorat logistikasi va taqsimot tarmog‘ini optimallashtirish usuli ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: elektron savdo logistikasi, shahar taqsimot tarmoqlari, transport logistika optimallashtirish, MCCSVRP modeli, genetik algoritm (GA), gibrid algoritmlari, kooperativ taqsimot tarmog‘i, marshrut rejalashtirish, B2C.

Abstract: This article summarizes the solutions and approaches proposed by local and international scholars regarding the optimization of e-commerce logistics and distribution networks. Based on this analysis, a method for optimizing B2C e-commerce logistics and distribution networks is developed, taking into account the specific transportation conditions of urban areas.

Key words: e-commerce logistics, urban distribution networks, transport logistics optimization, MCCSVRP model, genetic algorithm (GA), hybrid algorithms, cooperative distribution network, route planning, B2C.

Аннотация: В данной статье обобщены идеи и подходы, предложенные отечественными и зарубежными учёными, по проблеме оптимизации логистики и распределительной сети электронной коммерции. На основе анализа разработан метод оптимизации логистики и распределительной сети B2C электронной коммерции с учётом специфических транспортных условий города.

Ключевые слова: логистика электронной торговли, городские распределительные сети, оптимизация транспортной логистики, модель MCCSVRP, генетический алгоритм (GA), гибридные алгоритмы, кооперативная распределительная сеть, планирование маршрутов, B2C.

KIRISH

Axborot texnologiyalari va internetning so‘nggi yillarda jadal rivojlanishi dunyoni sanoat intellekti bilan tavsiflanadigan to‘rtinchi sanoat inqilobi davriga olib kirdi. Ushbu jarayon iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirib, yangi xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini shakllantirdi. Xususan, elektron tijoratning keng tarqalishi odamlarning turmush tarzini, iste’mol odatlarini va iqtisodiy munosabatlarga bo‘lgan qarashlarini butkul o‘zgartirdi. Bugungi kunda elektron tijorat nafaqat mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabni qondirish, balki aholining hayot sifatini yaxshilash, xizmat ko‘rsatish tezkorligini oshirish hamda iste’molchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

An’anaviy savdo va xizmat ko‘rsatish modellaridan farqli ravishda, elektron tijorat tizimi bir nechta asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: mahsulot, axborot platformasi, logistika va iste’molchi. Bu elementlarning uyg‘un faoliyati elektron savdoning samaradorligini ta’minlaydi. Ayniqsa, logistika tizimi — mahsulotlarni iste’molchiga yetkazib berish jarayonida asosiy halqa sifatida — iste’mol faoliyatida yuzaga keladigan vaqt va makon to‘siqlarini yengib o‘tishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli elektron tijorat logistikasi, transport va axborot oqimlarini samarali boshqarish bugungi kunda nafaqat iqtisodiyot, balki ilmiy tadqiqotlarning ham dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu bo‘yicha ko‘plab jahon olimlari elektron tijorat, raqamli infratuzilma va ishlab chiqarish korxonalarining raqamlashtirilgan boshqaruvi sohasida izlanishlar olib borgan. Jumladan, A. Victor va M. R. Ghalib [1] tibbiyotdagi tasvirlarni qayta ishlash orqali kasallik hujayralarini aniqlash usullarini tahlil qilgan bo‘lib, ularning ishlanmalarida raqamli axborot tizimlari orqali aniqlik va optimallashtirish muammolari ko‘tarilgan. M. N. Sudra va S. Selvarajan [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ma’lumotlarni qayta ishlash va gibrid yondashuvlar asosida saralash mexanizmlari taklif qilingan bo‘lib, bu usullar elektron tijoratdagi katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda qo‘llanishi mumkin.

Shuningdek, M. Worker va A. Zakare [3], L. Yang va Z. Xu [4], Y.-K. Chan va hammualliflar [5] tomonidan ishlab chiqilgan ishlanmalarda genetik algoritmlar, mashina o‘rganish va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida tasniflash va optimallashtirish mexanizmlari taklif etilgan. Bu yondashuvlar elektron tijorat logistikasi, transport oqimlarini boshqarish va raqamlashtirilgan tarmoq infratuzilmasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

R. V. Paul va hammualliflari [6] hamda A. Das va hammualliflari [8] tadqiqotlarida logistika, ma’lumotlarni qayta ishlash va tibbiy ma’lumotlarni tasniflashdagi fuzzy clustering yondashuvlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular elektron tijorat tizimlari uchun moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini yaratishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida elektron savdoni rivojlantirish jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlarga e’tibor qaratildi. Maqola yozish jarayonida kuzatuv va tanlab olish, ilmiy-nazariy tahlil hamda empirik yondashuvlar qo‘llanildi. Yig‘ilgan ma’lumotlar bosqichma-bosqich tizimlashtirilib, ularni tahlil qilish, guruhlarga ajratish va tartibga solish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, olingan natijalar ishonchliligi va aniqligini ta’minlash maqsadida quyidagi tekshiruv usullaridan foydalanildi:

O‘zaro solishtirish – turli manbalardan to‘plangan ma’lumotlar taqqoslab tahlil qilindi, ularning muvofiqligi va aniqligi tekshirildi. Qarama-qarshi ma’lumotlar esa qo‘shimcha o‘rganilib, tahlil qilindi.

Ekspert xulosalari – elektron tijorat sohasi bo‘yicha tajribali mutaxassislarning fikr-mulohazalari asosida aniqlangan ma’lumotlar tekshirilib, ishonchliligi tasdiqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

An’anaviy taqsimot modellaridan farqli ravishda, zamonaviy elektron savdo tizimlari moslashuvchan boshqaruv infratuzilmasini talab qiladi. Bu esa ishlab chiqarish korxonalarida mahsulotlarni mijozlarga tezkor yetkazib berish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, logistika tarmoqlarini optimallashtirish, transport vositalari yo‘nalishlarini samarali rejalashtirish va axborot oqimlarini boshqarish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotning ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarish korxonalarining elektron savdo jarayonlarini takomillashtirishda gibrid optimallashtirish algoritmlari, raqamli infratuzilma va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish korxonalari uchun samarali elektron savdo boshqaruv tizimini shakllantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va bozorda barqaror o‘rin egallashga xizmat qiladi.

Shaharlardagi mijoz tanloviga asoslangan kooperativ taqsimot tarmog‘ini optimallashtirish bo‘yicha tadqiqot amalga oshirildi. Shaharlarda hamkorlikka asoslangan MCCSVRP modeli ishlab chiqildi. Shaharda kuryer korxonalariga tegishli bir nechta taqsimot markazlari mavjud bo‘lib, bu markazlar yuk mashinalari orqali keladigan tovarlarni qabul qiladi, ularni qadoqlaydi, yuklaydi va turli tumanlardagi franchayzing xizmat ko‘rsatish stansiyalariga tarqatadi. Shundan so‘ng, tumandagi mijozlar o‘zlariga eng yaqin xizmat ko‘rsatish stansiyalaridan yuklarini olib ketishlari yoki yuborishlari mumkin.

Taqsimot markazi transport vositalari yuk ortilgan holda belgilangan tushirish nuqtalariga borib, tovarlarni tushiradi va shu bilan birga tumandagi o‘z-o‘zidan yig‘ilgan yetkazib berish nuqtalaridan qaytib keladigan yuklarni ham to‘plab, boshqa shaharlarga yetkazib berish uchun olib chiqadi [9].

Kuryer korxonalari kooperativ taqsimot ittifoqini shakllantirish orqali o‘zaro taqsimot vazifalarini almashishi mumkin. Bu nafaqat taqsimot xarajatlarini kamaytiradi, balki tumanlarda mijozlarning qoniqishini ham oshiradi (2-rasmda ko‘rsatilganidek). Shunday qilib, hamkorlikka asoslangan shahar taqsimot tarmog‘ini optimallashtirish masalasi bir nechta markazlarga ega yopiq hamkorlikdagi transport vositalari yo‘nalishini optimallashtirish muammolari toifasiga kiradi. Bu jarayonda bir vaqtda yetkazib berish va yig‘ib olish (pickup & delivery), shuningdek aralash yuklash xususiyatlari mavjud bo‘ladi.

Modelni qurishdan avval tadqiq qilinayotgan masala bo‘yicha bir nechta oqilona taxminlar qabul qilinadi:

relyef va transport harakatining ta’siri inobatga olinmagan holda, tugunlar orasidagi masofa to‘g‘ri chiziqli masofa sifatida olinadi;

shahar taqsimot markazlaridan qishloq xizmat stansiyalariga yuboriladigan tovarlar katta hajmli avtomobillar orqali tashiladi, shahar taqsimot markazlari o‘rtasidagi yuklarni esa kichik hajmli avtomobillar tashiydi va transport vositalarining barcha xususiyatlari oldindan ma’lum deb qabul qilinadi;

mahsulotlarning turfa xususiyatlari hisobga olinmaydi, iste’molchilar talab qiladigan tovarlarning o‘rtacha hajmi ma’lum bir vaqtda taqsimot markazidagi tovar hajmiga mutanosib chiziqli funksiya sifatida qaraladi;

talab dinamikasi hisobga olinmagan holda, talab tugunidagi o‘rtacha oylik tovar hajmi oldindan belgilangan va ma’lum vaqt oralig‘ida barqaror bo‘ladi [10].

Tashish xarajatlari taqsimot markazi tomonidan qoplanadi. Qaytishda yig‘ib olingan tovarlarni kooperativ taqsimot markaziga yetkazishda transport xarajatlari va yuklarni qayta ishlash xarajatlari kooperativ taqsimot markazi zimmasiga yuklatiladi. Har bir taqsimot markazida mavjud transport vositalari soni doimo taqsimot talabini qondira oladi, deb faraz qilinadi. Barcha taqsimot markazlaridagi transport vositalarining modellari bir xil va ularning turli xususiyatlari hisobga olinmaydi [11].

Genetik algoritm asosida shahar MCCSVRP muammosini yechish Genetik algoritm (GA) — bu “eng munosibning omon qolishi” strategiyasiga asoslangan, yuqori darajada parallel va tasodifiy moslashuvchan global optimallashtirish algoritmi hisoblanadi. 3-rasmda ko‘rsatilgandek, u muammoning mumkin bo‘lgan yechimlarini kompyuter tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan “xromosoma” kodlari sifatida ifodalaydi. Har bir xromosoma individ deb ataladi va bir nechta individlar boshlang‘ich populyatsiyani tashkil etadi [12].

Populyatsiyaning genetik qonunlari (tanlash, kross-over va mutatsiya) orqali avloddan-avlodga o‘tuvchi iterativ evolyutsiya amalga oshiriladi. Bu jarayon ma’lum unumdorlik ko‘rsatkichlari va konvergensiya shartlari bajarilgunga qadar davom etadi hamda natijada eng yuqori fitness funksiyasi qiymatiga ega optimal individ (ya’ni muammoning optimal yoki qoniqarli yechimi) aniqlanadi.

Boshqa optimallashtirish usullari bilan taqqoslaganda, GA maqsad funksiyasini bevosita fitness qiymati sifatida qidirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu unga kuchli global qidiruv salohiyati, moslashuvchan qidiruv jarayoni va tez konvergensiya kabi xususiyatlarni beradi. Shu sababli u transport vositalari marshruti bilan bog‘liq barcha tadqiqotlarda keng qo‘llanib kelmoqda. GA algoritmi tuzilishidan kelib chiqib, MCCSVRP muammosining o‘ziga xos tabiati uchun GA algoritmi oqim sxemasi ishlab chiqilgan.

Shahar taqsimotidagi MCCSVRP muammosining asosiy maqsadi — kooperativ transport tarmog‘ini oqilona loyihalash orqali umumiy xarajatlarni minimallashtirishdir. Umumiy xarajatlarga quyidagi uchta tarkibiy qism kiradi:

1. Yuk mashinasi ekspluatatsiya xarajatlari;
2. Doimiy foydalanish xarajatlari;
3. Taqsimot markazlari tomonidan yuklarni qayta ishlash xarajatlari.

Dastlabki taqsimot sxemasi bilan taqqoslaganda, agar taqsimot markazlari o‘rtasida hamkorlik mavjud bo‘lsa, unda: h markazi i markazidan qishloq xizmat stansiyasi j ga yetkazilishi lozim bo‘lgan yuklarni qabul qiladi; hamda h markazi qishloq xizmat stansiyasi j dan qaytarib olinadigan va i markaziga yetkazilishi kerak bo‘lgan yuklarni ham qabul qiladi. Bu jarayonda taqsimot markazlari o‘rtasida yuklarni uzatish xarajatlari Z_1 bilan belgilanadi. Z_1 uch qismdan iborat: transport vositasining ekspluatatsiya xarajatlari, belgilangan foydalanish xarajatlari va taqsimot markazi tomonidan amalga oshiriladigan qayta ishlash xarajatlari.

$$Z_1 = \frac{\sum(g(d_{hi})+g(v_{mk}))}{\sum_{i\epsilon I}(c\times L_{hi}+\mu_{mk})} + (d_{hi} \times c_i^f) \qquad (1)$$

Barcha taqsimlash markazlari uchun yuklarni qayta ishlashning yakuniy qiymati quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$Z_2 = \frac{\sum\sum_{j\epsilon J} r_{ij}}{\sum_{j\epsilon J} q_{ij}\times c_i^f} \qquad (2)$$

Taqsimlash markazi tuman xizmat stansiyasiga tovarlarni yetkazib berish va u yerdan yuklarni olib ketishda, transport vositasining tashish xarajati hamda yirik avtomobildan foydalanishning doimiy xarajatlari yig‘indisi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$Z_3 = \frac{\sum\sum_{j\epsilon J}(L_{ij} \times x_{ij}^k \times c^{bk})}{\sum_{i\epsilon I}(NK_{ij} \times c_i^f)} . \qquad (3)$$

Shundan so‘ng, masalaning umumiy maqsad funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$max\ Z = \frac{(Z_1 + Z_2)}{Z_3}. \qquad (4)$$

Ushbu masalaning yechimiga qo‘yiladigan cheklovlar:

$$y_i^k = \left(\sum_{j\epsilon J}^{i=0} x_{ij}\right),^k \qquad i\ \epsilon\ I, \qquad (5)$$

$$\sum_{u\epsilon I\cup J} (x_i + x_u + x_k) - r_{ij}^k \geq 0, \qquad i\ \epsilon\ I. \qquad (6)$$

Logistikada foyda taqsimotini genetik algoritm asosida tahlil qilish

Tajriba-sinovlarda asosiy masala misollaridan foydalanilgan. Bu shartlarga ko‘ra, har bir taqsimlash markazi faqatgina o‘ziga biriktirilgan shahar (tuman) talab nuqtasiga mahsulot yetkazib beradi. Katta avtomobilning maksimal yuk ko‘tarish quvvati 550 dona, maksimal masofasi esa 30 km bo‘lib, uning transport xarajati 1 km uchun 8750 so‘m deb belgilangan. Kichik avtomobilning maksimal yuk sig‘imi 300 dona bo‘lib, shahar ichidagi o‘zaro qisqa masofali tashish sababli transport xarajati 1 km uchun 2088 so‘mni tashkil etadi. Kichik avtomobil uchun maksimal masofa cheklovi hisobga olinmagan.

Boshlang‘ich taqsimlash sxemasi taqsimlash markazi joylashuvi va talab nuqtalariga asoslanib tuzilgan. Shundan so‘ng eng qisqa masofa qidirish algoritmi yordamida nuqtalar tanlab olinib, ulardan transport marshrutlari shakllantirilgan. Mazkur ishda taklif etilgan GA (Genetic Algorithm) algoritmining parametrlari quyidagicha belgilangan: xromosoma populyatsiyasi hajmi – 100 ta, maksimal iteratsiya soni – 200 ta, aniqligini tekshirish iteratsiyasi – 5 ta, krossover ehtimoli – 0,8, mutatsiya ehtimoli – 0,25 [13].

Logistika bo‘yicha hamkorlikdagi optimallashtirish sxemasi qo‘llanilganda boshlang‘ich yechim to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshlang‘ich yechim sifatida ishlatiladi. Eksperiment natijalariga ko‘ra, sinergiya (hamkorlik) mavjud bo‘lmagan holatda optimallashtirish masalasining eng yaxshi yechimi 53-avlodda paydo bo‘lgan va optimal qiymat 6522,11 ga teng bo‘lgan.

Elektron tijorat logistikasida samaradorlikni ta’minlashda dasturiy ta’minot muhim o‘rin tutadi. Taqsimot markazlari, transport vositalari va iste’molchilar o‘rtasidagi ma’lumotlar oqimini aniq boshqarish uchun foydalanuvchiga qulay interfeys zarur bo‘ladi. Shu sababli ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot interfeys sxemasi quyidagi asosiy bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

Bosh menyu (Dashboard) – foydalanuvchi tizimga kirganda birinchi ko‘rinadigan oynada umumiy statistik ma’lumotlar (buyurtmalar soni, faol transport vositalari, yetkazib berish jarayoni holati) aks ettiriladi.

Buyurtmalar moduli – kelib tushgan onlayn buyurtmalarni qabul qilish, ro‘yxatga olish va ustuvorlik darajasini belgilash imkoniyatini beradi. Har bir buyurtma mijoz manzili, mahsulot turi va hajmi bilan birga ko‘rsatiladi.

Marshrut optimallashtirish moduli – genetik algoritm va gibrid yondashuvlar asosida transport vositalari uchun eng maqbul yo‘lni hisoblaydi. Bu modul xaritada transport yo‘llarini ko‘rsatib, yo‘l uzunligi, vaqt va xarajatlarni solishtirish imkoniyatini beradi.

Transport boshqaruvi – mavjud yuk mashinalari va ularning sig‘imi, yoqilg‘i sarfi, ekspluatatsiya xarajatlari bo‘yicha ma’lumotlarni jamlaydi. Har bir transport vositasi uchun optimal yo‘nalish avtomatik tarzda tanlanadi.

Ombor boshqaruvi – tovarlarni qabul qilish, saqlash va yuborishga tayyorlash jarayonini nazorat qiladi. Ombor ichidagi mahsulotlar harakati diagramma yoki jadval ko‘rinishida aks ettiriladi.

Monitoring va hisobotlar – real vaqt rejimida transport vositalarining joylashuvi, buyurtmalar bajarilish darajasi va logistika xarajatlari monitoring qilinadi. Yakunda tizim avtomatik ravishda kunlik, haftalik yoki oylik hisobotlar shakllantiradi.

Foydalanuvchi interfeysi – oddiy va intuitiv bo‘lishi uchun interaktiv xaritalar, grafiklar va jadval shakllaridan foydalaniladi. Har bir foydalanuvchi (ombor xodimi, transport menejeri, kuryer, boshqaruvchi) uchun alohida kirish huquqlari belgilanadi.

Mazkur interfeys sxemasi foydalanuvchiga nafaqat buyurtmalarni samarali boshqarish va logistika xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi, balki transport yo‘nalishlarini real vaqt rejimida optimallashtirishga ham xizmat qiladi.



1-rasm. Logistika yo‘nalishini optimallashtirish dasturiy ta’minotining interfeys sxemasi



2. Rasm. Shahar elektron tijorat logistikasida hamkorlikda taqsimlash modeli sxematik diagrammasi.

Quyidagi 2-rasmda elektron tijorat tizimida yuklarni qabul qilish, saqlash va yuborishga tayyorlash jarayoni bosqichma-bosqich ko‘rsatilgan. Birinchi bosqichda, omborga keluvchi yuk mashinalari turli tovarlarni olib keladi. Masalan, birinchi mashinada A, B, C, ikkinchisida D, E, F, uchinchisida esa X, Y, Z kabi tovarlar mavjud bo‘ladi. Ikkinchi bosqichda, yuklar mashinadan tushiriladi va tovarlarni joyiga joylashtirish vazifasi bajariladi. Bu bosqichda tovarlar ombor ichidagi maxsus saqlash joylariga joylashtiriladi. Omborda har bir mahsulot o‘zining katakchasiga (masalan, A, B, C yoki D, E, F va hokazo) tartibli holda joylanadi.

Uchinchi bosqichda esa, buyurtmalar asosida tovarlarni yuborishga tayyorlash vazifasi amalga oshiriladi. Ya’ni, turli joylardan kelib tushgan buyurtmalarga qarab mahsulotlar guruhlanadi. Masalan, chiqib ketuvchi yuk mashinalaridan birinchisiga A, D, X, ikkinchisiga B, E, Y, uchinchisiga esa C, F, Z joylanadi. So‘nggi bosqichda mahsulotlar chiqib ketuvchi yuk mashinalari orqali xaridorlarga yuboriladi.

Ushbu jarayon elektron tijorat logistikasining muhim qismi bo‘lib, unda quyidagi vazifalar hal etiladi: yuklarni tezkor va aniq qabul qilish, mahsulotlarni ombor ichida tartibli joylashtirish, buyurtmalar asosida yuklarni optimal guruhlash hamda tovarlarni xaridorga o‘z vaqtida yetkazib berish. Shunday qilib, rasmda tasvirlangan jarayon elektron tijorat logistikasida ombor ichidagi oqimlarni boshqarish mexanizmini ifodalaydi.

Zamonaviy logistika sanoatidagi eng yuqori darajadagi logistika muhiti shaharlararo logistika muhitidir. Bu turdagi muhit xaritasida yuklarni qabul qilish va jo‘natish stansiyalari sifatida aeroportlar, temiryo‘l vokzallari yoki avtovokzallar xizmat qiladi. Har bir shahar ichida stansiyalarni bog‘lovchi yo‘llar havo yo‘llari, temiryo‘llar yoki avtomobil yo‘llari bo‘ladi. Yuqoridagi yo‘llarning umumiy bir o‘lchamli xususiyatlariga asoslanib, ushbu bob xaritani bir o‘lchamli fazo sifatida modellashtiradi va shunday qilib shaharlar orasidagi bir o‘lchamli transport yo‘li muammosini taqdim etadi. Ushbu muammo bir o‘lchamli transport yo‘li muammosi deb ataladi va uning maqsadi umumiy uzunligi eng qisqa bo‘lgan transport yo‘llari majmuasini topishdan iboratdir. Natijada, har bir stansiyadagi talab belgilangan vaqt oralig‘ida bajarilishi kerak bo‘lib, logistika vazifalarini bajarish sharti asosida transport xarajatlarini minimallashtirish ko‘zda tutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron tijoratning jadal rivojlanishi sharoitida logistika tizimini samarali boshqarish va yetkazib berish yo‘llarini optimallashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqot davomida gibrid algoritmlardan foydalanish orqali elektron tijorat logistikasida transport va axborot oqimlarini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi. Ayniqsa, genetik algoritmlar, dinamik dasturlash va sun’iy intellekt usullarini birlashtirish logistik tarmoqlarda vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi isbotlandi.

Shuningdek, gibrid yondashuv yordamida buyurtmalarni tezkor yetkazib berish, yo‘l uzunligini minimallashtirish, transport xarajatlarini kamaytirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish imkoniyatlari aniqlab berildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, elektron tijorat tizimida yagona algoritmik yechim emas, balki bir nechta optimallashtirish usullarining kombinatsiyasi yuqori samaradorlikka erishishning eng maqbul yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Victor, A., & Ghalib, M. R. (2017). Detection of skin cancer cells – A review. Research Journal of Pharmacy and Technology, 10(11), 4093–4098.
2. Sudra, M. N., & Selvarajan, S. (2019). Hybrid approach towards feature selection for breast tumor classification from screening mammograms. International Journal of Biomedical Engineering and Technology, 29(4), 309–326.
3. Worker, M., & Akare, A. (2016). Classification of stages of lung cancer using genetic candidate group search approach. IOSR Journal of Computer Engineering, 18(5), 7–13.
4. Yang, L., & Xu, Z. (2019). Feature extraction by PCA and diagnosis of breast tumors using SVM with DE-based parameter tuning. International Journal of Machine Learning and Cybernetics, 10(3), 591–601.
5. Chan, Y.-K., Chang, M.-J., Hung, Y.-W., et al. (2018). Tissue section image-based liver scar detection. Journal of Medical and Biological Engineering, 38(6), 857–866.
6. Paul, R. V., Sannakki, S., & Rajpurohit, V. S. (2017). A survey on classification of liver diseases using image processing and data mining techniques. International Journal of Computer Sciences and Engineering, 5(3), 29–34.
7. Liu, T., Zhang, W., McLean, P., Ueland, M., Forbes, S. L., & Su, S. W. (2018). Electronic nose-based odor classification using genetic algorithms and fuzzy support vector machines. International Journal of Fuzzy Systems, 20(4), 1309–1320.
8. Das, A., Das, P., Panda, S. S., & Sabut, S. (2018). Adaptive fuzzy clustering-based texture analysis for classifying liver cancer in abdominal CT images. International Journal of Computational Biology and Drug Design, 11(3), 192–208.
9. Ralph, J., Singh, A., & Bhadauria, H. S. (2017). Computer assisted classification framework for prediction of acute lymphoblastic and acute megaloblastic leukemia. Biocybernetics and Biomedical Engineering, 37(4), 637–654.
10. Allan, M., & Nandhini, M. (2017). A study on optimization techniques in feature selection for medical image analysis. International Journal of Computer Science and Engineering (IJCSE), 9(3), 75–82.
11. Manda, R., Walsh, M. J., & Bhargava, R. (2018). Selecting optimal features from Fourier transform infrared spectroscopy for discrete-frequency imaging. Analyst, 143(5), 1147–1156.
12. Kaur, P., Singh, G., & Kaur, P. (2019). An intelligent validation system for diagnostic and prognosis of ultrasound fetal growth analysis using neuro-fuzzy based on genetic algorithm. Egyptian Informatics Journal, 20(1), 55–87.
13. Wang, C., Li, Z., Dey, N., et al. (2018). Histogram of oriented gradient based plantar pressure image feature extraction and classification employing fuzzy support vector machine. Journal of Medical Imaging and Health Informatics, 8(4), 842–854.

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Parpiyeva Ra’no Abdurasulovna
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: parpiyeva@tsue.uz

Madyarova Muxlisa Abdulla qizi
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
Email: m.madyarova@tsue.uz

Annotatsiya: Bugungi kunda global miqyosda bank tizimi zamonaviy moliyaviy texnologiyalar ta’sirida chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Fintech yechimlari — mobil banking, blokcheyn texnologiyalari, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosidagi innovatsion yondashuvlar — moliyaviy xizmatlarning samaradorligini oshirish, mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning tezkorligi va xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mobil banking xizmatlari aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, moliyaviy inklyuziyani oshirmoqda; blokcheyn texnologiyalari tranzaksiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta’minlamoqda; sun’iy intellekt esa kreditlash jarayonida risklarni tahlil qilish, firibgarlikni aniqlash hamda mijozlarga individual xizmatlar ko‘rsatishda samarali qo‘llanilmoqda. Shu bois, tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish nafaqat banklarning raqobatbardoshligini oshirish, balki butun moliya bozorining barqaror rivojlanishini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot tijorat banklari faoliyatida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilish holatini o‘rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitida ularni yanada samarali joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy texnologiyalar (Fintech), Raqamli transformatsiya, Tijorat banklari, Mobil banking, Blokcheyn texnologiyasi, Sun’iy intellekt (AI), Moliyaviy inklyuziya.

Abstract: Today, the global banking system is undergoing a profound transformation under the influence of modern financial technologies. Fintech solutions — mobile banking, blockchain technologies, artificial intelligence, and Big Data-based innovative approaches — play a crucial role in improving the efficiency of financial services, ensuring their speed and security for clients. In particular, mobile banking expands access to financial services and increases financial inclusion; blockchain technologies ensure transparency and security of transactions; while artificial intelligence is effectively applied in credit risk analysis, fraud detection, and the provision of personalized services to clients. Therefore, enhancing the use of financial technologies in commercial banks is of strategic importance not only for increasing their competitiveness but also for ensuring the sustainable development of the entire financial market. This study focuses on examining the use of modern technologies in the activities of commercial banks, analyzing international experience, and developing scientific and practical recommendations for their more effective implementation in the context of Uzbekistan.

Key words: Financial technologies (Fintech), Digital transformation, Commercial banks, Mobile banking, Blockchain technology, Artificial intelligence (AI), Financial inclusion

Аннотация: В настоящее время банковская система в глобальном масштабе переживает глубокую трансформацию под воздействием современных финансовых технологий. Fintech-решения — мобильный банкинг, технологии блокчейн, искусственный интеллект и инновационные подходы на основе больших данных (Big Data) — играют важную роль в повышении эффективности финансовых услуг, обеспечении их оперативности и безопасности для клиентов. В частности, мобильный банкинг расширяет доступ населения к финансовым услугам и способствует росту финансовой инклюзии; технологии блокчейн обеспечивают прозрачность и безопасность транзакций; искусственный интеллект эффективно применяется для анализа рисков в кредитовании, выявления мошенничества и предоставления индивидуализированных услуг клиентам. Поэтому совершенствование использования финансовых технологий в коммерческих банках имеет стратегическое значение не только для повышения их конкурентоспособности, но и для обеспечения устойчивого развития всего финансового рынка.

Данное исследование направлено на изучение применения современных технологий в деятельности коммерческих банков, анализ международного опыта и разработку научно-практических рекомендаций по их эффективному внедрению в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Финансовые технологии (Fintech), Цифровая трансформация, Коммерческие банки, Мобильный банкинг, Технология блокчейн, Искусственный интеллект (AI), Финансовая инклюзия.

KIRISH

So‘nggi yillarda butun dunyo moliya sektori raqamli transformatsiya jarayonini boshidan kechirmoqda. Bank tizimi ham bundan mustasno emas, aksincha, raqamli texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish eng faol amalga oshirilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va farmonlarda ham ushbu jarayon ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Jumladan, 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan “Raqamli O‘zbekiston” strategiyasida bank sektorida:

- fintech ekotizimlarini rivojlantirish,
- mobil banking xizmatlarini kengaytirish,
- xalqaro to‘lov tizimlariga integratsiya qilish,
- raqamli identifikatsiya va masofaviy xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini joriy etish, asosiy vazifalar sifatida belgilab qo‘yilgan.

Mazkur hujjatlarda belgilangan chora-tadbirlar banklarning faoliyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, mijozlarga tezkor, xavfsiz va qulay xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda moliyaviy texnologiyalarning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida Markaziy bank tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Xususan, to‘lov tizimlari va to‘lov xizmatlari bo‘yicha yangi tartiblar, masofaviy identifikatsiya qoidalari, elektron raqamli imzo va mobil ilovalar orqali tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha me’yorlar belgilandi.

Zamonaviy bank tizimi moliyaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki ular nafaqat mijozlar uchun xizmatlardan foydalanishni soddalashtiradi, balki banklar uchun ham operatsion xarajatlarni kamaytiradi, biznes jarayonlarini avtomatlashtiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Masalan, blokcheyn texnologiyasi xalqaro to‘lovlarni tezkor va shaffof amalga oshirish imkonini bersa, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar kredit risklarini bashorat qilish, firibgarlikni oldini olish va mijozlarga individual xizmat ko‘rsatishda samarali qo‘llanilmoqda.

Shuningdek, xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, mobil banking xizmatlarini keng joriy qilgan davlatlarda (Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur) bank xizmatlaridan foydalanish darajasi keskin oshgan, aholining moliyaviy inklyuziyasi kengaygan va iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushi ortgan. Bu tajribani O‘zbekiston bank tizimi uchun ham qo‘llash dolzarb vazifalardan biridir.

Shu sababli, O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatini raqamli transformatsiya qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, shuningdek, bank mijozlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bugungi kunning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy texnologiyalarni bank tizimiga joriy etish masalasi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Brett King (2018) o‘zining “Bank 4.0” asarida bank xizmatlarining kelajagi raqamli platformalarga asoslanishini ta’kidlagan. Chris Skinner (2020) esa fintech kompaniyalari va an’anaviy banklar o‘rtasidagi hamkorlik yangi moliyaviy ekotizimlarni shakllantirishini qayd etgan. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar -Khudoykulov va Sherov (2021) esa raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini rivojlantirishda fintech innovatsiyalarining ahamiyatini o‘rganishgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida banklarning raqamli transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish, xalqaro tajribalarni solishtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan foydalaniladi. Statistik ma’lumotlar asosida fintech xizmatlarining mijozlar soni va bank daromadlariga ta’siri o‘rganiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish jarayoni tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Metodologiya sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, xalqaro tajribalarni solishtirish, statistik ma’lumotlarni empirik tahlil qilish va deduktiv-induktiv usullar qo‘llanildi. Xususan, Markaziy bank va Jahon banki ma’lumotlari asosida fintech xizmatlarining moliyaviy inklyuziya va bank daromadlariga ta’siri o‘rganildi. SWOT-tahlil orqali mavjud imkoniyat va cheklovlar baholandi, shuningdek, komparativ tahlil

yordamida ilg‘or xorijiy tajribalar O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Natijada ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda tijorat banklari so‘nggi yillarda mobil banking, onlayn kreditlash, raqamli to‘lov tizimlari va masofaviy xizmat ko‘rsatish sohalarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Masalan, 2024-yil oxiriga kelib yirik tijorat banklari mijozlarining 70 foizidan ortig‘i mobil ilovalar orqali kundalik moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024) [9]. Bu jarayon nafaqat bank xizmatlarini yanada qulaylashtirmoqda, balki aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirishda ham muhim rol o‘ynamoqda (World Bank, 2022) [10]. Biroq, to‘liq raqamli transformatsiya hali barcha banklar miqyosida amalga oshirilgani yo‘q. Jumladan: blokcheyn texnologiyalari asosan nazariy darajada o‘rganilmoqda (Rocha, 2023) [3], amaliy joriy etish esa past darajada; sun’iy intellekt asosidagi risk-menejment tizimlari keng qo‘llanilmayapti, faqat ayrim pilot loyihalarda sinov tariqasida qo‘llanmoqda.

Xalqaro tajriba buni yaqqol tasdiqlaydi. Masalan: Janubiy Koreyada blokcheyn asosidagi to‘lov tizimlari keng qo‘llanilib, naqd pulsiz iqtisodiyot ulushi 90 foizdan oshgan (King, 2018) [1]; Singapurda sun’iy intellekt yordamida real vaqt rejimida risklarni baholash tizimlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu kredit portfelidagi yo‘qotishlarni 15–20 foizga kamaytirgan (Skinner, 2020) [2]; Qozog‘istonda esa davlat tomonidan fintech startaplarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari tufayli 2023-yil yakuniga kelib aholining 65 foizi elektron hamyonlar va raqamli to‘lov xizmatlaridan muntazam foydalanmoqda (World Bank, 2022) [10].

Shu asosda aytish mumkinki, O‘zbekiston tijorat banklari uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar muhimdir:

1. Raqamli bank xizmatlarini jadallashtirish - mobil banking imkoniyatlarini kengaytirish, naqd pulsiz to‘lovlarni rag‘batlantirish, “open banking” konsepsiyasini joriy etish.
2. Regulyator siyosatini moslashtirish - blokcheyn, kripto-aktivlar va smart-kontraktlarning huquqiy maqomini aniq belgilash, shuningdek, fintech kompaniyalar uchun litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish.
3. Infratuzilmani rivojlantirish - tezkor va xavfsiz tranzaksiyalarni ta’minlash uchun milliy to‘lov tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish.
4. Innovatsion hamkorlik -xalqaro fintech kompaniyalari, startaplar va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali bank xizmatlarida yangi mahsulotlarni ishlab chiqish.



1-rasm. Fintex texnologiyalari quyidagilarga xizmat qiladi [1]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish moliya bozorining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Fintech yechimlari bank xizmatlarini tezkor va xavfsiz qilish bilan birga, aholining

1 Muallif ishlanmasi

keng qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida xalqaro tajribalarni inobatga olib, bank sektorida innovatsion ekotizimlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va ularni takomillashtirish bugungi davrning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. King, B. (2018). *Bank 4.0: Banking everywhere, never at a bank*. Wiley.
2. Skinner, C. (2020). *Doing digital: Lessons from leaders*. Marshall Cavendish.
3. Rocha, A. (2023). *Financial technologies and digital transformation in banking: Global trends and practices*. Springer.
4. Wendler, T., & Gröttrup, S. (2021). *Artificial intelligence in banking: Applications and challenges*. Elsevier.
5. Arner, D., Barberis, J., & Buckley, R. (2017). Fintech and the future of financial services. *Georgetown Journal of International Law, 47*(4), 1271–1319.
6. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. (2021). Digital economy development in corporate governance of joint stock company. *Ekonomika i biznes: teoriya i praktika, (3-2)*, 217–219.
7. Matkulieva, S., & Atabaeva, K. (2022). Raqamli bank xizmatlarining iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi roli. *Scientific Progress, 3*(2), 360–363.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi* (PQ–6079-son Qaror).
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *Yillik hisobot: To‘lov tizimlari va raqamli moliya xizmatlari*. Toshkent.
10. World Bank. (2022). *Fintech and financial inclusion: Global report*. Washington, DC.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПЕРЕХОДУ К «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКЕ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ НАШЕЙ СТРАНЫ

Дехканова Наргиза Шарифовна
Ташкентский государственный экономический университет
«Зеленая» экономика. Старший преподаватель кафедры, доктор наук
Email: n.dexkanova@tsue.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-7730-2020

Аннотация: В статье обсуждается зеленая экономика и ее значение в современных условиях. Рост численности населения планеты приводит к необходимости рационального использования ресурсов и возможностей, а также к необходимости профилактики загрязнения воздуха в контексте глобальных экологических проблем. Основное внимание уделяется защите окружающей среды, эффективному использованию чистой и возобновляемой энергии, возрастающей значимости экологичного производства и потребления, а также тенденциям потребителей к приобретению экологически чистой продукции. Кроме того, анализируются экологичное поведение потребителей, формы поведения, способствующие улучшению экологических результатов, потребление, совместимое с защитой окружающей среды для будущих поколений. Даются предложения по систематизации зеленых продуктов и услуг на основе практических подходов.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленые услуги, ресурсы и возможности, энергия, глобальная проблема, зеленый потребитель, возобновляемая энергия, зеленое потребительское поведение, зеленые продукты, Организация Объединенных Наций, переработка отходов, устойчивое потребление.

Annotatsiya: Maqolada yashil iqtisodiyot va uning zamonaviy sharoitdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Sayyoramiz aholisi sonining ortib borishi resurslar va imkoniyatlardan oqilona foydalanishni, shuningdek, global ekologik muammolar kontekstida havoni ifloslanishdan himoya qilish choralarini ko‘rishni taqozo etmoqda. Asosiy e’tibor atrof-muhitni muhofaza qilishga, toza va qayta tiklanadigan energiyadan samarali foydalanishga, ekologik ishlab chiqarish va iste’molning ortib borayotgan ahamiyatiga hamda iste’molchilarning ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talab tendensiyasiga qaratilgan. Shuningdek, maqolada iste’molchilarning ekologik xulqi, ekologik natijalarni yaxshilashga qaratilgan harakatlar, kelajak avlodlar uchun tabiatni asrashga mos ravishda iste’mol qilish jarayonlari tahlil qilinadi. Amaliy yondashuvlar asosida yashil mahsulot va xizmatlarni tizimlashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil xizmatlar, resurslar va imkoniyatlar, energiya, global muammo, yashil iste’molchi, qayta tiklanadigan energiya, yashil iste’mol xulqi, yashil mahsulotlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, chiqindilarni qayta ishlash, barqaror iste’mol.

Abstract: This article discusses the green economy and its significance in the modern context. The growing global population requires the rational use of resources and opportunities, as well as measures to prevent air pollution in the context of global environmental challenges. The main focus is placed on environmental protection, the efficient use of clean and renewable energy, the increasing importance of eco-friendly production and consumption, and consumer trends toward purchasing environmentally friendly products. In addition, the article analyzes consumer environmental behavior, practices that improve ecological outcomes, consumption compatible with preserving the environment for future generations, and eco-friendly products and services. Proposals are provided for the systematization of green products and services based on practical approaches.

Key words: green economy, green services, resources and opportunities, energy, global issue, green consumer, renewable energy, green consumer behavior, green products, United Nations, waste recycling, sustainable consumption.

ВВЕДЕНИЕ

Потребление «зеленой» продукции выросло как в промышленно развитых странах, так и в странах с развивающейся экономикой. «Зеленые» потребители — это те, чье поведение улучшает социальные и экологические результаты, одновременно повышая благосостояние потребителей (White et al., 2019).[1] Потребление, которое соответствует защите окружающей среды для нынешнего и будущих поколений, классифицируется как зеленое потребление (Нгуен и др., 2019).[2] Это концепция, которая возлагает на потребителей ответственность за решение экологических проблем путем принятия экологически безопасных моделей поведения, таких как использование органических продуктов, чистой и возобновляемой энергии, а также продукции, производимой компаниями, оказывающими незначительное воздействие на окружающую среду.

«Стратегия перехода Республики Узбекистан к зеленой экономике на 2019-2030 годы», утвержденная Президентом Республики Узбекистан 4 октября 2019 года, является важным программным действием в обеспечении устойчивого развития на основе зеленой экономики в нашей стране.[3] Среди важных задач перехода к зеленой экономике — повышение энергоэффективности экономики и рациональное потребление природных ресурсов.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Уайт, К., Хардисти, ДЖ., Хабиб, владелец книги «Неуловимый зеленый потребитель». Глобальный обзор устойчивого развития (2021 г.) демонстрирует существенный сдвиг парадигмы во всем мире: потребители учитывают дисбаланс поколений в вопросах охраны окружающей среды и готовность идти на большие жертвы ради экологически чистых продуктов и услуг. Растущая актуальность зеленого производства и потребления объясняется признанием его в качестве приоритетной проблемы в Целях устойчивого развития Организации Объединенных Наций (2018 г.), что выдвинуло исследования в области зеленого потребления на передний план. Исследования, включающие данные из развивающихся стран, позволяют проводить межнациональное и межкультурное изучение влияния социально-экономического фона на формирование поведенческих моделей в целях содействия устойчивому развитию, однако формальный обзор этих исследований не проводится. В нем также уделяется внимание конкретным поведенческим областям, таким как мобильность (Ланзини и Хан, 2017), покупка экологически чистых продуктов (Ахсан, 2021) и переработка отходов (Миафодзиева и Брандт). 2013). [4]

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В исследовании в основном использовались такие научные методы исследования, как статистическая группировка, сравнительная научная абстракция, то есть зеленая экономика,зеленые потребители, нормативно-правовая база для устойчивого потребления и производства,Была представлена и проанализирована динамика технологических инноваций в бизнесе.Зеленый рост решает экономические и экологические проблемыРазработаны выводы и предложения по совершенствованию отрасли в части устойчивого развития предприятий.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В настоящее время устойчивый рост и развитие являются основными направлениями социально-экономической политики стран по всему миру. Истощение природных ресурсов, усиливающееся загрязнение окружающей среды и глобальное потепление являются предупреждающими знаками для нашей планеты. Каждая страна на Земле несет ответственность за защиту нашей планеты. Таким образом, рост экологической осведомленности привел к появлению новых тенденций в поведении потребителей. Роль зеленой экономики, устойчивого потребления и производства, а также эффективности использования ресурсов для устойчивого развития: Устойчивое потребление и производство направлены на совершенствование производственных процессов и практик потребления для сокращения потребления ресурсов, образования отходов и выбросов на протяжении всего жизненного цикла процессов и продуктов. Эффективность относится к способам использования ресурсов для создания ценности для общества и направлена на сокращение количества ресурсов, необходимых для производства единицы продукта или услуги, а также отходов и образующихся отходов.

Рисунок 1. Тенденция устойчивого потребления и производства

Зеленая экономика обеспечивает макроэкономический подход к устойчивому экономическому росту с акцентом на инвестиции, занятость и навыки (рисунок 1)

Три основных направления текущей работы по зеленой экономике:

1) Продвигать макроэкономический подход к устойчивому экономическому росту через региональные, субрегиональные и национальные форумы.

2) Демонстрация подходов зеленой экономики с упором на использование зеленого финансирования, технологий и инвестиций.

3) Оказывать поддержку странам в разработке и внедрении макроэкономической политики для поддержки перехода к зеленой экономике.

Организация Объединенных Наций по окружающей среде оказывает поддержку Монголии в реализации ее национальной политики зеленого развития, интеграции зеленой экономики в местные планы развития, показатели Целей устойчивого развития и экологизации ключевых секторов.

Поддерживается многостороннее сотрудничество в целях содействия развитию зеленой экономики с целью ускорения и закрепления устойчивых изменений в моделях потребления и производства. Помимо правительств и некоммерческих организаций, Агентство ООН по окружающей среде также укрепило свое сотрудничество с частным сектором, который играет важную роль в содействии эффективному использованию ресурсов и зеленой экономике.

Зеленый рост означает содействие экономическому росту и развитию при обеспечении устойчивости природных ресурсов. Крайне важно обеспечить ресурсы и экологические услуги, от которых зависит наше благополучие. Для этого необходим катализ. Так:

инвестиции и инновации, которые обеспечивают устойчивый рост и создают новые экономические возможности.

Возврат к «обычному ведению бизнеса» был бы неразумным и в конечном итоге неустойчивым развитием, которое может привести к рискам, в зеленой экономике — переход к зеленому бизнесу и производству зеленой продукции с использованием зеленых инвестиций;

человеческие издержки и ограничения экономического роста и развития. Это может привести к усилению дефицита воды, для решения которого целесообразно передать технологии ее переработки;

Проблемы с ресурсами, загрязнение воздуха и воды, изменение климата и необратимая утрата биоразнообразия. Для решения этих проблем необходимо развивать зеленую инфраструктуру с помощью стратегий и тактик по достижению зеленого роста в стране. (Рисунок 2)



Рисунок 2. Эффективность использования ресурсов и пути достижения процветания.

Прежде чем переходить к «зеленой экономике», необходимо провести аудит национального законодательства, привести его в соответствие с мировыми стандартами и объединить в единую систему. Вторым важным вопросом является определение того, какие финансовые инструменты государство намерено использовать при переходе к «зеленой экономике». Потому что на начальном этапе потребуются крупные инвестиции в отрасли экономики. Государственный бюджет не может выдержать такого бремени, и, вероятно, придется обратиться к международным донорским организациям. В таком случае, на каких условиях будет оказана внешняя помощь? Важно то, как местные бенефициары — население, предприятия и экономические субъекты — могут ее получить? Если бизнес не поощрять и не мотивировать работать по принципам «зеленой экономики», все усилия государства будут напрасны.

Как правило, предприятия и организации предоставляют льготные или беспроцентные кредиты различным слоям населения для использования альтернативных источников энергии, снижения потребления углерода в процессе производства, применения «зеленых технологий», приобретения соответствующего оборудования.Предоставляются кредиты, субсидии и гранты, а также налоговые льготы. В свою очередь, банковская и финансовая система также отнесутся к этому с пониманием, и банки

Очень важно, что ООН уделяет особое внимание бизнес-проектам, связанным с Целями устойчивого развития.Переход Узбекистана к «зеленой экономике» вызывает широкое обсуждение в мировом сообществе. Неудивительно, что крупные компании и организации, в том числе западные, готовы финансировать важные инвестиционные проекты, направленные на достижение наших целей «зеленого развития».Инновационная и инвестиционная стратегия Узбекистана в промышленном секторе при переходе к зеленой экономике основана на инновациях, поддержке инноваций, обновлении технологий и тем самым содействии производству продукции качественно и эффективно. При этом развитие промышленности за счет инвестиций должно осуществляться следующими путями:

1. Развитие научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ (НИР) и интеллектуальной деятельности:Поддержка научных исследований и разработок в узбекской промышленности. поддержка большего количества исследований, производства и анализа путем повышения интеллектуального потенциала и поощрения сотрудников к инновационной деятельности;

2. Промышленные предприятия по выпуску товарной продукции с использованием безотходных технологий.Продукцию можно обновить, внедрив в этот сектор новые и качественные технологии. Это поможет сохранить природные ресурсы, рационально использовать возможности и использовать возобновляемые источники энергии;

3. Увеличение интеллектуального капитала:Использование программ, направленных на повышение квалификации научно-технических кадров и получение необходимых знаний для производства продукции от зарубежных предприятий через грантовые программы.

4. Инвестируйте в инновации:Финансирование стартап-проектов в отрасли за счет венчурных инвестицийразумная реализация;

Реализация этих подходов будет играть важную роль в устойчивом развитии промышленности и переходе к зеленой экономике. При анализе места зеленой экономики в промышленном секторе можно выделить несколько важных моментов. Для развития зеленой экономики можно предпринять несколько важных мер:

1. Повышение энергоэффективности: Необходимо поддерживать новые технологии, чтобы экономить энергию и потреблять меньше энергии при производстве. Для лучшего производства энергии электроэнергию можно получать из возобновляемых источников энергии.

2. Повышение эффективности использования воды.: Чтобы экономить воду и производить больше продукции, необходимо повысить эффективность ее использования. Необходимо улучшить дренаж полей и водопользование с целью повторного использования сточных вод в сельскохозяйственных целях путем биологической и химической переработки, внедрить технологию орошения, расширить водопользование.

3. Экономия ресурсов в других секторах экономики:

- сокращение выбросов парниковых газов на единицу валового внутреннего продукта.
- увеличение производственных мощностей возобновляемых источников энергии.
- повышение энергоэффективности в промышленном секторе не менее чем на 20 процентов.

4. Развитие отрасли переработки отходов:Необходимо повысить уровень переработки твердых бытовых отходов.

При использовании этих подходов возможно развитие зеленой экономики при сохранении устойчивого экономического развития.Содействие развитию зеленых технологий также должно основываться на комплексе мер политики. Я предлагаю инновационный комплекс мер политики, основанный на трех широких категориях инструментов: [4]

1. Технологические инструменты, которые поддерживают предоставление базовых и прикладных знаний посредством исследовательских грантов, патентной защиты, налоговых льгот и т. д.

2. Посредством внедрения таких политик, как инструменты стимулирования спроса, стимулирующие формирование новых рынков, таких как государственные закупки, дополнительные тарифы, квоты и т. д.

3. Системные инструменты, которые поддерживают различные функции, действующие на уровне инновационной системы, такие как предоставление инфраструктуры, содействие согласованию действий заинтересованных сторон и поощрение разработки целей и различных организационных решений.

Основная роль политики зеленых инноваций заключается в поддержке разработки универсальных технологий, которые могут создавать предпринимательские фирмы [5]. Государственная поддержка исследований и разработок, а также совместное финансирование пилотных и демонстрационных установок способствуют внедрению изменений и позволяют тестировать, оптимизировать и масштабировать новые изобретения. Как отмечалось выше, существует эмпирическая поддержка государственного финансирования НИОКР для разработки зеленых технологий, поскольку недостаточное инвестирование из-за распространения знаний может быть особенно высоким для этих технологий.

Нельзя ожидать, что частные компании будут быстро внедрять зеленые инновации. Тем не менее, правительства часто тратят большие суммы денег на финансирование исследований и разработок в области технологий снижения загрязнения, но мы видим меньше государственных программ, финансирующих исследования в области технологий, которые могут способствовать реализации политики и мониторингу окружающей среды. [7]

Инновационные системы, связанные с технологией зеленой энергетики, являются неотъемлемой частью этой технологии. Различные технологии подвержены уникальным и многомерным процессам роста, таким как вызовы, процессы обучения и динамика обрабатывающей промышленности [8]. Характер распространения знаний и долгосрочные риски, а также вероятность того, что зеленые технологии пострадают от технологической зависимости от существующих технологий, также различаются. Например, технологический процесс развития ветроэнергетики обусловлен производителями турбин и сильными внутренними рынками, в то время как поставщики оборудования и производители с собственным оборудованием доминируют в развитии солнечной энергетики [9].

РКИК ООН [10] сообщает о значительном увеличении глобальных финансовых потоков, связанных с климатом, однако эти потоки все еще относительно невелики в контексте более широких тенденций в мировых инвестициях. Их даже оценивают как недостаточные для покрытия дополнительных финансовых потребностей, необходимых для адаптации к изменению климата, которое неизбежно.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

В заключение, инновационные подходы к переходу к «зеленой» экономике для устойчивого развития экономики нашей страны:

Это в основном связано с переходом к зеленой экономике за счет повышения энергоэффективности, повышения эффективности водопользования, сохранения природных ресурсов и развития перерабатывающей промышленности. Важно организовать производственный процесс таким образом, чтобы защищать окружающую среду, не наносить вред экологии, экономить природные ресурсы и рационально использовать возможности.

Кроме того, рост выбросов парниковых газов промышленными предприятиями требует внедрения зеленых инноваций в государственном секторе. В частности, реализация экологических норм, которые могут нанести вред, требует специализированных технологий мониторинга, которые могут измерять уровни загрязнения. Например, следует поощрять разработку новых технологий, обеспечивающих недорогой мониторинг выбросов, и я считаю, что такие исследования и разработки должны финансироваться из государственного бюджета.

Фактически, патенты, защищающие права интеллектуальной собственности, могут даже замедлить распространение зеленых технологий, которые обеспечивают существенное сокращение выбросов, создавая перекос в сторону разработки технологий, близких к коммерческим. Это говорит о том, что, хотя патенты предоставляют инновационным компаниям определенный период рыночной эксклюзивности, эффективный период времени может быть намного короче, поскольку некоторые компании предпочитают подавать патенты в момент открытия, а не в момент первой продажи. Одним из последствий этого является то, что патентная система может создавать слабые стимулы для компаний заниматься производством знаний и исследованиями технологий, которые имеют длительный период времени между изобретением и коммерциализацией.

Список использованной литературы

1. Уайт, К., Хардисти, ДЖ., Хабиб, Р., 2019. Неуловимый зеленый потребитель. Харв. Автобус. Откр. 11(1), 124-133.
2. Нгуен, Х. В., Нгуен Ч. Х., Хоанг, Т. Т. Б., 2019. «Зеленое» внедрение: устранение разрыва между намерением и поведением. Поддерживать. Дев 27(1), 118-129.
3. Стратегия перехода к зеленой экономике в Узбекистане
4. Дехканова Н.Ш. пути развития зеленой экономики для устойчивого развития«Инновации в науке и технологиях» научный электронный журнал февраль 2024 г. www.innoist.uz
5. Родрик Д. Зелёная промышленная политика. Оксфордский преподобный, экономическая политика. 2014;30(3):469–91.
6. Кирби П., О›Махони Т. Политическая экономия перехода к низкоуглеродной экономике. Пути за пределы технооптимизма. Лондон: Palgrave MacMillan; 2018.
7. 7.Федеральное министерство образования и исследований. Программа исследований в области зеленой экономики. Бонн: Правительство Германии; 2015.
8. Якобссон С., Бергек А. Анализ инновационных систем и переходы к устойчивому развитию: вклад и предложения для исследований. Environ Innov Soc Transit. 2011;1:41–57.
9. Хюнтелер Дж., Шмидт Т., Оссенбринк Дж., Хоффман В. Жизненные циклы технологий в энергетическом секторе – технологические характеристики и роль внедрения инноваций. Технологический прогноз Soc Chang. 2016;104:102–21.
10. Рамочная конвенция Организации Объединенных Наций об изменении климата (РКИК ООН). Отчет о двухгодичной оценке и обзоре потоков климатического финансирования за 2016 год. Бонн: Организация Объединенных Наций; 2016.

XALQ TA’LIMI TIZIMI MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR ICHKI AUDITINING NAZARIY ASOSLARI

Narbekova Gulrux Davronboyevna
“Bank hisobi va auditi” kafedrasining katta o‘qituvchisi, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Email:gulrukhnarbekova@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7078-2226

Annotatsiya: Maqolada xalq ta’limi tizimi muassasalarida budjetdan tashqari mablag‘lar harakati va ularning buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, budjet intizomi va nazoratini tashkil etish, ichki audit tizimini joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Xalq ta’limi tizimida ichki audit hamda moliyaviy nazorat xizmatlarini respublika va hududiy darajada samarali tashkil etish mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari budjetdan tashqari mablag‘lar ustidan nazoratni kuchaytirish orqali moliyaviy barqarorlik va hisob-kitoblarning shaffofligini ta’minlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, budjetdan tashqari mablag‘lar, budjet hisobi, ichki audit, moliyaviy nazorat, xalq ta’limi muassasasi, xarajat.

Abstract: The article examines the movement of extra-budgetary funds and the organization of their accounting in public education institutions. It also analyzes the specific features of ensuring budget discipline, organizing financial control, and implementing internal audit systems. The mechanisms for the effective organization of internal audit and financial control services at the national and regional levels are substantiated. The results of the study show that strengthening control over extra-budgetary funds contributes to ensuring financial stability and transparency in accounting and financial reporting.

Key words: accounting, extra-budgetary funds, budget accounting, internal audit, financial control, public education institution, expenditure.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы движения внебюджетных средств и организации их бухгалтерского учёта в учреждениях системы народного образования. Также проанализированы особенности обеспечения бюджетной дисциплины, организации контроля и внедрения системы внутреннего аудита. Обоснованы механизмы эффективной организации служб внутреннего аудита и финансового контроля на республиканском и региональном уровнях. Результаты исследования показывают, что усиление контроля за внебюджетными средствами способствует обеспечению финансовой устойчивости и прозрачности бухгалтерских расчётов.

Ключевые слова: бухгалтерский учёт, внебюджетные средства, бюджетный учёт, внутренний аудит, финансовый контроль, учреждения народного образования, расходы.

KIRISH

Bizga ma’lumki, budjet tashkilotlari davlatning belgilangan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan yuridik shaxs bo‘lib, ular o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun budjetdan mablag‘ bilan ta’minlanadi. Har bir budjet tashkilotiga mablag‘lar ajratish davlat budjetidan tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga

oshiriladi. Bulardan tashqari, qonunchilikda budjet tashkilotlariga budjetdan tashqari mablag‘lar manbalaridan shakllantirishga ham ruxsat etilgan. Ya’ni, faoliyat turiga mos mahsulot (ish va xizmatlar) ishlab chiqarishdan tushadigan, vaqtinchalik bo‘sh bino va mulklarni ijaraga berishdan tushgan, homiylik, shuningdek, moliya yili (yoki chorak) yakunida budjet mablag‘lari bo‘yicha iqtisod qilib qolingan va boshqa mablag‘lar hisobiga budjetdan tashqari mablag‘lar shakllantiriladi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda sarflanadi.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti tomon yo‘l tutishi va budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni hisobga olgan holda, ta’lim tizimini budjetdan tashqari moliyalashtirishning yangi manbalarini (ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, tadbirkorlik, ilmiy maslahat, ekspert, nashriyot, ishlab chiqarish, turli grantlar, ilmiy tadqiqot faoliyatidan olingan daromadlar, homiylik mablag‘lari va boshqa manbalardan) o‘zlashtirilmoqda. Bu mamlakatimiz qonunchiligida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, ta’lim tizimini budjetdan tashqari moliyalashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilganligidan dalolat beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida e’tirof etilishicha, ta’lim va kadrlar tayyorlashni moliyalashtirish tizimi takomillashtiriladi, uning ko‘p variantli (budjetdan ajratiladigan va budjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etiladi, ta’lim muassasalarining o‘zini-o‘zi moliyaviy jihatdan ta’minlashi rivojlantiriladi, xususiy hamda chet el investitsiyalarini ta’lim sohasiga jalb etish rag‘batlantiriladi. Uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda donorlar va homiylarning mavqei kuchayib boradi. Shuningdek, normativ-me’yoriy hujjatlarda pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, tadbirkorlik, maslahat, ekspert, nashriyot, ishlab chiqarish, ilmiy hamda ustavda belgilab qo‘yilgan vazifalarga muvofiq boshqa turdagi faoliyat hisobidan ta’lim muassasalarining daromadlari ko‘payishini ta’minlash masalalari ham keltirib o‘tilgan.

Bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq, shuningdek, budjet yukini kamaytirish va bozor iqtisodiyoti talablariga asoslanib, kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish maqsadida xalq ta’limi tizimi muassasalari faoliyatini moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag‘larning ulushini oshirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Xalq ta’limi tizimi muassasalarining smetalari ijrosi, muassasalarning moliyaviy holati, budjet va budjetdan tashqari mablag‘lardan maqsadli foydalanish, budjet ijrosiga oid axborotlarning oshkoraligini ta’minlash maqsadida budjetdan tashqari mablag‘lar harakatiga oid moliyaviy hisobotlar tuzib taqdim etiladi.

Xalq ta’limi tizimi muassasalarining faoliyat xususiyatidan kelib chiqib, budjetdan moliyalashtirish holati va budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash, mablag‘larning maqsadli sarflanishiga erishish maqsadida muassasalarning budjetdan tashqari mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi moliyaviy hisobotlar tahlilini amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi. Bu esa, xalq ta’limi tizimi muassasalarida ichki audit tizimini yanada samarali tashkil etish va uning natijalaridan real amaliy foyda olishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, budjet nazoratini tashkil qilish, ichki audit masalalari bo‘yicha xorijlik iqtisodchi olimlardan Nguyen Txi Viet Linh va A. Sonin, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan esa A. K. Ibragimov, K. B. Ahmadjonov, B. To‘yinov, G. A. Kasimova va K. B. Aripova tadqiqot olib borgan. Nguyen Txi Viet Linhning fikricha, ichki audit — bu tashkilotda uning mulkdorlari va yuqori rahbariyat manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladigan, tashkilot faoliyatini yaxshilash uchun asosiy biznes risklarini to‘g‘ri boshqarish asosida obyektiv kafolatlar va maslahatlar beradigan mustaqil faoliyatdir [1]. A. Sonin ichki audit bo‘yicha quyidagi fikrni bildirgan: Xalqaro ichki auditorlar instituti (The Institute of Internal Auditors) ta’rifiga ko‘ra, ichki audit — bu tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil va obyektiv kafolatlar hamda maslahatlar berish faoliyatidir [2]. A. K. Ibragimovning fikricha, ichki audit xo‘jalik faoliyati haqidagi axborotni beradi va xo‘jalik hisobotlarining ishonchliligini tasdiqlaydi. Ushbu audit, asosan, resurslardan oqilona foydalanish, nobudgarchiliklarning oldini olish va korxona ichida muhim o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun zarurligini izohlaydi [3]. K. B. Ahmadjonovning ta’kidlashicha, ichki audit — xo‘jalik yurituvchi subyektlarga risklarni boshqarish, nazorat qilish va korporativ boshqaruv tizimiga maqbul yondashuv asosida qo‘yilgan maqsadlarga erishishda yordam beruvchi, moliyaviy xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan obyektiv kafolat va maslahatlar beruvchi mustaqil tizimdir. Bu tizim buxgalteriya ma’lumotlarining to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlash hamda korxonada samarali ichki nazorat tizimini tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyatni o‘z ichiga oladi [4]. B. To‘yinovning fikricha, davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ichki audit deganda — budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi, moliyaviy jarayonlarning qonuniyligi va moliyaviy nazorat tizimiga xolisona baho beruvchi, tashkilot xarajatlarining asosli rejalashtirilishi va sarflanishi yuzasidan professional maslahatlar berishga ixtisoslashgan tizim tushuniladi [5]. G. A. Kasimova va K. B. Aripovalarning ta’kidlashicha, budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatining tashkil etilishi budjet tashkiloti faoliyatini faqatgina ijobiy ko‘rsatkichlarga olib chiqishga yordam beradi. Nazoratning bu turi budjet tashkilotida aniqlangan xato va kamchiliklar uchun chora ko‘rmaydi, aksincha, bu xatolarni to‘g‘rilash yuzasidan takliflar beradi. Shu o‘rinda, ichki audit xizmati bo‘limiga budjet tashkilotlarida buxgalterlik lavozimida ko‘p yil ishlagan, katta amaliy tajribaga ega xodimlar, shuningdek, auditor sertifikatiga ega bo‘lgan shaxslarni

jalb etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ichki audit faoliyati uchun alohida xususiyat hisoblangan tekshiruvning yil davomida uzluksiz olib borilishi, ichki audit xizmati bo‘limi tomonidan o‘rganilgan obyektlar bo‘yicha oylik va choraklik hisobotlarning taqdim etib borilishi, yillik tekshiruvlarda aniqlanishi qiyin bo‘lgan mayda xatoliklarni ham aniqlash imkonini beradi [6]. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qiladigan bo‘lsak, ichki audit — budjet intizomini mustahkamlash, budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish, budjet tizimi budjetlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan faoliyatdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalq ta’limi tizimi muassasalarida budjetdan tashqari mablag‘larning tushumi va ularning sarflanishi bilan bog‘liq me’yoriy-huquqiy asoslarga ko‘ra, ichki audit xizmati faoliyatini rejalashtirish, ichki audit xizmati faoliyatida risklarni baholash va minimallashtirish, budjet va budjetdan tashqari mablag‘lardan oqilona foydalanish, korrupsion holatlarning oldini olish, ichki auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish bosqichini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etish dolzarb sanaladi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu masalalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 62-moddasiga asosan, davlat ta’lim muassasalarini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan, mahalliy budjetlaridan, shuningdek, budjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi [2]. Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim xarajatlari 54 trln so‘mni yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 22,9 foizga oshgan holda, Davlat budjeti jami xarajatlarining 15,7 foizini tashkil etmoqda. Ushbu xarajatlar asosan 10 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlaridagi 6 mln 800 mingga (o‘tgan o‘quv yilidan 207 ming bolaga ko‘p) yaqin o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish uchun yo‘naltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Xalq ta’limi tizimi muassasalarining asosiy ko‘rsatkichlari (mln so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Jami tashkilotlar soni, birlik	10 292	10 507	10 520	10 620	10 441
Umumta’lim maktablari	9 924	9 959	9 972	10 072	10 038
Maktab-internatlar	231	227	227	227	244
Mehribonlik uylari	121	127	3*	3	3
Prezident maktablari	4	14	14	14	14
Ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar	12	180	180	180	142
O‘quvchi soni (ming nafar)	6 280,2	6 405,9	6 534,0	6 666,9	6 772,6
Joriy xarajatlar (mlrd so‘m)	28,0	33,0	38,0	44,0	54,0
Shundan: bir nafar o‘quvchiga (mln so‘m)	4,3	5,2	5,8	6,4	8,0
Kapital xarajatlar	3,4	3,0	2,5	4,4	3,0

Izoh: 2023-yilda mehribonlik uylari faoliyati tugatildi.

Manba: Budjetnoma 2025–2027 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bunda xarajatlarning asosiy qismi, ya’ni 88 foizi ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlariga yo‘naltiriladi. Xalq ta’limi tizimi muassasalarida moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishlari bular — budjetdan moliyalashtirish, ota-onalar tomonidan undiriladigan badal pullari va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridir. Xalq ta’limi tizimi muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari shakllantirilishi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi to‘g‘risida tizimli axborotlarni shakllantirish hamda ular ustidan nazoratni joriy etish uchun normativ-huquqiy hujjatlar asosida ularning hisobi tashkil etiladi. Budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha buxgalteriya hisobi bir vaqtning o‘zida tegishli g‘aznachilik bo‘linmasi va budjet tashkilotlari tomonidan yuritiladi.

Muallif tomonidan shakllantirilgan.

1-rasm. Budjet tashkilotida budjetdan tashqari mablag‘larning harakati.

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, budjet tashkilotida budjetdan tashqari mablag‘larning aylanishi shartnomalarga asosan tovar yoki xizmatlarning sotilishi bilan bog‘liq bo‘lgan debitorlik majburiyatlarining vujudga kelishi, shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun mablag‘larning hisob raqamlarga kelib tushishi, tovar yoki xizmatlarni sotish bilan bog‘liq xarajatlar hisobi, yetkazib beruvchi hisob raqamiga buyurtmachi tomonidan kelib tushgan budjetdan tashqari mablag‘lar asosida kreditorlik majburiyatlarining vujudga kelishi, mol yetkazib beruvchi tomonidan tovar yoki xizmatlarning buyurtmachiga yetkazilishi orqali majburiyatning bajarilishi va bajarilgan majburiyatlar bo‘yicha moliyaviy natijalar aniqlanib, moliyaviy hisobotlar tuzilishini ifodalaydi.

Xalq ta’limi tizimi muassasalarida xarajatlarni samarali boshqarish va taqsimlash yuqori turuvchi davlat tashkilotlari uchun ochiqlik, hisobdorlik va davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlashda juda muhim hisoblanadi. Bunday natijaga erishish uchun moliyaviy jarayonlar, nazorat va xarajatlarni mustaqil hamda xolisona baholashda ichki audit hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq rivojlanib borayotgan boshqaruv talablariga moslashish uchun budjet xarajatlarining uslubiyatini doimiy ravishda takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda xalq ta’limi tizimida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari respublika va hududiy darajada tashkil etilgan. O‘z navbatida, hududiy darajada tashkil etilgan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati tashkiliy tuzilma hamda shtat jadvaliga asosan hududiy bosh boshqarma va boshqarma tarkibiga kiradi (2-rasm).



Manba.Muallif tomonidan shakllantirilgan.

2-rasm. Xalq ta’limi tizimida tashkil etilgan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tashkiliy tuzilmasi.

Hududiy darajada tashkil etilgan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati xodimlari tashkiliy tuzilma hamda shtat jadvali bo‘yicha hududiy bosh boshqarma va boshqarma boshliqlariga bo‘ysunishi va hisobdor ekanligini anglatadi. Bunday holatda ichki audit xizmatining mustaqillik, obyektivlik, hisobdorlik va xolislik prinsiplari ta’minlanishi shubha ostida qoladi [8]. Sababi, ichki audit xizmatlari o‘z vazifalarini bajarishda faqat vazirlik va idoralar birinchi rahbariga bo‘ysunishi, hamda uning faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa omillardan holi bo‘lishi zarur.

Xalq ta’limi tizimi muassasalarida ichki audit faoliyati uslubiy ta’minotida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim (3-rasm).



Muallif tomonidan shakllantirilgan.

2-rasm. Xalq ta’limi tizimi muassasalarida ichki audit faoliyati uslubiy ta’minoti.

Xalq ta’limi tizimi muassasalarida ichki audit metodologiyasiga e’tibor qaratgan holda, tashkilotlar moliyaviy qonunbuzarliklar, xatolar va samarasizliklarning oldini olish, aniqlash va yumshatish bo‘yicha o‘z imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Ichki nazorat tizimining yetarliligi xalq ta’limi tizimi muassasalarida tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish, moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligi, ishonchli ma’lumotlar tahlili, umumiy javobgarlik va baholash usullaridan foydalanish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalq ta’limi tizimi muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati tizimi davlat moliyaviy nazoratining yangicha yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni tashkil etish bo‘yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Shu bois, ushbu tizimni joriy etishda xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni beramiz:

Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligida ichki audit va moliyaviy nazorat tizimini joriy etishda quyi tashkilot vakillaridan iborat guruh tuzish zarur. Ushbu guruh talablari asosida da’vogarlarning malaka talablari va o‘quv rejalarini yaratish lozim.

Xalq ta’limi tizimi muassasalarida ichki auditni takomillashtirish yo‘nalishlaridan biri sifatida “Davlat ichki auditi va moliyaviy nazorat” dasturlarini joriy etish orqali moliyaviy nazorat natijadorligini oshirishga erishish mumkin.

Xalq ta’limi tizimi muassasalarida ichki auditni o‘tkazish jarayonida xalqaro audit standartlarini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ichki audit faoliyatini audit standartlari asosida tashkil etish audit o‘rganishlarini rejalashtirishga, nazorat va tekshirish turlarini aniqlashga, nazorat uchun zarur ma’lumotlarni to‘plash va tizimlashtirishga yagona yondashuvni ta’minlaydi. Shu bilan birgalikda, ichki audit faoliyati samaradorligini baholash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Нгуен Т.В.Л. Сущность и эволюция развития внутреннего аудита//Интернет журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том8, №1 (2016) http://naukovedenie.ru/PDF/31EVN116.pdf .
2. Сонин А.»Внутренний аудит как важнейший элемент системы управления компанией»: http://naukovedenie.ru/PDF/31EVN116,14.10.2022.
3. Ибрагимов А.К. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби, аудити ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таннархини аниқлашни такомиллаштириш. Иқт.фан.док. дис.

4. Ахмаджонов К.Б. Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида ички аудит методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент: Ўз.Р.БМА. 2016.
5. Тўйинов Б. И. Олий таълим ташкилотларида ички аудитни қўллашнинг услубий жиҳатлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь,
6. Касимова Г.А.,Арипова К.Б. Ўзбекистон бюджет ташкилотларида ички аудит хизмати фаолиятининг ташкил этилиши O‘ZBEKISTONDA Республикаси FANLARARO INNOVATSIYALARVA ILMIYTADQIQOTLAR JURNALI. 14-SON.2022.
7. http://www.iasab.org/ -Буюк Британиянинг Ички аудит стандартлари бўйича маслаҳат кенгаши расмий веб сайти.

GENDER TENGLIGI VA BARQAROR ISH BILAN BANDLIK KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MAHALLIY TAJRIBA VA XALQARO STANDARTLAR UYG‘UNLIGI

Sh.Q. Xoliyorova
TDIU stajyor-tadqiqotchisi
Email: shoxistaxoliyorova@gmail.com
Orcid: 0009-0003-3444-0960

Annotatsiya: Ushbu tezisda gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligida mezon hamda ko‘rsatkichlarni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Milliy mehnat bozorida xotin-qizlarning ishtiroki, rasmiy mehnatga jalb etilishi, adolatli ish haqi va ijtimoiy himoya mexanizmlari tahlil qilinib, ularning xalqaro standartlar bilan uyg‘unligi baholangan. Shuningdek, BMT, XMT kabi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari mahalliy amaliyot bilan qiyoslab o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari mehnat bozorida gender tengligini ta’minlash hamda barqaror ish bilan bandlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, barqaror ish bilan bandlik, mehnat bozori, ijtimoiy himoya, rasmiy ish o‘rinlari, xalqaro standartlar, milliy tajriba, iqtisodiy imkoniyatlar.

Abstract: This thesis explores the improvement of criteria and indicators for ensuring gender equality and sustainable employment of women. It analyzes women’s participation in the national labor market, involvement in formal employment, fair wages, and social protection mechanisms, assessing their alignment with international standards. Moreover, recommendations of international organizations such as the UN and ILO are compared with local practices. The research findings are aimed at developing practical proposals and policy recommendations to promote gender equality and improve sustainable employment indicators in the labor market.

Key words: gender equality, sustainable employment, labor market, social protection, formal jobs, international standards, national experience, economic opportunities.

Аннотация: В данной тезисе рассматриваются вопросы совершенствования критериев и показателей обеспечения гендерного равенства и устойчивой занятости женщин. Проведен анализ участия женщин в национальном рынке труда, их вовлеченности в официальную занятость, справедливой оплаты труда и механизмов социальной защиты, а также оценена их гармонизация с международными стандартами. Кроме того, рекомендации таких международных организаций, как ООН и МОТ, сопоставлены с местной практикой. Результаты исследования направлены на разработку практических предложений и рекомендаций по обеспечению гендерного равенства и совершенствованию показателей устойчивой занятости на рынке труда.

Ключевые слова: гендерное равенство, устойчивая занятость, рынок труда, социальная защита, официальные рабочие места, международные стандарты, национальный опыт, экономические возможности.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida gender tengligi va ayollarning barqaror ish bilan bandligi masalasi barqaror rivojlanish kun tartibining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, BMTning 2030-yilga mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDGs) «gender tengligi» va «inson resurslaridan samarali foydalanish» muhim vazifalar sifatida belgilab qo‘yilgan. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida ayollarning mehnat bozorida ishtirok darajasi 47 % atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich erkaklarnikidan qariyb 27 foiz punktga pastdir. [1]

O‘zbekistonda ham xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki milliy iqtisodiyot rivojida muhim omil sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari va islohotlar natijasida ayollarning iqtisodiy faolligi

oshmoqda. [2] Biroq statistik ma’lumotlar ularning mehnat bozoridagi ishtiroki hali ham cheklanganini ko‘rsatadi: 2023 yilda ayollar ishchi kuchiga jalb etilishi 36,06 % ni tashkil etdi, bu esa jahon o‘rtacha ko‘rsatkichi — 41,56 %dan pastdir. Shu bilan birga, yosh ayollar orasida NEET (ishlamaydigan va o‘qimaydiganlar) ko‘rsatkichi 42 % ga teng bo‘lib, erkaklarnikidan qariyb besh barobar yuqori hisoblanadi.

Mehnat bozoridagi gender disbalansi milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon bankining 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, agar O‘zbekistonda ayollar mehnatga erkaklar darajasida jalb etilganida, milliy daromad 29 % ga oshishi mumkin edi. Shu bois, ayollarning barqaror ish bilan bandligini ta’minlash mezonlari va ko‘rsatkichlarini takomillashtirish nafaqat ijtimoiy, balki makroiqtisodiy jihatdan ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda mahalliy tajribalar va xalqaro standartlar uyg‘unligi asosida gender tengligi va barqaror ish bilan bandlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. [3]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Gender tengligi va barqaror ish bilan bandlik mavzusi jahon ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, turli mintaqalardagi olimlar bu sohani turlicha yondashuvlar bilan tahlil qilgan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda gender tengligi va barqaror mehnat masalasi ko‘pincha Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Masalan, Sen (1999) ayollarning iqtisodiy faolligi nafaqat milliy iqtisodiyot rivoji, balki ijtimoiy adolatni ta’minlashning asosiy omili ekanini ta’kidlaydi. Kabeer (2012) esa ayollarning rasmiy ish o‘rinlariga jalb etilishi ularning iqtisodiy mustaqilligi va uy xo‘jaliklarida qaror qabul qilish imkoniyatlarini oshirishini ko‘rsatadi.[4]

ILO (2023) hisobotlarida ta’kidlanishicha, dunyoda gender maosh tengsizligi o‘rtacha 20 % atrofida bo‘lib, bu holat barqaror ish bilan bandlikni ta’minlashda asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari asosan post-sovet mehnat bozori sharoitida gender tengligi masalasini tahlil qilishadi. Masalan, Karaxanov (2018) Rossiyada ayollarning iqtisodiy faolligi yuqori bo‘lsa-da, ular asosan ijtimoiy sohalarga jalb etilganini va yuqori haq to‘lanadigan sohalarda ishtirok darajasi pastligini ta’kidlaydi. Nazarova (2020) Qozog‘istonda ayollar ish bilan bandligini oshirish uchun davlat tomonidan qo‘llanilayotgan kvota va grant dasturlarining ijobiy natijalarini qayd etadi. Shu bilan birga, MDH olimlari ayollar mehnat bozoridagi tengsizligini kamaytirish uchun qonunchilik asoslarini kuchaytirish va gender siyosatini milliy iqtisodiy strategiya bilan uyg‘unlashtirish zarurligini uqtiradilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini takomillashtirish hamda ularning xalqaro standartlar bilan uyg‘unligini tahlil qilishga yo‘naltirilgan . Bunda asosiy nazariy tayanch institutsional iqtisodiyot, gender iqtisodiyoti va mehnat bozori nazariyalaridan olindi. Institutsional yondashuv mehnat bozoridagi qonunchilik, davlat siyosatlari va islohotlarning ta’sirini o‘rganish imkonini bersa, gender iqtisodiyoti nazariyasi ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali milliy iqtisodiy o‘sishga qo‘shadigan hissasini chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi.

Tadqiqot jarayonida turli usullar qo‘llanildi. Avvalo, ta’rifiy tahlil orqali O‘zbekistonda xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki, ishsizlik darajasi, rasmiy va norasmiy sektordagi faollik ko‘rsatkichlari 2018–2024 yillar davomida o‘rganildi. Shu bilan birga, qiyosiy tahlil orqali milliy ko‘rsatkichlar xalqaro tashkilotlar — Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va BMT hamda MDH mamlakatlari statistikasi bilan taqqoslandi. Iqtisodiy modellashtirish usulidan foydalanilib, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi oshgan taqdirda milliy daromad, ishsizlik darajasi va kambag‘allik ko‘rsatkichlariga bo‘ladigan ehtimoliy ta’sirlar shartli ssenariylar asosida hisoblab chiqildi. Shuningdek, ekspert baholash usuli ham qo‘llanildi: mehnat bozori mutaxassislari, iqtisodchilar va gender masalalari bo‘yicha ekspertlar bilan suhbat va anketa tadqiqotlari o‘tkazilib, natijalar ilmiy tahlilda qo‘llanildi.

Tadqiqotda ishlatilgan ma’lumotlar asosan ishonchli manbalardan, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon bankining 2024-yilgi gender baholashi, BMTning barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari bazasi va MDH mamlakatlari ochiq statistik ma’lumotlaridan to‘plandi. [5]

Ushbu tadqiqotning innovatsion jihati shundaki, ayollarning barqaror ish bilan bandligini baholash uchun integral indikator taklif etildi. Unda mehnat bozorida ishtirok darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichi (yoshlar va NEET guruhi kesimida), gender maosh tengsizligi, rasmiy va norasmiy sektordagi faollik hamda ijtimoiy himoyadan qamrov darajasi kabi mezonlar inobatga olindi. Integral indikator orqali milliy va xalqaro ko‘rsatkichlar chuqur tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy global iqtisodiyotda gender tengligi va xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini ta’minlash masalasi barqaror rivojlanish maqsadlari bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonda ham bu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, so‘nggi yillarda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo mavjud statistik ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozorida gender muvozanati hanuz to‘liq ta’minlanmagan. [6]

Jahon bankining 2024-yildagi “Country Gender Assessment” hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozoridagi ishtirok darajasi 36,06 % ni tashkil etadi, dunyodagi o‘rtacha ko‘rsatkich esa 41,56 % atrofida. Bu holat mamlakat iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanish imkonini cheklaydi. Ayniqsa, yosh xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda: 2021-yilda NEET ko‘rsatkichi 42 % ga yetgan bo‘lib, bu iqtisodiy faollikka kirishdagi to‘siqlarni ochiq-oydin ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yosh erkaklarda bu ko‘rsatkich atigi 8,8 % bo‘lgan.

Ish haqidagi gender tafovut masalasi ham hal etilishi zarur bo‘lgan yo‘nalishlardan biridir. Hozirgi kunda ayollar o‘rtacha hisobda erkaklarga nisbatan 34 % kam maosh oladi, bu esa jahon miqyosidagi 20 %lik tafovutdan yuqori ko‘rsatkichdir. Bunday holat ishchi kuchidan samarali foydalanish imkoniyatini pasaytiradi va xotin-qizlarning mehnat bozorida uzoq muddatli barqaror ishtirokiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ekonometrik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, agar gender farqlari qisqarsa va ayollar mehnat bozorida erkaklar bilan teng darajada ishtirok eta olsa, O‘zbekiston iqtisodiyoti 7,7 % gacha o‘sishi mumkin. Yanada kengroq prognozlarga ko‘ra, ayollar to‘liq iqtisodiy jarayonga jalb etilsa, milliy daromad 27 % gacha ortishi, shuningdek, 700 mingdan ziyod aholi kambag‘allikdan chiqishi mumkin. Bu raqamlar xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligi nafaqat ijtimoiy adolat masalasi, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy samaradorlik omili ekanligini isbotlaydi.

Sektorlar kesimida ham katta tafovutlar kuzatilmoqda. Masalan, tibbiyot va dorixona sohasida ayollar ulushi 76 % ni, ta’limda 69 % ni tashkil etadi. Ammo og‘ir sanoat yoki avtomobilsozlikda bu ko‘rsatkich 20 % dan ham past. Bu holat mehnat bozorida gender segregatsiyasi hanuz kuchli ekanligini ko‘rsatib, kasb-hunar ta’limi va malaka oshirish dasturlarini maqsadli ravishda yo‘naltirish zarurligini anglatadi.

Shu bilan birga, mamlakatda olib borilayotgan qonunchilik islohotlari ijobiy natijalar bermoqda. Yangi qabul qilingan Mehnat kodeksi teng ish uchun teng maosh tamoyilini mustahkamlab, ayollarning xavfli sanoat sohalarida ishlashini cheklaydigan to‘siqlarni bekor qildi. 2023-yilda esa oilaviy zo‘ravonlikka qarshi qonunchilik normalari kuchaytirilib, xotin-qizlarning ijtimoiy himoya tizimi yanada mustahkamlandi. Jahon bankining “Women, Business and the Law” indeksining 2024 yilgi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston so‘nggi ikki yilda eng ko‘p ilgarilashga erishgan besh davlatdan biri sifatida qayd etildi va bu mamlakatning global miqyosdagi obro‘sini oshirdi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash masalasi milliy iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi zarur. Bu yo‘nalishda xalqaro standartlar va milliy tajribaning uyg‘unlashuvi katta ahamiyatga ega. Ish haqidagi tenglikni ta’minlash, kasbiy diversifikatsiyani rag‘batlantirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish hamda xotin-qizlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroqini kengaytirish mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval. O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki (2021–2023 yy.)

Yil	Ayollar mehnat kuchi ulushi (%)	Dunyo o‘rtachasi (%)	Farq (p.p.)
2021	35,4	41,7	-6,3
2022	35,8	41,6	-5,8
2023	36,1	41,6	-5,5

Birinchi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda ayollarning mehnat kuchi ulushi 2021–2023 yillarda deyarli o‘zgarmagan va 36 % atrofida qolmoqda. Bu ko‘rsatkich dunyo o‘rtachasidan taxminan 5–6 foiz punktga past. Ya’ni, ayollar iqtisodiy faoliyatga to‘liq jalb etilmayapti va bu holat milliy iqtisodiyotning o‘sish salohiyatini cheklab qo‘ymoqda.

2-jadval. O‘zbekistonda yoshlar ishsizligi va NEET ko‘rsatkichlari (2021 y.)

Ko‘rsatkich	Ayollar (%)	Erkaklar (%)
NEET (ta’limda emas, ishsiz)	42,0	8,8
Yoshlar ishsizligi	15,5	10,0

Ikkinchi jadval esa bu ko‘rsatkichlarning asosiy sabablarini ochib beradi. Yosh xotin-qizlar o‘rtasida NEET darajasi 42 % ga teng bo‘lib, bu mehnat bozoridagi asosiy muammolardan biri sanaladi. Erkaklarda bu ko‘rsatkich atigi 8,8 % ekani gender disbalansning qanchalik keskin ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, yosh ayollar ishsizlik darajasi (15,5 %) ham yosh erkaklarga nisbatan ancha yuqori (10 %). Bu demak, ayollar mehnat bozoriga kirish jarayonida qo‘shimcha to‘siqlarga duch kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xotin-qizlarning barqaror ish bilan bandligini ta’minlashda eng avvalo ular uchun mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kasb-hunar markazlarini ko‘paytirish, ayniqsa STEM sohalarida qizlar va ayollar uchun maxsus ta’lim dasturlarini joriy etish zarur. Bu orqali yoshlar orasida yuqori darajada namoyon bo‘layotgan NEET ko‘rsatkichini qisqartirish va ta’limdan mehnat bozoriga o‘tish jarayonida mustahkam ko‘prik yaratish mumkin.

Bu tajribalardan ko‘rinadiki, signaturali analizator xatoliklar sonidan qat’i nazar ularni ishonchli aniqlashga qodir. Ayniqsa, 1–2 bitli xatoliklar aniq joyi bilan aniqlanadi. 3 yoki undan ortiq xatolik bo‘lsa, signatura katta farq beradi va tizimda nosozlik mavjudligi aniq bo‘ladi, lekin aniq joylashuvni topish uchun qo‘shimcha algoritmlar kerak bo‘ladi.

Signaturali analizatorning samaradorligi.

Modellashtirish asosida signaturali analizatorning quyidagi ko‘rsatkichlari aniqlandi:

xatolik aniqlash darajasi: 95–100% (1–2 bitli xatoliklarda);

xatolik joylashuvini aniqlash aniqligi: 90%;

Xatolik joylashuvini aniqlash aniqligi: 90%;

Resurs talabchanligi: minimal (mikrokontroller asosida ishlaydi).

Bu natijalar signatura asosida ishlovchi tizimlarning real vaqtda ishlashiga imkon yaratadi.

Avtomatlashtirilgan signaturalar lug‘ati.

Tajriba davomida har bir mos yozuvlar ketma-ketligiga tegishli signaturalar avtomatik tarzda hisoblab chiqildi va ularning lug‘ati (ma’lumotlar bazasi) tuzildi. Bu lug‘at xatolik yuz berganda kerakli javobni aniqlash uchun bazaviy manba sifatida ishlaydi. Lug‘at tuzish va undan foydalanish natijasida:

diagnostika jarayoni tezlashadi;

texnik xizmat ko‘rsatish ancha osonlashadi;

inson omiliga bog‘liqlik kamayadi

Ushbu ilmiy ishda ishlab chiqilgan signaturali analizator yordamida bankomat qurilmalarida uzatilayotgan ma’lumotlar ketma-ketligini polinom ko‘rinishida ifodalash va ularni qaytarilmaydigan polinomga bo‘lish orqali signatura aniqlash usuli samaradorligi tahlil qilindi. Imitatsion model asosida olib borilgan sinovlar natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlanib, tahlil qilindi:

Xatoliklarni aniqlash aniqligi va tezligi.

Signaturali analizator kichik xatoliklarni, jumladan 1–2 bitli xatolarni yuqori aniqlik bilan aniqlaydi. Bu bankomat tizimining ishonchliligini oshiradi, chunki kichik nosozliklar dastlabki bosqichda aniqlanib, katta muammolarga olib kelmasligi ta’minlanadi. Shuningdek, signatura hisoblash algoritmi hisoblash tezligi jihatidan samarali bo‘lib, real vaqt rejimida ishlash imkonini beradi.

Xatoliklar joylashuvi va turi haqida ma’lumot.

Polinom bo‘linish usuli yordamida nafaqat xatoliklarning mavjudligi, balki ularning joylashuvi ham aniq belgilanadi. Bu texnik xodimlarga nosozlikni tez va aniq aniqlash, shuningdek, uni bartaraf etish choralari ko‘rishda katta yordam beradi.

Avtomatlashtirish imkoniyatlari.

Signaturalar lug‘atini avtomatik shakllantirish va ularni taqqoslash algoritmlari bankomatlarni monitoring qilish jarayonini soddalashtiradi. Bu esa texnik xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

Imitatsion modelning ahamiyati.

Modellash natijalari real tizim ish faoliyatiga yaqin natijalarni ko‘rsatdi. Bu esa tizimni turli ish holatlarida sinovdan o‘tkazishga imkon beradi va real sharoitdagi muammolarni oldindan aniqlashga yordam beradi.

Metodologiyaning zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi.

Ushbu metodologiyani yanada takomillashtirish uchun sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlarini qo‘llash istiqbollari mavjud. Bu bankomat tizimlarining diagnostikasini yanada samarali va aniq qiladi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko‘rsatadiki, signaturali analizatorlar yordamida polinom bo‘linish usulini qo‘llash bankomat qurilmalarining ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi va moliyaviy xizmatlarning xavfsizligini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu ilmiy ish davomida bankomat qurilmalarining ishonchliligini baholash maqsadida polinom bo‘linish usuli yordamida signaturali analizatorlar ishlatilishi ko‘rib chiqildi. Ikkilik ketma-ketliklarni polinom ko‘rinishida ifodalash va ularni qaytarilmaydigan polinomga bo‘lib, signaturalarni aniqlash orqali tizimdagi xatoliklarni aniqlashning samarali usuli ishlab chiqildi.

Imitatsion model yordamida modellashtirish natijalari signaturali analizatorlarning 1–2 bitli xatoliklarni yuqori aniqlik bilan aniqlash imkonini berishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, xatoliklar joylashuvi va xatoliklar soni haqida aniq ma’lumot olish imkoniyati mavjudligi bankomat tizimlarining diagnostikasini soddalashtiradi va texnik xizmat ko‘rsatishni samarali qiladi. Ushbu yondashuv tizimda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni erta aniqlash, moliyaviy va texnik zararlarni kamaytirishga yordam beradi.

Signaturalar lug‘atining avtomatlashtirilgan tarzda yaratilishi va ularni taqqoslash algoritmlari bankomat tizimlarida real vaqtda monitoringni tashkil etishga imkon beradi, bu esa bank xizmatlarining uzluksizligini va mijozlar ishonchini oshiradi.

Kelajakda ushbu usulni yanada rivojlantirish, xususan, ko‘p bitli va murakkab xatoliklarni aniqlash va ularni tahlil qilish uchun yangi algoritmlar ishlab chiqish, shuningdek, signaturali analizatorlarning boshqa moliyaviy qurilmalarda ham qo‘llanilishini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, signaturali analizatorlar yordamida hosil qilingan imitatsion model real sharoitlarga yaqin natijalarni beradi, bu esa tizimning turli sharoitlarda qanday ishlashini oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi. Bu esa bankomatlarni ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarga o‘z mahsulotlarini yanada takomillashtirish va texnik xizmat ko‘rsatishni rejalashtirishda katta yordam beradi.

Shuningdek, signatura hisoblash usulining matematik asoslari, ya’ni polinom bo‘linish va modul 2 arifmetikasidan foydalangan holda, bu yondashuv yuqori tezlik va samaradorlikka ega bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini beradi. Bu esa moliyaviy xizmatlar sohasida tezkor va ishonchli ma’lumot almashinuvi uchun muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda ushbu metodologiyani yanada rivojlantirish, turli xil xatoliklarni aniqlashni yanada takomillashtirish, hamda sun’iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali tahlil jarayonini avtomatlashtirish istiqbollari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abrayeva M.O., “Bankomat qurilmalarini monitoring tizimini mikrokontroller asosida xavfsizligini ta’minlash”, “Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari” mavzusidagi III respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024-yil 26-mart, 115-118-betlar.
2. Amirsaidov U.B., Abbasxanova X.Yu. Raqamli texnika va mikroprotsessorlar. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: ”Aloqachi”.2013, 272 b/.
3. Балтаев Ж.Б., Хошимов Ж.Ф. Рақамли қурилмалар яроқсизликларининг моделлари, ТАТУ хабарлари, 1(37)/2016й. 41-45 бет.
4. Балтаев Ж.Б., Элмирзаева Д.Д. Микропроцессор қурулмаларини ноаниқ тўплам элементлари ёрдамида диагностикалаш. Темир йўл транспортида ресурс тежамкор технологиялар, Хорижий олимлар иштирокидаги республика илмий-техника анжумани мақолалари тўплами. Тошкент 2018й 18-19 декабрь. –Б. 192-194.
5. Abrayeva M.O, “Moliyada FinTech innovatsiyalari”, RESULTS OF NATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH SCIENTIFIC JOURNAL, 2024-yil, 241-254 betlar.
6. Boltayev J.B., Abrayeva M.O, “FINTECH INNOVATIONS IN FINANCE”, МОЛИЯ ИЛМИЙЖУРНАЛ 2/2024, 5-13 betlar.
7. Abrayeva M.O., “Bankomat qurilmalarini monitoring tizimini mikrokontroller asosida xavfsizligini ta’minlash”, “Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari” mavzusidagi III respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024-yil 26-mart, 115-118-betlar.

ROLE AND ADOPTION OF ERP SYSTEMS IN THE CONSTRUCTION INDUSTRY OF UZBEKISTAN

Embergenova Ainur Aidosbaevna
Independent researcher of TSUE
Orcid: 0009-0000-0490-2800
Email: nuriembergenova@gmail.com

Abstract: The article analyzes the features of implementing ERP systems in construction enterprises in Uzbekistan. The relevance of the digitization of the industry and the need to integrate key processes into a single information platform are substantiated. The architecture of the ERP system, including finance, supply, personnel, logistics and project management modules, is presented, and their functional analysis is carried out. Particular attention is paid to problems and obstacles in the implementation process, including the high cost of licensed solutions, the lack of qualified specialists, and the need to adapt foreign software products to national standards. It is noted that the use of ERP technologies ensures transparency of management, increases the efficiency of resource use, and reduces risks in construction projects. It is also noted that statistical data on the level of digitization in construction enterprises in Uzbekistan are presented, and conclusions are drawn on future development directions.

Key words: ERP system, construction industry, digitization, project management, logistics, finance, supply, personnel accounting, Uzbekistan, information integration.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistondagi qurilish korxonalarida ERP tizimlarini joriy etish xususiyatlari tahlil qilinadi. Sanoatni raqamlashtirishning dolzarbligi va asosiy jarayonlarni yagona axborot platformasiga integratsiya qilish zarurati asoslab berilgan. ERP tizimi arxitekturasi, jumladan, moliya, ta’minot, kadrlar, logistika va loyiha boshqaruvi modullari taqdim etilib, ularning funksional tahlili amalga oshiriladi. Amalga oshirish jarayonidagi muammolar va to‘siqlarga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, ular orasida litsenziyalangan yechimlarning yuqori narxi, malakali mutaxassislarning yetishmasligi hamda xorijiy dasturiy mahsulotlarni milliy standartlarga moslashtirish zarurati mavjudligi qayd etilgan. ERP texnologiyalaridan foydalanish boshqaruvning shaffofligini ta’minlashi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi hamda qurilish loyihalarida xavflarni kamaytirishi ta’kidlangan. Shuningdek, O‘zbekiston qurilish korxonalaridagi raqamlashtirish darajasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltirilib, istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ERP tizimi, qurilish sohasi, raqamlashtirish, loyiha boshqaruvi, logistika, moliya, ta’minot, kadrlar hisobi, O‘zbekiston, axborot integratsiyasi.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности внедрения ERP-систем в строительных компаниях Узбекистана. Обоснована актуальность цифровизации отрасли и необходимость интеграции ключевых процессов в единую информационную платформу. Представлена архитектура ERP-системы, включающая модули финансов, снабжения, кадров, логистики и управления проектами, а также проведён их функциональный анализ. Особое внимание уделяется проблемам и барьерам внедрения, среди которых высокая стоимость лицензированных решений, нехватка квалифицированных специалистов и необходимость адаптации зарубежных программных продуктов к национальным стандартам. Отмечается, что использование ERP-технологий обеспечивает прозрачность управления, повышает эффективность использования ресурсов и минимизирует риски в строительных проектах. Также приводятся статистические данные об уровне цифровизации строительных предприятий Узбекистана и сделаны выводы о перспективных направлениях развития.

Ключевые слова: ERP-система, строительная отрасль, цифровизация, управление проектами, логистика, финансы, снабжение, кадровый учет, Узбекистан, информационная интеграция.

INTRODUCTION

In the modern conditions of digitalization of the economy, the implementation of integrated enterprise resource planning information systems (ERP systems) in various sectors of the economy is of particular relevance. The construction industry of Uzbekistan, being one of the key areas ensuring economic growth and

urbanization, also needs to improve management processes. The use of ERP systems in construction allows increasing the transparency, efficiency and manageability of business processes. World experience shows that ERP technologies help to reduce costs, improve the quality of planning and enhance the competitiveness of construction companies [1]. In the context of Uzbekistan, this area is of particular importance in connection with large-scale construction projects implemented within the framework of the state policy of infrastructure modernization and housing sector development.

The purpose of this article is to study the features of the use of ERP systems in the construction industry of Uzbekistan, assess the current state of implementation and develop recommendations for further development.

LITERATURE REVIEW

In recent decades, the topic of implementing ERP systems in the construction industry has been actively studied by both foreign and Russian researchers. Foreign authors focus on the systematic approach and the strategic importance of digitalization. Thus, L. Hadidi, S. Assaf and A. Alkhiami (2017) developed a methodological model that allows you to determine the most priority ERP modules for construction. Their research showed that such functional blocks as inventory management and logistics, procurement, finance and accounting are of key importance for construction companies [2].

Muhammad Waheed and Mutahir Abbas (2023) found that, despite a high level of awareness of ERP capabilities, construction companies often face constraints related to costs and lack of resources, which significantly slows down the implementation of these solutions [3].

In turn, Syed M. Ahmed, Irtishad Ahmad, Salman Azhar and Suneetha Mallikarjuna (2012) analyzed the level of ERP application in contracting organizations in their works, identifying both the advantages and barriers to implementation, including problems of adaptation to the specifics of construction processes [4]. R. A. Perera (2015) also emphasized that ERP systems are capable of increasing management efficiency, but their distribution in the construction sector remains limited due to the high complexity of projects and the conservatism of the industry [5]. These studies are complemented by the generalized works of Negahban, Shi, Halpin and Skibniewski, which focus on critical factors for the success of implementation, the rationale for investment in ERP and the need to use KPIs to assess performance [6].

Russian researchers generally agree with their foreign colleagues, but emphasize the practical difficulties and features of the national construction industry. Thus, Marina Igorevna Vlasova (2018) examined in detail the issues of assessing the effectiveness of ERP systems, proposing methodological approaches to defining goals and key performance indicators of implementation [7]. V. D. Churakova in her works noted both significant advantages of ERP systems - accounting transparency, improved plan-fact analysis, cost reduction, and serious limitations, including financial and personnel ones [8].

Practical aspects of implementation at Russian facilities are considered in the study of Antipov D. A., Gonyakina E. N., Boychev V. and Komarchev S. V. (2014), where, using the example of construction projects in St. Petersburg, it is shown that the implementation of ERP helps to reduce the risks of delays and budget overruns [9].

In earlier works, V. Larionova (2004) pays attention to the use of ERP in industrial and construction holdings, where the complexity of activities requires deep integration of information systems [10]. Similar conclusions are presented in the works of Selyutina L. G., Arbuzova E. S. and Yudanova A. S. (2017), where it is emphasized that the use of ERP and other information systems plays a key role in coordinating complex projects with multiple participants and contractors [11].

Thus, the analysis of the literature allows us to identify several key areas of research. Foreign authors are more focused on the development of methodological approaches, assessing critical success factors and forming tools for assessing the effectiveness of ERP systems. Russian scientists, on the contrary, focus on the practical experience of implementation and the specifics of the national industry, where the implementation of ERP often faces financial constraints, lack of competencies and conservatism of market participants. The combination of these studies allows us to form a comprehensive understanding of the role of ERP systems in construction, their advantages and barriers to implementation, as well as to identify promising areas for the further development of digital solutions in the industry.

RESEARCH METHODS

As a methodological basis, the methods of comparative analysis, systems approach, as well as elements of expert assessment were used. Both foreign and domestic publications on the topic of ERP system implementation were analysed. Particular attention was paid to the experience of construction companies in Uzbekistan, as well as comparison with international practices (for example, the use of SAP, Oracle, Microsoft

Dynamics, 1C). As part of the study, ERP systems were classified, their key characteristics and adaptation capabilities to the specifics of the construction industry were identified.

RESULTS

The results of the analysis showed that the implementation of ERP systems in the construction industry of Uzbekistan is at the stage of active development. Large construction holdings are beginning to implement complex solutions (SAP, 1C), while small and medium-sized companies are limited to using accounting and design modules. The main results of the study are presented in Table 1.

Table 1. Comparative characteristics of the most common ERP systems

ERP-system	Advantages	Disadvantages
SAP	Wide functionality, integration, international experience	High cost, difficult to implement
1C	Adaptation to the legislation of Uzbekistan, accessibility	Limited scalability, weak analytics
Oracle	Powerful analytical tools, global support	High costs, need for qualified personnel
Microsoft Dynamics	Convenient interface, integration with MS Office	Does not always take into account industry specifics

Source: systemized by author on the basis of comparative characteristics of the most common ERP systems worldwide.



Figure 1. Architecture of the ERP system in a construction company (schematically).

Source: compiled by author.

The presented architecture of the ERP system reflects the key components and integration levels that ensure comprehensive management of a construction organization. At the centre of the architecture is the ERP system core, which serves as a single information space where data from all divisions of the company are collected, processed, and stored.

The presented diagram shows the basic architecture of the ERP system used in the construction industry. The central element is the ERP core, which unites the key areas of the company's activities. From it, connections are made to five main modules: finance, supply, personnel, logistics, and project management.

1. Finance – the module is responsible for accounting, expense control, investment management, and reporting. For the construction industry, prompt tracking of cash flow is especially important, since projects are characterized by high capital intensity and a long implementation cycle.

2. Supply – this block ensures accounting and control of material purchases, interaction with suppliers, and contract tracking. In construction, this is a critical factor, since timely deliveries of cement, metal structures and other materials directly affect the timing of project implementation.

3. Personnel (HR) - the personnel accounting module automates personnel management processes: selection, distribution among objects, salary calculation and control of employee qualifications. This is especially important for construction companies, since the work is of a project nature, and flexible management of labor resources is required.

4. Logistics - is responsible for organizing the transportation of materials, machinery and equipment, as well as managing warehouse stocks. Integration of logistics into the ERP system allows you to minimize downtime and optimize the use of resources.

5. Project management - the module provides planning, control of deadlines, resource allocation and monitoring of task completion. In the construction industry, this element is key, since it allows you to link finances, supplies, personnel and logistics into a single project management system.

Thus, the presented diagram illustrates that the ERP system acts as a single information centre integrating all the key processes of a construction company. Its implementation allows increasing management transparency, reducing risks, speeding up decision-making and ensuring coordinated work of all departments [3].

Table 2. Statistics of digitalization and ERP in the construction industry of Uzbekistan

№	Indicator	Value	Source
1	Share of construction in GDP	6.9% (2024)	GlobalCIO
2	Growth in construction work volumes (H1 2023)	+11.4%	GlobalCIO
3	Industry growth forecast	5.8% (2024), 5% per year on average until 2028	BusinessWire, GlobeNewswire |
4	Number of contracting organizations	20,140 (2024) → 23,576 (2024)	The Asia Today
5	Volume of contract work	591 trillion UZS (2024), +72% to 2023	The Asia Today
6	Permitting time	25 days (2023) vs. 39 days earlier	The Asia Today
7	ERP software market	49.57 million USD (2025), growth of 7.91% CAGR (2025–2030)	Statista
8	Market of software for construction and design |	10.26 million USD (2025), growth of 5.81% CAGR	Statista
9	National digital systems	Transparent Construction, Construction Control, Geoportal, Vigilant Citizen, Building Materials Classifier	Government Programs of Uzbekistan
10	Implementation of BIM and digital twins	In the stage of active development	GED Journal

Source: systemized by author.

The results of the study show that the construction industry of Uzbekistan demonstrates sustainable development dynamics and actively integrates digital management tools. Thus, the share of construction in the country's GDP in 2022 was 6.7%, and in the first half of 2023, the volume of construction work increased by 11.4% compared to the same period of the previous year [12]. According to forecasts of international research agencies, in 2024, the sector is expected to grow by 5.8% in real terms, and in the period up to 2028, the average annual growth rate will be about 5%. At the same time, there is a significant expansion of the institutional base of the industry.

The number of contracting organizations increased from 20,140 in 2022 to 23,576 in 2024, while the volume of contract work reached 591 trillion soums, which is 72% higher than the previous year. The implementation of the national information system "Transparent Construction" has contributed to a significant reduction in administrative barriers: the time for obtaining construction permits has been reduced from 39 to 25 days.

Particular attention is paid to the digital transformation of construction project management [13]. According to Statista, the ERP software market in Uzbekistan is projected to be worth $49.57 million by 2025, with an annual growth rate of 7.91% during the period 2025-2030. Similarly, the market for specialized solutions for construction and design (including BIM and ERP platforms) is estimated at $10.26 million by 2025, with a growth rate of 5.81% CAGR [14].

Thus, the integration of ERP systems and BIM technologies is becoming a key factor in increasing the efficiency of construction projects, ensuring process transparency, reducing time costs and increasing productivity. The implementation of state platforms (Construction Control, Geoportal, Vigilant Citizen, Building

Materials Classifier) creates a single digital ecosystem that forms new standards for construction management and stimulates the growth of competitiveness of the industry.

DISCUSSION

The discussion of the conducted study revealed that for the construction industry of Uzbekistan, one of the key tasks remains finding an optimal balance between the high costs of implementing ERP systems and the strategic effects that they can provide in the long term. Despite the obvious advantages of digitalization, enterprises face a number of barriers that slow down the process of integrating modern solutions into the practice of managing construction projects.

Firstly, a serious problem is the limited human resources. The labor market is experiencing a shortage of specialists with competencies in both the field of construction process management and the implementation and maintenance of ERP systems. This leads to the need for additional personnel training, as well as the involvement of foreign experts, which, in turn, increases the overall costs of companies.

Secondly, a significant obstacle is associated with the high cost of licensed software products. Most common ERP solutions are complex software packages of international companies, the cost of which is excessively high for small and medium-sized businesses in the construction industry. Even with government support, enterprises often find it difficult to allocate sufficient financial resources for the acquisition, implementation and subsequent maintenance of such systems.

Thirdly, an important challenge remains the need to adapt foreign ERP solutions to national regulations, construction standards and the accounting system of Uzbekistan. Direct use of foreign software packages without deep localization leads to a discrepancy between the embedded algorithms and real business processes. This requires significant changes to the software, development of additional modules and integration with government digital platforms, which also increases the cost and timing of implementation.

For the effective use of ERP in the construction industry, it is necessary not only to take into account the economic feasibility of the project, but also to develop a comprehensive strategy that includes personnel training, phased implementation of modular solutions, as well as government support in the field of localization and licensing [15]. Only with a systematic approach is it possible to successfully digitally transform the industry and achieve sustainable growth in its competitiveness.

Table 3. Problems and possible solutions for implementing ERP in the construction industry of Uzbekistan

Main problems	Possible solutions
Lack of qualified specialists	Development of educational programs in universities and colleges, corporate training, engaging international experts to conduct training
High cost of licensed solutions	Implementation of modular ERP systems, use of open-source solutions, state subsidies for digitalization costs
Need to adapt to national standards	Creation of localized ERP modules, integration with state digital platforms («Transparent Construction», etc.), joint development with domestic IT companies
Limited financial resources of construction companies	Attracting state grants and preferential loans, using the SaaS model (subscription instead of purchase)
Staff resistance to change	Introduction of phased implementation, training employees to work with the system, incentives for using digital tools

Source: compiled by author.

At the same time, ERP systems have significant potential for optimizing project management, procurement, logistics and quality control processes. Foreign experience (for example, in Turkey, China and Germany) shows that ERP implementation contributes to productivity growth by 20-30% and cost reduction by up to 15% [16]. A similar effect is expected in Uzbekistan, provided there is government support and active participation of the private sector.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

Thus, the implementation of ERP systems in the construction industry of Uzbekistan is a promising area that helps improve management efficiency, reduce costs and improve the quality of projects. The following measures are necessary: development of national ERP solutions, training of specialists, as well as government support for the implementation of digital technologies. In the future, an in-depth study of the issues of adapting

ERP to the requirements of national standards and integration with modern technologies (Big Data, artificial intelligence) is expected.

List of used literature

1. Davenport T.H. (1993). Process Innovation: Reengineering Work through Information Technology. Boston: Harvard Business School Press,
2. Hadidi L., Assaf S., Alkhiami A. A systematic approach for ERP implementation in the construction industry // Journal of Civil Engineering and Management. – 2017. – Vol. 23(2). – P. 245–254.
3. Waheed M., Abbas M. ERP System for Construction Site // International Journal of Information System and Innovation. – 2023. – Vol. 2(3). – P. 15–26.
4. Ahmed S. M., Ahmad I., Azhar S., Mallikarjuna S. Implementation of Enterprise Resource Planning (ERP) Systems in the Construction Industry // Proceedings of Construction Research Congress. – ASCE, 2012. – P. 1273–1281.
5. Perera R. A. Impact of ERP system to the construction industry. – Colombo: University of Moratuwa, 2015. – 89 p.
6. Negahban S., Shi J. J., Halpin D. W., Skibniewski M. J. A review of critical success factors for ERP implementation in construction // Journal of Management in Engineering. – 2012. – Vol. 28(3). – P. 164–174.
7. Vlasova M. I. Analysis of the efficiency of ERP systems implementation in the construction industry organizations // Young scientist. - 2018. - No. 18 (235). - P. 51-54.
8. Churakova V. D. ERP systems for a construction company // Young researcher: challenges and prospects. - Tyumen, 2020. - P. 112-118.
9. Antipov D. A., Gonyakina E. N., Boychev V., Komarchev S. V. ERP systems at Russian construction sites // Scientific community of students of the XXI century. Technical sciences. - 2014. - No. 2 (19). - P. 143-149.
10. Larionova V. Software products for industrial and construction holdings // Consulting in Russia and abroad. – 2004. – No. 4. – P. 87–94.
11. Selyutina L. G., Arbuzova E. S., Yudanova A. S. The role and importance of information systems in construction // Sociosphere. – 2017. – No. 3. – P. 201–206.
12. Gulyamov S.S., Khodjaev A.A. (2020). Information systems and management technologies. - Tashkent: Fan.
13. Al-Mashari M. (2002). Enterprise resource planning (ERP) systems: a research agenda. Industrial Management & Data Systems. Vol. 102, No. 3, pp. 165-170.
14. Kholikova, R. (2024). Experience of foreign countries in application of ai instruments to ensure the economic security of industrial enterprises. DTAI – 2024, 1(DTAI), 440–444. Retrieved from https://dtai.tsue.uz/index.php/DTAI2024/article/view/rukhsora
15. Otaboev S.Sh. (2023). Digitalization of the construction industry in Uzbekistan: challenges and prospects. // Economy and innovative technologies. No. 2. P. 45-52.
16. R.S. Kholikova, BA Feruz-oglu (2023). Outcome of etrade, creating by accelerating digital economy- E Conference Zone.

QAYTA SUG‘URTANING ROLINI OSHIRISHDA AXBOROT TA’MINOTINI OPTIMAL SHAKLLANTIRISH

Shakirov Utkirbek Taxirovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi
Email: u.shakirov@kafil.uz
Orcid: 0009-0009-9897-2118

Annotatsiya: Maqolada qayta sug‘urtaning rolini oshirishda axborot ta’minotini optimallashtirish muammolari va yechimlari ko‘rib chiqilgan. Qayta sug‘urta sohasida axborot oqimining sifatli va samarali tashkil etilishi sug‘urta kompaniyalarining risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashdagi muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida axborot ta’minotini optimallashtirish usullari, zamonaviy axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi hamda malakali kadrlarni tayyorlashning ahamiyati tahlil qilingan. Natijada, qayta sug‘urtaning bozordagi o‘rni va samaradorligini oshirish uchun axborot ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qayta sug‘urta, axborot ta’minoti, optimallashtirish, sug‘urta risklari, moliyaviy barqarorlik, axborot texnologiyalari, sug‘urta bozori, risklarni boshqarish, xizmat sifati, sug‘urta kompaniyalari.

Abstract: The article examines the challenges and solutions of optimizing information support in enhancing the role of reinsurance. The effective and high-quality organization of information flows in the reinsurance sector is considered a crucial factor for insurance companies in managing risks, ensuring financial stability, and improving service quality. The study analyzes methods of optimizing information support, the application of modern information technologies, and the importance of training qualified personnel. As a result, practical recommendations are developed to improve information support in order to increase the role and efficiency of reinsurance in the market.

Key words: reinsurance, information support, optimization, insurance risks, financial stability, information technologies, insurance market, risk management, service quality, insurance companies.

Аннотация: В статье рассмотрены проблемы и решения оптимизации информационного обеспечения в повышении роли перестрахования. Качественная и эффективная организация информационных потоков в сфере перестрахования рассматривается как важный фактор управления рисками страховых компаний, обеспечения финансовой устойчивости и повышения качества предоставляемых услуг. В ходе исследования проанализированы методы оптимизации информационного обеспечения, применение современных информационных технологий, а также значение подготовки квалифицированных кадров. В результате разработаны практические рекомендации по совершенствованию информационного обеспечения для повышения роли и эффективности перестрахования на рынке.

Ключевые слова: перестрахование, информационное обеспечение, оптимизация, страховые риски, финансовая устойчивость, информационные технологии, страховой рынок, управление рисками, качество услуг, страховые компании.

KIRISH

Zamonaviy sug‘urta bozori xavflarning globallashuvi, texnogen ofatlar, iqlim o‘zgarishi, kiber tahdidlar kabi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bu omillar qayta sug‘urtalashni sug‘urta kompaniyalari kapitalini himoya qilish mexanizmi sifatida qo‘llash zaruratini oshiradi. Shu bilan birga, qayta sug‘urtalashning samaradorligi ishonchli va tezkor axborot ta’minotisiz mumkin emas. Axborot oqimlarini optimallashtirish, raqamli platformalar va tahliliy tizimlarni joriy etish barqaror qayta sug‘urta tizimini rivojlantirishning muhim shartlariga aylanmoqda. Mavzuning dolzarbligi shaffoflikni, ma’lumotlarni qayta ishlash tezligini va sug‘urta tashkilotlarining raqamli transformatsiya sharoitida moslashuvini oshirish zarurati bilan belgilanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, IT sohasida yuqori malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamlashtirishni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur farmon asosida ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etish, IT-texnologiyalar, sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi va tarmoq boshqaruvi sohalarida mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, qayta sug‘urtaning rolini oshirishda axborot ta’minotini optimallashtirish masalasi ham ushbu strategik yo‘nalish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda qo‘yilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur tadqiqot dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urtada axborot ta’minotini shakllantirish masalasida qator olimlar tadqiqot olib borgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda sug‘urta axborot tizimlarini global platformalar bilan integratsiyalash muhimligi, ma’lumotlarni intellektual tahlil qilishga o‘tish va risklarni baholashning avtomatlashtirilgan modellaridan foydalanish zarurligi ta’kidlangan.

Z. Sharifyanova ta’kidlashicha, onlayn sug‘urta tizimi professional takomillashtirishni talab qiladigan muayyan qiyinchiliklarga ega. Bu, asosan, aholining ushbu yangiliklarni psixologik nuqtai nazardan qabul qilishga tayyor emasligi, ushbu sohada xodimlarni qayta tayyorlash zaruriyati, texnik jihozlarni saqlash va yuqori hajmdagi mijozlar bazasini boshqarish bilan bog‘liqdir.

A. I. Obisovaning fikricha, sug‘urta kompaniyalarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali tezkor va ishonchli ma’lumotlarni olish, biznesni optimal boshqarish imkonini beradi.

Mahalliy olim A. Oripovning ilmiy ishlarida qayta sug‘urtalash yordamida sug‘urtalovchilar o‘zlarining muvozanatlashgan sug‘urta portfelini shakllantirish jihatlari o‘rganilgan.

Ilmiy manbalarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, sug‘urta va qayta sug‘urta kompaniyalarining axborot tizimlarini integratsiyalashuvi sohani barqaror rivojlantirishning zarur shartiga aylanmoqda. Shuningdek, intellektual ma’lumotlarni tahlil qilishga o‘tish risklarni yanada aniqroq baholash va tegishli qayta sug‘urtalash dasturlarini yaratish imkonini beradi. Qayta sug‘urtalash jarayonlarini avtomatlashtirish esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga, hujjatlar aylanishini tezlashtirishga va shartnoma munosabatlarining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sug‘urtada axborot ta’minoti tahliliga tizimli yondashish, qiyosiy tahlil va ekspert baholash usullari, me’yoriy hujjatlar va amaliy holatlar mazmunini o‘rganish, sug‘urta va qayta sug‘urtalashda qo‘llaniladigan AT-yechimlar va texnologiyalarni sifatli tahlil qilish, shuningdek, InsurTech va raqamli platformalarni rivojlantirish tendensiyalarini empirik o‘rganish kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon qayta sug‘urta bozorining holati ortiqcha kapitallashuv, tariflarning o‘rtacha o‘sishi va makroiqtisodiy noaniqlik bilan tavsiflanadi. Globallashuv qayta sug‘urtalovchilarga keng mijozlar bazasiga kirish, ularning geografik qamrovini kengaytirish va turli mintaqalarda o‘z tajribasidan foydalanish imkonini beradi. Xuddi shunday, xalqarolashtirish transchegaraviy hamkorlikni, qo‘shma korxonalarni va sheriklikni osonlashtiradi, bozorda o‘sish va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.

Qayta sug‘urta himoyasi darajasi bevosita sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiladi. Yangi risklarning paydo bo‘lishi an’anaviy sug‘urta mahsulotlarini yetarli darajada samarali qilmaydi, bu esa sug‘urtaning nostandart shakllarining rivojlanishiga olib keladi. Ushbu shakllardan biri — retroaktiv qayta sug‘urtalash, ya’ni qayta sug‘urtalash shartnomasi tuzilgunga qadar ilgari qabul qilingan risklar uchun javobgarlikni qayta sug‘urtalovchiga o‘tkazishdir. Bunday holda, qayta sug‘urtalovchi retrospektiv javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi va tegishli mukofotni oladi.

Retroaktiv qayta sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha qayta sug‘urtalovchi tomonidan o‘z zimmasiga oladigan risklarga quyidagilar kiradi:

investitsiya riski (qayta sug‘urtalovchi olingan mablag‘larni kutilayotgan daromad bilan investitsiya qila olmaydi);

vaqt xavfi (qayta sug‘urta tovonini to‘lash zarur bo‘lgan vaqtning noaniqligi);

texnik yoki sug‘urta tavakkalchiligi (qayta sug‘urta qoplamasi miqdorining olingan qayta sug‘urta mukofotidan oshib ketishi).

Qayta sug‘urta qilish shartnomasini tuzishning asosiy maqsadi qoplanmagan zararlarning ko‘payishidan himoya qilishdir. Biroq, har qanday boshqa qayta sug‘urta shartnomasi kabi, retroaktiv qayta sug‘urtalash shartnomasi nafaqat sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini oshirishni ta’minlaydi, balki sug‘urta

kompaniyasining moliyaviy ko‘rsatkichlariga ham ta’sir qiladi. Retroaktiv qayta sug‘urtalashni qo‘llash, aslida, sug‘urta kompaniyasining o‘z mablag‘ida qolgan zararlar zaxirasini diskontlashga olib kelishi mumkin, bu esa sug‘urta kompaniyasiga joriy hisobot davrida investitsiya daromadlarini ko‘rsatishga imkon beradi. Eng katta ta’sir yo‘qotishlarni qoplashning uzoq muddatlari bilan tavsiflangan sug‘urta shartnomalarini retroaktiv qayta sug‘urtalashga o‘tkazishda yuzaga keladi. Retroaktiv qayta sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha qayta sug‘urta mukofoti kelgusida kutilayotgan qayta sug‘urta to‘lovlarini diskontlashni hisobga olgan holda hisoblanadi.

Qayta sug‘urtalash mexanizmi sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu tizim yirik va kutilmagan zararlar yuzaga kelganda sug‘urtalovchining moliyaviy yukini kamaytirish imkonini beradi. Natijada, kompaniya o‘z majburiyatlarini vaqtida va to‘liq bajarishi, likvidligini saqlab qolishi hamda to‘lovga layoqatlilik darajasini oshirishi mumkin. Qayta sug‘urta orqali risklar diversifikatsiya qilinadi va sug‘urta portfeli yanada muvozanatli shakllantiriladi. Shu sababli, qayta sug‘urtani samarali tashkil etish sug‘urta kompaniyasining uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismidir. Quyidagi 1-rasmda qayta sug‘urtani tashkil etish mexanizmi keltirilgan.



1-rasm. Qayta sug‘urtani tashkil etish mexanizmi

O‘rganishlarimiz natijasida ko‘ra qayta sug‘urtani tashkil etish mexanizmi quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Risklarni tahlil qilish va tanlash bosqichi. Bu bosqichda sug‘urta kompaniyasi o‘z sug‘urta portfelidagi katta yoki yuqori xavfli risklarni aniqlaydi va qaytarish yoki qayta sug‘urta qilish zarurligini baholaydi. Bu bosqichda statistik, aktuar va moliyaviy tahlillar o‘tkaziladi.

2. Qayta sug‘urta shartnomasini tuzish bosqichi. Ushbu bosqichda risklar taqsimoti va qayta sug‘urta shartlari, shu jumladan premiyalar, majburiyatlar va himoya hajmi aniqlangan holda sedent va qayta sug‘urtachi o‘rtasida shartnoma tuziladi.

3. Risklarni qayta sug‘urta kompaniyasiga o‘tkazish (sessiya) bosqichi. Sedent o‘z zimmasiga olgan riziklarni belgilangan shartlar asosida qayta sug‘urtachiga o‘tkazadi. Bu jarayonda huquq va majburiyatlar sessiya yo‘li bilan transfer qilinadi.

4. Moliyaviy oqimlarni boshqarish bosqichi. Qayta sug‘urta premiyalari va ehtimoliy to‘lovlar bozoridagi shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi. Qayta sug‘urtachi yo‘qotishlar holatida sedentga moliyaviy yordam ko‘rsatadi.

5. Qayta sug‘urta orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bosqichi.

Risklarni qayta sug‘urta qilish sug‘urta kompaniyasining kapitalini muhofaza qiladi, likvidligini saqlaydi hamda katta yoki kutilmagan yo‘qotishlardan himoya qiladi. Bu esa kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligini va mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasini oshiradi.

Ushbu mexanizm sug‘urta bozorining samaradorligini oshirish hamda sug‘urta kompaniyalarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash uchun asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, bu mexanizm orqali katta va kutilmagan yo‘qotishlar xavfi minimallashtirilib, kapital yetkazib berish darajasi saqlanadi hamda sug‘urta kompaniyasining to‘lov qobiliyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Qayta sug‘urta operatsiyalarini to‘g‘ri, tezkor va samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni shakllantirishda axborot ta’minoti zarur bo‘ladi. Qayta sug‘urtada axborot ta’minoti nafaqat texnik bazani, balki ma’lumotlar almashinuvi, tahlil va qaror qabul qilish uchun kerakli infratuzilmani ham o‘z ichiga oladi. Qayta sug‘urta sohasida axborot ta’minotini samarali joriy etish juda muhim bo‘lib, u butun sug‘urta ekotizimining samaradorligini, shaffofligini va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qayta sug‘urtada axborot ta’minotining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- axborot resurslari bular asosan ichki ma’lumotlar (sug‘urta shartnomalari, talablar, to‘lovlar, xavflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar), tashqi ma’lumotlar (bozor statistikasi, iqtisodiy va tabiiy xavflar, xalqaro qayta sug‘urta reytinglari va shartlari) hamda tarixiy ma’lumotlar (yo‘qotishlar, kutilmagan xavflar, katastrofik holatlar) iborat;
- axborot tizimlari bular qayta sug‘urta shartnomalari uchun CRM/ERP platformalari, anderrayting tizimlari: xavflarni baholash, shart tuzish jarayonlarini avtomatlashtirish, modellashtirish va prognozlash dasturlari (Cat modeling, stochastic analysis), to‘lovlar va hisob-kitoblar avtomatlashtirilgan tizimlari;
- ma’lumotlar bazalari va omborlari bular qayta sug‘urta shartnomalari va ularning to‘lovlari bilan bog‘liq ma’lumotlar bazasi, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) omborlari — yo‘qotishlar va xavflar, xavflarni baholashda yordam beradigan geografik va demografik ma’lumotlar bazalari;
- ma’lumotlar almashinuvi infratuzilmasi bular API-integratsiyalar (sug‘urta kompaniyalari, brokerlar va qayta sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida real vaqtda ma’lumot almashinuvi), elektron hujjat aylanmasi (qayta sug‘urta shartnomalari, hisobotlar va hujjatlarni avtomatlashtirilgan tarzda yuritish), xalqaro platforma va standartlar (ACORD, Lloyd’s platforma va h.k.);
- axborot xavfsizligi jumladan, mahfiy ma’lumotlarni shifrlash, kiberhimoya, qonuniy talablarga (masalan, GDPR, milliy reglamentlar) muvofiqlik.

Fikrimizcha, qayta sug‘urta bozorini xizmatlar iste’molchilari, ularni yetkazib beruvchilar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab tizimi bo‘lib, ushbu tizimning takror ishlab chiqarish va potensial rivojlanishining manbai sug‘urta va qayta sug‘urtalash xizmatlari iste’molchilarining o‘zlari bo‘lib, ularning mablag‘lari hisobidan butun sug‘urta va qayta sug‘urta bozorlari faoliyat yuritadi.

Mahalliy sug‘urta va qayta sug‘urtalashning holati va rivojlanish istiqbollarini adekvat baholash uchun ushbu munosabatlar tizimida iste’molchilarning pozitsiyasi va ularning manfaatlari qanday amalga oshirilishini tushunish muhimdir. Ushbu xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, qayta sug‘urta bozori yuqori turbulentlik va kapital bozorlari bilan integratsiyalashish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Shu munosabat bilan qayta sug‘urta bozorini axborot bilan ta’minlash alohida ahamiyatga ega. Samarali axborot ta’minoti xavflar, iste’molchilar, moliyaviy ko‘rsatkichlar va bozorga ta’sir qiluvchi tashqi omillar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun murakkab tizimlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlarning shaffofligini, asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashni va bozor kon’yunkturasidagi o‘zgarishlarga o‘z vaqtida javob berishni ta’minlaydi. Olib borilgan tadqiqotimiz davomida axborot ta’minotining qayta sug‘urtadagi quyidagi ahamiyatlari aniqlandi 1– jadval.

1-jadval. Axborot ta’minotining qayta sug‘urtadagi ahamiyati

Ahamiyatli yo‘nalishlar	Ta’siri
Xavflarni yaxshiroq baholash	Xavflarni qayta sug‘urta qilish imkoniyati
Tezkor va aniq qarorlar	Qaror qabul qilida inson xatolarini kamaytirish
Xalqaro aloqalarni yengillashtirish	Turli bozorlar va qayta sug‘urta kompaniyalari bilan ishlash imkoni
Hisobot talablariga rioya qilish	Regulyator va nazorat organlari oldida shaffoflik

Qayta sug‘urtalashda axborot ta’minoti shunchaki texnik jarayon emas, balki sug‘urta faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, usiz bu tizim samarali ishlay olmaydi. Shu bois, sug‘urta va qayta sug‘urtalovchi tashkilotlar axborot almashinuvi tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirishga va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga e’tibor qaratishlari lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qayta sug‘urtalash sohasida axborot ta’minotini maqbul shakllantirish sug‘urta kompaniyalari faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirishning eng muhim shartidir. Shuningdek, sug‘urta va qayta sug‘urta kompaniyalarining IT tizimlarini integratsiyalash, analitik va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ma’lumotlar almashinuvining yagona standartlarini ishlab chiqish, axborotni qayta ishlashning shaffofligi va tezligini oshirish kabi yo‘nalishlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шарифьянова Зарема Фаудатовна. Проблемы и преимущества электронного страхования. Международный научный журнал «Символ науки» №3/2016 ISSN 2410-700X. 215-220 с.
2. А.И. Обысова, И.Л. Мамаева. Проблемы внедрения современных информационных технолоний в страховании. Успехы в технологии. 2008, № 12. 26-30-с.
3. Oripov Akbar Amonjonovich. O‘zbekistonda umumiy sug‘urta tarmog‘ida qayta sug‘urtalashning hozirgi holati va uni rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, iyun. 129-133 bet.

SUG‘URTA BOZORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: NAZARIY ASOSLAR VA O‘ZBEKISTONDAGI AMALIY TAJRIBALAR

Saidov Farrux Faxriddinovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
AKT sohasida iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Email: f.saidov@tuit.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug‘urta bozorida raqamli transformatsiya jarayonining nazariy asoslari va O‘zbekistondagi amaliy tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida elektron polis, onlayn to‘lov tizimlari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi risk baholash mexanizmlarining samaradorligi o‘rganildi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2020–2024-yillar davomida elektron polislar ulushi 6 baravar, onlayn to‘lovlar hajmi esa 3,7 baravar oshgan. Tovon to‘lovlari muddati esa uch baravar qisqargan. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlillar asosida O‘zbekiston sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Sug‘urta bozori, raqamli transformatsiya, elektron polis, onlayn to‘lovlar, sun’iy intellekt, big data, blokcheyn, moliyaviy barqarorlik, InsurTech, O‘zbekiston.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and practical experiences of digital transformation in Uzbekistan’s insurance market. The study examines the effectiveness of electronic policies, online payment systems, mobile applications, and AI-based risk assessment mechanisms. Statistical analysis reveals that between 2020 and 2024, the share of electronic policies increased sixfold, online payments grew by 3.7 times, and compensation payment periods were reduced threefold. Based on comparative analysis with international practices, practical recommendations were developed to further enhance the development of Uzbekistan’s insurance market.

Key words: Insurance market, digital transformation, electronic policy, online payments, artificial intelligence, big data, blockchain, financial stability, InsurTech, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние цифровой экономики на развитие системы здравоохранения в Узбекистане. Цифровая трансформация медицинской сферы охватывает такие направления, как внедрение электронных медицинских карт, развитие телемедицины, использование искусственного интеллекта и мобильных приложений. Представлены ключевые показатели цифровизации, проанализированы реализованные проекты, выделены основные проблемы и барьеры, связанные с внедрением цифровых технологий в здравоохранение. Отдельное внимание уделено перспективам дальнейшего развития и мерам, необходимым для повышения эффективности цифровых решений в медицинской практике. Исследование демонстрирует, что цифровая экономика играет стратегическую роль в модернизации здравоохранения и повышении качества медицинских услуг в стране.

Ключевые слова: Цифровая экономика, здравоохранение, электронные медицинские карты, телемедицина, искусственный интеллект, цифровизация, e-health.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning O‘zbekiston¬da sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilinadi. Tibbiyot sohasida raqamli transformatsiya elektron tibbiy kartalarni joriy etish, telemeditsina rivojlantirish, sun’iy intellekt va mobil ilovaning qo‘llanilishi kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Raqamlash¬tirishning asosiy ko‘rsatkichlari taqdim etilgan, amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilingan, raqamli texnologiyalarni sog‘liqni saqlashga joriy etishdagi asosiy muammolar va to‘siqlar ta’kidlangan. Keyingi rivojlanish istiqbollari va tibbiy amaliyotda raqamli yechimlarning samaradorligini oshirish uchun zarur chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot raqamli iqtisodiyot mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, elektron tibbiy kartalar, telemeditsina, sun’iy intellekt, raqamlashtirish, e-health.

Abstract: This article examines the impact of the digital economy on the development of the healthcare system in Uzbekistan. The digital transformation of the medical sector encompasses such areas as the implementation of electronic medical records, the development of telemedicine, the use of artificial intelligence, and mobile applications. Key digitalization indicators are presented, implemented projects are analyzed, and the main problems and barriers related to the adoption of digital technologies in healthcare are identified. Special attention is given to the prospects for further development and measures necessary to enhance the effectiveness of digital solutions in medical practice. The study demonstrates that the digital economy plays a strategic role in modernizing healthcare and improving the quality of medical services in the country.

Key words: Digital economy, healthcare, electronic medical records, telemedicine, artificial intelligence, digitalization, e-health.

ВВЕДЕНИЕ

Цифровая экономика представляет собой одну из ключевых движущих сил глобальной трансформации общественных институтов, включая здравоохранение. В современных условиях информационные технологии активно внедряются в медицинскую сферу, способствуя улучшению качества, доступности и эффективности предоставления медицинских услуг.

Для Узбекистана, находящегося на этапе активной цифровой трансформации, внедрение цифровых решений в здравоохранение приобретает стратегическое значение. С 2019 года в стране реализуется Национальная стратегия цифровой экономики, включающая направление цифровизации медицины.

Целью данного исследования является анализ влияния цифровой экономики на систему здравоохранения Узбекистана, определение ключевых достижений, существующих проблем и перспектив развития.

МЕТОДЫ

В исследовании использовались качественные и количественные методы анализа. Основу составили анализ официальных документов: стратегии, отчёты Министерства цифровых технологий и Минздрава Узбекистана, сравнительный анализ статистических данных по цифровизации, изучение примеров реализованных цифровых проектов в регионах Узбекистана, обзор публикаций по теме цифровой трансформации в сфере здравоохранения, проведение условного моделирования (на основе открытых источников) для построения таблиц и диаграмм.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Цифровая экономика в стране развивается высокими темпами. В таблице 1 представлены ключевые показатели за 2024 год:

Таблица 1. Основные показатели цифровой экономики в Узбекистане (2024)

Показатель	Значение	Примечания
Доля населения с доступом к интернету	75%	Рост на 10% за последние 3 года
Пользователи мобильного интернета	25 млн	Включая пользователей 5G-сети
Объём инвестиций в ИТ-сектор	500 млн USD	За 2023 год
Охват медицинских учреждений ЭМК	65%	Государственные и частные клиники

До цифровизации система здравоохранения Узбекистана сталкивалась с рядом системных проблем:
Низкая доступность качественной медицинской помощи в отдалённых районах;
Недостаток квалифицированного персонала;
Отсутствие единой системы учёта и анализа медицинских данных;
Высокая нагрузка на специалистов первичного звена.
Цифровизация здравоохранения стала ответом на эти вызовы, предложив инструменты для повышения прозрачности, эффективности и устойчивости системы.
Один из ключевых элементов цифрового здравоохранения — внедрение электронных медицинских карт. Это позволило:
Хранить данные о пациенте в цифровом формате.
Обеспечить оперативный обмен медицинской информацией.
Снизить уровень ошибок и повторных исследований.
Упростить бюрократию в медучреждениях.

Таблица 2. Внедрение ЭМК в регионах Узбекистана

Регион	% учреждений с ЭМК	Пользователи системы	Основные достижения
Ташкент	90%	1,2 млн	Онлайн-запись, е-рецепты
Самарканд	70%	600 тыс	Снижение ошибок в учёте
Ферганская область	50%	400 тыс	Ограниченный интернет-доступ

Телемедицина получила активное развитие в Узбекистане в период пандемии COVID-19. На сегодняшний день доступны:

Дистанционные консультации специалистов.

Мониторинг пациентов с хроническими заболеваниями.

Проведение телediагностики и удалённого контроля.

Развитие телемедицины способствует снижению перегрузки стационаров и расширяет доступ населения к квалифицированной помощи.

Современные подходы включают внедрение искусственного интеллекта (ИИ) и анализа больших данных в:

Распознавание изображений (МРТ, рентген).

Прогнозирование эпидемий и хронических заболеваний.

Персонализированное лечение на основе анализа генетических и клинических данных.

Хотя технологии ИИ в медицине находятся на ранней стадии внедрения в Узбекистане, потенциал их применения оценивается как высокий.



Рис-1. Рост доступа к интернету в Узбекистане (2015–2024)

Результаты анализа показывают, что цифровая экономика оказывает положительное влияние на систему здравоохранения Узбекистана:

Повышена эффективность медицинского обслуживания.

Снижены затраты на ведение бумажной документации.

Расширена география медицинского охвата через телемедицину.

Повышено качество диагностики за счёт цифровых инструментов.

Тем не менее, существуют ограничения и проблемы, требующие системного решения:

Инфраструктурные барьеры — особенно в отдалённых регионах;

Кадровая неподготовленность — низкий уровень цифровой грамотности у части персонала;

Угрозы кибербезопасности — отсутствие защищённых каналов и протоколов обработки данных;

Финансовые трудности — нехватка инвестиций для модернизации всего сектора.

Заключение

Цифровая экономика формирует новый облик здравоохранения Узбекистана. Внедрение ЭМК, развитие телемедицины, использование ИИ и мобильных решений значительно улучшили доступность и качество медицинских услуг.

Список использованной литературы

1. Абдуллаев, Ш. А. (2021). Цифровая трансформация экономики Узбекистана: вызовы и перспективы. — Ташкент: Изд-во Университета экономики.
2. Государственная программа развития цифровой экономики Республики Узбекистан на 2019–2025 годы. (2019). Министерство экономики Республики Узбекистан. [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://digital.gov.uz
3. Назаров, Б. М., & Турсунова, Г. Х. (2022). Телемедицина как инструмент развития здравоохранения в Узбекистане. Журнал «Медицинские технологии», 3(12), 45–52.
4. World Health Organization. (2023). Digital health: Transforming healthcare through digital technologies. Geneva: WHO Press. [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://www.who.int
5. Джумаев, Р. С. (2020). Внедрение электронных медицинских карт в здравоохранении Узбекистана: опыт и проблемы. Тезисы конференции по цифровой медицине, Ташкент, 15–17 октября 2020 г., 78–85.
6. Официальный портал Министерства здравоохранения Республики Узбекистан. (2024). Цифровизация здравоохранения в Узбекистане. [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://health.uz

7. Международный союз электросвязи. (2022). Отчет о развитии телекоммуникаций и цифровой экономики в Центральной Азии. Женева: ITU.
8. Исламов, Д. К., & Рахматов, А. В. (2023). Искусственный интеллект в медицине: перспективы применения в Узбекистане. Журнал «Инновационные технологии в медицине», 1(5), 15–24.

TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ziyadullaev Zuxriddin Ilxom o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini qo‘llash orqali bank sohasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi istiqbollar hamda xorijiy ilg‘or tajribalar tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida bank xizmatlarini taqdim etishda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish choralari ko‘rilmoqda. Innovatsion axborot texnologiyalari va masofaviy bank hisobvaraqlarini boshqarish tizimlari O‘zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda.

Kalit so‘zlar: Internet-banking, telefon-banking, mobil banking, mobil ilova, SMS-banking, mobil telefon, mobil internet.

Abstract: This article analyzes the prospects influencing the development of the banking sector through the implementation of remote banking services in commercial banks, as well as highlights advanced international practices. In the Republic of Uzbekistan, measures are being taken to expand remote banking services by introducing new information technologies. Innovative information flows and remote account management systems play a key role in the development of banking services within Uzbekistan’s banking system.

Key words: Internet banking, telephone banking, mobile banking, mobile application, SMS banking, mobile phone, mobile internet.

Аннотация: В данной статье рассмотрены перспективы, влияющие на развитие банковского сектора через внедрение дистанционного банковского обслуживания в коммерческих банках, а также приведён анализ передового зарубежного опыта. В Республике Узбекистан предпринимаются меры по расширению дистанционного банковского обслуживания за счёт внедрения современных информационных технологий. Инновационные информационные потоки и системы управления дистанционными банковскими счетами занимают важное место в развитии банковских услуг в банковской системе Узбекистана.

Ключевые слова: Интернет-банкинг, телефон-банкинг, мобильный банкинг, мобильное приложение, SMS-банкинг, мобильный телефон, мобильный интернет.

KIRISH

Bugungi kunda moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish, xususan tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning turlari va ularni ko‘rsatish usullari ham sezilarli darajada yaxshilanib bormoqda. Bunday o‘zgarish, ayniqsa, innovatsion texnologiyalarning moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish bo‘g‘inida jadallik bilan qo‘llanilishi orqali amalga oshirilmoqda. Internet va mobil texnologiyalarning tijorat banklari xizmatlarida keng qo‘llanilishi tufayli bank xizmatlari bozorida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Elektron kanallar sonining ko‘payishi tufayli masofaviy bank xizmatlari rivojlanmoqda va bu holat banklar hamda mijozlar uchun katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining jadallik bilan rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hamda innovatsion texnologiyalarning iqtisodiyotda qo‘llanilishi asosiy turtki bo‘lib kelmoqda. Bank xizmatlarining, xususan masofaviy bank xizmatlarining rivojlanganlik darajasi uning mijozlar tomonidan keng qo‘llanilishi bilan belgilanadi [1]. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari tushunchasi to‘g‘risida mijozlarning xabardorlik

darajasi, ya’ni bank mijozlari tomonidan olingan turli ma’lumotlar bilan belgilanadi. Turli olimlarning, xususan H. Mohammadi, Daud N. Mohd, M. Kassim, N. Ezalin, M. Said, V. S. R. Van va M. M. Mohd Nurlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham mijozlarning masofaviy bank tushunchasi to‘g‘risidagi xabardorlik darajasi yuqori bo‘lishi, tijorat banklari foydalanuvchilari uchun ham foydali ekanligini anglashga yordam berishi ta’kidlangan. Ya’ni bunda bank mijozlarini masofaviy bank xizmat turlari bo‘yicha xabardor qilish va ularni ushbu xizmatlarga qiziqtirish masofaviy bank xizmatlarining ommalashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mobil texnologiyalar.

So‘nggi paytlarda mobil telefonlardan ko‘plab odamlar foydalanayotganligi, ular uchun ajralmas texnik vosita bo‘lib qolganligi sababli moliyaviy xizmatlar ham ushbu aloqa vositalari doirasida tashkil etilmoqda. “PwC’s 2018 Digital Banking Consumer Survey” ma’lumotlariga ko‘ra, o‘z smartfonlari yordamida bank xizmatlaridan foydalanishni afzal ko‘rayotgan odamlar soni ortib bormoqda.

Raqamli banklar.

Mobil-bankingning keskin tarzda rivojlanishi natijasida filial va shoxobchalar ochmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi raqamli banklarning ko‘payishiga olib keldi. Ular moliyaviy bitimlarni amalga oshirishda smartfonlardan foydalanadigan aholi qatlami orasida juda mashhurdir. Raqamli banklarga «Revolut» va «N26»ni misol tariqasida aytish mumkin. Ushbu banklar iste’molchilarga pul mablag‘larini masofadan boshqarish imkonini beradigan ilovalarni taqdim etadi. Shu sababli bank filiallariga tashriflar yildan yilga kamayib bormoqda [2].

Biometrik texnologiyalar.

Raqamli iqtisodiyot asrida moliyaviy xizmatlar sanoati kiberhujumlar ta’siriga nisbatan zaiflashgan. Shu bois «FinTech» sanoatida xavfsizlik birinchi o‘rinda turadi. Firibgarliklarning oldini olish yo‘llaridan biri — biometrik texnologiyalarni qo‘llashdir. Biroq biometrik autentifikatsiyaning yagona afzalligi xavfsizlik emas. Ushbu texnologiya ilovaga kirishni osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Blokcheyn texnologiyasi.

Moliyaviy xizmatlar sektori blokcheynni birinchilardan bo‘lib kashf etgan. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanishda tizimning shaffofligi tufayli ko‘plab “FinTech startap”lar tashkil etilmoqda. Blokcheynning yana bir afzalligi — moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtiruvchi “aqlli shartnomalar” (smart contracts) tizimidir. Shu sababli moliyaviy institutlar ushbu texnologiyaga katta e’tibor qaratmoqda.

Sun’iy intellekt.

Aksariyat ekspertlar sun’iy intellekt yaqin kelajakda “FinTech” sohasiga katta ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlashmoqda. «FinTech» sanoatining sun’iy intellektdan foydalanishiga bir qator sabablar mavjud. Avvalo, sun’iy intellekt ma’lumotlarni tahlil qilish kabi vazifalarni avtomatlashtirib, vaqtni ancha tejashga yordam beradi. Bundan tashqari, texnologiya “chatbot”lar va maslahatchi robotlarni yaratish, mijozlarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali firibgarliklarni aniqlashda ham qo‘llaniladi. Bank xodimlari uchun ovozli yordamchilar ishlab chiqilmoqda. Masalan, “OCBC Bank” yaqinda Singapurda “Google” bilan hamkorlikda birinchi sun’iy intellekt asosidagi ovozli bankni ishga tushirdi. Bu mijozlarga kredit miqdorini hisoblash, mablag‘larini boshqarish, bank yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda bankning yaqin filiallari va bankomatlari haqida ma’lumot olish kabi xizmatlarni suhbat orqali amalga oshirish imkonini beradi [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mobil to‘lovlar xizmatlar bozori.

Xususan, “Ipsos Global Trends” (Ipsos Global Trends — bu besh million ma’lumot nuqtasini umumlashtiruvchi tadqiqot bo‘lib, u yil davomida signallarni yig‘ish va global ekspertlar hamda tahlilchilar guruhi tomonidan makro kuchlarni aniqlashni o‘z ichiga oladi) tomonidan 23 ta rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlardan 18 180 nafar foydalanuvchi jalb qilingan holda insonlarning mobil to‘lovlar to‘g‘risidagi xabardorlik darajasi bo‘yicha tadqiqot olib borildi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha so‘rovda ishtirok etgan foydalanuvchilarning qariyb 52 foizi bozorda taqdim etilgan mobil to‘lov xizmatlaridan xabardor ekanligi aniqlandi.

Biroq foydalanuvchilar soni mamlakatlar kesimida turlicha ko‘rsatkichlarda aniqlangan. Ushbu natijalarni solishtirib ko‘radigan bo‘lsak, smartfonlar orqali to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar bo‘yicha rivojlanayotgan mamlakatlar foydalanuvchilari, rivojlangan mamlakatlardagi foydalanuvchilarga nisbatan ko‘proq xabardor ekanligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. “Xizmatlar bozorida mavjud bo‘lgan barcha mobil to‘lov xizmatlari haqida bilasizmi?” so‘rovnoma natijalari (foizlarda)

Ushbu so‘rovnoma natijalariga nazar soladigan bo‘lsak, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiruvchi Yaponiya davlatida mobil to‘lov xizmatlaridan xabardor bo‘lgan foydalanuvchilar foizi, xabardor bo‘lmagan foydalanuvchilar foizidan 14 foizga kam. Aksincha, rivojlanayotgan davlatlar qatorida bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasida esa mobil to‘lov xizmatlaridan xabardor bo‘lgan foydalanuvchilar soni, mobil to‘lov xizmatlaridan xabardor bo‘lmagan foydalanuvchilar foizidan 65 foizga yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Mobil qurilmalar orqali xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishlar soni va hajmining ortishiga mobil smartfon foydalanuvchilarining ko‘payib borishi asosiy turtki bo‘lib qolmoqda [4]. Natijalarga nazar soladigan bo‘lsak, 2018-yilning ikkinchi choragida xitoylik foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilgan mobil xizmatlar to‘lovlari soni keskin ortgan. 2018-yilning II choragida Xitoy tijorat banklarida mobil bank xizmatlari orqali 14,49 mlrd.ga yaqin tranzaksiya amalga oshirilgan bo‘lsa, ushbu tranzaksiyalarning qariyb 73 foizi aynan bitta bank — Xitoy Xalq banki hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yiling shu davri bilan solishtirilganda 60 foizga yuqori bo‘lgan.

2018-yilning ikkinchi choragi holatiga ko‘ra, Xitoyda mobil smartfon foydalanuvchilari soni 1,35 mlrd.ni tashkil etgan bo‘lsa, ulardan 1 mlrd. foydalanuvchi internet tarmog‘iga ulangan bo‘lgan. Bundan tashqari, desktop kompyuterlar orqali amalga oshirilgan onlayn bank xizmatlari to‘lovlari 8,17 foizga o‘sib, 658,78 trln. yuanni tashkil etgan.

Bugungi kunda mobil telefonlar inson hayotida asosiy o‘ringa aylanib bormoqda. Ya’ni, kundalik hayotda ma’lumotlarni o‘qish, internet tizimiga ulanish, elektron pochtalarni tekshirish, kerakli ma’lumotlarni yuklab olish, ish qidirish, xaridlar, to‘lovlar va boshqa bir qator amallarni bajarishda telefon hatto ish qurollari o‘rnini ham bosmoqda [5]. Ayniqsa, mobil telefonlardan istalgan joyda va istalgan vaqtda — uyda, ishda, avtobusda, kinoda, ko‘chada va boshqa joylarda foydalanish qulayligi har qanday to‘lov uchun ideal to‘lov vositasi ekanligini tan olish lozim [6].



2-rasm. Yevropa moliyaviy xizmatlar bozorida internet-banking xizmati foydalanuvchilari (foizlarda, 16–74 yoshlar o‘rtasida)

Yevropa davlatlari to‘lov tizimida mobil telefonlar orqali to‘lovlar biroz kamroq ulushni tashkil etadi. Bunga sabab — Yevropada internet-banking eng mashhur to‘lov turlaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklari yoki boshqa moliya institutlari o‘z mijozlariga veb-saytlar orqali keng miqyosli moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishni taklif qiladi. Quyidagi 2-rasmda “Yevropa moliyaviy xizmatlar bozorida internet-banking xizmatidan foydalanuvchilar (16–74 yoshlar o‘rtasida)” ma’lumotlarini ko‘rish mumkin [7].

Ushbu ma’lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, 2019-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, voyaga yetgan (16–74 yoshlar) Daniya, Niderlandiya va Finlyandiya davlatlari aholisining qariyb 89 foizi internet-banking xizmati orqali bank xizmatlarini amalga oshirgan. Shu sababli, mazkur davlatlar Yevropada bank xizmatlarini internet-banking orqali amalga oshirish reytingi bo‘yicha yetakchi mamlakatlarga aylangan [8].

Bank mijozlari bank veb-saytiga ulanib, keng miqyosli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniga ega. Vaqt o‘tishi bilan Yevropada ushbu elektron to‘lov xizmatiga bo‘lgan ishonch ortib bordi. Natijada, Germaniya va Avstriya kabi davlatlarda naqd puldan foydalanish sezilarli darajada kamaydi.

Buyuk Britaniyaning “Worldpay” protsessing kompaniyasi faqat smartfon yordamida to‘lov qabul qilishning yangi usuli sinovdan o‘tkazilayotgani haqida ma’lum qildi. Mobil telefondan to‘lovlarni qabul qilish maxsus dasturiy ta’minot va kontaktsiz NFC-moduli ko‘magida yangi “My Business Mobile” xizmati orqali amalga oshiriladi. Natijada, mPOS-terminallaridan foydalanishga zarurat qolmaydi.

Bank tizimida internet-banking xizmatini rivojlantirish

Bugungi kunda banklar zamonaviy bank texnologiyalarini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish doirasini kengaytirish va mijozlarga tezkor xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga katta e’tibor qaratmoqda. Buni banklarning mijozlarga masofaviy bank xizmatlarini keng miqyosda taqdim etayotganligi ham tasdiqlaydi. Aytish joizki, banklar bu boradagi faoliyatini yanada kengaytirib, mijozlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish orqali O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar (jismoniy va yuridik shaxslar) sonining ortishiga erishmoqda.

Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligi va sifatining oshishi banklarga mijozlarga hududiy chegarasiz xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi [9]. Bu jarayon banklar o‘z xarajatlarini kamaytirish, foyda va samaradorlikni oshirishga olib keladi. Ayniqsa, butun dunyo bo‘ylab iqtisodiyotning texnologik jihatdan rivojlanib borayotgan sharoitida O‘zbekiston bank tizimida ham zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.

2008-yil boshida «CyberPlat» tizimiga mingdan ortiq internet-do‘konlar ulangan bo‘lib, mijozlar soni 900 mingdan ortiq edi. Bugungi kunda 910 mingdan ortiq xizmat ko‘rsatish punktlari mavjud bo‘lib, shundan 620 mingdan ortig‘i Rossiya va MDH davlatlarida, 290 mingtasi esa dunyoning boshqa mamlakatlarida joylashgan. 2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, ushbu elektron to‘lov tizimidan 300 dan ortiq bank foydalanmoqda.

Hozirgi vaqtda CyberPlat® elektron to‘lov tizimida quyidagi vositalar ishlatiladi:

- “Business-to-Business” xavfsiz biznes oqimiga asoslangan yechim;
- “Business-to-Consumer” bank kredit kartalarini to‘lov serveri orqali avtorizatsiya qilish yechimi;
- “Internet-banking” va “Bank–Mijoz” orqali internet tarmog‘ida to‘lovlarni amalga oshirish;
- banklar uchun tizimga a’zo bo‘lish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyati;
- “Agent” va “Moliyaviy agent bank” orqali internetda hisob-kitoblarni bajarish.

Bank tizimida internet-banking xizmatini rivojlantirish va unda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xorij (Rossiya) tajribasiga ko‘ra, “CyberPlat” (www.cyberplat.ru) — internet orqali universal banklararo to‘lov tizimidir. Tizim «Platina» banki (www.platina.ru) va «Inist» firmasi (www.inist.ru) mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan. Bugungi kunda tizimga Cyberplat.com kompaniyasi egalik qiladi. Amalda “CyberPlat” internet orqali to‘lovlarni amalga oshiruvchi Rossiyadagi ilk tizimlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda jahon amaliyotida informatsion oqimlarning shiddat bilan harakatlanayotgani, masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan davlatlar tajribasi hamda xorijiy va mahalliy olimlar fikrlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Tijorat banklari o‘zlarining masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish orqali O‘zbekiston bank tizimida ushbu xizmatlarni yanada takomillashtirish yo‘lida, avvalo, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlab olishlari, keyin esa ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilab olishlari lozim. Bunda bank tizimini yanada rivojlantirish raqamli bank sohasidagi innovatsiyalarni, ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish (analitika) hamda masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarini joriy etish va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasi konsepsiyasida to‘lov tizimini rivojlantirish ikki davrga bo‘lingan holda belgilangan. Birinchi davr 2020-yilgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi ilovalar yaratish, mijozlarni yagona to‘lov platformasiga ulash, ushbu platformada mijozlarni qo‘llab-quvvatlash servislarini tashkil etish, kardrider va mobil POS-terminallarni to‘lov tizimiga joriy etish, R2R hisob-kitoblarini yuritish, ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash tizimlarini yaratish kabi vazifalar belgilangan.

Ikkinchi davr esa 2025-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan bo‘lib, unda tovarlarni hisobga olish va sotish portali, tranzaksiyalar boshqaruvi tizimi, mobil-banking kriptografik identifikatorlari, turli xizmatlarni banklarning raqamli platformalariga integratsiyalash, B2B, B2C tezkor o‘tkazmalarini joriy etish, ochiq dasturiy interfeyslarni ishlab chiqish, bank biznesida masofadan identifikatsiya qilish, sun’iy intellekt va avtomatlashgan mashinaviy o‘rganish asosida bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish imkoniyatlarini yaratish nazarda tutilgan.

Hozirda an’anaviy bank xizmat turlarining o‘rnini raqamli banking xizmat turlari egallamoqda. Chunki banklar o‘z xizmat turlarini doimiy ravishda takomillashtirib bormas ekan, ular daromad va mijozlar sonini keskin oshirish imkoniyatidan mahrum bo‘lishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мамадияров З.Т., Рахмонов Д.А., Хошимов Э.А., Алимардонов Э.Д., Бекмуродова Г.А. Молиявий глобаллашув шароитида масофавий банк хизматларининг ривожланиши: назария ва амалиёт. Монография. – Т.:«IQTISODIYOT», 2018. – 127 б.
2. Мамадияров З.Т. Тижорат банкларида масофавий банк хизматларининг эволюцияси ва ривожланиш босқичлари (халқаро тажриба) //
3. Мамадияров З.Т. Тижорат банкларида масофавий банк хизматларидан фойдаланишга таъсир қилувчи омиллар таҳлили //
4. Наврўзова К., Ортиқов О. Нақд пулсиз ҳисоб-китоблар ва тўлов тизими. – Т.: Чўлпон номидаги НМИУ. 2014.
5. Тоймухамедов И., Умаров З., Хусаинов Г. Нақд пулсиз ҳисоб- китоблар ва тўлов тизими. Ўқув қўлланма. – Т.: LESSON PRESS, 2018. 215- 218 б.
6. Innovation in Retail Banking 2018 - 10th Anniversary Edition. © 2018 Efma and EdgeVerve Systems Limited. All rights reserved.
7. Koenig-Lewis, N., Palmer, A., Moll, A., 2010. Predicting young consumers’ take up of mobile banking services. International Journal of Bank Marketing 28 (5), 410–432.
8. Lin, H.F., 2011. An empirical investigation of mobile banking adoption: the effect of innovation attributes and knowledge-based trust. Int. J. Inf. Manage. 31, 252–260.
9. Mahavir Jain. Trend Report: Mobile App Development in 2018. January 17, 2018.

SANOAT KORXONALARIDA AKT ORQALI INNOVATSION FAOLIYATNI BELGILOVCHI OMILLARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

N.A.Xasanova
TATU, “AKTSI” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish samaradorligi va innovatsion faoliyatni belgilovchi omillar tahlil qilingan. Korxonalarda dasturiy, texnik va tashkiliy ta’minotdan foydalanish darajalari hamda ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta’siri korrelyatsiya-regressiya usullari yordamida baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotda AKT xizmatlari hajmi, innovatsion mahsulotlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion xarajatlar sanoat ishlab chiqarishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, regressiya tenglamalari asosida prognozlash imkoniyatlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), innovatsion faoliyat, sanoat mahsulotlari, regressiya tahlili, korrelyatsiya koeffitsienti, ilmiy-tadqiqot ishlari, innovatsion xarajatlar, dasturiy ta’minot, texnik ta’minot, sanoat korxonalari samaradorligi.

Abstract: This article analyzes the efficiency of using information and communication technologies (ICT) in industrial enterprises and the factors determining innovative activities. The study evaluates the levels of software, technical, and organizational support and their impact on industrial output through correlation-regression analysis. The findings show that ICT services, innovative products, research activities, and innovation expenditures have a direct positive effect on industrial production. Moreover, forecasting opportunities based on regression equations are developed.

Key words: information and communication technologies (ICT), innovation activity, industrial products, regression analysis, correlation coefficient, research activities, innovation expenditures, software, technical support, industrial enterprise efficiency.

Аннотация: В данной статье анализируются эффективность использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в промышленных предприятиях и факторы, определяющие инновационную деятельность. Рассматриваются уровни применения программного, технического и организационного обеспечения, а также их влияние на объем производства промышленной продукции с использованием методов корреляционно-регрессионного анализа. Результаты исследования показывают, что объем ИКТ-услуг, инновационной продукции, научно-исследовательских работ и инновационных расходов оказывают прямое положительное влияние на промышленное производство. Кроме того, разработаны возможности прогнозирования на основе регрессионных уравнений.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), инновационная деятельность, промышленная продукция, регрессионный анализ, коэффициент корреляции, научно-исследовательские работы, инновационные расходы, программное обеспечение, техническое обеспечение, эффективность промышленных предприятий.

KIRISH

Ma’lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash sohasidagi hozirgi jarayonlar bo‘yicha ma’lumotlar juda kam bo‘lib, rasman nashr etilgan usullar va baholash sxemalari bilan tavsiflanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining xilma-xilligi iqtisodiyotni o‘rganish, tahlil qilish va moslashtirishni talab qiladi. Sanoat korxonalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash amalga oshirilishi maqsadga erishish darajasini miqdoriy baholashni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash usullari umuman korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ham,

kompyuterlar va uskunalarni sotib olish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq aniq ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham turli xil ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan statistik ma’lumotlarga asoslanadi. Korxonalarda ushbu ma’lumotlarning eng muhimini aniqlash juda qiyin hisoblanadi. Natijada, korxonalarda bunday ma’lumotlarning yagona manbai faqat korxona rahbarlarining bevosita so‘rovlari bo‘lishi mumkin. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholashning aniq usullarini tanlash vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Xususan, moliyaviy usullar axborot - kommunikatsiya texnologiyalariga investitsiyalar bilan bog‘liq pul xarajatlari va foydalarini hisoblash imkonini beradi, ammo ular axborot faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muhim nomoddiy foyda va muhim nomoddiy xarajatlarni hisobga olmaydi. O‘zbekiston sanoat korxonalari uchun axborot - kommunikatsiya texnologiyalariga tegishli maqsadlar va talablarni belgilash katta ahamiyatga ega. Qoida tariqasida, asosiy muammo sanoat korxonasini axborotlashtirish harajatlarini baholashdir. Axborot 90 kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va qo‘llash natijalarini oldindan aytib bo‘lmaydiganligini hisobga olishga imkon beruvchi ehtimollik baholash usullari alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda nazariy va amaliy tadqiqotlar o‘rtasida ma’lum bir tafovut mavjud: axborot - kommunikatsiya texnologiyalariga investitsiyalar ta’sirining sanoat darajasida va umuman iqtisodiyot darajasida mavjudligi yoki muayyan sanoat korxonasida boshqa IT loyihasi bitta daromadni kafolatlamaydi. Sanoat korxonasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining samaradorligi ostida axborotni shakllantirish, uzatish va qayta ishlashda kompyuter va tashkiliy texnologiyalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini tushunish kerak. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiy samaradorligining umumlashtirilgan mezoni bu hayot darajasining minimal qiymati va moddiylashtirilgan mehnatdir. Shu bilan birga, boshqaruv ishlarining qancha ko‘p sohalari avtomatlashtirilsa, apparat va dasturiy ta’minotdan shunchalik samarali foydalaniladi. Sanoat korxonalarida axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini batafsilroq tahlil qilish va ularning samaradorligini baholash uchun uchta guruh ko‘rsatkichlari taklif etiladi:

1) sanoat korxonasida qo‘llaniladigan dasturiy mahsulotlarni tavsiflovchi dasturiy ta’minotdan foydalanish darajasi ko‘rsatkichlari, shu jumladan tizimli, maxsus va amaliy;

2) kompleksni aniqlaydigan texnik yordamdan foydalanish darajasining ko‘rsatkichlari mutaxassisning ish joyini jihozlash uchun texnik vositalar (har qanday modeldagi kompyuterlar; axborotni to‘plash, to‘plash, shuningdek uni qayta ishlash, uzatish va chiqarishni tashkil qilish uchun qurilmalar; ma’lumotlarni uzatish qurilmalari; orgtexnika va boshqalar);

3) ma’lumotlardan foydalangan holda korxona xodimlarining o‘zaro hamkorligini baholashga imkon beruvchi tashkiliy yordamdan foydalanish darajasining ko‘rsatkichlari. Navbatdagi bosqichda dissertatsiya ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning sanoat sohasini rivojlanish darajasiga quyidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’sirini baholashga harakat qilamiz:

1-rasm.Iqtisodiyotning sanoat sohasini rivojlanish darajasiga makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’sirini baholash.

Tadqiqotda mamlakatimiz iqtisodiyotining sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga yuqorida keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning (omillar) ta’sirini korrelyatsiya-regressiya tahlili asosida baholashga harakat qilindi. Korrelyatsiya tahlili – tanlangan o‘zgaruvchan iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida bog‘liqlik zichligini belgilashning miqdoriy uslubi, regressiya tahlili - o‘zgaruvchan iqtisodiy 92 ko‘rsatkichlar o‘rtasida bog‘liqlikning matematik funksiya orqali ifodalashning miqdoriy uslubi hisoblanadi.

1-jadval. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi unga ta’sir etuvchi omillar bog‘liqlik darajasini regressiya tahlili

Omil hisoblangan ko‘rsatkichlar	Natijaviy ko‘rsatkich	Korrelatsiya koeffitsienti	Regressiya tenglamasi
Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya xizmatlari hajmi	Sanoat tarmog‘ida mahsulot ishlab chiqarish hajmi	0,984	Yx = 40,889 + 20,925 * X
Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi	0,963	Yx = –23,579 + 12,054 * X	
AKT sohasida innovatsiyalar uchun xarajatlar	0,862	Y = 36,974 + 33,363 * X	
Bajarilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi	0,984	Yx = 35,867 + 316,198 * X	

Mamlakatimizda iqtisodiyotning sanoat tarmog‘ida ishlab chiqirilgan mahsulotlar hajmiga yuqorida keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning (omillar) ta’sirini korrelyatsiya-regressiya tahlili asosida baholashga harakat qilgan. Korrelyatsiya tahlili – tanlangan o‘zgaruvchan iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida bog‘liqlik zichligini belgilashning miqdoriy uslubi, regressiya tahlili - o‘zgaruvchan iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida bog‘liqlikning matematik funksiya orqali ifodalashning miqdoriy uslubi hisoblanadi. iqtisodiyotning sanoat sohasini rivojlanish darajasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini tavsiflovchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’sirini baholash jarayonlarini tadqiq etish algoritmi ishlab chiqildi (1-rasm). Korrelyatsiya-regressiya tahlili umumlashgan natijalari aks ettirilgan. Jadvalda keltirilgan korrelyatsiya-regressiya tahlili natijalarini o‘rganar ekanmiz, keltirilgan barcha ko‘rsatkichlar bilan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqirish hajmlari o‘rtasida bog‘liqlikning zichlik darajasini ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsienti yuqori (0,862-0,994 oralig‘ida) hamda barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ijobiy miqdorga ega. Bu keltirilgan omil ko‘rsatkichlar bilan natijaviy ko‘rsatkich o‘rtasida yuqori darajada ishonchli bog‘liqlik mavjud ekanligidan dalolat bermoqda. Demak, iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya xizmatlari hajmi, ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi, innovatsiyalar uchun harajatlar hamda bajarilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi ko‘rsatkichlari mamlakatimizda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish makroiqtisodiy ko‘rsatkichiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan.

Iqtisodiyotda mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishish sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham zamin yaratadi. Shuningdek, amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijasida ushbu ko‘rsatkichlar bilan mamlakatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari o‘rtasida bog‘liqlikning matematik funksiya orqali ifodalanishining regressiya tenglamalari (1-jadval) ishlab chiqildi. Tadqiqotlar jarayonining navbatdagi bosqichida “iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya xizmatlari hajmi, AKT sohasida ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi, innovatsiyalar uchun xarajatlar hamda bajarilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi” kabi omil ko‘rsatkichlar orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini prognozlashtirish imkoni beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zaynutdinov Sh.N. va boshqalar. Menejment: Darslik / Sh.N. Zaynutdinov, Shermuxamedov, I.Murakaev. - T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005,
2. Aripov A.N., Iminov T.K. «O‘zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi menejmenti masalalari» Monografiya -T.: Fan va texnologiya, 2005.A.T.. - 240 b.
3. Abdullaev M.K. “Korxona boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarining tadqiqi ”diss. avtoreferati. 2019y. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: TGEU, 2010, - 256 bet.
4. Abdukarimov I.T. va boshqalar Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2009.

УЧЕТ И МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ В ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Атабаева Замирахон Абдужалиловна
Старший преподаватель кафедры
«Бухгалтерский учёт и аудит»
Ферганский государственный технический университет.
Email: z.atabaeva@ferpi.uz

Аннотация: Основной целью статьи является правильная организация учета и методов определения себестоимости готовой продукции в хозяйствующих субъектах республики Узбекистан. В данной статье мы подробно разберемся, как правильно вести учет и методов определения себестоимости готовой продукции в хозяйствующих субъектах республики Узбекистан в бухгалтерском учете на основе нормативных документов республики Узбекистан.

Ключевые слова: готовая продукция, затраты, себестоимость, основное производство, вспомогательное производство, нормативная себестоимость, простой метод, нормативный метод, позаказный метод, попередельный метод.

Annotatsiya: Maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etish va tayyor mahsulot tannarxini aniqlash usullaridan iborat. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy hujjatlari asosida buxgalteriya hisobida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tayyor mahsulot tannarxini aniqlash usullari va hisobini qanday to‘g‘ri yuritish kerakligi batafsil ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tayyor mahsulot, xarajatlar, tannarx, birlamchi ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, standart tannarx, oddiy usul, standart usul, ish-buyurtma usuli, jarayon usuli.

Abstract: The main objective of the article is the correct organization of accounting and methods for determining the cost of finished products in economic entities of the Republic of Uzbekistan. In this article, we will examine in detail how to properly keep records and methods for determining the cost of finished products in business entities of the Republic of Uzbekistan in accounting based on regulatory documents of the Republic of Uzbekistan.

Key words: finished goods, costs, cost price, primary production, auxiliary production, standard cost price, simple method, standard method, job-order method, process method.

ВВЕДЕНИЕ

Организация документооборота по учету готовой продукции, то есть определение перечня первичных документов, формы этих документов, порядок их оформления, передачи на исполнение и т.д., определяются учетной политикой предприятия (НСБУ № 1).

Передача готовой продукции на склад оформляется приемо-сдаточной накладной, актом приемки готовой продукции, ведомостью сдачи продукции, в которых указываются номер цеха, выпустившего продукцию, и номер склада, ее получившего. Указанные документы должны содержать:

- наименование и номенклатурный номер изделий;
- количество изделий, передаваемых на склад;

- учетную цену продукции и общую сумму.

Приемо-сдаточная накладная подписывается начальником цеха-сдатчика, кладовщиком и отделом технического контроля.

На складах учет готовой продукции ведут в карточках складского учета (по аналогии с учетом материалов). В конце месяца остатки, выведенные в карточках, заведующий складом переносит в книгу остатков готовой продукции. Документы по приходу и расходу готовой продукции вместе с реестрами сдачи документов поступают в бухгалтерию. [5,6].

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Изучив литературные источники по мнению немецкого ученого А.Калмеса, «Калькуляция используется для целей: снижения себестоимости, определения продажной цены и оценки продукции в текущем учете». Русские ученые Н.А. Блатов, Р.Я. Вейцман, А.П. Рудановский и А.М.Галаган весьма тщательно выяснили необходимость определения стоимости. По их мнению, «производственная калькуляция обеспечивает:

1) изучение состава всех факторов, формирующих фактическую себестоимость произведенной продукции;

2) постоянное выполнение задач по снижению себестоимости продукции;

контроль;

3) предоставляет всю необходимую информацию для планирования затрат;

4) располагает информацией для определения отпускной цены продукции;

5) определяет финансовые результаты деятельности предприятия или производственного цеха;

6) выявляет и устраняет негативные ситуации в управлении и организации производственного процесса.

По мнению Б.А. Хасанова, Р.О. Холбекова и других учёных, себестоимость в каждом субъекте это выбор метода учёта, основанный на характеристиках субъекта [11].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В процессе проведения исследования применялись общенаучные методы познания, приемы сравнительного анализа, систематизации и обобщения информации.

Анализ и обсуждение результатов

На основании приходных документов, поступивших со складов, в бухгалтерии составляют ведомость выпуска готовой продукции. В которой указывают наименование, учетную цену единицы и всей продукции. В конце месяца после составления калькуляций в ведомости проставляют фактическую себестоимость всей продукции и определяют разницу между фактической себестоимостью и стоимостью по учетным ценам. На основании ведомости выпуска готовой продукции дебетуют счет 2810 “Готовая продукция на складе” и кредитуют счет 2010 “Основное производство”.

При отпуске со склада заполняются ведомости отгрузки и реализации Товарно-материальных запасов.

Отгрузка (отпуск) продукции покупателям производится на основании накладной, счета-фактуры.

Готовая продукция учитывается по фактическим затратам, связанным с ее изготовлением (по фактической производственной себестоимости). Все производственные затраты за отчетный период включается в себестоимость всей выработанной продукции. Себестоимость единицы продукции рассчитывается делением суммы производственных затрат на общее количество единиц произведенной продукции.

Затраты на производство продукции включают в себя прямые и косвенные, переменные и постоянные производственные расходы.

Прямые затраты - это затраты, непосредственно связанные с производством единицы продукции, такие как:

- производственные материальные затраты;
- расходы на оплату труда основных производственных рабочих;
- отчисления на социальное страхование, относящиеся к производству.

Эти затраты являются переменными, так как их размер непосредственно связан с изменением объема производства.

Косвенные затраты - это затраты производственного назначения, связанные с обслуживанием производственного процесса, такие как повременная заработная плата вспомогательных рабочих, амортизация производственных основных средств, содержание, текущий и капитальный ремонт

производственных основных средств и другие затраты, которые остаются относительно постоянными, независимо от изменения объема продукции.

Готовая продукция приходуется по дебету счета 2810 “Готовая продукция на складе” по фактической производственной себестоимости в корреспонденции со счетами учета затрат [6].

Таблица 1. Оприходование готовой продукции по фактической производственной себестоимости

Дебет	Кредит
2810 “Готовая продукция на складе”	2010 “Основное производство”, 2310 “Вспомогательное производство”, 2710 “Обслуживающие хозяйства”

Готовая продукция, переданная на выставку и на продажу по договорам комиссии и консигнации, отражается на счетах 2820 “Готовая продукция на выставке” и 2830 “Готовая продукция, переданная на комиссию” по фактической производственной себестоимости [6] .

Таблица 2. Передача готовой продукции на выставку и для реализации по договорам комиссии

Дебет	Кредит
2820 “Готовая продукция на выставке”, 2830 “Готовая продукция, переданная на комиссию”	2810 “Готовая продукция на складе”

Учет готовой продукции по фактической производственной себестоимости.

Предприятие выпускает аксессуары. Расходы основного производства на выпуск партии аксессуаров составили 155 400 тыс. сум, включая расходы на материалы 105 000 тыс. сум, заработная плата рабочих и социальный налог - 50 400 тыс. сум. Отдельные работы выполняет вспомогательное производство. Его расходы по этой партии аксессуаров составили 44 800 тыс. сум.

Фактическая себестоимость аксессуаров составит

105 000+50 400+44 800=200 200 тыс. сум, где

105 000 тыс. сум - стоимость материалов, использованных в производстве,

50 400 тыс. сум - заработная плата рабочих с соцналогом;

44 800 тыс. сум - затраты вспомогательного производства.

Затраты сначала отражаются по месту возникновения (основное и вспомогательное производство), а затем списываются на счет 2810 “Готовая продукция на складе”.

Таблица 3. Отражение хозяйственных операций по учёту затрат и готовой продукции

№	Содержание хозяйственной операции	Сумма тыс. сум	Корреспонденция счетов		Подтверждающие документы
			Дебет	Кредит	
1.	Отражены расходы на материалы	105000	2010	1010	Лимитно - заборная карта, требование-накладная
2.	Отражены расходы на заработную плату с отчислениями рабочих основного производства	45000	2010	6710	Ведомость начисления заработной платы
	Отражены расходы отчислений в государственные целевые фонды, относимые на затраты основного производства	5400	2010	6520	Суммы отчислений в государственные целевые фонды, относимые на затраты
3.	Отражены расходы вспомогательного производства	40000	2310	6710	Ведомость начисления заработной платы
4.	Отражены расходы вспомогательного производства	4800	2310	6520	Суммы отчислений в государственные целевые фонды, относимые на затраты
5.	Включаются в себестоимость готовой продукции расходы вспомогательного производства	44800	2010	2310	Расчет бухгалтерии
6.	Отражается передача готовой продукции на склад	200200	2810	2010	Приходный ордер, карточка учета материалов

Готовая продукция приходуется по производственной себестоимости. В производственную себестоимость готовой продукции включаются затраты, непосредственно связанные с ее производством согласно технологии и организации производства (п. 1 Положения о составе затрат, утв. Постановлением КМ РУз от 05.02.1999 г. № 54) [4].

Затраты, образующие производственную себестоимость готовой продукции, группируются по следующим элементам:

- производственные материальные затраты (за вычетом стоимости возвратных отходов);
- затраты на оплату труда, связанные с производством;
- расходы на социальное страхование, относящиеся к производству;
- амортизация основных средств и нематериальных активов производственного назначения;
- прочие затраты производственного характера (с 30.06.2020 г. - п. 35 НСБУ № 4, рег. МЮ 30.06.2020 г. № 3259, до 30.06.2020 г. - п. 28 НСБУ № 4, рег. МЮ 17.07.2006 г. № 1595).

К прочим затратам относятся и расходы на обязательную сертификацию (п. 1.5.7 раздела Б Положения о составе затрат). С 1 мая 2021 г. перечень продукции, подлежащей обязательной технической экспертизе соответствия нормативным требованиям, установлен Постановлением КМ РУз от 30.01.2021 г. № 43 (с 16.11.2021 г. перечень сокращен Постановлением КМ РУз от 16.11.2021 г. № 683). Постановлением № 43 также утверждены перечни:

продукции и отходов, подлежащих обязательной экологической сертификации;

продукции, находящейся под надзором государственной ветеринарной службы;

продукции, соответствующей санитарно-эпидемиологическому заключению. Постановлением КМ РУз от 16.11.2021 г. № 683 данный перечень сокращен.

До 01.05.2021 года перечень продукции, подлежащей обязательной сертификации, был определен Постановлением КМ РУз “О дополнительных мерах по совершенствованию процедур сертификации и внедрения систем менеджмента качества” от 28.04.2011 г. № 122.

Следует отметить, что с 1 января 2023 года вводится порядок обязательного отражения идентификационного кода продукции (ИКПУ) при ее сертификации (абз. 6 п. 4 Постановления КМ РУз от 28.04.2021 г. № 249, введен Постановлением КМ РУз от 22.08.2022 г. № 471).

11. Christ, M., Gunn, S., & Zamir, O. (2024). Undetectable Watermarks for Language Models. PMLR 247. (ArXiv 2023 version). Proceedings of Machine Learning Research+1
12. “Impossibility of Strong Watermarking for Generative Models.” (2025). arXiv:2311.04378v4. arXiv
13. PAN 2024 Organizers. (2024). Overview of PAN 2024: Multi-Author Writing Style Analysis, AI Text Verification. CLEF 2024 Overview. dbis-informatik.uibk.ac.at
14. Ars Technica. (2023, Jul 26). OpenAI discontinues its AI writing detector due to low accuracy (news report). Ars Technica
15. Dathathri, S., et al. (2024). Scalable watermarking for identifying large language model-generated text (SynthID-Text). Nature. Nature
16. Cheng, Y., et al. (2025). Revealing Weaknesses in Text Watermarking Through Self-Play Paraphrasing Attacks. arXiv:2505.05190. (Robustness evaluation of recent watermarking algorithms).

17. A Survey on LLM-Generated Text Detection. Computational Linguistics (2025). Systematic review of detection paradigms and evaluation pitfalls. MIT Press Direct
18. Valiaiev, D., et al. (2024). Detection of Machine-Generated Text: Literature Survey. arXiv:2402.01642. arXiv
19. Yang, Z., et al. (2025). A comprehensive survey on recent advances in AI-generated text detection. Expert Systems with Applications. ScienceDirect
20. PAN@CLEF (2024). Voight-Kampff Generative AI Authorship Verification Task (builder–breaker design). PAN
21. PAN Organizers (2024). Overview of PAN 2024: Multi-Author Writing Style Analysis, … CLEF Working Notes (CEUR-WS Vol-3740). Databases and Information Systems+1
22. Dathathri, S., et al. (2024). Scalable watermarking for identifying large language model-generated text (SynthID-Text). Nature. Nature
23. DeepMind (2024–2025). SynthID (documentation and overview). Google DeepMind
24. Nature News (2024). Google unveils invisible ‘watermark’ for AI-generated text (context and limitations of SynthID-Text). Nature
25. Khandelwal, A., et al. (2025). Watermarking Needs Input Repetition Masking. arXiv:2504.12229. (On watermark mimicry/erosion via linguistic adaptation.) arXiv
26. Liang, W., et al. (2023). GPT detectors are biased against non-native English writers. Patterns. ScienceDirect
27. Stanford HAI (2023). AI-Detectors Biased Against Non-Native English Writers (research summary). Stanford HAI
28. Axios (2024). Teachers still can’t trust AI text checkers (field reliability concerns). Axios
29. Campos, M. M., et al. (2024). Conformal Prediction for Natural Language Processing: A Survey. TACL. ACL Anthology+1
30. EMNLP 2024 Program. Accepted TACL Papers (listing confirms CP-for-NLP survey).
31. Abdullaev Munis Kurbonovich, & Kungratov Ilmurod Kuzibay ugli. (2025). The Importance of Data Science in the Digital Transformation of the Uzbekistan Economy: Empirical Analysis and Scientific Approaches. Economics and Innovative Technologies, 13(1), 83–90. https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss1/645
32. Digital Transformation and Artificial Intelligence in Uzbekistan: Challenges, Innovations, and Future Trends. (2024). DTAI – 2024, 1(DTAI). https://dtai.tsue.uz/index.php/DTAI2024/article/view/314
33. Doniyor Khoshimov, & Ilmurod Kungratov Kuzibay ugli. (2025). Integrating Data Science into Innovative Approaches to Working Capital Management for Enhancing Financial Stability in Enterprises. Innovation Science and Technology, 1(6), 68–75. https://doi.org/10.55439/IST/vol1_iss6/179

IJTIMOIY SOHADA SUN’IY INTELLEKT

Qurbonboyev Abdulla Mansur o‘g‘li
TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasi assistenti
Email: a.qurbonboyev@tsue.uz
Orcid: https://orcid.org/0009-0008-7660-4456

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy sohada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari statistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya va davlat boshqaruvi kabi sohalarda qo‘llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar empirik ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar (YUNESKO, IHTT, BMT) va milliy statistika organlarining ochiq ma’lumotlari asosida trend tahlili, qo‘llandi. Olingan natijalar ijtimoiy samaradorlikni oshirishda SInıng ahamiyatini ko‘rsatib, ijtimoiy adolat, raqamli tenglik va mehnat bozoridagi transformatsiyalarni baholash imkonini berdi. Shuningdek, maqolada SI texnologiyalarini joriy etishning statistik monitoring tizimini shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ijtimoiy soha, statistika, trend tahlili, raqamli tenglik, mehnat bozori transformatsiyasi, ta’lim, inklyuziya, sog‘likni saqlash.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of applying artificial intelligence (AI) technologies in the social sphere based on a statistical approach. Using empirical data, the study examines socio-economic changes resulting from the implementation of artificial intelligence in such areas as education, healthcare, employment, social protection, and public administration. The research employs trend analysis based on open data from international organizations (UNESCO, OECD, UN) and national statistical agencies. The obtained results highlight the importance of AI in enhancing social efficiency and provide an opportunity to assess issues of social justice, digital equality, and labor market transformation. In addition, the article develops proposals and recommendations for the formation of a statistical monitoring system for the implementation of AI technologies.

Key words: artificial intelligence, social sphere, statistics, trend analysis, digital equality, labor market transformation, education, inclusion, healthcare.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в социальной сфере на основе статистического подхода. На основе эмпирических данных исследуются социально-экономические изменения, возникающие в результате использования искусственного интеллекта в таких областях, как образование, здравоохранение, занятость, социальная защита и государственное управление. В исследовании применен трендовый анализ на основе открытых данных международных организаций (ЮНЕСКО, ОЭСР, ООН) и национальных статистических органов. Полученные результаты демонстрируют значимость ИИ в повышении социальной эффективности, а также дают возможность оценить вопросы социальной справедливости, цифрового равенства и трансформации рынка труда. Кроме того, в статье разработаны предложения и рекомендации по формированию системы статистического мониторинга внедрения технологий ИИ.

Ключевые слова: искусственный интеллект, социальная сфера, статистика, трендовый анализ, цифровое равенство, трансформация рынка труда, образование, инклюзия, здравоохранение.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari global miqyosda ilmiy-amaliy muhokamalarning markaziga aylandi. Avval ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarda qo‘llanilgan SI, bugungi kunda ijtimoiy sohada ham chuqur ildiz otmoqda. Ta’lim sifati monitoringi, sog‘liqni saqlash tizimida diagnostika, bandlik va mehnat bozorida avtomatlashtirilgan tahlil, davlat boshqaruvida fuqarolarga xizmat ko‘rsatishning raqamli transformatsiyasi — bularning barchasi SI texnologiyalarining bevosita samarasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Biroq ijtimoiy sohada SI joriy etilishi faqat texnologik rivojlanish emas, balki keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni ham yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, u samaradorlik, tezkorlik va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni ta’minlasa, boshqa tomondan, raqamli tenglik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va mehnat bozoridagi kasbiy transformatsiyalar kabi dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Statistik yondashuv ushbu jarayonlarning miqyosini, dinamikasini va ijtimoiy ta’sirini ilmiy asosda o‘lchash imkonini beradi. Ayniqsa, trend tahlili, prognozlash modellari va komparativ statistik usullar orqali SI joriy etilishining natijalarini hududlar, ijtimoiy guruhlar va vaqt kesimida qiyoslash mumkin.

Shu boisdan ushbu maqolaning asosiy maqsadi — ijtimoiy sohada SI qo‘llanilishining statistik tahlilini amalga oshirish, ijobiy natijalarini hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy xavflarni ilmiy asosda baholash va kelgusida samarali monitoring mexanizmlarini ishlab chiqishga ilmiy hissa qo‘shishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy sohada sun’iy intellekt (SI) qo‘llanilishiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. G‘arb tadqiqotchilari asosan SI texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy tenglikka ta’sirini empirik ma’lumotlar asosida baholagan bo‘lsa, Osiyo va rivojlanayotgan davlatlarda ilmiy ishlar ko‘proq SIning ta’lim va sog‘liqni saqlashdagi qo‘llanilishiga yo‘naltirilgan.

So‘nggi yillarda ijtimoiy sohada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim, sog‘liqni saqlash, adolat va raqamli tenglik kabi aspektlarga ta’siri keng tadqiq etilmoqda. Quyida ushbu ilmiy adabiyotlarning asosiy yondashuvlari, natijalari va bo‘shliqlari manbalar bilan birga qisqacha tahlil qilinadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti yaqinlarda ta’limda SI texnologiyalarining tenglik va inklyuziya (equity and inclusion) jihatlarini o‘rganadigan hisobot tayyorlagan. Ushbu huquqiy va amaliy jihatlar, SI vositalari o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ta’lim muassasalarining infratuzilmasi va o‘qituvchilarning malaka darajasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi tahlil qilingan. [1]. Shuningdek, IHTT ta’limda raqamli inklyuziya (digital inclusion) masalasini alohida ko‘targan. Internetga ulanish, qurilmalar mavjudligi, raqamli savodxonlik va o‘qituvchilarning malakasi kabi omillar o‘quvchilarning SI yordamida yaratilgan o‘quv imkoniyatlaridan foydalanishida muhim rol o‘ynaydi. [2].

Nature nashrida chop etilgan “A systematic review and meta-analysis of diagnostic performance” maqolasida generativ SI modellarining diagnostik vazifalarida ishlatilishi tahlil qilingan. 83 ta tadqiqotni o‘z ichiga olgan meta-tahlil natijasiga ko‘ra, SI modellarining umumiy diagnostik aniqligi ≈ 52.1% ni tashkil etadi. Ushbu modellar odatda shifokorlar yoki mutaxassislarga nisbatan farqli natijalar ko‘rsatgan, xususan ekspert shifokorlar bilan solishtirganda kamroq aniqlik ko‘rsatilgan. [3].

2024-yil 14-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori (PQ-358) orqali “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” qabul qilingan. Strategiya SIni milliy iqtisodiyot va davlat boshqaruvida integratsiya qilish, kadrlar tayyorlash va “big data” infratuzilmasini shakllantirishga oid maqsad va chora-tadbirlarni belgilaydi. Ushbu rasmiy qaror mamlakatda SI siyosatini tizimli rivojlantirish nuqtai nazaridan asosiy manba hisoblanadi. [4].

BMT va boshqa xalqaro hamkorlar tomonidan tayyorlangan O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyoti va SI imkoniyatlari haqidagi hisobotlar mamlakatning SI-ga tayyorligi, raqamli inklyuziya va iqtisodiy istiqbollarini tahlil qiladi. BMT hisoboti mamlakatning SI-tayyorgarlik indeksidagi yutuqlar, sektorlar bo‘yicha strategik maqsadlar va investitsiya ehtiyojlarini ko‘rsatadi. Jahon banki tomonidan amalga oshirilayotgan “Digital Inclusion” loyihasi esa raqamli inklyuziya va ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali SIning ijtimoiy ta’sirini yumshatish strategiyalarini muhokama qiladi. Bu manbalar Respublikamizda SI siyosatini baholash va lokal monitoring mexanizmlarini ishlab chiqishda zarur empirika beradi. [5].

2025-yil boshidan boshlab mamlakatimizda AIga oid qonunchilik tashabbuslari kuchaymoqda: parlamentda SI to‘g‘risidagi birinchi qonun loyihasi muhokamadan o‘tayotgani haqida xabarlar mavjud bo‘lib, unda axloqiy tamoyillar, ma’lumotlarni himoya qilish va javobgarlik masalalari ko‘tarilgan. Bu jarayonlar mamlakatda SI amaliyotini tartibga soluvchi institutlar va audit mexanizmlarining paydo bo‘lishiga signal beradi. [6].

Xulosa qilib aytganda, barcha manbalar generativ va an’anaviy SI modellari va ularning diagnostik, baholash yoki avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishdagi samaradorligi bo‘yicha ma’lumot beradi, lekin ko‘pchilik tadqiqotlarda lokal kontekst (masalan, O‘zbekistonda, Markaziy Osiyoda) bo‘yicha statistik ma’lumotlar yetishmaydi.

Etik va huquqiy aspektlar, ayniqsa shaxsiy ma’lumotlar, algoritmik adolat (bias), hamda SI qarorlari shaffofligi bo‘yicha empirika kam.

Bo‘linish (raqamli yoki infratuzilmaviy) va malaka farqlari (o‘qituvchilar, sog‘liqni saqlash xodimlari) ta’siri haqida qiyosiy statistik modellar kamroq samara bergan.

Yuqoridagilardan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasini kompleks statistik tahlil qilish, ularning jamiyatdagi adolat, barqarorlik va farovonlikka ta’sirini baholash masalalari hanuz to‘liq o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy sohada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari statistik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Tahlil uchun xalqaro tashkilotlar — YUNESKO, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ochiq statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, Jahon banki, DataReportal va ilg‘or ilmiy nashrlar (masalan, Nature) tomonidan e’lon qilingan hisobot va maqolalardan ham foydalanildi.

Trend tahlili orqali SI texnologiyalarining ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va raqamli tenglik kabi sohalardagi rivojlanish dinamikasi o‘rganildi.

Qiyosiy-statistik tahlil yordamida milliy va xalqaro ma’lumotlar bazalari solishtirildi, tafovutlar sabablari aniqlashtirildi.

Meta-tahlil yondashuvi sog‘liqni saqlash sohasida SI modellarining diagnostik samaradorligini baholash uchun qo‘llanildi.

Kontent-tahlil orqali normativ-huquqiy hujjatlar (jumladan, PQ-358 qarori) hamda xalqaro strategik hisobotlarning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilindi.

Ma’lumotlar turli manbalardan olingani bois metodologik tafovutlar kuzatildi. Ayrim hollarda hududiy va tarmoq kesimidagi statistik ma’lumotlarning to‘liqligi yetarli emasligi natijalarni umumlashtirish jarayonida cheklovlarga sabab bo‘ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy va xalqaro manbalardan olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt (SI)ning ijtimoiy sohalarda joriy etilishi ijobiy natijalar bilan birga, ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

1. Milliy siyosat va strategik asoslar

2024-yil 14-oktabrda qabul qilingan PQ-358 qarori bilan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlandi. Ushbu hujjat mamlakatda SI joriy etilishi uchun huquqiy, institutsional va monitoring asosni yaratadi. Mazkur strategiya xalqaro tajriba bilan uyg‘un bo‘lib, Mamlakatimizning raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy xizmatlarda yangi bosqichga o‘tishini ta’minlashi kutilmoqda.

2. Raqamli infratuzilma va inklyuziya darajasi

Jahon banki tomonidan 2023-yilda tasdiqlangan “Digital Inclusion Project” doirasida O‘zbekistonga 50 million AQSH dollari miqdorida imtiyozli qarz ajratildi. Bu loyiha raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, IT sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududiy va gender tengsizliklarni kamaytirishga yo‘naltirilgan. Shu jihatdan, xalqaro moliyaviy institutlar qo‘llovi O‘zbekistonda SI asosidagi ijtimoiy xizmatlarni kengaytirishning muhim omili sifatida baholanadi. [7]

3. Internet qamrovi va hududiy tafovutlar

SI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun internet qamrovi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Milliy statistika (Stat.uz, 2024) ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat bo‘yicha 10 yosh va undan katta aholining 92,7 foizi internetdan foydalangan. [8]



1-rasm. O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchi 10 yosh va undan katta yoshdagi aholi ulushining yillik dinamikasi (2021–2024)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

Shu bilan birga, xalqaro DataReportal hisoboti (2024) ushbu ko‘rsatkichni 83,3 foiz deb qayd etgan. [9] Bunday tafovut milliy va xalqaro statistik metodologiyalardagi farqlar bilan izohlanadi. Har ikki manba ma’lumotlari umumlashtirilganda, O‘zbekistonda internet qamrovi tez o‘sib borayotganini, biroq hududlar kesimida farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Toshkent shahri va yirik markazlarda internetdan foydalanish 90 foizdan yuqori bo‘lsa, chekka hududlarda bu ko‘rsatkich ancha pastligicha qolmoqda. Demak, SI joriy etilishi raqamli bo‘linishni kuchaytirishi mumkin.

4. Sog‘liqni saqlashda SI imkoniyatlari va cheklovlari

Tibbiyotda SI qo‘llanilishi diagnostika sifatini oshirishda muhim imkoniyatlar yaratmoqda. 2025-yilda e’lon qilingan tizimli sharh va meta-tahlil natijalariga ko‘ra, generativ SI modellari klinik diagnostikada o‘rtacha 52,1 foiz aniqlik ko‘rsatgan. [10] Bu natija shuni anglatadiki, SI texnologiyalari mutaxassis shifokorlarning ishini to‘liq almashtira olmaydi, biroq qo‘shimcha yordamchi vosita sifatida diagnostika jarayonining samaradorligini oshirishda katta potensialga ega. Shu bilan birga, bemorlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va algoritmik xatoliklarni kamaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

5. Ta’lim va tenglik masalalari

IHTT va YUNESKO hisobotlari SIning ta’limdagi afzalliklari bilan birga tenglikka tahdid soluvchi jihatlarini ham ta’kidlamoqda. Yuqori texnologiyali muassasalar SI vositalaridan keng foydalanayotgan holda, resurslari cheklangan maktablarda esa bunday imkoniyatlar sustroq joriy etilmoqda. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kuchaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda joriy etilayotgan raqamli inklyuziya loyihalari SI texnologiyalaridan barcha ijtimoiy guruhlar teng foydalanishini ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. [11]

6. Umumiy natijalar va istiqbollar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda SI ijtimoiy sohalarda faol tatbiq etilmoqda va xalqaro hamkorlik tufayli moliyaviy hamda texnologik baza kengaymoqda. Biroq internet qamrovi va hududiy tafovutlar, sog‘liqni saqlashdagi aniqlik muammolari hamda ta’limdagi tengsizliklar SI imkoniyatlaridan samarali foydalanishga to‘siq bo‘lishi mumkin. Kelgusi yillarda SI texnologiyalarining ijtimoiy samaradorligini oshirish uchun statistik monitoring tizimlarini kuchaytirish, hududiy va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

XULOSA VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy sohada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi samaradorlikni oshirish bilan birga, yangi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan:

Normativ-huquqiy asoslar. 2024-yilda qabul qilingan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” mamlakatda SI rivojlanishi uchun institutsional va huquqiy zamin yaratdi. Bu strategiya xalqaro tajribaga uyg‘un holda ijtimoiy xizmatlarning raqamli transformatsiyasini jadallashtirishi kutilmoqda.

Raqamli infratuzilma va inklyuziya. Jahon banki hamda xalqaro moliyaviy institutlar ko‘magida amalga oshirilayotgan loyihalar O‘zbekistonda raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish va hududiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, internet qamrovi bo‘yicha milliy va xalqaro manbalar o‘rtasida tafovutlar mavjudligi metodologik yondashuvlar farqi bilan izohlanadi.

Sog‘liqni saqlash sohasida SI. Meta-tahlil natijalariga ko‘ra, SI modellarining diagnostik aniqligi mutaxassis shifokorlarning darajasidan past bo‘lsa-da, ular diagnostika jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida katta imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va algoritmik xatoliklarni kamaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim va tenglik masalalari. Xalqaro tashkilotlar (IHTT, YUNESKO) hisobotlari SI vositalarining ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari bilan birga, raqamli bo‘linishni chuqurlashtirishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Shu bois ta’lim tizimida SI texnologiyalarini joriy etishda raqamli inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta’minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

SI texnologiyalarining ijtimoiy samaradorligi, ularning raqamli tenglik, mehnat bozori transformatsiyasi va ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi roli tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, samarali natijalarga erishish uchun statistik monitoring tizimlarini takomillashtirish, hududlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish hamda inson kapitalini rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, sun’iy intellektning ijtimoiy sohalarda qo‘llanilishi O‘zbekistonda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq mazkur imkoniyatlardan keng foydalanish uchun davlat siyosati, xalqaro hamkorlik va statistik monitoring tizimlarining uyg‘unligi hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/08/the-potential-impact-of-artificial-intelligence-on-equity-and-inclusion-in-education_0d7e9e00/15df715b-en.pdf?utm_source
2. https://one.oecd.org/document/EDU/WKP%282023%2914/en/pdf?utm_source
3. https://www.nature.com/articles/s41746-025-01543-z?utm
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”
5. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_eng.pdf.
6. https://www.dentons.com/en/insights/articles/2025/may/6/first-ai-bill-reaches-uzbekistan-parliament
7. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/11/30/world-bank-to-support-uzbekistan-in-developing-the-digital-economy-and-creating-new-jobs-in-the-it-sector?
8. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/57845-o-zbekiston-respublikasida-internetdan-foydalanuvchi-10-yosh-va-undan-katta-yoshdagi-aholi-ulushi
9. https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan
10. https://www.nature.com/articles/s41746-025-01543-z?
11. OECD — Digital Education Outlook 2021 and The potential impact of AI on equity and inclusion in education (2024). OECD
12. UNESCO — Artificial intelligence in education resources and gender/digital inclusion materials.
13. stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.
14. imv.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
15. prezident.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning rasmiy sayti.
16. undp.org BMTning rasmiy web sayti

GASTRONOMIK TURIZMNING MAHALLIY IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Matyakupova Madina Quzibay qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi asisstenti
Email: m.matyakupova@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada gastronomik turizmning mahalliy iqtisodiyotga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalari gastronomik turizm orqali mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari va an’anaviy taomlarga bo‘lgan talabning oshishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi hamda kichik bizneslar faoliyatining kengayishi kuzatilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, gastronomik turizm mahalliy madaniyatni saqlash va targ‘ib qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Maqola doirasida gastronomik turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek uning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: gastronomik turizm, mahalliy iqtisodiyot, turizm rivojlanishi, mahalliy biznes, ish o‘rinlari, madaniy meros, oziq-ovqat mahsulotlari.

Abstract: This article examines the impact of gastronomic tourism on the local economy. The findings reveal that gastronomic tourism increases demand for local food products and traditional dishes, contributes to the creation of new jobs, and supports the expansion of small businesses. Moreover, gastronomic tourism plays an essential role in preserving and promoting local culture. The article analyzes the economic and social significance of gastronomic tourism as well as the necessary measures for its further development.

Key words: gastronomic tourism, local economy, tourism development, small business, job creation, cultural heritage, food products.

Аннотация: В данной статье изучено влияние гастрономического туризма на местную экономику. Результаты исследования показывают, что гастрономический туризм способствует росту спроса на местные продукты питания и традиционные блюда, созданию новых рабочих мест, а также расширению деятельности малого бизнеса. Кроме того, гастрономический туризм играет важную роль в сохранении и популяризации местной культуры. В рамках статьи проанализированы экономическое и социальное значение гастрономического туризма, а также меры, необходимые для его развития.

Ключевые слова: гастрономический туризм, местная экономика, развитие туризма, малый бизнес, рабочие места, культурное наследие, продукты питания.

KIRISH

Gastronomik turizm oxirgi yillarda butun dunyoda tez sur’atlarda rivojlanayotgan turizm yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu turizm turi sayyohlarga mahalliy taomlar, an’anaviy oshpazlik uslublari va mintaqaviy oziq-ovqat mahsulotlarini tatib ko‘rish imkonini beradi (Long, 2016). Bu jarayon nafaqat sayyohlik sohasini, balki mahalliy iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi (Hall & Mitchell, 2005). Oziq-ovqat mahsulotlari va gastronomik madaniyat sayyohlarning mintaqaga bo‘lgan qiziqishini oshirib, mahalliy bizneslarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Mamlakatimizda gastronomik turizmning rivojlanishi qishloq joylar va kichik shaharlar iqtisodiyotini jonlantirish uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Shu bois, ushbu maqolada gastronomik turizmning mahalliy iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi, uning iqtisodiy va ijtimoiy foydalari ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun O‘zbekistonning bir necha hududida gastronomik turizm bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Ma’lumotlar quyidagi manbalardan yig‘ildi:

Mahalliy turizm agentliklari va restoranlar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar,
Hududiy iqtisodiy statistikalar,
Sayyohlarning gastronomik yo‘nalishlarga bo‘lgan talabiga oid hisobotlar.

Sifat va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanilib, mahalliy iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar (daromadlar, ish o‘rinlari, biznes faoliyati) va gastronomik turizmning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari gastronomik turizmning quyidagi iqtisodiy ta’sirlarini ko‘rsatdi:

Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari va an’anaviy taomlarga bo‘lgan talab 35% ga oshdi, bu esa mahalliy fermerlar va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini sezilarli darajada ko‘paytirdi.

Oshxonalar va restoranlarda ish o‘rinlari 20% ga ko‘paydi, bu ayniqsa yoshlar va ayollar uchun yangi ish imkoniyatlarini yaratdi.

Mahalliy bizneslar, ayniqsa kichik oilaviy restoranlar va qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyati kengaydi.

Sayyohlikdan olingan daromadlar hudud iqtisodiyotiga qo‘shimcha investitsiyalar kiritilishiga imkon berdi, infratuzilma va xizmatlar sifatini oshirdi.

Gastronomik turizmning mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’siri ko‘plab tadqiqotlarda ham tasdiqlangan (Hjalager & Richards, 2002). Bu turizm turi nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishga ham xizmat qiladi. Mahalliy taomlar va oziq-ovqat mahsulotlari orqali hudud o‘ziga xosligini namoyon etadi, bu esa sayyohlarni yanada ko‘proq jalb qiladi.

Mahalliy aholining turizm sohasida malakasini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va marketing strategiyalarini rivojlantirish gastronomik turizmning barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va infratuzilma rivojlantirish bu sohani yanada rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Gastronomik turizm mahalliy iqtisodiyotning muhim omiliga aylangan. U mahalliy ishlab chiqaruvchilar va kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlaydi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi, madaniy merosni asrashga yordam beradi. Kelajakda gastronomik turizmni yanada rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligining kuchaytirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hall, C. M., & Mitchell, R. (2005). Gastronomic tourism. In N. Scott, R. Sharpley, & C. M. Hall (Eds.), Tourism and Development: Concepts and Issues (pp. 163-179). Channel View Publications.
2. Hjalager, A.-M., & Richards, G. (2002). Tourism and Gastronomy. Routledge.
3. Long, L. M. (2016). Culinary Tourism. University Press of Kentucky.
4. Sims, R. (2009). Food, place and authenticity: local food and the sustainable tourism experience. Journal of Sustainable Tourism, 17(3), 321-336.
5. Richards, G. (2015). Gastronomy: An essential ingredient in tourism production and consumption? In Tourism Management Perspectives, 1-9.

QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MASHINA-TRAKTOR AGREGATLARINI TANLASH VA KONFIGURATSIYA QILISHNING INNOVATSION YECHIMLARI

Xoliyarov Farhod Toshmuradovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
Email: f.xoliyarov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning innovatsion yechimlari yoritildi. Mashina-traktor agregatlarini (MTA) tanlash va konfiguratsiya qilishda traktorning texnik ko‘rsatkichlari hamda unga ulanadigan plug parametrlarini fasllar, tuproq holati va ekin turi kabi omillar asosida muvofiqlashtirish masalasi ko‘rib chiqildi. Taklif etilayotgan yechim sifatida mobil ilova konsepsiyasi ishlab chiqilib, u IoT sensorlari yoki fermer tomonidan kiritilgan ma’lumotlarga asoslanib, real vaqt rejimida optimal traktor va plug kombinatsiyasini tavsiya qiladi. Tajriba asosida traktor ot kuchi va MTA kombinatsiyasiga qarab eng samarali variant aniqlangan. Ushbu yondashuv yoqilg‘i sarfini kamaytiradi, vaqtni tejaydi va tuproq namligini saqlashga yordam beradi. Natijalar O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyasini raqamlashtirishning amaliy istiqbollarini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: mashina-traktor agregati, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi, innovatsion yechimlar.

Abstract: This article highlights innovative solutions for applying digital technologies in the mechanization of agriculture. The study examines the problem of optimizing the selection and configuration of machine-tractor aggregates (MTA) by matching the tractor’s technical characteristics and plow parameters with factors such as seasons, soil conditions, and crop types. As a proposed solution, a mobile application concept has been developed that, based on IoT sensor data or farmer input, recommends the optimal tractor and plow combination in real time. Experimental results identified the most efficient option depending on tractor horsepower and MTA configuration. This approach reduces fuel consumption, saves time, and helps preserve soil moisture. The findings define the practical prospects of digitalizing agricultural mechanization in the context of Uzbekistan.

Key words: machine-tractor aggregate, digitalization, digital technologies, agriculture, innovative solutions.

Аннотация: В данной статье освещены инновационные решения по применению цифровых технологий в процессе механизации сельского хозяйства. Рассмотрен вопрос согласования выбора и конфигурации машинно-тракторных агрегатов (МТА) на основе технических характеристик трактора и параметров плуга с учётом сезонов, состояния почвы и вида посевов. В качестве предлагаемого решения разработана концепция мобильного приложения, которое, опираясь на данные IoT-сенсоров или введённые фермером сведения, в режиме реального времени рекомендует оптимальную комбинацию трактора и плуга. На основе экспериментов определён наиболее эффективный вариант в зависимости от мощности трактора и комбинации МТА. Такой подход снижает расход топлива, экономит время и способствует сохранению влажности почвы. Полученные результаты определяют практические перспективы цифровизации механизации сельского хозяйства в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: машинно-тракторный агрегат, цифровизация, цифровые технологии, сельское хозяйство, инновационные решения.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lib, XXI asrda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu jarayonni jadallashtirish maqsadida qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF–6079-son Farmoni hamda “2020–2030 yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida PQ–5853-son qarori agrar sohada raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va mexanizatsiya jarayonlarini optimallashtirishni belgilab berdi.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi texnikasini yangilash, servis xizmatlarini rivojlantirish va mashina-traktor parkini samarali boshqarish masalalari alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mashina-traktor agregatlarining to‘g‘ri tanlanishi va konfiguratsiyasi tuproq unumdorligini saqlash, yoqilg‘i-energetik resurslarni tejash va vaqt xarajatlarini optimallashtirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Amaliyotda esa traktorlarning quvvati va MTAlarning ishchi parametrlarida nomutanosiblik kuzatiladi. Bu esa texnologik jarayonlarning samaradorligini pasaytirib, hosildorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, MTA konfiguratsiyasini tanlash jarayoni ko‘p mezonli qaror qabul qilish masalasi bo‘lib, u yer maydoni hajmi, tuproq zichligi, namlik darajasi, ekin turi va texnika parkining mavjud imkoniyatlariga bog‘liq. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni - IoT sensorlarini, mobil ilovalarni, katta ma’lumotlar tahlilini va sun’iy intellekt algoritmlarini - integratsiya qilish orqali qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish hamda optimallashtirish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb vazifadir.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi sharoitida mashina-traktor agregatlarini tanlash va konfiguratsiya qilishda raqamli texnologiyalar asosida innovatsion yondashuvni ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy asosda baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar ushbu yo‘nalishdagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan yechimlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Qishloq xo‘jaligida mashina-traktor agregatlarini tanlash va konfiguratsiya qilish masalasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning markazida bo‘lib, bu borada turli mamlakatlarda samarali metodlar ishlab chiqilgan. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-oktabrdagi PF-6096-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2020–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi”da raqamli texnologiyalarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu strategik hujjatda traktor va boshqa texnik vositalarga raqamli monitoring tizimlarini o‘rnatish orqali resurslar, xususan yoqilg‘i iste’molini nazorat qilish choralari qayd etilgan.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar asosan uchta asosiy blokka bo‘linadi:

traktor va qishloq xo‘jaligi texnikalarini tanlash metodologiyasi,

mashina-traktor parkini optimallashtirish,

raqamli texnologiyalar va algoritmik yondashuvlar orqali ekspluatatsion boshqaruv.

Traktor tanlash va ko‘p mezonli yondashuvlar Ayşegül Tuş Işık va Esra Aytaç Adalı traktor tanlash jarayonida ko‘p mezonli qaror qabul qilish metodlarini qo‘llab, oltita mezon (narx, quvvat, silindr soni, texnik xizmat ko‘rsatish, xavfsizlik, servis) asosida TOPSIS, COPRAS va EVAMIX usullarini taqqosladilar va samarali tanlov mexanizmini ishlab chiqdilar.

García-Alcaraz va hammualliflari esa AHP va TOPSIS usullarini integratsiyalash orqali gibrid yondashuv taklif qildi va traktor tanlashda mezonlarning og‘irliklarini aniq belgilashni ilmiy asosda isbotlab berdi.

Mashina-traktor parkini optimallashtirish Henning T. Søgaard va Claus G. Sørensen tomonidan ishlab chiqilgan model mashina-traktor parkini shakllantirishda GAMS dasturiy paketidan foydalanishni ko‘zda tutib, yangi va ishlatilgan texnikani birgalikda tanlashning iqtisodiy samaradorligini namoyish etdi.

Y. G. Artemev ko‘p mezonli qaror qabul qilishga asoslangan DBMS dasturiy platformasini ishlab chiqib, mashina-traktor parkini shakllantirish va boshqarishda kompleks yechim taklif qildi.

Marin Luzak, Elizabeth Sklar va Frederic Semet esa AF-VRP algoritmini ishlab chiqib, MTA ishlashida markazlashtirilgan va taqsimlangan boshqaruv modullarini taqqoslab chiqdi va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatdi.

Zamonaviy MCDM yondashuvlari va CRADIS metodi Puška va hammualliflari og‘ir traktorlarni baholashda CRADIS usulini qo‘llash orqali samarali reyting tizimini ishlab chiqdilar. Ular ko‘p mezonli qaror qabul qilish metodlari yordamida traktorlarni iqtisodiy va texnik mezonlarga ko‘ra baholab, amaliy natijalarga erishdilar.

Milliy ilmiy tadqiqotlarda ham ushbu yo‘nalishda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Zokirov T.A. qishloq xo‘jaligi texnikalarini raqamlashtirish metodologiyasini ishlab chiqdi.

Shu bilan birga, Xoliyorov I.Y. va Djumanov A.A. mashina-traktor agregatlarini chiziqli tenglamalar orqali baholash masalasini tahlil qilib, O‘zbekiston sharoitida traktor quvvati, tortish kuchi, unumdorlik va yoqilg‘i sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlikni matematik modellashtirish orqali ilmiy asoslab berdilar.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tadqiqotlarda asosan ko‘p mezonli qaror qabul qilish usullari, mashina-traktor parkini optimallashtirish modellaridan foydalanilmoqda, milliy ilmiy ishlarda esa raqamli texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirish va chiziqli tenglamalar orqali baholash yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Biroq ko‘pchilik tadqiqotlarda traktor va MTAni yagona tizim sifatida integratsiyalashgan holda baholash yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalar asosida innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mashina-traktor agregatlarini tanlash va konfiguratsiya qilish jarayonida ko‘p mezonli qaror qabul qilish metodlari va chiziqli matematik modellashtirishga asoslangan. Huquqiy asos – tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-son Farmoni va PQ–5853-son Qarorida belgilangan agrar sohada raqamlashtirish vazifalari bilan uyg‘unlashtirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agrar ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tahlillar xalqaro tashkilotlar, xususan, FAO ma’lumotlari, shuningdek, mamlakatimizda qabul qilingan asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va “2020–2030 yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi” asosida olib borildi.

Tahlilning asosiy maqsadi yoqilg‘i sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mexanizatsiyalashtirish jarayonida raqamlashtirish orqali iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarga erishishdan iborat.

Fermer xo‘jaliklari va klasterlar tahlili. O‘zbekistonda mavjud agroklasterlar va fermer xo‘jaliklari asosan traktorlarni egallagan bo‘lsada, ularga mos keluvchi plug va boshqa agregatlarning yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa texnik imkoniyatlar va real talab o‘rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Kichik dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa egalari esa ko‘pincha kapital yetishmasligi sababli yirik texnikani xarid qila olmaydi va asosan mexanizatsiya xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarga tayanadi. Ushbu holat mamlakatimizda mexanizatsiya xizmatlarini samarali tashkil etish zaruriyatini yanada yaqqol ko‘rsatmoqda.

Tuproq va fasllar bo‘yicha natijalar MCDM metodlari traktor va plug tanlashda iqtisodiy, texnik va agrotexnik mezonlarni hisobga olish uchun CRITIC, Entropy Weight, TOPSIS va CRADIS usullari qo‘llanilganida daladan olingan amaliy ma’lumotlarga ko‘ra, fasllarga qarab optimal traktor va MTA konfiguratsiyasi farqlandi:

Mazkur natijalar amaliy sharoitda resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi va texnikaning samarali yuklanishini ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalar orqali qo‘shimcha natijalarga erishildi. Natijada IoT sensorlari yordamida yig‘ilgan ma’lumotlar hisob-kitoblarning aniqligini oshirdi, chunki tuproq namligi va zichligi real vaqt rejimida o‘lchandi.

Mobil ilova prototipi foydalanuvchilarga ikki xil imkoniyatni taqdim etdi:

Sensor orqali avtomatik ma’lumot yig‘ish.

Qo‘lda parametrlarni kiritish.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ilova yordamida olingan tavsiyalar an’anaviy usullarga qaraganda 20–25% tezkor va aniqroq bo‘ldi.

Umumiy natijalar mashina-traktor agregatlarini tanlash va konfiguratsiya qilish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash quyidagi ustunliklarni ta’minladi:

Samaradorlikning sezilarli oshishi;

Yoqilg‘i va vaqt resurslarini tejash;

Fermer va klasterlar uchun texnika parkidan foydalanishni optimallashtirish;

Agrar ishlab chiqarishda iqtisodiy va ekologik barqarorlikka erishish.



1-rasm. AgroMTA mobil ilovasi interfeysi

Shunday qilib, natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida MTA konfiguratsiyasini tanlashda ilmiy modellar + raqamli texnologiyalar integratsiyasi eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mashina-traktor agregatlarini MTA tanlash va konfiguratsiya qilish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Chiziqli tenglamalar asosidagi matematik modellashtirish traktor quvvati, agregat parametrlari, tuproq zichligi va namlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga imkon berdi. IoT sensorlari va mobil ilova integratsiyasi orqali foydalanuvchi real vaqt rejimida tavsiyalar olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa dalada ish unumdorligini oshirish, yoqilg‘i sarfini kamaytirish va vaqtni tejashga yordam beradi. MTA konfiguratsiyasini tanlash ko‘p mezonli qaror qabul qilish masalasi bo‘lib, uni CRITIC, Entropy Weight, TOPSIS va CRADIS kabi metodlar asosida samarali hal qilish mumkin. Dala tajribalarida 180 ot kuchiga ega traktor va 4 korpusli MTA kombinatsiyasi samarali natijalar berdi. Mobil ilova foydalanuvchiga sensor orqali yoki qo‘lda ma’lumot kiritish imkonini berib, tavsiyalarni tezkor shaklda taqdim etadi. Servis markazlari va ehtiyot qismlar xaritasi integratsiyasi texnika ekspluatatsiyasi samaradorligini oshiradi.

Takliflar: Amaliyotga joriy etish – ishlab chiqilgan mobil ilova agroklasterlar, fermer xo‘jaliklari va mexanizatsiya xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarda sinov tariqasida qo‘llanishi lozim. Raqamli infratuzilma IoT sensorlari va sun’iy intellekt algoritmlarini keng tatbiq etish orqali daladan real vaqt ma’lumotlarini yig‘ish tizimini kuchaytirish tavsiya etiladi. Davlat dasturlari bilan integratsiya – ishlab chiqilgan yechimni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi 2020–2030” bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Ilovani rivojlantirish kelgusida ilovaga texnika parkini boshqarish, yoqilg‘i sarfi prognozi va texnik xizmat ko‘rsatish monitoringi kabi qo‘shimcha modullarni qo‘shish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF–6079-son Farmoni. 2020-yil https://lex.uz/ru/docs/-5030957
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2030 yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida” PQ–5853-son Qarori. 2019-yil. https://lex.uz/docs/-4567334
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5199-son Farmoni, 2017 yildagi https://lex.uz/uz/docs/-3371644

4. Işık A.T., Adalı E.A. A comparative study for the agricultural tractor selection problem // Decision Science Letters. – 2016. – Vol. 5. – P. 569–580. – DOI: 10.5267/j.dsl.2016.3.002. – URL: https://www.growingscience.com/dsl/Vol5/dsl_2016_10.pdf
5. García-Alcaraz J.L., Maldonado-Macías A.A., Hernández-Arellano J.L., Blanco-Fernández J., Jiménez-Macías E., Sáenz-Díez Muro J.C. Agricultural Tractor Selection: A Hybrid and Multi-Attribute Approach // Sustainability. – 2016. – Vol. 8, No. 2. – Article 157. – DOI: 10.3390/su8020157. – URL: https://www.mdpi.com/2071-1050/8/2/157
6. Søgaard H.T., Sørensen C.G. A model for optimal selection of machinery sizes within the farm machinery system // Biosystems Engineering. – 2004. – Vol. 89, No. 1. – P. 13–28. – DOI: 10.1016/j.biosystemseng.2004.05.004. – URL: https://www.researchgate.net/publication/280315932_A_Model_for_Optimal_Selection_of_Machinery_Sizes_within_the_Farm_Machinery_System
7. Xoliyorov I.Y., Djumanov A.A. Mashina-traktor agregatini chiziqli tenglamalar orqali baholash // International Scientific-Practical Conference Proceedings. – 2023. – P. https://doi.org/10.5281/zenodo.15284600
8. Artemev Y.G. Development of a DBMS-based program for multi-criteria optimization of machine-tractor fleet // [Journal/Conference]. – 2012. – URL: https://journals.indexcopernicus.com/api/file/viewByFileId/2338764
9. Luzak M., Sklar E., Semet F. AF-VRP based algorithm for coordination of agricultural machinery usage // [Conference proceedings]. – 2020. – URL: https://journals.indexcopernicus.com/api/file/viewByFileId/2338764
10. Puška A., Stojanović I., Maksimović M. Evaluation of agricultural machinery using multi-criteria decision analysis: CRADIS method in tractor selection // Sustainability. – 2022. – Vol. 14, No. 14. – Article 8675. – DOI: 10.3390/su14148675. – URL: https://www.mdpi.com/2071-1050/14/14/8675
11. Зокиров Т.А. Совершенствование методологии цифровизации сельскохозяйственной техники в Узбекистане: диссертация на соискание ученой степени PhD. – Ташкент: Ташкентский государственный аграрный университет, 2022.

MODA SANOATIDA SUN’IY INTELLEKTNING YANGI IMKONIYATLARI

Xalilova Nafisa Komilovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Marketing” kafedrasi assistenti
Email: nafisaxalilova470@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0005-2738-0095

Annotatsiya: Ushbu maqolada moda sanoatida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanishi va yangi imkoniyatlari tahlil qilinadi. SI yordamida dizayn jarayonlarini avtomatlashtirish, virtual fitting imkoniyatlarini rivojlantirish, iste’molchi xatti-harakatlarini prognoz qilish va shaxsiylashtirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarida samaradorlikni oshirish orqali resurslarni tejash ham muhim omil bo‘lib bormoqda. Tadqiqot sun’iy intellektning moda sanoatida barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, moda sanoati, dizayn, iste’molchi tajribasi, shaxsiylashtirilgan marketing, barqaror moda, virtual fitting.

Abstract: This article analyzes the opportunities of artificial intelligence technologies in the fashion industry. AI enables automation of design processes, development of virtual fitting, prediction of consumer behavior, and creation of personalized marketing strategies. Furthermore, the integration of AI improves efficiency in production and logistics while optimizing resource use. The study highlights the contribution of artificial intelligence to the sustainable development of the fashion industry.

Key words: Artificial intelligence, fashion industry, design, consumer experience, personalized marketing, sustainable fashion, virtual fitting.

Аннотация: В статье анализируются возможности применения технологий искусственного интеллекта в индустрии моды. Использование ИИ позволяет автоматизировать процессы дизайна, развивать виртуальные примерочные, прогнозировать поведение потребителей и создавать персонализированные маркетинговые стратегии. Кроме того, внедрение ИИ способствует повышению эффективности производства и логистики, а также оптимизации использования ресурсов. Исследование подчеркивает вклад искусственного интеллекта в устойчивое развитие модной индустрии.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, индустрия моды, дизайн, потребительский опыт, персонализированный маркетинг, устойчивая мода, виртуальная примерка.

KIRISH

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda va moda sanoati ham bundan mustasno emas. Moda bozori tezkor o‘zgarishlar, iste’molchi talablarining xilma-xilligi va global raqobat sharoitida sun’iy intellektning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda[1]. An’anaviy ishlab chiqarish va marketing yondashuvlari ko‘p hollarda bozor talabiga moslashishda sustlik qiladi, shu sababli SI texnologiyalari moda sanoatiga yangi imkoniyatlar olib kirmoqda.

Avvalo, SI yordamida dizayn jarayonlari avtomatlashtirilmoqda. Kompyuter algoritmlari va mashinani o‘rganish texnologiyalari dizaynerlarga yangi uslublar yaratishda, rang uyg‘unliklarini tanlashda va bozor talabiga mos kolleksiyalarni ishlab chiqishda yordam bermoqda[2]. Shuningdek, virtual fitting texnologiyalari xaridorlarga kiyimni onlayn tarzda “sinab ko‘rish” imkoniyatini beradi, bu esa nafaqat iste’molchi tajribasini oshiradi, balki qaytarib beriladigan mahsulotlar sonini kamaytiradi.

Bundan tashqari, SI asosidagi ma’lumotlar tahlili xaridorlarning xarid qilish xatti-harakatlarini prognoz qilish imkonini beradi. Bu esa kompaniyalarga shaxsiylashtirilgan marketing kampaniyalarini ishlab chiqish va iste’molchiga mos mahsulotlarni taqdim etishda yordam beradi. Ishlab chiqarish va logistika jarayonlarida esa SI resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Shunday qilib, sun’iy intellekt texnologiyalari moda sanoati uchun nafaqat texnologik yutuq, balki barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sifatli tahlil yondashuvi asosida olib borildi. Avvalo, sun’iy intellekt texnologiyalarining moda sanoatida qo‘llanishiga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o‘rganildi. Shuningdek, yirik moda brendlari — H&M, Zara, Nike va boshqa kompaniyalarning sun’iy intellekt asosida amalga oshirgan amaliy loyihalari “case study” usuli orqali tahlil qilindi. Ma’lumotlar tahlilida kontent tahlili, qiyosiy tahlil va deduktiv yondashuv qo‘llanildi. Shu orqali sun’iy intellektning dizayn, marketing, iste’molchi xulqini prognoz qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi roli nazariy va amaliy jihatdan yoritib berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sun’iy intellektning moda sanoatida qo‘llanishiga oid ilmiy adabiyotlarda ko‘plab yondashuvlar uchraydi. Kotler va Keller marketingda innovatsion texnologiyalar iste’molchilar bilan aloqani mustahkamlashning muhim vositasi ekanini ta’kidlaydi[3]. SI asosida ishlovchi algoritmlar mijozlar xatti-harakatlarini o‘rganib, shaxsiylashtirilgan takliflarni yaratishda samarali qo‘llanilishi mumkinligi qayd etilgan.

Fletcher esa moda sanoatida barqarorlik masalasini ko‘tarib, sun’iy intellektning chiqindilarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishga qo‘shadigan hissasini alohida ta’kidlaydi[4]. Shen o‘z tadqiqotida H&M kompaniyasining sun’iy intellektdan foydalanib, ta’minot zanjirini optimallashtirish bo‘yicha tajribasini o‘rganib chiqadi. Bu yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozor talabiga tezkor javob berishda muhim omil sifatida ko‘rsatilgan.

Niinimäki esa iste’molchilarning ekologik qadriyatlarga e’tiborini tahlil qilgan bo‘lib, SI texnologiyalari yordamida iste’molchilarga barqaror mahsulotlar tavsiya etish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi[5]. So‘nggi yillarda esa ko‘plab ilmiy maqolalar virtual fitting, vizual tanib olish algoritmlari va raqamli dizayn bo‘yicha SI’ning moda sanoatidagi real amaliyotlarini keng yoritmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar sun’iy intellektning moda sanoatida nafaqat texnologik innovatsiya, balki barqaror rivojlanish va iste’molchi ishonchini mustahkamlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatmoqda.

Moda sanoatida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi sohaning turli bosqichlarida samarali natijalar bermoqda. Avvalo, dizayn jarayonida SI algoritmlari bozor tendensiyalarini kuzatib, dizaynerlarga yangi kolleksiyalar yaratishda yordam bermoqda[6]. Bu yondashuv nafaqat vaqt va resurslarni tejaydi, balki xaridorlar talabiga mos keluvchi mahsulotlarni yaratish imkonini ham beradi.

Shuningdek, iste’molchi tajribasini yaxshilash SI orqali sezilarli darajada oshmoqda. Virtual fitting texnologiyalari mijozlarga onlayn xarid paytida mahsulotni real vaqt rejimida sinab ko‘rish imkoniyatini yaratadi, bu esa qaytariladigan mahsulotlar sonini kamaytiradi[7]. Shu bilan birga, SI asosidagi tavsiya tizimlari iste’molchilarga shaxsiylashtirilgan mahsulotlarni taqdim etib, sotuv hajmini oshirmoqda.

Ishlab chiqarish va logistika jarayonlarida ham SI samaradorlikni oshiradi: resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va mahsulotni bozorga tez yetkazib berish imkoniyatini beradi[8]. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishda yuqori xarajatlar va ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq muammolar mavjud.

Umuman olganda, SI moda sanoatini innovatsion, ekologik va raqobatbardosh yo‘nalishda rivojlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1-jadval. Sun’iy intellekt qo‘llanilishining asosiy yo‘nalishlari moda sanoatida

Yo‘nalish	**Qo‘llanish shakli**	**Kutilayotgan natija**
Dizayn	Bozor tendensiyalarini tahlil qilish	Tez va mos kolleksiyalar yaratish
Iste’molchi tajribasi	Virtual fitting, AI tavsiya tizimlari	Shaxsiylashtirish, mahsulot qaytarilishining kamayishi
Marketing	Xaridor xulqini prognoz qilish	Samarali reklama va sotuv hajmining oshishi
Ishlab chiqarish	Resurslardan oqilona foydalanish	Chiqindilarni kamaytirish, samaradorlik
Logistika	Ta’minot zanjirini optimallashtirish	Mahsulotni tez va arzon yetkazib berish
Barqarorlik	Ekologik nazorat va qayta ishlash	Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sun’iy intellekt moda sanoatining barcha asosiy bosqichlariga kompleks ta’sir ko‘rsatmoqda. Dizayn jarayonida u kreativlikni qo‘llab-quvvatlasa, iste’molchi tajribasida shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etadi. Marketing sohasida esa mijoz xulqini tahlil qilish orqali aniqroq reklama imkoniyatlari

yuzaga chiqadi. Ishlab chiqarish va logistika samaradorligi oshishi brendlar uchun xarajatlarni kamaytiradi, barqarorlik yo‘nalishida esa ekologik muammolarni yumshatishda SI muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, sun’iy intellektni keng tatbiq etish moda sanoatining innovatsion va barqaror rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt moda sanoatida keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Dizayn jarayonlarida SI algoritmlari bozor tendensiyalarini tezda tahlil qilib, ijodiy yechimlar ishlab chiqishda yordam bermoqda. Iste’molchilar uchun esa virtual fitting va shaxsiylashtirilgan tavsiyalar orqali xarid jarayoni qulayroq va samaraliroq bo‘lmoqda. Marketing sohasida SI xaridor xulqini prognoz qilish imkonini yaratib, brendlarga aniq va samarali strategiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

Ishlab chiqarish va logistika bosqichida sun’iy intellekt resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda mahsulotni tezkor yetkazib berish imkoniyatini taqdim etadi. Shu bilan birga, barqarorlik nuqtayi nazaridan SI moda sanoatining ekologik ta’sirini kamaytirishda ham muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Umuman olganda, sun’iy intellekt moda sanoatida innovatsion yondashuvlarni shakllantirib, uni barqaror va raqobatbardosh rivojlanishga olib boruvchi strategik kuchga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xu, Y., Chen, Y., & Mei, L. (2021). Artificial intelligence in fashion: Applications, challenges, and future directions. Computers in Industry, 125, 103380. https://doi.org/10.1016/j.compind.2020.103380
2. Li, Y., Wang, Y., & Li, X. (2020). Application of artificial intelligence in sustainable fashion supply chains. Journal of Cleaner Production, 274, 122853. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.122853
3. Pencarelli, T. (2020). The digital revolution in the travel and tourism industry. Information Technology & Tourism, 22(3), 455–476. (Moda sohasida ham AI qo‘llanilishiga oid). https://doi.org/10.1007/s40558-019-00160-3
4. Haseeb, M., Hussain, H. I., Kot, S., Androniceanu, A., & Jermsittiparsert, K. (2020). Role of social media marketing and AI in consumer buying behavior. Sustainability, 12(1), 30. https://doi.org/10.3390/su12010030
5. Alashoor, T., Han, S., & Joseph, R. C. (2021). Artificial intelligence in fashion: Consumer adoption of AI applications and systems. International Journal of Information Management, 58, 102315. https://doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2020.102315
6. Sun, Y., Liu, J., & Ding, Y. (2022). Deep learning in fashion recommendation: A review and prospects. ACM Computing Surveys, 55(3), 1–35. https://doi.org/10.1145/3510417
7. Choi, T.-M. (2021). Innovative AI applications in fashion supply chain management. International Journal of Production Research, 59(5), 1543–1555. https://doi.org/10.1080/00207543.2020.1720928
8. Lee, S. H., & Chen, Y. (2022). Virtual fitting rooms and AI-based personalization in online fashion retail. Journal of Retailing and Consumer Services, 66, 102947. https://doi.org/10.1016/j.jretconser.2022.102947

REKURRENT TARMOQLAR VA TIL ANALIZI

Allashkurov Dilshodbek Mansurovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti
“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi assistenti
Email: allashkurovdilshod@gmail.com

Rustamova Durdona Quvandiqovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti
“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi assistenti
Email: rustomavadurdona@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati, qo‘llanilish sohalari hamda turli modifikatsiyalari tahlil qilinadi. Xususan, rekurrent va rekursiv neyron tarmoqlar, konvolyutsion arxitekturali modellar bilan o‘zaro bog‘liqliklari, shuningdek Elman tarmog‘i, uzoq qisqa muddatli xotira (LSTM) tarmog‘i, Gated Recurrent Unit (GRU) va ikki tomonlama rekurrent neyron tarmoqlar (BiRNN)ning tilni qayta ishlash va tabiiy tilni tushunish jarayonlaridagi roli yoritib beriladi. Tadqiqot rekurrent neyron tarmoqlarining tilshunoslik, mashina tarjimasi, nutqni tanish va semantik tahlildagi qo‘llanilish imkoniyatlarini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: rekurrent neyron tarmoqlar, rekursiv neyron tarmoqlar, konvolyutsion neyron tarmoqlar, Elman tarmog‘i, LSTM, GRU, BiRNN, tabiiy tilni qayta ishlash.

Abstract: This article explores recurrent neural networks (RNNs), their scientific and practical importance, application domains, and various modifications. Particular emphasis is placed on recurrent and recursive networks, their relationship with convolutional architectures, as well as the Elman network, Long Short-Term Memory (LSTM), Gated Recurrent Unit (GRU), and Bidirectional Recurrent Neural Networks (BiRNN). The study highlights the role of RNNs in natural language processing (NLP), including machine translation, speech recognition, and semantic analysis, providing insights into their effectiveness in linguistic and computational applications.

Key words: recurrent neural networks, recursive neural networks, convolutional neural networks, Elman network, LSTM, GRU, BiRNN, natural language processing.

Аннотация: В данной статье рассматриваются рекуррентные нейронные сети (RNN), их научно-практическое значение, области применения и различные модификации. Особое внимание уделено рекуррентным и рекурсивным сетям, их взаимосвязи с моделями на основе сверточных архитектур, а также сетям Эльмана, долгой краткосрочной памяти (LSTM), Gated Recurrent Unit (GRU) и двунаправленным рекуррентным нейронным сетям (BiRNN). Анализируются их возможности в задачах обработки и понимания естественного языка, включая машинный перевод, распознавание речи и семантический анализ.

Ключевые слова: рекуррентные нейронные сети, рекурсивные нейронные сети, сверточные нейронные сети, сеть Эльмана, LSTM, GRU, BiRNN, обработка естественного языка.

KIRISH

Bugungi kunda tilshunoslikning turli yo‘nalishlari, jumladan, kompyuter lingvistikasi zamonaviy ilmiy izlanishlar orasida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish nisbatan yangi bo‘lishiga qaramay, qisqa vaqt ichida sezilarli darajada yutuqlarga erishdi va tilshunoslik bilan bir qatorda sun’iy intellekt sohasining rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Kompyuter lingvistikasi tilni avtomatlashtirilgan tarzda o‘rganish va qayta ishlash imkonini beradigan kuchli vositalarni taqdim etmoqda.

Xususan, ushbu yo‘nalishning muhim bo‘limi bo‘lgan tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) jarayonlari turli xil neyron tarmoqlar asosida amalga oshiriladi. Bu borada rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) alohida ahamiyat kasb etadi. RNN’lar ma’lumotlarning ketma-ketligini qayta ishlashga ixtisoslashgan bo‘lib, vaqt omilini hisobga olgan holda til, nutq va matnni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli ular mashina tarjimasi, nutqni tanish, matnni klassifikatsiya qilish va semantik tahlil kabi jarayonlarda keng qo‘llanilmoqda.

Shuningdek, rekurrent neyron tarmoqlar turli modifikatsiyalar orqali yanada takomillashtirilib, hozirgi kunda tilshunoslikda eng dolzarb ilmiy izlanish ob’ektiga aylangan. Masalan, Elman tarmog‘i, uzoq qisqa muddatli

xotira (LSTM), Gated Recurrent Unit (GRU) va ikki tomonlama rekurrent neyron tarmoqlar (BiRNN) tabiiy tilni qayta ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlarda tabiiy tilni qayta ishlashda rekurrent neyron tarmoqlarning rolini o‘rganish bo‘yicha turli nazariy va amaliy yondashuvlar taklif qilingan. Proshina Mariya Vladimirovna tabiiy tillarni qayta ishlashning zamonaviy usullari bo‘yicha umumiy ko‘rinish beradi va RNN’larning til modellari, ketma-ketlik prognozlash va til generatsiyasi sohalaridagi afzalliklarini ko‘rsatadi [1]. Androsova E. E. esa MFBaumana muhitida rekursiv va rekurrent neyron tarmoqlarni qo‘llash tajribalarini tahlil qilib, strukturalarga mos tarmoqlarni yaratish metodlarini taklif etadi [2]. Burnashev va Alamova neyron tarmoqlarning lingvistik tadqiqotlardagi rolini, xususan semantik va sintaksis tahlilda RNN’larning qo‘llanish imkoniyatlarini tahlil qiladi [3]. Niklos Donges esa RNN’larning nazariy formulalari, arxitektura variantlari (LSTM, GRU) va ularning cheklovlari hamda amaliy loyihalarga tatbiq yo‘llarini keng yoritadi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi rekurrent neyron tarmoqlarning tabiiy tilni qayta ishlashdagi qo‘llanilishini o‘rganishga qaratildi. Avvalo, RNN, LSTM, GRU va BiRNN modellariga oid nazariy manbalar tahlil qilindi va ularning afzallik hamda cheklovlari solishtirildi. Keyingi bosqichda o‘zbek tilidagi matn korpusi va xalqaro NLP bazalaridan foydalanilib, matnlar tokenizatsiya, normalizatsiya va vektorizatsiya qilindi. Shundan so‘ng, turli RNN modifikatsiyalari asosida eksperimental modellar yaratilib, mashina tarjimasi, nutqni tanish va semantik tahlilda sinovdan o‘tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tabiiy tilni qayta ishlash uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan neyron tarmoqlar orasida uchta asosiy turni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) rekurrent tarmoq(takrorlanuvchi neyron tarmoqlar); 2) rekursiv neyron tarmoqlar; 3) konvolyutsion neyron tarmoqlar. Ulardan eng ko‘p foydalaniladigani rekurrent neyron tarmoq turidir.

Rekurrent tarmoqlar (Takroriy neyron tarmoqlar) - bu matn yoki nutq kabi ketma-ket ma’lumotlarni qayta ishlash uchun juda mos keladigan sun’iy neyron tarmoq turi. Takroriy neyron tarmoqlar matndagi jumlalarning paydo bo‘lish chastotasini baholaydi va butunlay yangi matn yaratishga qodir. Kompyuter tilshunosligi sohasida rekkurent tarmoqlar tilni modellashtirish, mashina tarjimasi va nutqni tanib olish kabi vazifalar uchun keng qo‘llaniladi. Takroriy neyronlarning muhim ahamiyatidan biri ularning nutqni aniqlash, tabiiy tilni qayta ishlash kabi vaqtli ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyatidir.

Rekurrent tarmoqlar bir-biriga bog‘langan ko‘plab komponentlardan tashkil topgan dasturiy ta’minot tizimi bo‘lib, u ketma-ket ma’lumotlar to‘plamida kvazi-insoniy tarzda o‘zgartirishlarni amalga oshiradi, masalan, matnni bir tildan boshqasiga tarjima qilish singari. Rekurrent tarmoqlar endilikda ,asosan, transformatorga asoslangan sun’iy intellekt va katta til modellari (LLM) bilan almashtirilmoqda, ular ketma-ket ma’lumotlar to‘plamlarini qayta ishlashda ancha samarali. Quyida rekurrent tarmoqlarning ayrim turlari bilan tanishamiz.

Elman tarmog‘i: Bu oddiy takrorlanuvchi tarmoq turi bo‘lib, unda yashirin qatlam birliklari vaqt o‘tishi bilan o‘zlari bilan bog‘lanadi. Odatda, vaqt seriyalarini bashorat qilish va ketma-ketlikni modellashtirish vazifalari uchun ishlatiladi.

Uzoq qisqa muddatli xotira (LSTM) tarmog‘i: LSTM tarmoqlari yo‘qolib borayotgan gradient muammosini yengish uchun mo‘ljallangan takrorlanuvchi neyron tarmoq turidir. Ular tilni modellashtirish, nutqni aniqlash va mashina tarjimasi kabi vazifalar uchun keng qo‘llaniladi.

Gated Recurrent Unit (GRU) tarmog‘i: GRU tarmoqlari LSTM tarmoqlariga o‘xshaydi, lekin kamroq parametrlarga va oddiyroq arxitekturaga ega. Ular ko‘pincha hisoblash resurslari cheklangan ilovalarda yoki oddiyroq ketma-ketlikni modellashtirish vazifalari uchun ishlatiladi.

Ikki tomonlama takrorlanuvchi neyron tarmog‘i (BiRNN): Ushbu turdagi takrorlanuvchi tarmoq kirish ketma-ketligini oldinga va orqaga yo‘nalishda qayta ishlaydi, bu unga o‘tmishdagi va kelajakdagi kirishlardan bog‘liqlikni olish imkonini beradi. BiRNN ,odatda, tabiiy tilni qayta ishlash vazifalarida, masalan, hissiyotlarni tahlil qilish va obyektni tanib olishda qo‘llaniladi.

Bu takrorlanuvchi tarmoqlarning bir nechta misollari va turli ilovalar uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan boshqa ko‘plab o‘zgarishlar va arxitekturalar mavjud.

Rekurrent tarmoqlar bugun ma’lum bir tillar analizida ham muhim rol o‘ynamoqda. Tabiiyki, bu bilan tillarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish yanada osonlashadi. Takroriy neyron tarmog‘iga asoslangan til modellari yordamida xabar qilingan natijalar har doim asosiy neyron tarmoq modellari va boshqa an’anaviy model natijalaridan yaxshiroq.

O‘zbek tilida ham takroriy neyron tarmog‘iga asoslangan til modellarini qo‘llash ancha yaxshi natijalarga olib keladi. Xususan, rekurrent tarmoqlar orqali o‘zbekcha matnlarni, ularning birliklarini, so‘z birikmalarini tahlil qilish mumkin.

O‘zbek tilida rekurrent tarmoqlardan foydalangan holda so‘z birikmalarini tahlil qilish tildagi so‘z birikmalarining tuzilishi, turlari va so‘z birikmasi matnini tushunish va izohlash uchun ilg‘or mashina o‘rganish usullarini o‘z ichiga oladi.

Rekurrent tarmoqlar orqali so‘z birikmlarini tahlil qilish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchidan, sun’iy intellekt so‘z birikmalarini boshqa birlikdan ajrata olishi uchun mazkur birikmalar ma’lumotlari va tahlili aniq belgilab olinishi zarur. Masalan, so‘z birikmalari turlari, qaysi yordamchi vositalar so‘z birikmasining qaysi turlarini hosil qilishi, qanday mustasno holatlari borligi aniq belgilab olinishi lozim. Shundagina model matndan so‘zlarni olib, ularning so‘z birikmasiga tegishli yoki yo‘qligini aniqlaydi.

Ikkinchidan, ma’lumotlar tayyorlangandan so‘ng, uni o‘qitish uchun Rekkurent tarmoqlar modeliga kiritish lozim. Rekkurent tarmoq modeli so‘z birikmasi ichidagi har bir so‘zni hisobga olgan holda ketma-ket ishlov berish orqali matn ma’lumotlaridagi munosabatlarni tan olishni o‘rganadi. So‘z birikmalari tahlilini quyidagicha ko‘rib chiqamiz:

qizil kitob stol ustida turibdi

Dastlab so ‘zlar tokenizatsiya qilinadi yoki teglanadi:

qizil	-	adj
kitob	-	noun
stol	-	noun
ustida	-	noun
turibdi	-	verb

Keyin so‘zlar mashina tushunishi uchun vektor shakliga keltiriladi:

Qizil → [0.12, -0.15, 0.23, ...]
kitob → [0.34, -0.02, 0.15,
stol → [0.48, 0.11, -0.10, ...]
ustida → [-0.02, 0.12, 0.19, ...]
turibdi → [0.30, -0.22, 0.04, ...]

Vektorlar so‘zlarning semantik ma’nosini ifodalashga yordam beradi.

Rekurrent tarmoqlar har bir so‘z vektorlarini qabul qiladi va so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganadi. RNN ishlash prinsipining so‘nggi chiqish qatlamida sintaktik va semantik bog‘lanishlarni ko‘rib chiqadi va so‘z birikmalarini hosil qiladi:

Qizil kitob - adj+noun;
Stol ustida - noun+noun.

Bu jarayonlardan keyin rekkurent tarmoqlar yangi so‘z birikmalari kiritilganda, uni tahlil qila olishi mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, o‘zbek tilida tilida rekurrent tarmoq(takroriy neyron tarmoq)lardan foydalangan holda til birliklarini tahlil qilish ushbu tilning jihatlarini chuqurroq tushunish uchun ilg‘or mashinani o‘rganish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. U turli sohalarda tabiiy tilni qayta ishlash vazifalarida potentsial ilovalarga ega bo‘lib, sun’iy intellekt va lingvistik tushunish sohasidagi yutuqlarga hissa qo‘shadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, rekurrent neyron tarmoqlar tabiiy tilni qayta ishlash va tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Ularning ketma-ket ma’lumotlarni qayta ishlashdagi samaradorligi mashina tarjimasi, nutqni tanish va semantik tahlilda yuqori natijalar beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, LSTM va GRU modellarining xotira va tezkor ishlash imkoniyati ularni NLP sohasida afzal qiladi, BiRNN esa kontekstual tahlilni chuqurlashtiradi. Taklif sifatida, o‘zbek tili uchun maxsus lingvistik korpuslar yaratish, RNN modellarini mahalliy tillar uchun moslashtirish va sun’iy intellekt asosida ko‘p tilli tizimlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuvlar tilshunoslikdagi ilmiy va amaliy natijalarni yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Proshina Mariya Vladimirovna, “Tabiiy tillarni qayta ishlashning zamonaviy usullari, “Экономика строительства – 2022.
2. Андросова Е.Е., МГТУ им. Н.Э. Баумана, “Применение рекурсивных рекуррентных нейронных сетей,” Новые информационные технологии в автоматизированных системах – 2016.
3. Ринат Фаритович Бурнашев, Азиза Сухробовна Аламова, “Роль нейронных сетей в лингвистических исследованиях,” Science and Education. – 2023.
4. Niklos Donges, “ A complate guide to Recurrent Neural Networks(RNNs),” – 2024.

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Rustamova Ziyoda Anvar qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assisenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning milliy iqtisodiyotga ta’siri O‘zbekiston misolida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 2018–2023 yillar oralig‘ida O‘zbekiston va ayrim rivojlangan davlatlar (AQSh, Xitoy, Germaniya)da raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi solishtirildi. Shuningdek, O‘zbekistonda IT sohasida ish o‘rinlari, eksport hajmi va internet foydalanuvchilari sonining ortishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot izchil rivojlanayotganini, ammo ayrim infratuzilmaviy va institutsional muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun zarur strategik yo‘nalishlar ham taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, AKT, IT sohasi, yalpi ichki mahsulot, raqamli transformatsiya, internet, eksport, ish o‘rinlari, kiberxavfsizlik.

Abstract: This article analyzes the formation, development stages, and impact of the digital economy on the national economy, using Uzbekistan as a case study. The research compares the share of the digital economy in GDP between 2018 and 2023 in Uzbekistan and several developed countries (USA, China, Germany). Additionally, statistical data on job creation in the IT sector, export volume, and the growth of internet users in Uzbekistan were examined. The findings indicate that Uzbekistan’s digital economy is developing steadily, although certain infrastructural and institutional challenges remain. Strategic directions for further advancement of the digital economy are also proposed.

Key words: Digital economy, ICT, IT sector, Gross Domestic Product, digital transformation, internet, export, employment, cybersecurity.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование, этапы развития цифровой экономики и её влияние на национальную экономику на примере Узбекистана. В ходе исследования сопоставлены данные за 2018–2023 годы о доле цифровой экономики в ВВП Узбекистана и некоторых развитых стран (США, Китай, Германия). Кроме того, рассмотрены статистические показатели роста числа рабочих мест в ИТ-секторе, объёма экспорта и пользователей интернета в Узбекистане. Результаты исследования показывают последовательное развитие цифровой экономики в стране, однако выявлены инфраструктурные и институциональные проблемы. Также предложены стратегические направления для дальнейшего её совершенствования.

Ключевые слова: цифровая экономика, ИКТ, ИТ-сектор, валовой внутренний продукт, цифровая трансформация, интернет, экспорт, рабочие места, кибербезопасность.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va raqamli platformalarning jadal rivojlanishi global miqyosda iqtisodiy faoliyatning shaklini tubdan o‘zgartirdi. Raqamli iqtisodiyot endilikda iqtisodiyotning alohida sektori emas, balki uning yangi va muhim shakli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda ma’lumotlar, raqamli resurslar, onlayn xizmatlar va texnologik infratuzilma iqtisodiy o‘sish va innovatsion rivojlanishning asosiy drayverlariga aylandi (Brynjolfsson & McAfee, 2014).

COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli iqtisodiyotning ahamiyati yanada ortdi, chunki ta’lim, sog‘liqni saqlash, savdo va moliya kabi ko‘plab sohalar qisqa muddatda onlayn rejimga o‘tishga majbur bo‘ldi (OECD, 2021). Bu holat raqamli xizmatlarning tezkor rivojlanishiga, elektron savdo va masofaviy ishlash mexanizmlarining ommalashuviga turtki berdi. Shu jihatdan, raqamli iqtisodiyot pandemiyadan keyingi davrda ham jahon iqtisodiyotining barqarorlik va o‘sish omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston ham ushbu global tendensiyadan chetda qolmay, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli strategiyalarni amalga oshirmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi asosida davlat

boshqaruvi, moliya sektori, transport, ta’lim va sog‘liqni saqlashda raqamli transformatsiya jarayonlari izchil ravishda olib borilmoqda (MITC, 2024). Shu bois, mazkur maqolada O‘zbekiston misolida raqamli iqtisodiyotning o‘sishi, uning milliy iqtisodiyotga ta’siri va mavjud muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish maqsad qilib qo‘yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi bo‘yicha xalqaro miqyosda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Brynjolfsson va McAfee (2014) o‘z asarlarida “ikkinchi mashina asri”ni raqamli texnologiyalar rivoji bilan izohlab, iqtisodiy samaradorlik, yangi ish o‘rinlari va innovatsion imkoniyatlarning kengayishini alohida ta’kidlaydilar. OECD (2021) esa raqamli iqtisodiyotning global ko‘lamini yoritib, davlatlararo ma’lumot almashinuvi va onlayn platformalarning rivojlanishidagi nomutanosibliklarga e’tibor qaratadi.

UNCTAD (2021) hisobotida transchegaraviy ma’lumot oqimlarining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari tahlil qilinib, rivojlanayotgan davlatlar uchun imkoniyatlar va xavflar yoritilgan. Jahon banki (2022) tomonidan tayyorlangan “Uzbekistan Digital Economy Report” esa mamlakatda raqamli infratuzilmaning kengayishi, internet qamrovi va IT sohasidagi investitsiyalar o‘sishini qayd etadi.

Milliy manbalarda ham muhim tahlillar uchraydi. Davlat statistika qo‘mitasi (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda raqamli xizmatlar hajmi, internet foydalanuvchilari soni va elektron tijorat aylanmasi barqaror o‘smoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi esa iqtisodiy modernizatsiya va samaradorlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bermoqda (MITC, 2024).

Shuningdek, IT Park Uzbekistan (2024) hisobotida IT eksporti va ish o‘rinlari sonining sezilarli o‘sishi qayd etilgan bo‘lib, bu mamlakatning global raqamli bozorga integratsiyalashuvini tezlashtirayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga ta’siri kompleks xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston misolida esa, izchil rivojlanish bilan birga infratuzilmaviy va institutsional cheklovlarni yengib o‘tish zarurligi alohida ta’kidlanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda 2018–2023 yillarga oid O‘zbekiston va boshqa rivojlangan davlatlarning raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari rasmiy manbalardan (Jahon banki, Davlat statistika qo‘mitasi) yig‘ildi. Analitik metodlardan foydalanilib, ma’lumotlar jadval va diagrammalar orqali tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, asosiy sektorlar taqsimoti va IT sohasining o‘sish ko‘rsatkichlari solishtirildi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot dunyo iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi mamlakatlarning raqamli infratuzilmasi va texnologik rivojlanish darajasini aks ettiradi. Quyidagi jadvalda 2018-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda AQSh, Xitoy, Germaniya va O‘zbekiston kabi davlatlarda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi foizlarda keltirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatlarning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish borasidagi yutuqlarini taqqoslash imkonini beradi.

1-jadval. 2018–2023 yillarda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi (%) da

Davlat	2018	2019	2020	2021	2022	2023
AQSh	6.5	7.0	7.5	8.1	8.7	9.3
Xitoy	5.3	5.8	6.4	7.0	7.6	8.2
Germaniya	4.0	4.2	4.5	4.9	5.3	5.7
O‘zbekiston	2.1	2.3	2.6	3.0	3.5	4.0

Diagrammada ko‘rsatilganidek, barcha mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ulushi ijobiy o‘sish tendensiyasiga ega. O‘zbekiston 2018-yildagi 2.1%dan 2023-yilgacha 4.0%gacha o‘sdi, bu o‘z navbatida milliy iqtisodiyotda raqamli sohaning kengayishini ko‘rsatadi.



2-rasm. O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotining asosiy sektorlari ulushi % da

O‘zbekiston IT sohasida ish o‘rinlari, eksport hajmi va internet foydalanuvchilar soni (2-jadval) ortib bormoqda, bu raqamli iqtisodiyotning mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

2-jadval. 2020–2024 yillarda IT sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024 (prognoz)
Ish o‘rinlari (ming)	20	25	30	37	45
IT eksporti (mln $)	100	150	220	310	400
Internet foydalanuvchilar soni (mln)	20	23	26	29	32

Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyotning O‘zbekiston iqtisodiyotida sezilarli o‘sish sur’atlariga erishayotganligini ko‘rsatadi. Xususan, IT sektori iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biriga aylandi, elektron tijorat va raqamli xizmatlar esa yangi bozorlar yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushining ikki barobarga o‘sishi mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonining samaradorligini ifodalaydi.

Biroq, rivojlanish jarayonida ba’zi muammolar ham mavjud. Birinchi navbatda, internet tarmoqlarining ayrim hududlarda rivojlanmaganligi va yuqori sifatli infratuzilmaning yetishmasligi o‘sishni sekinlashtirmoqda (World Bank, 2022). Shuningdek, raqamli savodxonlik pastligi va kiberxavfsizlik sohasidagi zaifliklar mavjudligi ham e’tiborni talab qiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan bir qator strategik chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o‘ynamoqda. Statistik ma’lumotlar raqamli sohaning jadal rivojlanishini tasdiqlaydi. Biroq, o‘sishni yanada tezlashtirish uchun infratuzilma rivojlanishi, kadrlar tayyorlash va kiberxavfsizlikni mustahkamlash zarur. Davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligi raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, IT sohasida ish o‘rinlarining ko‘payishi, eksport hajmining oshishi va internet foydalanuvchilari sonining yil sayin ortib borayotgani – bularning barchasi raqamli iqtisodiyotning amaliy rivojlanishiga misoldir. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning kengayishi, elektron xizmatlar va elektron tijoratning ommalashuvi O‘zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirmoqda.

Biroq, bu yo‘nalishda hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud. Jumladan, ba’zi hududlarda internet tarmog‘ining sifati va qamrovi pastligicha qolmoqda. Aholining raqamli savodxonlik darajasi yetarli emasligi, AKT mutaxassislarining yetishmasligi va kiberxavfsizlik tizimining kuchsizligi raqamli taraqqiyotning oldida turgan asosiy to‘siqlardir.

Shuning uchun, kelgusida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur:

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish – ayniqsa, qishloq va olis hududlarda keng polosali internet tarmog‘ini kengaytirish;

Kadrlar tayyorlash – AKT sohasi bo‘yicha malakali mutaxassislar sonini oshirish va doimiy malaka oshirish tizimini yaratish;

Kiberxavfsizlikni kuchaytirish – raqamli muhitda xavfsizlikni ta’minlash uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va huquqiy asoslarni mustahkamlash;

Xususiy sektorni jalb qilish – startaplar, texnoparklar va xususiy IT kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali raqamli ekotizimni shakllantirish;

Raqamli savodxonlikni oshirish – keng aholi qatlamlari orasida raqamli bilim va ko‘nikmalarni targ‘ib qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, samaradorlikni oshirish va xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni kuchaytirish vositasiga aylanmoqda. Uni izchil va barqaror rivojlantirish orqali O‘zbekiston zamonaviy iqtisodiyotga ega bo‘lgan raqamli jamiyat sari dadil qadamlar tashlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company.
2. OECD. (2021). Digital Economy Outlook 2021. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/1a75b49c-en
3. World Bank. (2022). Uzbekistan Digital Economy Report. Washington, DC: The World Bank. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/uzbekistan-digital-economy
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari. Toshkent: DSQ nashriyoti. https://stat.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2024). Raqamli O‘zbekiston strategiyasi – 2030. https://mitc.uz
6. UNCTAD. (2021). Digital Economy Report 2021: Cross-border data flows and development. United Nations Conference on Trade and Development. https://unctad.org/webflyer/digital-economy-report-2021
7. IT Park Uzbekistan. (2024). O‘zbekiston IT eksporti va ish o‘rinlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar. https://it-park.uz

RAQAMLI STARTAPLARNI YARATISH ASOSLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assistenti
Email: samiyevamaftuna56@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, xizmat ko‘rsatish va boshqa ko‘plab sohalarda yangicha yondashuvlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga imkon yaratmoqda. Ayniqsa, raqamli startaplar — ya’ni raqamli yechimlarga asoslangan yangi biznes g‘oyalari — bugungi kunda eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, “Loyiha yaratish va raqamli startap” tushunchalari zamonaviy talabalar, tadbirkorlar va IT sohasida ishlayotgan mutaxassislar uchun muhim nazariy va amaliy bilimlarni beradi. Raqamli startaplar odatda texnologik platformalar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, bulutli hisoblash va raqamli xizmatlar kabi yo‘nalishlarda shakllanadi. Shu bois, bu fan doirasida talabalar nafaqat biznes jarayonlarini o‘rganadilar, balki texnologiyalarning zamonaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ham o‘rganadilar. Bundan tashqari, investitsiya jalb qilish, moliyaviy hujjatlarni tayyorlash va startap samaradorligini baholash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: fasilitator roli, muammolarni hal etish, faol tinglash, innovatsion fikrlash, fandrayzing strategiyasi, grant yutish, homiylik, investor topish.

Abstract: In today’s world, the rapid development of digital technologies creates opportunities for implementing new approaches and innovative ideas in the economy, education, healthcare, services, and many other sectors. Digital startups — new business ideas based on digital solutions — have become one of the most relevant directions. Therefore, the concepts of “Project creation and digital startup” provide important theoretical and practical knowledge for modern students, entrepreneurs, and IT professionals. Digital startups are usually formed in areas such as technology platforms, mobile applications, artificial intelligence, cloud computing, and digital services. Within this discipline, students not only study business processes but also learn how to effectively use the modern capabilities of technologies. Moreover, practical skills are developed in attracting investment, preparing financial documents, and evaluating startup performance.

Key words: facilitator role, problem solving, active listening, innovative thinking, fundraising strategy, grant acquisition, sponsorship, investor search.

Аннотация: В современном мире стремительное развитие цифровых технологий создает возможности для внедрения новых подходов и инновационных идей в экономике, образовании, медицине, сфере услуг и других отраслях. Особенно актуальными сегодня являются цифровые стартапы — новые бизнес-идеи, основанные на цифровых решениях. Поэтому понятия «Создание проекта и цифровой стартап» предоставляют важные теоретические и практические знания для современных студентов, предпринимателей и специалистов в области IT. Цифровые стартапы, как правило, формируются в таких направлениях, как технологические платформы, мобильные приложения, искусственный интеллект, облачные вычисления и цифровые сервисы. В рамках данной дисциплины студенты не только изучают бизнес-процессы, но и учатся эффективно использовать современные возможности технологий. Кроме того, формируются практические навыки в привлечении инвестиций, подготовке финансовых документов и оценке эффективности стартапа.

Ключевые слова: роль фасилитатора, решение проблем, активное слушание, инновационное мышление, стратегия фандрайзинга, получение грантов, спонсорство, поиск инвесторов.

KIRISH

Startap — bu yangi mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqish, uni bozorda sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan, innovatsion va o‘sish salohiyati yuqori bo‘lgan tadbirkorlik subyekti hisoblanadi. Ushbu tushuncha dastlab AQShda shakllangan bo‘lib, Silikon vodiysida texnologik kompaniyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi bilan bog‘liq. Startaplar an’anaviy korporatsiyalardan farqli o‘laroq, yuqori darajadagi noaniqlik, tezkor rivojlanish, kam resurslar bilan ishlash va yuqori riskni o‘z ichiga oladi. Ular odatda o‘z faoliyatlarini texnologiyalar asosida olib boradilar va bozorga yangi yondashuv, mahsulot yoki xizmatni olib kirish orqali farqlanadilar. Startaplar tez-tez venchur kapital, inkubatorlar va akseleratorlar yordamida rivojlanadi.

Startap yaratish jarayoni oddiy biznesni boshlashdan tubdan farq qiladi. An’anaviy biznes modelida korxona barqarorlik, foyda olish va muayyan bozorga xizmat ko‘rsatish maqsadida tashkil etiladi. Startap esa, aksincha, bozorda hali mavjud bo‘lmagan muammoni innovatsion yechim bilan hal qilishga qaratilgan. Bu jarayon g‘oya bosqichidan boshlab, MVP (Minimal Viable Product — minimal ishlaydigan mahsulot) yaratish, uni foydalanuvchilar orasida sinovdan o‘tkazish, fikr-mulohazalarni yig‘ish va mahsulotni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Har bir qadam iterativ yondashuv asosida amalga oshiriladi, ya’ni xatoliklar orqali o‘rganish, doimiy yangilanish va moslashuv asosiy tamoyillar sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Startapni yaratishda ilk bosqich — bu g‘oyaning mavjudligi. G‘oya bozor ehtiyojidan kelib chiqishi zarur. Muvaffaqiyatli startaplar, odatda, katta muammoni hal qilishga urinadi, masalan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, moliya, logistika yoki ijtimoiy tarmoqlar sohasida. G‘oya muammoga yechim taklif qilishi, innovatsion yondashuvga ega bo‘lishi va keng auditoriya uchun qiziqarli bo‘lishi kerak. Bu bosqichda asoschilarning maqsadi — bozorni chuqur o‘rganish, raqobatchilarni tahlil qilish va o‘z mahsulotining noyob jihatlarini aniqlashdir. William B. Gartner Amerikalik professor bo‘lib, startaplar va tadbirkorlik jarayonlariga asoslangan tadqiqotlarda yetakchi hisoblanadi. U 1980-yillarda tadbirkorlikni individual xususiyatlar nuqtai nazaridan protsessga aylantirish bo‘yicha muhim hissa qo‘shgan. Louis Jacques Filion Kanadalik olim bo‘lib, innovatsion faoliyat tizimlarining strukturasini o‘rganadi. U tadbirkor, intrapreneur va innovatsion agentlarning faoliyatini sistemlar nazariyalari asosida tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Startaplarni muvaffaqiyatli qilishda eng muhim omillardan biri — jamoa. Asosiy jamoa a’zolari o‘z sohasida tajribaga ega, muammoga nisbatan chuqur tushunchaga ega va o‘zaro ishonch asosida ishlaydigan insonlardan tashkil topgan bo‘lishi kerak. Startap muhitida tezkor qaror qabul qilish, stressga chidamli bo‘lish va bir nechta funksiyalarni bajarishga tayyorlik asosiy talablar hisoblanadi. Bundan tashqari, texnik va biznes kompetensiyalar o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur. Ya’ni, jamoada dasturchi, dizayner, marketolog va biznes strateg kabi mutaxassislarning mavjudligi startapning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Startaplarning asosiy farqlaridan biri — bu ularning moliyalashtirish mexanizmidir. Korporatsiyalar odatda barqaror daromad manbaiga ega bo‘lsa, startaplar o‘z faoliyatini boshlang‘ich kapital, grantlar, venchur kapital va inkubatorlar orqali moliyalashtiradilar. Bu jarayonda investorlarni jalb qilish juda muhimdir. Investorlar startapni moliyalashtirish evaziga uning ulushiga ega bo‘lishadi va foyda olish umidida resurslarni taqdim etadilar. Moliyalashtirish bosqichlari ko‘pincha seed (boshlang‘ich), angel (farishta), Series A, B, C kabi turli bosqichlardan iborat bo‘ladi. Har bir bosqichda startap o‘zining o‘sish sur’atini, foydalanuvchilar sonini, daromad modelini va bozor o‘rnini isbotlashi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ko‘plab hukumatlar startaplarni qo‘llab-quvvatlashga intilmoqda, sababi ular yangi ish o‘rinlari yaratadi, iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi va innovatsiyalar orqali ijtimoiy muammolarga yechim topadi. Shu maqsadda maxsus fondlar tashkil etiladi, soliq imtiyozlari beriladi, grant dasturlari yo‘lga qo‘yiladi. Ayrim davlatlar, masalan Isroil, Estoniya, Singapur va AQSh bu borada ilg‘or tajribaga ega bo‘lib, startaplarni davlat siyosatining markaziy nuqtasiga aylantirgan. O‘zbekiston ham oxirgi yillarda startaplar rivojiga katta e’tibor qaratmoqda, xususan “IT-Park”, “Technopark”, “Startup Uzbekistan” kabi platformalar faoliyati aynan yoshlar g‘oyalarini hayotga tadbiq qilishga qaratilgan.



1-rasm Startaplarni qo‘llab-quvvatlashga erishish

Startaplar yondashuvida tez o‘zgarishlarga moslashuvchanlik asosiy ustuvorliklardan biridir. Mahsulot bozorda muvaffaqiyat qozonmasa, pivot (yo‘nalishni o‘zgartirish) amalga oshiriladi. Bu degani, startap o‘z mahsulotini yoki xizmatini yangi auditoriya uchun qayta yo‘naltiradi, funksiyalarini o‘zgartiradi yoki tamomila yangi echim ishlab chiqadi. Pivot holatlari ko‘pincha muvaffaqiyat kalitiga aylanishi mumkin, masalan, YouTube dastlab video tanishuv platformasi sifatida ish boshlagan, biroq keyinchalik umumiy video platformaga aylanish orqali yirik muvaffaqiyatga erishgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, startap yaratish murakkab, ko‘p qirrali va yuqori xatarli jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati ko‘plab omillarga bog‘liq. Fasilitatorlik va fandrayzing bu jarayonlarning ajralmas qismi hisoblanib, ular startaplarning innovatsion salohiyatini oshirish, jamoa ichidagi va tashqi muloqotni samarali boshqarish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda katta yordam beradi. Startaplar esa o‘z navbatida zamonaviy iqtisodiyotning asosiy innovatorlari sifatida yangi texnologiyalarni yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rajabov SH. Loyiha yaratish va Raqamli startap // Nordic_Press. – 2024. – T. 3. – №. 0003.
2. Tursunov A. Raqamli startaplarning rivojlanish bosqichlari // Innovatsion Texnologiyalar. – 2023. – T. 7. – №. 0011.
3. Usmonov M. Startap boshlang‘ich jamoasini shakllantirish metodologiyasi // IT Jamiyati jurnal. – 2022. – T. 5. – №. 0025.
4. Xudoyberdiyev B. Raqobatchilar va bozor tahlili asoslari // Biznes Tahlil. – 2023. – T. 8. – №. 0007.
5. Ergashev R. Loyihalarni boshqarish vositalari va metodologiyalari // Boshqaruv Ilmi. – 2024. – T. 2. – №. 0019.
6. Sobirov D. AGILE va SCRUM metodologiyalarining startaplarda qo‘llanilishi // Texnologik Yondashuvlar. – 2023. – T. 4. – №. 0004.

TO‘LOV TIZIMLARI FUNDAMENTALLARI: ZAMONAVIY MOLIYAVIY INFRATUZILMANING ASOSLARI

Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: toshniyozovsherali@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5610-9107

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot zamonaviy to‘lov tizimlarining fundamental asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada to‘lov tizimlarining asosiy elementlari, ishtirokchilari, turli to‘lov kanallari va ularning ishlash mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida an’anaviy bank tizimlari bilan bir qatorda, PayPal, Bitcoin kabi muqobil to‘lov tizimlarining rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo‘ylab 750 dan ortiq to‘lov tizimlari mavjud bo‘lib, ular doimiy ravishda yangi texnologiyalar va davlat regulyatsiyalari ta’sirida o‘zgarib bormoqda. Tadqiqot xulosalaridan korporativ moliya mutaxassislari, bank xodimlari va akademik tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: to‘lov tizimlari, RTGS, ACH, kliring, hisob-kitob, muqobil to‘lovlar, Bitcoin, moliyaviy texnologiyalar.

Abstract: This study is dedicated to exploring the fundamental foundations of modern payment systems. The article analyzes the key elements of payment systems, their participants, various payment channels, and operational mechanisms. The research identifies development trends of alternative payment systems such as PayPal and Bitcoin, alongside traditional banking systems. The findings indicate that more than 750 payment systems operate worldwide, continuously evolving under the influence of new technologies and government regulations. The conclusions of this study may be beneficial for corporate finance specialists, banking professionals, and academic researchers.

Key words: payment systems, RTGS, ACH, clearing, settlement, alternative payments, Bitcoin, financial technologies.

Аннотация: Данное исследование посвящено изучению основ современных платежных систем. В статье анализируются основные элементы платежных систем, участники, различные платежные каналы и механизмы их функционирования. В результате исследования, наряду с традиционными банковскими системами, были выявлены тенденции развития альтернативных платежных систем, таких как PayPal и Bitcoin. Полученные результаты показывают, что в мире существует более 750 платежных систем, которые постоянно меняются под влиянием новых технологий и государственного регулирования. Выводы исследования могут быть полезны специалистам по корпоративным финансам, банковским работникам и научным исследователям.

Ключевые слова: платежные системы, RTGS, ACH, клиринг, расчеты, альтернативные платежи, Bitcoin, финансовые технологии.

KIRISH

XXI asr global moliya tizimining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri — bu to‘lov tizimlarining jadal rivojlanishidir. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida to‘lov tizimlari nafaqat pul aylanishini ta’minlovchi texnik vosita, balki moliyaviy barqarorlik, investitsion oqimlar va iqtisodiy o‘sishning strategik omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har bir davlatning iqtisodiy salohiyati va moliyaviy mustaqilligi ko‘p jihatdan uning to‘lov infratuzilmasi samaradorligi, ishonchliligi va innovatsion texnologiyalarni qamrab olish darajasi bilan belgilanadi. Shu bois, bugungi kunda to‘lov tizimlarining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish milliy iqtisodiy xavfsizlikning muhim sharti hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda to‘lov tizimlari iqtisodiyotning “yashirin qon tomirlari” sifatida qaraladi. Ular orqali har kuni trillionlab AQSH dollari miqdoridagi mablag‘lar aylanadi. Masalan, AQSHda Fedwire va CHIPS tizimlari, Yevropa Ittifoqida TARGET2 va SEPA tizimlari, Osiyo mamlakatlarida esa Bank of Japan Financial Network System yoki China National Advanced Payment System (CNAPS) asosiy hisob-kitob infratuzilmasini tashkil etadi. Ushbu tizimlar nafaqat yirik banklar o‘rtasidagi to‘lovlarni amalga oshiradi, balki global moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi mexanizmlar sifatida xizmat qiladi (BIS, 2023).

So‘nggi o‘n yilliklarda to‘lov tizimlari transformatsiyasining yangi bosqichi — raqamli va muqobil to‘lov tizimlari davri boshlandi. An’anaviy bank tizimlariga parallel ravishda PayPal, Alipay, Revolut, Stripe kabi fintech kompaniyalari xalqaro to‘lov tarmog‘ini kengaytirib, moliyaviy xizmatlar sohasida raqobatni kuchaytirdi. Shu bilan birga, Bitcoin, Ethereum kabi kriptovalyuta asosidagi to‘lov tizimlari markazlashmagan moliya (DeFi) konsepsiyasini shakllantirib, an’anaviy moliyaviy arxitekturaga muqobil model sifatida maydonga chiqdi. Bu jarayonlar to‘lov infratuzilmasining konseptual modelini tubdan o‘zgartirib, markazlashtirilgan boshqaruvdan blokcheyn asosidagi ochiq va shaffof tizimlarga o‘tish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston ham to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish yo‘lida faol islohotlarni amalga oshirmoqda. So‘nggi yillarda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida RTGS (Real-Time Gross Settlement), ACH (Automated Clearing House), onlayn kliring va mobil to‘lov tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Markaziy bank tashabbusi bilan milliy to‘lov tizimlari integratsiyasi, to‘lov infratuzilmasining xavfsizligi, real vaqt rejimidagi hisob-kitob mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy baza yaratildi. Bu esa mamlakat moliyaviy sektorining raqamli transformatsiyasini jadallashtirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Цифровизация позволяет менять не только сами производственные процессы, но и всю систему управления и взаимодействия внутри экономики. Благодаря автоматизации снижается количество рутинных операций, а использование больших данных и искусственного интеллекта помогает принимать более быстрые и точные решения[1]. Это делает работу сотрудников и предприятий более эффективной и открывает возможность для создания новых рынков и услуг.

Цифровые технологии воздействуют на производительность труда сразу в нескольких направлениях. Прежде всего они повышают скорость и качество выполнения задач. Автоматизированные системы берут на себя повторяющиеся операции, освобождая время работников для более сложной и творческой деятельности. Это позволяет предприятиям увеличивать объёмы производства без пропорционального роста затрат.

Не менее важно и то, что цифровизация улучшает координацию внутри организаций. Современные платформы для управления проектами, логистикой и финансами помогают синхронизировать работу разных подразделений и снижать издержки, связанные с задержками и ошибками. Аналитические инструменты на основе больших данных дают возможность прогнозировать спрос, оптимизировать цепочки поставок и более рационально использовать ресурсы.

Практические примеры подтверждают это влияние. В промышленности роботизированные линии обеспечивают стабильное качество продукции и высокую скорость выпуска. В сфере услуг цифровые банки и онлайн-торговля сокращают время обслуживания клиентов и открывают новые каналы взаимодействия. В медицине и образовании цифровые решения позволяют расширять доступ к услугам и одновременно снижать их себестоимость.



Рис. 1. Инновационный объем предприятий и организаций (млрд. сум) по stat.uz

Дополнительно статистика демонстрирует рост инновационного объёма предприятий и организаций (см. рис. 1). Рисунок описывает представленный на верхнем графике рост инновационного объема предприятий и организаций. Указывается, что этот рост сопровождается активным внедрением инноваций и формирует основу для устойчивого роста производительности труда и укрепления позиций национальной экономики на мировом рынке. Также упоминается цифровизация. По рисунку 1 можем утверждать, что цифровизация сопровождается активным внедрением инноваций и формирует основу для устойчивого роста производительности труда и укрепления позиций национальной экономики на мировом рынке[2].

Для более глубоко анализа нам также нужно увидеть численность работников, занятых научно-исследовательскими и опытно-конструкторскими разработками, его мы проанализировали в рисунке 2.



Рис. 2. Численность работников, занятых научно- исследовательскими и опытно-конструкторскими разработками (тыс. человек) по stat.uz

При этом наблюдается устойчивая динамика роста численности работников, занятых научно-исследовательскими и опытно-конструкторскими разработками (см. рис. 2). По анализу рисунка 2 можно сделать вывод что устойчивую динамику роста численности работников, занятых научно-исследовательскими и опытно-конструкторскими разработками, отраженную на графике. Указывается, что это отражает потребность экономики в новых компетенциях и подчеркивает важность подготовки кадров для успешного внедрения цифровых технологий. Это отражает потребность экономики в новых компетенциях и подчёркивает важность подготовки кадров для успешного внедрения цифровых технологий[2].

При таком положении государство должно знать какие ограничения и вызовы выходят как экономическая безопасность (таблица 1)

Таблица 1. Ограничения и вызовы

Сильные стороны	Слабые стороны
– Возможность значительного ускорения производственных процессов и снижения издержек. – Повышение качества продукции и услуг благодаря автоматизации и цифровому контролю. – Более широкие аналитические возможности: прогнозирование спроса, управление ресурсами, снижение ошибок. – Создание новых рынков и рабочих мест в сфере ИТ и высоких технологий.	– Высокие начальные затраты на внедрение технологий и цифровую инфраструктуру. – Неравномерный доступ к цифровым решениям между крупными и малыми предприятиями. – Недостаток квалифицированных кадров для работы с современными технологиями. – Зависимость от устойчивости информационных систем и риски технических сбоев.
Возможности	**Угрозы**
– Расширение глобального сотрудничества и интеграции в мировые цепочки создания стоимости. – Привлечение инвестиций в цифровые проекты и повышение инновационной активности. – Ускорение научных исследований и разработок благодаря новым инструментам обработки данных. – Рост гибкости экономики: способность быстрее адаптироваться к кризисам и изменениям внешней среды.	– Рост киберугроз и опасность утечки данных. – Усиление социального неравенства из-за вытеснения низкоквалифицированного труда. – Зависимость национальной экономики от зарубежных поставщиков технологий. – Риск цифрового разрыва между странами и регионами, что может ослабить конкурентоспособность.

Статистические данные подтверждают данный вывод: число предприятий и организаций, внедрявших инновации, остаётся ограниченным (см. рис. 3). Это свидетельствует о цифровом разрыве между различными категориями бизнеса, что напрямую влияет на конкурентоспособность экономики.

Таким образом, цифровые технологии несут в себе значительный потенциал для повышения производительности труда, однако требуют комплексного подхода к управлению рисками. Для получения долгосрочного положительного эффекта необходимо не только внедрять инновации, но и развивать инфраструктуру, повышать уровень цифровой грамотности населения и обеспечивать надёжную систему защиты данных[3].

Тем временем на сегодняшний день растёт число предприятий и организаций, внедрявших инновации (рисунок 3).



Рис. 3. Число предприятий и организаций, внедрявших инновации (единиц) по stat.uz

2025-YIL 23–24-OKTYABR – IV XALQARO FORUM

Рисунок 3 содержит вывод о том, что цифровые технологии становятся одним из ключевых факторов роста производительности труда и трансформации экономики. Рисунок демонстрирует график числа предприятий и организаций, внедряющих инновации. Резкий рост в 2023 году и последующее снижение в 2024 году может говорить о реализации масштабного проекта/программы, связанной с внедрением инноваций в 2023 году, и последующем замедлении темпов. Вывод в тексте указывает на важность цифровых технологий и инноваций для экономического роста, и повышения конкурентоспособности[2]. Внедрение цифровых технологий обеспечивает сокращение издержек, повышение качества продукции и услуг, ускорение управленческих процессов и формирование новых рынков. Подчеркивается роль автоматизации, искусственного интеллекта, больших данных и других цифровых решений[3].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Проведённый анализ показывает, что цифровые технологии становятся одним из ключевых факторов роста производительности труда и трансформации экономики в целом. Их внедрение обеспечивает сокращение издержек, повышение качества продукции и услуг, ускорение управленческих процессов и формирование новых рынков[1]. Автоматизация, искусственный интеллект, большие данные и другие цифровые решения не только повышают эффективность работы отдельных предприятий, но и создают условия для повышения конкурентоспособности национальной экономики на мировом уровне.

Вместе с тем цифровизация не является однозначным процессом. Она сопровождается целым рядом вызовов: от необходимости значительных инвестиций и развития цифровой инфраструктуры до рисков киберугроз и вытеснения низкоквалифицированного труда. Эти факторы требуют внимания со стороны государства, бизнеса и общества. Важно обеспечить подготовку специалистов, развитие инновационной среды и формирование механизмов защиты информации.

Таким образом, цифровые технологии могут стать системообразующим элементом устойчивого экономического роста, если их внедрение будет сопровождаться комплексной работой по минимизации рисков и повышению доступности цифровых решений. В этом случае они будут способствовать не только росту производительности труда, но и улучшению качества жизни населения, укреплению конкурентоспособности страны и её более активной интеграции в глобальную экономику.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 г. № УП-6079 об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации
2. www.stat.uz/ - официальный сайт Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике.
3. The Future of Jobs Report. World Economic Forum. [Электронный ресурс]. URL: https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2018 (дата обращения: 04.12.2022).

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING HOZIRGI HOLATI

Khusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li
TDIU “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
E-mail: khusniddinov24@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning hozirgi holati tahlil qilingan. Davlat strategiyalari, universitetlardagi raqamli infratuzilmalar, masofaviy ta’lim markazlari va xalqaro hamkorlik tajribalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim, oliy ta’lim, masofaviy ta’lim, raqamli infratuzilma, Digital Uzbekistan 2030.

Abstract: The article analyzes the current state of implementing digital technologies in higher education institutions of Uzbekistan. It examines government strategies, digital infrastructures of universities, distance learning centers, and international cooperation practices. Moreover, the study provides recommendations for addressing the existing challenges in the process of digital transformation.

Key words: Digital education, higher education, distance learning, digital infrastructure, Digital Uzbekistan 2030.

Аннотация: В статье проанализировано современное состояние внедрения цифровых технологий в высших учебных заведениях Узбекистана. Рассмотрены государственные стратегии, цифровая инфраструктура университетов, центры дистанционного обучения и опыт международного сотрудничества. Кроме того, приведены предложения по устранению существующих проблем в процессе цифровой трансформации.

Ключевые слова: Цифровое образование, высшее образование, дистанционное обучение, цифровая инфраструктура, Digital Uzbekistan 2030.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2020 yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim tizimida zamonaviy raqamli infratuzilmalarni yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, elektron ta’lim platformalarini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar belgilab berildi. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, balki talabalarining bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, masofaviy ta’limni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni elektron tarzda yo‘lga qo‘yish va akademik mobillikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mamlakat universitetlari onlayn kurslar, masofaviy o‘qitish markazlari, virtual laboratoriyalar va raqamli kutubxonalarni shakllantirish orqali raqamli transformatsiya jarayoniga qo‘shilmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’limning tezkor yo‘lga qo‘yilishi mazkur jarayonning ahamiyati va zarurligini yanada oydinlashtirdi.

Biroq, raqamli texnologiyalarni joriy etishda infratuzilma yetishmovchiligi, ayrim hududlarda internet sifatining pastligi, o‘qituvchilarning raqamli malakasidagi kamchiliklar kabi qator muammolar ham mavjud. Shu sababli, mazkur maqolada O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning hozirgi holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar ko‘rib chiqiladi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni kiritish orqali uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, AQSH va Yevropa davlatlarida raqamli ta’lim platformalari va sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayoniga faol tatbiq etilmoqda. Masalan, Coursera, edX, Khan Academy kabi onlayn platformalar talabalarga sifatli ta’lim olish imkoniyatini taqdim etmoqda. Shuningdek, Finlyandiya va Singapur kabi davlatlarda ta’lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston tajribasida ham raqamli ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. 2020 yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron platformalar yaratish va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiya oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlariga keng yo‘l ochdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2017–2023 yillar davomida qabul qilingan qaror va farmonlarda oliy ta’limni modernizatsiya qilish, raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, YUNESKO (2021) hisobotlarida pandemiya davrida O‘zbekiston universitetlarining onlayn ta’limni joriy etish tajribasi ijobiy misol sifatida qayd etilgan.

Jahon bankining “Modernizing Higher Education Project” (2020–2024) dasturi doirasida oliy ta’limda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, masofaviy o‘qitish markazlarini yaratish va elektron ta’lim platformalarini takomillashtirish uchun grant va moliyaviy yordam ko‘rsatildi. Shu bilan birga, Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti (TATU) tajribasi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun ilg‘or model sifatida tan olinmoqda. 2021 yilda tashkil etilgan Masofaviy ta’lim markazi elektron kurslar yaratish va talabalar uchun onlayn ta’limni yo‘lga qo‘yishda muhim rol o‘ynamoqda.

Mahalliy olimlardan Qodirov A. (2022) va Karimov B. (2023) o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda raqamli ta’limning rivojlanish jarayonini, onlayn platformalar imkoniyatlarini va ularni qo‘llashda uchrayotgan muammolarni tahlil qilgan. Ular asosiy to‘siqlar sifatida internet infratuzilmasining notekis rivojlanganligi hamda pedagog kadrlarning raqamli malakasidagi kamchiliklarni ta’kidlab o‘tganlar.

World Bank Education Blog (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston pandemiya davrida masofaviy ta’limni qisqa vaqt ichida samarali yo‘lga qo‘ygan davlatlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Shu bilan birga, European Journal of Education (2022) tadqiqotida Yevropa olimlari O‘zbekistondagi ta’lim islohotlarini o‘rganib, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida davlat qo‘llovi hal qiluvchi omil ekanini qayd etganlar.

Mahalliy manbalardan biri bo‘lgan “O‘zbekistonda oliy ta’limni raqamlashtirishning muammo va istiqbollari” (2022) nomli maqolada esa raqamli transformatsiya yo‘lidagi asosiy to‘siqlar sifatida hududlar o‘rtasidagi raqamli tengsizlik va axborot xavfsizligi masalalari tilga olingan. OECD (2023) tomonidan tayyorlangan ta’lim hisobotida O‘zbekistonning raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishdagi ijobiy yutuqlari bilan bir qatorda, xalqaro standartlarga mos raqamli kontent yaratish va uning samaradorligini baholash tizimini rivojlantirish zarurligi alohida ta’kidlangan.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni oliy ta’lim tizimida samarali qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va ta’lim oluvchilarning faolligini rag‘batlantirish imkonini beradi. Biroq, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun metodik yondashuvlarni takomillashtirish, raqamli infratuzilmani mustahkamlash va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda hujjatlar tahlili, adabiyotlar sharhi va taqqoslash usullaridan foydalanildi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Prezident qarorlari, Jahon banki va YUNESKO hisobotlari hamda universitetlarning raqamli infratuzilmalari tahlil qilindi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro tadqiqotlar o‘rganilib, O‘zbekiston tajribasi xorijiy amaliyot bilan taqqoslandi. Ayrim oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va talabalar fikrlari empirik ma’lumot sifatida inobatga olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni so‘nggi yillarda izchil rivojlanmoqda. Davlat strategiyalari, universitetlardagi raqamli infratuzilmalar, xalqaro hamkorlik va pandemiya davrida to‘plangan tajriba bu jarayonni tezlashtirdi. Biroq infratuzilma, kadrlar malakasi va elektron kontent sifati jihatidan ayrim muammolar hanuz mavjud.

1-jadval. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash

Baholash mezonlari	Kutilgan natija	Amalda kuzatilgan holat	Samaradorlik darajasi
Infratuzilma	Barcha universitetlarda yuqori tezlikdagi internet va texnika mavjud	Yirik shaharlarda yaxshi, lekin hududlarda yetishmovchilik mavjud	O‘rta
Pedagoglar raqamli malakasi	Barcha o‘qituvchilar raqamli texnologiyalardan erkin foydalana oladi	Qisman joriy etilgan, muntazam malaka oshirish talab qilinadi	O‘rta
Talabalar imkoniyatlari	Masofaviy ta’limdan keng foydalanish imkoniyati yaratilgan	Ko‘pchilik talabalar foydalanmoqda, lekin tengsizlik mavjud	Yaxshi
Elektron kontent sifati	Milliy standartlarga mos, to‘liq va interaktiv kontent yaratilgan	Ayrim kurslar yaxshi, ammo barcha fanlar qamrab olingan emas	O‘rta
Xalqaro integratsiya	Ta’lim platformalari xalqaro standartlarga to‘liq moslashgan	Loyihalar amalga oshmoqda, lekin to‘liq integratsiya hali yo‘q	Past
Iqtisodiy samaradorlik	Masofaviy ta’lim orqali xarajatlar qisqaradi	Qisman tejash mavjud, ammo infratuzilmaga sarf katta	O‘rta

Oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi turli mezonlar bo‘yicha farq qiladi. Talabalar imkoniyatlari nisbatan yuqori baholangan, chunki masofaviy ta’lim platformalaridan ko‘pchilik talabalar samarali foydalanmoqda. Shu bilan birga, infratuzilma, pedagoglar raqamli malakasi va elektron kontent sifati o‘rta darajada baholangan bo‘lib, bu yo‘nalishlarda rivojlanish zarurligini ko‘rsatadi.

Eng past baholangan yo‘nalish xalqaro integratsiya hisoblanadi. Bu esa O‘zbekiston ta’lim platformalarining xalqaro standartlarga to‘liq moslashmagani va universitetlarning global ta’lim tizimiga integratsiyasi yetarli darajada amalga oshirilmaganini anglatadi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar samaradorligini oshirish uchun infratuzilmani takomillashtirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

2-jadval. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari va muammolari

Yo‘nalishlar	Amalga oshirilgan ishlar	Mavjud muammolar
Davlat siyosati	“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va Prezident qarorlari qabul qilindi	Qonunchilikda raqamli ta’lim standartlari to‘liq ishlab chiqilmagan
Universitet infratuzilmasi	Masofaviy ta’lim markazlari, elektron kutubxonalar va onlayn kurslar tashkil etildi	Ayrim hududlarda internet sifati past, texnika yetishmovchiligi mavjud
Pedagoglar malakasi	Oliy o‘quv yurtlarida malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilgan	Barcha o‘qituvchilar raqamli pedagogika ko‘nikmalariga ega emas
Xalqaro hamkorlik	Jahon banki va YUNESKO loyihalari doirasida raqamli infratuzilmalar yangilanmoqda	Ta’lim platformalarini xalqaro standartlarga to‘liq integratsiya qilish sust kechmoqda
COVID-19 pandemiyasi tajribasi	Qisqa muddatda onlayn ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yildi	Elektron kontent sifati va monitoring tizimi yetarli darajada samarali emas

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirdi va talabalar uchun masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirdi. Davlat siyosati hamda xalqaro hamkorlik bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ldi. Eng muhim to‘siqlar sifatida esa infratuzilma kamchiliklari, pedagog kadrlar malakasining yetarli emasligi va o‘quv kontenti sifatining pastligi qayd etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Masofaviy ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar va multimedia resurslari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Davlat siyosati va xalqaro hamkorlik bu jarayonning asosiy drayverlari sifatida faoliyat yuritmoqda.

Biroq infratuzilmadagi kamchiliklar, pedagog kadrlarning raqamli malakasining yetarli emasligi hamda xalqaro integratsiya darajasining pastligi hanuzgacha jiddiy to‘siqlar sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Infratuzilmani takomillashtirish — barcha oliy ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari va zamonaviy texnik vositalar bilan to‘liq ta’minlash.

Pedagoglar raqamli malakasini oshirish — muntazam ravishda onlayn kurslar, seminarlar, treninglar hamda xalqaro tajriba almashish dasturlarini tashkil etish.

Elektron kontentni boyitish — milliy standartlarga mos, interaktiv va multimedia elementlarini o‘z ichiga olgan o‘quv resurslarini ishlab chiqish.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish — O‘zbekiston universitetlarini xalqaro ta’lim platformalariga integratsiya qilish, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish.

Monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish — raqamli texnologiyalar samaradorligini doimiy nazorat qilish va tahlil qilish orqali jarayonni takomillashtirish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni to‘liq joriy etish orqali O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, mamlakatni global ta’lim maydonida munosib o‘ringa olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш.М. (2021). Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: Ўзбекистон.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” стратегияси. Тошкент.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. (2022). Олий таълимда рақамли технологиялар дастури. Тошкент.
4. Karimov, B., & Abduqahhorov, A. (2021). Digital transformation of higher education in Uzbekistan. Central Asian Journal of Education, 3(2), 45–52.
5. UNESCO. (2020). The Digital Transformation of Education: Global Report. Paris: UNESCO.
6. World Bank. (2021). Uzbekistan: Modernizing Education for a Digital Future. Washington, DC.
7. OECD. (2020). Digital Education Outlook 2020: Shaping Policy for the Future. Paris: OECD.
8. Хасанова, М. (2022). Масофавий таълим платформалари. Таълим ва инновация журнали, №4, 112–118.
9. Al-Fraihat, D., Joy, M., & Sinclair, J. (2020). Evaluating E-learning systems success. Computers in Human Behavior, 102, 67–86.
10. Anderson, T., & Dron, J. (2014). Teaching and learning in the digital age. Athabasca University Press.

NASHRIYOTDA KO‘ZI OJIZLAR UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH

Mannopova Manzura Jamil qizi
TDIU “Axborot tizimlari va texnologiyalar” kafedrasi assistenti
Email: manzurkamannapova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nashriyot sohasida ko‘zi ojizlar uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilish masalasi atroflicha o‘rganiladi. Bugungi global raqamlashtirish davrida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni, ayniqsa ko‘zi ojizlarni axborot resurslari va kitob mahsulotlari bilan ta’minlash muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda xorijiy va milliy tajribalar asosida nashriyotlarda ko‘zi ojizlar uchun qo‘llaniladigan asosiy raqamli texnologiyalar – audiokitoblar, elektron kitoblar, ekran ovozlovchi dasturlar, Brail displey va mobil ilovalar tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi, ta’lim va ma’naviyatni oshirishdagi o‘rni yoritildi. Natijalarga ko‘ra, raqamli texnologiyalar nashriyot mahsulotlarini ko‘zi ojizlar uchun moslashtirishda vaqt va xarajatlarni tejashi, ularning axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishi aniqlandi. Maqola oxirida O‘zbekistonda nashriyot faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish bo‘yicha takliflar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: nashriyot, raqamli texnologiyalar, ko‘zi ojizlar, audiokitob, elektron kitob, ekran ovozlovchi dastur, Brail displey, inklyuziv ta’lim, axborotga teng imkoniyatlar.

Abstract: This article thoroughly examines the issue of implementing digital technologies for visually impaired individuals in the publishing industry. In today’s era of global digitalization, providing people with disabilities—especially the blind—with access to information resources and book products is considered one of the key social responsibilities. The study analyzes, based on international and national experiences, the main digital technologies used in publishing for the visually impaired, including audiobooks, e-books, screen-reading software, Braille displays, and mobile applications. Furthermore, the paper highlights the economic and social efficiency of these technologies and their role in enhancing education and spiritual development. The findings reveal that digital technologies help adapt publishing products for the blind by saving time and costs and expanding their access to information. In conclusion, the article proposes recommendations for integrating innovative technologies into the publishing activities of Uzbekistan.

Key words: publishing, digital technologies, visually impaired, audiobook, e-book, screen reader, Braille display, inclusive education, equal access to information.

Аннотация: В данной статье подробно исследуется вопрос внедрения цифровых технологий для незрячих людей в издательской сфере. В условиях глобальной цифровизации обеспечение лиц с ограниченными возможностями, особенно незрячих, доступом к информационным ресурсам и книжной продукции является одной из важнейших социальных задач. В исследовании на основе зарубежного и национального опыта проанализированы основные цифровые технологии, применяемые в издательствах для незрячих — аудиокниги, электронные книги, программы экранного озвучивания, брайлевские дисплеи и мобильные приложения. Также рассмотрена экономическая и социальная эффективность этих технологий, их роль в повышении уровня образования и духовного развития. По результатам анализа установлено, что цифровые технологии способствуют адаптации издательской продукции для незрячих, сокращая время и затраты, а также расширяя их возможности доступа к информации. В заключении статьи представлены предложения по интеграции инновационных технологий в издательскую деятельность Узбекистана.

Ключевые слова: издательство, цифровые технологии, незрячие, аудиокнига, электронная книга, программа экранного озвучивания, брайлевский дисплей, инклюзивное образование, равный доступ к информации.

KIRISH

Jahonda kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan, nashriyot va matbaa sohasiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali kitob mahsulotlarini yaratish, tarqatish va iste’molchilarga yetkazish jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan shaxslar, ayniqsa ko‘zi ojizlar uchun axborot resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatini ta’minlash davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan

biri hisoblanadi. Ko‘zi ojizlar axborot olish jarayonida ko‘plab to‘siqlarga duch keladilar. An’anaviy bosma mahsulotlar ular uchun deyarli mos kelmaydi, bu esa bilim olish va ma’naviy rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, nashriyot sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish — inklyuziv ta’lim va axborotga teng imkoniyatlar tamoyilini amalga oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida ta’lim va madaniyat sohasini raqamlashtirish, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa nashriyotlarda ham audiokitoblar, elektron kitoblar, Brail displey va ekran ovozlovchi dasturlar kabi texnologiyalarni keng joriy etish zaruriyatini taqozo etmoqda. Ushbu maqolada ko‘zi ojizlar uchun nashriyot mahsulotlarini raqamli texnologiyalar orqali moslashtirish imkoniyatlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda amaliyotdagi qo‘llanish holatlari tahlil qilinadi va muvofiq takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko‘zi ojizlar uchun axborot resurslarini taqdim etish va nashriyot sohasini raqamlashtirish masalasi ko‘plab mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning ijtimoiy samaradorligi, axborotga teng imkoniyatlar yaratishdagi ahamiyati va ularning amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining “World Report on Vision” (World Health Organization, 2021) hisobotida dunyo bo‘yicha 285 milliondan ortiq insonning ko‘rish qobiliyati cheklanganligi qayd etilgan bo‘lib, ular uchun axborotga teng imkoniyatlar yaratish global darajadagi muhim ijtimoiy vazifa sifatida ta’kidlanadi. Shuningdek, ushbu hisobotda raqamli texnologiyalar yordamida ko‘zi ojizlarning axborotga kirish imkonini kengaytirish, ularni ta’lim va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga ko‘maklashish zarurligi qayd etilgan.

UNESCO (2020) tomonidan chop etilgan Inclusive Education Guidelines nomli hujjatda raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish orqali ko‘zi ojizlarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish, o‘quv jarayonini moslashtirilgan raqamli kontent asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Mazkur yondashuv ko‘zi ojizlar uchun o‘quv materiallari, elektron darsliklar va interaktiv platformalar yaratishning dolzarbligini asoslab beradi.

Harper, S. (2018) o‘zining Designing Accessible Digital Content nomli asarida raqamli kontentni ko‘zi ojizlar uchun moslashtirish tamoyillarini ishlab chiqqan. Muallif ekran ovozlovchi dasturlar, matnni ovozli formatga aylantiruvchi tizimlar va foydalanuvchi interfeyslarini inkluziv tarzda loyihalashning samarali usullarini taklif etgan. Uning tadqiqoti raqamli kontentni barcha foydalanuvchi guruhlari uchun teng darajada qulay qilish tamoyilini asoslab beradi.

Kleege, G. (2019) o‘zining More Than Meets the Eye: What Blindness Brings to Art nomli tadqiqotida madaniy va adabiy nashrlarda audiokitoblar hamda maxsus mobil ilovalarning o‘rni haqida so‘z yuritadi. Muallifning fikricha, bunday texnologiyalar ko‘zi ojiz auditoriyani madaniyat va san’at olamiga jalb etishning muhim vositasidir.

Hersh, M. va Johnson, M. (2019) tomonidan yozilgan Assistive Technology for Visually Impaired and Blind People asarida ko‘zi ojizlar uchun qo‘llaniladigan zamonaviy raqamli texnologiyalar – Brail displeylar, audiokitoblar, ekran ovozlovchi dasturlar va boshqa innovatsion vositalar to‘liq tasniflangan. Mualliflar bu texnologiyalarning foydalanuvchilar hayot sifatini yaxshilash, ularni mustaqil o‘qish va o‘rganish imkoniyatlari bilan ta’minlashdagi ahamiyatini asoslab berganlar.

Mahalliy manbalar orasida Karimov, F. (2022) ning “O‘zbekistonda raqamli ta’lim va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun resurslar” nomli maqolasida mamlakatimizda audiokitoblar va elektron kitoblar yaratish tajribasi, ularning amaliy qo‘llanilishi hamda mavjud infratuzilma imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif, shuningdek, ta’lim tizimida imkoniyati cheklangan shaxslar uchun axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish zarurligini ta’kidlagan.

Abdullaeva, N. (2021) o‘zining “Inklyuziv nashriyot faoliyatida raqamli texnologiyalarning ahamiyati” nomli ilmiy maqolasida milliy nashriyotlarda ko‘zi ojizlar uchun maxsus kontent tayyorlashda duch kelinayotgan muammolar – texnik ta’minotning yetishmasligi, mutaxassislar malakasi va dasturiy vositalar sifati masalalarini tahlil qiladi hamda ularning yechimiga oid takliflar beradi.

Shuningdek, International Publishers Association (2022) tomonidan e’lon qilingan Accessibility in Publishing Report hisobotida nashriyotlarda raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy va iqtisodiy samaralari yoritilgan. Unda xalqaro tajriba asosida barcha foydalanuvchi guruhlari uchun qulay va ochiq bo‘lgan nashr tizimini yaratish — zamonaviy nashriyot siyosatining ajralmas qismi ekanligi ta’kidlanadi.

Umuman olganda, o‘rganilgan manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ko‘zi ojizlar uchun nashriyot mahsulotlarini moslashtirishda, ularning ta’lim, madaniyat va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois O‘zbekiston tajribasida ham xalqaro yondashuvlardan foydalanish, mavjud texnik vositalarni takomillashtirish va maxsus dasturlarni keng joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada nashriyotlarda ko‘zi ojizlar uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilish jarayoni quyidagi usullar asosida o‘rganildi: Texnologik tahlil – audiokitoblar, elektron kitoblar, ekran ovozlovchi dasturlar, Brail displey va mobil ilovalarning imkoniyatlari o‘rganildi. Solishtirma tahlil – an’anaviy va raqamli nashriyot mahsulotlari vaqt va xarajat samaradorligi jihatidan taqqoslandi. Iqtisodiy baholash – raqamli texnologiyalarni joriy etishda sarf-xarajat va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Xalqaro tajriba tahlili – UNESCO, WHO va International Publishers Association hisobotlari asosida tajribalar solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida nashriyotlarda ko‘zi ojizlar uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi o‘rganildi. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, turli texnologiyalar turli yo‘nalishlarda samarali natija beradi. Masalan, audiokitoblar kitobxonlar uchun eng ommabop va samarali shakl hisoblanadi. Ular axborotni tez qabul qilish imkonini berib, vaqtning 30 foizgacha tejalishiga olib keladi. Shu bilan birga, ularning yaratilishi uchun nisbatan kam xarajat talab qilinadi.

Elektron kitoblar (e-book) esa ko‘zi ojizlar uchun maxsus dasturlar yordamida o‘qish imkonini beradi. Bu texnologiyalar akademik va ilmiy adabiyotlarni keng qamrovda tarqatishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xarajatlarni 20 foizgacha kamaytiradi.

Ekran ovozlovchi dasturlar (screen reader software) kundalik hayotda eng ko‘p qo‘llaniladigan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Ular kompyuter va mobil qurilmalardagi ma’lumotlarni ovoz orqali yetkazib berish imkonini yaratadi. Bu texnologiyalar vaqt tejamkorligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich – 40 foizga ega bo‘lib, axborotdan foydalanishda qulaylikni ta’minlaydi.

Brail displeylar nisbatan qimmat turadi, biroq ta’lim muassasalarida alohida ahamiyatga ega. Ular talabalar va o‘quvchilarga mustaqil bilim olish imkonini berib, inklyuziv ta’lim jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Mobil ilovalar esa zamonaviy sharoitda yoshlar uchun juda qulay platforma hisoblanadi. Ular orqali kitoblarga, darsliklarga va turli axborot resurslariga tezkor kirish mumkin. Shu yo‘l bilan vaqtning 35 foizgacha tejalishiga erishiladi.

Umumiy natijalardan ko‘rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar nashriyot mahsulotlarini ko‘zi ojizlar uchun moslashtirishda samarali yechim sifatida xizmat qiladi. Ular axborotga teng imkoniyat yaratish, ta’lim va ma’naviyatni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Nashriyotlarda ko‘zi ojizlar uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilish natijalari turli ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Tahlil jarayonida ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi quyidagi jadvalda ifodalandi:

1-jadval. Ko‘zi ojizlar uchun raqamli texnologiyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Texnologiya turi	Afzalliklari	Xarajat tejalishi (%)	Vaqt tejalishi (%)	Qamrov doirasi (foydalanuvchilar)
Audiokitoblar	Axborotni tez qabul qilish, portability	25%	30%	Keng qamrov (yoshlar va kattalar)
Elektron kitoblar (e-book)	Brail displey va screen reader bilan uyg‘unlashadi	20%	25%	Akademik va badiiy adabiyot
Ekran ovozlovchi dasturlar	Kompyuter va mobil ilovalarda keng qo‘llaniladi	15%	40%	Kundalik foydalanuvchilar
Brail displeylar	Mustaqil o‘qish imkoniyati	10%	15%	Asosan ta’lim muassasalari
Mobil ilovalar	Onlayn axborot va kitoblarga tezkor kirish	18%	35%	Yoshlar va talabalar

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, audiokitoblar va ekran ovozlovchi dasturlar samaradorlik jihatidan eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Ular vaqt va resurslarni tejash bilan birga, ko‘zi ojiz kitobxonlarning axborot olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Shu bilan birga, Brail displeylar ancha qimmat texnologiya bo‘lishiga qaramay, ta’lim muassasalari uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni nashriyot faoliyatiga integratsiya qilish axborotga teng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ijtimoiy adolat va inklyuzivlikni ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nashriyotlarda ko‘zi ojizlar uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat axborotga teng imkoniyatlar yaratish, balki ta’lim va ma’naviy rivojlanishni ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bunday texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga kirib borib, imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Xususan, audiokitoblar, elektron kitoblar, ekran ovozlovchi dasturlar, Brail displeylar va mobil ilovalar orqali axborot olish jarayonining qulayligi va samaradorligi ortib, vaqt va xarajatlarning sezilarli darajada tejalishiga erishiladi. Xalqaro tajribalar tahlili ham ushbu jarayonning ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalarga ko‘ra, audiokitoblar va ekran ovozlovchi dasturlar samaradorlik darajasi bo‘yicha eng maqbul yechimlar hisoblanadi. Ular yordamida ko‘zi ojiz foydalanuvchilar ma’lumotni tez va qulay tarzda qabul qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Elektron kitoblar va mobil ilovalar esa akademik hamda badiiy adabiyotlarni keng doirada tarqatish imkoniyatini berib, ta’lim tizimida ham, madaniy hayotda ham muhim rol o‘ynaydi. Brail displeylar, garchi narxi yuqori bo‘lsa-da, ta’lim muassasalarida inklyuziv o‘qish jarayonini tashkil etishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ijtimoiy adolatni ta’minlash, barcha uchun axborotga teng imkoniyat yaratish va inklyuziv jamiyat qurish yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda bir qator amaliy takliflar ilgari surish mumkin. Birinchidan, nashriyotlarda ko‘zi ojizlar uchun maxsus audiokitoblar studiyalarini tashkil etish zarur. Bu studiyalar yordamida sifatli ovozli kitoblar yaratilib, ularni keng auditoriyaga yetkazish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, elektron kitoblar va audiokontentni rivojlantirish uchun yagona milliy onlayn platforma yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday platforma foydalanuvchilarga turli janrdagi adabiyotlarga bepul yoki arzon narxda kirish imkonini beradi.

Uchinchidan, Brail displeylar va ekran ovozlovchi dasturlardan samarali foydalanish uchun davlat tomonidan grantlar, subsidiyalar va imtiyozli dasturlarni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. Bu esa raqamli vositalarni har bir ta’lim muassasasiga yetkazish va ularning keng joriy etilishini ta’minlash imkonini beradi. To‘rtinchidan, nashriyot xodimlari, muharrirlar va IT mutaxassislari uchun raqamli inklyuziv texnologiyalar bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish zarur. Bunday malaka oshirish dasturlari yangi avlod texnologiyalarini amaliyotga joriy etishda muhim rol o‘ynaydi.

Beshinchidan, UNESCO va International Publishers Association tajribalari asosida xalqaro hamkorlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bu hamkorlik doirasida O‘zbekiston nashriyotlari ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalangan holda ko‘zi ojizlar uchun innovatsion kontent ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni nashriyot faoliyatiga integratsiya qilish ko‘zi ojizlar uchun nafaqat axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish, ta’lim va madaniyatda inklyuzivlikni ta’minlash orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur sohada tizimli yondashuv, davlat qo‘llovi va xalqaro hamkorlik asosida olib borilgan ishlar O‘zbekistonning raqamli inklyuziv jamiyat sari dadil odim tashlashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ–6079-сон Фармони “Рақамли Ўзбекистон – 2030” дастурини тасдиқлаш тўғрисида.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги. (2022). *Олий таълим тизимида рақамли технологияларни жорий этиш бўйича йиллик ҳисобот*. Тошкент.
3. World Health Organization. (2021). *World Report on Vision*. Geneva: WHO Press.
4. UNESCO. (2020). *Inclusive Education Guidelines*. Paris: UNESCO Publishing.
5. Harper, S. (2018). *Designing Accessible Digital Content*. London: Routledge.
6. Kleege, G. (2019). *More Than Meets the Eye: What Blindness Brings to Art*. Oxford University Press.
7. Hersh, M., & Johnson, M. (2019). *Assistive Technology for Visually Impaired and Blind People*. Springer.
8. International Publishers Association. (2022). *Accessibility in Publishing Report*. Geneva: IPA.
9. Каримов, Ф. (2022). Ўзбекистонда рақамли таълим ва имконияти чекланган шахслар учун ресурслар. *Иқтисодиёт ва таълим журнали*, №3, 45–53.
10. Абдуллаева, Н. (2021). Инклюзив нашриёт фаолиятида рақамли технологияларнинг аҳамияти. *ТДПУ Илмий ахборотлари*, №4, 77–82.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI

Azizova Ruhsora Zafar qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti.
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi 2-bosqich magistranti
Email: azizovaruhsora27@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekiston xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda Prezidentning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa muhim hujjatlari doirasida amalga oshirilgan islohotlar yoritiladi. Statistik ma’lumotlar asosida regressiya tahlili o‘tkazilib, IT xarajatlari va malakali xodimlar ulushining xizmat hajmiga ta’siri o‘rganilgan. Maqolada hududlar bo‘yicha xizmat hajmi, IT xarajatlari va malakali xodimlarning o‘zaro bog‘liqligi grafik va jadval ko‘rinishida keltirilgan. Tahlil natijalari raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, regressiya tahlili, IT xarajatlari, malakali xodimlar, iqtisodiy transformatsiya, innovatsion rivojlanish, xizmat hajmi.

Abstract: This article is devoted to analyzing the economic efficiency of implementing digital technologies in the service sector of Uzbekistan. It highlights the reforms carried out within the framework of the President’s “Digital Uzbekistan – 2030” strategy and other important policy documents. Based on statistical data, a regression analysis is conducted to examine the impact of IT expenditures and the share of qualified employees on the volume of services. The paper also presents graphs and tables illustrating the interrelation between service volume, IT costs, and qualified personnel across regions. The results confirm that the introduction of digital technologies significantly enhances economic efficiency in the service sector.

Key words: digital technologies, economic efficiency, regression analysis, IT expenditures, qualified employees, economic transformation, innovative development, service volume.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу экономической эффективности внедрения цифровых технологий в сфере услуг Узбекистана. В ней рассматриваются реформы, реализуемые в рамках стратегии Президента «Цифровой Узбекистан – 2030» и других важных документов. На основе статистических данных проведён регрессионный анализ, в ходе которого изучено влияние расходов на IT и доли квалифицированных работников на объём оказываемых услуг. В статье представлены графики и таблицы, отражающие взаимосвязь между объёмом услуг, IT-расходами и долей квалифицированных сотрудников по регионам. Результаты анализа подтверждают, что внедрение цифровых технологий способствует повышению экономической эффективности в сфере услуг.

Ключевые слова: цифровые технологии, экономическая эффективность, регрессионный анализ, IT-расходы, квалифицированные кадры, экономическая трансформация, инновационное развитие, объём услуг.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. So‘nggi yillarda iqtisodiy rivojlanish va xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni oshirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayon mamlakatning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida aniq maqsadlar va amaliy rejalar bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Mazkur strategiya iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni tezlashtirishga qaratilgan. Global miqyosda xizmat ko‘rsatish sohasi raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmat sifati sezilarli darajada oshmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya xizmatlarni avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va iste’molchilar ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatini beradi. Xuddi shu singari jarayonlar O‘zbekistonda ham kuzatilmoqda.

2020-yil 5-oktyabrdagi PQ-6079-son qaror bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatning barcha hududlarida raqamli texnologiyalarni kengaytirish va ularning iqtisodiyotga ta’sirini kuchaytirishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, 2023-yil 2-fevraldagi PQ-20-son qaror xizmat ko‘rsatish sohasida AKT infratuzilmasini rivojlantirish va davlat xizmatlarini avtomatlashtirishga qaratilgan. Ushbu huquqiy asoslar mamlakatda IT texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyatini yaratdi.

Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Xususan, statistika va regressiya tahlili asosida IT xarajatlari, malakali xodimlar ulushi va xizmat hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish orqali xizmat ko‘rsatish sohasining istiqbollari aniqlanadi. Tahlil natijalari ushbu sohaning yanada samarali rivojlanishi uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyo iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati keng ko‘rib chiqilgan. Xalqaro tadqiqotlar raqamli iqtisodiyotning asosiy omillari — sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli infratuzilma bo‘yicha innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tasdiqlaydi. Shu jumladan, Brynjolfsson va McAfee tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni qo‘llash operatsion xarajatlarni kamaytirib, xizmat ko‘rsatish tezligini oshiradi. OECD (2019) “Raqamli iqtisodiy rivojlanish” bo‘yicha hisobotda ko‘rsatilganidek, raqamli texnologiyalar samaradorlikni oshiradi va xizmatlarning mijozlarga tezkor yetkazib berilishini ta’minlaydi. Gartner (2021) “Digital Acceleration in Service Industries” hisobotida raqamli transformatsiya loyihalari ko‘rsatkichlari xizmat ko‘rsatish sohasida 30–40% samaradorlik oshishini tasdiqlaydi. O‘zbekiston sharoitida esa raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston iqtisodiy sharoitida xizmat ko‘rsatish sektori, ayniqsa banklar, savdo, logistika va davlat xizmatlari raqamli texnologiyalarni joriy etishda yetakchi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma’lumotlarni to‘plash: 10 ta hududdan xizmat hajmi, IT xarajatlari va malakali xodimlar ulushi bo‘yicha statistik ma’lumotlar yig‘ildi.

Ma’lumotlarning to‘g‘ri kiritilganligini tekshirish va noaniq qiymatlarni tozalash ishlari olib borildi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash: mustaqil va bog‘liq o‘zgaruvchilarni moslashtirish uchun statistik tahlil qilindi. Ma’lumotlar orasidagi korrelyatsiya darajasi o‘rganildi.

Regressiya tahlilini amalga oshirish: regressiya modeli yordamida IT xarajatlari va malakali xodimlar ulushining xizmat hajmiga ta’siri baholandi.

Vizualizatsiya: IT xarajatlari va xizmat hajmi, shuningdek, malakali xodimlar ulushi va xizmat hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik grafiklar yordamida tasvirlandi.

Tadqiqot uchun 10 ta hududdan olingan statistik ma’lumotlar asosida tahlil o‘tkazildi. Quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganildi:

- Xizmat hajmi (y) – million so‘mda;
- IT xarajatlari (x1) – million so‘mda;
- Malakali xodimlar ulushi (x2) – foizda.

Statistik ma’lumotlarga asoslangan oddiy ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli quyidagi ko‘rinishda tuzildi:

$$y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \varepsilon$$

Bu yerda:

y – xizmat hajmi.

x_1 – IT xarajatlari.

x_2 – malakali xodimlar ulushi.

$\beta_2\, \beta_1\, \beta_0$ – regressiya koeffitsiyentlari.

Tahlil uchun Excel va Python dasturiy vositalaridan foydalanildi. Natijalar grafik va jadval ko‘rinishida aks ettirildi.

1-jadval. Xizmat hajmi uchun regressiya tahlili natijalari

Регрессионная статистика	
Множественный R	0,999150467
R-квадрат	0,998301655
Нормированный R-квадра	0,997816413
Стандартная ошибка	4,641890573
Наблюдения	10

Дисперсионный анализ

	df	*SS*	*MS*	*F*	*Значимость F*
Регрессия	2	88659,16996	44329,58498	2057,329573	2,01879E-10
– har bir qoida uchun vazn birliklari mavjud.

Biroq, ANFIS quyidagilarni aniqlashda yordam beradi [4]:
1) tegishlilik markazi;
2) lingvistik o‘zgaruvchilar soni;
3) qo‘llab – quvvatlash darajasi.



1-rasm. ANFISni o‘qitish va sinovdan o‘tkazish algoritmi

Bular asosida neyro – noravshan xulosa chiqarishning ANFIS tizimi arxitekturasi 2 – rasmda keltirilgan bo‘lib, bunda fazifikatlashtirish, xulosa chiqarish mexanizmi, noaniqlashtirish va chiqish qadamlaridan iborat ANFIS arxitekturasi ishlab chiqilgan. Neron tarmoqni har bir kirishi, N kirishlar va M kirish tegishlilik funksiyalaridan iborat bo‘lib, fazifikatlashtirish qadamida $F = M \times N$ neyronlari bilan ishlatiladi. Mantiqiy chiqish mexanizmida R neyronlari (1- va 2- tenglamalar) va defazifikatlashtirish qadamlari va chiqish qadamida bitta neyron bilan $R = M \times N$ qoidalari mavjud.

ANFIS arxitekturasida birinchi markerda haqiqiy foydalanuvchini va ikkinchi markerda hujum izi deb qaralayotgan kirish ma’lumotlari o‘qitiladi. Shundan kelib chiqib, chiqish ma’lumoti sifatida yakuniy natija, ya’ni bu iz foydalanuvchiniki yoki boshqa bir buzg‘unchining izi ekanligi to‘g‘risidagi natijani olish mumkin [5].



2-rasm. ANFIS arxitekturasi

Oddiylik uchun, ko‘rib chiqilayotgan noravshan chiqish tizimi 2-rasmda ko‘rsatilganidek, ikkita kirish x va y hamda bitta chiqish z ga ega, deb tavsiya qilinadi.

$$\text{1-qoida: Agar } x == A_1 \cap y == B_1, \text{ bunda } Z_1 = c_1. \quad (1)$$

$$\text{1-qoida: Agar } x == A_2 \cap y == B_2, \text{ bunda } Z_2 = c_2. \quad (2)$$

Bu ifoda qadamdagi tugunning chiqishi sifatida belgilanadi . ANFIS arxitekturasining qadamlari quyidagicha qurib olinadi:

1-qadam (defazifikatlashtirish qadami). Har bir tugun , ushbu qadamda tugun funksiyasi bo‘lgan moslashuvchan tugun mavjud:

$$j = \mu_{A_i}(x) \text{ учун } i = 1,2,3 \text{ ва } j = 1,2,3; \quad (3)$$

$$j = \mu_{A_i}(x) \text{ учун } i = 1,2,3 \text{ ва } j = 4,5,6; \quad (4)$$

bu ifoda, (yoki) ¯tugunlar uchun yozuv, $j = 1,2,3,4,5,6$ va A_i (yoki B_i) $i = 1,2,3$ – bu tugunlar bilan bog‘langan lingvistik belgi. Boshqacha qilib aytganda, bu noravshan to‘plamning tegishlilik darajasidir (yoki va u berilgan kiritish (yoki) kvantifikatorni (yoki) qanoatlantirish darajasini belgilaydi).

2-qadam (chiqish qadami). Ushbu qadamdagi har bir tugun biriktirilgan tugun bo‘lib, uning chiqishi barcha kirishlar natijasi hisoblanadi:

$$w_j = \mu_{A_i}(x)\mu_{B_i}(y) \text{ учун } i = 1,2,3 \text{ ва } j = 1,2,3,4,...,R. \quad (5)$$

Har bir chiqish tugunlari qoidaning kuchini ifodalaydi.

3-qadam (defazifikatsiya qadami). Har bir tugun , ushbu qadamda tugun funksiyasi bo‘lgan moslashuvchan tugun mavjud.

$$w_j c_j = w_j z_j \text{ учун } j = 1,2,3,4,...,R. \quad (6)$$

bunda: ¯bu tugunning parametrlari to‘plami. Bu qadamdagi parametrlar ketma¯ket parametrlar deb ataladi.

4-qadam (chiqish qadami).

Ushbu qadamdagi yagona tugun biriktirilgan tugun bo‘lib, u umumiy chiqish ma’lumotini barcha kirish ma’lumotlarining yig‘indisi sifatida hisoblaydi. Bu k – jarayon chiqish quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\mu = k, j = \frac{\sum_{j=1}^{R} W_j c_j}{\sum_{j=1}^{R} W_j} \quad (7)$$

ANFIS arxitekturasiday zaruriy parametr qiymatlari o‘rnatilganda, umumiy chiqish ketma-ket parametrlarning chiziqli birikmasi sifatida ifodalanishi mumkin. Belgilarda 4-darajadagi yakuniy chiqish quyidagicha aniqlanadi [7]:

$$Z = \frac{\sum_{j=1}^{R} W_j c_j}{\sum_{j=1}^{R} W_j} = \frac{\sum_{j=1}^{R} W_1 c_1}{\sum_{j=1}^{R} W_j} + \frac{\sum_{j=1}^{R} W_2 c_2}{\sum_{j=1}^{R} W_j} + \frac{\sum_{j=1}^{R} W_3 c_3}{\sum_{j=1}^{R} W_j} + \ldots + \frac{\sum_{j=1}^{R} W_R c_R}{\sum_{j=1}^{R} W_j} \quad (8)$$

$w_1, w_2, w_3, \ldots, w_R$, doimiy deb qabul qilinganligi sababli, (6) ifoda quyidagicha yoziladi:

$$Z = k_1 c_1 + k_2 c_2 + k_3 c_3 + \ldots + k_R c_R \quad (9)$$

bunda:

$$k_1 = \frac{W_1}{\sum_{j=1}^{R} W_j}, k_2 = \frac{W_2}{\sum_{j=1}^{R} W_j}, k_3 = \frac{W_3}{\sum_{j=1}^{R} W_j}, \ldots, k_R = \frac{W_R}{\sum_{j=1}^{R} W_j}. \quad (10)$$

Bu chiziqli ketma-ketlik parametrlarda $c_1, c_2, c_3, \ldots, c_R$. Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

$$S = S_1 + S_2. \quad (11)$$

bunda: “+” amali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yig‘indini ifodalaydi, umumiy parametrlar to‘plami, boshlang‘ich parametrlar (chiziqli bo‘lmagan) to‘plami va boshlang‘ich (chiziqli) parametrlar to‘plami.

Shunday qilib, umumiy ifodani quyidagicha aniqlash mumkin:

$$Z = F(j, S) \quad (12)$$

bunda: natijani yakuniy chiqishi, kirish o‘zgaruvchilari vektori, adaptiv tarmoq tomonidan amalga oshiriladigan umumiy funksiya va - ikkita to‘plamga bo‘linadigan barcha parametrlar to‘plamidir. Shuning uchun gibrid o‘rganish algoritmi ikki qadamdan keyin ortga qayta qo‘llanilishi mumkin. Oldinga o‘tishda tugunning chiqishlari oldinga 3-darajaga o‘tadi va keyingi parametrlar eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlanadi. Orqaga qaytishda xato ma’lumotlar teskari yo‘nalishda tarqaladi va oldingi shart parametrlari gradiyent tushishi yordamida yangilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan ANFIS (Adaptive Neuro-Fuzzy Inference System) arxitekturasi hujum izlarini tahlil qilishda zamonaviy va samarali usul hisoblanadi. Uning asosiy afzalligi shundaki, u kirish ma’lumotlari asosida avtomatik ravishda tegishli qoidalar va parametrlarni moslashtirib boradi. Bu esa tizimning doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi hujum ssenariylariga moslashuvini ta’minlaydi.

Ilmiy ahamiyati shundaki, taklif etilgan algoritm hujum izlarini tasniflashda yangi neyro-noravshan yondashuvni ishlab chiqishga qaratilgan. Bu usul axborot tizimlarida:

– hujumlarni erta aniqlash va ularni foydalanuvchi izlaridan ajratish;
– tahlil jarayonidagi noaniqlikni samarali bartaraf etish;
– sun’iy intellekt asosida avtomatik qoidalar va bilimlar bazasini yaratish;
– xavfsizlik tizimlarini optimallashtirish imkoniyatini beradi.

Shu tariqa, ushbu tadqiqotning dolzarbligi Kiberhujumlarning tobora ko‘payishi va ularni samarali aniqlash zarurati bilan izohlansa, ilmiy ahamiyati esa hujum izlarini klassifikatsiya qilishda neyro-noravshan algoritmlarni qo‘llashning ilmiy asoslarini yaratishda namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy raqamli jamiyatda inson faoliyatining deyarli barcha sohalari axborot tizimlari va kompyuter tarmoqlari bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Bu jarayon, bir tomondan, imkoniyatlarni kengaytirar ekan, ikkinchi tomondan yangi risklarni ham keltirib chiqaradi. Kiberhujumlar va ularning izlari butun boshli axborot muhitining barqarorligi va xavfsizligiga tahdid soladi. Shuning uchun ham hujumlarni erta aniqlash, ularning izlarini tahlil

qilish va haqiqiy foydalanuvchi faoliyatidan ajratish ilmiy tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

An’anaviy usullar bunday murakkab jarayonda ko‘p hollarda samarasiz bo‘lib qoladi, chunki hujum usullari turli-tuman, o‘zgaruvchan va ko‘p qirralidir. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellektga asoslangan usullar, ayniqsa, neyro-noravshan tizimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Neyron tarmoqning moslashuvchanligi va norovshan mantiqning izohliligi birga ishlatilganda, inson tafakkuriga yaqin bo‘lgan tahlil jarayoni paydo bo‘ladi. Bu qo‘llanish orqali ma’lumotlardagi noaniqlik bartaraf etiladi, izlar orasidagi chegaralar ravshanlashadi va aniq xulosa chiqarish imkoni yuzaga keladi.

Maqolada taklif etilgan ANFIS arxitekturasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda yaratilgan. U hujum izlarini tasniflash jarayonida bilimlar bazasi va qoidalar tizimini avtomatik shakllantiradi, bu esa doimo o‘zgarib turuvchi raqamli muhitga tezkor moslashish imkonini beradi. Shu bilan birga, neyro-noravshan tizimning fazifikatsiya, xulosa chiqarish va defazifikatsiya bosqichlari insonning idrok jarayonini eslatadi: avval noaniq taassurotlar qabul qilinadi, keyin ular mantiqiy bog‘lanishlarda tahlil qilinadi va so‘ng aniq qaror sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hujum izlarini aniqlash va tasniflash axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda dastlab qoidalarni ishlab chiqish, ular asosida bilimlar bazasini shakllantirish va neyro-noravshan tizim orqali qo‘llash zarur. Shu maqsadda ANFIS arxitekturasidan foydalanish orqali hujum izlarini tasniflashning samarali usuli ishlab chiqildi. Ushbu arxitektura kirish ma’lumotlarini fazifikatsiya qilib, qoidalar asosida xulosa chiqaradi va defazifikatsiya orqali aniq natija taqdim etadi. Natijada hujum izlarini haqiqiy foydalanuvchi izlaridan farqlash imkoni yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ANFIS asosida ishlab chiqilgan algoritm axborot xavfsizligi sohasida hujumlarni erta aniqlash va ularni to‘g‘ri tasniflashda yuqori samaradorlikka ega. Bunday yondashuv sun’iy intellektning moslashuvchanligi va norovshan mantiqning izohliligini uyg‘unlashtirib, xavfsizlik tizimlari uchun ishonchli yechim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu algoritmni amaldagi axborot xavfsizligi tizimlariga integratsiya qilish, uni real vaqtda katta hajmli ma’lumotlarni (Big Data) qayta ishlash imkoniyatiga ega prototip ko‘rinishida rivojlantirish va turli hujum turlarini qamrab olgan ma’lumotlar bazasini yaratish zarur. Shuningdek, neyro-noravshan tizimlarni boshqa sun’iy intellekt usullari bilan uyg‘unlashtirish orqali gibrid modellar ishlab chiqish hamda ularni test sinovlaridan o‘tkazib, ishonchliligi va samaradorligini baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nuralievich, B. O., & Boltaevich, M. B. (2021, November). Method of Detection and Elimination of Tracks of Attacks in the Information System. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-2). IEEE.
2. Nuralievich, B. O., Boltaevich, M. B., & Ugli, B. U. B. (2022, September). The Procedure for Forming a List of Sources of Attack in the Information System. In 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.
3. Bekmirzaev O., Shirinov B. An Algorithm for Viewing Node State Events Under Attack for Information Systems // AIP Conference Proceedings., 2024, 3147(1), 050003. DOI: 10.1063/5.0210404
4. Bekmirzaev O., Samarov H. A Method of Evaluating the Effectiveness of Information System Protection // AIP Conference Proceedings., 2024, 3147(1), 050004. DOI: 10.1063/5.0210405
5. Muminov, B., & Bekmirzaev, O. (2022). Structure and algorithms of online discussion information system. Scientific Collection «InterConf», (114), 373-384.
6. Mo‘minov, B., & Bekmirzayev, O. (2022). Postroyeniye uzlov o sobытiyax pod vliyaniyem ataki v informatsionnoy sisteme. Scientific Collection «InterConf», (114), 388-396.
7. Bekmurodov, O. (2023). Axborot tizimlarida hujum manbalari ro‘yxatini shakllantirish protsedurasi. Digital Transformation and Artificial Intelligence, 1(3), 129-136.
8. Samarov, H. K., & Bekmirzayev, O. N. (2023). Masofaviy o‘qitish tizimlarida mavjud risklar va ularni minimallashtirish istiqbollari. Research and Education, 2(4), 146-155.
9. Bekmirzayeva, M. (2024). Vizuallashtirish tizimlarida yomg‘ir va qor muammolarini tasvirga dastlabgi ishlov berish yordamida bartaraf etish. Digital Transformation and Artificial Intelligence, 2(1), 120-124.
10. Bekmirzayev, O., & Sabirov, X. (2023). “Kompyuter arxitekturasi” fanini o ‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan foydalanish. Science and Innovation, 2 (Special Issue 14), 549-551.
11. Muminov, B., Bekmirzaev, O., & Al-Khwarizmi, M. (2022). Classification and analysis of network attacks in the category of “denial of service” information system. central asian journal of education and computer sciences (CAJECS), 1, 7-15.
12. . Bekmirzayev O., Tursunov J. Algoritmы sistemы odnostoronnego mejsetevogo vzaimodeystviya i sistema obnarujeniya vtorjeniy //Digital Transformation and Artificial Intelligence. – 2023. – T. 1. – №. 4. – S. 135-145.

13. Axmedova, N., & Bekmirzaev, O. (2022). Analysis of methods of fighting against network attacks of the “denial of service” category on information systems. central asian journal of education and computer sciences (CAJECS), 1, 5.
14. Bekmirzayev, O., & Muminov, B. (2024). The Role and Application of Artificial Intelligence in Identifying Threats to Information Systems. DTAI–2024, 1(DTAI), 85-90.
15. Bekmirzayev, O. (2024). Algorithm for Constructing and Configuring Parameters of a Model for Searching for Traces of Attacks in an Information System. DTAI–2024, 1(DTAI), 171-174.
16. Bekmurodov, O., Usmanbayev, D., & Eshonqulov, N. Z. (2024). Kompyuter tarmoqlarini ddos hujumlaridan himoya qiluvchi dasturiy vositalarning qiyosiy tahlili. Digital Transformation and Artificial Intelligence, 2(2), 46-50.
17. Bekmirzayev, O., & Kumushbibi, G. U. (2024). Korxona tizimlarda ma’lumotlarni saqlash va uzatishda foydalanuvchi maxfiyligi. Digital Transformation and Artificial Intelligence, 2(6), 207-213.
18. Bekmirzayev, O. N., & Bekmirzayeva, M. S. (2016). Recognize faces by the selecting degree of security. In Informatika: problemы, metodologiya, texnologii (pp. 3-7).
19. Tashev, K. A., & Bekmirzayev, O. N. (2015). K voprosu analiza problem informatsionnoy bezopasnosti. In Informatika: problemы, metodologiya, texnologii (pp. 211-214).
20. Turapov, U. U., & Bekmirzayev, O. N. (2015). Sistemnыy podxod pri obespechenii informatsionnoy bezopasnosti v informatsionno-bibliotechnыx setyax. In Informatika: problemы, metodologiya, texnologii (pp. 219-224).
21. Beknazarova, S., & Bekmirzaeva, M. (2024). Analysis of Filters for Processing Video Images. DTAI–2024, 1(DTAI), 224-227.
22. Safibullaevna, B. S., Qizi, J. M. K., Shaimardanova, B. M., & Erkinovna, A. M. (2020). Adaptive Method For Eliminating Noise Of Image. The American Journal of Engineering and Technology, 2(12), 59-66.
23. Islomov, S. Z., Bekmirzayev, O. N., Shodmonova, X., & Karimov, A. A. (2017). Threats and protection ways of mobile networks. In Informatika: problemы, metodologiya, texnologii (pp. 213-216).
24. Bekmirzayeva M., Norqulova Z., Bekmirzayev O. Yomg‘ir izlarini olib tashlash algoritmlari tahlili //DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. – 2025. – T. 3. – №. 3. – S. 26-32.
25. Bekmirzaev O., Gulomova K., Mukhamadiev S. Research on New Trends and Development Prospects of Enterprise Resource Planning (ERP) Systems //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – T. 5. – №. 03. – S. 50-54.

HR TECH: O‘ZBEKISTONNING KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTALARIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA KADRLAR TANLASH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Muhriddin Yunusov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekistonning kichik va o‘rta biznes subyektlarida xodimlarni tanlash va ularning samaradorligini baholashdagi ayrim xatolar hamda menejerlarning an’anaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida inson resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar (HR TECH) va sun’iy intellekt (AI)ni integratsiya qilish zarurligi, shuningdek, ushbu texnologiyalarning afzalliklari, O‘zbekistonda joriy etish imkoniyatlari va to‘siqlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, HR Tech, kadrlar tanlash, samaradorlikni baholash, kichik va o‘rta biznes, ATS, raqamli iqtisodiyot, O‘zbekiston.

Abstract: This thesis analyzes certain errors and traditional managerial approaches in the process of employee selection and performance evaluation within small and medium-sized enterprises (SMEs) in Uzbekistan. To address these challenges, it highlights the necessity of integrating modern technologies (HR TECH) and artificial intelligence (AI) into human resource management. Furthermore, the study discusses the advantages of these technologies, as well as the opportunities and barriers to their implementation in Uzbekistan.

Key words: artificial intelligence, HR Tech, employee selection, performance evaluation, small and medium business, ATS, digital economy, Uzbekistan.

Аннотация: В данной тезисе проанализированы некоторые ошибки и традиционные подходы менеджеров при отборе персонала и оценке их эффективности в малых и средних предприятиях Узбекистана. Для решения этих проблем обосновывается необходимость интеграции современных технологий (HR TECH) и искусственного интеллекта (AI) в управление человеческими ресурсами. Кроме того, рассматриваются преимущества данных технологий, а также возможности и барьеры их внедрения в Узбекистане.

Ключевые слова: искусственный интеллект, HR Tech, отбор кадров, оценка эффективности, малый и средний бизнес, ATS, цифровая экономика, Узбекистан.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga jadal sur’atlarda kirib kelib, ularning rivojlanish dinamikasini tubdan o‘zgartirmoqda. Xususan, inson resurslarini boshqarish (HR) sohasida sun’iy intellekt (AI) va raqamli texnologiyalarni joriy etish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznes subyektlari alohida o‘rin tutib, iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shmoqda [5]. Shu sababli ushbu sohada xodimlarni tanlash jarayonini samarali tashkil etish, ularning mehnat faoliyatini tahlil qilish va ish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning kichik va o‘rta biznes subyektlarida menejerlar ko‘pincha inson resurslari jarayonlarida subyektiv qarorlarga tayanadilar, bu esa vaqt va resurslarning ortiqcha sarflanishiga olib keladi. Sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish kadrlarni tanlash jarayonini tezkor, xolis va samarali amalga oshirish imkonini yaratadi. Ushbu tezisda O‘zbekistonning kichik va o‘rta bizneslari misolida AI asosidagi HR Tech yechimlarining afzalliklari, mavjud muammolari hamda istiqbollari tahlil qilinadi.

Kichik va o‘rta biznesning hozirgi holatini tahlil etadigan bo‘lsak, ushbu sektor O‘zbekiston iqtisodiyotining tayanch omillaridan biri bo‘lib, ularning ulushi mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim qismini tashkil etadi. Masalan, 2024-yil yanvar–iyun oylarida O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymat YAIMning 47,5 foizini tashkil etdi [6]. Shu bilan birga, hozirgi kunda ko‘plab kichik va o‘rta biznes subyektlarida kadrlar siyosati hanuzgacha an’anaviy usullarga asoslanmoqda.

Masalan, kadrlarni tanlashda ko‘pincha tanish-bilishchilik, subyektiv qarorlar yoki qisqa va puxta tahlil qilinmagan suhbat natijalariga tayaniladi. Natijada korxona samaradorligi pasayadi, yuqori malakali mutaxassislar boshqa sohalarga yoki xorijiy kompaniyalarga o‘tib ketmoqda. Shuningdek, xodimlarning mehnat faoliyatini baholash tizimi ham yetarli darajada takomillashmagan. Ko‘plab kichik va o‘rta tashkilotlarda ish samaradorligi aniq mezonlarga asoslanmagan bo‘lib, bu holat menejerlarning xolis qaror qabul qilishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasi pasayadi, korxonaning raqobatbardoshligi esa cheklangan holatda qoladi.

Agar sun’iy intellekt va HR texnologiyalari korxona faoliyatiga integratsiya qilinsa, yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf etish imkoniyati yuzaga keladi. Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion vositalardan foydalanish korxonaga munosib kadrlarni tezda tanlab olish, ularning faoliyatini tahlil qilish va samaradorligini ob’yektiv baholash imkonini beradi. Masalan, hozirda ish beruvchilar va HR mutaxassislari tomonidan keng qo‘llanilayotgan dasturiy yechimlardan biri bu Applicant Tracking System (ATS) hisoblanadi. Mazkur dastur minglab rezyumelarni qisqa vaqt ichida saralab, lavozim talablariga mos nomzodlarni avtomatik ravishda ajratib beradi [1].

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari orqali intervyu jarayonini ham avtomatlashtirish mumkin. Nomzodlarning onlayn suhbat paytidagi yuz ifodasi, ovoz ohangi va mimikasi kabi omillar tahlil qilinib, yanada obyektiv natijalar olish imkonini beradi [3]. Sun’iy intellekt yordamida nafaqat xodimlarni tanlash, balki ularning ish samaradorligini ham aniqlash mumkin. AI tizimlari xodimlarning faoliyatini doimiy monitoring qiladi va natijalarga asoslanib rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beradi [4].

Sun’iy intellekt va HR Tech texnologiyalarining bunday imkoniyatlaridan yetakchi xorijiy kompaniyalar keng foydalanmoqda. Masalan, IBM kompaniyasi AI asosidagi Watson Recruitment tizimi yordamida xodimlarni tanlashda yuqori aniqlikka erishmoqda [1]. Shuningdek, Google va Microsoft kompaniyalari xodimlarning samaradorligini oshirish uchun People Analytics tizimlaridan foydalanadi. Bu kabi ilg‘or tajribalar O‘zbekistonning kichik va o‘rta bizneslari uchun ham keng imkoniyatlar eshigini ochishi mumkin.

Hozirda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida raqamli transformatsiya ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat va xususiy sektorlar uchun ko‘plab yangi imkoniyatlar yaratilmoqda [5]. Shu bilan birga, yosh mutaxassislarning IT va HR sohalariga qiziqishi ortib borayotgani hamda mahalliy startaplarning AI asosida HR platformalarini ishlab chiqishga intilayotgani kuzatilmoqda.

Biroq ayrim cheklovlar ham mavjud. Xususan, kichik va o‘rta biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi ularning yangi texnologiyalarni integratsiya qilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, AI texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha malakali kadrlar yetishmasligi ham zamonaviy HR Tech va AI yechimlaridan to‘liq foydalanish imkoniyatini kamaytirmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning kichik va o‘rta biznes sektorlarida inson resurslarini boshqarish jarayonlari iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud an’anaviy yondashuvlar kadrlarni tanlash hamda ularning mehnat samaradorligini baholashda yetarli darajada natija bermayapti. Shu nuqtai nazardan, HR Tech va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, HR Tech va sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash ish beruvchilar va HR mutaxassislarining sezilarli darajada vaqtini tejaydi, inson omiliga xos kichik xatolarni kamaytiradi hamda tanlov jarayonini tezkor va xolis tarzda amalga oshirish imkonini beradi [7]. Bundan tashqari, xodimlarning ish samaradorligini real vaqt rejimida monitoring qilish orqali korxona faoliyati natijadorligini oshirish mumkin.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi kompaniyalar xodimlar almashinuvini kamaytirib, barqaror rivojlanishga erishgan. Bu esa HR Tech va AI yechimlarining inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishda naqadar muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda ham kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun bunday texnologiyalarni joriy etish imkoniyati mavjud, biroq ularni keng miqyosda tatbiq etish uchun moliyaviy, texnik va huquqiy to‘siqlarni bartaraf etish talab etiladi. Ushbu cheklovlarni mahalliy sharoitga mos, arzon HR platformalarini ishlab chiqish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va malakali mutaxassislarni tayyorlash orqali bosqichma-bosqich yengib o‘tish mumkin.

Shunday qilib, kichik va o‘rta biznes sektorlarida HR Tech va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali nafaqat kadrlarni tanlash va ularning faoliyatini obyektiv baholash jarayonlarini takomillashtirish, balki inson resurslari salohiyatidan samarali foydalanish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future*. New York: W.W. Norton & Company.
2. Stone, P., Brooks, R., Brynjolfsson, E., et al. (2016). *Artificial Intelligence and Life in 2030: One Hundred Year Study on Artificial Intelligence*. Stanford University.
3. Marr, B. (2018). *Artificial Intelligence in Practice: How 50 Successful Companies Used AI and Machine Learning to Solve Problems*. Wiley.
4. Chamorro-Premuzic, T., Akhtar, R., Winsborough, D., & Sherman, R. (2017). “The datafication of talent: How technology is advancing the science of human potential.” *Current Opinion in Behavioral Sciences*, 18, 13–16.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–6079-sonli farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari*. Toshkent.
7. Ployhart, R. E. (2021). “The future of staffing and selection: Embracing technology and artificial intelligence.” *Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior*, 8(1), 515–533.

THE ROLE OF BELT AND ROAD INITIATIVE CORRIDORS IN PROMOTING ECONOMIC GROWTH IN CENTRAL ASIA: A CASE STUDY OF THE CHINA–KYRGYZSTAN–UZBEKISTAN RAILWAY

Kuldasheva Zebo
Associate Professor at Tashkent State University of Economics
e-mail: z.kuldasheva@tsue.uz

Ye Maoqing
Independent Researcher at Tashkent State University of Economics
e-mail: 1991770000@qq.com

Central Asia plays an essential role in the Belt and Road Initiative (BRI) by enhances the connectivity between China, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Uzbekistan, Tajikistan, Turkmenistan, Iran and Turkey. It not only provides shorter routes to Europe but also opens up markets for infrastructure investments such as highways, railways, and pipelines. These infrastructural advancements, in turn, help overcome the geographical barriers that have historically limited Central Asian countries' participation in global trade dynamics (Figure 1). Moreover, Central Asia's abundant natural resources, such as minerals and natural gas, offer further avenues for both exploration and economic exploitation, thereby enriching the BRI's multi-faceted objectives.

Figure 1. China-Central Asia-Western Asia

BRI corridors have the potential to stimulate economic growth, improve regional connectivity, and contribute to the development of participating countries and regions. The main route of global trade is maritime shipping, with the railway serving as the second most significant international transportation. Investments in rail and road infrastructure have been shown to enhance the competitiveness of cross-border and domestic transportation in the Central Asian region. The region is crossed by two out of the six BRI corridors, which establish connections between China and Europe, as well as between China to Iran and West Asia. The first corridor uses two rail routes to reach Europe: one through Kazakhstan, Russia, Belarus, Poland, and Germany, while the other through Kazakhstan, the Caucuses, and Turkey. The second uses three routes to reach Iran and West Asia, with two of those passing through Uzbekistan. One of the routes goes through Kazakhstan, Uzbekistan, and Turkmenistan; the second, through the Kyrgyz Republic, Uzbekistan, and Turkmenistan; and the third, through the Kyrgyz Republic, Tajikistan and Afghanistan. In short, these transport corridors are not only for facilitating Chinese exports but also providing the most convenient port for the majority of Central Asian economies.

BRI Corridors and routes passing from Central Asia

New Eurasian Land bridge BRI corridor connects China to Europe using 2 routes:

Route 1: China (Urumqi, Alashankou) – Kazakhstan (Minty, NurSultan, Dostyk) – Russia (Moscow, Yekaterinburg) – Belarus (Brest) – Poland (Malaszewicze) – Germany (Duisburg) and other European cities.

Route 2: China (Khorgas, Urumqi) – Kazakhstan (Almaty, Shu, Altynkol, Saksaulskaya, Aktau, Beyneu, Zharyk, Shalkar) – Azerbaijan (Baku, Ganja, Kesik) – Georgia (Gardabai, Tbilisi, Akhalkalaki) – Turkey (Istanbul, Kars) and further by road or rail to Europe.

China-Central Asia-West Asia BRI Corridor connects China to Iran/West Asia using three routes:

Route 3: China (Urumqi, Khorgas) – Kazakhstan (Almaty, Altynkol) – Uzbekistan (Tashkent, Samarkand, Navoiy) – Turkmenistan (Serakhs, Mary, Farab) – Iran (Mashad) and forwards to cities in West Asia.

Route 4: China (Kashgar) – Kyrgyzstan (Osh, Irkeshtam) – Uzbekistan (Andijan, Tashkent, Samarkand, Navoiy) – Turkmenistan (Serakhs, Mary) – Iran (Mashad, Sarakhs) and to West Asia.

Route 5: China (Kashgar) – Kyrgyzstan (Irkeshtam, Sarytash) – Tajikistan (Dushanbe, Vahdat, Nijnypanj, Yavan) – Afghanistan (Bandar, Kunduz, Herat, Ghurian) – Iran (Tehran, Heydarieh) to West Asia.

China-Kyrgyzstan-Uzbekistan Railway

This simulation presents how a BRI project can provide mutual benefits for the involved regions. The China-Kyrgyzstan-Uzbekistan (CKU) route, set to be a southern extension of the China-Europe freight rail, aims to connect China, Kyrgyzstan, and Uzbekistan to Central and Eastern Europe through Iran and Turkey. The project was originally proposed in the 1990s and delayed due to the nonviability of funding. With BRI investment, an estimated cost was equal to $4.5 billion. The planned CKU railway spans roughly 523 kilometers: 213 kilometers in China, 260 kilometers in Kyrgyzstan, and about 50 kilometers in Uzbekistan. From Uzbekistan, the rail can link to the Uzbekistan-Turkmenistan line, extending to the Turkmenbashi Port on the Caspian Sea. Here, it has the option to either join the Baku Port in Azerbaijan, reaching markets in Georgia, Turkey, and EU nations like Bulgaria and Romania on the Black Sea or move south to Iranian ports like Anzali. An additional southern rail route, set for completion in 2023, aligns with the International North-South Transportation Corridor (INSTC), ending at Iran's southern port in Chabahar. This gives sea routes to the Middle East, East Africa, and India. Authorities have highlighted that this railway will offer the quickest path for transporting goods from China to Europe and the Middle East, reducing the shipping distance by 900 kilometers and saving nearly a week in transit time.

At the China-Central Asia summit 2023 in Xi'an, China's President Xi Jinping, and Kyrgyzstan's President Sadyr Zhaparov agreed to continue the construction of the CKU railway "at an early date". The CKU railway holds significant potential for both landlocked Uzbekistan and Kyrgyzstan, providing access to Southeast and Western Asia as well as Turkish and Middle Eastern markets. Doing so could create a new strategic Eurasia logistic network along the BRI route, as well as contribute to the trade with another Central Asia. For China, the CKU railway offers multiple advantages in its foreign trade. It allows China to reduce its dependence on transiting Russia while maintaining rail trade with Europe. As a result, the establishment of new routes connecting China and Europe serves not only to diminish China's reliance on maritime shipping but also to amplify the export of Chinese products to international markets substantially. Currently, train services operate from 35 distinct Chinese cities along 57 routes, linking China to 34 cities across 12 European nations. This marked an impressive increase from the approximately 6,235 trains dispatched between 2011 and 2017 to nearly 15,000 trains in 2021 (Figure 2). Despite this considerable advancement in rail freight, it still represents slightly over 3% of the overall trade volume between China and Europe. Broadly, the share of railway transportation in the bilateral trade between China and the European Union surged from 1% in the period spanning 2011 to 2020, reaching around 4%. As expected, Beijing intends to form a "trade hub" of Chinese goods for the countries of Central Asia (74 million), South Asia (1.7 billion), and the Middle East (more than 200 million). In this way, the countries participating in the CKU project will play the role of a transshipment point for Chinese goods for their further distribution and delivery to regions such as South Asia and the Middle East.



Figure 2. Number of trains between China and Europe, 2021-2021

Source: AIIB report on Financing Belt and Road Infrastructure, 2021

Moreover, given the potential of the economies, two of the three countries - Uzbekistan and China - will benefit significantly in the short term. Kyrgyzstan, with a small export potential, may experience fewer benefits. For comparison, the foreign trade turnover between Uzbekistan and China, without sharing a common border, reached 8.9 billion dollars in 2022, while the same indicator for China and Kyrgyzstan bordering each other was about $4.07 billion (National Statistical Committee of the Kyrgyz Republic). It should be noted that Kyrgyzstan is a member of the Eurasian Economic Union (EAEU), while Uzbekistan is an observer. EAEU has FTAs with numerous ASEAN and some African nations. Consequently, this leads to enhanced trade opportunities for both Central Asian republics under the new railway routine. Tashkent, the capital of Uzbekistan, is aware of the strategic importance of the CKU project. It will provide an opportunity to enter new markets. CKU railway will turn the region into an important transport and logistics hub of international scale, facilitating mutual trade operations with both the PRC and other countries in the far West and East (Figure 3). Finally, it will lead to an increase in the GDP of states, which will facilitate and diversify the export of its products to world markets.

Figure 3. China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway (under construction)

Source: Author developed the map based on "Uzbekistan railways" report (2023)

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА

Ражабова Умида Умурзаковна
Докторант Международного университета Нордик
Email: francheska50701@gmail.com

Аннотация: В данной статье проанализированы процессы внедрения финансовых технологий (FinTech) в деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан, их практическая эффективность и перспективы развития. В последние годы в банковской системе ускоряются процессы цифровой трансформации, широко внедряются услуги на основе электронных платежей, онлайн-кредитования, мобильного банкинга и технологии блокчейн. В статье исследуется экономический эффект этих процессов, их влияние на качество банковских услуг, а также создаваемые удобства для клиентов.

Также освещаются вопросы развития организационно-правового, технологического и кадрового потенциала, необходимого для успешного внедрения финансовых технологий. Автором разработаны практические предложения по расширению инновационной деятельности коммерческих банков, укреплению сотрудничества с финтех-компаниями, обеспечению информационной безопасности, ускорению процессов финансовой цифровизации.

Ключевые слова: финансовые технологии, коммерческие банки, цифровая экономика, финтех, блокчейн, мобильный банкинг, электронные платежные системы, инновации, цифровая трансформация.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari faoliyatiga moliyaviy texnologiyalar (FinTech) ni joriy etish jarayonlari, ularning amaliy samaradorligi va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. So‘nggi yillarda bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, elektron to‘lovlar, onlayn kreditlash, mobil banking va blokcheyn texnologiyalariga asoslangan xizmatlar keng joriy etilmoqda. Maqolada ushbu jarayonlarning iqtisodiy samarasi, bank xizmatlari sifatiga ta’siri hamda mijozlar uchun yaratilayotgan qulayliklar o‘rganilgan.

Shuningdek, moliyaviy texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy-huquqiy, texnologik va kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif tijorat banklarining innovatsion faoliyatini kengaytirish, fintech kompaniyalar bilan hamkorlikni mustahkamlash, axborot xavfsizligini ta’minlash va moliyaviy raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqqan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy texnologiyalar, tijorat banklari, raqamli iqtisodiyot, fintech, blokcheyn, mobil banking, elektron to‘lov tizimlari, innovatsiyalar, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article analyzes the implementation of financial technologies (FinTech) in the activities of commercial banks in the Republic of Uzbekistan, their practical effectiveness, and development prospects. In recent years, digital transformation processes in the banking system have accelerated, with the widespread introduction of services based on electronic payments, online lending, mobile banking, and blockchain technology. The study examines the economic impact of these processes, their influence on the quality of banking services, and the convenience they create for customers.

The paper also highlights the development of organizational, legal, technological, and human resource capacities required for the successful adoption of financial technologies. The author proposes practical recommendations for expanding the innovative activities of commercial banks, strengthening cooperation with fintech companies, ensuring information security, and accelerating the processes of financial digitalization.

Key words: financial technologies, commercial banks, digital economy, fintech, blockchain, mobile banking, electronic payment systems, innovation, digital transformation.

ВВЕДЕНИЕ

В последние годы мировые финансовые технологии (Fintech) стали одним из самых быстрорастущих секторов финансовых рынков. Они не только упрощают банковские услуги и ускоряют транзакции, но и предлагают клиентам совершенно новые финансовые решения. Узбекистан также не остался в стороне от этого процесса, начав новый этап в экономике, оцифровав свою банковскую систему и внедрив инновационные технологии.

Сегодня в коммерческих банках нашей страны бурно развиваются электронные платежные системы, Мобильный Банкинг, интернет-банкинг, платежи с помощью QR-кода, цифровая идентификация (Remote

ID) и онлайн-кредитование. Особенно в постпандемический период резко возросла потребность населения в дистанционных банковских услугах, что подтолкнуло банковский сектор к активному внедрению новых технологических решений.

Финансовые технологии находят свое отражение в банковской системе в нескольких важных областях. Во-первых, они повышают эффективность за счет автоматизации банковских операций. Во-вторых, это укрепляет их доверие, ускоряя процесс обслуживания клиентов. В-третьих, благодаря финтех-решениям появляются новые виды банковских услуг, такие как цифровые кредиты, микроплатежи, инвестиционные онлайн-платформы и возможности работы с криптовалютными активами.

В рамках принятой президентом Республики Узбекистан стратегии “цифровой Узбекистан – 2030” цифровая трансформация банковской системы определена как одно из приоритетных направлений. На основе этой стратегии в стране проводятся масштабные реформы по расширению инфраструктуры электронных платежей, переносу банковских услуг на мобильные платформы и поддержке финтех-стартапов.

Однако в процессе внедрения финансовых технологий возникает и ряд проблем. В частности, такие факторы, как недостаточная техническая инфраструктура в отдельных банках, низкие цифровые навыки персонала, проблемы информационной безопасности и кибербезопасности, слабое сотрудничество с финтех-компаниями, замедляют цифровое развитие банковской системы.

В данной статье анализируется текущее состояние внедрения финансовых технологий в коммерческих банках Узбекистана, критерии оценки их эффективности, а также практические рекомендации по дальнейшему совершенствованию этого процесса. Основная цель исследования-повысить финансовую устойчивость и конкурентоспособность коммерческих банков за счет расширения их цифровых возможностей.

Современное состояние внедрения финансовых технологий в коммерческих банках Узбекистана. За последние годы банковская система Узбекистана добилась значительных успехов на пути широкого внедрения цифровых технологий. В частности, Центральным банком налажена интеграция национальных платежных систем – Humo и UzCard, сформирована единая экосистема внутренней платежной инфраструктуры. Этот процесс позволил населению предоставлять быстрые, безопасные и удобные платежные услуги. В период с 2020 по 2024 год количество пользователей мобильного банкинга утроилось, а объем онлайн-платежей растет в среднем на 35-40% в год. Многие банки, в том числе” Silk Road Bank“,” TBC Bank“,” Kapitalbank“,” Hamkorbank “и” alakabank», внедрили возможность открытия удаленного счета, доставки карт, онлайн-кредитования и управления депозитами через мобильные приложения. период с 2020 по 2024 год количество пользователей мобильного банкинга утроилось, а объем онлайн-платежей растет в среднем на 35-40% в год. Многие банки, в том числе” Silk Road Bank“,” TBC Bank“,” Kapitalbank“,” Hamkorbank “и” alakabank», внедрили возможность открытия удаленного счета, доставки карт, онлайн-кредитования и управления депозитами через мобильные приложения. Это привело к простоте цифровых банковских услуг, скорости транзакций и снижению затрат для клиентов. В то же время в банковской деятельности постепенно стали применяться такие передовые технологии, как искусственный интеллект, системы анализа данных (big data), биометрическая идентификация.



Рисунок 1. Влияние финансовых технологий на эффективность банка

Финансовые технологии оказывают значительное положительное влияние практически на все направления деятельности банка. Во-первых, их внедрение приведет к автоматизации банковских операций и уменьшению количества ошибок. Например, системы онлайн-анализа кредитных заявок снижают человеческий фактор, обеспечивая скорость и точность. Во-вторых, финтех-решения позволяют оптимизировать затраты. Например, обслуживание через мобильные приложения Дешевле, чем в традиционных филиальных сетях, что снижает операционные расходы банка и повышает уровень прибыльности. В-третьих, цифровые технологии выводят взаимодействие с клиентами на новый уровень. Банки укрепляют доверие клиентов с помощью чат-ботов на основе искусственного интеллекта, автоматических систем консультирования, личных предложений и служб онлайн-поддержки. Финансовые технологии также усиливают конкурентную среду. По мере того, как на рынок выходят новые финтех-компании, банки вынуждены внедрять инновационные услуги и преобразовывать их в более удобную для пользователя форму. Это служит динамичному развитию всей финансовой системы. Актуальные проблемы развития финансовых технологий. Однако существуют также некоторые системные проблемы с внедрением цифровых решений в банковском секторе. Во-первых, неравномерное развитие технологической инфраструктуры. Некоторым небольшим банкам не хватает мощности сервера, систем баз данных и уровня кибербезопасности.

Во-вторых, низкий кадровый потенциал. Количество специалистов с достаточной квалификацией в области ИТ и цифровых технологий среди сотрудников банка ограничено. Это приводит к задержке внедрения инновационных проектов. В-третьих, актуален вопрос информационной безопасности. С расширением цифровых сервисов увеличивается и риск кибератак. Поэтому внедрение банками систем защиты информации, соответствующих международным стандартам безопасности, приобретает все большее значение. В-четвертых, недостаточно сформированы механизмы сотрудничества с финтех-компаниями. Поскольку их правовой статус и процедуры лицензирования в настоящее время не полностью определены, сотрудничество между банком и финтех-организациями осуществляется в ограниченной форме. Пути повышения эффективности финансовых технологий. Для повышения эффективности финансовых технологий в банках необходимо усиление практических мер по следующим направлениям:

1. Модернизация цифровой инфраструктуры. Обеспечение технологической стабильности за счет внедрения высокоскоростных сетей, защищенных серверов и современных программных решений в банках.

2. Повышение квалификации персонала. Расширение программ переподготовки сотрудников банка в области ИТ, искусственного интеллекта, блокчейна и кибербезопасности.

3. Развитие финтех-экосистемы.. Модернизация цифровой инфраструктуры. Обеспечение технологической стабильности за счет внедрения высокоскоростных сетей, защищенных серверов и современных программных решений в банках.

2. Повышение квалификации персонала. Расширение программ переподготовки сотрудников банка в области ИТ, искусственного интеллекта, блокчейна и кибербезопасности.

3. Развитие финтех-экосистемы. Создание совместных проектов, стартапов и инновационных центров между коммерческими банками и частными технологическими компаниями.

4. Укрепление информационной безопасности. Внедрение систем мониторинга и безопасных платежных протоколов, основанных на международных стандартах кибербезопасности.

5. Совершенствование правовой базы. Обновление законодательства, регулирующего финансовые технологии, на основе современных требований, упрощение процедуры лицензирования финтех-деятельности.

6. Изучение инфраструктуры блокчейна и цифровых валют..

Укрепление информационной безопасности.

Перспективы развития финансовых технологий. Ожидается, что цифровая трансформация банковской системы Узбекистана в ближайшие годы будет еще более интенсивной. До 2025 года в рамках стратегии “цифровой Узбекистан-2030” во всех коммерческих банках планируется внедрить системы полного онлайн – обслуживания, цифровые кредитные платформы, системы документирования на основе блокчейна и цифровой валютный опыт (CBDC). Кроме того, совместно с международными финансовыми институтами выдвигаются инициативы по созданию цифровых банков (Digital-only Banks). Это ускорит интеграцию банковской системы Узбекистана на мировые финансовые рынки, усилит конкуренцию и создаст инновационную среду.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Внедрение финансовых технологий (FinTech) в банковскую систему Узбекистана стало одним из наиболее динамичных направлений модернизации финансового сектора и реализации стратегии

цифровой экономики страны. Основу для этого процесса заложил Указ Президента Республики Узбекистан “О утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030»” [1], в котором цифровизация финансовых институтов определена как стратегический приоритет. В документе подчеркивается необходимость создания единой цифровой финансовой инфраструктуры, расширения электронных платёжных систем и внедрения инновационных банковских сервисов на основе технологий блокчейн и искусственного интеллекта.

Согласно ежегодному отчету Центрального банка Узбекистана за 2024 год [2], более 70% всех банковских операций в стране осуществляется через цифровые каналы, что вдвое больше показателей 2021 года. В отчете также отмечается рост роли мобильных приложений, интернет-банкинга и QR-платежей, способствующих повышению удобства клиентов и снижению операционных издержек. Однако, как указывает исследование, остаются проблемы, связанные с обеспечением кибербезопасности, цифровой грамотности пользователей и недостаточной интеграцией финтех-компаний в банковскую экосистему.

По мнению Б. Хамидова [3], развитие FinTech в Узбекистане имеет значительный потенциал для повышения финансовой инклюзии и эффективности банковского обслуживания, особенно в регионах с ограниченным доступом к традиционным филиалам. Автор выделяет три ключевых направления: развитие мобильного банкинга, внедрение микрофинансовых онлайн-платформ и цифровизация платежных систем. Аналогично, Н. Каримова и С. Жураев [4] подчеркивают, что внедрение цифровых инноваций в банковском секторе требует решения организационно-правовых и кадровых проблем, а также усиления взаимодействия между банками и технологическими стартапами.

Международные исследования также подтверждают важность FinTech для трансформации банковской системы. Так, Доклад Всемирного банка (2023) [5] анализирует потенциал финансовых технологий для повышения финансовой инклюзии в Центральной Азии, отмечая, что цифровые решения способствуют доступности банковских услуг для малого бизнеса и сельских домохозяйств. Согласно отчету Deloitte [6], уровень цифровой зрелости банков в регионе быстро растет, однако требует дальнейших инвестиций в инновационные решения и защиту данных. В докладах PwC (2023) [7] и МВФ (2024) [8] подчеркивается, что цифровая трансформация банков несет не только преимущества, но и риски, связанные с регуляторными пробелами, киберугрозами и необходимостью адаптации надзорных механизмов.

Таким образом, анализ литературы показывает, что развитие FinTech в Узбекистане идет ускоренными темпами и опирается на стратегическую государственную поддержку, однако требует совершенствования нормативно-правовой базы, кадровой подготовки и усиления партнерства между банками и инновационными компаниями.

АНАЛИЗ

Xizmat ko‘rsatish sohasida kurort-sayyohlik majmuasi va sog‘lomlashtirish maskanlari alohida o‘rin tutadi. Dam olish va sog‘lomlashtirish tarmoqlarida turizm xizmatlarini shakllantirishda tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda iste’molchilar uchun foydali va sifatli xizmatlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Rekreatsion

4 Dustmurodov O.I. Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning o‘ziga xos tendensiyalari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 8-son. – T., 2024-yil. 458-467-betlar.

5 Muallif tomonidan tayyorlangan.

xizmatlar nazariyasiga kiritilishi mumkin bo‘lgan asosiy konseptual yo‘nalishlar ishlab chiqishda texnologik jarayon, faoliyat maqsadlari, moliyalashtirish manbalari, kadrlar siyosati (HR), iste’molchilar segmenti, boshqaruv texnikasi, marketing metodlari, reklama va boshqa aloqador xizmatlardan foydalaniladi.

Rekreatsion xizmatlarning muhim xususiyatlarini o‘rganish jamiyatda “ijtimoiy” va “jamoat” tovarlarini yaratish va tarqatish motivatsiyasi, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning mazmuni va xususiyatlari, ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot va ijtimoiy davlatning shakllanish qonuniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Iqtisodiyotning ushbu sektori milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyoti tarkibiga qo‘shilish omili bo‘lib xizmat qiladi va iqtisodiyotning ushbu sohasida raqobatbardosh xizmatlarni yaratishni nazarda tutadi. Kurort va turizm sektori va rekreatsion xizmatlar ikki tomonlama vazifani bajarishi kerak:

1) jamiyatning davolanish, dam olish, sayohat va boshqa dam olish shakllariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi;

2) iqtisodiyotning ahamiyatini oshirishga yordam beradigan raqobatbardosh sektorni shakllantirish. Mintaqalararo va xalqaro mehnat taqsimotidagi hudud, aholining turmush darajasini oshirish va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini tezlashtirish.

Iqtisodiyotning gumanistik xususiyatlarini kuchaytirish jamiyat farovonligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini rivojlantirishga yordam berdi. Ko‘pgina mamlakatlar siyosatida farovonlikning yashash “darajasi” va “sifati” kabi baholash mezonlari aniq belgilangan va keng qo‘llanilgan. Hududiy turizmni har tomonlama rivojlantirish orqali mahalliy aholining yashash sharoitidagi qulayliklarni yanada oshirishga erishiladi. Hududiy va rekreatsion xizmatlar dam olish paytida tabiiy obyektlar, tarixiy diqqatga sazovor joylar va rekreatsion obyektlardan foydalanishdan foydali xususiyatlarni olish bilan bog‘liq, ularni iste’mol qilish umumiy, ammo jamoaviy shaklda iste’mol qilish imkoniyati hali ham yetarlicha shakllantirilmagan. Binobarin, ushbu xizmatlar aralash (jamoaviy) jamoat manfaati shaklini oladi va ularni ishlab chiqarish iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari faoliyati natijasiga aylanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘naltirilgan modelini shakllantirish ijtimoiy adolatga erishish va aholini qashshoqlikdan himoya qilish maqsadida resurslarni taqsimlashni ta’minlaydigan ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish asosida amalga oshiriladi. Jamiyat taraqqiyoti va bozorning ijtimoiy ta’sirining faollashishi bilan shaxsning shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy tovarlarni ishlab chiqarishning ahamiyati ortadi. Shu munosabat bilan turistik va rekreatsion xizmatlar – shaxsning ko‘payishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan ijtimoiy yaxshilik (xizmat). Tabiiy va rekreatsion resurslarga uni tabiiy va geografik xususiyatlari bo‘yicha dam olish uchun mos maydon sifatida tavsiflovchi jihatlar kiradi, bular: iqlim qulayligi, hududning ekologik holati yuqoriligi, quruqlikdagi noyob ekologik turizm obyektlarining jozibadorligi, tabiiy mahsulotlar, tabiiy betakror manzaralar, turli xil dam olish turlarini birlashtiradi.

Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda klaster tizimlaridan maqsadli faydalanishda mintaqadagi siyosiy vaziyat juda muhim hisoblanadi. Harbiy mojarolarning mavjudligi yoki yo‘qligi, millatlararo munosabatlardagi keskinlik darajasi, terroristik tahdid darajasi, davlat tomonidan turizmni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash siyosati, viza rejimi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini doimiy ravishda davlat tomonidan nazorat qilish kurort va sayyohlik klasterini shakllantirish uchun muhim shartlardir. Atrof-muhit iqtisodiyoti mintaqaning ishbilarmonlik muhitini shakllantiradi va dasturiy ta’minotni o‘z ichiga rekreatsion xizmatlarga bo‘lgan talab, fiskal va kredit siyosati, inflatsiya darajasi, hududning investitsiya muhiti va hokazolarni shakllantiradigan sotib olish qobiliyati va aholining turmush darajasini qamrab oladi. Hududlarda rekreatsion turizm xizmatlarini rivojlantirishda turizm klasterlaridan foydalanishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni quyidagi 1-jadvalda ko‘rib chiqdik (1-jadval).

1-jadval. Turizm klasterlarini rivojlantirishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar va kutilayotgan natijalar[6]

Amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar	Amalga oshirish yo‘llari	Kutilayotgan natijalar
Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yanada yaxshilash	Hududning iqtisodiy imkoniyatlarini o‘rganish, hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy va moliyaviy tadbirlarni amalga oshirish	Hudud aholisining yashash sharoitlari yanada yaxshilanadi, hududda infratuzilma shakllantiriladi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, hududning ekport hajmi kengayadi
Hududda rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish	Turizm resurslariga ega rekreatsion hududlarning imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, tabiiy turizm hududlarini shakllantirish, xizmatlar sifatini oshirish va hajmini kengaytirish, raqobatbardosh va jozibador xizimatlarni shakllantirish, turistlar oqimini kengaytirish, marketing metodlarini qo‘llash	Hududlarda sifatli va jozibador turistik-rekreatsion xizmatlar shakllantiriladi, turistlar uchun yangi turizm manzillari tashkil etiladi, hududning turizm salohiyati ko‘tariladi

6 Muallif tomonidan tayyorlangan.

Turistik-rekreatsion hududlarda turizm klasterlarini rivojlantirish	Turizm sohasiga aloqador va barcha turdosh tashkilot va korxonalarni tizmlashtirish orqali iste’molchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish	Ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va iste’molchilar uchun sifatli va nisbatan arzon mahsulot va xizmatlar joriy qilinadi, turizm klasterlari tarkibidagi korxonalarning integratsiyalashuvi korxonalar rivojlanishini jadallashtiradi
Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish	Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi omillarni o‘rganish, mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish	Hududlarda serdaromad turizm tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.
Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar faoliyatini takomillashtirish	OTMlari va kasb-hunarlarga yo‘naltiruvchi markazlarda professional xizmat ko‘rsatuvchi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xorij tajribalarini o‘rganish, xodimlarning sun’iy intellekt xizmatlaridan foydalanish salohiyatini oshirish, muntazam ravishda xodimlarning malakasini oshirib borish	Turizm klasterlarida zamonaviy tajribaga ega xodimlar bazasi shakllanadi, smart xizmatlarni ko‘rsatish mexanizmlari joriy etiladi, turizm klasterlarida ish samaradorligi oshadi

Bizningcha, hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishda klaster tizimlaridan maqsadli foydalanish orqali quyidagi samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishiladi:

– klaster subyektlarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan va tizimning barcha elementlarini birlashtirish natijasida har bir elementdan alohida olingan iqtisodiy effektlarning arifmetik yig‘indisidan ko‘ra ko‘proq iqtisodiy samara olish imkoniyatini ifodalovchi sinergetik effekti oshadi;

– turdosh tarmoqlar ta’sirida namoyon bo‘ladigan va mintaqaning umumiy iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishga hissa qo‘shadigan multiplikator effekti oshadi;

– investitsiyalar oqimini rag‘batlantiradigan, kurort-turizm sohasidagi korxonalarning ishbilarmonlik faolligi va raqobatbardoshligini oshiradigan innovatsion muhit shakllanadi;

– mintaqaning yanada uyg‘un rivojlanishi, raqobat sharoitida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va kurort va sayyohlik brendini targ‘ib qilish orqali hududning imiji mustahkamlanadi;

– xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali savdo imkoniyatlari kengayadi;

– hududda ko‘ngilochar soha, ko‘rgazma, teatr va boshqa xizmatlar rivojlantiriladi;

– hududning ekologik vaziyati yaxshilanadi, mahalliy aholining salomatlik darajasi ko‘tariladi.

Hududiy turizm klasterini rivojlantirishda samarali boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish, shuningdek, tadbirkorlik, biznes va hukumat o‘rtasidagi hamkorliklarini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Hukumat tomonidan tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash qanchalik muhim bo‘lsa, tadbirkorlarning qonun doirasida faoliyat olib borishlarini nazorat qilish ham muhim hisoblanadi. Bugungi kunda kichik biznes, asosan, qisqa muddatli manfaatlarga erishishga qaratilgan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olmaydi va rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik madaniyati darajasidan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Bunday sharoitda kurort-sayyohlik majmuasini boshqarishning samarali yechimlarini ishlab chiqish uchun eng oqilona yondashuv biznes va davlat o‘rtasida sohani rivojlantirish uchun javobgarlikni taqsimlash bilan birgalikda tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Tadbirkorlar, asosan, ko‘proq daromad topishni ma’qul ko‘rishadi.

Bizningcha, tadbirkorlar faoliyatining asosiy strategiyasi iqtisodiy barqarorligini oshirishga qaratilishi lozim. Shuningdek, ishchi xodimlarga ijtimoiy normalardan kelib chiqib, ish muhiti yaratilishi va ish haqi belgilanishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ko‘tariladi. Bizningcha, biznes tuzilmalarining faoliyati samaradorligini baholovchi hamda strategiyalarini ishlab chiqish uchun biznes va davlat o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradigan qonuniy tashkil etilgan institutlarni yaratish kerak. Bu har qanday siyosiy partiyalar va ma’muriyatlardan moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lishi va davlat tuzilmalariga nisbatan o‘z faoliyatida to‘liq shaffof bo‘lishi kerak bo‘lgan saylangan boshqaruv apparati va ixtiyoriy a’zoligi bo‘lgan turizm va dam olish tadbirkorlari uyushmasini ifodalovchi tashkilot sifatida faoliyat olib borishi mumkin.

Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida rivojlanayotgan tendensiyalar, hududlarni rekreatsion rivojlantirish muammolarining ahamiyatini qayta ko‘rib chiqish va yuqori sifatli rekreatsion mahsulotni shakllantirish lozim. Bu esa o‘z navbatida, hududlarning rekreatsion imkoniyatlarini baholash, muammoli nuqtalarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali amalga oshiriladi. Geografik joylashuvi tufayli Samarqand viloyati hududi nafaqat tabiiy, madaniy va tarixiy joylarning boyligi, balki landshaftning o‘ta xilma-xilligi, yashil hududlari va iqlim sharoiti bilan ajralib turadi, bu esa kurort va sayyohlik klasterini modernizatsiya qilishga yagona yondashuvni, har bir alohida tumanga moslashtirilgan yanada moslashuvchan siyosatni talab qiladi. Samarqand viloyatining har bir tumanida o‘ziga xos turizm xizmatlari shakllantirilgan. Viloyatning tog‘li hududlarida tabiat go‘zalliklarini uyg‘unlashtiruvchi betakror manzaralar, tabiiy mahsulotlari bilan ajralib turuvchi bebaho ne’matlari

bo‘lsa-da, mazkur manzillarga, asosan, mahalliy aholi dam olish uchun tashrif buyurishadi. Hududlarda mavjud imkoniyatlardan maqsadli foydalanish, mazkur manzillarda mahalliy va xorijiy turistlar uchun shinam dam olish sharoitlarini yaratish lozim. Xususan, (nomavsum davr) yoz faslining issiq kunlarida tog‘li hududlarda dam olishga bo‘lgan talab yanada oshadi, aynan mana shu davrda tog‘li hududlarda ko‘rsatilayotgan sifatli xizmatlar turistlarning talablariga mos taklif bo‘ladi.

Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlarda Nurobod tumanida yer ostidan chiquvchi tabiiy, shifobaxsh, issiq suv bilan davolovchi sanatoriydagi tabiiy resurs noyobligi bilan nom qozongan bo‘lsa-da, mazkur hududda ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati pastligi, yetarlicha xizmat ko‘rsatish turlari shakllantirilmaganligi, ayrim xizmatlarning (mahalliy do‘konlardagi savdo xizmatlari) narxlari qimmatligi aniqlandi. Nurobod tumanidagi mazkur davolanish maskanida ko‘rsatilayotgan xizmatlar mavsum tanlamaydi, ya’ni yilning to‘rt faslida ham borib davolanish mumkin. Bizningcha, mazkur hududning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mazkur hududdagi xizmatlarni diversifikatsiya qilish, mazkur manzilda turistlarga kompleks xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratish lozim. Mazkur sanatoriyga Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston mamlakatlaridan xorijiy turistlar qabul qilinmoqda. Dam olish maskanining imkoniyatlarini kengaytirish, faoliyatini yanada takomillashtirish, marketing metodlarini qo‘llash orqali boshqa mamlakatlardan ham turistlar oqimini shakllantirish mumkin.

Kattaqo‘rg‘on tumanidagi nom qozongan “Ergash ota” (ochlik bilan davolash) sog‘lomlashtirish markazi samarali davolash metodlari bilan nom qozongan. Biroq mazkur markaz mijozlariga, asosan, tibbiyot xizmatlari ko‘rsatiladi. Bizningcha, sog‘lomlashtirish markazlarida tibbiyot xizmatlari bilan turizm xizmatlarini uyg‘unlashtirish, davolanayotgan mijozlarga ularning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan ekskursiyalarni tarixiy-madaniy obyektlar, ziyoratgohlar, tog‘li hududlar, teatr, muzey va boshqa madaniy tadbirlar, agroklasterlariga jalb qilish xizmatlarini shakllantirish orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlarning yanada jozibadorligini oshirish hamda turistlar sonini oshirishga erishish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarda hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda Samarqand viloyatidagi mavjud resurslarning jozibadorligini oshirish, turizm xizmatlarini takomillashtirish, diversifikatsiya qilish, turizm xizmatlarini turdosh sohalar bilan birlashtirish orqali erishish mumkinligi aniqlandi. Turizm klasterlari orqali barcha xizmatlarni tizimlashtirish, faoliyatni rivojlantirish, narxlardagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va turistlar oqimini kengaytirishga erishish mumkin. Dam olish maskani va turizm klasterini barqaror rivojlantirish imkoniyati turizm sohasi infratuzilmasining mavjudligi va rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq. Rivojlangan infratuzilma rekreatsion hududlarning jozibadorligini oshirishga yordam beradi, hududlarning turizm salohiyatini oshiradi va salbiy mavsumiy tebranishlarni kamaytiradi.

Infratuzilmani rivojlantirishning iqtisodiy ta’siri ikki jihatda namoyon bo‘ladi. Bular:

– to‘g‘ridan to‘g‘ri;
– bilvosita.

Birinchisi, turistlar oqimi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmining ko‘payishi natijasida soliq tushumlari ko‘payadi, aholining serdaromad ish o‘rinlari bilan band bo‘lishiga erishiladi.

Ikkinchisi, animatsiya effektida o‘zini namoyon qiladi va tegishli sohalar – qurilish, transport korxonalari, dam olish va ko‘ngilochar tashkilotlar, telekommunikatsiya tizimlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, maishiy xizmat ko‘rsatish va shu kabilarning rivojlanishini ta’minlaydi. Turizm infratuzilmasi va turdosh tarmoqlar infratuzilmalari turizm sohasi faoliyatining asosi va uning uzoq muddatli raqobatbardosh xizmatlar bilan rivojlanishining zarur sharti hisoblanadi Turizm infratuzilmasi sayyohlar uchun turar joy-jamoaviy turar joylar (mehmonxonalar, sanatoriylar, pansionatlar, dam olish uylari, turizm bazalari va hokazo), ko‘ngilochar muassasalar, akvaparklar, suv havzalari, ixtisoslashtirilgan rekreatsion xizmatlarni taqdim etuvchi kompaniyalarning sarguzashtli va zavqli turizm xizmatlari orqali taqdim etiladi.

Shuningdek, turizm ko‘rgazma obyektlari – madaniyat, tarix, tabiat yodgorliklari, ekskursiya taklifini shakllantirish lozim. Turdosh tarmoqlarning infratuzilmasi turizm sohasining rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bu, birinchi navbatda, transportning barcha turlari xizmatlari: yo‘l qoplamalarining uzunligi va sifati, aeroportlar, temir yo‘l stansiyalari va avtomobil yo‘llarining sig‘imi, boshqacha qilib aytganda, turizm resurslarini iste’mol qilishda qulaylikni ta’minlash qobiliyati bilan tavsiflangan transport infratuzilmasini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, o‘z faoliyatini rekreatsion foydalanuvchilarning talabisiz amalga oshirishi mumkin bo‘lgan korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy infratuzilma, ammo sayyohlar yashaydigan joylarda kafelar, restoranlar, muzeylar, teatrlar va kinoteatrlar, kundalik hayot uylari, hayvonot bog‘lari, ko‘rgazma zallari, galereyalar va hokazolarni o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, axborot infratuzilmasi ma’lum aloqa vositalarining (mobil, sun’iy yo‘ldosh, Internet xizmatlari) mavjudligi yoki yo‘qligi, ularning narxlari mavjudligi va qamrov zonasi bilan tavsiflanadi.

To‘rtinchidan, kurort-sayyohlik majmuasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan va turizm mahsulotlarini shakllantirishda ishtirok etmaydigan, ammo sayyohlarga moliyaviy xizmatlar, sug‘urta, oziq-ovqat, uy-joy kommunal xizmatlari, kiyim-kechak, poyabzal, suvenirlar, kurort aksessuarlari, turizm jihozlari va shu kabilarni taqdim etish uchun zarur bo‘lgan sanoat infratuzilmasi.

Bugungi kunga qadar kommunal infratuzilmaning yetishmasligi (energiya va suv ta’minoti inshootlari, kanalizatsiya tozalash inshootlari) kurort va sayyohlik klasterini yanada rivojlantirish va xususiy investorlarga jozibadorligini oshirish uchun jiddiy to‘siqdir. Dam olish mavsumida kommunal xizmatlarga yuk bir necha bor ortadi va eskirgan infratuzilma noxush hodisalar xavfini yaratadi. Iqtisodiy asoslangan tarifning bir qismi sifatida xarajatlar tarkibini o‘zgartirishga, uy-joy kommunal xizmatlarini ishlab chiqarish va ta’minlash jarayonida yuridik shaxslarning munosabatlarini yaxshilashga muhim ahamiyat beriladi. Kommunal xizmatlarni taqdim etish uchun raqobatbardosh bozorni yaratish, xususiy investitsiyalarni jalb qilgan holda mavjud infratuzilma obyektlarini texnik qayta jihozlash muammosini hal qilish lozim.

Raqamlashtirish texnologiyalarini qo‘llash kurort va turizm sohasini rivojlanishning mutlaqo yangi bosqichiga olib chiqadi va bu jarayonda yetakchi rol internetga tegishli. Global Internet tarmog‘idan foydalanishning afzalliklari iste’molchilar nuqtayi nazaridan ham, turizm xizmatlari ishlab chiqaruvchisi nuqtayi nazaridan ham muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi turizm xizmatlari bozorining tuzilishini o‘zgartirishi, turoperatorlar va turizm mahsulotlarining oxirgi foydalanuvchilari o‘rtasidagi vositachilarni olib tashlashi mumkin. Mustaqil ravishda o‘z sayohatlarini yaratish, mehmonxonalarni bron qilish, kerakli ekskursiyalar, xizmatlar va sayyohlik yo‘nalishlarini tanlash, turli xil transport turlarining jadvallarini taqqoslash, elektron to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan iste’molchi sayyohlik agentliklarining xizmatlaridan voz kechishi va to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqaga o‘tishi mumkin. Xizmat ko‘rsatuvchi provayder bunday sharoitda mintaqaviy turizm sohasi uchun yagona axborot makonini shakllantirish, kengayib borayotgan bank muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish va mintaqalararo axborot hamkorligini kengaytirish eng muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Dam olish va turizm sohasidagi sifat o‘zgarishlari mintaqaning rekreatsion rivojlanishini oqilona rejalashtirish va davlat-xususiy sheriklikni takomillashtirishga asoslanadi, buning natijasida Samarqand viloyatining barqaror raqobatbardosh turizm klasterini shakllantirishga bevosita yordam beradi.

XULOSA

Turizm tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligi, mustahkamligi va raqobatbardoshligini baholash va qiyosiy tahlil qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarimiz amaliyotga joriy qilinsa, so‘zsiz, turizm tashkilotlari ishini yaxshilash, raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyati tug‘iladi va ta’sirchan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘ladi.

Hududlarda turizm sohasining barcha xizmatlarini rivojlantirishda xodimlarning taqsimoti balansini nazorat qilib borish lozim. Shuningdek, turizm xizmatlari bozorida mavsumiylik kuzatilishi sababli xodimlarning turli kasblarga moslashuvchanligini oshirish kerak bo‘ladi.

Hududning tarixiy yodgorliklari va zamonaviy arxitektura obyektlarini ko‘rgani kelgan turistlar qisqa muddatli rekreatsion xizmatlarga yoki rivojlanib borayotgan agroturizm bog‘lariga yo‘naltirilsa, turistlarning manzillarda qolish muddatlari bir necha kunga uzaytiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyeva M.T. Mehmonxona menejmenti. Darslik. – T., 2010. – 150 bet.
2. Amonboyev M., Oppoqxonov N., Dehqonov B. Turizmda atrof-muhit iqtisodiyoti. Darslik. – T., 2021. – 150 bet.
3. Eshtayev A.A., Norchayev A.N., Eshov M.P. O‘zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. – T., 2023.
4. Eshtayev A.A. Turizm sohasini boshqarishning marketing strategiyasi. – T.: Fan, 2011.
5. Dustmurodov O.I. Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning o‘ziga xos tendensiyalari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 8-son. – T., 2024-yil. 458-467-betlar.
6. Dustmurodov O.I. Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillari va omillari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – T. Maxsus son. 2023-yil. 349-358-betlar.
7. Kholmuminov Sh.R., Dustmurodov O.I. Objective necessity and importance of increasing the economic efficiency of tourism development in the context of the formation of an innovative economy. // Iqtisodiyot va ta’lim. 2-son. – T., 2022-yil. 321-bet.
8. www.UNTourism.

TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO‘RSATKICHLARINI REGRESSIYON TAHLILI

Ishniyazov Baxrom Normamatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Ekonometrika” kafedrasi dotsenti
ORCID: 0009-0006-2734-8981

Xurramov Eldor
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-kurs magistr
ORCID: 0009-0004-9133-7641
Email: eldorxurramov24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hamkorbankning 2008–2024-yillar davomida shakllangan moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida sof foyda dinamikasi regressiya tahlili o‘tkazildi. Tadqiqotda foydaga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida mijozlarga berilgan kreditlar, mijozlar mablag‘lari, foiz daromadlari, foiz xarajatlari, komission daromadlar, komission xarajatlar, rezerv ajratmalari va xodim xarajatlari ko‘rib chiqildi. Ma’lumotlar logarifmik transformatsiyadan o‘tkazilib, multikollinearlik muammosini kamaytirish uchun korrelyatsiya tahlillari amalga oshirildi. Ushbu natijalar tijorat banklarida foyda boshqaruvini samarali tashkil etishda muhim nazariy va amaliy xulosalarni beradi.

Kalit so‘zlar: hamkorbank, foyda dinamikasi, regressiya tahlili, moliyaviy ko‘rsatkichlar, kreditlar, foiz daromadlari, foiz xarajatlari, korrelatsiya koeffitsiyenti, sof foyda, natijaviy belgi, determinatsiya koeffitsiyenti.

Abstract: This article conducted a regression analysis of the dynamics of net profit based on the financial indicators of Hamkorbank formed during 2008–2024. The study considered loans to customers, customer funds, interest income, interest expenses, commission income, commission expenses, reserve allocations and employee expenses as the main factors affecting profit. The data were subjected to logarithmic transformation and correlation analysis was performed to reduce the problem of multicollinearity. These results provide important theoretical and practical conclusions for the effective organization of profit management in commercial banks.

Key words: Hamkorbank, profit dynamics, regression analysis, financial indicators, loans, interest income, interest expenses, correlation coefficient, net profit, resulting sign, coefficient of determination.

Аннотация: В данной статье проведен регрессионный анализ динамики чистой прибыли на основе финансовых показателей Hamkorbank, сформированных за период 2008–2024 гг. В исследовании в качестве основных факторов, влияющих на прибыль, рассматривались кредиты клиентам, средства клиентов, процентные доходы, процентные расходы, комиссионные доходы, комиссионные расходы, отчисления в резервы и расходы на персонал. Данные были подвергнуты логарифмическому преобразованию и проведен корреляционный анализ для снижения проблемы мультиколлинеарности. Полученные результаты дают важные теоретические и практические выводы для эффективной организации управления прибылью в коммерческих банках.

Ключевые слова: Hamkorbank, динамика прибыли, регрессионный анализ, финансовые показатели, кредиты, процентные доходы, процентные расходы, коэффициент корреляции, чистая прибыль, результирующий признак, коэффициент детерминации.

KIRISH

Tijorat banklarining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan tijorat faoliyatini amalga oshirish va maksimal samaradorlikka erishishdan iborat. O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida tijorat banklarining faoliyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, ularning moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan ichki moliyaviy ko‘rsatkichlar, boshqaruv samaradorligi va risklarni boshqarish mexanizmlariga bog‘liq.

Bank foydasi uning moliyaviy natijalarini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, kredit siyosati, foizli daromadlar va xarajatlar, aktivlar hajmi va sifati, komission tushumlar hamda xodimlar xarajatlari kabi ko‘plab omillarga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, foydaga ta’sir etuvchi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni aniqlash

va ularning dinamikasini tahlil qilish tijorat banklarining kelgusidagi strategik rivojlanishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamkorbank O‘zbekistonning yetakchi tijorat banklaridan biri sifatida 2008–2024-yillar davomida faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu davr mobaynida bankning sof foydasi ko‘plab ichki va tashqi omillarning ta’sirida o‘zgarib kelgan. Ayniqsa, mijozlarga berilgan kreditlar hajmi, mijozlardan jalb qilingan mablag‘lar, foizli daromad va xarajatlar, rezerv ajratmalari hamda komission tushumlar bilan sof foyda o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash iqtisodiy tahlil nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu tadqiqotda Hamkorbankning moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida foyda dinamikasining regressiya tahlili olib borildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sof foyda natijaviy belgi (Y) sifatida tanlandi. Mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa quyidagi moliyaviy ko‘rsatkichlar olindi:

- Кредиты клиентам (Актив) – mijozlarga berilgan kreditlar,
- Средства клиентов (Пассив) – mijozlar mablag‘lari,
- Процентные доходы – foizli daromadlar,
- Процентные расходы – foizli xarajatlar,
- Резерв под обесценение кредитов – kreditlarni qadrsizlanish zaxiralari,
- Комиссионные доходы – komission daromadlar,
- Комиссионные расходы – komission xarajatlar,
- Расходы на персонал – xodimlar xarajatlari.

Mazkur ko‘rsatkichlar katta summalarda bo‘lgani sababli ularning logarifmi (ln) olingan holda ishlatildi. Bu nafaqat ma’lumotlarni normalizatsiya qilish, balki modelning statistik ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Korrelatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash orqali omillar orasidagi bog‘lanish darajasi aniqlanadi.
2. Yuqori darajada multikollinearlik kuzatilgan omillar chiqarib tashlanadi.
3. Eng kichik kvadratlar usuli (OLS) orqali regressiya modeli tuziladi.
4. Modelning statistik ahamiyatliligi (t-test, F-test, R^2) baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval. Hamkorbankning sof foydasiga ta’sir etuvchi moliyaviy ko‘rsatkichlarning korrelyatsiya matritsasi

Ko‘rsatkich-lar	Sof foyda	Kreditlar (**Актив**)	Mijoz mablag‘lari (**Пассив**)	Foizli daromad	Foizli xarajat	Rezervlar	Komissiya daromadlari	Komissiya xarajatlari	Xodimlar xarajatlari
Sof foyda	1	0.949	0.932	0.996	-0.998	-0.887	0.990	-0.982	-0.995
Kreditlar	0.949	1	0.979	0.956	-0.954	-0.852	0.941	-0.913	-0.956
Mijoz mablag‘lari	0.932	0.979	1	0.933	-0.928	-0.836	0.932	-0.916	-0.943
Foizli daromad	0.996	0.956	0.933	1	-0.998	-0.888	0.991	-0.971	-0.996
Foizli xarajat	-0.998	-0.954	-0.928	-0.998	1	0.896	-0.986	0.977	0.993
Rezervlar	-0.887	-0.852	-0.836	-0.888	0.896	1	-0.841	0.926	0.857
Komissiya daromadlari	0.990	0.941	0.932	0.991	-0.986	-0.841	1	-0.959	-0.997
Komissiya xarajatlari	-0.982	-0.913	-0.916	-0.971	0.977	0.926	-0.959	1	0.967
Xodim xarajatlari	-0.995	-0.956	-0.943	-0.996	0.993	0.857	-0.997	0.967	1

Tahlilning birinchi bosqichida Hamkorbankning 2008–2024-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida sof foydaning boshqa omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi korrelyatsion tahlil yordamida o‘rganildi. Korelyatsiya koeffitsiyenti ikki omil o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlik darajasini ifodalaydi va -1 dan +1 gacha qiymat qabul qiladi. Agar ko‘rsatkich +1 ga yaqin bo‘lsa – kuchli to‘g‘ri bog‘lanish, -1 ga yaqin bo‘lsa – kuchli teskari bog‘lanish, 0 ga yaqin bo‘lsa – zaif yoki yo‘qligi belgilanadi.

1. Korelyatsion bog‘lanishlarning natijalari

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, sof foyda bilan eng kuchli ijobiy bog‘lanish quyidagi ko‘rsatkichlarda kuzatildi:

- Foizli daromad (0.996)
- Komissiya daromadi (0.990)
- Kreditlar (Aktiv) (0.949)
- Mijoz mablag‘lari (Passiv) (0.932)

Shuningdek, sof foyda bilan kuchli salbiy bog‘lanish quyidagi ko‘rsatkichlarda kuzatildi:

- Foizli xarajat (-0.998)
- Xodimlar xarajati (-0.995)
- Komissiya xarajati (-0.982)
- Kreditlar bo‘yicha zaxira (-0.887)

Demak, sof foydani oshirishda eng katta ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar — foizli daromad va komissiya daromadlari, foydani pasaytiruvchi asosiy omillar esa foizli xarajatlar va xodimlar xarajatlari ekanligi aniqlandi.

2. Multikollinearlik muammosi va omillarni tanlash

Bundan tashqari jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkunki mustaqil o‘zgaruvchilar orasida multikollinearlik mavjud. Multikollinearlik bu umumiy natijaga birgalikda ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi zich korrelyatsion bog`liqlikdir.[1] Multikollinearlikni regressiya modelidan bir yoki bir necha chiziqli bog‘langan omillarni chiqarib tashlash yoki boshlang‘ich omillarni yangi, yiriklashtirilgan omillarga aylantirish yo‘li bilan bartaraf etish mumkin.[2]

Korelyatsion tahlil shuni ko‘rsatdiki, ayrim mustaqil o‘zgaruvchilar bir-biri bilan juda yuqori bog‘langan. Masalan:

- Kreditlar (Aktiv) va Mijoz mablag‘lari (Passiv) o‘rtasida korelyatsiya 0.978 bo‘lib, ular deyarli parallel o‘zgaradi.
- Foizli daromad va Komissiya daromadi o‘rtasida bog‘liqlik 0.991 darajada.
- Foizli xarajat va Xodimlar xarajatlari o‘rtasida korelyatsiya 0.993 ga teng.

Bu holat multikollinearlik deb ataladi. Multikollinearlik regressiya modelida muammoga olib keladi, chunki mustaqil o‘zgaruvchilar bir-birining ta’sirini takrorlab yuboradi va model noto‘g‘ri natija berishi mumkin.

Shu sababli quyidagi qarorga kelindi:

- Kreditlar va Mijoz mablag‘lari o‘zaro juda yuqori bog‘liq bo‘lgani uchun, modelda ularni birgalikda ishlatish mumkin emas. Shuning uchun ikkalasi ham chiqarib tashlandi.
- Foizli daromad va Komissiya daromadi bir-biriga yaqin natija beruvchi, lekin iqtisodiy mazmun jihatidan muhim bo‘lgan omillar hisoblanadi. Ular modelda qoldirildi.
- Foizli xarajat va Xodimlar xarajatlari kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani sababli modelda albatta qoldirildi.
- Kreditlar bo‘yicha zaxira (rezerv)ning ta’siri mavjud bo‘lsa-da (–0.887), boshqa omillarga qaraganda pastroq, shuning uchun u modeldan chiqarildi (2-jadval).

2-jadval. Hamkorbankning moliyaviy ko‘rsatkichlari hajmi o‘zgarishi sof foydasiga ta’sirining regressiya tenglamasi

Omillar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	P-qiymat
const	-11728933,41	7156534,186	-1,63891251	0,12716571
Foizli daromadlar	-0,275098019	0,070591759	-3,89702741	0,00212146
Foizli xarajatlar	0,852486223	0,110832562	7,691658516	5,609E-06
Komission daromadlar	0,496790696	0,275832261	1,801060888	0,09685749
Xodimlarga xarajatlar	0,317643565	0,307261465	1,033789139	0,32161996
Ko‘rsatkich	Qiymat			

1 https://dictionary.tsue.uz/soz/MULTIKOLLINEARLIK
2 https://staff.tiiame.uz/storage/users/112/presentations/ncDiXejwXOeFr7UjMp9KVNCuLjjH2oNoK75hvZzU.pdf

Kvadrat chetlanishlar yig‘indisi (SSR)	2,39823E+18			
Modelning standart xatoligi	14063811,71			
Kuzatuvlar soni	17			
Ko‘rsatkich	Qiymat			
Ko‘plikdagi R	0,999505525			
R-kvadrat	0,999011295			
Moslashgan R-kvadrat	0,998681727			
F-statistika (4; 12)	3031,271996			
P-qiymat (F)	6,53327E-18			

Korrelyatsion bog‘lanishlar tahlil qilinganidan so‘ng, 8 ta dastlabki omildan 4 tasi asosiy omil sifatida regressiya modeliga kiritildi. Bular:

- Foiz daromadlari (X1)
- Foiz xarajatlari (X2)
- Komission daromadlar (X3)
- Xodimlarga sarflangan xarajatlar (X4)

Natijada quyidagi regressiya tenglamasi hosil bo‘ldi:

Sof_foyda=−11728933,41−0,2751·Foiz_daromadlari+0,8525·Foiz_xarajatlari+0,4968·Komission_daromadlar+0,3176·Xodim_xarajatlari+ e

Modelning asosiy ko‘rsatkichlari:

- Korrelyatsiya koeffitsiyenti (R) = 0,9995 → deyarli to‘liq bog‘liqlik.
- R^2 = 0,9990 → sof foydaning 99,9% tanlangan omillar bilan izohlanadi.
- Moslashtirilgan R^2 = 0,9987 → model yuqori darajada mos.
- F-statistika = 3031,27, p < 0,0001 → model umumiy jihatdan statistik ahamiyatga ega.

Omillar kesimida tahlil:

1. Foiz daromadlari (коэфф. -0,275, p=0,002)
   - o Salbiy va muhim.
   - o Bu kredit portfeli kengaygan bo‘lsa-da, sifat pastligi va risklar oshgani sababli sof foyda kamayishini anglatadi. Kredit risklari tufayli qo‘shimcha rezervlar ajratilgan.
2. Foiz xarajatlari (коэфф. +0,852, p<0,001)
   - o Ijobiy va juda muhim.
   - o Depozitlar hajmi oshgan, bankning moliyaviy resurslari kengaygan, kreditlash imkoniyati kuchaygan va foyda oshgan.
3. Komission daromadlar (коэфф. +0,497, p≈0,097)
   - o Ijobiy, lekin shartli ahamiyatli.
   - o Bank xizmatlari (kartalar, o‘tkazmalar, xizmat haqlari) kengaygan va foydaga ijobiy hissa qo‘shgan, lekin kreditlar darajasida katta ta’sir ko‘rsatmagan.
4. Xodimlar xarajatlari (коэфф. +0,318, p≈0,32)
   - o Ijobiy, lekin statistik jihatdan ahamiyatli emas.
   - o Xodimlarga sarmoya xizmat sifatini oshiradi, ammo qisqa muddatda foydaga katta ta’sir ko‘rsatmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Regressiya tahlilining yakuniy natijalariga ko‘ra, bankning sof foydasiga bir nechta asosiy omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Model natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- Foizli daromadlarning 1 birlikka oshishi, kutilmaganda sof foydani 0,275 birlikka kamaytiradi. Bu holat bankning yuqori foiz stavkalari hisobiga daromad olish strategiyasi uzoq muddatda barqaror emasligini, foiz stavkalari oshishi bilan birga kredit riski ham kuchayishini anglatadi. Shuning uchun foizli daromadlarni oshirish siyosati ehtiyotkorlik bilan olib borilishi kerak.
- Foizli xarajatlarning 1 birlikka oshishi, sof foydani 0,852 birlikka oshiradi. Bu g‘ayritabiiy natija dastlab qarama-qarshi ko‘rinsa-da, amalda bankning jalb qilayotgan depozitlari hajmi ortishi kreditlash faoliyati

kengayishiga olib kelayotganini anglatadi. Ya’ni, ko‘proq mablag‘ jalb qilingan sari, daromadli aktivlar ortib, umumiy foydaga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

- Komission daromadlarning 1 birlikka oshishi, sof foydani 0,496 birlikka oshirishi mumkin, biroq natijaning statistik ahamiyat darajasi past (P = 0,0968). Shunday bo‘lsa-da, bankning komission xizmatlarini kengaytirishi foyda manbalarini diversifikatsiya qilish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.
- Xodimlarga xarajatlarning 1 birlikka oshishi, sof foydani 0,318 birlikka oshirishi mumkin, ammo bu natija ham statistik jihatdan ahamiyatli emas (P = 0,3216). Biroq iqtisodiy nuqtai nazardan, xodimlarga ko‘proq investitsiya qilish, xizmat sifati va mijozlar bazasini kengaytirish orqali uzoq muddatda ijobiy samara berishi mumkin.

Modelning determinatsiya koeffitsiyenti R^2 = 0,9990 darajasida yuqori bo‘lib, bu sof foydaning deyarli to‘liq izohlanishini bildiradi. F-statistika qiymati (3031,27) va uning ahamiyati (P < 0,001) modelning umumiy jihatdan muhimligini tasdiqlaydi.

TAKLIFLAR:

- Bank uchun asosiy strategik yo‘nalish sifatida resurs bazasini kengaytirish va jalb qilingan mablag‘larni samarali aktivlarga yo‘naltirish zarur.
- Kredit siyosatini takomillashtirish, foiz stavkalarini optimal darajada belgilash hamda kredit riskini kamaytirish mexanizmlarini joriy qilish kerak.
- Komission xizmatlar ulushini oshirish orqali sof foydaning diversifikatsiyalangan manbalarini yaratish muhim.
- Xodimlarga investitsiyalarni oshirish xizmat sifati, mijozlar bazasi kengayishi va uzoq muddatli barqaror foyda o‘sishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ulugbekovich, A. U. (2023). Solving Pension System Problems through Econometric Modeling. INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES, 2(5), 36-39.
2. https://dictionary.tsue.uz/soz/MULTIKOLLINEARLIK
3. https://staff.tiiame.uz/storage/users/112/presentations/ncDiXejwXOeFr7UjMp9KVNCuLjjH2oNoK75hvZzU.pdf

O‘ZBEKISTONDA KICHIK MEHMONXONALARNING MOLIYAVIY SALOHIYATINI KUCHAYTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Gapparova Mayramxon Zafar qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti
Email: m.gapparova@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan kichik mehmonxonalar faoliyatining moliyaviy salohiyatini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Kichik mehmonxonalarning moliyaviy barqarorligi, investitsion imkoniyatlari, daromad manbalari hamda xizmat ko‘rsatish sifatining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosatining o‘rni, moliyaviy menejment mexanizmlari va kredit hamda investitsion imkoniyatlarni kengaytirish zarurati asoslab beriladi. Maqolada kichik mehmonxonalar uchun moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, raqamli yechimlarni joriy etish va xizmatlar diversifikatsiyasi orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik mehmonxona, moliyaviy salohiyat, turizm iqtisodiyoti, investitsiya, rentabellik, moliyaviy barqarorlik, davlat-xususiy sheriklik, raqamli boshqaruv.

Abstract: This article analyzes the issues of increasing the financial potential of small hotels, which constitute an important component of the tourism sector in the Republic of Uzbekistan. The study examines the financial stability, investment opportunities, income sources, and the impact of service quality on the economic efficiency of small hotels. It also substantiates the role of state policy in supporting their activities, the mechanisms of financial management, and the necessity of expanding credit and investment opportunities. The article provides recommendations for modernizing the financial management system of small hotels, implementing digital solutions, and enhancing economic efficiency through service diversification.

Key words: small hotel, financial potential, tourism economy, investment, profitability, financial stability, public-private partnership, digital management.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы повышения финансового потенциала малых гостиниц, являющихся важной составной частью туристической отрасли Республики Узбекистан. Исследуются финансовая устойчивость, инвестиционные возможности, источники доходов и влияние качества обслуживания на экономическую эффективность малых гостиниц. Также обоснована роль государственной политики в поддержке их деятельности, механизмы финансового менеджмента и необходимость расширения кредитных и инвестиционных возможностей. В статье предложены рекомендации по модернизации системы финансового управления малых гостиниц, внедрению цифровых решений и повышению экономической эффективности через диверсификацию услуг.

Ключевые слова: малая гостиница, финансовый потенциал, экономика туризма, инвестиции, рентабельность, финансовая устойчивость, государственно-частное партнёрство, цифровое управление.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezident tashabbusi bilan qabul qilingan “Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi – 2030” dasturi asosida mamlakatda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish va yangi turistik yo‘nalishlarni yaratish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda kichik va o‘rta mehmonxonalar tarmog‘ining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki ular nafaqat turistik oqimni ta’minlaydi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy budjetlarga tushumlarni oshirish va hududiy iqtisodiyotni faollashtirishga xizmat qiladi.

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda kichik mehmonxonalar faoliyatining moliyaviy salohiyati to‘liq darajada ro‘yobga chiqmagan. Moliyaviy boshqaruvning yetarlicha tizimlashtirilmagani, investitsiya manbalarining cheklanganligi, kreditlash mexanizmlarining sustligi va xizmatlarni diversifikatsiya qilishning past darajasi ularning iqtisodiy samaradorligini pasaytiruvchi omillar bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, kichik mehmonxonalarning moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish va barqaror rivojlanish mexanizmlarini yaratish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan.

Asosiy qism

Moliyaviy salohiyat — bu xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z mablag‘lari, investitsiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy manbalar hisobidan faoliyatini kengaytirish, xizmat sifatini oshirish va barqaror foyda olish imkoniyatidir. Kichik mehmonxonalar uchun bu ko‘rsatkichlar odatda rentabellik, to‘lovga qobiliyatlilik, kapital aylanish tezligi va daromad manbalarining barqarorligi orqali baholanadi.

O‘zbekiston sharoitida kichik mehmonxonalar faoliyatining moliyaviy tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 1500 dan ortiq kichik mehmonxona faoliyat yuritmoqda. Ulardan aksariyati xususiy sektor vakillari bo‘lib, moliyaviy manbalarining 70 foizdan ortig‘i o‘z mablag‘lari va qisqa muddatli bank kreditlari hisobidan shakllanadi. Shu bilan birga, kichik mehmonxonalarning rentabellik darajasi o‘rtacha 8–12 foizni tashkil etadi, bu esa xalqaro standartlardan (15–20%) past hisoblanadi (1-rasm).

1-rasm. Moliyaviy salohiyatni ta’sir etuvchi omillar

Moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari. Kichik mehmonxonalar uchun moliyaviy boshqaruvni rivojlantirish bir necha yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim:

- Investitsion muhitni yaxshilash: xalqaro moliyaviy institutlar (IFC, EBRD, ADB) bilan hamkorlikda kichik mehmonxonalarni qo‘llab-quvvatlovchi kredit liniyalarini yaratish;
- Raqamli moliyaviy tizimlarni joriy etish: mehmonxona rezervatsiyasi, buxgalteriya hisobi va to‘lov tizimlarini yagona elektron platformaga o‘tkazish;
- Moliyaviy risklarni boshqarish: sug‘urta, xedjing va kafolat mexanizmlarini joriy etish orqali foyda barqarorligini ta’minlash;
- Kadrlar salohiyatini oshirish: moliyaviy menejment va turizm marketingi bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish.

Moliyaviy boshqaruvning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi xizmatlar sifatining bevosita oshishiga olib keladi. Masalan, foydali investitsiyalar hisobiga xonalarni modernizatsiya qilish, onlayn to‘lov tizimlarini joriy etish va energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash orqali operatsion xarajatlar kamayadi, mijozlar soni esa oshadi. Natijada mehmonxona rentabelligi ko‘tariladi, bu esa iqtisodiy samaradorlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

O‘zbekiston turizm sohasida kichik mehmonxonalar faoliyatining moliyaviy salohiyatini oshirish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini ta’minlash maqsadida bir qator amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, kichik mehmonxonalarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus moliyaviy jamg‘armani tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jamg‘arma turizm sohasidagi kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar, grantlar hamda kafolatlar ajratish orqali ularning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu esa mehmonxonalar faoliyatining uzluksizligini ta’minlab, ularning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmini rivojlantirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, energetika tejamkor infratuzilmalarni yaratish, ekologik toza mehmonxonalarni qurish hamda agroturizm loyihalarini amalga oshirish jarayonlariga xususiy sarmoyalarni keng jalb etish kichik mehmonxonalarning iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtiradi. Bu orqali davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlar va xususiy sektor sarmoyasi o‘zaro uyg‘unlikda ishlaydi (2-rasm).



2-rasm. Turizmda moliyaviy barqarorlikka erishish

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish lozim. Bunda mehmonxonalar uchun “e-finance hotel” deb nomlangan yagona raqamli platformani yaratish taklif etiladi. Ushbu tizim orqali barcha moliyaviy operatsiyalarni onlayn nazorat qilish, tahlil qilish va rejalashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu nafaqat moliyaviy oqimlarning shaffofligini oshiradi, balki xarajatlarni optimallashtirishga ham xizmat qiladi.

Kichik mehmonxonalar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, yangi tashkil etilgan mehmonxonalarga dastlabki uch yil davomida foyda solig‘idan ozod etish amaliyotini joriy etish ularning dastlabki rivojlanish bosqichida moliyaviy yukini yengillashtiradi. Shu bilan birga, import qilinadigan turistik jihozlar va mebel mahsulotlari uchun bojxona to‘lovlarini qisqartirish ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nihoyat, kichik mehmonxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun moliyaviy monitoring va tahlil tizimini joriy etish zarur. Bu tizim har bir mehmonxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida reyting bahosini shakllantirish imkonini beradi. Natijada, sohada raqobat muhitini kuchaytirish, shaffoflikni ta’minlash va investitsiyalar oqimini rag‘batlantirishga erishiladi. Shu tarzda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar kichik mehmonxonalar faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlab, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda kichik mehmonxonalar faoliyatining samaradorligi ularning moliyaviy salohiyatiga bevosita bog‘liq. Mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yaxshilash orqali ushbu sohada barqaror o‘sishni ta’minlash

mumkin. Kichik mehmonxonalar nafaqat turizm infratuzilmasining muhim qismi, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishning drayveri sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, kredit va investitsion imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli boshqaruv tizimlarini tatbiq etish O‘zbekistonning turizm tarmog‘ini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi – 2030” to‘g‘risidagi qarori. (2019). *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami*.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2024). *Turizm sohasida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hisobot*. Toshkent.
3. World Bank. (2023). *Uzbekistan: Tourism Competitiveness and Financial Sustainability Report*. Washington, D.C.
4. Asian Development Bank. (2022). *Supporting Tourism SMEs in Central Asia: Financing and Management Strategies*. Manila: ADB Publishing.
5. Karimov, B. (2023). Kichik mehmonxonalar moliyaviy boshqaruvini takomillashtirishning nazariy asoslari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, 7(3), 44–52.
6. UNWTO. (2023). *Sustainable Tourism Investment and Financing Models*. Madrid: UNWTO Publications.
7. OECD. (2021). *Financing Small Accommodation Businesses for Tourism Development*. Paris: OECD.
8. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. (2022). *Turizm iqtisodiyoti va moliyaviy menejment asoslari*. Toshkent: TSUE nashriyoti.

MAMLAKATIMIZDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI

Isomidinov Inomjon Qurbonali o‘g‘li
TDIU “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasi tayanch doktoranti,
O‘zbekiston 100066, Toshkent shahar,
Islom Karimov ko’chasi, 49
E-mail: i.isomidinov@tseu.uz

Annotatsiya: Tadqiqot O‘zbekistonda xalqaro turizm, ichki va milliy turizmni rivojlantirishning tashkiliy mehanizmlarini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Turizmni boshqarishda muvaffaqiyatli tajribalarni o‘rganib ilmiy yechimlar ishlab chiqish, davlatni roli va ishlab chiqilgan xujjatlarni turizm biznesi subyektlari faoliyatini rivojlantishishga qaratilgan. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining turizmni rivojlantirishda hamkorligi, ularning vazifalari qatoriga turizmni rivojlantirishda yo‘l xaritasini ishlab chiqishni ilmiy yechimlarini nazariy asoslari berilgan. Ichki turizmni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarmoq shaklga ega. Bu mavzuda turli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, ushbu ob’ekt yaxlitligicha yetarli chuqur o‘rganilmagan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, turizm, xizmat ko‘rsatish, boshqaruv tizimi, tadqiqotlar.

Abstract: The research focuses on improving the organizational mechanisms for the development of international, domestic, and national tourism in Uzbekistan. It aims to develop scientific solutions by studying successful management practices in tourism and strengthening the role of the state and regulatory documents that support the activities of tourism business entities. The study highlights the cooperation of self-governing bodies in tourism development and provides theoretical foundations for creating a scientific framework and roadmap to foster tourism growth. The organizational and economic mechanism for managing domestic tourism is described as a network-based system. Although various scientific studies have been conducted in this field, the research object has not been comprehensively explored as a whole.

Key words: economy, tourism, service, management system, research.

So‘nggi yillarda “Ipak yo‘li” turizm fondi, Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi maxsus investitsiya jamg‘armalari, shuningdek, xalqaro donor tashkilotlar ishtirokidagi grant dasturlari orqali bir qator loyihalar moliyalashtirildi.

Shunga qaramay, turizm sohasidagi moliyaviy boshqaruv tizimi hali to‘liq integratsiyalashmagan:

a. loyihalarni baholashda yagona metodika mavjud emas;
b. moliyaviy nazorat va qaytim monitoringi mexanizmlari zaif;
c. xususiy sektor ishtiroki cheklangan.

Shu bois turizmni boshqarishda moliyaviy vositalarning turliligini kengaytirish, xususan, obligatsiyalar, turizm kredit liniyalari, crowd-investing va raqamli to‘lov tizimlarini tatbiq etish zarur.

Turizmni moliyalashtirishda zamonaviy yondashuvlar. Bugungi global iqtisodiyotda turizmni rivojlantirishda innovatsion moliyaviy instrumentlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan:

1. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida mehmonxonalar, transport infratuzilmasi, ekoturizm zonalari barpo etilmoqda;
2. Turizm obligatsiyalari orqali investorlar uchun uzoq muddatli daromad manbai yaratilmoqda;
3. Raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlari — masalan, “Tourism Finance Platform” — loyihalarni onlayn nazorat qilish imkonini beradi;
4. Xalqaro grantlar va subsidiyalar (UNWTO, ADB, EBRD) turizm ta’limi, xizmat sifati va barqaror ekoturizmni rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda.

Bu yondashuvlar orqali turizm tarmog‘ida moliyaviy oqimlar ochiqligi, investitsiya samaradorligi va barqarorlik darajasi oshadi.

Moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari deganda moliyaviy boshqaruv tizimi — bu davlat, korxona yoki tarmoq miqyosida mavjud moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, ularni nazorat qilish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarining majmuasidir. Zamonaviy sharoitda bu tizimni takomillashtirish iqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy boshqaruv tizimi samarali ishlashi uchun barqaror va aniq huquqiy hamda institutsional asos zarur. Shu bois, moliyaviy siyosatni muvofiqlashtiruvchi, investitsiyalarni boshqaruvchi va budjet intizomini ta’minlovchi institutlarning faoliyatini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Bu jarayonda Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya tadqiqot markazlari, hamda raqamli nazorat agentliklari o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar (masalan, e-budget, blockchain, big data tahlili, moliyaviy monitoring tizimlari)ni joriy etish dolzarbdir. Ushbu texnologiyalar yordamida budjet mablag‘lari sarfi, investitsion oqimlar va kredit faoliyatining shaffofligi ta’minlanadi. Raqamli transformatsiya natijasida moliyaviy boshqaruv nafaqat nazorat, balki tahlil va prognozlash vositasiga ham aylanadi.

Moliyaviy boshqaruv tizimi samaradorligi ko‘p jihatdan moliyaviy manbalar turining kengligiga bog‘liq. Shu sababli, O‘zbekistonda ichki va tashqi moliya manbalarini diversifikatsiya qilish, ya’ni davlat budjeti, xususiy sektor, xalqaro moliyaviy institutlar va kapital bozorlaridan keluvchi resurslarni muvofiqlashtirish zarur. Bu yo‘nalish moliyaviy mustaqillikni oshirish bilan birga, iqtisodiy xavflarni kamaytiradi.

Moliyaviy boshqaruv tizimi samaradorligining muhim omillaridan biri — investitsiyalarni jalb etish uchun qulay iqtisodiy va huquqiy muhit yaratishdir. Shu maqsadda soliq siyosatini soddalashtirish, xalqaro kredit reytinglarini yaxshilash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda investorlarga kafolatlar tizimini takomillashtirish zarur. Natijada iqtisodiyotning strategik tarmoqlari, jumladan turizm, sanoat va transport sektorlari barqaror moliyalashtirish asosida rivojlanadi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston sharoitida quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi

№	Takliflar	Asoslari	Vazifalari
1.	Turizm uchun yagona moliyaviy boshqaruv markazini tashkil etish	O‘zbekiston turizm tizimi uchun markazlashgan “Milliy turizm moliya markazi” ni tashkil etish zarur.	Ushbu markaz turizm sohasidagi barcha investitsion loyihalarni muvofiqlashtiruvchi, moliyalashtirish manbalarini taqsimlovchi va nazorat qiluvchi tuzilma sifatida faoliyat yuritadi. Bunday markaz xalqaro amaliyotda mavjud bo‘lgan “Tourism Development Fund” modeliga o‘xshab ishlaydi hamda davlat, xususiy sektor va donor tashkilotlar o‘rtasidagi moliyaviy oqimlarni bir tizimga keltiradi. Natijada turizm loyihalarining shaffofligi, samaradorligi va nazorati oshadi.
2.	Turizmni moliyalashtirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish	Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida **blockchain, e-budget va fintech** texnologiyalarini joriy etish zarur.	Bu texnologiyalar moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini ta’minlab, korrupsiya va mablag‘larning maqsadsiz sarflanishi xavfini kamaytiradi. Masalan, blockchain orqali har bir loyihaga yo‘naltirilgan mablag‘ harakati ochiq reyestrda qayd etilib, davlat va investorlar uchun real vaqt rejimida kuzatuv imkoniyati yaratiladi.
3.	Mahalliy darajada turizm jamg‘armalarini shakllantirish	Hududlar darajasida **turizm rivojlanish jamg‘armalari**ni tashkil etish iqtisodiy jihatdan samarali mexanizm bo‘lib, joylardagi turistik salohiyatni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.	Ushbu jamg‘armalar mahalliy budjet, xususiy sektor, homiylik mablag‘lari hamda turistik yig‘imlar hisobidan shakllantiriladi. Ular orqali viloyat va tumanlarda yangi turizm obyektlari qurilishi, infratuzilma modernizatsiyasi va kadrlar tayyorlash jarayonlari moliyaviy jihatdan mustahkamlanadi.
4.	Ekoturizm va madaniy meros loyihalariga soliq imtiyozlari joriy etish	Turizmning barqaror turlaridan biri bo‘lgan **ekoturizm** va **madaniy meros obyektlarini saqlash** sohasida investorlarga soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlarini joriy etish muhimdir.	Masalan, 5 yilgacha daromad solig‘idan ozod qilish, bojxona to‘lovlarini kamaytirish yoki kredit foizlarini davlat tomonidan qisman qoplash orqali ekologik toza va madaniy jihatdan ahamiyatli loyihalarga sarmoya jalb etish mumkin. Bu nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy-madaniy barqarorlikni ham ta’minlaydi.
5.	Moliyaviy monitoring tizimini kuchaytirish	Turizm sohasida moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish uchun **milliy moliyaviy monitoring tizimi**ni yaratish zarur.	Ushbu tizim har bir loyiha bo‘yicha iqtisodiy samaradorlik, qaytarim darajasi va ijtimoiy ta’sirni baholovchi indikatorlar asosida ishlaydi. Bu tizim xalqaro hisobot standartlariga (IFRS, UNWTO Tourism Satellite Account) asoslanishi lozim. Natijada, davlat va investorlar uchun turizm loyihalarining real natijalari ochiq ko‘rinishda taqdim etiladi, bu esa ishonch va investitsion muhitni yanada mustahkamlaydi.

Samarali moliyaviy boshqaruv uchun moliyaviy oqimlarni doimiy nazoratda ushlab turish zarur. Shu bois moliyaviy monitoring, auditorlik tizimi va ichki nazorat mexanizmlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu tizim har bir loyiha yoki budjet mablag‘ining iqtisodiy samaradorligini baholashga imkon beradi. Xalqaro moliyaviy standartlar (IFRS, IPSAS) asosida ishlaydigan monitoring tizimi davlat sektorida shaffoflikni oshiradi.

Moliyaviy boshqaruvning sifat darajasi inson resurslariga bevosita bog‘liq. Shu sababli, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning raqamli va tahliliy ko‘nikmalarini oshirish, xalqaro tajribaga asoslangan malaka oshirish dasturlarini kengaytirish zarur. Bu yo‘nalish orqali nafaqat samarali boshqaruv, balki innovatsion moliyaviy yechimlarni joriy etish imkoniyati yaratiladi.

Moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishda uzoq muddatli barqarorlik tamoyilini saqlash zarur. Bu davlat qarzlarini optimal darajada boshqarish, inflyatsiyani nazorat qilish, valyuta siyosatini muvozanatlashtirish va fiskal barqarorlikni ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Shu yo‘l bilan mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi mustahkamlanadi.

Umuman olganda, moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish va milliy investitsion salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Ularni izchil amalga oshirish natijasida O‘zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardosh, shaffof va innovatsion yo‘nalishda rivojlanadi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

O‘zbekistonda turizm sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda xalqaro imidjni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq turizmni moliyaviy jihatdan samarali boshqarish tizimi hali ham to‘liq shakllanmagan bo‘lib, mavjud resurslardan foydalanish, investitsiyalarni jalb etish, shaffoflikni ta’minlash va moliyaviy monitoring mexanizmlarini kuchaytirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bois, turizmni moliyaviy boshqarish tizimini takomillashtirish O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston turizm sohasida moliyaviy boshqaruvni yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Turizmni moliyaviy rejalashtirish bo‘yicha “Milliy strategik platforma”ni ishlab chiqish.

Bu platforma orqali barcha turizm loyihalari yagona tahlil, baholash va moliyalashtirish mexanizmi orqali boshqariladi.

2. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

OTB, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki bilan turizmni yashil moliyalashtirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

3. Mahalliy kadrlarning moliyaviy savodxonligini oshirish.

Turizm korxonalari rahbarlari uchun “Turizmda moliyaviy menejment” kurslarini joriy etish zarur.

4. Raqamli moliyaviy nazorat tizimini joriy etish.

Turizm loyihalarining moliyaviy harajatlari va daromadlarini onlayn monitoring qilish tizimini yaratish.

5. Turizm uchun maxsus investitsion fond tashkil etish.

U davlat, xususiy sektor va xalqaro donor mablag‘larini birlashtirgan holda sohani barqaror moliyalashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida moliyaviy boshqaruv tizimini rivojlantirishda bir nechta asosiy omillarga e’tibor qaratish zarur. Birinchidan, yagona moliyaviy boshqaruv markazini tashkil etish orqali turizmga oid barcha investitsion loyihalarni markazlashgan holda muvofiqlashtirish mumkin. Bu esa resurslar taqsimotining adolatli, iqtisodiy jihatdan samarali va shaffof bo‘lishiga zamin yaratadi. Ikkinchidan, turizmni moliyalashtirish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish — masalan, blockchain asosidagi moliyaviy tranzaksiyalar, e-budget tizimi, elektron audit va monitoring vositalarini qo‘llash orqali korrupsiya xavflarini kamaytirish va ishonch muhitini mustahkamlash mumkin.

Uchinchidan, mahalliy hokimiyatlar darajasida turizmni rivojlantirish jamg‘armalarini tashkil etish, ularni joylardagi turistik salohiyatni moliyalashtirish manbaiga aylantirish zarur. Bu hududiy iqtisodiyotlarni faollashtiradi va ichki turizmning kengayishiga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, ekoturizm, madaniy meros va ijtimoiy turizm loyihalariga soliq imtiyozlari, kredit yengilliklari va moliyaviy rag‘batlar berish orqali ularning barqaror moliyalashtirilishini ta’minlash lozim.

Shuningdek, turizm sohasidagi moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun xalqaro moliyaviy institutlar, xususiy sektor va davlat o‘rtasida Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini yanada rivojlantirish muhimdir. Bu nafaqat qo‘shimcha kapital jalb etadi, balki loyihalarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, moliyaviy monitoring tizimini mustahkamlash, har bir loyiha bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni baholovchi mezonlarni ishlab chiqish ham tizimli boshqaruvning ajralmas qismidir.

Umuman olganda, O‘zbekistonda turizmni moliyaviy boshqarish tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari — bu tizimni raqamlashtirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va inson kapitalini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Ularni izchil amalga oshirish natijasida turizm tarmog‘i mamlakat iqtisodiyotining yuqori daromadli, eksportga yo‘naltirilgan va ijtimoiy ahamiyatli sohasiga aylanishi mumkin. Shu tariqa, moliyaviy boshqaruv tizimining takomillashuvi O‘zbekistonning milliy iqtisodiy strategiyasida turizmni yangi o‘sish drayveri sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. (2022). *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami*.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2023). *O‘zbekiston turizm sohasining 2023-yil yakunlari bo‘yicha hisobot*. Toshkent: Turizm va madaniy meros vazirligi nashriyoti.
3. World Bank. (2023). *Uzbekistan Tourism Development Project: Enhancing competitiveness and financial sustainability*. Washington, D.C.: The World Bank Group.
4. Asian Development Bank (ADB). (2022). *Sustainable Tourism Development and Financing Strategies in Central Asia*. Manila: ADB Publications.

5. Sharipov, S. (2021). The role of investment policy in improving the efficiency of tourism management in Uzbekistan. *Economics and Innovative Technologies*, 8(6), 35–42.
6. Karimova, N., & Abdurahmonov, I. (2022). Financial management mechanisms in the tourism industry: Current challenges and future directions. *Journal of Tourism Studies and Research in Uzbekistan*, 5(2), 51–60.
7. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2023). *Tourism for Sustainable Development in Central Asia*. Madrid: UNWTO Publishing.
8. OECD. (2021). *Financing Sustainable Tourism Development: Policies and Practices*. Paris: OECD Tourism Papers.
9. Abdullaeva, M. (2023). Raqamli texnologiyalar asosida turizmni moliyaviy boshqarish tizimini modernizatsiya qilish. *O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 4(12), 77–83.
10. Tashkent State University of Economics. (2022). *Turizm iqtisodiyoti va moliyaviy boshqaruv tizimi: ilmiy-uslubiy qo‘llanma*. Toshkent: TSUE nashriyoti.
11. Abidova, D. I., & Rustamovich, D. B. (2021). The Aral Sea cannot be saved, but it is possible to develop a new tourist region. European Journal of Research Development and Sustainability, 2(3), 74-78.
12. Rustamovich, D. B. (2020). Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan. Journal of International Business Research and Marketing, 5(6), 28-33.

O‘ZBEKISTONDA TEKSTIL SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING EKONOMETRIK TAHLILI

Otaboyeva Dildora Ilxomboy qizi
Tosheknt davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
otaboyevadildora0819@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda tekstil sanoatining iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik tahlil qiladi. Maqolada eksport hajmi, ishlab chiqarish darajasi va bandlik dinamikasi ko‘rib chiqiladi, shuningdek, sohada yuzaga kelgan asosiy omillar (siyosiy islohotlar, investitsiyalar, texnologik modernizatsiya) va rivojlanish strategiyalari muhokama qilinadi. Maqola amaliy tavsiyalar va strategik chora-tadbirlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, tekstil sanoati, eksport, ishlab chiqarish, bandlik, investitsiya, sanoat strategiyasi.

Abstract: This article provides an econometric analysis of the economic development of Uzbekistan’s textile industry. It examines export volumes, production levels, and employment dynamics, as well as discusses the main factors affecting the sector (political reforms, investments, technological modernization) and development strategies. The paper offers practical recommendations and strategic measures for further improvement of the industry.

Key words: Uzbekistan, textile industry, export, production, employment, investment, industrial strategy.

Аннотация: Данная статья проводит эконометрический анализ экономического развития текстильной промышленности Узбекистана. В статье рассматриваются объемы экспорта, уровень производства и динамика занятости, а также обсуждаются основные факторы, влияющие на отрасль (политические реформы, инвестиции, технологическая модернизация) и стратегии развития. Работа предлагает практические рекомендации и стратегические меры по дальнейшему совершенствованию отрасли.

Ключевые слова: Узбекистан, текстильная промышленность, экспорт, производство, занятость, инвестиции, промышленная стратегия.

Tekstil sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotida an’anaviy ravishda muhim o‘rin tutgan — mamlakatning xom ashyo bazasi (paxta), qulay geosiyosiy joylashuvi va ishchi kuchi mavjudligi buni rag‘batlantiradi. 2010–2024 yillar oralig‘ida soha ancha o‘zgarishlarga duch keldi: davlat siyosatidagi liberallashtirishlar, xususiy sektor investitsiyalarining oqimi, klasterlash siyosati va eksportni rag‘batlantirish bo‘yicha tashabbuslar. Ushbu maqola tarixiy tendensiyalarni tahlil qilib, kelajak uchun istiqbollar va tavsiyalarni taklif qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi. Garvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyat va ustunlikka ega. Ayniqsa, neft-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmasevtika, qurilish materiallari, toqimachilik, charm-poyavza, oziq-ovqat hamda “yashil iqtisodiyot” bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz drayverlariga aylanishi uchun barcha yetarli sharotilar mavjud. Bu tarmoqlarda xususiy sektorningtashabbus va loyihalarini qo‘llab-qutlash hamda kooperatsiyani rivojlantirish bo‘yicha barcha choralar ko‘rilishi lozim”

Mamlakatimiz tekstil sanoati tarmog‘ini jadal va barqaror rivojlantirish, ularning eksport salohiyatini o‘stirish, ishlab chiqarish korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta ishlab chiqish va ta’mirlash, ichki bozorni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta’minlash, mavjud resurslardan unumli foydalanish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish asosida tekstil sanoatning samaradorligi va raqobatbardoshliginiyanada oshirishga erishish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida sanoatning to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va oziq-ovqat tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar turini va assortimentini kengaytirish, shuningdek, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega va eksportbop tayyor mahsulotlar hajmini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlikni kuchayishi, korxonalar faoliyatiga yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash orqali samaradorligini oshirishni talab qilmoqda.

Sanoat ishlab chiqarish hududiy jihatdan oqilona tashkil etilishi tarmoqlarning viloyatlar va alohida dasturlarini yanada barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Hududlarda sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, mavjud quvvatlarni oshirish sanoat rivojining muhim omillaridan biridir.

Xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan “Yangi O‘zbekiston” strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish jarayonida sanoatning o‘rni, uning yetakchi soha sifatida ahamiyati ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida sanoatning rivojlanishiga oid ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanib kelgan R. Nuritdinov, Sh. Ishtamova, Sh. Nozimova, E.X. Maxmudov, X.D. Xo‘jayev va M. Jo‘rayevlar bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishiga muvaffaq bo‘lishgan. Xususan, A. Ortiqov “O‘zbekistonda sanoatning rivojlanish istiqbollari” nomli asarida geografik asoslari va omillariga alohida e’tibor qaratgan. A. Abdullayev va D. Muxiddinovlar “Sanoat asosiy tarmoqlari rivojlanishining geografiyasi” asarida, X. Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishida sanoat sharoit yaratuvchi geografik omillar” masalalarini keng yoritgan.

Mazkur maqolada 2010–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda tekstil sanoatining rivojlanish dinamikasi, ishlab chiqarish hajmi, eksport ko‘rsatkichlari va aholi bandligiga ta’siri iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. Shuningdek, sanoat hajmiga ta’sir etuvchi asosiy omillar regressiya va korrelyatsiya usullari yordamida aniqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy izlanish,regression va korellyatsion tahlil, ekonometrik baxolash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida mintaqalar ehtiyojlariga muvofiq keluvchi, ular manfaatlarini ifodalaydigan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va sanoatni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash lozim.

Mintaqalar sanoatini rivojlantirishda muvofiqlashtirish jarayoniga davlat tomonidan dastak va vositalar orqali ta’sir ko‘rsatish quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi sanoat zonalarini yaratish” to‘g‘risidagi qarori ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tekstilsanoat korxonalarining mustahkam rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tekstil sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, bu tarmoq mamlakatning yalpi ichki mahsulotida (YaIM) sezilarli ulushni egallaydi. Shuningdek, bu soha yurtimizning eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston bugungi kunda 60 dan ortiq davlatlarga tekstil mahsulotlarini eksport qilmoqda va har yili bu raqam ortib bormoqda.

Tekstil tarmog‘i bandlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Respublikada sohada faoliyat yuritayotgan minglab korxonalar orqali yuz minglab ish o‘rinlari yaratilgan. Shu bois, tekstil sanoatining rivojlanishi iqtisodiyotda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston sanoatida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish dinamikasi (2010–2024-yillar)

№	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi y	Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati x1	Aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi x2
2010	628,6	111,1	219,3
2011	852,4	105,8	273,1
2012	1014,2	111,6	334
2013	1297,2	107,3	408,9
2014	1920,8	186,7	677,6
2015	2616	124,8	1019,2

2016	2802,7	93,8	948,6
2017	4070,4	110,8	1325,8
2018	6457,2	130,4	2145,1
2019	8538,6	124,1	3065,2
2020	9615,9	100,1	3430,1
2021	13658,1	117,7	4501,2
2022	18323,3	124,9	5294,6
2023	21589,1	121,9	4936,4
2024	28438,8	94,6	5347,1

$$y = a + b_1x_1 + b_1x_1$$

bu yerda:

- (y) – sanoat ishlab chiqarish hajmi,
- (x_1) – o‘sish sur’ati,
- (x_2) – aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi.

Hisob-kitob natijasi quyidagicha bo‘ldi:

y = -3568.74 - 25.17x1 + 4.61x2

Bu natijani izohlasak: b_1 = –25,17 — o‘sish sur’ati 1 % ga oshsa, boshqa shartlar o‘zgarmagan holda sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 25,17 mlrd so‘mga kamayadi. Bu salbiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

b_2 = 4,61 — aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi 1 ming so‘mga oshsa, sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 4,61 mlrd so‘mga ortadi. Bu ijobiy va kuchli ta’sir mavjudligini bildiradi.

Demak, ikki omil birgalikda tahlil qilinganda ham asosiy ta’sirchi omil aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi ekanligi aniqlanadi.

Ryx_1 = –0,31 — o‘sish sur’ati bilan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida zaif salbiy bog‘liqlik mavjud.

Ryx_2 = +0,97 — aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi bilan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida juda kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud.

Rx_1x_2 = –0,29 — o‘sish sur’ati va aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida zaif salbiy bog‘liqlik bor.

Natija: asosiy ta’sirchi omil bu — x_2 (aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi), chunki u bilan bog‘liqlik juda kuchli. Ikki omilli regressiya tenglamasi uchun umumiy korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagicha: R = 0,972.

Bu shuni anglatadiki, y kattaligidagi o‘zgarishlarning taxminan 94,5 % qismi x_1 va x_2 omillari bilan tushuntiriladi (R^2 = 0,945). Bu model juda yuqori aniqlikka ega ekanini bildiradi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston sanoatida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, o‘sish sur’ati va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik (2010–2024-yillar)

Ushbu 1-rasmda O‘zbekistonda tekstil sanoati bo‘yicha tanlangan o‘zgaruvchilar — sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (Y), iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (X_1) va aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (X_2) o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi.

Grafik va korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, Y va X_1 o‘rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsiyenti –-0.31 ni tashkil etadi, bu esa ular o‘rtasidagi salbiy va kuchsiz bog‘lanish mavjudligini bildiradi. Demak, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati sanoat ishlab chiqarish hajmiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Shu bilan birga, Y va X_2 o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.97ga teng bo‘lib, bu juda yuqori ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ya’ni, aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi oshgani sari umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada ortadi. Bu esa aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko‘rsatkichi sanoat rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligini anglatadi.

X_1 va X_2 o‘rtasidagi korrelyatsiya-0.29 ni tashkil etib, ular o‘rtasidagi bog‘lanish salbiy va juda past darajada ekanligini bildiradi. Bu holat ayrim yillarda iste’mol tovarlari o‘sish sur’ati oshgan bo‘lsa-da, aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmida barqaror o‘sish kuzatilmaganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, korrelyatsion tahlil natijasiga ko‘ra, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga eng kuchli ta’sir qiluvchi omil — aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi (X_2) bo‘lib, u bilan bog‘liqlik darajasi 0.90 dan yuqori, ya’ni kuchli ijobiy umumiy bog‘liqlik mavjud.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2010–2024-yillarda O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining shakllanishida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lib chiqdi (r = 0,97). Aksincha, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning yillik o‘sish sur’ati bilan sanoat hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik zaif salbiy xarakterga ega (r = –0,31).

Ko‘p omilli regressiya tenglamasi asosida hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyenti R = 0,972 bo‘lib, bu modelning yuqori aniqligini ko‘rsatadi va asosiy omillarning sanoat ishlab chiqarish hajmiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ko‘p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti R = 0,972 bo‘lishi, modelning yuqori ishonchliligini bildiradi. Bu esa sanoat hajmidagi o‘zgarishlarning 94,5 % qismi tanlangan ikki omil bilan tushuntirilishini anglatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2010–2024-yillar davomida ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘sib borgan. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi davrda keskin o‘sish kuzatiladi. Bu holat aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi bilan umumiy sanoat hajmi o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiyani yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu ma’lumotlardan foydalangan holda endi keyingi 5 yillik prognoz qiymatlarni hisoblab chiqish imkoniyati mavjud. Yuqoridagi formulalardan foydalanib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati hamda aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari uchun keyingi yillarga mo‘ljallangan ehtimoliy qiymatlar aniqlangan.

Natijalarga ko‘ra, O‘zbekiston tekstil sanoati 2010–2024-yillar davomida sezilarli rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Ishlab chiqarish hajmi, eksport hajmi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmi bir necha barobar oshgan. Bunda hukumat tomonidan soha uchun yaratilgan qulay investitsion muhit, bojxona va soliq imtiyozlari, shuningdek, klaster tizimining joriy etilishi hal qiluvchi rol o‘ynagan.

2-jadval. 2025–2028-yillarda O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning prognoz ko‘rsatkichlari

№	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi y	Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati x1	Aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi x2
2025	34509,799	111,93685	5636,7229
2026	40897,851	111,52613	5927,2842
2027	47285,904	111,11542	6217,8456
2028	53673,956	110,4047	6508,4069

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining (y) keyingi 4 yillik prognoz qiymatlari:



2-rasm. O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2025–2028-yillar uchun prognoz dinamikasi

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati x1:



3-rasm. O‘zbekistonda iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning yillik o‘sish sur’ati prognozi (2025–2028-yillar)

Aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi x2:



4-rasm. 2025–2028-yillarda aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining prognoz dinamikasi

Umumiy ya’ni (y) Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (x1) va Aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (x2) o‘zaro tasirini quyidagi grafik yordamida ko‘rishimiz mumkin.



5-rasm. 2010–2024-yillarda O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmining o‘zgarish dinamikasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tekstil sanoati 2010–2024-yillar davomida sezilarli rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Ishlab chiqarish hajmi, eksport hajmi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmi bir necha barobar oshgan. Bunda hukumat tomonidan soha uchun yaratilgan qulay investitsion muhit, bojxona va soliq imtiyozlari hamda klaster tizimining joriy etilishi hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Regression va korrelyatsion tahlil natijalari asosida aniqlanishicha, sanoat hajmiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil – bu jon boshiga ishlab chiqarish hajmi hisoblanadi. Shu bois, kelgusida sohani yanada rivojlantirish uchun aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishlab chiqarishning texnologik darajasini yuqorilash, yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish va eksport geografiyasini kengaytirish zarur.

Tekstil sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida nafaqat ishlab chiqarish hajmi va eksport hajmini oshirish, balki iqtisodiy barqarorlik, bandlik va daromadlarni ko‘paytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sohaning barqaror rivojlanishi mamlakatning sanoat salohiyatini mustahkamlashda va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunov B.X. Economic processes modeling. – Toshkent: Economics, 2017.
2. Gujarati D.N. Basic Econometrics. – McGraw-Hill, 2009.
3. Box G.E.P., Jenkins G.M. Time Series Analysis: Forecasting and Control. – Wiley, 2015.
4. Xajiyev B. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – № 5, sentyabr–oktyabr, 2020-yil.
5. Xashimov P.Z., Faxriddinova Z.F. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari // Iqtisod va moliya / Экономика и финансы, 2020-yil, 3(135), 157–164-betlar.
6. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy axborot sayti ma’lumotlari.

TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BAHOLASH: EKONOMETRIK YONDASHUV VA KOMPLEKS METODIKA

Raxmanov Mexridin Sindarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ekonometrika” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan asosiy moliyaviy xatarlarni baholash va ularni prognozlashda qo‘llaniladigan zamonaviy ekonometrik yondashuvlar tahlil qilinadi. Asosiy maqsad – kredit, likvidlik, bozor va boshqa turdagi risklarni aniqlash hamda ular bilan bog‘liq dinamik o‘zgarishlarni ekonometrik modellar orqali baholashdir. Tadqiqot natijalari banklar tomonidan xatarlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu metodikalar vaqt qatori modellari, regressiya tahlili va boshqa ekonometrik vositalarga asoslangan bo‘lib, tijorat banklarining risklarni aniqlash va boshqarish bo‘yicha qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, risklarni boshqarish, ekonometrik modellash, kredit riski, likvidlik riski, bozor riski, vaqt qatorlari, regressiya tahlili.

Abstract: This paper examines advanced econometric approaches applied to the assessment and forecasting of major financial risks encountered by commercial banks. The primary objective is to identify, analyze, and model risks such as credit risk, liquidity risk, and market risk through the use of econometric techniques. The study contributes to the development of effective tools for risk identification and forecasting, thereby supporting the design of robust risk management strategies and enhancing overall financial stability. The methodology relies on time series analysis, regression modeling, and other econometric tools, providing a data-driven foundation for decision-making in risk management practices within commercial banking.

Key words: commercial banks, risk management, econometric modeling, credit risk, liquidity risk, market risk, time series, regression analysis.

Аннотация: В статье рассматриваются современные эконометрические подходы к оценке и прогнозированию ключевых видов финансовых рисков, возникающих в деятельности коммерческих банков. Цель исследования заключается в выявлении, анализе и моделировании таких рисков, как кредитный, ликвидностный и рыночный риск, с применением эконометрических инструментов. Полученные результаты могут быть использованы при разработке эффективных стратегий управления рисками, направленных на обеспечение финансовой устойчивости банков. Методология базируется на анализе временных рядов, регрессионном моделировании и других эконометрических методах, способствующих повышению качества управленческих решений в банковской сфере.

Ключевые слова: коммерческие банки, управление рисками, эконометрическое моделирование, кредитный риск, риск ликвидности, рыночный риск, временные ряды, регрессионный анализ.

KIRISH

Tijorat banklari zamonaviy iqtisodiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ularning faoliyati nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, balki makroiqtisodiy o‘sish va taraqqiyotga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bank tizimida yuzaga keluvchi kredit, bozor, likvidlik hamda operatsion xavf-xatarlar banklarning umumiy moliyaviy holati va funksional barqarorligiga bevosita ta’sir etadi. Ushbu xatarlarni aniqlash va ularni boshqarish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish tijorat banklari uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy xatarlarni baholashda an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy statistik va ekonometrik vositalardan foydalanish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ekonometrik modellash – bu bank faoliyatidagi risk omillarini aniqlash, ularning kelajakdagi ehtimoliy tendensiyalarini prognoz qilish va ularga nisbatan qaror qabul qilishda asosli yondashuvlarni shakllantirish imkonini beruvchi samarali ilmiy-uslubiy vositadir. Jumladan, regressiya tahlili, vaqt qatorlari modellaridan – xususan, ARIMA modeli kabi ilg‘or texnikalar risklarni matematik jihatdan chuqur tahlil qilishda keng qo‘llaniladi [1].

Mazkur maqola tijorat banklari faoliyatida uchraydigan asosiy moliyaviy risklarni zamonaviy ekonometrik usullar asosida baholash metodikasini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotda kredit, likvidlik, bozor risklari va ularning dinamikasini tahlil qilish orqali risklarni aniq prognozlash va ularni samarali boshqarish imkonini beruvchi yondashuvlar ishlab chiqiladi. Natijada, tijorat banklari uchun moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda foydalanilishi mumkin bo‘lgan uslubiy asoslar taklif etiladi.

Mazkur ilmiy ishda keltirilgan xulosalar, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish, xavf-xatarlarni aniqlash va prognozlash bo‘yicha ekonometrik yondashuvlardan foydalanish jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tijorat banklari faoliyatida risklarni aniqlash va ularga nisbatan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ekonometrik modellar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu modellar yordamida kredit riski, likvidlik riski, bozor riski kabi moliyaviy xavflarni tahlil qilish va ularning ehtimoliy dinamikasini prognozlash imkoniyati yaratiladi. Breitung (2022) tomonidan taqdim etilgan “Econometrics of Risk” nomli fundamental asarda vaqt qatorlari modellarining, ayniqsa, ARIMA modelining risklarni bashorat qilishdagi samaradorligi asosli tarzda ko‘rsatib berilgan. ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modeli vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchanlikni tahlil qilish va risk omillarining istiqboldagi yo‘nalishlarini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Mazkur model bozor konyunkturasidagi o‘zgarishlar, foiz stavkalari, narxlar dinamikasi kabi ko‘rsatkichlar asosida risklarni matematik modellashtirish imkonini beradi [2].O‘zbekiston sharoitida ham tijorat banklarida risklarni baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Qobilov (2014) o‘zining “Banklar faoliyatida risklarni baholash va boshqarish metodologiyasi” nomli tadqiqotida kredit va bozor risklarini baholashda regressiya tahlili hamda vaqt qatorlari modellaridan foydalanish samaradorligini ilmiy asosda ko‘rsatgan. Muallif kredit riskining prognozini aniqlashda ARIMA modelining moslashuvchanligi va amaliy foydasini alohida ta’kidlagan. Uning fikricha, ushbu model risklarni oldindan bashorat qilishda, shuningdek, bank aktivlari va passivlari portfelining barqarorligini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida ekonometrik yondashuvlardan foydalanish risklarni aniq baholash va ularni samarali boshqarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, statistik va matematik modellar, regressiya uslublari, vaqt qatorlari orqali moliyaviy risklarni chuqur tahlil qilish va banklar uchun optimal strategiyalar ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Ushbu metodlar tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki ular banklarga turli xil xavf-xatarlarni oldindan aniqlash, ularning salbiy ta’sirini kamaytirish hamda samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.[4]

Tijorat banklari uchun eng muhim va xavfli bo‘lgan omillardan biri bu — kredit riskidir. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ko‘plab ilmiy ishlarda ushbu riskni baholash hamda prognoz qilishda zamonaviy iqtisodiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanish zarurligi ta’kidlangan. Masalan, Abdurahmonov (2012) o‘zining “Kredit riski va uning baholash metodlari” nomli monografiyasida kredit riskini aniqlashda qo‘llaniladigan ilg‘or metodologik yondashuvlarni atroflicha o‘rganadi. U regressiya tahlili va risklarni simulyatsiya qilish metodlarining yuqori samaradorligini asoslab beradi. Uning fikricha, tijorat banklarining kredit portfellaridagi xatarlarni baholashda, shuningdek qarzlarning qaytmaslik ehtimolini aniqlashda econometrik modellardan foydalanish zarur.[5]

Kredit riskini prognozlash va tahlil qilishda O‘zbekiston bank tizimi uchun ilg‘or amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim strategik vazifadir. Abdurahmonovning tadqiqotlarida kredit portfelining sifat darajasini baholash, u bilan bog‘liq xatarlarni aniqlash va ularni minimallashtirish uchun ko‘p o‘zgaruvchanlikni hisobga oluvchi regressiya modellarining qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Bu esa banklarda kredit siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bozor riski — bu moliyaviy aktivlarning bozor qiymatidagi o‘zgarishlar tufayli yuzaga keladigan potensial yo‘qotish xavfi bo‘lib, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi omildir. Jumaev (2015) o‘zining “Bozor riski va uning baholash metodlari” nomli ilmiy ishida bozor risklarini tahlil qilishda ARIMA va GARCH (Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity) modellarining afzalliklarini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, ayniqsa iqtisodiy beqarorlik sharoitida bozor o‘zgaruvchanligini baholashda ushbu vaqt seriyalari modellarining qo‘llanilishi yuqori aniqlikni ta’minlaydi.[6]

Jumaevning ilmiy xulosalariga ko‘ra, bozor riskini baholashda vaqt bo‘yicha kuzatuvlar asosida qurilgan statistik modellar muhim ahamiyatga ega. U iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar banklar faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini chuqur tahlil qilish lozimligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, risklarni baholashda simulyatsiya yondashuvlari, xususan, Monte Karlo metodining qo‘llanilishi O‘zbekiston olimlari tomonidan amaliyotga keng joriy etilmoqda. Islomov (2016) o‘zining tadqiqotlarida

ushbu metodning samaradorligini asoslab, bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqliklarni baholash va ular bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishda Monte Karlo simulyatsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.[7]

Simulyatsion modellashtirishning afzalliklaridan biri shundaki, u banklarga ehtimoliy ssenariylar asosida risk darajasini baholash va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Islomovning ilmiy ishlari bank tizimida tavakkalchiliklarni boshqarishda zamonaviy modellashtirish texnologiyalarini kengroq qo‘llashni taklif qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tijorat banklarida uchraydigan asosiy risklar — kredit, bozor va likvidlik risklarini tahlil qilish va prognozlashda zamonaviy ekonometrik modellarni qo‘llashning dolzarbligini tasdiqlaydi. Regressiya tahlili, ARIMA va GARCH modellarining qo‘llanilishi, shuningdek simulyatsiya metodlarining joriy etilishi banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Risklarni baholash va prognozlash jarayoni murakkab bo‘lib, u banklar tomonidan ehtiyotkorlik bilan olib borilishi kerak. Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida qo‘llaniladigan asosiy ekonometrik metodlar tahlil qilinib, ularning amaliy samaradorligi yoritiladi.

Regressiya tahlili – bu iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash va istiqboldagi tendensiyalarni prognozlashda eng ko‘p qo‘llaniladigan iqtisodiy-statistik usullardan biridir. Tijorat banklarining xatarlarini baholash jarayonida regressiya tahlili orqali bank faoliyatida yuz beradigan o‘zgarishlar bilan kredit riski, bozor riski va likvidlik riski kabi omillar o‘rtasidagi funksional bog‘liqliklarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Xususan, chiziqli (lineer) regressiya modeli kredit xavfini tahlil qilishda, masalan, qarzdorlik darajasi, foiz stavkalari, yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’ati kabi makroiqtisodiy omillar bilan bog‘liq munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modellari yordamida bir vaqtning o‘zida bir nechta xavf omillarini kompleks tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Qo‘llaniladigan metodlar:

Yagona regressiya modeli: $Y = \beta_0 + \beta_1 x + \varepsilon$

Ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli: $Y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + ... + \beta_n x_n + \varepsilon$

Mazkur modellar asosida bank risklarini shakllantiruvchi omillar ta’sirining istiqboldagi o‘zgarishlari prognoz qilinadi.

Vaqt qatorlari tahlili ham tijorat banklari xatarlarini baholashda keng qo‘llaniladigan statistik metodlardan bo‘lib, u vaqt o‘tishi bilan sodir bo‘ladigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasini o‘rganishga imkon beradi. Ayniqsa, ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modellari bank faoliyatidagi bozor riski, foiz stavkalari o‘zgarishi kabi muhim omillarni tahlil qilishda va ularning kelajakdagi qiymatlarini prognozlashda yuqori aniqlikni ta’minlaydi.

Metod:

ARIMA modelining umumiy ko‘rinishi:

$$Y_t = \alpha + \sum_{i=1}^{p} \beta_i Y_{t-1} + \sum_{j=1}^{q} \nu_j \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t$$

Bu yerda Y_t – vaqt qatorining joriy qiymati, Y_{t-1} – oldingi davrlar qiymati, ε_t – tasodifiy xato.

Afzalliklari:

O‘tgan davrlar ma’lumotlari asosida istiqboldagi tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Bozor sharoitlaridagi o‘zgarishlar va foiz stavkalarining beqarorligi sharoitida samarali prognozlar berishga imkon yaratadi.

GARCH (Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity) modeli esa vaqt qatorlarining o‘zgaruvchanligini aniqlashda qo‘llaniladigan ilg‘or statistik vosita hisoblanadi. Bu model yordamida moliyaviy ko‘rsatkichlar dispersiyasining vaqt bo‘yicha dinamik o‘zgarishi aniqlanadi, bu esa bank xatarlarini, ayniqsa, bozor xatarlarini yuqori aniqlikda baholash imkonini beradi.

Metod:

GARCH(1,1) modelining umumiy ko‘rinishi:

$$\sigma_t^2 = \alpha_0 + \alpha_1 \varepsilon_{t-1}^2 + \beta_1 \sigma_{t-1}^2$$

Bu yerda σ_t^2 – dispersiya (volatilite), ε_{t-1}^2 – oldingi davrdagi xato kvadrati, σ_{t-1}^2 – avvalgi dispersiya qiymati.

Afzalliklari:

Moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligi sharoitida xavflarni aniq baholash imkonini beradi.

Bozor narxlaridagi beqarorlikdan kelib chiqadigan xatarlarni aniqlashda banklar uchun samarali vosita hisoblanadi.

Monte Karlo simulyatsiyasi esa bank risklarini baholashda ehtimollik va statistik modellashtirishga asoslangan zamonaviy yondashuv bo‘lib, turli ssenariylar asosida xatarlarning ehtimoliy natijalarini modellashtirish imkonini beradi. Ushbu metod orqali banklar o‘zlarining kredit yoki investitsiya portfellariga ta’sir qiluvchi noaniqliklarni aniqroq baholay oladi.

Afzalliklari:

Xavflarni boshqarish bo‘yicha qaror qabul qilishda turli ehtimoliy natijalarga tayangan holda aniq tahlil va ssenariylarni shakllantirish imkonini beradi.

Banklar strategik qarorlarini qabul qilishda simulyatsiya natijalaridan foydalanib, barqarorlikni oshirishga erishadilar.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari faoliyatida mavjud xatarlarni aniqlash, baholash va prognoz qilish uchun keng ko‘lamli statistik, ekonometrik va simulyatsion metodlardan foydalanish zarurdir. Regressiya tahlili, vaqt qatorlari tahlili (ARIMA), o‘zgaruvchanlik modellar (GARCH), Monte Karlo simulyatsiyasi va zamonaviy mashina o‘rganish yondashuvlari banklar uchun xatarlarni oldindan aniqlash va ularning ta’sirini kamaytirish bo‘yicha samarali vositalar hisoblanadi. Har bir metod o‘ziga xos ustunliklarga ega bo‘lib, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

MUHOKAMA

Tijorat banklari zamonaviy iqtisodiy tizimning ajralmas elementi sifatida faoliyat yuritadi hamda ularning barqaror va samarali ishlashi mamlakat moliyaviy tizimining izchil rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishining kafolati hisoblanadi. Bank faoliyatida doimiy ravishda yuzaga keladigan turli xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni boshqarish masalalari ushbu institutlar samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining risklarini baholashda zamonaviy ekonometrik usullarni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining risklarini tahlil qilishda qo‘llanilayotgan metodlar – xususan, regressiya tahlili, vaqtli ketma-ketliklar (time series) modellaridan ARIMA, o‘zgaruvchanlikni baholashda qo‘llaniladigan GARCH usullari, ehtimollik asosida modellashtirish imkonini beruvchi Monte Karlo simulyatsiyasi hamda mashinaviy o‘rganish yondoshuvlari – risklarni chuqur va keng qamrovli baholash imkoniyatini yaratadi. Bu yondoshuvlar, ayniqsa, kredit, bozor va likvidlik kabi asosiy risk toifalarini tahlil qilishda alohida o‘rin tutadi.

1. Regressiya tahlilining qo‘llanilishi tijorat banklari uchun katta amaliy ahamiyatga ega, chunki u turli iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, kredit riski va foiz stavkalari orasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash imkonini beradi. Shunga qaramay, regressiya modellari ko‘pincha vaqt doirasidagi o‘zgarishlarni cheklangan tarzda aks ettiradi va ularning noaniq sharoitlarga nisbatan sezgirligi past bo‘lishi mumkin.

2. Vaqt ketma-ketligi modellaridan ARIMA yordamida banklar moliyaviy bozor sharoitlaridagi istiqbolli o‘zgarishlarni tahlil qilib, bashoratlar berishlari mumkin. Biroq bu modelning asosiy cheklovi – u faqat tarixiy ma’lumotlarga asoslanadi va yangi sharoitlar, strukturaviy siljishlar yoki kutilmagan iqtisodiy hodisalarni inobatga olish imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli, ARIMA modellarini boshqa metodlar bilan kombinatsiyalash tavsiya etiladi.

3. GARCH modeli, o‘zgaruvchanlik (volatilite)ni dinamik tarzda aniqlash orqali, ayniqsa, bozor riski va moliyaviy aktivlar narxlaridagi beqarorlikni chuqur tahlil qilishda qo‘l keladi. Bu model moliyaviy instrumentlar portfellarining risk darajasini baholashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, GARCH modelining aniqligi ko‘proq iqtisodiy barqarorlik davrlarida yuqori bo‘lishi mumkin, holbuki keskin iqtisodiy siljishlar davrida u yetarlicha natijalar bermasligi ehtimoldan xoli emas.

Bank risklarini baholashda bir nechta metodlarni birgalikda qo‘llash – masalan, regressiya tahlili bilan ARIMA modelini yoki GARCH bilan Monte Karlo simulyatsiyasini kombinatsiyalash – yanada kompleks va real holatga yaqin bashoratlar berish imkoniyatini yaratadi. Metodlar kombinatsiyasi har bir modelning zaif jihatlarini qoplashga va tahlil sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu asosda tijorat banklariga quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Bank risklarini baholashda zamonaviy ekonometrik modellardan, jumladan, mashina o‘rganish texnologiyalari hamda vaqtli ketma-ketlik tahlillaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Bashoratlarning aniqligini oshirish uchun metodlar integratsiyasi va ko‘p o‘lchovli (multidimensional) yondoshuvlardan foydalanish zarur.

3. Bozor noaniqliklarini inobatga olishda Monte Karlo simulyatsiyasi va GARCH modellari risklarni chuqur va kompleks baholash imkoniyatini beradi.

4. Tijorat banklari global iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlarni tezda aniqlab, moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqishga tayyor bo‘lishlari lozim. Bu esa ularning doimiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida risklarni baholash va prognoz qilish – murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bu yo‘nalishda kompleks ekonometrik metodlardan foydalanish zarurati yuqoriligicha qolmoqda. O‘zbekiston tijorat banklari uchun bu metodlarni amaliyotda kengroq qo‘llash, ularni o‘zaro integratsiyalash va ilg‘or tahlil yondoshuvlarini joriy etish – moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, noaniqlik sharoitida bardavom rivojlanishni ta’minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

NATIJALAR

Tijorat banklarida risklarni baholash uslublari moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, strategik qarorlar qabul qilish va xavflarni samarali boshqarishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bank tizimida mavjud risklarni aniqlash va bashorat qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy ekonometrik yondoshuvlar va ularning amaliy samaradorligi tahlil qilindi.

Olib borilgan tadqiqotlar quyidagi asosiy natijalarni namoyon etdi:

Tijorat banklarida qo‘llaniladigan risklarni baholash metodlari — regressiya tahlili, vaqt qatorlari (seriyalari) tahlili, GARCH modellar hamda Monte Karlo simulyatsiyasi — asosiy xavf turlarini aniqlashda yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta’minlashi mumkin.

Regressiya tahlili kredit riski, bozor riski va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi funksional bog‘liqliklarni o‘rganishda samarali, biroq bu metod kutilmagan o‘zgarishlar yoki noaniqliklarga sezgirligi bilan chegaralangan.

ARIMA singari vaqt qatorlari modellaridan foydalanish bank faoliyatiga ta’sir qiluvchi bozor sharoitlarining dinamikasini prognoz qilishda foydalidir. Shunga qaramay, bu metodlar faqat tarixiy ma’lumotlarga asoslangani tufayli istiqboldagi noaniqliklarni to‘liq qamrab olmaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ekonometrik metodlarning kompleks yondoshuvi va ularni birgalikda qo‘llash tijorat banklarining risklarni aniqlash va boshqarishdagi aniqligini oshiradi. Regressiya, ARIMA, GARCH modellari, Monte Karlo simulyatsiyasi hamda mashina o‘rganish algoritmlarini integratsiyalash orqali banklar murakkab iqtisodiy vaziyatlarda barqaror strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

XULOSA

Hozirgi zamon bank tizimi murakkab va tez o‘zgaruvchan iqtisodiy muhitda faoliyat yuritayotganligi sababli, risklarni aniqlash, ularni baholash va boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondoshuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tijorat banklari duch keladigan moliyaviy va iqtisodiy risklarni chuqur tahlil qilish va ularni samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan metodologiyalardan foydalanish zarur.

Ushbu maqolada risklarni baholashda qo‘llaniladigan asosiy ekonometrik yondoshuvlar: regressiya tahlili, vaqt qatorlari modellar (ARIMA), GARCH modellari, Monte Karlo simulyatsiyasi hamda mashina o‘rganish va sun’iy neyron tarmoqlar imkoniyatlari atroflicha ko‘rib chiqildi. Har bir metodning afzalliklari va mavjud cheklovlari tahlil qilinib, ularni kombinatsiyalash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi isbotlandi.

1. Regressiya tahlili iqtisodiy omillar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda muhim bo‘lsa-da, faqat tarixiy ma’lumotlarga tayangan holda prognozlar beradi, ya’ni kutilmagan o‘zgarishlarga sezgir.
2. Vaqt qatorlari modellaridan (ARIMA) foydalanish bozor kon’yunkturasining dinamikasini prognozlash imkonini beradi, biroq bu metodlarning tarixiy ma’lumotlarga qaramligi ularni ba’zi holatlarda chegaralaydi.
3. GARCH modellar bozor risklarini baholashda aktivlar o‘zgaruvchanligini aniqlashda yuqori aniqlikka ega bo‘lsa-da, kutilmagan iqtisodiy zarbalarga nisbatan zaif.
4. Monte Karlo simulyatsiyasi ehtimollik asosida turli ssenariylar orqali risklarni baholashda keng imkoniyatlar yaratadi va strategik qarorlar qabul qilishda foydalidir.
5. Mashina o‘rganish va neyron tarmoqlar katta hajmdagi ma’lumotlarni chuqur o‘rganish va murakkab bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi, lekin bu usullar talqin qilish va tushunishda murakkablik tug‘diradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, risklarni baholashda metodlarning o‘zaro uyg‘unligi va ularning integratsiyasi banklar faoliyatining samaradorligini oshiradi. Masalan, regressiya tahlilini ARIMA modellari bilan, yoki GARCH modelini Monte Karlo simulyatsiyasi bilan qo‘shib qo‘llash orqali bozor va kredit risklari to‘g‘risida yanada mukammal va chuqur tahlillar amalga oshiriladi.

Tavsiyalar:

Tijorat banklari risklarni baholashda ilg‘or ekonometrik yondoshuvlardan kompleks ravishda foydalanishlari zarur;

Metodlar integratsiyasi va ko‘p yo‘nalishli (multidimensional) yondoshuvlar yordamida aniqlik darajasi yuqori prognozlarni ishlab chiqish mumkin;

Banklar doimiy o‘zgarib borayotgan iqtisodiy muhitga moslashuvchan bo‘lishi va risklarni boshqarish strategiyalarini doimiy takomillashtirib borishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida risklarni baholash va boshqarishda zamonaviy ekonometrik metodlarning ilmiy asosda qo‘llanilishi bank tizimining barqarorligini ta’minlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.10.2021-y., 06/21/6325/0972-son; 30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son; 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son; 27.04.2023-y., 06/23/62/0232-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son.
2. Соколинская Н. Э. Проблемы менеджмента кредитного портфеля в современных условиях // Банковское дело. – Москва, 2019. – №9. – С. 18–19.
3. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 485–486.
4. Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2023. – С. 230–231.
5. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: Ленанд, 2019. – С. 218.
6. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump // Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687–1726.
7. Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 25 b.
8. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. olish uchun taqdim etilgan diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 43 b.
9. Tijorat banklarining muammoli kreditlari. 2022-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot // www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki).
10. Isakov J.Y. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I.f.d. ilm. dar. olish uchun taqdim etilgan diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – 28 b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 28-son, 374-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2018-y., 10/18/2696–2/1120-son.
12. Basel Committee on Banking Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards. Basel-II, 2006. http://www.bis.org/publications.

KADRLARNI TANLASH VA BAHOLASH JARAYONIDA XALQARO HR STANDARTLARIDAN (SHRM, CIPD) FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xasanov Sarvar Ulug‘bek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchi
Email: s.xasanov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson resurslarini boshqarish sohasidagi xalqaro standartlar — SHRM (Society for Human Resource Management) va CIPD (Chartered Institute of Personnel and Development) tizimlarining mohiyati va ularning O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida kadrlarni tanlash hamda baholash jarayonlarida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro HR yondashuvlarining afzalliklari, ularni milliy mehnat bozori sharoitiga moslashtirish mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalar yordamida kadrlar tanlash samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida innovatsion HR siyosatini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: HR menejment, SHRM, CIPD, kadrlarni tanlash, baholash tizimi, kompetensiya modeli, inson kapitali, raqamli HR, xalqaro standartlar.

Abstract: This article analyzes international standards in the field of human resource management — the SHRM (Society for Human Resource Management) and CIPD (Chartered Institute of Personnel and Development) systems — and explores their applicability in the processes of recruitment and evaluation of personnel in higher education institutions of Uzbekistan. The paper highlights the advantages of international HR approaches, mechanisms for adapting them to the conditions of the national labor market, and ways to increase the efficiency of personnel selection through digital technologies. The research results demonstrate the necessity of forming an innovative HR policy in the higher education system of Uzbekistan.

Key words: HR management, SHRM, CIPD, recruitment, evaluation system, competency model, human capital, digital HR, international standards.

Аннотация: В данной статье анализируются международные стандарты в сфере управления человеческими ресурсами — системы SHRM (Общество по управлению человеческими ресурсами) и CIPD (Институт персонала и развития), а также рассматриваются возможности их применения в процессах подбора и оценки кадров в высших учебных заведениях Узбекистана. В работе освещаются преимущества международных HR-подходов, механизмы их адаптации к условиям национального рынка труда и пути повышения эффективности отбора кадров с помощью цифровых технологий. Результаты исследования показывают необходимость формирования инновационной HR-политики в системе высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: HR-менеджмент, SHRM, CIPD, подбор кадров, система оценки, модель компетенций, человеческий капитал, цифровой HR, международные стандарты.

KIRISH

So‘nggi yillarda globallashuv, raqamli transformatsiya va xalqaro mehnat bozori integratsiyasi sharoitida inson resurslarini boshqarish (HRM – Human Resource Management) konsepsiyasi korxona, tashkilot va ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishida muhim strategik omilga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tashkilotning raqobatbardoshligi bevosita uning kadrlar salohiyati, inson kapitalining sifat darajasi hamda xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini samarali boshqarish tizimiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro HR standartlari – SHRM (Society for Human Resource Management, AQSh) va CIPD (Chartered Institute of Personnel and Development, Buyuk Britaniya) – bugungi kunda inson resurslarini tanlash, baholash va rivojlantirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishning eng ilg‘or yondashuvlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

SHRM va CIPD yondashuvlarining asosiy g‘oyasi – inson resurslarini tashkilotning eng muhim aktiv elementi sifatida ko‘rishdir. Ularning konseptual modeli xodimlarni tanlashda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar,

balki shaxsiy fazilatlar, qiymatlar tizimi, moslashuvchanlik va tashkilot maqsadlariga sodiqlik kabi omillarni ham inobatga oladi. Bu esa kadrlarni tanlash jarayonini oddiy ma’muriy funksiya emas, balki strategik boshqaruv vositasiga aylantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi”, “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi” kabi dasturlar doirasida HR tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro tajribalarni joriy etish va kadrlarni tanlash hamda baholashda zamonaviy mezonlar qo‘llash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bois, O‘zbekiston sharoitida SHRM va CIPD kabi ilg‘or HR tizimlarining tamoyillari, metodologik yondashuvlari va baholash modellarini milliy boshqaruv amaliyotiga moslashtirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimi va kichik biznes subyektlarida kadrlarni tanlashda xalqaro standartlarga asoslangan mezonlar qo‘llanilishi inson kapitali sifatini oshiradi, mehnat unumdorligini kuchaytiradi hamda xodimlar barqarorligini ta’minlaydi.

SHRM va CIPD standartlarining afzalligi shundaki, ular kadrlar siyosatini tizimli va o‘lchovli tarzda boshqarishni, natijadorlikni baholashni raqamli HR platformalari orqali avtomatlashtirishni hamda inson resurslari faoliyatini strategik maqsadlarga bog‘lashni nazarda tutadi. Masalan, CIPD Professional Map modeli asosida kadrlarni baholashda bilim, ko‘nikma, qadriyat va xulq-atvor mezonlari o‘zaro uyg‘un tarzda tahlil qilinadi. SHRM esa HR mutaxassislarini sertifikatlash orqali professional yondashuvni mustahkamlaydi va global mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Demak, kadrlarni tanlash va baholash jarayonida xalqaro HR standartlaridan foydalanish nafaqat boshqaruv madaniyatini modernizatsiya qiladi, balki inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion, raqamli va barqaror yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli, mazkur tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi va mehnat bozorida xalqaro HR standartlarini joriy etishning nazariy asoslarini tahlil qilish va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish zaruratidan kelib chiqadi.

Asosiy qism

SHRM va CIPD xalqaro standartlari inson resurslarini boshqarishda tizimli, o‘lchovli va natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular kadrlarni tanlash, baholash hamda rivojlantirish jarayonlarining ilmiy asosda tashkil etilishini nazarda tutadi. Mazkur standartlarning asosiy tamoyillari inson kapitalining sifatini oshirish, tashkilotning strategik maqsadlari bilan kadrlar siyosatini uyg‘unlashtirish hamda xodimlarning kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan kompleks boshqaruv tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Avvalo, SHRM va CIPD yondashuvlariga ko‘ra, kadrlarni tanlash kompetensiya modeli asosida amalga oshiriladi. Bu model har bir lavozim uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasini aniqlab, nomzodning kasbiy mosligini ob’ektiv mezonlar orqali baholash imkonini beradi. Shu tariqa, tanlov jarayoni subyektiv qarorlardan holi bo‘ladi va tashkilot uchun eng mos kadrni tanlash ehtimoli ortadi.

Ikkinchidan, mazkur standartlar inson resurslarini rivojlantirish strategiyasini tashkilot maqsadlari bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Ya’ni HR siyosati tashkilotning umumiy strategiyasi, missiyasi va uzoq muddatli maqsadlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak. Bunday integratsiya natijasida har bir xodimning faoliyati tashkilotning strategik yo‘nalishlarini amalga oshirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. SHRM va CIPD standartlari HR boshqaruvini tizimli, o‘lchovli va natijaviy yondashuvlar asosida tashkil etuvchi asosiy tamoyillar

Uchinchidan, SHRM va CIPD tizimlarida xodimlarning bilim, ko‘nikma va qadriyatlariga asoslangan professional rivojlanish tizimi muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuv doirasida xodimlar malakasini oshirish, o‘qitish

va qayta tayyorlash bo‘yicha uzluksiz jarayon yo‘lga qo‘yiladi. Natijada, xodimlarning kasbiy o‘sishi tashkilotning intellektual salohiyatini mustahkamlaydi, ularning mehnat samaradorligi va sodiqligini oshiradi.

To‘rtinchidan, xalqaro HR standartlari baholash jarayonida shaffoflik va natijadorlikka e’tibor qaratishni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Bu degani, har bir xodimning faoliyati aniq, o‘lchovli ko‘rsatkichlar (KPI – asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) asosida baholanadi, natijalar esa ochiq va xolis tarzda muhokama qilinadi. Bunday tizim xodimlarda mas’uliyat, raqobatbardoshlik va o‘z ustida ishlash istagini kuchaytiradi.

Umuman olganda, SHRM va CIPD standartlarining mazkur tamoyillari inson resurslarini boshqarishda an’anaviy ma’muriy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy strategik boshqaruv modeliga o‘tishni ta’minlaydi. Ular tashkilotga kadrlar salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, xodimlarni rivojlantirish jarayonini tizimlashtirish va inson kapitali orqali barqaror raqobat ustunligini shakllantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, xalqaro HR standartlari oliy ta’limda kadrlar malakasini uzluksiz oshirish, akademik erkinlikni ta’minlash va rag‘batlantirish mexanizmlarni kuchaytirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta’lim tizimida SHRM va CIPD yondashuvlarini qo‘llash

№	Asoslar	Vazifalar
1.	Kadrlarni tanlash	Intervyu, test, baholov markazlari (assessment center) va kompetensiya tahlili asosida xolis tanlovni ta’minlash mumkin
2.	Baholash	KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari), 360° feedback va self-assessment kabi metodlardan foydalanish orqali natijadorlikni oshirish mumkin
3.	HR siyosatini boshqarish	Raqamli HR platformalari (masalan, SAP SuccessFactors, Oracle HCM, Workday) orqali kadrlar faoliyatini onlayn monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

Tahliliy qism

Zamonaviy mehnat bozori va global iqtisodiy muhit sharoitida inson resurslarini samarali boshqarish masalasi tashkilotlar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, SHRM (Society for Human Resource Management) va CIPD (Chartered Institute of Personnel and Development) standartlari kadrlar siyosatini tizimli, natijaviy va shaffof tarzda yuritishga xizmat qiladi. Ushbu standartlar nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham samarali boshqaruv modelini shakllantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida inson resurslarini boshqarish tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda. Ayni paytda davlat boshqaruvi, ta’lim va xususiy sektor korxonalarida HR funksiyalarining roli ortib bormoqda. Biroq amaliyotda kadrlarni tanlash, baholash va rivojlantirish jarayonlarida xalqaro standartlar to‘liq darajada joriy etilmagan. Shu bois, SHRM va CIPD tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati dolzarb hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kadrlarni tanlash jarayonida asosan an’anaviy usullar – suhbat, rezyume tahlili va tavsiyanomalarga asoslangan baholash usullari keng qo‘llaniladi. Bu esa nomzodlarning kasbiy kompetensiyalarini aniq baholash imkonini cheklaydi. Xalqaro SHRM modeli esa kompetensiyaviy yondashuvni asosiy mezon sifatida belgilaydi. Bunda nomzodning nafaqat tajribasi, balki uning kasbiy qobiliyati, psixologik mosligi va tashkilot qadriyatlariga mosligi ham baholanadi. Bunday tizim O‘zbekistonda ham qo‘llanilsa, kadrlar tanlashda xolislik va aniqlik darajasi sezilarli oshadi.

Bundan tashqari, CIPD standartlari inson resurslarini boshqarishda xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga katta e’tibor qaratadi. CIPD modeli bo‘yicha tashkilotlarda “Learning and Development” (O‘qitish va rivojlantirish) bo‘limi faoliyat yuritadi, xodimlar muntazam ravishda malaka oshirish, trening va seminarlarda qatnashadi. O‘zbekiston korxonalarida bunday tizimning yetarli darajada shakllanmagani, xodimlarning o‘z ustida ishlashga rag‘batining pastligi bu boradagi asosiy muammolardan biridir.

Shuningdek, xalqaro tajribada baholash jarayonining shaffofligi va natijaviyligi muhim tamoyil hisoblanadi. SHRM modeli doirasida xodimlarning faoliyati KPI (Key Performance Indicators) tizimi orqali o‘lchanadi. Bu usul O‘zbekiston tashkilotlarida ham joriy etilayotgan bo‘lsa-da, u ko‘pincha formal xarakter kasb etadi. Ko‘rsatkichlarning aniq belgilab olinmagani, baholash natijalarining mukofotlash tizimi bilan bog‘lanmagani uning samaradorligini pasaytiradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, xalqaro HR standartlarini milliy mehnat bozoriga tatbiq etishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

1. Institutsional muhitni takomillashtirish – mehnat bozorida HR sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro talablarga moslashtirish;
2. Kadrlar malakasini oshirish – HR mutaxassislarini SHRM yoki CIPD dasturlari asosida sertifikatlash va qayta tayyorlash;
3. Raqamli HR texnologiyalarini joriy etish – elektron baholash, onlayn test tizimlari, sun’iy intellekt asosida nomzod tanlash platformalaridan foydalanish;

4. Korporativ madaniyatni rivojlantirish – tashkilotlarda xodimlarning qadriyatlari, motivatsiyasi va mas’uliyatini kuchaytirish orqali zamonaviy boshqaruv muhitini yaratish.

Umuman olganda, O‘zbekiston korxona va tashkilotlarida SHRM va CIPD standartlarini joriy etish inson resurslarini boshqarishda sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab beradi. Bu esa kadrlar tanlovi va baholashda shaffoflik, xolislik va natijadorlikni ta’minlab, tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy inson resurslarini boshqarish tizimida xalqaro HR standartlari, xususan SHRM va CIPD metodologiyalarini tatbiq etish kadrlarni tanlash, baholash hamda rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuvlar inson kapitalining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rnini kuchaytirish, tashkilotlarda raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta’minlash uchun muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

HR tizimining natijadorligini oshirish uchun baholash jarayonlarini KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimi asosida tashkil etish, xodimlarning yillik faoliyatini aniq mezonlar bilan o‘lchash va mukofotlash mexanizmlarini baholash natijalari bilan bog‘lash lozim. Bu yondashuv shaffoflikni ta’minlaydi, rag‘batlantirish tizimini adolatli qiladi va xodimlarning mas’uliyatini oshiradi.

Yuqoridagi tahlillarga tayangan holda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Mehnat siyosatini xalqaro talablarga moslashtirish — SHRM va CIPD standartlariga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, HR boshqaruv tizimini davlat miqyosida yagona metodologiya asosida shakllantirish.
2. HR mutaxassislarini sertifikatlash — inson resurslari bo‘yicha mutaxassislarni SHRM, CIPD yoki boshqa xalqaro dasturlar asosida tayyorlash va qayta o‘qitish.
3. Raqamli HR texnologiyalarini joriy etish — sun’iy intellekt asosida tanlov va baholash tizimlarini yaratish, elektron kompetensiya xaritalarini qo‘llash.
4. Korporativ madaniyatni mustahkamlash — tashkilotlarda inson qadriyatlari, shaffoflik, ishonch va mas’uliyat tamoyillariga asoslangan ichki muhitni rivojlantirish.
5. Universitet va amaliyot integratsiyasi — oliy ta’lim muassasalarida xalqaro HR boshqaruvi bo‘yicha o‘quv dasturlarini kengaytirish, talabalarni real amaliyot bilan bog‘lash.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro HR standartlarini O‘zbekiston korxonalari faoliyatiga tatbiq etish — bu nafaqat kadrlarni boshqarish sifatini oshirish, balki butun iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirish orqali innovatsion o‘sishni ta’minlashning muhim omilidir. SHRM va CIPD standartlariga asoslangan yondashuvlar milliy HR tizimini global mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtiradi hamda O‘zbekistonning iqtisodiy modernizatsiyasi jarayonida inson resurslarini boshqarishning yangi paradigmasini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. CIPD. (2023). Annual report: Professional standards framework for people management. London: Chartered Institute of Personnel and Development.
2. SHRM. (2022). Global HR Standards and Competency Framework. Society for Human Resource Management.
3. Becker, B., & Gerhart, B. (2016). The impact of human resource management on organizational performance: Progress and prospects. Academy of Management Journal, 59(4), 779–801.
4. Ulrich, D., Brockbank, W., Johnson, D., Sandholtz, K., & Younger, J. (2017). HR competencies: Mastery at the intersection of people and business. SHRM Foundation.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Oliy ta’lim tizimini 2025 yilgacha rivojlantirish strategiyasi. Toshkent.

AHOLI DAROMADLARI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQNI EKOMETRIK BAHOLASH

Shomurodov Tohir Boymurod ugli
PhD in Economic Sciences
Tashkent State University of Economics
Email: tohirbek0206@gmail.com
ORCID: 0000-0002-8107-7792

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholining daromad darajasi va oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ekometrik usullar yordamida tahlil qilingan. Tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligi iqtisodiy barqarorlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi va u daromadlar taqsimoti, iste’mol savatchasining sifati hamda aholining real xarid qobiliyati bilan uzviy aloqador ekanligi asoslab beriladi. Statistik ma’lumotlar asosida regressiya modeli tuzilib, daromad darajasining oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri miqdoriy jihatdan baholangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, daromadlarning oshishi aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan kirish imkoniyatini kengaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosatni shakllantirishda, xususan, ijtimoiy himoya va oziq-ovqat ta’minoti strategiyalarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, daromad darajasi, ekometrik tahlil, real xarid qobiliyati, oziq-ovqat iste’moli, ijtimoiy himoya.

Abstract: This article analyzes the relationship between household income levels and food security indicators using econometric methods. Food security is considered a crucial component of economic stability, closely linked to income distribution, the quality of the consumer basket, and the population’s real purchasing power. A regression model was developed based on statistical data to quantitatively assess the impact of income levels on food security. The findings reveal that higher income levels increase access to quality food products and strengthen overall food security. The results have practical significance for shaping economic policy, particularly in improving social protection and food supply strategies.

Key words: food security, income level, econometric analysis, real purchasing power, food consumption, social protection.

Аннотация: В данной статье с использованием эконометрических методов проанализирована взаимосвязь между уровнем доходов населения и показателями продовольственной безопасности. Продовольственная безопасность рассматривается как важнейшая составляющая экономической стабильности, тесно связанная с распределением доходов, качеством потребительской корзины и реальной покупательной способностью населения. На основе статистических данных построена регрессионная модель, количественно оценивающая влияние уровня доходов на продовольственную безопасность. Результаты исследования показывают, что рост доходов расширяет доступ населения к качественным продуктам питания и укрепляет продовольственную безопасность. Полученные результаты имеют практическое значение для формирования экономической политики, в частности совершенствования стратегий социальной защиты и продовольственного обеспечения.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, уровень доходов, эконометрический анализ, реальная покупательная способность, потребление продуктов питания, социальная защита.

KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Aholining sifatli va yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlariga barqaror kirish imkoniyatini ta’minlash davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat iqtisodiy o‘sish darajasiga, balki aholining daromad manbalari, xarid qobiliyati, inflyatsiya jarayonlari, qishloq xo‘jaligi samaradorligi hamda global oziq-ovqat bozoridagi beqarorliklarga ham bevosita bog‘liqdir.

Aholi daromadlari darajasi va taqsimotining adolatliligi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biridir. Yuqori daromad aholiga sifatli mahsulotlar sotib olish imkonini beradi, past daromad esa oziq-ovqatga bo‘lgan kirish imkoniyatini cheklaydi va oziq-ovqat tanqisligiga olib keladi. Shu bois, daromadlar dinamikasini tahlil qilish va uning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sirini ekometrik usullar yordamida baholash ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy tengsizlik kuchaygan, inflyatsiya bosimi yuqori bo‘lgan yoki global ta’minot zanjirlari izdan chiqqan sharoitlarda daromadlarning roli yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ko‘plab davlatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham milliy xavfsizlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Oziq-ovqat narxlarining o‘zgaruvchanligi, importga qaramlik darajasi, qishloq xo‘jaligi samaradorligi va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi daromad tafovutlari bu sohada chuqur ilmiy tahlillar olib borishni talab etmoqda. Xususan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida daromadlar va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash orqali siyosiy qarorlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va barqaror oziq-ovqat ta’minotini yo‘lga qo‘yish mumkin.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – aholining daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ekometrik tahlil qilish hamda ushbu bog‘liqlikning makroiqtisodiy ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda statistik ma’lumotlar asosida regressiya modellari tuzilib, daromad darajasining oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri miqdoriy jihatdan baholanadi. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosat choralarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat xavfsizligi va daromadlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi xalqaro miqyosda ko‘plab iqtisodchilar, sotsiologlar va siyosatshunoslar tomonidan keng o‘rganib kelinmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi ilk bor tizimli ravishda Food and Agriculture Organization tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra oziq-ovqat xavfsizligi – har bir insonning jismoniy va iqtisodiy jihatdan sifatli hamda yetarli oziq-ovqat mahsulotlariga barqaror kirish imkoniyatiga ega bo‘lishini anglatadi. Bu ta’rif keyinchalik ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning asosiy metodologik negiziga aylandi.

Ko‘plab tadqiqotlar daromad darajasi va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasida bevosita va bilvosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Masalan, World Bank tomonidan olib borilgan global tahlillarda daromadlarning oshishi oziq-ovqat iste’moli sifatining yaxshilanishi va oziq-ovqat tanqisligi ko‘rsatkichlarining kamayishi bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Shuningdek, International Food Policy Research Institute tadqiqotlariga ko‘ra, past daromadli aholining oziq-ovqatga kirish imkoniyati inflyatsiya darajasi, oziq-ovqat narxlarining o‘zgaruvchanligi va daromad tengsizligiga sezilarli darajada bog‘liq.

Empirik izlanishlarda turli mamlakatlar misolida daromadlarning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri ekometrik modellarda o‘rganilgan. Masalan, United Nations Development Programme tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari ko‘ra, har bir kishi hisobiga to‘g‘ri keladigan real daromadning 1 foizga oshishi oziq-ovqat tanqisligi ko‘rsatkichini o‘rtacha 0,3–0,5 foizga kamaytiradi. Bu esa daromadlarning oshishi aholining oziq-ovqatga kirish imkoniyatini kengaytirishini amaliy jihatdan isbotlaydi.

Yevropa va Osiyo davlatlari bo‘yicha olib borilgan regressiya tahlillari shuni ko‘rsatadiki, yuqori daromadga ega qatlamlar oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, past daromadli qatlamlar esa oziq-ovqat tanqisligiga va sifat jihatidan yomonroq mahsulot iste’mol qilish xavfiga duch keladi. Shu bilan birga, daromad tengsizligi kuchaygan mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha ijtimoiy tafovutlar ham ortadi.

O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan ayrim mahalliy tadqiqotlarda ham ushbu bog‘liqlikning mavjudligi tasdiqlangan. Xususan, milliy statistika va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili daromadlar dinamikasi bilan oziq-ovqat narxlari, iste’mol savatchasi qiymati va oziq-ovqatga kirish darajasi o‘rtasida sezilarli korrelyatsiya mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa makroiqtisodiy siyosatda daromadlarni oshirish va oziq-ovqat bozori barqarorligini ta’minlashni uzviy bog‘langan yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, daromadlar va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik, aholining sog‘lig‘i, mehnat unumdorligi va inson kapitali rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, mazkur bog‘liqlikni ekometrik usullar yordamida chuqur tahlil qilish, siyosiy qarorlar ishlab chiqishda ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda aholining daromad darajasi va oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash va miqdoriy baholash maqsadida ekometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi iqtisodiy nazariyalar, empirik modellashtirish va statistik ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish tamoyillariga asoslanadi.

Asosiy g‘oya shundan iboratki, aholining real daromad darajasi oshishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Ushbu bog‘liqlikni miqdoriy ifodalash uchun klassik ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli qo‘llaniladi. Tadqiqot quyidagi shakldagi iqtisodiy-ekometrik modelga tayangan. Tadqiqot uchun 2010–2024 yillar oralig‘idagi vaqt qatori ma’lumotlaridan foydalanildi. Ma’lumotlar quyidagi manbalardan olindi:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi — daromadlar, iste’mol savatchasi va narx indekslari bo‘yicha milliy ko‘rsatkichlar;
- Food and Agriculture Organization — oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha xalqaro ma’lumotlar;
- World Bank — makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (YaIM, inflyatsiya, import ulushi va h.k.).

Ma’lumotlar vaqt qatorlari shaklida tozalandi, moslashtirildi va logarifmlash usuli bilan stabillashtirildi, bu esa model parametrlarini yanada aniqroq baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda quyidagi ekometrik usullardan foydalanildi:

- Oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) — asosiy regressiya modelini baholash va daromadlar bilan oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlash uchun.
- Stasionarlik testi (ADF testi) — vaqt qatorlari turg‘unligini tekshirish maqsadida.
- Ko‘p kollinerlik (VIF testi) va Geteroskedastiklik testi (White testi) — model sifatini tekshirish uchun.
- Granger sababiylik testi — daromadlar va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasida yo‘nalgan sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash uchun.
- Panel tahlil (zarur bo‘lsa) — hududlar kesimida ma’lumotlar mavjud bo‘lganda qo‘shimcha baholash uchun.

Model natijalari koeffitsiyentlar orqali tahlil qilindi. (\beta_1) koeffitsiyenti aholining daromad darajasi oshganida oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichi qanchaga o‘zgarishini ifodalaydi. Ijobiy va statistik ahamiyatga ega koeffitsiyentlar daromadlarning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashdagi rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, inflyatsiya va import ko‘rsatkichlarining ta’siri salbiy bo‘lishi mumkinligi nazariy asoslangan holda baholandi.

Ushbu metodologik yondashuv aholining daromadlarini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sirini ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi. Olingan natijalar ijtimoiy himoya siyosatini takomillashtirish, oziq-ovqat bozorida barqarorlikni ta’minlash hamda daromad tengsizligini kamaytirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishda qo‘llanishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Daromadlar darajasi insonlarning oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga bo‘lgan imkoniyatlarini shakllantiradi va bevosita ularning to‘yimli, xavfsiz va yetarli miqdordagi mahsulotlarni iste’mol qilish imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi deganda biz har bir insonning jismoniy va iqtisodiy jihatdan yetarli va sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini doimiy ravishda iste’mol qilishini tushunamiz. BMTning FAO (2020) tashkilotining hisobotiga ko‘ra, jamiyatlarda oziq-ovqat xavfsizligi to‘rtta asosiy omil bilan belgilanadi:

1. Mavjudlik – bu mamlakat yoki hududda oziq-ovqat mahsulotlari yetarli miqdorda ishlab chiqarilishi yoki import qilinishini bildiradi.
2. Imkoniyat – bu aholining o‘z daromadi hisobiga oziq-ovqat sotib olish qobiliyatini anglatadi.
3. Foydalilik –bu iste’mol qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining inson sog‘lig‘iga foydaliligini anglatadi.
4. Barqarorlik – bu oziq-ovqat mahsulotlariga doimiy va uzluksiz sotib olish imkoniyati anglatadi[1].

Ushbu omillar orasida daromadlar darajasi ayniqsa muhimlarida biri hisoblanadi, chunki u bevosita oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish imkoniyatini belgilab beradi. A. Sen (1981) o‘zining “Entitlement Approach” nazariyasida oziq-ovqat yetishmovchiligini faqat ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq emasligini, balki insonlarning iqtisodiy resurslar orqali oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish qobiliyati bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi[2].

Tadqiqot doirasida 2010–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston bo‘yicha aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligiga oid asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Ekometrik model asosida ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi statistik usullar yordamida baholandi (1-jadval).

1 “FAO Statistical Programme of Work 2020–2021.” (2020).
2 Rubin, Olivier. “The Entitlement Approach.” (2016).

1-jadval. Jadval bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasi (2010–2024-yillar)

Yil	Real daromad (ming so‘m)	Oziq-ovqat narxi indeksi (bazis=2010=100)	Qishloq xo‘jaligi hajmi (mlrd so‘m)	Oziq-ovqat importi (mln $)	Oziq-ovqat xavfsizligi indeksi*
2010	5 250	100	28 100	1 120	0.62
2015	8 400	118	35 800	1 650	0.68
2020	13 200	147	42 600	2 300	0.73
2022	15 100	161	46 200	2 540	0.75
2024	17 800	172	51 000	2 820	0.79

Real daromadlar va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlik 2010–2024-yillar davomida real daromadlar 5 250 ming so‘mdan 17 800 ming so‘mgacha oshgan, ya’ni 3,4 barobar ko‘paygan. Shu davr mobaynida oziq-ovqat xavfsizligi indeksi 0,62 dan 0,79 gacha ko‘tarilgan. Bu esa aholining real daromadlari oshishi bilan oziq-ovqatga bo‘lgan yetarli va sifatli talabni ta’minlash imkoniyati kengayganini ko‘rsatadi. Daromadlar oshishi oziq-ovqat xavfsizligini ijobiy tomonga ta’sir etmoqda.

Oziq-ovqat narxlari va xavfsizlik,Oziq-ovqat narxlari indeksi 2010-yildagi 100 birlikdan 2024-yilda 172 birlikka oshgan (72 foizga ko‘paygan). Shunga qaramay, oziq-ovqat xavfsizligi indeksi ham oshib borgan. Bu esa narxlar oshishiga qaramay aholi daromadlarining o‘sishi va ichki ishlab chiqarishning kengaygani tufayli barqarorlik saqlanayotganini bildiradi. Narxlar oshishi xavf omili bo‘lsa-da, yuqori daromad va ishlab chiqarish bu xavfni yumshatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi hajmi va oziq-ovqat xavfsizligi qishloq xo‘jaligi hajmi 2010-yildagi 28 100 mlrd so‘mdan 2024-yilda 51 000 mlrd so‘mgacha oshgan (82% o‘sish). Mahalliy ishlab chiqarishning o‘sishi importga qaramlikni nisbatan kamaytirgan va oziq-ovqat zaxiralarini mustahkamlagan.

Regressiya modeli natijalari (2-jadval):

$$FSt=\beta0+\beta1INCt+\beta2INFt+\beta3AGRt+\beta4IMPt+\varepsilon t$$

2-jadval. Model EViews yordamida OLS usuli bilan baholandi[3]

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	Standart xato	t-statistika	P-qiymat
β_0 (konstant)	0.418	0.052	8.05	0.000
INC (daromad)	0.236	0.034	6.94	0.000
INF (inflyatsiya)	−0.154	0.029	−5.31	0.000
AGR (qishloq xo‘jaligi)	0.117	0.041	2.85	0.009
IMP (import)	−0.083	0.027	−3.07	0.006

Model statistikasi:

$R^2 = 0.872$

F-statistika = 33.41 (Prob. = 0.000)

Durbin–Watson testi = 1.95

Koeffitsiyentlarning p-qiymatlari 0.01 dan kichik bo‘lgani ularning statistik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. $R^2 = 0.872$ bo‘lishi model oziq-ovqat xavfsizligidagi o‘zgarishlarning 87,2 foizi tanlangan omillar bilan izohlanishini bildiradi.

Daromadlar o‘sishining oziq-ovqat xavfsizligiga ijobiy ta’siri aniqlandi ($\beta_1 = 0.236$; $p < 0.01$). Bu degani, daromadlar 1% ga oshganda oziq-ovqat xavfsizligi indeksi o‘rtacha 0.23 punktga oshadi. Inflyatsiya ko‘rsatkichining salbiy ta’siri borligi ($\beta_2 = -0.154$) oziq-ovqat narxlari o‘sishi aholining real xarid qobiliyatini pasaytirishini tasdiqlaydi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ijobiy ta’siri oziq-ovqat ta’minotini mustahkamlashda ichki ishlab chiqarishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Importga qaramlikning salbiy ta’siri esa tashqi bozor beqarorligiga yuqori bog‘liqlik oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid ekanini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan xulosalar bilan ham mos keladi. Daromad oshishi oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilaydi, narx bosimi esa bu jarayonni sekinlashtiradi.

3 https://www.fao.org/faostat

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan ekometrik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, aholining daromad darajasi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biridir. Aholi real daromadlarining oshishi sifatli va yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan kirish imkoniyatini kengaytiradi, bu esa oziq-ovqat ta’minoti barqarorligini kuchaytiradi. Aksincha, daromadlarning pastligi yoki tengsiz taqsimlanishi aholining ijtimoiy zaif qatlamlarida oziq-ovqat xavfsizligi darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ekometrik model natijalari daromad ko‘rsatkichi bilan oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bundan tashqari, inflyatsiya darajasi va oziq-ovqat importiga bog‘liqlik darajasi kabi omillar mazkur bog‘liqlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash faqat daromadlarni oshirish bilan cheklanmasligini, balki narxlar barqarorligini, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini va ichki ta’minot tizimini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, daromadlar va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni muntazam ravishda kuzatib borish, zamonaviy ekometrik yondashuvlardan foydalanish va hududiy kesimda chuqurroq tahlillar olib borish kelgusida strategik siyosat qarorlarini qabul qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar to‘plami (2010–2024)”. – Toshkent, 2025. https://stat.uz
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO). “Food Security Indicators Database”. – Rome, 2024. https://www.fao.org/faostat
3. Jahon banki. “World Development Indicators: Food Security and Income Data”. – Washington D.C., 2024. https://data.worldbank.org
4. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF). “World Economic Outlook”. – Washington D.C., 2024. https://www.imf.org
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo‘limi. “UN Data Portal”. – New York, 2024. https://unstats.un.org
6. Qosimova, D. (2022). Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligining roli. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Karimov, B. (2023). Milliy daromadlar va oziq-ovqat bozori barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik. – “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali, №3, 45–56-betlar.
8. Smith, L., & Haddad, L. (2019). Explaining Child Malnutrition in Developing Countries: A Cross-Country Analysis. – Washington D.C.: International Food Policy Research Institute (IFPRI).
9. FAO, IFAD, UNICEF, WFP & WHO. (2023). The State of Food Security and Nutrition in the World 2023. – Rome: FAO.
10. Barrett, C.B. (2020). “Measuring Food Insecurity”. Science, Vol. 327, pp. 825–828.
11. Sen, A. (1981). Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. – Oxford: Clarendon Press.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BALIQCHILIK SOHASINING RIVOJLANISH OMILLARI VA YETISHTIRISH HAJMINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA PROGNOZLASH

Sindorov Davlatbek Abdumajid o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0003-3299-824X
sindorovdavlat4@gmail.com

Murodov Sardor Nurali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID:0009-0001-1938-5567
8898sardormurodov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik ishlab chiqarish hajmini belgilovchi omillar — oziqa xarajatlari va ishchi kuchi ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilindi. Ko‘p omilli regressiya modeli yordamida ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi omillar miqdoriy baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ishchi sonining o‘sishi ishlab chiqarish hajmini sezilarli oshiradi (R^2=0,9821). 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan prognoz natijalari esa baliqchilik tarmog‘ining barqaror rivojlanish tendensiyasini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: baliqchilik, regressiya modeli, ekonometrik tahlil, prognoz, ishlab chiqarish hajmi, resurs samaradorligi.

Abstract: In this study, the factors determining the volume of fishery production in the Republic of Uzbekistan — feed costs and labor — were analyzed based on econometric modeling. Using a multivariate regression model, the factors affecting the volume of production were quantitatively assessed. The results showed that an increase in the number of workers significantly increases the volume of production (R^2=0.9821). The results of the forecast for 2025–2027 confirm the trend of sustainable development of the fishery industry.

Key words: fishery, regression model, econometric analysis, forecast, production volume, resource efficiency.

Аннотация: В данном исследовании на основе эконометрического моделирования проанализированы факторы, определяющие объём производства продукции рыболовства в Республике Узбекистан — затраты на корма и рабочую силу. С помощью многомерной регрессионной модели количественно оценены факторы, влияющие на объём производства. Результаты показали, что увеличение численности работников значительно увеличивает объём производства (R^2 = 0,9821). Результаты прогноза на 2025–2027 годы подтверждают тенденцию устойчивого развития рыбной отрасли.

Ключевые слова: рыболовство, регрессионная модель, эконометрический анализ, прогноз, объём производства, ресурсоэффективность.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi sohasining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan baliqchilik so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish bosqichiga kirdi. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, sog‘lom ovqatlanish darajasini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda baliqchilik tarmog‘ining ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatda baliq yetishtirish hajmini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash hamda eksport salohiyatini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, baliqchilik tarmog‘ida ishlab chiqarish hajmini shakllantiruvchi omillarni chuqur tahlil qilish va ularni iqtisodiy modellashtirish zarurdir. Chunki ishlab chiqarishning samarali boshqaruvi faqat empirik kuzatuvlarga emas, balki ilmiy asoslangan prognoz modellari orqali amalga oshiriladi. Shu maqsadda ushbu ishda O‘zbekiston Respublikasida baliq ishlab chiqarish hajmini aniqlovchi asosiy omillar — oziqa xarajatlari va ishchi kuchi — ekonometrik tahlil asosida o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalari baliqchilik sohasining rivojlanish tendensiyalarini, omillar o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni va istiqboldagi prognoz imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu orqali tarmoqni barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan baliqchilik sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ushbu yo‘nalishda ishlab chiqarish hajmini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va bozor infratuzilmasini mustahkamlash bilan bir qatorda, prognozlash va iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish zamonaviy ilmiy yondashuv sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda iqtisodiy tahlil va rejalashtirishda ekonometrik modellash uslublarining keng qo‘llanilishi, ishlab chiqarish jarayonlaridagi omillar ta’sirini chuqur o‘rganish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston olimlari tomonidan baliqchilik va umumiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tahlil qilish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Murodov Sh. va Xoshimov A. (2019) o‘zlarining “Ekonometrika asoslari”[1] nomli asarlarida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda regressiya va korrelyatsiya tahlilining nazariy asoslarini yoritganlar. Ular ishlab chiqarish hajmini belgilovchi asosiy omillarni aniqlashda ko‘p omilli regressiya modellarining afzalliklarini ko‘rsatib o‘tganlar.

Nazarov O. va Abdullayev M. (2021) “Iqtisodiy tahlil va ekonometrika”[2] nomli o‘quv qo‘llanmada iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholashda korrelyatsion tahlil, determinatsiya koeffitsienti va Fisher F-mezoni kabi statistik mezonlarning amaliy ahamiyatini asoslab berganlar.

Shuningdek, Qosimov B. (2020) o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston baliqchilik[3] tarmog‘ining rivojlanish istiqbollari va samaradorligini oshirish uchun resurslardan foydalanish samaradorligi hamda mehnat unumdorligini tahlil qilgan. U ishlab chiqarish hajmining ozuqa, ishchi kuchi, suv hajmi va energiya sarfi kabi omillarga bog‘liqligini aniqlashda ekonometrik modellardan foydalangan.

Karimov I. (2018) tomonidan olib borilgan “Oziq-ovqat xavfsizligi va baliqchilik tarmog‘ining rivojlanish omillari” mavzusidagi ishda baliq yetishtirish hajmining barqaror o‘sishini ta’minlovchi iqtisodiy omillar chuqur o‘rganilgan.

Bu tadqiqotlarda umumiy xulosa sifatida, baliqchilik sohasining rivojlanishi bevosita oziqa zahiralari, mehnat resurslari va ishlab chiqarish infratuzilmasining samaradorligi bilan bog‘liq degan ilmiy asos isbotlangan.

Xalqaro miqyosda baliqchilik ishlab chiqarishi va iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

Gujarati D.N. va Porter D.C. (2009) “Basic Econometrics” asarida iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritgan. Mualliflar Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi, ko‘p omilli regressiya, va modelning ishonchliligini baholash usullari (R^2, t- va F-testlar) orqali iqtisodiy tizimlarning samaradorligini baholash uslublarini asoslab berishgan.

Johnston J. (2013) “Econometric Methods” kitobida iqtisodiy modellashtirishning ilmiy yondashuvlari, ma’lumotlar tahlili va model tanlash mezonlarini tahlil qilgan. Uning fikricha, prognoz modellar ishlab chiqarish siyosatini shakllantirishda eng samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, FAO (Food and Agriculture Organization, 2022) hisobotlarida ham baliqchilik ishlab chiqarishining global o‘sish tendensiyalari, texnologik yangilanishlar, resurslar taqsimoti va ekologik omillar tahlil qilingan. Bu ma’lumotlar O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy modellashtirish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash va omillar ta’sirini baholash maqsadida ekonometrik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ko‘p omilli chiziqli regressiya modeli tanlandi. Ushbu model iqtisodiy hodisalarning o‘zgarishini bir nechta omillar ta’sirida aniqlashga imkon beradi. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy model quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$y = a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2 + \cdots + a_p x_p + \varepsilon. \qquad (1)$$

1 Murodov, Sh., Xoshimov, A. (2019). *Ekonometrika asoslari.* – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.
2 Nazarov, O., Abdullayev, M. (2021). Iqtisodiy tahlil va ekonometrika. – Toshkent: TDIU nashriyoti.
3 Qosimov, B. (2020). O‘zbekiston baliqchilik tarmog‘ining rivojlanish istiqbollari. – “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali.

Bu yerda:

y — natijaviy o‘zgaruvchi (qaram o‘zgaruvchi);

$x_1, x_2, x_3, \dots , x_p,$ — mustaqil (izohlovchi) o‘zgaruvchilar;

$a_1, a_2, a_3, \dots, a_p,$ — model parametrlari;

ε — tasodifiy xatolik.

Mazkur model iqtisodiy jarayonlarning matematik ifodasini yaratish va omillar ta’sirini miqdoriy baholash imkonini beradi. Model parametrlari eng kichik kvadratlar usuli yordamida baholanadi. Ushbu usulda maqsad – haqiqiy qiymatlar y_i bilan model yordamida olingan bashorat qiymatlari $\hat{y}$ orasidagi farq kvadratlari yig‘indisini minimallashtirishdir:

$$F(a_0, a_1, a_2) = \sum_{i=1}^{n} \left(y - (a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_p x_p + \varepsilon)\right)^2 \qquad (2)$$

Bu funksiya parametrlar bo‘yicha differensiallab, nolga tenglashtiriladi va natijada normal tenglamalar tizimi hosil bo‘ladi:

$$\begin{cases} \sum y = n a_0 + a_1 \sum x_1 + a_2 \sum x_2 + \dots + a_p \sum x_p \\ \sum y = a_0 \sum x_1 + a_1 \sum {x_1}^2 + a_2 \sum x_2 x_1 + \dots + a_p \sum x_p x_1 \\ \dots\dots\dots\

Natijalar tahlili orqali har bir omilning (masalan, ozuqa miqdori, ishchi soni, suv hajmi, elektr sarfi) ishlab chiqarish hajmiga yoki hosildorlikka ta’sir darajasi aniqlanadi. Bu esa amaliyotda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni rejalashtirish, va foydalilikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu ko‘rsatkich modelning statistik ahamiyatini va omillar ta’sirining ishonchliligini baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv yordamida tadqiqotda olingan ma’lumotlar iqtisodiy omillar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq va ilmiy asosda ifodalashga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha baliqchilik ishlab chiqarishni ekonometrik modellash usullari yordamida baholandi. Ush maqolada e’tiborga olingan mahsulot ishlab chiqarish hajmi, oziqa resurslari va ishchi kuchi o‘zgaruvchilariga qaratildi. Statistika bo‘limida ma’lumotlar yillar bo‘yicha taqdim etilib, ishlab chiqarishning o‘sish tendensiyalari va resurslar taqsimoti ko‘rsatildi. hisobot jadvalda 2016–2024-yil baliqchilik ishlab chiqarish chiqarishi, oziqa mahsuloti va ishchi soni bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar. Jadval ma’lumotlari yordamida ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi aniqlandi. Shu bilan birga, jadval orqali iqtisodiy o‘sish tendensiyalari vizual tasvir va 2025-2027-yillar uchun prognozlar amalga oshirildi. Ma’lumotlar jadvalida tizimli ko‘rinishdagi materiallar bo‘lib, tahlil jarayonida barcha o‘zgaruvchilarni olinidi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida yetishtrilgan baliqlar (tonnada)

Yillar	Baliq ishlab chiqarish (tonna)-Y	Oziqa xarajatlari (mln so‘m)-X1	Baliqchilikdagi ishchi soni (kishi)-X2
2016	65322	12000	4800
2017	83900	13500	5000
2018	90984	15000	5200
2019	121717	17000	5500
2020	144103	18500	5800
2021	171933	21000	6000
2022	185274	24000	6200
2023	195883	26000	6400
2024	199431	30000	6700

2016–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik ishlab chiqarishi ishlab chiqarish o‘sish sur’atida bo‘ldi. Ushba ishlab chiqarish 65,322 tonnadan 199,431 tonnagacha yetib, uch barobar ko‘paydi. Ishlab chiqarish hajmining o‘sishida ikki asosiy omil – oziqa resurslari va baliqchilikdagi ishchi soni – muhim rol o‘ynadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, oziqa mahsuloti 12 000 million so‘mdan 30 000 million so‘mgacha, ishchi soni esa 4 800 kishidan 6 700 kishigacha oshgan. 2019-yilda baliq ishlab chiqarishning eng yuqori yillik o‘sish sur’ati (33,8%) tartibga solingan bo‘lib, bu jarayonda ishlab chiqarish va resurslardan samarali ishlab chiqarish natijalari (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida yetishtrilgan baliqlar (tonnada)

Jadvalda baliqchilik ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari ikki usulda — zanjir usuli va bazis usulida keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlari[4]

2016–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, soha barqaror rivojlanish yo‘lidan borgan. Jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, zanjir usuli bo‘yicha o‘sish sur’atlari dastlabki yillarda yuqori bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda asta-sekin pasaygan. Jumladan, birinchi yilda o‘sish 28 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi yilda 8 foizgacha kamaygan, uchinchi yilda esa yana 34 foizgacha oshgan. Keyingi yillarda o‘sish 18–19 foiz atrofida barqarorlashgan, oxirgi yillarda esa 8, 6 va 2 foizgacha kamaygan. Bu holat baliqchilik ishlab chiqarishida dastlabki bosqichda tez sur’atda o‘sish kuzatilganini, biroq keyinchalik ishlab chiqarish hajmi barqarorlashish bosqichiga o‘tganini anglatadi.

Bazis usuli bo‘yicha tahlil natijalari esa ishlab chiqarishning umumiy hajmi yildan-yilga ortib borganini ko‘rsatadi. Birinchi yilga nisbatan ikkinchi yilda 39 foiz, uchinchi yilda 86 foiz, to‘rtinchi yilda 121 foiz, beshinchi yilda 163 foiz, oltinchi yilda 184 foiz, yettinchi yilda 200 foiz va sakkizinchi yilda 205 foizga yetgan. Bu esa 2016–2024-yillar oralig‘ida ishlab chiqarish hajmi bazaviy yildagiga nisbatan qariyb uch barobarga oshganini bildiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston baliqchilik tarmog‘ida so‘nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi muntazam o‘sib borgan. Dastlabki bosqichlarda o‘sish sur’ati yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda o‘sish biroz sekinlashgan, bu esa sohaning barqaror rivojlanish bosqichiga o‘tganini anglatadi. Shu bois, kelgusida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yangi texnologiyalarni joriy etish baliqchilik sohasining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Korrelatsiya tahlil[5]

	Baliqi~Y	Oziqax~1	Baliqc~s
Baliqishla~Y	1.0000		
Oziqaxaraj~1	0.9597	1.0000	
Baliqchili~s	0.9873	0.9863	1.0000

2-jadval tahlil’ga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 2016–2024-yillarda baliqchilik ishlab chiqarishi, kimyoviy zahiralari va ishchi kuchi o‘rtasida yuqori aniqlangan musbat bog’liqlik aniqlangan. Jadvalda korrelyatsiya koeffitsiyentlari 0,95 dan yuqori bo‘lib, bu o‘zgaruvchilar o‘rtasida kuchli reaktsiyani ifodalaydi.

Baliq ishlab chiqarish hajmi (Y) bilan oziqa mahsulotlari (X_1) o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9597 ni tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki, asosiy oziq-ovqat resurslari hajmi ortgani sari ishlab chiqarish hajmi ham mutanosib ravishda oshadi. Ishlab chiqarish hajmi bilan ishchilar soni (X_2) o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti esa 0,9873 bo‘lib, bu ular o‘rtasida deyarli to‘liq ijobiy bog‘liqlik mavjudligini bildiradi. Demak, ishchi kuchining ortishi ishlab chiqarish hajmiga bevosita va sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, oziqa harorati bilan ishchi soni o‘rtasida ham 0,9863 yuqori korrelyatsiya aniqlangan. Ushba baliq ishlab chiqarish jarayonining resurs ishlab chiqarishi — oziqa va mehnat bilan bog’liqligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, korrelyatsiya tahlili ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi asos ishlab chiqarishni tahlil qilishda muhim bo‘lib xizmat qiladi.

4 Manba: muallif tomonidan.
5 Manba: muallif tomonidan.

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \cdots + a_px_p + \varepsilon. \qquad (1)$$

Shu bilan birga, o‘sish jarayonida resurslarni samarali taqsimlash va ishchi kuchidan yuk tashish muhimligini ko‘rsatadi. Ush ma’lumotlarga asosan ko‘p omilli ekonometrik model (1) formila yordamida ishlab chiqarish hajmini prognozlash va ishlab chiqarishni boshqarishda qo‘llash mumkin. oziq-ovqat, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘z-o‘zidan o‘ziga xos samaradorlikdan foydalanishga yordam beradi (3-jadval).

3-jadval. O‘zbekiston Respublikasida yetishtrilgan baliqlar (tonnada) bo‘yicha regressiya tahlili[6]

	Coefficient	Std. err.	t	P>|t|	[95% conf. interval]	
Oziqa xarajatlari (mln so‘m) ~ X1	-4.383724	2.801804	-1.56	0.169	-11.23949	2.472043
Baliqchilikdagi ishchi soni (kishi) ~ X2	117.8597	25.99964	4.53	0.004	54.24085	181.4785
Baliq ishlab chiqarish (tonna)~*Y*	-449677	95193.35	-4.72	0.003	-682606.8	-216747.3

2016–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik ishlab chiqarish hajmini aniqlash uchun o‘tkazilgan regressiya tahlili natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Ushbu tahlil natijalariga ko‘ra, ishlab chiqilgan model quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$y = -449677{,}01 - 4{,}3837x_1 + 117{,}8597x_2$$

bu yerda Y — baliq ishlab chiqarish hajmi (tonna), X_1 — oziqa xarajatlari (mln so‘m), X_2 — baliqchilikdagi ishchi soni (kishi). Model natijalari shuni ko‘rsatadiki, baliqchilikdagi ishchi sonining ortishi ishlab chiqarish hajmiga sezilarli va ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, ishchilar soni bir kishiga oshganida ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 117,86 tonnaga ko‘payadi. Bu o‘zgaruvchi statistik jihatdan ahamiyatli (P=0,0039 < 0,05) bo‘lib, mehnat resurslarining baliqchilik sohasida asosiy omil ekanini bildiradi. Aksincha, oziqa xarajatlari koeffitsienti manfiy (-4,38) qiymatga ega bo‘lib, bu xarajatlarning oshishi doimo ishlab chiqarishni ko‘paytirishini anglatmaydi. Shuningdek, ushbu omilning ta’siri statistik jihatdan ahamiyatli emas (P=0,1687 > 0,05). Umuman olganda, modelning aniqlik darajasi yuqori (R^2 = 0,9821), ya’ni ishlab chiqarish hajmining 98,2 foizi tanlangan omillar orqali tushuntiriladi. Bu esa modelning ishonchliligini ko‘rsatadi va baliqchilik tarmog‘ida ishchi sonining o‘sishi ishlab chiqarish hajmini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqlaydi (3-rasm).



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik ishlab chiqarish hajmining 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan prognoz

6 Manba: muallif tomonidan.

Keltirilgan jadval asosida O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik ishlab chiqarish hajmining 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan prognoz natijalari tahlil qilindi. Regressiya modelidan foydalanilgan holda, $Y = -449677{,}01 - 4{,}3837X_1 + 117{,}8597X_2$ tenglamasi asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda ishlab chiqarish hajmi 232,249,69 tonna, 2026-yilda 250,731,92 tonna, 2027-yilda esa 269,214,15 tonna bo‘lishi kutilmoqda. Bu prognozlar ishlab chiqarishning barqaror o‘sish tendensiyasini tasdiqlaydi. Xususan, har yili o‘rtacha 8–9 foiz atrofida o‘sish kuzatiladi. Oziqa xarajatlari ham mutanosib ravishda ortib bormoqda — 2025-yilda 30 625 mln so‘m, 2026-yilda 32 816,67 mln so‘m, 2027-yilda esa 35 008,33 mln so‘mga yetishi kutiladi. Ishchilar soni esa 2024-yildagi 6686 kishidan 2027-yilda 7401 kishigacha ko‘payadi.

Umuman olganda, model natijalari baliqchilik ishlab chiqarishining o‘sishi resurslar — oziqa zahiralari va mehnat kuchining — uzluksiz ortib borishi bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli, resurslardan samarali foydalanish kelajakda ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ining ishlab chiqarish hajmini ekonometrik tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, sohada ishlab chiqarish hajmining o‘sishi asosan mehnat resurslari va oziqa zahiralari bilan chambarchas bog‘liqdir. 2016–2024-yillar oralig‘ida baliq ishlab chiqarish hajmi uch barobarga oshgan bo‘lib, bu tarmoqning barqaror rivojlanish yo‘lida ekanini anglatadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan ko‘p omilli regressiya modeli ($Y = -449677{,}01 - 4{,}3837X_1 + 117{,}8597X_2$) natijalariga ko‘ra, ishchi sonining ortishi ishlab chiqarish hajmiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, har bir qo‘shimcha ishchi o‘rtacha 117,86 tonna mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshiradi.

Oziqa xarajatlarining ta’siri esa manfiy va statistik jihatdan ahamiyatsiz bo‘lib, bu resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini bildiradi. Modelning izohlovchi kuchi yuqori (R^2=0,9821) bo‘lgani uchun natijalar ishonchli hisoblanadi. Prognoz natijalariga ko‘ra, 2025–2027-yillarda ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga o‘sib, 269 ming tonnaga yetishi kutilmoqda. Shu bois, kelgusida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yangi texnologiyalarni joriy etish O‘zbekiston baliqchilik tarmog‘ining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Murodov, Sh., Xoshimov, A. (2019). Ekonometrika asoslari. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.
2. Nazarov, O., Abdullayev, M. (2021). Iqtisodiy tahlil va ekonometrika. – Toshkent: TDIU nashriyoti.
3. Abdullayev, N. (2019). Statistika va iqtisodiy tahlil asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
4. Qosimov, B. (2020). O‘zbekiston baliqchilik tarmog‘ining rivojlanish istiqbollari. – “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali.
5. Karimov, I. (2018). Oziq-ovqat xavfsizligi va baliqchilik tarmog‘ining rivojlanish omillari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. To‘raqulov, Sh. (2021). Iqtisodiy modellashtirish va prognozlash. – Toshkent: TDIU nashriyoti.
7. Gujarati, D. N., Porter, D. C. (2009). Basic Econometrics. – New York: McGraw-Hill Education.
8. Johnston, J. (2013). Econometric Methods. – New York: McGraw-Hill.
9. World Bank (2022). Toward a Prosperous and Inclusive Future: The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan. – Washington, D.C.: World Bank Group.
10. World Bank Data (2024); Stat.uz (2024).Agriculture, value added (% of GDP) – Uzbekistan; O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

O‘ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI

B. Sulaymonov
“Savdo ishi” kafedrasi dotsenti, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Email: Sulaymonovbahodir1970@gmail.com
ORCID: 0009-0002-4838-1124

Annotatsiya: Savdo - har qanday milliy iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi iqtisodiy strategiyalar va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi savdo tashkilotlarining faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: chakana va ulgurji savdo, ichki va tashqi bozor, savdo tarmog‘i, iqtisodiy va moliyaviy inqiroz, strategik menejment, savdo korxonasining o'sishi, marketing tadqiqotlari, samara olish.

Abstract: Trade is one of the main pillars of any national economy. In Uzbekistan, the reforms being implemented in this area, new economic strategies and the deepening of market relations have a significant impact on the activities of trade organizations.

Key words: retail and wholesale trade, domestic and foreign markets, trade network, economic and financial crisis, strategic management, growth of a trade enterprise, marketing research, efficiency.

Аннотация: Торговля является одним из основных столпов национальной экономики. В Узбекистане реформы, проводимые в этой сфере, новые экономические стратегии и углубление рыночных отношений оказывают существенное влияние на деятельность торговых организаций.

Ключевые слова: розничная и оптовая торговля, внутренний и внешний рынки, торговая сеть, финансово-экономический кризис, стратегическое управление, рост торгового предприятия, маркетинговые исследования, эффективность.

Bugungi kunda respublikada minglab chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, ular nafaqat ichki bozorni mahsulot bilan ta’minlashda, balki tashqi bozorlarga chiqishda ham faol ishtirok etmoqda. Bu esa O‘zbekistonda savdo tashkilotlarining rivojlanish jarayoni barqaror sur’atlarda amalga oshishiga imkon yaratmoqda.

Davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar, yangi institutlar, raqamlashtirish jarayonlari va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari bu sohaga katta turtki bermoqda. Ayni paytda, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali savdo tarmog‘i yanada samarali va raqobatbardosh bo‘lishi mumkin. Yurt boshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Iqtisodiyotda savdo sohasi - bu xalqning turmush darajasini belgilaydigan muhim yo‘nalish. Shu bois uni rivojlantirish, uning infratuzilmasini mustahkamlash, zamonaviy uslublar bilan samaradorligini oshirish dolzarb vazifadir».

Hozirgi vaqtda iqtisodiy va moliyaviy inqirozlarga qaramay, Uzbekiston sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti yo’lidan ishonch bilan bormoqda. Kuchli va barqaror iqtisodiyotni qurish yo’lida tarmoqlari qiyinchiliklarga duch keldi. Sanoat va tijorat korxonalari dinamik va ko’pincha noqulay tashqi sharoitlarda omon qolishi va samarali

rivojlanishi uchun hal qilishi kerak bo’lgan muammolardan biri bu strategik boshqaruv masalasidir. Shu bilan birga, strategik menejment nafaqat barcha ixtisoslashgan boshqaruv quyi tizimlarini (ishlab chiqarish, marketing, moliya, kadrlar, innovatsiyalar, intellektual kapital va boshqalar) va tadbirkorlik faoliyati tushunchasini aniqlash, joriy asosiy raqobat afzalliklari, rivojlanish yo’nalishlari va kelajak holatini bir butunga birlashtirishi kerak.

Strategik menejmentning asosi uning asosiy elementi - strategiya bo’lib, u zamonaviy sharoitda korxonalarning bozordagi muvaffaqiyati va iqtisodiy ko’rsatkichlari uchun hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Uzbekiston bozor iqtisodiyoti mexanizmiga rivojlangan davlatlariga qaraganda kechroq o’tganligi sababli, strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish muammosiga qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda korxona strategiyalarining samaradorligini oshirish sohasidagi tadqiqotlarning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin, chunki ularning har biri korxonalar faoliyatini yaxshilashning mumkin bo’lgan usullarini aniqlashga yordam beradi. Zamonaviy strategik menejmentda o‘zbek korxonalari tomonidan strategiyalarni tadqiq qilish va qo’llash sohasida mahalliy ilm-fanni boyitgan turli xil nuqtai nazarlar va mualliflik tushunchalari mavjud.

Strategiya - bu boshqaruv qarorlari asosida o’z resurslaridan samarali foydalanish uchun tashkilotning muhitiga moslashtirilgan kelajak uchun usullar va harakatlarning kompleks dasturi. Shuni ta’kidlash kerakki, korxonaning barcha mavjud muammolarini hal qila oladigan ideal strategiya mavjud emas. Bugungi kunda menejmentning o‘zagini tashkil etuvchi, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan, oziq-ovqat va nooziq-ovqat bozorida ularning raqobatbardoshligi va nufuzini oshirishga xizmat qiladigan chakana savdo korxonalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Korxonani rivojlantirish strategiyasining o’ziga xos xususiyati, R.Ankoff [6] nuqtai nazaridan, uning iqtisodiy tabiati bo’lib, uni birinchi navbatda «o’sish» tushunchasi bilan solishtirganda korxonaning «rivoji» kontseptsiya sifatida tushunish mumkin.

«Savdo korxonasining o’sishi» savdo hajmining, xarajatlarning, xodimlar sonining, foydaning ko’payishiga yordam beradi, bu uning faoliyatining qisqa davrlarida kuzatilishi mumkin: oylik, choraklik, yillik. «Savdo korxonasini rivojlantirish» uzoqroq muddatga ega bo’lib, uning bozorda barqaror ishlashi uchun sharoit yaratadigan potentsialni olishga qaratilgan. «Rivojlanish» ta’rifi ob’ektlarning elementlari va aloqalarining paydo bo’lishi, o’zgarishi yoki yo’qolishi natijasida moddiy va ideal ob’ektlarning sifat holatining dinamik va tabiiy o’zgarishi sifatida tushunilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, savdo korxonasining rivojlanish strategiyasi - bu tashkilotning barcha quyi tizimlarini va uning faoliyat turlarini samarali boshqarish uchun qattiq raqobat sharoitida ma’lum natijalarga erishish ya’ni rivojlantirishga, bozordagi o’rnini mustahkamlashga, mijozlarning o’sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga, raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Savdo korxonasini rivojlantirish strategiyasi uy xo’jaliklariga/oilalarga zarur tovarlar bilan xizmat ko’rsatish, uning tijorat xususiyatini hisobga olgan holda, butun korxona sifatida ayirboshlash savdo jarayonini ta’minlash bilan bevosita bog’liq bo’lgan «iqtisodiy» tushunchasi bilan bog’liq bo’lishi mumkin va uning yakuniy maqsadi foyda olishdir. Binobarin, “savdo korxonasini rivojlantirish strategiyasi” tushunchasi “savdo korxonasining iqtisodiy (tijorat) strategiyasi” tushunchasi bilan bir xil, chunki u mohiyatan tijoratga va savdo korxonasining faoliyati yaqin. Savdo korxonalarini rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishning quyidagi bosqichlarini belgilash mumkin.

Bularga quyidagilar kiradi:

1. Bozor tahlili marketing tadqiqotlari va SWOT tahliliga asoslangan.
2. Ko’zlangan natijalarga erishish uchun savdo korxonasining maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Savdo kompaniyasi uchun raqobatdosh ustunlikni ta’minlaydigan raqobatchilar bilan solishtirganda korxonalar strategiya mezonlarini tanlash.
4. Mijozlarning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun raqobatbardoshlik va tovarlar bilan ta’minlashga qaratilgan korxonani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish.
5. Korxonani rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish, shu jumladan ishlab chiqilgan majmui faoliyati samaradorligini ta’minlash chora-tadbirlari.
6. Ishlab chiqilgan korxonani rivojlantirish strategiyasini hozirgi sharoitga qarab tuzatish.
7. Strategiyani amalga oshirish natijalari - samara olish (iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik, ekologik va boshqalar).

Strategiyani ishlab chiqishning yuqoridagi bosqichlari direktiv xususiyatga ega, chunki savdo korxonasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni boshlaganda, tanlovga qarab bosqichlar muqobil sonining kamayishi yoki ko’payishiga og’ish mumkin.

Iqtisodiyot fanida «strategiya tanlash» tushunchasi qo’llaniladi, bu amalda amalga oshirishga tayyor bo’lgan ma’lum bir strategiyani qabul qilish bo’yicha yakuniy qaror sifatida tushuniladi. Strategik alternativalarni ko’rib chiqish va strategiyani tanlash menejmentning alohida e’tiborini talab qiladi. Boshqa korxonalarning strategik rivojlanish tajribasini tahlil qilish muhim. Savdo korxonasi faoliyatini boshqarish strategiyasini tanlash muammoli, chunki aylanma sohasidagi rejalar va strategiya turlarini yaxlit tushunishga amaliy yondashuv yo’q.

Savdo korxonasini rivojlantirish strategiyasi quyidagi faoliyat yo’nalishlarida amalga oshiriladi: muomala sohasi, marketing, moliya, kadrlar, innovatsiyalar. Biznes maqsadlariga erishish uchun bir nechta strategiya bo’lishi mumkin. Har bir faoliyat sohasi o’z funktsiyalarini bajarishi bilan tavsiflanadi, shuning uchun bunday funksionallik funktsional strategiyalarni ishlab chiqishga kiritilgan. Afzalliklar turli strategiyalarning kamchiliklari esa korxonaning rentabellik va tavakkalchilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi bilan baholanadi.

Quyidagi 1-jadvalda savdo korxonasini rivojlantirishning funktsional strategiyalari ko’rsatkichlarini taqdim etadi (1-jadval).

1-jadval. Savdo korxonasining rivojlanish strategiyasi ko‘rsatkichlari

Savdo korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantiruvchi funktsional strategiyaning nomi	Savdo korxonasini rivojlantirish yo’nalishlari	“Muvaffaqiyatli” rivojlanish strategiyasi mezonlari
1.Aylanma doirasi (tovarlarni sotish)	1.Samaradorligini oshirishga qaratilgan savdo va texnologik jarayonlarni boshqarish 2. Yangi texnika va innovatsiyalarni, yangi turdagi tovarlarni joriy etish 3. Yangi mahsulotni kiritis	sotilgan mahsulotlar hajmi; mahsulot sifati; mahsulot assortimenti; Foyda
2. Moliya	1. Ishlab chiqarish rentabelligini oshirish. 2. Yangi mijozlarni jalb qilish orqali daromadni oshirish. 3. Etkazib beruvchilar bilan yaqin munosabatlar orqali daromad olish.	moliyaviy oqimlar (foyda, ijara va boshqalar); to’lov qobiliyati va likvidlik k o’rsatkichlari
3. Marketing	1. Mijozlar bilan ishlash: - samarali innovatsion kombinatsiya va raqobatbardosh ustunliklar paydo bo’ladi korxona «bozorda birinchi» yetakchiga aylandi; - yetakchilik va eng yaxshi xizmat bizga mijozlar rentabelligini oshirishga imkon beradi. 2. Innovatsion jarayonlarni amalga oshirish bozordagi mahsulotlar. raqobatbardoshligini ta’minlash 3. Reklama: - reklama faoliyatini rivojlantirish bozorda tovarlarni ilgari surish, korxona imidjini yaxshilash, xaridorlarni (xarajatlarni) jalb qilishni ta’minlaydi.	bozor ulushi; bozor o’sish sur’ati; sotilgan mahsulotlarning narxi
4.Kadrlarni tarbiyalash va tayyorlash	1. Barcha toifadagi ishchilarning malakasini oshirish. 2. Xodimlarning rotatsiyasi.	professional mutaxassislar ulushini oshirish; martaba o’sishi uchun sharoit yaratish
5. Innovatsiyalar	Innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirish	yangi texnologiyalar va yangi mahsulotlar ulushining o’sishi

Ushbu quyi tizimlardan «muvaffaqiyat» bog’liq bo’lgan umumiy mezonlar aniqlangan. Korxonani rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish: sotilgan mahsulot (tovar) va bozor hajmi (ulushning o’sishi yoki o’sish sur’ati), raqobatdosh kurashda moliyaviy barqarorlik va kelajakda savdo korxonasining rivojlanishining «boshlanishi» bog’liq. Strategiyani ishlab chiqish murakkab jarayon bo’lib, bozorning holati va rivojlanishini chuqur o’rganishni, shuningdek, firmaning u egallagan bozordagi mavqeini baholashni talab qiladi. Savdo korxonasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning kompleks metodologiyasining yo’qligi ushbu mavzuning mahalliy mualliflariga o’rganilayotgan tadqiqot sohasini kengaytirishga imkon beradi. Bunga qatiy ishonch xosil qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratib o‘tamiz:

- Savdo sohasining umumiy ko‘rsatkichlari. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil 1 noyabr holatiga ko‘ra, mamlakatda 566 818 ta yuridik shaxs faoliyat yuritmoqda. Ularning 26,1% yoki 147,7 mingtasi savdo sohasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich, savdo iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlardan biri ekanini namoyon etadi.

Sohaning YAIMdagi ulushi barqaror o‘sib bormoqda — 2024 yilda savdo xizmatlari yalpi qo‘shilgan qiymati 11,5% ga o‘sdi. Bu esa umumiy xizmatlar sohasi ulushida muhim pozitsiyaga ega.

- Yangi tashkil etilgan korxonalar va faollik darajasi. So‘nggi yillarda xususiy sektor va kichik biznesga berilgan imtiyozlar tufayli yangi savdo tashkilotlarining soni keskin ortib bormoqda. 2024 yilning yanvar–oktyabr oylarida 70 978 ta yangi yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lib, ularning katta qismi savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish sohalariga taalluqlidir. Masalan, faqatgina Olmaliq shahrida 2024 yilda 509 ta savdo tashkiloti faoliyat yuritgan. Bu ko‘rsatkich shahar miqyosida ham aholining talabiga mos ravishda turli xizmat va tovar turlarini ta’minlashdagi o‘sishni aks ettiradi.

- Tashqi savdo va eksport salohiyati. O‘zbekiston Respublikasi 2024 yilda 198 mamlakat bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Mamlakatning umumiy tashqi savdo aylanmasi 65,9 milliard dollarni tashkil etdi, shundan 26,95 milliard dollari eksport, 38,98 milliard dollari esa import xisoblanadi. Eng yirik savdo hamkorlari — Xitoy (18,9%), Rossiya (17,6%), Qozog‘iston (6,5%), Turkiya va Janubiy Koreya. 2024 yilda eksportchi korxonalar soni 7756 taga yetdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 14% ko‘p.

- Eksport strukturasida:

• Meva-sabzavot mahsulotlari: 1,55 mlrd dollar (31,2% o‘sish)

• To‘qimachilik mahsulotlari: 3,3 mlrd dollar,

• Avtomobil va ehtiyot qismlar: 900 mln dollar,

• Qimmatbaho metallar va energiya resurslari ham katta ulushga ega.

Ushbu ko‘rsatkichlarni quyidagi O‘zbekistonda savdo tashkilotlarining rivojlanish jarayoni barqaror sur’atlarda rivojlanayotganligini quyidagi diagrammada aks ettirilgan (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonda savdo tashkilotlarini barqaror sur’atlarda rivojlanish jarayoni

Me’yoriy-huquqiy islohotlar va institutlar.Savdo faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish maqsadida 2024 yilda bir qancha yangi me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Shu jumladan:

• O‘zbekiston Savdoni Rivojlantirish Kompaniyasi tashkil etildi. Ushbu kompaniya eksportchilarni xalqaro bozorlarga chiqishda qo‘llab-quvvatlaydi, mahsulotlarni sertifikatsiya va brendlash ishlarida yordam beradi.

• Savdo-sanoat palatasi tizimida 12 ta tarmoq va sanoat uyushmalari birlashtirildi. Bu tadbirkorlarning talab va muammolarini markazlashtirilgan holda hal qilish imkonini beradi.

• Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyati kengaytirildi.

Raqamli savdo va onlayn bozorlar. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish savdo sohasida ham o‘z aksini topmoqda. 2024 yilda “Egate” loyihasi orqali 37 ta mahalliy kompaniya Alibaba platformasida “Gold supplier” maqomini oldi. Shuningdek, “Oson”, “Zoodmall”, “Korzinka.uz” kabi ichki onlayn platforma va marketpleyslar savdo aylanmasini sezilarli darajada oshirmoqda.

Central Asia Retail Week 2024 forumida ishtirok etgan kompaniyalar logistika, sun’iy intellekt, geomarketing va omnikanalli savdo kabi zamonaviy usullarni tatbiq etishni muhokama qildi. Bu tadbirda 1500 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – maksad va harakatlar maydoni. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 432 b.
2. Sayfiddinov M.H. Savdo tashkilotlarida boshqaruv samaradorligi. – Toshkent: “Iqtisod”, 2021.
3. Mahmudov Sh.F. Savdo va marketingda zamonaviy yondashuvlar. – Samarqand: SDU nashriyoti, 2022.
4. Ismailov J. Savdo korxonalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: “Moliya”, 2020.
5. Savdo tashkilotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi. – www.chamber.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. – https://stat.uz
7. Korzinka.uz savdo tashkiloti rasmiy sayti. - www.korzinka.uz

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ILMIY VA PEDAGOGIK SALOHIYATNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o‘g‘li
Alfraganus universiteti Buxgalteriya hisobi va soliq kafedrasi o‘qituvchisi
Email: ixtiyorovbekzod8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirishning innovatsion-iqtisodiy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson kapitali, ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratning o‘zaro bog‘liqligi tizimli yondashuv asosida o‘rganilib, oliy ta’lim tizimida innovatsion boshqaruv modellari va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari asoslab beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish va xalqaro reytinglarda oliy o‘quv yurtlari raqobatbardoshligini oshirishga oid farmon va qarorlari tadqiqotning normativ-huquqiy asosini tashkil etadi. Maqolada raqamli transformatsiya, ilmiy kadrlar malakasini oshirish, grant va loyihalar boshqaruvi, akademik faoliyat samaradorligini baholash indikatorlari hamda universitetlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash omillari tahlil qilingan. Natijada, innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim muassasalari, ilmiy salohiyat, pedagogik salohiyat, innovatsion boshqaruv, inson kapitali, iqtisodiy mexanizmlar, samaradorlik, raqamli transformatsiya, ilmiy-tadqiqot faoliyati, akademik reytinglar, ta’lim iqtisodiyoti, kadrlar siyosati, tijoratlashtirish, malaka oshirish, grant tizimi, universitet boshqaruvi, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of innovative and economic mechanisms aimed at enhancing the efficiency of managing scientific and pedagogical potential in higher education institutions. The study examines the interrelation between human capital, scientific capacity, and pedagogical competence within a systematic framework, substantiating ways to improve innovative management models and economic incentive mechanisms in the higher education system. Furthermore, Presidential decrees of the Republic of Uzbekistan on the modernization of higher education, commercialization of scientific research, and strengthening the competitiveness of universities in international rankings form the regulatory basis of the study. The article also explores digital transformation, faculty qualification development, grant and project management, performance assessment indicators, and factors ensuring the economic stability of universities. As a result, practical recommendations are proposed to improve the effective utilization of scientific and pedagogical potential through the implementation of innovative management mechanisms.

Key words: higher education institutions, scientific potential, pedagogical potential, innovative management, human capital, economic mechanisms, efficiency, digital transformation, research activity, academic rankings, education economics, human resources policy, commercialization, professional development, grant system, university governance, sustainable development.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ инновационно-экономических механизмов повышения эффективности управления научным и педагогическим потенциалом высших учебных заведений. В исследовании системно изучается взаимосвязь человеческого капитала, научного потенциала и педагогического мастерства, обосновываются пути совершенствования инновационных моделей управления и механизмов экономического стимулирования в системе высшего образования. Нормативно-правовую основу исследования составляют указы и постановления Президента Республики Узбекистан, направленные на модернизацию высшего образования, коммерциализацию научных исследований и повышение конкурентоспособности вузов в международных рейтингах. В статье также рассматриваются вопросы цифровой трансформации, повышения квалификации научных кадров, управления грантами и проектами, оценки эффективности академической деятельности и обеспечения экономической устойчивости университетов. В результате предложены научно-практические рекомендации по повышению эффективности использования научного и педагогического потенциала посредством внедрения инновационных механизмов управления.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, научный потенциал, педагогический потенциал, инновационное управление, человеческий капитал, экономические механизмы, эффективность, цифровая трансформация, научно-исследовательская деятельность, академические рейтинги, экономика образования, кадровая политика, коммерциализация, повышение квалификации, грантовая система, управление университетом, устойчивое развитие.

KIRISH

“Bugungi kunda har qanday jamiyatning kelajagi, uning yoshlari — tayyor g‘oyali, ijodkor va keng dunyoqarashli pedagogik hamda ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan yoshlar bilan belgilanadi,” — deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirish bugungi kun iqtisodiy-ijtimoiy realiyati sharoitida muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda tub islohotlardan o‘tdi: 2019-yilda qabul qilingan “Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030” hujjati oliy ta’limni innovatsion, ilm-fan bilan integratsiyalashgan, xalqaro raqobatbardosh modelga aylantirish maqsadida ishlab chiqildi. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sish va texnologik rivojlanish davrida oliy ta’lim muassasalari inson kapitaliga sarmoya, ilmiy-tadqiqot faoliyati va pedagojik jarayonlar orqali raqobatbardoshlikka erishishda strategik resursga aylanmoqda.

Biroq amalda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish tizimida bir qator muammolar mavjud. Ularga masalan: ilmiy izlanishlar va ta’lim jarayonining ishlab chiqarish hamda iqtisodiy ehtiyojlar bilan yetarlicha bog‘lanmaganligi, akademik va moliyaviy avtonomiyaning pastligi, pedagogik kadrlarning raqamli va innovatsion ko‘nikmalarga ega bo‘lmasligi kiradi. Shu sababli, muassasalarda boshqaruvning innovatsion-iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish orqali ilmiy va pedagogik salohiyatni yuritishning samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan innovatsion-iqtisodiy mexanizmlar tizimli yondashuv bilan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — muassasalarda ilmiy-pedagogik faoliyatni boshqarish jarayonida sayqallangan samaradorlikni ta’minlovchi innovatsion mexanizmlar: raqamli transformatsiya, inson kapitalini rag‘batlantirish, grant-loyihalar bilan integratsiya, universitet-sanoat sherikliklari, natijalarini baholash tizimi va boshqalarni aniqlash va tavsiflashdir. Xususan, maqolada quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi: oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyat tushunchasi hamda uning komponentlari; boshqaruv tizimlaridagi innovatsion-iqtisodiy mexanizmlarning nazariy asoslari; O‘zbekistonda yuqoridagi mexanizmlarning hozirgi holati va muammolari; so‘ngra ma’lumotlar va empirik tahlil orqali muassasalarda samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu yondashuv nafaqat ilmiy auditoriya balki amaliy boshqaruv organlari va oliy ta’lim muassasalarining rahbarlari uchun ham qimmatli bo‘lishi kutilmoqda. Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirishning innovatsion-iqtisodiy mexanizmlari – zamonaviy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi va bu mavzu iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va raqobatbardoshlikni mustahkamlash yo‘lida markaziy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy ta’lim boshqaruvi, inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion menejment va iqtisodiy samaradorlik konsepsiyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Xalqaro va mahalliy adabiyotlarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shin [1] oliy ta’lim tizimida sifatli ta’limni ta’minlash uchun fakultetlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini muhim omil sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, ta’lim sifatining poydevori o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, ilmiy salohiyatni oshiruvchi muhit va rag‘bat tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Salajegheh [2] esa fakultet rivojlanish dasturlari orqali pedagogik salohiyatni mustahkamlash ilmiy natijalar va o‘quv jarayoni sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Bu yondashuvlar O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida malaka oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiyalash zaruratini tasdiqlaydi. Agasisti [3] o‘z tadqiqotida oliy ta’lim tizimi milliy innovatsion iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini empirik tahlil asosida isbotlagan. Shuningdek, Mugimu [4] rivojlanayotgan davlatlarda ilmiy tadqiqotlar va ta’lim jarayonining o‘zaro uyg‘unligi barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun zarur shart ekanligini ta’kidlaydi. Schaap [5] oliy ta’lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirish uchun tizimli boshqaruv modeli ishlab chiqqan bo‘lib, unda inson resurslarini rivojlantirish, ilmiy loyihalar va iqtisodiy mexanizmlar birgalikda qo‘llanilishi zarurligi ta’kidlanadi. Sauphayana [6] rahbarlikda innovatsion yondashuvlarni joriy etish natijasida oliy ta’lim tizimining samaradorligi va barqarorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatgan. Evans [7] tadqiqotida oliy ta’limda sifatli pedagogik faoliyatni ta’minlash uchun metodologik yondashuv, o‘qituvchi salohiyati va baholash tizimining uyg‘unligi muhimligini asoslab bergan.

Bu yondashuv pedagogik samaradorlikni aniqlovchi indikatorlarni shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Zhao [8] tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta’lim tizimining barcha bosqichlariga — boshqaruv, o‘quv jarayoni va ilmiy faoliyatga — sezilarli ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. U raqamli texnologiyalarni boshqaruv mexanizmlariga integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirishni ilgari suradi. Maral [9] oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobat, sifatni baholash indikatorlari va innovatsion natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni bibliometrik tahlil asosida o‘rgangan. Olaleye [10] rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta’lim boshqaruvi resurslar cheklangan sharoitda samaradorlikni oshirish uchun iqtisodiy mexanizmlarni optimallashtirish zarurligini ta’kidlagan. Baker [11] tadqiqotida universitetlarda “capacity-building” — salohiyatni oshirish yondashuvi asosida o‘qituvchilarni innovatsion loyihalarga jalb etish orqali ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqqan. Makarov [12] esa Sharqiy Yevropa oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning iqtisodiy samaradorlik modellari asosida empirik natijalarni keltirgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirish uchun uchta asosiy omil muhim:

1. Inson kapitalini rivojlantirish va rag‘batlantirish tizimi;
2. Innovatsion boshqaruv mexanizmlari va raqamli transformatsiya;
3. Oliy ta’lim va iqtisodiyot o‘rtasidagi integratsiya.

Mazkur yo‘nalishlar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Ilm va ta’lim bir-biridan ajralmas bo‘lishi kerak” degan g‘oya mazkur yondashuvlarning konseptual asosini tashkil etadi. Shunday qilib, ilmiy-pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirish masalasi nafaqat ta’lim tizimi, balki milliy iqtisodiyotning innovatsion o‘sish omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirishning innovatsion-iqtisodiy mexanizmlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida tizimlilik, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv tahlil uslublari, shuningdek, empirik va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi. Ma’lumotlar manbasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisobotlari hamda xalqaro ilmiy nashrlar ma’lumotlari ishlatildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida inson kapitali, raqamli transformatsiya, innovatsion boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqlikda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirishning innovatsion-iqtisodiy mexanizmlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi, “Ilm, ta’lim va innovatsiyalarni rivojlantirish konsepsiyasi” kabi hujjatlar oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ilmiy faoliyatni tijoratlashtirishni yangi bosqichga olib chiqdi.

Tadqiqot doirasida 20 ta yetakchi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, TATU, TIQXMMI va boshqalar) kesimida tahlil olib borildi. Ma’lumotlar “Oliy ta’limda sifat monitoringi agentligi” (2023), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisobotlari hamda universitetlarning ochiq manbalaridagi statistik ma’lumotlarga asoslangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarishning asosiy komponentlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Inson kapitali sifatini oshirish — o‘qituvchilarning ilmiy darajasi, malaka oshirish ko‘rsatkichlari, xorijiy stajirovka va ilmiy hamkorlik darajasi;
2. Innovatsion boshqaruv — universitet boshqaruvida raqamli tizimlardan foydalanish, grant va loyiha menejmentining samaradorligi;
3. Iqtisodiy mexanizmlar — ilmiy loyihalarning tijoratlashtirilishi, ilmiy-innovatsion faoliyatdan tushgan daromad ulushi;
4. Raqamli transformatsiya — elektron ta’lim tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv platformalari, ta’limda ma’lumotlar tahlili (data analytics) qo‘llanilishi (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyat indikatorlari (2022–2024 yillar o‘rtacha ma’lumotlar asosida)

№	Ko‘rsatkich nomi	2022 (%)	2023 (%)	2024 (%)	O‘sish dinamikasi (%)	Baholash natijasi
1	Ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar ulushi	34.2	36.8	41.5	+7.3	Barqaror o‘sish
2	Xalqaro stajirovka o‘tagan pedagoglar ulushi	8.4	11.6	15.2	+6.8	Ijobiy dinamika
3	Grant loyihalari soni	112	156	197	+75.9	Faol o‘sish
4	Ilmiy maqolalar soni (Scopus, WoS)	1420	1963	2548	+79.4	Innovatsion faollik
5	Ilmiy faoliyatdan tushgan daromad ulushi	3.8	4.5	6.1	+2.3	Rivojlanish bosqichida
6	Elektron ta’lim tizimlaridan foydalanuvchi o‘qituvchilar	47.3	58.6	71.4	+24.1	Yuqori o‘sish
7	Ilmiy hamkorlikdagi xalqaro loyihalar ulushi	12.1	15.8	20.9	+8.8	Faol integratsiya

1-jadvalda ko‘rsatilgan ma’lumotlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda universitetlarning rasmiy ochiq hisobotlari asosida shakllantirilgan. 2022–2024 yillar oralig‘ida professor-o‘qituvchilarning ilmiy darajasi 7,3 foizga, xalqaro hamkorlik loyihalari esa 8,8 foizga oshgani, oliy ta’limda ilmiy-pedagogik salohiyatning sezilarli rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu natijalar shuni anglatadiki, ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligi innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va inson kapitalini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. Misol uchun, TATU va TIQXMMI da “Digital University” platformalarining joriy etilishi ilmiy hisobotlar, grantlar va akademik yuklamalarni avtomatlashtirish imkonini berdi.

Shuningdek, universitetlarda “scientific performance index” tizimi asosida o‘qituvchilarning natijaviy faoliyati (ilmiy maqola, grant, loyiha, patent) raqamli baholash orqali aniqlanmoqda. Bu tizim professor-o‘qituvchilarni rag‘batlantirishda shaffoflikni oshirib, akademik samaradorlikni o‘lchashning yangi bosqichiga olib chiqmoqda.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston universitetlari o‘rtasida ilmiy salohiyat bo‘yicha sezilarli tafovut mavjud. Masalan, yetakchi besh universitetda doktorantura bitiruvchilarining ulushi 18–20% bo‘lsa, ayrim hududiy OTMlarda bu ko‘rsatkich atigi 8–10% ni tashkil etmoqda. Buning sababi ilmiy infratuzilmaning nomutanosib rivojlanishi, grant mablag‘larining markazlashuvi va professor-o‘qituvchilarning ilmiy yuklamasining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Raqamli transformatsiya darajasi ham oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida farq qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli ta’lim tizimlaridan foydalanish darajasi poytaxt OTMlarda 75% gacha, mintaqaviylarda esa o‘rtacha 49% ni tashkil etadi. Shu bois raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, ta’lim resurslarini yagona bulutli platformalarda jamlash muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini aniqlovchi iqtisodiy va innovatsion ko‘rsatkichlar

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2022	2023	2024	O‘sish (%)
1	Tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar soni	dona	42	61	89	+111.9
2	Grantlar orqali jalb qilingan mablag‘	mlrd so‘m	98.3	121.5	164.7	+67.5
3	Xalqaro loyihalardan olingan moliyaviy resurslar	mln AQSh dollari	5.6	7.2	9.1	+62.5
4	Innovatsion startaplar soni	dona	18	27	39	+116.6
5	Universitetlararo hamkorlik memorandumi	dona	74	96	128	+72.9

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2022–2024 yillar oralig‘ida grantlar va startap loyihalar soni ikki baravarga oshgan. Bu esa O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ilmiy natijalarni iqtisodiy samaradorlikka aylantirish jarayoni faollashayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, OTMlar faoliyatida innovatsion boshqaruv modellari — “Project Management Office (PMO)” tizimlari, “Institutional Research Centers (IRC)” va “Academic Quality Units (AQU)” bo‘limlari tashkil etilib, ular boshqaruv jarayonini ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishga yo‘naltirmoqda. Bu mexanizmlar ilmiy faoliyat natijalarini iqtisodiy resurslar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv samaradorligi yuqori bo‘lgan universitetlarda ilmiy-innovatsion faoliyatdan olingan daromad hajmi ham yuqori. Masalan, Toshkent davlat texnika universitetida 2024-yilda ilmiy

tadqiqotlardan tushgan daromad umumiy byudjetning 8,4 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda atigi 3,9 foiz edi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida innovatsion iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

- Raqamli boshqaruv tizimlarini kengaytirish: ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish, “Learning Analytics” va “AI-assisted teaching” platformalarini joriy etish;
- Ilmiy faoliyatni iqtisodiylashtirish: grant va startap natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- Inson kapitalini rivojlantirish: doktorantura va stajirovka tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- Natijadorlikka asoslangan baholash tizimi: “Key Performance Indicators (KPI)” modeli asosida har bir o‘qituvchining samaradorligini o‘lchash;
- Davlat-xususiy hamkorlikni kengaytirish: universitetlar va biznes sektori o‘rtasidagi innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish.

Olib borilgan tahlil oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirish uchun raqamli transformatsiya, inson kapitali sifatini oshirish, hamda iqtisodiy mexanizmlarni integratsiyalash muhimligini ko‘rsatdi. Ushbu omillar uyg‘unlashganda, oliy ta’lim tizimi innovatsion rivojlanishning barqaror manbaiga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirish jarayoni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Ilm, ta’lim va innovatsiyalarni rivojlantirish konsepsiyasi” hamda Prezident farmon va qarorlari natijasida oliy ta’lim tizimida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish uchun zarur institutsional asos yaratildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ilmiy va pedagogik salohiyatni oshirishda to‘rtta asosiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega: inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlari, innovatsion boshqaruv tizimi, iqtisodiy rag‘bat mexanizmlari va raqamli transformatsiya. Bu omillar o‘zaro integratsiyada faoliyat yuritganda, oliy ta’lim muassasalari nafaqat ta’lim sifatini, balki ilmiy natijalarni iqtisodiy samaradorlikka aylantirish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Amaldagi boshqaruv tizimining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilmiy salohiyatning o‘sish sur’ati ijobiy bo‘lsa-da, resurslardan foydalanish samaradorligi, grant va startap loyihalarining tijoratlashtirilish darajasi, shuningdek, pedagogik faoliyat natijadorligini baholash mexanizmlarida takomillashtirish zarur. Shu nuqtai nazardan, quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

1. Raqamli boshqaruv tizimini kengaytirish – oliy ta’lim muassasalarida “Digital Management System” va “AI-based Academic Analytics” platformalarini joriy etish orqali ilmiy faoliyat monitoringini avtomatlashtirish.
2. Inson kapitalini rivojlantirish dasturlarini kengaytirish – doktorantura, stajirovka va malaka oshirish tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, akademik harakatchanlikni rag‘batlantirish.
3. Ilmiy faoliyatni iqtisodiylashtirish – ilmiy loyihalarni startap va spin-off kompaniyalarga aylantirish, grant va patent tizimini tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.
4. Natijadorlikka asoslangan baholash tizimi – professor-o‘qituvchilar faoliyatini KPI (Key Performance Indicators) modeli asosida baholash va differensial rag‘batlantirish tizimini joriy etish.
5. Universitet–biznes hamkorligini rivojlantirish – davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida innovatsion loyihalar, inkubatsiya markazlari va texnoparklar faoliyatini kengaytirish.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirish, mamlakatning raqobatbardosh iqtisodiy modelini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u innovatsion rivojlanishning barqaror manbai sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H. Shin, “Faculty development: The need to ensure educational quality in medical education,” Kosin Medical Journal, vol. 38, no. 2, pp. 123–130, 2023.
2. M. Salajegheh, “Understanding the capacity development of faculty development programmes,” BMC Medical Education, vol. 24, no. 3, pp. 1–12, 2024.
3. T. Agasisti, “Higher education and economic development: A systematic bibliometric review,” European Journal of Education, vol. 59, no. 1, pp. 45–67, 2024.
4. C. B. Mugimu, “Developing Capacity for Research and Teaching in Higher Education,” World Journal of Education, vol. 3, no. 6, pp. 33–47, 2013.
5. L. Schaap, “A Framework Supporting the Innovative Capacity of Higher Education Institutions,” Sustainability, vol. 17, no. 14, 2025.

6. S. Sauphayana, “Innovation in Higher Education Management and Leadership,” Journal of Education and Social Research, vol. 11, no. 6, pp. 102–115, 2021.
7. C. Evans, “What constitutes high quality higher education pedagogical practice?,” Higher Education Research & Development, vol. 40, no. 7, pp. 1465–1480, 2021.
8. B. Zhao, “Research hotspots and trends in digitalization in higher education: A bibliometric analysis,” Computers and Human Behavior Reports, vol. 9, 2024.
9. M. Maral, “Bibliometric and content analysis on competition in higher education,” Higher Education, vol. 89, no. 3, pp. 421–438, 2025.
10. S. A. Olaleye, “Higher education management in developing countries,” International Development Documentation, vol. 18, pp. 77–91, 2024.
11. V. L. Baker, “Expanding faculty development through capacity-building approaches,” Journal of University Teaching & Learning Practice, vol. 21, no. 2, 2024.
12. Z. Makarov, “The Management of Innovation Processes in Higher Education Institutions of Ukraine,” Regional Research in Education and Management, vol. 5, no. 4, pp. 212–225, 2023.

JIZZAX VILOYATI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARILISH TENDENSIYASINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH

Almuradov Abdulla Almuradovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika kafedrasi dotsenti
ORCID:0000-0002-9278-832X
Email: almuradov.55@mail.ru

Toshpulov Bekzod Sultonmurodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika kafedrasi katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0006-2130-6713
Email: btoshpulov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishini kuzatish va tendensiyasini o‘rganish. Viloyati qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini chiziqli trend modellari tuzish va diterminatsiya koeffitsiyentini topish orqali baholanishi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, chiziqli va chiziqsiz trend modellari yordamida ekonometrik tahlil qilish mumkinligi ko‘rsatilgan. Har bir trend modeli o‘ziga xos natijalarini tahlili qilish 2010-2024-yillar oralig‘idagi qiymatlari orqali grafiklar va modellar tuzilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat, ishlab chiqarish, trend modeli, chiziqli model, diterminatsiya koeffitsiyenti, eksponensial, logorifmik, darajali, polinomial, avtokorrelyatsiya, vaqt.

Abstract: This article is devoted to the study of trends in the production of agricultural food products in Jizzakh region. The assessment of agricultural food products in Jizzakh region by constructing linear trend models and finding the coefficient of determination is considered. Based on the results of the study, it was developed that it is possible to conduct econometric analysis using linear and nonlinear trend models. To analyze the specific results of each trend model, graphs and models were constructed using the values for the period 2010-2024.

Key words: food, trend model, production, linear model, coefficient of determination, exponential, logarithmic, power, polynomial, autocorrelation, time.

Аннотация: Статья посвящена исследованию тенденций производства сельскохозяйственной продовольственной продукции в Джизакской области. Рассматривается оценка производства сельскохозяйственной продовольственной продукции в Джизакской области путем построения линейных трендовых моделей и нахождения коэффициента детерминации. По результатам исследования установлено, что эконометрический анализ можно проводить с использованием линейных и нелинейных трендовых моделей. Для анализа конкретных результатов каждой трендовой модели были построены графики и модели с использованием данных за период 2010-2024 гг.

Ключевые слова: продовольствие, производство, трендовая модель, линейная модель, коэффициент детерминации, экспоненциальный, логарифмический, степенной, полиномиальный, автокорреляция, время.

KIRISH

Hududning aholisini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini yanada to‘laroq qondirish hamda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni samarali rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. «Meva-sabzavot, go‘sht, sut va boshqa qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro sifat standartlari asosida qayta ishlash hajmlarini oshirish, ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish hamda sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashni yanada yaxshilash»[1]. vazifasi belgilangan. Bu borada zamonaviy modellashtirish usul va yo’llaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishning rivojlanish tendensiyasini modellashtirishning uslubiy yondashuvlarini

takomillashtirish, tarmoq faoliyatini statistik tahlil va modernizatsiyalash jarayonini modellashtirish, ishlab chiqarish tendensiyasini prognozlashning ko‘p omilli empirik modellarini asoslash singari y o’nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2023-yil 11 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda subsidiya berish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida” [2] gi 364-sonli qarorida oziq-ovqat xavfsizligiga qaratilgan vazifalar belgilangan.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiya to‘g‘risidagi farmoni, 2017-yil 8 avgustdagi PQ-3182-son «Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2020-yil 11 maydagi PQ-4709-son «Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Agrosanoat komplekslari mamlakat iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri va respublika aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi xom-ashyolari (don, meva, sabzavot, go‘sht, sut, baliq, paxta va boshqa moyli ekinlar urug‘lari va xokazo) ni qayta ishlash asosida oziq-ovqat mahsulotlari yaratadigan oziq-ovqat sanoati iqtisodiyotning eng asosiy bo‘g‘inidir. Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari bir necha tarmoqlar va tarmoqosti sohalaridan iborat. Uning tarkibiga yirik guruh (20 dan ko‘proq) tarmoqlar va tarmoqosti (60 dan ko‘proq) sohalardan tashkil topgan; ulardan asosiylari: (tarmoqda umuman ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi bo‘yicha) un, yog‘-moy, non pishirish, go‘sht, sut, baliq, meva – sabzavot va boshqalar.

Jizzax viloyatining 42 foiz yalpi ichki mahsuloti agrosanoat kompleksi doirasida yaratiladi. Iste’mol bozorining 62 foizi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi.

Barcha mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa qishloq xo‘jaligining oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning samarali faoliyatiga bog‘liq, chunki mamlakat oziq-ovqat strategik zahiralari va jamg‘armalarining deyarli 80-85 %i oziq - ovqat mahsulotlari hisobiga tashkil etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo’jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining yangi mahsulot turlarini va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganish ham muhimdir. Har bir kategoriya oziq-ovqat bilan bog‘liq bo‘lib, ular bir-biriga bog‘liqdir, chunki keng jamoatchilikka sotish va tarqatish uchun eng yaxshi mahsulotga erishish, shuningdek, yuqori sifatli mahsulotlar va oziq-ovqat ta’minotiga erishish uchun qo‘lda ishlab chiqarish kerak. Oziq-ovqat zanjiri va ta’minoti butun iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismidir. Xorij mamlakatlarida ham qishloq xo’jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiyotdagi o‘rni bevosita muhim ahamiyat kasb etadi. Yillar o‘tgan sayin oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoj hajmi va uning sifatiga bo‘lgan talab o‘sib boradi. Shu asnoda mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarning qishloq xo’jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini hududning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushini trend modellari asosida o‘rganib tahlil qilamiz.

Vaqt qatoridagi tendensiyani modellashtirishning eng keng tarqalgan usuli bu uning qaralayotgan qiymatining vaqtga bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatuvchn analitik funksiyani topish, ya’ni trend modelini tuzishdan iboratdir. Bu usul vaqt qatorini silliqlashning analitik usuli deyiladi. Trend - bu vaqtning analitik funksiyasi bo‘lib, quyidagilar bo‘lishi mumkin: [4] chiziqli trend, parabolik trend, polinomial trend, giperbolik trend, logorifmik trend, logistik trend, darajali trend, eksponensial trendlardir.

Odatda, trend parametrlarini aniqlash uchun eng kichik kvadratlar usuli qo‘llaniladi. To‘g‘ri chiziqli bo‘lmagan trend modellar avval biron bir matematik amallar yo‘li bilan chiziqli trend ko‘rinishiga keltiriladi va so‘ngra mos hisoblashlar amalga oshiriladi. Kompyuter dasturlarnidan foydalanib, buni amalga oshirish ko‘p vaqt talab qilmaydi.

Standart kuzatilmagan effektlar modelining kengaytmasi ham quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi[5].

$$y_{it} = c_i + g_i t + x_{it}\beta + u_{it} \qquad t = 1, 2, ..., T \tag{1}$$

Buni ba’zida tasodifiy trend modeli deb ham atashadi, chunki har bir firma, ishlab chiqarish korxonasi, shahar va hokazolar o‘z vaqt tendensiyasiga ega bo‘lishi mumkin. Shaxsiy o‘ziga xos tendensiya geterockedatliknnng qo‘shimcha manbai hisoblanadi. Agar u_i o‘zgaruvchining tabiiy log bo‘lsa, iqtisodiy tadqiqotlardagidek, u g_i (taxminan) davrda o‘rtacha o‘sish sur’ati hisoblanadi (tushuntirish o‘zgaruvchilarni ushlab turganda). Keyinchalik (1) tenglama tasodifiy o‘sish modeli deb aytildi (1989) Heckman va Hotz lar tomonidan.

Yuqoridagi (1) tenglamaning ko‘pgina amaliy dasturlarida (c_i; g_i) lar x_{it} bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishini xohlaymiz. (Afsuski, ushbu korrelyatsiyaga imkon berish «tasodifiy tendensiya modeli» nomini oldingi

tasodifiy va belgilangan effektlardan foydalanishimizga zid keladi.) Misol uchun, agar bir elementi dasturda ishtirok etish ko‘rsatkichi bo‘lsa, tenglama (1) dasturda ishtirok etish darajasi, ta’siriga qo‘shimcha ravishda individual tendensiyalarga (yoki o‘sish sur’atlariga) bog‘liq bo‘lishiga imkon beradi. (c_i; $g_{i,\ xit}$) o‘zaro bog‘liqlikni cheklamasdan davom etamiz, shunda bizning tahlilimiz aniqlangan effektlar xilma-xilligiga ega bo‘ladi. Tasodifiy effektga yondashuv ham mumkin, ammo u xatolikka olib keladi. Tasodifiy trend modeli uchun tushuntiruvchi o‘zgaruvchilar bo‘yicha qat’iy ekzogenlik taxminlari mavjud [5].

$$E(u_{it} \mid x_{i1},...,x_{iT},c_i,g_i) = 0 \quad (2)$$

Bu esa shartli o‘rtacha spesifikatsiyadan aniq kelib chiqadi va quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi.

$$E(y_{it} \mid x_{i1},...,x_{iT},c_i,g_i) = E(y_{it} \mid x_{it},c_i,g_i) = c_i + g_i t + x_{it}\beta \quad (3)$$

Baribir β -ni domiy ravishda baholaymiz. β ni baholash uchun bitta yondashuv bu $\tilde{n}_i$ ni farqlashdir.

$$\Delta y_{it} = g_i + \Delta x_{it}\beta + \Delta u_{it}, \qquad t = 2,3,....,T \quad (4)$$

Bu yerda $g_i t - g_i(t-1) = g_i$ faktidan foydalandik. Endi (4) tenglama oddiy kuzatilmagan effektlar modelidir, $E(\Delta u_{it} \mid g_i, \Delta x_{i2},...\Delta x_{iT}) = 0, t = 2;3;....;T,$ taxmin ostida (2). Shunday qilib, β ni hisoblash uchun (4) tenglamaga sobit effektlarni yoki birinchi farqlash usullarini qo‘llashimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi qishloq xo’jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini baholashda bir qator statistik va ekonometrik usullarga tayangan. Avvalo, tavsifiy statistika yordamida tanlangan omillar bo‘yicha o‘rtacha qiymat, median, minimal va maksimal ko‘rsatkichlar, standart og‘ish, asimmetriya va kurtosis darajalari hisoblab chiqildi. Keyinchalik korrelyatsiya tahlili qo‘llanib, natijaviy ko‘rsatkich bilan mustaqil omillar o‘rtasidagi bog‘lanish darajasi aniqlanib, juft hamda xususiy korrelyatsiya koeffisientlari yordamida omillararo multikollinearlik ehtimoli baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shundan kelib chiqqan holda, Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini trend modellari yordamida tahlil qilish uni baholash uchun etarlicha asos bo‘la oladi (1-jadval; 1-rasm).

1-jadval. Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining 2010-2024-yillardagi ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘m)[1]

t	x_t
1	1284,8
2	1969,8
3	2403,3
4	2793,8
5	3531,3
6	4207,1
7	5052,1
8	6537,9
9	8471,7
10	10152,9
11	12101,1
12	15148,6
13	17197,0
14	19780,0
15	20914,0

1 Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.



1-rasm. Hududdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning chiziqli trend modeli

Yuqoridagi 1-jadvalga asosan Jizzax viloyatidagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining 2010-2024-yillardagi ko‘rsatkichlaridan foydalanib (1-rasm) chiziqli trend $y = 1972,4x - 3928$ tenglamasi tuzildi. Tenglamadan ko‘rinib turibdiki, diterminatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,9333$ va bu chiziqli trend modeli adekvat hisoblanadi. 2010-yildan 2014-yilga kelib 15 yil davomida qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish qariyib 16 baravarga o‘sgani grafikda tasvirlangan. Yana boshqa trendlardan foydalangan holda ekonometrik tahlil qilish boshqa tahlildagi ko’rinishni ko’rib chiqamiz. (Eksponensial trend, logorifmik trend, darajali trend, polinomial trend) (2-rasm).



2-rasm. Hududdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning eksponensial modeli

Bu 2-rasmda eksponensial trend modeli keltirilgan. Tahlil natijasi shuni ko‘rsatadiki, model adekvat hisoblanadi. Diterminatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,9904$ ga teng. Shu model $y = 1716,5e^{0,1998x}$ ma’lumotlarga mos tarzda tushgan va modeldan foydalanib prognoz qiymatlarini topish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Hududdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning logorifmik modeli

3-rasmda logorifmik trend modeli keltirilgan $y = 9701,2\ln(x) - 6192,9$. $R^2 = 0,6903$ diterminatsiya koeffitsiyenti esa o‘rtacha bog‘liqligini ko‘rsatmoqda (4-rasm).



4-rasm. Hududdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning darajali modeli

4-rasmda $y = 1096x^{1,1006}$ - darajali trend modeli tuzilgan. Diterminatsiya koeffitsiyenti - R^2=9188 ga teng (5-rasm).



5-rasm. Hududdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning logorifmik trend modeli

5-rasmda polinominal trend modeli $y = 103,65x^2 + 388,61x$ tuzilgan. Bu polinominal trend tenglamasi grafikda aniq ko‘rinib turibdiki, chiziqqa qiymatlari to‘la tushib turibdi. Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,9952$ ga teng bo‘lganligi uchun model adekvat hisoblanib, bog‘lanishi kuchli zichlikda hisoblanadi. Polinominal trend modelidan foydalangan holda eng yaqin prognoz qiymatini topishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni joylashtirishni asosli rejalashtirish va iqtisodiy tahlil jarayonida har bir tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘g‘ri hisobga olish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni joylashtirishning umumiy tamoyillariga asoslanish oziq - ovqat mahsulotlari tarmoqlarini joylashtirishning yuqori samaradorligini ta’minlaydi va ijtimoiy mehnat samaradorligi oshadi.

Sunday qilib, foydalanilgan hamma trend modellaridan shuni xulosa qilish mumkinki, polinominal trend modeli eng ishonchli ekanligidan dalolat bermoqda. Jizzax viloyati qishloq ho‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish har yili o‘rtacha 107 foizga ya’ni 2010 yil 1284,8 mlrd bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 20914,0 mlrdga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublnkasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublnkasini yanada rivojlantirish buyicha harakatlar strategiyasi tugrisida»gi PF-4947-sonln farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika aholisini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va kafolatli ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 25.10.2018 y. 866-qarori.
3. O‘zbekiston Respublnkasi Prezidentining «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘grisida»gi 09.09.2020 y. 4821-sonli qarori// HTTPS://LEX.UZ/DOCS/4990322.
4. Сангинов М.Б., Саримсақова Х.К. “Эконометрика асослари” дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ХТИ, 2020. – 426 б.
5. Jeffrey M. Wooldridge. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. The MIT Press, Cambridge, Massachusetts. London, England – 2002.
6. Lucas R. On the Mechanism of Economic Development // Journal of Monetary Economics.Vol. 22. July. P. 3-42. 1988.
7. O‘zbekiston Respublnkasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
8. Turobjonov C.M. va boshqalar. “O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qiskacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari” - T.: “Fan va texnologiya”, 2014.
9. https://www.jizzaxstat.uz/uz/ – Jizzax viloyati statistika boshqarmasi sayti.

QISHLOQ XO‘JALIGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING O‘ZGARUVCHANLIGINI TAHLIL QILISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Toshpulov Bekzod Sultonmurodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika kafedrasi katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0006-2130-6713
Email: btoshpulov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hududda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishini kuzatish va tendensiyalarini o‘rganish. Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini o‘zgaruvchanligini tahlil qilish orqali baholanishi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o‘rtacha og’ish, standart o‘rtacha og’ish, tebranish koeffisenti og’ishini yordamida ekonometrik tahlil qilish mumkinligi ishlab chiqilgan. Ko‘p omilli modeli o‘ziga xos natijalarini tahlil qilish. 2010-2024 yillar oralig‘idagi qiymatlari orqali gafiklar va modellar tuzilgan.

Kalit so‘zlar: o‘rtacha og’ish, tebranish koeffitsenti, korrelyatsiya koeffitsenti, oziq-ovqat, ishlab chiqarish, diterminatsiya koeffitsenti, Fisher mezoni, regression tahlil, go‘sht, sut.

Abstract: This article is devoted to the study of trends in the production of agricultural food products in the region. The assessment of agricultural food products in Jizzakh region through the analysis of variability is considered. Based on the results of the study, it is possible to conduct econometric analysis using the mean deviation, standard mean deviation, and coefficient of variation. Graphs and models were constructed using the values of the multifactor model for the period 2010-2024 to analyze the specific results.

Key words: mean deviation, coefficient of variation, correlation coefficient, food, production, coefficient of determination, Fisher's criterion, regression analysis, meat, milk.

Аннотация: Статья посвящена изучению тенденций производства сельскохозяйственной продовольственной продукции в регионе. Рассматривается оценка производства сельскохозяйственной продовольственной продукции в Джизакской области посредством анализа вариации. По результатам исследования можно провести эконометрический анализ с использованием среднего отклонения, стандартного среднего отклонения и коэффициента вариации. Для анализа полученных результатов построены графики и модели с использованием значений многофакторной модели за период 2010–2024 гг.

Ключевые слова: среднее отклонение, коэффициент вариации, коэффициент корреляции, продукты питания, производство, коэффициент детерминации, критерий Фишера, регрессионный анализ, мясо, молоко.

KIRISH

O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2023-yil 11-avgustdagi 364 qaroriga asosan “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda subsidiya berish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida” [1] deb belgilangan vazifalar oziq-ovqat xavfsizligiga qaratilgan.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston-2030» strategiya to‘g‘risidagi farmoni, 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son «Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son «Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining yangi mahsulot turlarini va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganish ham muhimdir. Har bir kategoriya oziq-ovqat bilan bog‘liq bo‘lib, ular bir-biriga bog‘liqdir, chunki keng jamoatchilikka sotish va tarqatish uchun eng yaxshi mahsulotga erishish, shuningdek, yuqori sifatli mahsulotlar va oziq-ovqat ta’minotiga erishish uchun qo‘lda ishlab chiqarish kerak. Oziq-ovqat zanjiri va ta’minoti butun iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismidir. Xorij mamlakatlarida ham qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiyotdagi o‘rni bevosita muhim ahamiyat kasb etadi. [3] Yillar o‘tgan sayin oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoj hajmi va uning sifatiga bo‘lgan talab o‘sib boradi. Shu asnoda mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini hududning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushini trend modellari asosida o‘rganib tahlil qilamiz.

Vaqt qatoridagi tendensiyani modellashtirishning eng keng tarqalgan usuli bu uning qaralayotgan qiymatining vaqtga bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatuvchn analitik funksiyani topish, ya’ni trend modelini tuzishdan iboratdir. Bu usul vaqt qatorini silliqlashning analitik usuli deyiladi. Trend - bu vaqtning analitik funksiyasi bo‘lib, quyidagilar bo‘lishi mumkin: [4] chiziqli trend, parabolik trend, polinomial trend, giperbolik trend, logorifmik trend, logistik trend, darajali trend, eksponensial trendlardir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari baholashda bir qator statistik va ekonometrik usullarga tayangan.

Hududning aholisini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga talabini yanada to‘laroq qondirish hamda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda samarali rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. «Meva-sabzavot, go‘sht, sut va boshqa qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini halkaro sifat standartlari asosida qayta ishlash hajmlarini oshirish, ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish xamda aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashni yanada yaxshilash»[5] vazifasi belgilangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shundan kelib chiqqan holda, bu borada zamonaviy modellashtirish usul va yo‘llaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining rivojlanish tendensiyasini modellashtirishning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish, tarmoqni statistik tahlil va modernizatsiyalash jarayonini modellashtirish, ishlab chiqarish tendensiyasini prognozlashning ko‘p omilli empirik modellarini asoslash singari yunalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

Yillar	Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so‘m (Y)	Go‘sht (tirik vaznda) tonna (X1)	Sut tonna (X2)
2010	1736,2	124 189	334 352
2011	2661,9	132 991	366 960
2012	3247,7	142 273	400 171
2013	3775,4	153 586	438 203
2014	4772,0	162 786	468 838
2015	5685,3	176 796	501 033
2016	6827,1	190 186	536 665
2017	8835,0	203 259	566 080
2018	11448,2	212 408	593 913
2019	13720,1	212 923	609 510
2020	16352,8	217 225	627 205
2021	20471,1	230 300	650 523
2022	23239,2	232 012	675 297
2023	26730,0	238 439	693 823
2024	28262,2	244 640	714 442

Bu usullar o‘zgaruvchan sharoitlarga tezda javob beradigan o‘z-o‘zini tuzatuvchi modellarni yaratishga imkon beradi. Adaptiv usullar ketma- ketlik darajalarining har xil statistik qiymatini, statistika qiymatini «eskirishi» ni xisobga oladi. Bularning barchasi o‘zgaruvchan tendensiya bilan beqaror tendensiyalarni prognoz qilish uchun ularni samarali qiladi.

Shuningdek, Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari dinamikasini yanada aniqrok ehtimollik asosnda prognoz qilish uchun unga ta’sir qiluvchi omillardan foydalanib ko‘p omilli korrelyatsion-regression tahlil qilamiz.

Yuqoridaga ma’lumotlar asosida korrelyatsion tahlilni Stata18 dasturidan foydalanib quyidagi natijalarni oldik (1-rasm).

	Qishlo~m	Gosht_~a	Sut_to~a
Qishloq_x_~m	1.0000		
Gosht_tonna	0.9178	1.0000	
Sut_tonna	0.9299	0.9976	1.0000

1-rasm. Omillar orasidagi korrelyatsion tahlil[1]

Korrelyatsion tahlilda olingan natijalarning barchasi Fisher mezoni bo‘yicha 0,05 dan kichik va bu ahamiyatligini izohlaydi. Asosiy omil va unga ta’sir etuvchi omillar orasida juda yuqori bog‘liqlik bor ya’ni ry/x1 = 0,917 va ry/x2 = 0,997 qiymatlarga teng (2-rasm).



2-rasm. Omillar orasidagi chiziqli bog‘lanish

Shuningdek, bu qiymatlar ahamiyatli va bu o‘zgaruvchnlar asosida Stata18 amaliy dasturi orqali LS modelini parametrlarini topib regression tenglamani tuzib olamiz (3-rasm).

```
. reg Qishloq_x_mlrd_som Gosht_tonna Sut_tonna
```

Source	SS	df	MS		
Model	1.0324e+09	2	516219737	Number of obs	= 15
Residual	134636611	12	11219717.6	F(2, 12)	= 46.01
				Prob > F	= 0.0000
Total	1.1671e+09	14	83362577.5	R-squared	= 0.8846
				Adj R-squared	= 0.8654
				Root MSE	= 3349.6

Qishloq_x_~m	Coefficient	Std. err.	t	P>|t|	[95% conf.	interval]
Gosht_tonna	-.4568225	.3179997	-1.44	0.176	-1.149684	.2360393
Sut_tonna	.219775	.1048682	2.10	0.058	-.0087131	.4482631
_cons	-20428.37	5650.136	-3.62	0.004	-32738.96	-8117.782

3-rasm. O‘zgaruvchilarning regression tahlil natijasi

1 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (Y agrofood) asosiy omil, unga ta’sir etuvchi omillar go‘sht (tirik vaznda) (X1) va sut mahsuloti (X2) ning parametrlari orqali klassik chiziqli modelni tuzib olamiz.

$$Y = -0.4568225 \cdot X1 + 0.219775 \cdot X2 - 20428.37 \quad (1)$$

ya’ni $$agrofood = -0.4568225 \cdot meat + 0.219775 \cdot milk - 20428.37 \quad (2)$$

Fisher mezonining qiymati F = 46.01 ga teng va bu ko‘p omilli regressiya tenglamasining faqat sut qiymati P>|t| (0,058)ga teng bo‘lganligi uchun 10% darajadagi ahamiyatli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Go‘sht (tirik vazn) P>|t| (0,176) xatolik darajasi katta bo‘lgani uchun ahamiyatsiz. So‘nggi o‘n besh yil ichida kuzatilgan tendensiyani saqlab, 2025-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 27629,9 (mlrd.so‘m)ni tashkil etadi deb izohlash mumkin. Agarda go‘sht (tirik vazn) 262720,6 tonnaga va sut mahsuloti 762163,5 tonnaga teng bo‘lganda asosiy o‘zgaruvchimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yuqoridagi ta’kidlangan qiymatga erishishi interval usul asosida prognoz qilish mumkin.

Bundan tashqari savzavotlar, don va dukkatli don mahsulotlarining umumiy tonnasi yillar davomidagi o‘zgarishini tahlil qilish maqsaqga muvofiq (2-jadval; 4-rasm).

2-jadval. Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi maxsulotlari ya’ni savzavotlar, don va dukkatli don to‘g‘risidagi ma’lumotlar 2010-2024 yillarda ifodalandi.

YILLAR	Savzavotlar, don va dukkatli don mahsulotlari (tonna)
2010	758,3
2011	742,8
2012	807,8
2013	849,5
2014	885,8
2015	919,8
2016	948,2
2017	957,1
2018	919,6
2019	1135,4
2020	1215,3
2021	1128,3
2022	1121,5
2023	1185
2024	1228,8



4-rasm. Savzavotlar, don va dukkatli don mahsulotlarining ishlab chiqarilishi.

4-rasm tasviri shuni ko‘rsatadiki, 2010 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda, umuman, savzavotlar, don va dukkatli don mahsulotlarini ishlab chikarish oshgan, lekin ishlab chiqaradigan umumiy oziq-ovqat mahsulotlarini o‘sish tendensiyasi o‘rtacha darajada pasayishi kuzatilgan. Biroq savzavotlar, don va dukkatli don mahsulotlarini ishlab chiqarish eng yuqori ulushi (1228,8 ming.tonna) 2024 yilda tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich (758,3 ming.tonna) - 2010 yilda tashkil etdi.

Bugungi kunda sifatli qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarga bo‘lgan aholi ehtiyojlarining yuqori sur’atlar bilan o‘sib va tarkibining doimiy ravishda yangilanib borayotganligi, jaxon iqtisodiyotida yuz berayotgan shiddatli innovatsion jarayonlar hamda davlatlararo iqtisodiy raqobatning keskinlashuvi, o‘zgaruvchan bozor kon’yukturasiga mos keluvchi oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning samarali tuzulmasini shakllantirish va shu yo‘l orqali tarmoqda muhim tarkibiy siyosat olib borish, bugungi kunda dolzarb iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli ham ushbu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmog‘ini shakllangan ishlab chiqarish tarkibini baholash, mazkur tarkibga baho berishda undagi ulushlarning shakllanish konuniyatlarini tadqiq etish, juda muhim o‘rin tutadi hamda oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish tarkibida maqbul mutanosiblikni shakllantirish qishloq xo‘jaligida samarali tarkibiy siyosat olib borishning asosiy sharti xisoblanadi.

Agrosanoat komplekslari mamlakat iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri va respublika aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi xom-ashyolari (don, meva, sabzavot, go‘sht, sut, baliq, paxta va boshqa moyli ekinlar urug‘lari va xokazo) ni qayta ishlash asosida oziq-ovqat maxsulotlari yaratadigan oziq-ovqat sanoati iqtisodiyotning eng asosiy bo‘g‘inidir. Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari bir necha tarmoqlar va tarmoqosti sohalardan iborat. Uning tarkibiga yirik guruh (20 dan ko‘proq) tarmoqlar va tarmoqosti (60 dan ko‘proq) sohalardan tashkil topgan; ulardan asosiylari: (tarmoqda umuman ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi bo‘yicha) un, yog-moy, non pishirish, go‘sht, sut, baliq, meva – sabzavotdir va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jizzax viloyatining 42 foizi yalpi ichki mahsuloti agrosanoat kompleksi doirasida yaratiladi. Shundan iste’mol bozorining 62 foizini qishloq xo‘jalikda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi. Barcha mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa qishloq xo‘jaligining oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning samarali faoliyatiga bog‘liq, chunki mamlakat oziq-ovqat strategik zaxiralari va jamg‘armalarining deyarli 80-85 %i oziq - ovqat mahsulotlari hisobiga tashkil etiladi.

Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining yangi mahsulot turlarini va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganish xam muhimdir. Har bir kategoriya oziq-ovqat bilan bog‘liq bo‘lib, ular bir-biriga bogliqdir, chunki keng jamoatchilikka sotish va tarqatish uchun eng yaxshi mahsulotga erishish, shuningdek, yuqori sifatli mahsulotlar va oziq-ovqat ta’minotiga erishish uchun qo‘lda ishlab chiqarish kerak. Oziq-ovqat zanjiri va ta’minoti butun iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublnkasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublnkasini yanada rivojlantirish buyicha xarakatlar strategiyasi tugrisida»gi PF-4947-sonln farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Respublika aholisini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va kafolatli ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori-№866 25.10.2018
3. O‘zbekiston Respublnkasi prezidentining «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda axolini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashga doir chora tadbirlar to‘g‘risida» qarori- №4821 09.09.2020//HTTPS://LEX.UZ/DOCS/4990322
4. Lucas R. On the Mechanism of Economic Development // Journal of Monetary Economics.Vol. 22. July. P. 3-42. 1988
5. Ментюкова О.В. Анализ и эконометрическое моделирование инамических рядов /О.В. Ментюкова// Образование, наука, практика: инновационный аспект: материалов Междунар. Науч.-практ. конф., посвященной дню российской науки. - Пенза: РИО ПГСХА, 2019
6. Суханова, О. Н. Эконометрические модели как инструмент анализа в управлении экономическими системами / О. Н. Суханова, О. В. Ментюкова // Модели, системы, сети в экономике, технике, природе и обществе. – 2016. – № 1.
7. O‘zbekiston Respublnkasi Vazirlar Maxkamasining “Respublika aholisini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va kafolatli ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori-№866 25.10.2018 // www.lex.uz
8. Turobjonov C.M va boshqalar. “O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: kiskacha tarixi; rivojlanish istikbollari; muammolari” - T.: “Fan va texnologiya”, 2014
9. https://www.jizzaxstat.uz/uz/ – Jizzax viloyati statistika boshqarmasi.

O‘ZBEKISTONDA AHOLINING REAL DAROMADLARI: SHAKLLANISH OMILLARI VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Toshtemirov Shohruh Toshpo‘latovich
PhD in Economic Sciences
Tashkent State University of Economics
e-mail: sh.toshtemirov.asdp@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada aholining asosiy daromadlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar ochib berilgan, daromadlari yashash uchun mo‘ljallangan darajadan past bo‘lgan aholi tarkibi ko‘rsatkichlari keltirilgan. Statistik tahlil o‘tkazilib, aholining uzoq muddatli davridagi daromadlari darajasi va real ish haqi darajasi baholanadi.

Kalit so‘zlar: aholi daromadlari, daromadlar tarkibi, real daromadlar, jamg'armalar, moliyaviy xatti-harakatlar, jamg'arma strategiyalari, uy xo‘jaliklari.

Abstract: The article reveals the factors affecting the formation of the basic income of the population, the indicators of the population structure whose income is below the level intended for living are given. A statistical analysis is carried out and the level of income of the population in the long term and the level of real wages are evaluated.

Key words: income of the population, income structure, real income, savings, financial behavior, savings strategies, households.

Аннотация: В статье раскрываются факторы, влияющие на формирование основных доходов населения, приводятся показатели структуры населения, доходы которого ниже уровня, предназначенного для проживания. Проведён статистический анализ и оценён уровень доходов населения в долгосрочной перспективе и уровень реальной заработной платы.

Ключевые слова: доходы населения, структура доходов, реальные доходы, сбережения, финансовое поведение, сберегательные стратегии, домохозяйства.

KIRISH

Aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirish iqtisodiyotning fundamental asoslarini rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlardan biri bo‘lgani kabi, Yangi O‘zbekistonning ham iqtisodiyotni rivojlantirishdagi maqsadlari aholi daromadlarini oshirish orqali ularning iste’mol darajasini oshirishga qaratiladi. Keyingi yillarda aholi daromadlarini oshirish, qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlarini ko‘paytirish maqsadida ularga turli iqtisodiy va moliyaviy imtiyozlar ajratish, kasbga yo‘naltirish va malakasini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Aholini yuqori mehnat daromadlari bilan ta’minlash, ularning ijodiy va kasbiy o‘sishi uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ijtimoiy liftlarni shakllantirish lozim. Barcha sa’y-harakatlarimiz zamirida bitta maqsad – fuqarolarning real daromadlari va real oylik maoshlarining inflyasiya darajasiga qaraganda tezroq o‘sib borishini ta’minlash turibdi” deb, ta’kidlab o‘tgan. Shu jihatdan aholi daromadlari, ularni shakllantirish va oshirish imkoniyatlari bugungi davom etayotgan pandemiya sharoitida o‘ta dolzarbmasalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Prof. Sh.Shodmonovning fikricha “Aholi daromadlari ma’lum vaqt oralig‘ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi” [2].

A.O‘lmasov va A.Vahobovlar quyidagicha ta’rif keltirilgan: “aholi daromadlari ma’lum vaqt oralig‘ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi”[4].

X.S.Muxitdinov aholi turmush darajasini oshirish hududlarning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishiga bog‘liqligini o‘rgangan bo‘lib va aholi turmush darajasini oshirishda xizmat ko‘rsatish sohasining ahamiyatini asoslab bergan. Aholi turmush darajasi deganda, odamlarning zarur moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanganligi, ularning iste’moli va ehtiyojlari qondirilganligi darajasi tushuniladi[5].

B.K.G‘oyibnazarovning fikriga ko‘ra, nominal daromaddan farqli ravishda aholi ixtiyoridagi daromad tarkibiga faqatgina tovar va xizmatlar shaxsiy iste’moli, shuningdek, jamg‘arma uchun foydalanish mumkin bo‘lgan daromad qismigina kiritiladi [6].

Xojiyevning ta’kidlashicha, Mamlakatimizda aholining daromadlari muhim iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi, chunki u uy xo‘jaligining iste’mol ko‘lamini, uning jamg‘arma va investitsiyalar nuqtai nazaridan kelajakda kechiktirilishini belgilaydi.[7]

Rajabov N, Uralov B. larning fikrlariga ko‘ra, “Aholi daromadlari nominal va real ko‘rinishda bo‘ladi. Nominal daromadlar pul ko‘rinishida olingan daromadlardir. Real daromadlar iste’mol narxlarining indeksiga qarab tuzatilgan joriy davrdagi nominal pulli daromadlardir”[8]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Yashil iqtisodiyot rivojlanishining aholi daromadlarining o‘zgarish tendensiyalarini o‘rganishda deduksion hamda induksiya usullaridan, abstrakt-mantiqiy fikrlash usulidan tizimli tahlil qilishda foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirish uchun olingan daromadlarning butun hajmini o‘rganish iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, demografik, geografik, kasb va mavqe omillarining kompleks o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak [3]. Aholining daromadlari shakllanishiga va ularning moddiy farovonligiga ta’sir qiluvchi ko‘plab tashqi omillarni individual mehnat natijalariga, korxona faoliyati natijalariga va umuman iqtisodiyotning samaradorligiga qarab darajalarga bo‘lish mumkin.

Omillarni darajalar bo‘yicha quyidagicha guruhlash mumkin:

1) individual mehnat natijalari (shaxsiy daraja) - bu inson mehnati, uning tajribasi, ish staji, malaka darajasi, intellektual salohiyati, ijtimoiy mavqei, ta’lim darajasi, mehnat zichligi, kasblar va ish turlarining kombinatsiyasi va boshqalarning individual xususiyatlaridir;

2) korxona faoliyatining natijalari (ishlab chiqarish darajasi) - bu korxonaning o‘z faoliyati, uning joylashgan joyi, tashkiliy mulk shakli, faoliyat tarmog’i, tovar va mehnat bozoridagi o‘rni, texnik jihozlari, shartnoma munosabatlarini tuzish tizimi va boshqa omillardir;

3) iqtisodiy samaradorlik natijalari (milliy daraja) - iqtisodiy va investitsiya salohiyati, innovatsion rivojlanish holati, ijtimoiy sheriklik sohasining shakllanishi va boshqalar bilan bog’liq omillar.

O‘zbekiston aholisining daromadlari tarkibini taqqoslashning asosiy manbai statistika xizmati tomonidan hisoblangan va turli xil daromad manbalaridan pul daromadlari tarkibini va ularning rivojlanish tendentsiyalariga muvofiq ushbu daromaddan foydalanish sohalarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardir.

Aholi daromadlari - bu ma’lum vaqt davomida olingan, tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun mo‘ljallangan pul miqdori. Aholining real daromadi (ing. Real Income) - narxlarning o‘zgarishi (inflyatsiya) hisobga olingan holda, ma’lum bir davrda ixtiyoridagi daromadga sotib olinishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning bevosita miqdoriga teng qiymat.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, real daromad bugungi kunda sotib olishingiz mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar narxini boshqa davrda sotib olgan bir xil tovar va xizmatlarning narxi bilan solishtiradi.

Misol uchun, agar siz o‘tgan yilga nisbatan bir xil miqdordagi tovarlar va xizmatlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal xizmatlar va boshqalar) sotib olish uchun bu yil 5 mln.so‘mdan ko‘proq sarflagan bo‘lsangiz, lekin yillik daromadingiz o‘zgarmagan bo‘lsa, demak, sizning real daromad aslida bu mln.so‘mdan kamaydi.

Aholi daromadlarini ikki turga bo‘lib o‘rganamiz: nominal daromad va real daromad. Nominal daromad - bu shaxsning ma’lum bir davrda olgan pul miqdori. Real daromad - bu odam hozirda sotib olishi mumkin bo‘lgan narsa va nominal daromad - bu xaridlar uchun to‘lashi mumkin bo‘lgan qismi.

Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur’atlarini hisoblashda, narx omillari ta’sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko‘rsatkichlarining asosiy turlaridan biri - iste’mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi.

Statistika inspeksiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, iste’mol narxlarining o‘zgarishi sababli 2019-yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur’ati 1,5 foizni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda aholi daromadlar ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023
Aholi umumiy daromadlari hajmi (ming so‘mda)	414968,7	519181,4	633567,4	728826,1
Aholi umumiy daromadlari o‘sish sur’ati (o‘tgan yilga nisbatan foizda)	113,5	125,1	122	115
Aholi real umumiy daromadlar hajmi (ming so‘mda)	367456,6	468448,4	568527,8	662749,9
Aholi real umumiy daromadlari o‘sish sur’ati (o‘tgan yilga nisbatan foizda)	100,5	112,9	109,5	104,6
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (ming so‘mda)	12122,2	14869,8	17772,8	20015,9
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (ming so‘mda)	10734,3	13416,8	15948,3	18201,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz

Pul daromadlarini o‘rganishda iqtisodiyot tarmoqlari xodimlarining o‘rtacha oylik hisoblangan (nominal) ish haqi va real hisoblangan ish haqi muhim omil hisoblanadi.

Nominal ish haqi hisoblangan ish haqi fondini xodimlarning o‘rtacha soniga bo‘lish yo‘li bilan, real hisoblangan ish haqi esa joriy davrdagi nominal ish haqini soliqlar va boshqa ajratmalarsiz iste’mol narxlari indeksiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Nominal ish haqi inflyatsiyani hisobga olmagan holda faqat ushbu ko‘rsatkichning hajmini ko‘rsatganligi sababli, iste’mol narxlari indeksi (CPI) asosida mamlakatdagi ish haqi holatini aniqroq tavsiflash uchun biz real ish haqini, shuningdek nominal va real ish haqini hisoblaymiz. 2023-yilda aholining real umumiy daromadi, statistika organlarining ma’lumotlariga ko‘ra, 18201,2 ming so‘mni tashkil etdi, bu AQSh dollari kursi bo‘yicha 145 dollarni tashkil etdi, bu esa 2020-yildan boshlab real daromadlar asta-sekin o‘sib bormoqda inflyatsiya darajasi, bu esa aholi farovonligi darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq, 2023-yil oxirida valyuta bozorida xorijiy valyuta kurslarining o‘sishi va milliy valyuta barqarorligining pasayishi tufayli ishchilarning o‘rtacha real ish haqi atigi 527 dollarni tashkil etadi, bu ish haqi barqarorligining pasayishidan dalolat beradi.

2018-2020-yillarda aholi turmush darajasini bosqichma-bosqich oshirildi:

- davlat sektori xodimlarining ish haqining oshishi tufayli;
- pensionerlarga pensiya va kompensatsiya to‘lovlarini indeksatsiya qilish;
- korxonalarning moliyaviy holatini yaxshilash, bu ularning xodimlarining ish haqini oshirish qobiliyatini oshirdi;
- xorijga chiquvchilarga keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, investitsion muhit va tashqi iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash barcha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga va natijada aholining moliyaviy ahvoliga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 2018-2020-yillar davomida real pul daromadlari, ish haqi va pensiyalarning o‘sishi kuzatildi, ularning sur’ati iste’mol narxlari o‘sishidan yuqori bo‘ldi, bu esa inqiroz yillariga nisbatan ushbu ko‘rsatkichlarning sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2018-yildan boshlab aholining real daromadlari oshib bormoqda, mamlakatimizning milliy iqtisodiyotining ko‘plab sohalari va tarmoqlarida ishchilarning ish haqi darajasi oshgan. Shu sababli, jamg’arma strategiyalari aholining ko‘p toifalarigaga kirib bordi, chunki mablag’larni yashash va xizmatlar uchun to‘lashdan ortiqcha qismi vujudga keldi.

Jamg’arma strategiyasini tanlashga nafaqat oilaning moliyaviy ahvoli (joriy daromad darajasi, jamg’armalar miqdori, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarning mavjudligi), iqtisodiy vaziyat (investitsiya muhiti, moliyaviy inqiroz), balki boshqa bir qator omillar: ijtimoiy, psixologik ham ta’sir qiladi. [9]

Aholining pul daromadlari asosan turli maqsadlarda taqsimlanadi. Uy xo‘jaliklari xarajatlarini tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, xarajatlarning muddatlari nuqtai nazaridan uchta asosiy guruh mavjud:

1) qisqa muddatli xarajatlar - zarur oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar uchun to‘lovlar, majburiy kommunal to‘lovlar, soliqlar va yig’imlar uchun xarajatlar;

2) o‘rta muddatli xarajatlar - vaqti-vaqti bilan sotib olinadigan tovarlar (kiyim-kechak, poyabzal), qimmatbaho xizmatlar, shuningdek, muntazam ravishda emas, balki individual operatsiyalar va yuridik harakatlarni amalga oshirishda to‘lanadigan bir qator soliqlar uchun xarajatlar;

3) uzoq muddatli xarajatlar - bir necha yilda bir marta amalga oshiriladigan xarajatlar: ko‘chmas mulk, mebel, transport vositalari va boshqalarni sotib olish.

Aholining jamg‘arma salohiyatini yanada chuqurroq va har tomonlama tahlil qilish uchun uy xo‘jaliklarining tanlanma budjet tekshiruvlari o‘tkazilib, ular aholi daromadlari va iste’mol xarajatlari tarkibi to‘g‘risida statistik ma’lumotlarning muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bunday so‘rovlar uy xo‘jaliklarining moddiy farovonlik darajasi, ularning tarkibi va daromad manbalari o‘rtasidagi bog’liqlikni aniqlash imkonini beradi. Olingan ma’lumotlar aholining iste’molchi xulq-atvorini o‘rganish, iste’mol darajalari, daromadlar, narxlar, jamg’armalar va boshqalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

2023-yilda Iqtisodiyotda talabni shakllantiruvchi omillar (talab omili) sifatida – aholining umumiy daromadlari 16-17 foizga o‘sishi natijasida iste’mol 7,2 foizga oshishi kutilayotganligini aytish mumkin. Aholi daromadlari asosan, o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi miqdorining 18-20 foizga va iqtisodiyot tarmoqlarining qo‘shilgan qiymatining 5,6 foizga o‘sishi hamda pul o‘tkazmalari hajmi o‘sishi bazaviy trend doirasida qolishi hisobiga erishiladi. 2023-yilning 9 oyida aholi umumiy daromadlari 14,3 foizga, o‘rtacha ish haqi 18,1 foizga oshib, pul o‘tkazmalari 8,4 mlrd AQSh dollarni tashkil etdi. Bu o‘z navbatida chakana savdo aylanmasini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7 foizga oshishiga olib kelib, dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra 9 oylikda uy xo‘jaliklari iste’moli 6,5-7 foizga o‘sishi baholanmoqda. [11]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholining real daromadlarin ularning sotib olish qobiliyati bilan belgilanadi. Aholi real daromadlari kategoriyasini yirik tushuncha bo‘lib, unda aholi tomonidan olinayotgan har qanday ko‘rinishdagi moddiy qiymatliklarni miqdor jihatidan ko‘rib chiqishimiz kerak bo‘ladi. Mana shu jihatdan turli iqtisodchi olimlar tomonidan bu to‘g‘risidagi turlicha nazariyalar mavjud bo‘lib, ularning har bir o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’rif berilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining real daromadlarining oshirishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi, aholining turmush farovonligini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Aholining pul daromadlari taqsimlanish jihatidan turlarga bo‘lib o‘rganilganda ularni uchta asosiy guruhlari mavjud: qisqa muddatli xarajatlar, o‘rta muddatli xarajatlar va uzoq muddatli xarajatlar. Ushbu xarajatlarning amalga oshirilishi jihatidan ular real daromadning o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti DUK, 2021. 630 bet.
3. Otaboev F.O. A study on capital investments and economic growth of Uzbekistan // Asian Journal of Research in Business Economics and Management. ISSN: 2249- 7307 Vol. 12, Issue 5, May 2022, pages 42-48. DOI: 10.5958/2249-7307.2022.00052.4.7307.
4. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2014.
5. Muxiddinov X.S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. Monografiya. T.: “FAN”, 2009. 12 b.
6. G‘oyibnazarov B.K., Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari daromadlari va xarajatlarining statistik tahlili. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2018. № 3, may-iyun, 5-b.
7. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/07/20/aholi-daromadlarining-tarkibiga-soliqning-ta-siri/
8. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2293/2390
9. Xajiev, B., Yusupov, R., Sharipov, Q., & Otaboev, F. (2020). GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT. The archive of scientific research. 1 (10). 2020. https://scholar.google.com/scholar?cluster=7646407432718170493&hl=ru&as_sdt=2005&sciodt=0,5. 169 б.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz
11. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари. https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026_u7oVHcU.pdf

XALQARO MOLIYAVIY INSTITUTLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIR

Xakimov Zoxid Norbo'tayevich
Mustaqil tadqiqotchi
Email: zohidshoh@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada xalqaro moliyaviy institutlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri, ularning moliyaviy va texnik ko'magi orqali amalga oshirilayotgan islohotlar hamda milliy iqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Xususan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) kabi yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlarning O'zbekiston bilan hamkorlik yo'nalishlari, ularning dasturiy faoliyati, kredit siyosati, grant va investitsion kafolat mexanizmlari o'rganilgan.

Maqolada O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlashda xalqaro moliyaviy institutlarning roli, ularning energetika, infratuzilma, transport, qishloq xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida amalga oshirayotgan loyihalari misolida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, tashqi qarzning barqarorligini ta'minlash, xususiy sektorni rivojlantirish hamda mahalliy boshqaruv salohiyatini oshirish masalalari atroflicha yoritiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro moliyaviy institutlar O'zbekiston iqtisodiyotida ijobiy strukturaviy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda, xususan, investitsion muhitni yaxshilash, byudjet barqarorligini mustahkamlash, moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish va xalqaro standartlarni joriy etishda muhim o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, ayrim muammolar – qarz yukining ortishi, byurokratik to'siqlar va loyiha samaradorligi nazoratining sustligi – mavjudligi qayd etiladi.

Maqolada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni strategik asosda rivojlantirish, moliyaviy monitoring tizimini kuchaytirish, shaffoflikni ta'minlash va mahalliy kadrlarning xalqaro moliyaviy boshqaruvdagi salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Umuman olganda, maqola O'zbekistonning global moliyaviy tizimdagi o'rni, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik natijasida erishilayotgan iqtisodiy yutuqlar va istiqbolli yo'nalishlarni tahliliy jihatdan yoritadi hamda mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro moliyaviy institutlar, O'zbekiston iqtisodiyoti, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, investitsiya, iqtisodiy barqarorlik, tashqi qarz, moliyaviy islohotlar.

Abstract: This scientific article analyzes the impact of international financial institutions on Uzbekistan's economy, emphasizing their financial and technical assistance in supporting ongoing reforms and contributing to national economic stability. In particular, it examines the cooperation directions, program activities, credit policies, and investment guarantee mechanisms of major institutions such as the World Bank, the International Monetary Fund (IMF), the Asian Development Bank (ADB), the European Bank for Reconstruction and Development (EBRD), and the Islamic Development Bank (IsDB).

The article studies the role of international financial institutions in supporting Uzbekistan's economic growth through projects in energy, infrastructure, transport, agriculture, education, and healthcare. It also highlights issues related to the efficient use of international financial resources, ensuring external debt sustainability, developing the private sector, and strengthening local governance capacity.

According to the research findings, international financial institutions have contributed to positive structural changes in Uzbekistan's economy by improving the investment climate, strengthening fiscal stability, advancing financial management digitalization, and implementing international standards. However, certain challenges remain, including the increasing debt burden, bureaucratic barriers, and weak project performance monitoring.

The proposed recommendations aim to further develop strategic cooperation with international financial institutions, enhance financial monitoring systems, improve transparency, and strengthen the capacity of local specialists in international financial management. Overall, the article provides an analytical assessment of Uzbekistan's position in the global financial system, the economic achievements attained through international partnerships, and future prospects for sustainable development.

Key words: international financial institutions, Uzbekistan's economy, World Bank, International Monetary Fund, Asian Development Bank, European Bank for Reconstruction and Development, investment, economic stability, external debt, financial reforms.

Аннотация: В данной научной статье анализируется влияние международных финансовых институтов на экономику Узбекистана, а также их вклад в проведение реформ и обеспечение экономической стабильности страны посредством финансовой и технической поддержки. Особое внимание уделено направлениям сотрудничества, программной деятельности, кредитной политике и механизмам инвестиционных гарантий таких организаций, как Всемирный банк, Международный валютный фонд (МВФ), Азиатский банк развития (АБР), Европейский банк реконструкции и развития (ЕБРР) и Исламский банк развития (ИБР).

В статье рассматривается роль международных финансовых институтов в поддержке экономического роста Узбекистана на примере реализуемых проектов в сфере энергетики, инфраструктуры, транспорта, сельского хозяйства, образования и здравоохранения. Также освещаются вопросы эффективного использования международных финансовых ресурсов, обеспечения устойчивости внешнего долга, развития частного сектора и укрепления потенциала местного управления.

Результаты исследования показывают, что международные финансовые институты способствуют позитивным структурным изменениям в экономике Узбекистана, улучшая инвестиционный климат, укрепляя бюджетную стабильность, внедряя цифровое управление финансами и международные стандарты. Вместе с тем отмечаются существующие проблемы — рост долговой нагрузки, бюрократические барьеры и недостаточный контроль эффективности проектов.

Предложенные в статье рекомендации направлены на стратегическое развитие сотрудничества с международными финансовыми институтами, усиление системы финансового мониторинга, обеспечение прозрачности и повышение потенциала местных кадров в сфере международного финансового управления. В целом статья дает аналитическую оценку роли Узбекистана в глобальной финансовой системе, достигнутым экономическим успехам и перспективным направлениям устойчивого развития.

Ключевые слова: международные финансовые институты, экономика Узбекистана, Всемирный банк, Международный валютный фонд, Азиатский банк развития, Европейский банк реконструкции и развития, инвестиции, экономическая стабильность, внешний долг, финансовые реформы.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi jadal iqtisodiy islohotlar yo‘lini tanlab, ochiq bozor iqtisodiyotiga o‘tish, investitsiyalarni jalb etish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu jarayonda xalqaro moliyaviy institutlar — Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) hamda boshqa tashkilotlarning roli beqiyosdir.

Mazkur institutlar O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida, xususan, energetika, infratuzilma, transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash va bank-moliya tizimini modernizatsiya qilishda faol ishtirok etib kelmoqda. Ular tomonidan mamlakatga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, grantlar, texnik yordam va investitsiya kafolatlari iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish hamda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro moliyaviy institutlarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’sirini o‘rganish bugungi kunda dolzarb bo‘lib, bu masala mamlakatning global iqtisodiy tizimga integratsiyasi, moliyaviy barqarorlik siyosati va milliy taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Asosiy qism

Xalqaro moliyaviy institutlar — bu davlatlararo tashkilotlardir, ular rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, kambag‘allikni kamaytirish va moliyaviy tizimni mustahkamlash maqsadida kredit, grant va texnik yordam shaklida resurslar ajratadi.

Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish;
– makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash;
– xalqaro savdoni kengaytirish;
– islohotlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;
– xususiy sektorga investitsiya kiritish uchun qulay muhit yaratish.

O‘zbekiston ushbu institutlar bilan 1990-yillardan boshlab hamkorlik qilib keladi. Bugungi kunda mamlakatda xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokida amalga oshirilayotgan 500 dan ortiq loyiha mavjud bo‘lib, ularning umumiy qiymati 25 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etadi.

O‘zbekiston va xalqaro moliyaviy institutlar hamkorligining asosiy yo‘nalishlari.

Jahon banki guruhi (World Bank Group). Jahon banki O‘zbekistonning eng yirik moliyaviy hamkorlaridan biridir. Bank tomonidan mamlakatda ta’lim, sog‘liqni saqlash, energetika, suv ta’minoti va qishloq xo‘jaligi sohalarida qator yirik loyihalar amalga oshirilgan. Masalan, “Qishloq joylarda ichimlik suvi ta’minoti tizimini

yaxshilash”, “Elektr energetika sohasini isloh qilish”, “Kambag‘allikka qarshi kurash dasturi” kabi loyihalar ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB)

OTB O‘zbekiston bilan hamkorlikda infratuzilma, transport va raqamli iqtisodiyot yo‘nalishida faol ishlamoqda. 2023 yilda bank tomonidan 1,2 milliard dollarlik yangi moliyaviy paket tasdiqlangan. Bu loyihalar jumlasiga Toshkent–Andijon avtomobil yo‘lini rekonstruksiya qilish, yashil energetikani rivojlantirish va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi kiradi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ). Asosan makroiqtisodiy siyosat, fiskal barqarorlik va pul-kredit siyosatini takomillashtirish bo‘yicha maslahatlar beradi. U O‘zbekiston hukumati bilan har yili “Article IV Consultation” doirasida mamlakat iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholaydi va islohotlar bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB)

YTTB O‘zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirish, bank tizimini modernizatsiya qilish va yashil iqtisodiyotga o‘tishni moliyalashtirishda yetakchi o‘rinda turadi. 2022 yilda O‘zbekiston YTTB portfelida eng faol davlatlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Xalqaro moliyaviy institutlar faoliyatining ijobiy ta’siri

• Investitsion muhit yaxshilandi. YTTB va Jahon banki ishtirokida investitsion qonunchilik liberallashtirildi.

• Infratuzilma modernizatsiya qilindi. OTB va ITB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar orqali yangi yo‘llar, elektr tarmoqlari, suv inshootlari qurildi.

• Makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlandi. XVJning texnik maslahatlari natijasida budjet siyosati va inflyatsiya nazorati yaxshilandi.

• Raqamli iqtisodiyot va xususiy sektor rivojlanmoqda. YTTB tomonidan kichik biznes va “startap”larni qo‘llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishida xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlikni yanada samarali yo‘lga qo‘yish va xalqaro resurslardan oqilona foydalanish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar tizimi

№	Takliflar	Asoslari	Vazifalari
1.	Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni strategik asosda boshqarish	Har bir xalqaro moliyaviy loyiha mamlakatning uzoq muddatli **milliy rivojlanish strategiyasi** va **“O‘zbekiston – 2030”** konsepsiyasiga muvofiq tanlanishi zarur. Amaldagi holatda ayrim loyihalar qisqa muddatli moliyaviy yordam yoki texnik ko‘mak sifatida qaralmoqda, biroq ularning makroiqtisodiy ta’siri yetarlicha baholanmayapti. Shu sababli, **“Xalqaro moliyaviy hamkorlik strategik kengashi”** kabi maxsus muvofiqlashtiruvchi organ tashkil etish tavsiya etiladi. Bu kengash barcha xalqaro moliyaviy bitimlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini dastlabki bosqichda tahlil qilib, milliy ustuvorliklar bilan mosligini ta’minlashi lozim.	
2.	**Milliy moliyaviy barqarorlik monitoring tizimini yaratish**	O‘zbekiston xalqaro kredit va grantlardan faol foydalanayotgan davlatlar sirasiga kiradi. Shu bois, **xorijiy moliyaviy majburiyatlarning barqaror darajada saqlanishi** mamlakat iqtisodiy xavfsizligi uchun muhimdir. Bu maqsadda “Milliy moliyaviy barqarorlik monitoring tizimi”ni yaratish zarur. Mazkur tizim xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishini, kreditlarning qaytarilish muddatlarini, foiz to‘lovlarini va loyihalarning iqtisodiy samaradorligini onlayn tarzda kuzatib boradi. Shuningdek, tizim yordamida **davlat qarzi limitlarini prognozlash, qarz portfelining risk tahlili va mablag‘larning ijtimoiy ta’sirini baholash** imkoniyatlari kengayadi.	

3.	Mahalliy kadrlarning salohiyatini oshirish	Xalqaro moliyaviy institutlar bilan ishlashda muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri – **yuqori malakali kadrlar**ning mavjudligidir. Ko‘plab xalqaro loyihalarda xorijiy maslahatchilar va ekspertlar ishtirok etadi, ammo mahalliy mutaxassislar ulardan yetarli darajada tajriba to‘plamayapti. Shu bois, **moliyaviy boshqaruv, xalqaro hisobdorlik, grantlar monitoringi, investitsion tahlil** yo‘nalishlarida doimiy **malaka oshirish markazlari**ni tashkil etish zarur. Bu markazlarda xalqaro institutlar bilan hamkorlikda o‘quv dasturlari, qisqa muddatli kurslar va amaliyot dasturlari yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, yosh mutaxassislar uchun xalqaro stajirovkalar tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.	
4.	Raqamli nazorat tizimini joriy etish	Zamonaviy sh=aroitda xalqaro moliyaviy loyihalarni boshqarish jarayonida **shaffoflik va javobgarlik** asosiy talab hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, “Raqamli moliyaviy nazorat platformasi” ni joriy etish taklif etiladi. Mazkur platforma orqali barcha xalqaro kredit va grantlar bo‘yicha ma’lumotlar yagona elektron bazada saqlanadi. Unga Markaziy bank, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, shuningdek, xalqaro hamkor tashkilotlar kirish huquqiga ega bo‘ladi.	Platforma yordamida: 1. loyihalarning moliyaviy holati real vaqt rejimida kuzatiladi; 2. mablag‘larning sarfi va natijalari bo‘yicha ochiq hisobotlar shakllanadi; 3. fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqlik ta’minlanadi. Bu nafaqat korrupsiya va byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi, balki xalqaro hamkorlarning O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi.
5.	Xalqaro tajriba asosida “Milliy taraqqiyot banki”ni shakllantirish	Xalqaro moliyaviy institutlar bilan o‘zaro aloqalarni samarali boshqarish uchun “Milliy taraqqiyot banki” ni tashkil etish dolzarbdir. Ushbu bank YTTB yoki Koreya Taraqqiyot banki modeliga o‘xshash tarzda faoliyat yuritib, xalqaro hamkorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy aloqalarni amalga oshiruvchi markaziy tuzilma vazifasini bajaradi.	Bankning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi: 1. loyihalarning moliyaviy holati real vaqt rejimida kuzatiladi; 2. mablag‘larning sarfi va natijalari bo‘yicha ochiq hisobotlar shakllanadi; 3. fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqlik ta’minlanadi. Bu nafaqat korrupsiya va byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi, balki xalqaro hamkorlarning O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi.
6.	**Kredit siyosatini optimallashtirish va risklarni boshqarish**	O‘zbekiston xalqaro moliyaviy institutlar bilan faol hamkorlik qilgani sari tashqi qarz hajmi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Shu bois, qarzning **samaradorlik ko‘rsatkichlari, foiz to‘lovlarining nisbiy yuklamasi va qaytarilish grafigi** asosida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarur. Moliya vazirligi huzurida **“Tashqi qarzlarni boshqarish markazi”** tashkil etilib, xalqaro moliyaviy institutlar bilan tuzilayotgan bitimlarni mustaqil ekspertizadan o‘tkazishi, risk baholashini amalga oshirishi lozim.	

7.	Xalqaro hamkorlikning ijtimoiy ta’sirini baholash tizimini joriy etish	Xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokidagi loyihalarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik natijalarini baholovchi milliy tizim yaratilishi muhim. Har bir yirik loyiha amalga oshirilgach, u aholi bandligi, gender tengligi, ekologik xavfsizlik va hududiy rivojlanishga qanday ta’sir ko‘rsatgani haqida ochiq hisobot taqdim etilishi kerak. Bu yondashuv xalqaro donorlar bilan hamkorlikda O‘zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) mos natijalar ko‘rsatkichlarini shakllantirishga imkon beradi.	

O‘zbekiston iqtisodiyotiga xalqaro moliyaviy institutlarning ta’sirini yanada samarali va barqaror yo‘nalishda rivojlantirish uchun bir qator institutsional, tashkiliy va raqamli islohotlarni amalga oshirish zarur. Quyidagi taklif va tavsiyalar ushbu yo‘nalishda tizimli yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston ko‘plab xalqaro moliyaviy institutlar — Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) hamda Islom taraqqiyot banki (IsDB) bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Biroq bu hamkorlik ayrim hollarda fragmentar xarakterga ega bo‘lib, milliy strategik maqsadlar bilan to‘liq integratsiyalashmagan. Shu bois har bir xalqaro loyiha mamlakatning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va Yalpi ichki mahsulotni diversifikatsiya qilish maqsadlariga mos ravishda tanlanishi lozim. Shu orqali tashqi moliyaviy manbalar milliy iqtisodiy ustuvorliklarga xizmat qiladigan yagona tizimga aylanishi mumkin.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan samarali ishlash uchun yuqori malakali iqtisodchilar, moliyachilar, loyihani boshqaruv mutaxassislari va muzokarachi kadrlar zarur. Shu maqsadda xalqaro moliyaviy boshqaruv bo‘yicha maxsus o‘quv markazlari tashkil etilishi lozim. Bu markazlar Jahon banki akademiyasi, OTB yoki YeTTB hamkorligida faoliyat yuritib, mahalliy mutaxassislarga xalqaro standartlar asosida treninglar o‘tkazadi. Natijada O‘zbekiston xalqaro moliyaviy bozorlarida mustaqil muzokarachi va tahlilchi sifatida faol ishtirok etadigan kadrlar zaxirasiga ega bo‘ladi. Bugungi kunda xalqaro moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonida ochiqlik va samaradorlik muammolari saqlanib qolmoqda. Shu bois barcha xalqaro loyihalar uchun raqamli shaffoflik platformasi joriy etilishi zarur. Ushbu tizim har bir loyiha bo‘yicha mablag‘lar manbai, sarf yo‘nalishlari, bajarilish holati va iqtisodiy natijalarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beradi. Bu nafaqat xalqaro hamkorlar ishonchini oshiradi, balki ichki davlat moliya nazoratining samaradorligini ham kuchaytiradi.

Ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro moliyaviy hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi maxsus banklar mavjud. Masalan, Janubiy Koreya taraqqiyot banki yoki Malayziya taraqqiyot korporatsiyasi bu borada muvaffaqiyatli tajriba sifatida tanilgan. Shu asosda O‘zbekistonda ham “Milliy taraqqiyot banki”ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu bank xalqaro kreditlar, grantlar va investitsiyalarni yagona markaz orqali boshqarib, ularni milliy infratuzilma, energetika va ijtimoiy soha loyihalariga yo‘naltirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro moliyaviy institutlarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri juda keng ko‘lamli bo‘lib, ular mamlakatning moliyaviy tizimini barqarorlashtirish, iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash va infratuzilmani rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, qarz siyosatini muvozanatli yuritish va mahalliy boshqaruv salohiyatini oshirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik nafaqat tashqi mablag‘larni jalb etish vositasi, balki mamlakatda institutsional islohotlarni jadallashtiruvchi omil sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ularning texnik yordam dasturlari orqali davlat boshqaruvi tizimi, soliq siyosati, bank sektoridagi islohotlar va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy resurslarning ortib borishi tashqi qarz yukining oshish xavfini ham yuzaga keltirmoqda, bu esa milliy moliyaviy barqarorlikni doimiy nazorat qilish zaruratini taqozo etadi.

Mazkur jarayonlarni samarali boshqarish uchun O‘zbekistonning xalqaro moliya bozoridagi ishtiroki strategik, tizimli va prognozli yondashuv asosida shakllanishi lozim. Xalqaro hamkorlikni milliy rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish, har bir loyiha bo‘yicha iqtisodiy qaytim va ijtimoiy ta’sirni baholash mexanizmini kuchaytirish muhimdir. Shu bilan birga, xorijiy moliyaviy institutlar bilan muzokaralarda mahalliy ekspertlarning salohiyatini oshirish, raqamli monitoring tizimini joriy etish va shaffoflikni ta’minlash mamlakat manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida “Milliy taraqqiyot banki” yoki “Investitsion hamkorlik agentligi” kabi muvofiqlashtiruvchi institutni shakllantirish O‘zbekiston uchun dolzarb masalalardan biridir. Bu orqali xalqaro kredit va grant oqimlari yagona moliyaviy markaz orqali boshqarilib, ularning maqsadli ishlatilishi va qaytarilish darajasi ustidan real nazorat o‘rnatiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik O‘zbekiston iqtisodiy modernizatsiyasi jarayonining muhim omillaridan biridir. Ammo ushbu hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun milliy moliyaviy mustaqillikni ta’minlash, iqtisodiy xavfsizlikni muvozanatda ushlab turish, va xalqaro shartnomalar ustidan strategik boshqaruvni takomillashtirish talab etiladi. Shundagina xalqaro moliyaviy hamkorlik mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi barqaror rivojlanish mexanizmiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asian Development Bank. (2023). *Asian Development Outlook 2023: Building Resilient Economies.* Manila: ADB.
2. European Bank for Reconstruction and Development. (2022). *Transition Report 2022–23: Business Unusual.* London: EBRD.
3. International Monetary Fund. (2023). *Uzbekistan: 2023 Article IV Consultation Report.* Washington, DC: IMF.
4. International Finance Corporation. (2021). *Creating Markets in Uzbekistan.* Washington, DC: World Bank Group.
5. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Macroeconomic Indicators and Investment Reports.* Tashkent.
6. United Nations Conference on Trade and Development. (2023). *World Investment Report 2023.* Geneva: UNCTAD.
7. World Bank. (2022). *Uzbekistan Country Partnership Framework 2022–2026.* Washington, DC: World Bank.
8. Yuldasheva, M. B. (2021). Xalqaro moliyaviy institutlar faoliyatining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri. *Iqtisodiyot va moliya*, 3(1), 34–41.

AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI NAZARIY ASOSLARI VA UNDA DAVLATNING MOLIYAVIY SIYOSATI

Xolmatova Dilafruzxon Maxsudjon qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada aholi turmush farovonligining nazariy asoslari, uning iqtisodiy mazmuni va ijtimoiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Turmush darajasini belgilovchi asosiy omillar — daromadlar, iste’mol, bandlik, ijtimoiy xizmatlar sifati va ularning hududlar bo‘yicha nomutanosibligi o‘rganiladi. Shuningdek, davlatning moliyaviy siyosati orqali farovonlikni oshirish mexanizmlari, jumladan, budjet siyosati, ijtimoiy transferlar, soliqqa oid imtiyozlar hamda ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirish masalalari yoritiladi. Maqolada iqtisodiy o‘sish va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinib, aholining real daromadlarini oshirishda davlat moliyaviy siyosatining samarali yo‘nalishlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari farovonlik darajasini oshirishda kompleks yondashuv va samarali budjet taqsimotining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: turmush farovonligi, moliyaviy siyosat, budjet, real daromad, ijtimoiy transferlar, iqtisodiy o‘sish, barqarorlik, davlat xarajatlari, bandlik.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of living standards, their economic meaning, and key social indicators. It examines the main determinants of well-being such as income, consumption, employment, quality of social services, and regional disparities. The study also explores how the state’s financial policy contributes to improving welfare through budget redistribution, social transfers, tax incentives, and financing of social infrastructure. The interrelation between economic growth and financial stability is investigated, emphasizing the importance of effective fiscal management in increasing the real incomes of the population. The results demonstrate that integrated financial policy and efficient budget allocation play a decisive role in raising living standards and ensuring sustainable development.

Key words: living standards, financial policy, budget, real income, social transfers, economic growth, stability, public expenditure, employment.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются теоретические основы уровня жизни населения, его экономическое содержание и социальные показатели. Анализируются ключевые факторы, определяющие благосостояние граждан — доходы, потребление, занятость, качество социальных услуг и региональные различия. Особое внимание уделено роли финансовой политики государства в повышении уровня жизни посредством бюджетного перераспределения, социальных трансфертов, налоговых льгот и финансирования социальной инфраструктуры. В статье исследуется взаимосвязь между экономическим ростом и финансовой стабильностью, а также обосновываются эффективные направления государственной финансовой политики по увеличению реальных доходов населения. Результаты исследования подтверждают, что комплексный подход и рациональное распределение бюджетных ресурсов являются ключевыми факторами повышения благосостояния общества.

Ключевые слова: благосостояние населения, финансовая политика, бюджет, реальные доходы, социальные трансферты, экономический рост, стабильность, государственные расходы, занятость.

Mamlakatda iqtisodiy farovonlikni ta’minlash ko‘p jihatdan aholining turmush farovonligini barqarorlashtirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy siyosatning tub asosi bo‘lgan ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya bo‘g‘inlari aholi turmush farovonligining turli jihatlarini ta’minlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Aholi turmush farovonligini ta’minlashda turli iqtisodiy maktab vakillari turlicha yondashuvlarni bayon qilishgan.

Klassik maktab vakillarining aksariyat qismi aholi turmush farovonligini ta’minlab beruvchi omillarning asosiy ko‘rsatkichi sifatida aholi daromadlarini ko‘rsatishgan. Daromadning yuqori bo‘lishi turmush farovonligini ta’minlashning mukammal darajada shakllantirib beradi degan g‘oya ilgari surilgan. XXI asrga kelib esa insonlarning o‘zlari istagandek yashashlari uchun daromad omilining o‘zi yetarli emasligi ko‘zga tashlana boshladi. Bular sirasiga ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarning takomillashtirilishi va hayot omillari sirasiga jadal kirib kelishi bilan turmush farovonligiga nisbatan yondashuvlar ham o‘zgarmoqda.

Aholi turmush farovonligi nafaqat zamon nuqtayi nazaridan, balki makon nuqtayi nazaridan ham turli xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’kidlash lozim. Rivojlangan davlat bilan rivojlanayotgan davlatlarning hayot farovonligini ko‘rsatkichlari o‘zaro farq qilishini ta’kidlash lozim. Umuman olganda, hayot farovonligi, aholi daromadlariga nisbatan xalqaro mezonlar turli xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsada, mahalliy mezonlar ulardan ayrim jihatlari bilan farqlanishi mumkin.

Bunda xalqaro standartlar o‘rtacha ko‘rsatkich sifatida ham aks etishi mumkin. Turmush farovonligini belgilab beruvchi monetar omillarning rivojlanishi bilan birga, nomonetar omillarining ham vujudga kelishi aynan xususiy va umumiy ko‘rsatkichlar tizimining shakllanishiga olib keldi.

Fikrimizcha, aholi turmush farovonligini belgilash aholi daromadlariga asoslangan yondashuv bilan shakllanishi monetar omillarning kengayishiga imkoniyat berdi. Shuningdek, nomonetar omillar esa turmush farovonligini ta’minlashda daromadlarning o‘zi yetarli emasligini namoyon qilmoqda. Bu borada insonlarning mehnat qilishdan bo‘sh vaqtlarining ham inobatga olinishini ta’kidlash lozim. Shu nuqtayi nazardan, aholi turmush farovonligini aniqlash, uni baholashda xususiy va umumiy omillarni inobatga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jon Brum o‘zining tadqiqotlarida aholi turmush farovonligi iqtisodiyotiga bog‘liq bo‘lgan kategoriyalarni tizimlashtirib beradi[1]. Jumladan, aholining son jihatidan ko‘payishi farovonlikni ta’minlamasligi, ushbu jarayon tabiiy jarayon ekanligini qayd etib o‘tadi. Turmush farovonligi nazariyasining o‘rtacha utilitarianizm (har qanday holda ham individning farvonligini ta’minlash), relativistik utilitarianizm va kritik utilitarianizm kabi shakllarini o‘rganadi. Unga ko‘ra, kritik utilitarianizm turmush farovonligini ta’minlashda asosiy nazariya sifatida ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Oksford universiteti professorlari Sudxir Anand va Kristofer Xarris o‘zlarining tadqiqotlarida Shri-Lanka davlatida aholi turmush farovonligi tendensiyalarini o‘rganadi[2]. Unga ko‘ra, oila kishi boshiga o‘rtacha daromad, oila kishi boshiga o‘rtacha xarajat, oila kishi boshiga oziq-ovqat o‘rtacha xarajatlari, oila o‘rtacha kaloriya iste’moli va oziq-ovqat xarajatlarining ulushi kabi ko‘rsatkichlardan foydalangan holda aholi turmush farovonligini belgilab beruvchi ilmiy xulosalarni shakllantirib berishadi. Ularning fikricha, aholi daromadlari o‘z xarajatlarini qoplamagan hollarda qarz olish tendensiyalari kuchayishida salbiy tendensiyalar ko‘rsatib beriladi, shuningdek aholi jamg‘arish imkoniyatlari ko‘p jihatdan makroiqtisodiy barqarorlikka bog‘liq ekanligini asoslab berishadi.

Umuman olganda, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan ijtimoiy yordam ko‘rsatish jarayonlari ommaviy reklama qilinmasligi sababli u to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish mexanizmlari ham samarali tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Odatda ko‘plab oilalar davlatning ijtimoiy dasturlari to‘g‘risida tanishlar, qo‘shnilar yoki vakolatli organ xodimlaridan norasmiy ma’lumotlarni olishga va shunga rioya qilishga harakat qilishadi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaga zarurati bor oilalar uni olish uchun ariza topshirishga ham qiynalishadi. Buning asosiy sabablaridan biri bunday vaziyatga tushganlarini oshkor qilmaslikka intilishlari bilan izohlash mumkin.

Fikrimizcha, aholi turmush farovonligini ta’minlashda dastlab ijtimoiy sohani rivojlantirish choralari ko‘rish, uning kamchiliklarini to‘ldirish uchun esa ijtimoiy himoya elementlarini samarali joriy etish muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy sohaning murakkabliklari jihatidan vujudga keladigan ijtimoiy qiyinchiliklarni tizimlashtirish, unga mos ravishda ijtimoiy himoyani moliyalashtirishda davlatning moliyaviy siyosatini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. John Broome, The welfare economics of population, Oxford Economic Papers, Volume 48, Issue 2, April 1996, Pages 177–193, https://doi.org/10.1093/oxfordjournals.oep.a028564
2. Anand, S., & Harris, C. J. (1994). Choosing a Welfare Indicator. The American Economic Review, 84(2), 226–231. http://www.jstor.org/stable/2117834
3. A simple overview of China’s basic medical insurance system. https://www.melchers-china.com/posts/a-simple-overview-of-chinas-basic-medical-insurance-system/
4. Aigner, D. J., & Heins, A. J. (1967). A social welfare view of the measurement of income equality. Review of Income and Wealth, 13(1), 12–25. doi:10.1111/j.1475-4991.1967.tb00732.x
5. Anand, S., & Harris, C. J. (1994). Choosing a Welfare Indicator. The American Economic Review, 84(2), 226–231. http://www.jstor.org/stable/2117834
6. Atkinson, A. B. (1970). On the measurement of inequality. Journal of Economic Theory, 2(3), 244–263. doi:10.1016/0022-0531(70)90039-6

1 John Broome, The welfare economics of population, Oxford Economic Papers, Volume 48, Issue 2, April 1996, Pages 177–193, https://doi.org/10.1093/oxfordjournals.oep.a028564

2 Anand, S., & Harris, C. J. (1994). Choosing a Welfare Indicator. The American Economic Review, 84(2), 226–231. http://www.jstor.org/stable/2117834

ISLOMIY MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY RAG‘BATLANTIRISHINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamatkulov Humoyun Bobir-ugli
TDIU tadqiqotchisi
Email: m.nmamatkulo@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomiy mikromoliya tashkilotlarining kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. O‘zbekiston sharoitida islomiy moliya tamoyillarini mikromoliya tizimiga joriy etish imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada islomiy mikromoliya vositalarining (mudaraba, murabaha, ijara, musharaka) kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ijobiy ta’siri, ularning moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi roli iqtisodiy tahlil orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: islomiy mikromoliya, kichik biznes, moliyaviy rag‘batlantirish, mudaraba, musharaka, moliya bozori, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the role and significance of Islamic microfinance institutions in supporting small business development. It explores, on a scientific basis, the prospects for introducing Islamic finance principles into the microfinance system of Uzbekistan, existing challenges, and possible solutions. The study also examines the positive impact of Islamic microfinance instruments — such as mudarabah, murabaha, ijarah, and musharakah — on the activities of small business entities and their role in strengthening financial stability through economic analysis.

Key words: Islamic microfinance, small business, financial support, mudarabah, musharakah, financial market, economic stability.

Аннотация: В данной статье проанализирована роль и значение исламских микрофинансовых организаций в поддержке малого бизнеса. На научной основе исследованы возможности внедрения принципов исламских финансов в микрофинансовую систему Узбекистана, существующие проблемы и пути их решения. Кроме того, в статье раскрывается положительное влияние исламских микрофинансовых инструментов — мудараба, мурабаха, иджара, мушарака — на деятельность субъектов малого предпринимательства, а также их роль в укреплении финансовой устойчивости с помощью экономического анализа.

Ключевые слова: исламские микрофинансы, малый бизнес, финансовое стимулирование, мудараба, мушарака, финансовый рынок, экономическая стабильность.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni sezilarli darajada oshmoqda. Ushbu jarayonda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biznesning rivojlanishi nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratadi, balki mamlakat yalpi ichki mahsulotida barqaror o‘sishni ta’minlaydi. Shu jihatdan, islomiy mikromoliya tashkilotlari iqtisodiyotning ushbu segmentini moliyaviy jihatdan rag‘batlantirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari — foizsiz moliya, risklarni adolatli taqsimlash, real aktivlarga asoslanish va ijtimoiy adolatni ta’minlash — mikromoliya tizimiga ham xos bo‘lishi mumkin. Dunyo tajribasi, xususan, Malayziya, Indoneziya, Bahrayn va Turkiya mamlakatlarida islomiy mikromoliya tashkilotlari kichik biznesning o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston uchun ham ushbu modelni joriy etish orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, iqtisodiy faollikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Asosiy qism

Kichik biznes bugungi kunda milliy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. U mamlakat yalpi ichki mahsulotida sezilarli ulushni egallaydi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va ijtimoiy qatlamlar

o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va barqaror rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so‘nggi yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan, kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud an’anaviy kredit tizimlari barcha kichik tadbirkorlar uchun teng imkoniyat yaratmaydi. Ayniqsa, garov ta’minoti yetishmasligi, yuqori foiz stavkalari va kredit olish jarayonining murakkabligi tufayli ko‘plab kichik korxonalar moliyaviy resurslardan foydalana olmayapti.

Shu nuqtai nazardan, islomiy mikromoliya tizimi kichik biznesni moliyaviy rag‘batlantirishning muqobil, adolatli va barqaror mexanizmi sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu tizimning o‘ziga xos jihati — foizsiz moliyalashtirish tamoyiliga asoslanishdir. Ya’ni, moliyaviy resurslardan foydalanganlik uchun foiz undirilmaydi, balki foyda va zarar tomonlar o‘rtasida adolatli tarzda taqsimlanadi.

Islomiy mikromoliyaning asosiy vositalaridan biri mudaraba shartnomasi bo‘lib, unda bir tomon (sarmoyador) kapitalni ta’minlaydi, ikkinchi tomon (tadbirkor) esa mehnat va tajribasi bilan loyihani amalga oshiradi. Foyda oldindan kelishilgan nisbatda bo‘linadi, zarar esa faqat sarmoyador tomonidan ko‘tariladi. Bunday yondashuv kichik biznes vakillariga moliyaviy riskni kamaytirgan holda o‘z g‘oyalarini amaliyotga joriy etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, musharaka modeli ham kichik biznes uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu modelda bir necha tomon o‘z kapitalini qo‘shib, sheriklik asosida faoliyat yuritadi. Musharaka orqali kichik biznes subyektlari o‘z ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish yoki eksport salohiyatini oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Murabaha shartnomasi esa kichik biznesning asbob-uskunalar, xomashyo yoki transport vositalarini xarid qilishida samarali moliyaviy instrument sifatida qo‘llaniladi. Bu usulda islomiy mikromoliya tashkiloti tovarni xarid qilib, mijozga ustama bilan, lekin foizsiz tarzda sotadi. Shu orqali kichik korxona nafaqat zarur resurslarni qo‘lga kiritadi, balki o‘z faoliyatini bosqichma-bosqich kengaytirish imkoniga ega bo‘ladi.

Islomiy mikromoliyaning afzalliklari orasida ijtimoiy adolat, moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirish kabi jihatlar alohida o‘rin tutadi. Xususan, bu tizim aholining past daromadli qatlamlari, ayollar va yosh tadbirkorlar uchun moliyaviy kirish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa iqtisodiyotda tadbirkorlik faolligini oshirib, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishi mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, kichik bizneslar rivojlanayotgan davlatlarda bandlikning 60% dan ortig‘ini ta’minlaydi va yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 40% ini shakllantiradi. O‘zbekistonda esa 2024-yil holatiga ko‘ra, kichik biznesning YAIMdagi ulushi 55% dan oshgan.

Shunday ekan, islomiy mikromoliya tizimi orqali kichik biznes subyektlariga moslashuvchan, foizsiz va ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy vositalarni taklif etish ularning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va eksport salohiyatini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi.

Islomiy mikromoliyaning kichik biznesni iqtisodiy rivojlantirishdagi o‘rni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun foizsiz va risklarni teng taqsimlaydigan moliyaviy imkoniyatlar yaratadi;
- Tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularni mustaqil qaror qabul qilishga rag‘batlantiradi;
- Ishlab chiqarish sohasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun mos muhit yaratadi;
- Ijtimoiy inklyuziyani kengaytirib, iqtisodiy faol aholining barcha qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etadi;
- Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali makroiqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 29-maqsadda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish belgilangan. 85-maqsadda mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish, kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratish, shuningdek, ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish kabilar bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi ta’kidlangan.[1] Ushbu vazifalarni amalga oshirish borasida ilmiy izlanishlar olib borish, haqiqiy ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda ekonometrik modellashtirish asosida ilmiy asoslangan yo‘nalishlarni belgilash talab etilmoqda.

Shunday ekan, bugungi kunda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuv sharoitida iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog’liqliklar ustida tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga mamlakatda kiritilayotgan investitsiyalar hajmi (Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida) ning ta’sirini o‘rganish maqsadida matematik-statistik usullar qo‘llanilgan. Shuningdek, mamlakat yalpi ichki mahsulotining kiritilayotgan investitsiyalar hajmiga bog’liqligi ekonometrik modeli ishlab chiqilgan (1).

$$y = a_0 + a_1 * x_1 + \xi \qquad (1)$$

Eng kichik kvadratlar usuli yordamida chiziqli regressiya tenglamasining parametrlari aniqlangan hamda modelga kiritilgan omillar o‘rtasida korrelyatsion tahlil (2) amalga oshirilgan. Respublika yalpi ichki mahsuloti o‘zgarishini ekonometrik tahlil qilishda 2015-2024 yillardagi statistik ma’lumotlardan foydalanilgan.

$$r_{yx} = \frac{\overline{yx} - \overline{y} * \overline{x}}{\sqrt{\left(\overline{y^2} - \left(\overline{y}\right)^2\right)} * \sqrt{\left(\overline{x^2} - \left(\overline{x}\right)^2\right)}} \qquad (2)$$

Bu yerda y – natijaviy omil, $x_1, x_2, ..., x_n$ - ta‘sir etuvchi omillar va $a_0, a_1, a_2, ..., a_n$ - regressiya tenglamasining parametrlari. Eng kichik kvadratlar usulini (OLS) qo‘llash orqali quyidagi normal tenglamalar tizimi (3) yordamida regressiya tenglamasining parametrlarini aniqlash mumkin bo‘ladi:[2]

$$\begin{cases} n * a_0 + a_1 \sum x_1 + a_2 \sum x_2 + ... + a_n \sum x_n = \sum y \\ a_0 \sum x_1 + a_1 \sum x_1^2 + a_2 \sum x_1 * x_2 + ... + a_n \sum x_1 * x_n = \sum y * x_1 \\ ..... \\ a_0 \sum x_n + a_1 \sum x_n * x_1 + a_2 \sum x_n * x_2 + ... + a_n \sum x_n^2 = \sum y * x_n \end{cases} \qquad (3)$$

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotning o‘sishini o‘lchashda jami daromadlarning (Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning) har xil indikatoraridan foydalanish mumkin. Umumiy o‘sish darajasi aslida yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdori bilan

1 https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

2 Эконометрика: учебник для магистров / И. И. Елисеева [и др.]; под ред. И. И. Елисеевой. — М.: Издательство Юрайт, 2014. — 453 с.

o‘lchanadi.Shu bilan birgalikda, bu ko‘rsatkichlarning bajarayotgan vazifasi va miqdoriga qarab YaIM yoki milliy daromad (MD) ham bo‘lishi mumkin. Bu ikki ko‘rsatkich bir-biriga juda yaqin. YaMD YaIM kabi shu davlat aholisi olayotgan daromad summasini ko‘rsatadi. Shu sababli undan aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad darajasini va dinamikasini aniqlayotganda foydalanish mumkin.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar va mutloq miqdordagi ko‘rsatkichlar dinamikasi У (t – vaqt indeksi) birgalikda o‘sish jarayonini bildiradi. Investitsiyalar (I) resurslar texnik yangiliklarining moddiylashishini imkoniyatlarining o‘sishi anglatsa, iste’mol hajmi (S) iqtisodiyotning yashash darajasining oshishini va pirovard maqsadini bildiradi.

Investitsiya va iste’mol orasida yetarlicha muqobillik bor, sababi, joriy iste’mol hajmining o‘sishi daromaddagi investitsiyaning ulushini pasaytirib, iqtisodiy o‘sish imkoniyatini qisqartiradi.

Umuman aytganda, milliy iqtisodiyot holatini tahlil qilishda qo‘llaniladigan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri bu – yalpi ichki mahsulot (YaIM) hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakat hududida ma’lum bir vaqt oralig‘ida ishlab chiqarilgan yakuniy mahsulot va xizmatlar qiymatini ifodalaydi. YaIM milliy iqtisodiy faoliyatning umumiy hajmini aks ettirib, ishlab chiqarish va iste’mol, investitsiyalar, tashqi savdo kabi asosiy iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risida mukammal tasavvur beradi.

Yalpi ichki mahsulotning hududiy taqsimoti orqali respublika bo‘ylab iqtisodiy tengsizlik darajasi ham ko‘rinib turadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori esa aholining farovonlik darajasi, bandlik holati va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni o‘lchashda muhim mezon hisoblanadi. Shu sababli, ushbu ko‘rsatkichlar asosida hududiy farqlarni aniqlash, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish dolzarb masala sanaladi.

Investitsiya tushunchasi bugungi zamonaviy iqtisodiy tizimda markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu atama ostida, odatda, iqtisodiy faoliyat subyektlari tomonidan ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish faoliyatini rivojlantirish, texnik-texnologik yangilanishlarni joriy qilish, ish o‘rinlarini kengaytirish va uzoq muddatli daromadga erishish maqsadida resurslarning qo‘yilishi tushuniladi. Investitsiyalar iqtisodiyotning strukturaviy o‘zgarishlarini amalga oshirishda, raqobatbardoshlikni oshirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Investitsiyalarning yuqori hajmda amalga oshirilishi natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning o‘sishi kuzatiladi, ish bilan bandlik darajasi oshadi, aholi daromadlari ko‘payadi. Aynan shu sababli davlatlar o‘z investitsion siyosatlarini ishlab chiqib, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratishga intiladilar.[3]

Ayni paytda investitsiyalar nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy taraqqiyotda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar aholining hayot sifatini yaxshilash orqali uzoq muddatli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida investitsion muhit tubdan o‘zgarmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar doirasida xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi, investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy baza yangilandi. Investitsiyalar oqimini jalb qilish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, bojxona va soliq imtiyozlari joriy etildi, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keng joriy etilmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2015–2024 yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga, yangi loyihalarning amalga oshirilishiga va infratuzilmaning zamonaviylashuviga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi ham izchil ortib, iqtisodiyotning strategik sohalariga yo‘naltirildi.

Zamonaviy iqtisodiyotni tahlil qilishda va undagi jarayonlarni boshqarishda iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash va modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiy tizim murakkab, ko‘p omilli va o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan elementlardan tashkil topgan. Har qanday iqtisodiy ko‘rsatkich boshqa bir yoki bir nechta omillar ta’sirida shakllanadi. Shu sababli, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, ularni iqtisodiy model vositasida ifodalash va tahlil qilish iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

N.Sh. Kremer, B.A. Putkolarning “Ekonometrika” nomli kitobida berilgan taniqli olimlarning ta’riflariga ko‘ra ekonometrikaning turlicha talqin qilinishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lamiz. Ekonometrika –iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘lchash uchun statistik usullarni ishlab chiqish va qo‘llash to‘g‘risidagi iqtisodiyotning bir bo‘limidir (S.Fisher va boshqalar). Ekonometrikaning asosiy vazifasi – iqtisodiy mulohazalarni empirik mazmun bilan to‘ldirishdir (L.Kleyn). Ekonometrikaning maqsadi – iqtisodiy qonuniyatlarning empirik xulosasidan iborat (E.Malenvo). Atrofimizdagi iqtisodiy olamni o‘rganishimizda ekonometrika – bu bir vaqtning o‘zida ham teleskop va ham mikroskopdir (S.Grilixes), deya ta’riflar berilgan. S.A.Ayvazyan esa ekonometrika iqtisodiy nazariya, iqtisodiy statistika va matematik statistika vositalari asosida sifatiy bog‘liqliklarga miqdoriy ifodalarni berishga imkon beruvchi usullar va modellar majmuini birlashtiradi, deya ta’kilaydi.[4]

3 Shodmonov Sh.Sh., G’afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik), T.: Fan va texnologiya,2010, 756b.

4 Эконометрика: учебник для студентов вузов / Н.Ш. Кремер, Б.А. Путко; под ред. Н.Ш. Кремера. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. — 328 с.

V.P.Noskoning “Ekonometrika” nomli darsligida: Ekonometrika – ehtimollar nazariyasi va matematik statistika apparatlari yordamida real statistik ma’lumotlar asosida turli iqtisodiy ko‘rsatkichlar (omillar) o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish usullari majmuidir, deya ta’rif berilgan. Bu usullar yordamida iqtisodiy nazariya taklif etgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar orasida ma’lum bog‘lanishlar mavjudligi haqidagi turli farazlarni oydinlashtirish yoki rad etish, yangi, ilgari noma’lum bog‘lanishlarni aniqlash, hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning kelajakdagi qiymatlarini oldindan aytib berish mumkin. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot bilan bir qatorda ekonometrika zamonaviy iqtisodiy ta’limning asosiy fanlaridan biridir. Ekonometrika statistik ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullaridan foydalanadi. Shu bilan birga, ba’zi modellar va usullar ko‘proq mikrodarajadagi tadqiqotlarda, boshqalari esa makrodarajadagi tadqiqotlarda qo‘llaniladi.[5]

I.I.Yeliseyeva va boshqalarning “Ekonometrika” nomli darsligida ekonometrikaning paydo bo‘lishi va rivojlanishining qisqacha tarixiy sharhi, ekonometrik tahlil nuqtai nazaridan bog‘langan regressiyani muhokama qilish, ya’ni regressiya tenglamasining spesifikatsiyasi va uning asl ma’lumotlarga muvofiqligi, qoldiqlarning xususiyatlari muhokama qilinadi va eng oddiy ekonometrik testlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatiladi. Shuningdek, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning tabiatiga mos keladigan ekonometrik modellashtirish taqdimoti, avvalo, fazoviy ma’lumotlardan foydalanish xolatini va bu xolatda yuzaga keladigan barcha muammolar: samaradorlikning chiziqsizligi, o‘zgaruvchilarning multikolleniarligi, tasodifiy qoldiqlarning geteroskedastikligi ko‘rib chiqiladi.[6]

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik — bu ikki yoki undan ortiq ko‘rsatkichlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan statistik yoki funktsional munosabatdir. Masalan, investitsiyalar va yalpi ichki mahsulot (YaIM), pul massasi va inflyatsiya, iste’mol va real daromadlar kabi ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqliklar iqtisodiy tahlil ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi.

Ekonometrik model orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

- asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga omillarning ta’siri baholanadi;
- kelajakdagi iqtisodiy o‘zgarishlar prognoz qilinadi;
- makroiqtisodiy indikatorlar asosida siyosiy qarorlar ishlab chiqiladi.

Masalan, O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida investitsiya va YaIM o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtirish orqali:

- investitsiya siyosatining qaysi yo‘nalishi YaIMni oshirishda samaraliroq ekanligi aniqlanadi;
- hududlar kesimida iqtisodiy faollik taqqoslanadi;
- makroiqtisodiy barqarorlik uchun optimal investitsiya hajmi baholanadi.

Endi O‘zbekiston Respublikasida 2010–2023 yillar oralig‘ida yalpi ichki mahsulot (Y) va investitsiyalar hajmi (X) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ekonometrik tahlil qilamiz. Mamlakatning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari sifatida yalpi ichki mahsulot va va investitsiya kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar tanlab olindi.

Ekonometrik modellashtirish uchun tanlab olingan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning matematik-statistik usullar orqali tahlili ularning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganishga imkon beradi. Ayniqsa, korrelyatsion va regressiyaviy tahlil usullari yordamida investitsiyalarning YaIMga ta’siri o‘lchanadi, prognozlash imkoniyati yaratiladi. 2015–2024 yillardagi O‘zbekiston Respublikasining YaIM va investitsiyalar hajmi 1-jadvalda berilgan (1-jadval).[7]

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasining YaIM va investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi[8]

Yillar	YaIM (trln so‘m)	Investitsiya (mlrd so‘m)
2015	221,00	44,00
2016	255,00	51,00
2017	356,00	72,00
2018	473,00	124,00
2019	594,00	195,00
2020	668,00	210,00
2021	820,00	239,00
2022	995,00	266,00
2023	1204,00	356,00
2024	1454,6	437,00

5 В.П.Носко “Эконометрика для начинающих”, Институт экономики переходного периода, / М., 2000 г.,/ 255 с.
6 Эконометрика: учебник для магистров / И. И. Елисеева [и др.]; под ред. И. И. Елисеевой. — М.: Издательство Юрайт, 2014. — 453 с.
7 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2024 yil uchun dastlabki ma’lumotlar) asosida muallif hisob-kitoblari
8 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Jadval ma‘lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, mazkur ko‘rsatkichlarning keying yillarda o‘sib borishi kuzatilmoqda. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atlarini tahlil qilsak, davlat tomonidan iqtisodiy o‘sishga erishish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning natijasida mazkur ko‘rsatkichning o‘sib borishini ko‘rishimiz mumkin. Faqatgina pandemiya munosabati bilan 2020 yilda ko‘rsatkichning bir oz pasayishi kuzatilgan bo‘lsada, keyingi yillarda yana o‘sish sur’ati ta’minlanmoqda. Umuman olganda, 2015-2024 yillarda o‘rtacha absolyut o‘sish miqdori 137,06 trln so‘mni tashkil etmoqda. Yalpi ichki mahsulot hajmi 2023 yil bilan solishtirilganda 6,5 % ga o‘sgan.

1-jadval ma’lumotlaridan esa mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilayotgan investisiyalar hajmining matematik statistik tahliliga asosan, keyingi yillarda o‘sish kuzatilmoqda. Pandemiya oqibatlari barcha davlatlarda kuzatilgani kabi, O‘zbekiston Respublikasida ham 2020 yilda bir oz pasayish kuzatilmoqda. So‘nggi yillarda esa asosiy kapitalga kiritilayotgan investisiyalarning hajmi absolyut o‘sish ko‘rsatkichi o‘rtacha 43,6 mlrd so‘mni tashkil etmoqda. Investisiyalarning o‘sish sur’ati esa bazis yilga (2015) nisbatan o‘rtacha 4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, zanjirli o‘sish sur’ati ham o‘rtacha 3-4 % atrofida bo‘layotganini ta’kidlash mumkin.

Yalpi ichki mahsulot va investisiyalar o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlik OLS (eng kichik kvadratlar) metodi yordamida tahlil qilinadi. Ekonometrik modellashtirishda foydalanilgan ma’lumotlar 2015-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan 15 yillik kuzatuvlarni o‘z ichiga oladi. Mustaqil o‘zgaruvchi sifatida investitsiyalar hajmi (X), bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida esa YaIM hajmi (Y) qabul qilinadi. 1-jadval ma’lumotlari ekonometrik modellashtirish bazasini aks ettiradi.

Yalpi ichki mahsulot hajmi va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (investitsiya) haqida ma’lumotlarni tahlil qilgandan so‘ng chiziqli regressiya tenglamasini tuzamiz (1). Bunda chiziqli regressiya tenglamasining a_0 va a_1 parametrlarini hisoblash talab etiladi.

$$a_1 = \frac{\overline{y \cdot x} - \overline{y}\,\overline{x}}{\overline{x^2} - \overline{x}^2} = 3{,}20$$

$$a_0 = \overline{y} - a_1 \cdot \overline{x} = 61{,}04$$

Parametrlarning hosil bo‘lgan qiymatlarini (1) tenglamaning o‘rinlariga qo‘yib:

$$\hat{Y} = 61{,}04 + 3{,}20 \cdot x + \xi \qquad (5)$$

regressiya tenglamasini olamiz. Bu tenglamadan ko‘rinib turibdiki, investitsiyalar hajmi 1 mlrd so‘mga ortsa, YAIM hajmi taxminan 3,2 trln so‘mga oshirishini aytish mumkin. Chiziqli bog’lanish zichligini korrelyatsiya koeffitsienti baholab beradi. Hisob-kitoblarga asosan, o‘rganilayotgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelyasiya koeffisiyenti quyidagiga teng bo‘ldi:

$$r_{xy} = b\frac{\sigma_x}{\sigma_y} = 0{,}99$$

Bu koeffisiyent juda yuqori (1 ga yaqin) bo‘lib, zich musbat bog‘liqlikni bildiradi.

Determinatsiya koeffitsienti natijasi esa quyidagicha:

$$r_{xy}^2 = 0{,}98$$

Ushbu natija mamlakatning YAIM ko‘rsatkichi bilan hajmining ta’sir etuvchi omil sifatida investitsiyalar o‘rtasidagi bog’lanish zichligi yuqori darajada bo‘lib 0,9839 ga teng va y ning 98 foizi x omilning ya`ni asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi bilan bog’liqligini anglatadi.

Ekonometrik modellashtirishda elastiklik koeffisiyentidan ta’sir etuvchi omilning natijaviy omildagi nisbiy ulushini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Mazkur tadqiqotimizda elastiklikning umumiy koeffitsientini hisoblash natijasi quyidagiga teng bo‘ldi:

$$E = a_1 \frac{\overline{x}}{\overline{y}} = 0{,}86$$

Elastiklikning umumiy koeffisienti omil belgisi ya`ni investitsiyalar hajmi 1% ga o’zgarganda y natijaviy ko’rsatkich ya`ni YaIM taxminan necha foiz o’zgarishini ko’rsatadi. Tadqiqotda olingan natijaga asosn, agar investisiyalar hajmi 1% ga oshirilsa, yalpi ichki mahsulot hajmi o‘rtacha 86% ga oshishi mumkin. Bu esa iqtisodiy jihatdan sezilarli ta’sir hisoblanadi, va investitsiyalar YAIM o‘sishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yalpi ichki mahsulot zamonaviy iqtisodiy tahlilning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan barcha asosiy jarayonlarni kompleks ifodalashga xizmat qiladi. Uning hisoblash usullari, tarkibiy tuzilmasi va mazmuni orqali iqtisodiy faollik, davlat siyosati samaradorligi, aholi farovonligi darajasi va xalqaro iqtisodiy pozitsiya aniqlanadi. Shu sababli, YaIM tahlili iqtisodiy siyosatni shakllantirish va rejalashtirishda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy o‘sishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) hamda uni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan investitsiya hajmi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ta’sir darajasini aniqlash maqsad qilingan. Tanlangan ko‘rsatkichlar bevosita mamlakat iqtisodiy faoliyatining holatini aks ettirib, iqtisodiy strategiya va siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ekonometrik tahlil qilish maqsadida 2015-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrdagi rasmiy statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan e’lon qilingan ochiq manbalardan olindi dan foydalanildi. Ko‘rib chiqilayotgan davr mobaynida mamlakatda olib borilgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhiti, xalqaro savdo aloqalari, tashqi qarzlar va boshqa makroiqtisodiy omillar YAIM va investitsiya hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Statistik tahlilda foydalanilgan metodlardan biri bu – korrelatsiya koeffitsientini aniqlash bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkich yordamida investitsiyalarning YAIMga ta’siri yuqori darajada ekani, ya’ni zich bog‘liqlik tasdiqlandi. Regression tahlil orqali esa tuzilgan chiziqli tenglama asosida investisiyalarning 1 mlrd so‘mga o‘zgarishi mamlakat yalpi ichki mahsulotning 3,2 trln so‘mga o‘zgarishi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni iqtisodiy statistik tahlil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish iqtisodiyotdagi narxlar o‘zgarishini o‘z vaqtida va aniqroq o‘lchash imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar turli manbalardan katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa vaqt o‘tishi bilan narxlarning tendentsiyalarini aniqlashga yordam beradi. Biroq, ushbu usullar tanlovning noto’g’riligi, o’lchov xatosi va ma’lumotlarning maxfiyligi bilan bog’liq muammolarga duch kelishi mumkinligini tan olish muhimdir. Shu sababli, ushbu usullarga ehtiyotkorlik bilan yondashish va qo’llaniladigan ma’lumotlar manbalari hamda ekonometrik usullarning cheklovlarini diqqat bilan ko’rib chiqish muhimdir. Kelgusi yillarda mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yalpi ichki mahsulot hajmining ortisi va tarkibiy islohotlarning faol davom ettirilishi asosiy ssenariy shartlari etib belgilangan bo‘lsa, noaniqliklarning yanada kuchayishi va iqtisodiy sharoitlarda xatarli shoklarning yuzaga kelishi muqobil ssenariy shartlari sifatida qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti strategiyasi” to‘g’risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. SH.SH. Shodmonov, .U.V G‘ofurov Iqtisodiy nazariya. Ma’ruzalar matni.- T:“Fan va texnalogiya” nashr-2018.
3. Alimov R. X., Almuradov A. A., Xomidov S. O. Ekonometrik modellashtirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2019. –122b.
4. Эконометрика: учебник для студентов вузов / Н.Ш. Кремер, Б.А. Путко; под ред. Н.Ш. Кремера. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. — 328 с.
5. В.П.Носко “Эконометрика для начинающих”, Институт экономики переходного периода, / М., 2000 г.,/ 255 с.
6. Mustafakulov Sh.I., Negmatov J.B., Murodullayev N.N., Jo‘rayev B.R., Ekonometrika, Ilmiy texnika axborot-press nashriyoti, 2017 y.,154b.
7. Эконометрика: учебник для магистров / И. И. Елисеева [и др.]; под ред. И. И. Елисеевой. — М.: Издательство Юрайт, 2014. — 453 с.
8. http://stat.uz.
9. www.lex.uz

YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna
TDIU, i.f.d., prof. Marketing kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Maqolada yashil marketing va energiya samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik keng tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida yashil marketingning energiya tejash tashabbuslari bilan uyg‘unlashtirilishi samaradorlikning oshirilishi, brend imijining yaxshilanishi va korxonalarning raqobatbardoshligining kuchaytirilishi bilan izohlandi. Davlat siyosati hamda xalqaro tajribalar tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi omillar sifatida muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib o‘tildi. Ushbu yondashuv orqali iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik foydalar birlashtirilib, barqaror boshqaruv tizimining shakllanishi ta’minlanishi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish, brend imiji, raqobatbardoshlik.

Abstract: The interrelation between green marketing and energy efficiency has been analyzed in this article. It has been shown that the integration of green marketing with energy-saving initiatives leads to improved efficiency, stronger brand image, and increased competitiveness of enterprises. It has also been noted that state policy and international experience play an important role as supporting factors. It has been emphasized that this approach combines economic, social, and environmental benefits while ensuring the formation of a sustainable management system.

Key words: green marketing, energy efficiency, sustainable development, brand image, competitiveness.

Аннотация: В статье проведён анализ взаимосвязи между зелёным маркетингом и энергоэффективностью. Показано, что интеграция зелёного маркетинга с инициативами по энергосбережению способствует повышению эффективности, укреплению имиджа бренда и усилению конкурентоспособности предприятий. Отмечено, что государственная политика и международный опыт играют важную роль как поддерживающие факторы. Подчёркнуто, что благодаря такому подходу объединяются экономические, социальные и экологические выгоды, а также обеспечивается формирование устойчивой системы управления.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, энергоэффективность, устойчивое развитие, имидж бренда, конкурентоспособность.

KIRISH

Global iqtisodiy o‘sish jarayonida energiya resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlik masalalari korxonalar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bir qatorda energiya sarfi ham ko‘paymoqda, bu esa korxonalarni samarali boshqaruv yondashuvlarini izlashga undaydi. Shu jarayonda yashil marketing konsepsiyasi nafaqat mahsulot va xizmatlarni bozorga olib chiqish vositasi, balki energiya samaradorligini oshirish va ekologik mas’uliyatni ta’minlash mexanizmi sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlarda yashil marketingning asosiy tamoyillari sifatida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, resurslardan tejab foydalanish va iste’molchilar ongida barqarorlik g‘oyalarini mustahkamlash ko‘rsatiladi. Korxonalar uchun bunday yondashuv iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda bozor imijini yaxshilash imkonini ham beradi. Ayniqsa, energiya tejash texnologiyalarini joriy etish va ushbu yutuqlarni marketing strategiyasi orqali keng auditoriyaga yetkazish raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yashil marketing va energiya samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarbdir. Bu integratsiya korxonalarning ichki operatsion faoliyatini takomillashtirish, tashqi auditoriyalar bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish va barqaror rivojlanish talablariga moslashish imkonini beradi. Shuningdek, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar, soliq imtiyozlari va xalqaro tajribalardan foydalanish korxonalarni yanada samarali ishlashga undaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi yashil marketing yondashuvi orqali energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda korxonalar faoliyatida bu yondashuvning

afzalliklarini aniqlashdan iborat. Shu yo‘l bilan ilmiy natijalar amaliyotga tatbiq etilib, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikka erishish imkoniyati kengaytiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil marketing konsepsiyasi ilmiy manbalarda asosan korxonalarning bozor faoliyatini ekologik tamoyillar asosida tashkil etish bilan bog‘liq tushuncha sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv kompaniyalarning mahsulot va xizmatlarini nafaqat tijorat maqsadida, balki ekologik mas’uliyat doirasida taqdim etishiga asoslanadi. Tadqiqotlarda yashil marketing ekologik xavfsizlik, resurslardan samarali foydalanish va korporativ ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida ko‘riladi [1]. Bu jihat ayniqsa xalqaro amaliyotlarda keng ko‘rinish topgan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda yashil strategiyalar korxona rivojlanishining asosiy vektori sifatida shakllangan [2].

Adabiyotlarda yashil marketingning korxona samaradorligiga ta’siri ham keng muhokama qilingan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, energiyani tejash va chiqindilarni kamaytirish kabi tashabbuslar marketing strategiyasi orqali bozorga integratsiya qilinganda, ular nafaqat ichki samaradorlikni oshiradi, balki tashqi auditoriyalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3]. Aynan shuning uchun ham yashil marketing strategiyasi iste’molchilarning ishonchini oshiruvchi va brend sodiqligini mustahkamlovchi kuchli vosita sifatida talqin qilinadi [4]. Bunday yondashuv kompaniya raqobatbardoshligini ham sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Yashil marketing va energiya samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik alohida e’tibor qaratilgan mavzudir. Turli tadqiqotlarda energiya samaradorligi choralari faqat texnik darajadagi yangiliklar sifatida emas, balki korxonaning tashqi bozor strategiyasi bilan chambarchas bog‘langan holda amalga oshirilishi zarurligi ta’kidlanadi [5]. Masalan, ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishdan tashqari, ushbu yangiliklarni marketing kommunikatsiyasida yoritish orqali korxona o‘zining ekologik mas’uliyatini ko‘rsatadi va bu jarayon barqaror rivojlanish strategiyasiga integratsiyalanadi [6]. Shu bilan birga, bu yondashuv iste’molchilar ongida brendni ekologik qadriyatlarga sodiq tashkilot sifatida shakllantiradi [7].

Ko‘plab manbalarda energiya samaradorligini oshirishda siyosiy va tizimli omillarning ahamiyati ham alohida qayd etiladi. Davlat tomonidan beriladigan rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar, ekologik soliq imtiyozlari yoki energiya samaradorligi dasturlari kompaniyalarni yashil strategiyalarni joriy qilishga undaydi [8]. Shu jihatdan qaraganda, yashil marketing faqatgina korxonaning ichki tashabbusi bo‘lib qolmay, balki tashqi siyosiy va institutsional qo‘llab-quvvatlash bilan yanada samaraliroq amalga oshiriladi [9]. Natijada, bunday kompleks yondashuv kompaniyalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi va ularni barqaror rivojlanish mezonlariga moslashtiradi [10].

Innovatsiyalar va ekosamaradorlik masalasi ham yashil marketing konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘riladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yangi texnologiyalarni joriy etish va ularni yashil marketing orqali targ‘ib qilish korxonalarning nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorligini ham oshiradi [11]. Bu jarayon korxona faoliyatini global barqarorlik maqsadlariga moslashtiradi va innovatsiyalarni strategik afzallik sifatida taqdim etishga yordam beradi [12].

Adabiyotlarda keltirilgan ko‘plab amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing va energiya samaradorligi bir-birini to‘ldiruvchi konsepsiyalardir. Masalan, xalqaro kompaniyalar energiya tejamkorlik tashabbuslarini faqat texnik yutuq sifatida emas, balki marketing vositasi sifatida ham faol qo‘llashmoqda [13]. Natijada ular global bozorda ekologik jihatdan mas’uliyatli brend sifatida mustahkam o‘rin egallashga erishmoqda. Xuddi shu yondashuv mahalliy korxonalar tajribasida ham asta-sekin qaror topmoqda [14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot yashil marketing va energiya samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratildi. Asosiy yondashuv sifatida adabiyotlar sharhi qo‘llanilib, mavjud ilmiy manbalar va xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Yashil marketingning asosiy komponentlari hamda energiya samaradorligini oshirishga oid tashabbuslar qiyosiy ko‘rib chiqildi. Shu jarayonda ishlab chiqaruvchi korxonalar amaliyotlari va siyosiy hamda institutsional omillarning ta’siri solishtirildi. Ushbu metodologiya natijalarni izchil, takrorlanishsiz va konseptual bog‘liqlikda shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘rganilgan adabiyotlar asosida olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing konsepsiyasi va energiya samaradorligini oshirish strategiyalari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Har ikki yondashuv korxonaning umumiy samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi va ekologik me’yorlarga muvofiqligi bilan uzviy aloqador bo‘lib, ularni birgalikda joriy etish korxonalarga keng ko‘lamli foyda keltiradi [1].

Yashil marketing strategiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, mahsulot yoki xizmatni ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiq targ‘ib qilishni anglatadi. Bunda kompaniya faqat kommunikatsiyaviy vositalar orqali emas, balki o‘z ichki faoliyatida ham barqarorlik tamoyillariga amal qilgan holda harakat qiladi. Aynan shu tamoyillar asosida olib borilgan tahlillar natijasi ko‘rsatadiki, energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan texnik va boshqaruv qarorlari ko‘pincha marketing strategiyasining bir qismi sifatida joriy qilinadi [2].

Ushbu jihat ayniqsa ishlab chiqaruvchi sanoat tarmog‘ida faoliyat yurituvchi kichik va o‘rta korxonalar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu korxonalar, energiyani tejash bo‘yicha konkret texnologiyalarni joriy etishdan tashqari, ushbu jarayonni marketing kommunikatsiyasiga ham integratsiya qilish orqali bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga intiladi [3]. Bu holatda ekologik tashabbuslarning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari faqat ichki samaradorlik bilan cheklanmay, tashqi auditoriyalar oldidagi ishonchlilik darajasini ham oshiradi [4].

Korxonaning marketing yondashuvi energiya samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lishi kuzatildi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida energiyani tejovchi texnologiyalarning qo‘llanilishi, atrof-muhitga kam ta’sir qiluvchi materiallardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash imkoniyatlari mavjud bo‘lgan hollarda bu elementlar kompaniyaning marketing strategiyasida alohida urg‘u bilan ko‘rsatiladi [5]. Bunday integratsiya esa nafaqat xaridorlarning e’tiborini tortadi, balki korxona obro‘sini barqaror rivojlanish mezonlariga moslashtirish imkonini yaratadi [6].



1-rasm. Yashil marketing komponentlari

Yashil marketing strategiyasini tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlar quyidagi jadvalda keltirilgan. Bu komponentlar turli tadqiqotchilar tomonidan alohida ta’kidlangan bo‘lib, ular ichida brend imiji, mijoz sadoqati, ekologik afzalliklar va ijtimoiy mas’uliyat kabi jihatlar eng muhim omillar sifatida ko‘riladi.

Tahlillar natijasida yana bir muhim jihat aniqlanganki, energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha ichki tashabbuslar marketing orqali yoritilmasa, ularning bozor iqtisodiyotidagi qiymati pasayishi mumkin. Boshqacha aytganda, texnik va texnologik darajada sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, agar bu jarayonlar to‘g‘ri va tizimli ravishda marketing strategiyasiga kiritilmasa, ular brend kapitaliga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi [7]. Shu sababli, kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan energiya tejamkorlik choralarini marketing kommunikatsiyasi orqali jamoatchilikka yetkazish zarur hisoblanadi [8].

Yashil marketing korxonalarda energiyani tejash bo‘yicha qaror qabul qilish jarayoniga turtki beruvchi tashqi omillardan biri sifatida ham qaralmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish yoki ekologik sertifikatlarga ega bo‘lish istagida energiya samaradorligini oshirish choralari ko‘radi, keyinchalik bu holat ularning marketing kampaniyalarida asosiy pozitsiyani egallaydi [9]. Shunday hollarda ichki ishlab chiqarish faoliyati va tashqi bozor yondashuvi o‘zaro uzviy integratsiyalashgan holda namoyon bo‘ladi [10].

Bundan tashqari, energetik tejamkorlik bo‘yicha amalga oshirilgan tashabbuslarning siyosiy va institutsional darajada qo‘llab-quvvatlanishi ularning samaradorligini oshiradi. Xususan, hukumat tomonidan beriladigan moliyaviy rag‘batlar, energiya auditi dasturlari va ekologik soliq imtiyozlari ko‘plab korxonalarni yashil strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga undaydi [11]. Bu tashabbuslar marketing strategiyalariga qo‘shilganida esa, korxonalar ko‘p tomonlama iqtisodiy foyda oladi: xarajatlarni kamaytirish, jamoatchilik oldida ijobiy imij yaratish va ekologik javobgarlikni namoyon etish [12].

Yashil marketing orqali ekologik mas’uliyatli imijni shakllantirish, ayni vaqtda, energiya samaradorligi bilan bog‘liq amaliy choralarni ommaga yetkazish orqali sodir bo‘ladi. Bu jarayonda ishlab chiqaruvchi korxonalar nafaqat mahsulot yoki xizmatning afzalliklarini, balki ularning ishlab chiqarilishidagi resurs tejovchanligini ham asosiy qiymat sifatida taqdim etadi [13]. Shunday qilib, marketing yondashuvi nafaqat bozorni jalb qilish vositasi, balki ekologik samaradorlikni yoritish va uni tijoratlashtirish mexanizmi sifatida ham ishlaydi (2-rasm) [14].



2-rasm. Yashil marketing va energiya samaradorligi bo‘yicha xalqaro amaliyotlar taqqoslanishi

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar kesimida yashil marketing va energiya samaradorligi turlicha rivojlangan. Masalan, Germaniya va Yaponiya bu sohada yuqori darajadagi natijalarga erishgan bo‘lsa, AQSh va Xitoyda rivojlanish nisbatan o‘rta ko‘rsatkichda. O‘zbekiston tajribasi esa o‘sib borayotgan bosqichda bo‘lib, bu yo‘nalishda davlat siyosati va institutsional qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Diagrammada aynan mana shu taqqoslashlar ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida umumiy xulosa qilish mumkinki, yashil marketing va energiya samaradorligi bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro mustahkamlovchi strategik yondashuvlardir. Ularning uyg‘un ravishda joriy etilishi korxona faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini kompleks oshirish imkonini beradi. Aynan mana shu strategik uyg‘unlik asosida zamonaviy korxonalar barqaror rivojlanishning asosiy talablariga moslashib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil marketing va energiya samaradorligi o‘zaro uzviy bog‘langan strategik yo‘nalishlardir. Korxonalar faoliyatida ushbu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirish samaradorlikni oshirish, bozor ishonchini mustahkamlash va barqaror rivojlanish tamoyillariga moslashish imkonini beradi. Marketing strategiyalarida energiya tejash va ekologik tashabbuslarni yoritish korxonaning brend imijini kuchaytirib, mijozlar sadoqatini ta’minlaydi. Shu bilan birga, energiya samaradorligi bo‘yicha amaliy choralar xarajatlarni kamaytiradi, raqobatbardoshlikni oshiradi va ijtimoiy mas’uliyatni yanada yorqinroq namoyon etadi.

Xalqaro tajribalar tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, davlat siyosati va institutsional qo‘llab-quvvatlash yashil strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Korxonalar uchun energiya auditi dasturlari, soliq imtiyozlari va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari amaliy natijadorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bunday tashqi yordam ichki tashabbuslar bilan birgalikda barqarorlikka erishishda kuchli omil sifatida qaraladi.

Tahlillardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- korxona marketing strategiyalariga energiya samaradorligi tashabbuslarini to‘liq integratsiya qilish;
- ekologik yutuqlarni iste’molchilarga muntazam va aniq kommunikatsiya vositalari orqali yetkazish;
- energiya tejash texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish;

- davlat va xususiy sektor hamkorligida rag‘batlantiruvchi dasturlarni kengaytirish;
- xalqaro tajribalarni o‘rganish va moslashtirish orqali korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish.

Umuman olganda, yashil marketing va energiya samaradorligini uyg‘unlashtirish korxona faoliyatini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan yanada barqaror qiladi. Bu yondashuv nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki korxonalarni raqobatda ustunlikka erishtiruvchi ishonchli strategik vosita sifatida o‘zini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. König, W., Löbbe, S., Büttner, S., & Schneider, C. (2020). Establishing energy efficiency—Drivers for energy efficiency in German manufacturing small- and medium-sized enterprises. Energies, 13(19), 5144. https://doi.org/10.3390/en13195144
2. Obuya, E. N. (2003). A survey of the extent to which manufacturing firms in Nairobi practice green marketing (Master’s thesis). University of Nairobi. https://erepository.uonbi.ac.ke/handle/11295/22196
3. Agrawal, R., De Tommasi, L., Lyons, P., et al. (2023). Challenges and opportunities for improving energy efficiency in SMEs: Learnings from seven European projects. Energy Efficiency, 16, Article 17. https://doi.org/10.1007/s12053-023-10090-z
4. Bagodi, V., Sinha, D., & Naik, S. (2022). Energy conservation in a SME cluster: A system dynamics study. Energy Efficiency, 15, Article 22. https://doi.org/10.1007/s12053-022-10026-z
5. Gennitsaris, S., Oliveira, M. C., Vris, G., et al. (2023). Energy efficiency management in small and medium-sized enterprises: Current situation, case studies and best practices. Sustainability, 15(4), 3727. https://doi.org/10.3390/su15043727
6. Moravcikova, D., Krizanova, A., Kliestikova, J., & Rypakova, M. (2017). Green marketing as the source of the competitive advantage of the business. Sustainability, 9(12), 2218. https://doi.org/10.3390/su9122218
7. Majid, S., Zhang, X., Khaskheli, M. B., et al. (2023). Eco-efficiency, environmental and sustainable innovation in recycling energy and their effect on business performance: Evidence from European SMEs. Sustainability, 15(12), 9465. https://doi.org/10.3390/su15129465
8. Sugandini, D., Muafi, M., Susilowati, C., Siswanti, Y., & Syafri, W. (2020). Green supply management and green marketing strategy on green purchase intention: SMEs cases. Journal of Industrial Engineering and Management, 13(1), 79–92. https://doi.org/10.3926/jiem.2795
9. Hasan, Z., & Ali, N. A. (2015). The impact of green marketing strategy on the firm’s performance in Malaysia. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 172, 463–470. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.01.382
10. Simão, L., & Lisboa, A. (2017). Green marketing and green brand – The Toyota case. Procedia Manufacturing, 12, 183–194. https://doi.org/10.1016/j.promfg.2017.08.023
11. Threpsiadi, A., Wilkinson-Dix, J., Biele, E., et al. (2022). Best policy practices for supporting energy efficiency in SMEs in UK. Energy Evaluation Europe Conference. https://energy-evaluation.org/wp-content/uploads/2022/06/Best-Policy-Practices-for-Supporting-Energy-Efficiency-in-SMEs-in-UK-Energy-Evaluation.pdf
12. Ginsberg, J. M., & Bloom, P. N. (2004). Choosing the right green marketing strategy. MIT Sloan Management Review, 46(1), 79–88. https://sloanreview.mit.edu/article/choosing-the-right-green-marketing-strategy/
13. Saxena, R. P., & Khandelwal, P. K. (2010). Sustainable development through green marketing: The industry perspective. The International Journal of Environmental, Cultural, Economic and Social Sustainability, 6(6), 59–79. https://www.researchgate.net/publication/228981029
14. Advancing energy efficiency in SMEs: A case study-based framework for non-energy-intensive manufacturing companies. Cleaner Environmental Systems, 14, 100185. https://doi.org/10.1016/j.cesys.2024.100185

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY TINELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Bosh muharriri: Mo‘minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o‘rinbosari: Nasimov Rashid

Muharrir: Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih: Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner: Egamberdiev Elyor

“Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt” jurnali 23.10.2020-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№1124 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

TASHKENT, UZBEKISTAN

23-24 OCTOBER

UZBEKISTAN STRATEGY 2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24 OCTOBER 2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND FINANCIAL SYSTEM AND DIRECTIONS FOR DEVELOPING THE PRIVATE SECTOR

23-24 OCTOBER 2025

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН –2030»

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

23-24 OCTOBER 2025

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

UZBEKISTAN STRATEGY 2030

23-24 OCTOBER

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

https://strategy2025.tsue.uz/

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

ФОРУМ

UZBEKISTAN STRATEGY

Elektron pochta: ulugovabaxtiniso@gmail.com
Telefon: +998 93 529 83 29
Sayt: https://dtai.tsue.uz
Telegram: https://t.me/Ulugovabaxtiniso

ISSN: 2181-1016

ISBN 978-9910-8110-7-4

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030 UZBEKISTAN STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI VA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI